O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING

Soliq kodeksi

(yangi tahriri)

Matn lex.uz dagi 2026-yil 6-avgust holatidagi tahrir asosida

22 bo‘lim, 75 bob, 507 modda. Matn lotin yozuvida, keyingi o‘zgartirishlar haqidagi izohlar bilan.
Hisobchi — ma’lumot uchun; rasmiy matn lex.uz da. Amaldagi tahririni o‘sha yerda tekshiring.

Mundarija

UMUMIY QISM

I bo‘lim. Umumiy qoidalar

1-bob. Asosiy qoidalar

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan tartibga solinadigan munosabatlar
2-modda. Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik
3-modda. Normativ-huquqiy hujjatlarni yoki ularning qismlarini ushbu Kodeksning qoidalariga muvofiq emas deb topish
4-modda. Soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning vaqt bo‘yicha amal qilishi
5-modda. Soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan muddatlarni hisoblash tartibi
6-modda. O‘zbekiston Respublikasining soliq solishga oid xalqaro shartnomalarining qo‘llanilishi
7-modda. Soliq solish prinsiplari
8-modda. Majburiylik prinsipi
9-modda. Soliq solishning aniqligi va soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan hamkorligi prinsipi
10-modda. Adolatlilik prinsipi
11-modda. Soliq tizimining yagonaligi prinsipi
12-modda. Oshkoralik prinsipi
13-modda. Soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi
14-modda. Bitimlarning iqtisodiy mazmuni va ularni yuridik jihatdan rasmiylashtirish
15-modda. Lozim darajada ehtiyotkorlik

2-bob. O‘zbekiston Respublikasida soliqlar va yig‘imlar tizimi

16-modda. Soliqlar va yig‘imlar
17-modda. Soliqlarning va yig‘imlarning turlari
18-modda. Maxsus soliq rejimlari

3-bob. Soliq munosabatlarining subyektlari, ularning huquqlari va majburiyatlari

19-modda. Soliq munosabatlarining subyektlari va hujjatlar almashish tartibi
20-modda. Soliq to‘lovchilar
21-modda. Soliq to‘lovchilarning huquqlari
22-modda. Soliq to‘lovchilarning majburiyatlari
23-modda. Soliq agentlari
24-modda. Soliq to‘lovchining vakillari
25-modda. Vakolatli organlar
26-modda. Soliq organlarining huquqlari
27-modda. Soliq organlarining majburiyatlari
28-modda. Bojxona organlarining, yig‘imlarni undirishga doir vazifalarni amalga oshiruvchi davlat organlarining hamda tashkilotlarning huquq va majburiyatlari
29-modda. Soliq siri

4-bob. Ushbu Kodeksda qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar

30-modda. Jismoniy shaxslar
31-modda. Yakka tartibdagi tadbirkorlar
32-modda. Yuridik shaxslar va ularning alohida bo‘linmalari
33-modda. O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar. O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar
34-modda. Chet el yuridik shaxsi haqiqatda boshqariladigan joy
35-modda. Yuridik shaxsni tashkil etmagan chet el tuzilmalari
36-modda. Doimiy muassasa
37-modda. O‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxslar
38-modda. Yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi
39-modda. Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari
40-modda. Chet el kompaniyalari ustidan nazorat qilish va nazorat qiluvchi shaxslar
41-modda. Dividendlar va foizlar
42-modda. Daromad
43-modda. O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan daromadlar
44-modda. Royalti
45-modda. Tovarlar va xizmatlar. Tovarlar (xizmatlar) bozori
46-modda. Tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilish
47-modda. Hisobvaraq-faktura
48-modda. Maqsadli mablag‘lar
49-modda. Qimmatli qog‘ozlar

50-modda. Muddatli bitimlarning moliyaviy vositalari
51-modda. Xedjirlash
52-modda. Qimmatli qog‘ozlar bilan REPO operatsiyalari
53-modda. Qimmatli qog‘ozlarning qarz operatsiyalari
54-modda. Moliyaviy ijara va lizing
55-modda. Soliq qarzi
56-modda. Soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti
57-modda. Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari
58-modda. Notijorat tashkilotlar
59-modda. Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar
60-modda. Ushbu Kodeksda qo‘llaniladigan boshqa tushunchalar

5-bob. Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi

61-modda. Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi
62-modda. Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish shartlari
63-modda. Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma
64-modda. Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini ro‘yxatdan o‘tkazish
65-modda. Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani o‘zgartirish va uning amal qilish muddatini uzaytirish
66-modda. Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari
67-modda. Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi mas’ul ishtirokchisining huquqlari va majburiyatlari
68-modda. Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi faoliyatini tugatish

6-bob. Soliqlarning elementlari

69-modda. Soliqlarning elementlari
70-modda. Soliq solish obyekti
71-modda. Soliq bazasi
72-modda. Soliq stavkasi
73-modda. Soliq davri
74-modda. Soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi
75-modda. Soliq imtiyozlari

II bo‘lim. Soliq hisobi va soliq hisobotlari

7-bob. Soliq hisobi

76-modda. Soliq solish maqsadlarida hisobga olish va hisob hujjatlari
77-modda. Soliq solish maqsadlarida hisob siyosati
78-modda. Soliq solish maqsadlarida hisobni yuritish
79-modda. Hisob hujjatlarini tuzish va saqlashga doir talablar
80-modda. Alohida-alohida hisob va uni yuritish qoidalari

8-bob. Soliq hisoboti

81-modda. Soliq hisobotini shakllantirish va tuzish
82-modda. Soliq hisobotini taqdim etish tartibi
83-modda. Soliq hisobotiga o‘zgartirishlar kiritish
84-modda. Soliq hisobotini saqlash muddati

III bo‘lim. Soliq majburiyatini bajarish

9-bob. Soliq majburiyatini bajarishning umumiy qoidalari

85-modda. Soliq majburiyati
86-modda. Soliq majburiyatini bajarish tartibi va muddati
87-modda. Soliq majburiyatining tugatilishi
88-modda. Soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddatlari

10-bob. Soliq majburiyatini bajarish

89-modda. Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash
90-modda. Soliqlarni o‘tkazishga doir to‘lov topshiriqnomalarining banklar tomonidan bajarilishi
91-modda. Yuridik shaxs tugatilganda soliq majburiyatini bajarish
92-modda. Yuridik shaxs qayta tashkil etilganda soliq majburiyatini bajarish
93-modda. Mol-mulkni ishonchli boshqaruvga berishda soliq majburiyatini bajarish
94-modda. Jismoniy shaxs vafot etgan yoki u vafot etgan deb e’lon qilingan taqdirda soliq majburiyatini bajarish
95-modda. Bedarak yo‘qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning soliq majburiyatini bajarish
96-modda. Soliq qarzining undirilishini umidsiz deb e’tirof etish

11-bob. Soliqlarni to‘lash muddatlarini o‘zgartirish

97-modda. Soliqlarni to‘lash muddatlarini o‘zgartirishning umumiy shartlari
98-modda. Soliqni to‘lash muddatini o‘zgartirishni istisno etadigan holatlar
99-modda. Soliqlarni to‘lash muddatlarini o‘zgartirish to‘g‘risida qaror qabul qilishga vakolatli organlar
100-modda. Soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish shartlari
101-modda. Soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish tartibi
102-modda. Soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashning amal qilishini tugatish

12-bob. Ortiqcha to‘langan va ortiqcha undirilgan soliqlarni hisobga olish hamda qaytarish

103-modda. Ortiqcha to‘langan va ortiqcha undirilgan soliqlarni hisobga olish hamda qaytarish to‘g‘risidagi umumiy qoidalar
104-modda. Ortiqcha to‘langan soliqni hisobga olish yoki qaytarish tartibi
105-modda. Ortiqcha undirilgan soliqni hisobga olish yoki qaytarish tartibi

13-bob. Soliq majburiyatining bajarilishini ta’minlash

106-modda. Soliq majburiyatining bajarilishini ta’minlash usullari
107-modda. Mol-mulk garovi
108-modda. Kafillik
109-modda. Bank kafolati
110-modda. Penya
111-modda. Banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish
112-modda. Soliq to‘lovchining (soliq agentining) banklardagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarorni bekor qilish tartibi
113-modda. Banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarorlarning banklar tomonidan bajarilishi tartibi
114-modda. Mol-mulkni xatlash

14-bob. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma

115-modda. Soliqlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash
116-modda. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma
117-modda. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomani yuborish tartibi va muddatlari
118-modda. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomani o‘zgartirish
119-modda. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomani bajarish

15-bob. Soliq qarzini undirish

120-modda. Soliq qarzini undirish to‘g‘risidagi umumiy qoidalar
121-modda. Soliq qarzini bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan undirish
121¹-modda. Soliq qarzini undirishni soliq to‘lovchining debitorlik qarziga qaratish
122-modda. Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilarining bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan soliq qarzini undirish
123-modda. Soliq qarzini boshqa mol-mulk hisobidan undirish
124-modda. Soliq qarzini soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilarining boshqa mol-mulki hisobidan undirish
125-modda. Yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxsning soliq qarzini undirish

IV bo‘lim. Soliq to‘lovchilarni va soliq solish obyektlarini hisobga olish

16-bob. Soliq to‘lovchilarni hisobga olish tartibi

126-modda. Soliq to‘lovchilarni hisobga olish to‘g‘risida umumiy qoidalar
127-modda. Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami
128-modda. Soliq to‘lovchilarni hisobga qo‘yish
129-modda. Soliq to‘lovchilarni hisobga qo‘yish tartibi
130-modda. O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan chet ellik shaxslarni hisobga qo‘yishning o‘ziga xos xususiyatlari
131-modda. Soliq to‘lovchilarni soliq solish obyekti bo‘yicha hisobga qo‘yish
132-modda. Soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi hisob ma’lumotlari
133-modda. Organlar, muassasalar va tashkilotlarning soliq organlariga ma’lumotlar taqdim etish majburiyatlari
134-modda. Banklarning soliq nazoratini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan majburiyatlari

V bo‘lim. Soliq nazorati

17-bob. Soliq nazorati to‘g‘risidagi umumiy qoidalar. Soliq tekshiruvlari

135-modda. Soliq nazorati to‘g‘risidagi umumiy qoidalar
136-modda. Soliq nazoratining shakllari
137-modda. Soliq tekshiruvlarining turlari
138-modda. Kameral soliq tekshiruvi
139-modda. Sayyor soliq tekshiruvi
140-modda. Soliq auditi
141-modda. Soliq auditini o‘tkazish muddati
142-modda. Soliq auditini o‘tkazish muddatini uzaytirish

143-modda. Soliq auditini o‘tkazishga doir cheklovlar
144-modda. Mansabdor shaxslarning soliq to‘lovchining hududiga kirishi
145-modda. Hududni va binolarni ko‘zdan kechirish
146-modda. Soliq tekshiruvini o‘tkazishda hujjatlarni talab qilib olish
147-modda. Uchinchi shaxslardan hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish
148-modda. Hujjatlar va buyumlarni olib qo‘yish
149-modda. Guvohning ishtiroki
150-modda. Ekspertiza
151-modda. Mutaxassisni jalb etish
152-modda. Tarjimonning ishtiroki
153-modda. Soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarning xolisligini ta’minlash
154-modda. Soliq nazorati doirasida harakatlarni amalga oshirish chog‘idagi bayonnomaga qo‘yiladigan umumiy talablar
155-modda. Soliq tekshiruvini o‘tkazish chog‘ida g‘ayriqonuniy harakatlar orqali zarar yetkazilishiga yo‘l qo‘ymaslik

18-bob. Soliq tekshiruvlarining va soliq nazorati boshqa choralarining huquqiy oqibatlari

156-modda. Soliq auditi natijalarini rasmiylashtirish
157-modda. Soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish tartibi
158-modda. Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish tartibi
159-modda. Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qaror qabul qilish
159¹-modda. Ayrim hollarda sayyor soliq tekshiruvini tashkil etish, tekshiruv materiallarini ko‘rib chiqish hamda natijalari bo‘yicha qaror qabul qilishning o‘ziga xos xususiyatlari
160-modda. Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qarorning kuchga kirishi
161-modda. Ta’minlash choralari
162-modda. Soliq organlari qarorlarini ijro etishning o‘ziga xos xususiyatlari
163-modda. Shikoyat qilinganda soliq organlari qarorlarini ijro etish
164-modda. Soliq organlarining qarorlarini ijro etish
165-modda. Soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ish yuritish
166-modda. Soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi materiallar bo‘yicha qaror qabul qilish
167-modda. Moliyaviy sanksiyani undirish to‘g‘risidagi ariza
168-modda. Moliyaviy sanksiyalarni undirish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va qarorlarni ijro etish

19-bob. Soliq monitoringi

169-modda. Soliq monitoringi to‘g‘risidagi umumiy qoidalar
170-modda. Axborotga doir hamkorlik reglamenti
171-modda. Soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror
172-modda. Soliq monitoringini muddatidan oldin tugatish
173-modda. Soliq monitoringini o‘tkazish tartibi
174-modda. Soliq organining asoslantirilgan fikri
175-modda. O‘zaro kelishuv tartib-taomili

VI bo‘lim. Transfert narxni belgilashda soliq nazorati

20-bob. Transfert narxni belgilashda narxlar va soliq solish to‘g‘risidagi umumiy qoidalar

176-modda. Transfert narxni belgilash to‘g‘risidagi umumiy qoidalar
177-modda. Soliq to‘lovchi tomonidan soliq bazasiga mustaqil ravishda tuzatish kiritish
178-modda. Bozor narxlari to‘g‘risidagi umumiy qoidalar
179-modda. Narxlarni tartibga solishda bozor narxi deb topishning o‘ziga xos xususiyatlari

21-bob. Nazorat qilinadigan bitimlar

180-modda. O‘zaro aloqador shaxslar o‘rtasidagi nazorat qilinadigan bitimlar
181-modda. Nazorat qilinadigan tashqi savdo bitimlari
182-modda. Nazorat qilinadigan bitimlar to‘g‘risidagi xabarnoma

22-bob. Bitimlarning taqqoslanadigan shartlari

183-modda. Bitimlarning tijorat va moliyaviy shartlarini taqqoslash
184-modda. Bitimlarning shartlarini taqqoslash tahlili
185-modda. Bitimlarning shartlarini taqqoslash tahlilida foydalaniladigan axborot

23-bob. Transfert narxni belgilashda soliq nazoratida foydalaniladigan usullar

186-modda. Transfert narxni belgilashda soliq nazoratida foydalaniladigan usullar to‘g‘risidagi umumiy qoidalar
187-modda. Moliyaviy ko‘rsatkichlar va rentabellik oralig‘i
188-modda. Taqqoslanadigan bozor narxlari usuli
189-modda. Keyingi realizatsiya qilish narxi usuli
190-modda. Xarajat usuli
191-modda. Taqqoslanadigan rentabellik usuli
192-modda. Foydani taqsimlash usuli

24-bob. Transfert narxni belgilashda soliq nazorati

193-modda. Transfert narxni belgilashda soliq nazorati maqsadida axborotni tayyorlash va taqdim etish
194-modda. Transfert narxni belgilashda soliq nazorati
195-modda. Transfert narxni belgilashda soliq nazoratini o‘tkazish tartibi

25-bob. Soliq solish maqsadlarida narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim

196-modda. Soliq solish maqsadlarida narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim haqidagi umumiy qoidalar
197-modda. Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimning taraflari
198-modda. Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimning amal qilish muddati
199-modda. Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimni tuzish tartibi
200-modda. Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimning bajarilishini tekshirish
201-modda. Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimni tugatish tartibi
202-modda. Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim shartlarining barqarorligi

VII bo‘lim. Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining foydasiga soliq solish shartlari va umumiy qoidalari

26-bob. Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining foydasiga soliq solishning umumiy qoidalari

203-modda. Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining foydasiga solinadigan soliqni to‘lovchi shaxslar
204-modda. Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining foydasini soliq solishdan ozod qilish
205-modda. Aktiv chet el kompaniyalari va aktiv chet el xolding kompaniyalari
206-modda. Aktiv va passiv faoliyatdan olinadigan daromadlar
207-modda. Daromadlarga (foydaga) soliq solishning samarali stavkasi
208-modda. Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasini soliq solishda hisobga olish tartibi
209-modda. Chet el kompaniyalarida ishtirok etish to‘g‘risidagi va nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari haqidagi xabarnomalar

VIII bo‘lim. Soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularni sodir etganlik uchun javobgarlik

27-bob. Soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarlik to‘g‘risidagi umumiy qoidalar

210-modda. Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi
211-modda. Javobgarlikka tortilishi lozim bo‘lgan shaxslar
212-modda. Javobgarlikka tortishning umumiy shartlari
213-modda. Javobgarlikka tortishni istisno etuvchi holatlar
214-modda. Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilganda ayb shakllari
215-modda. Shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini istisno qiluvchi holatlar
216-modda. Javobgarlikni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar
217-modda. Javobgarlikka tortish muddatining o‘tishi
218-modda. Moliyaviy sanksiyalar

28-bob. Soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularni sodir etganlik uchun javobgarlik

219-modda. Soliq organida hisobga qo‘yish tartibini buzish
220-modda. Soliq hisobotini taqdim etish tartibini buzish
221-modda. Nazorat-kassa texnikasining, hisob-kitob terminallarining, elektron to‘lov tizimlarining va to‘lov tashkilotlarining raqamli platformalarida generatsiya qilingan maxsus QR-kodlarning qo‘llanilish tartibini buzish
222-modda. Daromadlar va (yoki) xarajatlarni hisobga olish qoidalarini buzish
223-modda. Soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko‘rsatish)
224-modda. Soliqni (yig‘imni) to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik
225-modda. Hisobvaraq-fakturalarni rasmiylashtirish tartibini buzish
226-modda. Transfert narxni belgilashda soliqlarni to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik
227-modda. Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foyda ulushi soliq bazasiga kiritilmaganligi natijasida soliqni to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik
227¹-modda. Fiskal belgilarni aks ettirish yoxud avtomatlashtirilgan hisobga olish o‘lchov vositalari bilan jihozlash yoki soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishini ta’minlash bo‘yicha qonunchilikda belgilangan talablarni yoki tartibni, shuningdek tovarlarni (mahsulotlarni) identifikatsiya vositalari orqali majburiy raqamli markirovkalash qoidalarini buzish

29-bob. Soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun banklarning javobgarligi

228-modda. Soliq (yig‘im), bo‘nak to‘lovi, penyalar va jarimalarni o‘tkazish to‘g‘risidagi topshiriqnomalarni bajarish muddatlarini buzish
229-modda. Banklar tomonidan bank hisobvaraqlari va operatsiyalar bo‘yicha ma’lumotnomalarni (ko‘chirmalarni) soliq organiga taqdim etmaslik

IX bo‘lim. Soliq organlarining hujjatlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat berish

30-bob. Soliq organlarining hujjatlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat berish tartibi

230-modda. Shikoyat berish huquqi
231-modda. Shikoyat berish tartibi
232-modda. Soliq tekshiruvlari natijalari bo‘yicha qabul qilingan soliq organlarining qarorlari ustidan yuqori turuvchi soliq organiga shikoyat berish tartibi va muddatlari
233-modda. Yuqori turuvchi soliq organiga beriladigan shikoyatning shakli va mazmuni
234-modda. Yuqori turuvchi soliq organi tomonidan shikoyatni ko‘rmasdan qoldirish
235-modda. Yuqori turuvchi soliq organi tomonidan shikoyatni ko‘rib chiqish
236-modda. Sudlar tomonidan shikoyatlarni ko‘rib chiqish

MAXSUS QISM

X bo‘lim. Qo‘shilgan qiymat solig‘i

31-bob. Soliq to‘lovchilar va soliq solish obyekti

237-modda. Soliq to‘lovchilar
238-modda. Soliq solish obyekti

32-bob. Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma. Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish joyi

239-modda. Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma
240-modda. Tovarlarni realizatsiya qilish joyi
241-modda. Xizmatlarni realizatsiya qilish joyi
242-modda. Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma amalga oshirilgan sana

33-bob. Soliq solishdan ozod etish

243-modda. Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma
244-modda. Soliq solishdan ozod etiladigan moliyaviy xizmatlar
245-modda. Soliq solishdan ozod qilinadigan sug‘urta xizmatlari
246-modda. Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish

34-bob. Soliq bazasi

247-modda. Soliq bazasini aniqlashning umumiy qoidalari
248-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi
249-modda. Moliyaviy ijara (lizing) shartnomalari bo‘yicha operatsiyalar amalga oshirilganda soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari
250-modda. Vositachilik (topshiriq), transport ekspeditsiyasi shartnomalari bo‘yicha operatsiyalar amalga oshirilganda soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari
251-modda. Korxona mol-mulk majmuasi sifatida realizatsiya qilinganda soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari
252-modda. Transportda tashishni amalga oshirishda soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari
253-modda. Muddatli bitimlar bo‘yicha tovarlar (xizmatlar) realizatsiya qilinganda soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari
254-modda. Tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasini aniqlash tartibi
255-modda. Tovarlar (xizmatlar) chet ellik shaxslar tomonidan realizatsiya qilinganda soliq agentlari tomonidan soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari
256-modda. Davlat mol-mulki bilan operatsiyalar amalga oshirilganda soliq agentlari tomonidan soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari
257-modda. Soliq bazasiga tuzatish kiritish

35-bob. Soliq stavkalari. Soliq davri

258-modda. Soliq stavkalari
259-modda. Soliq davri

36-bob. Nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadigan aylanma

260-modda. Eksport operatsiyalariga va ularga tenglashtirilgan operatsiyalarga soliq solish
261-modda. Eksport operatsiyalarini tasdiqlash
262-modda. O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududida tovarlarni qayta ishlash bo‘yicha xizmatlarga soliq solish
263-modda. Xalqaro tashishlar bilan bog‘liq xizmatlarga soliq solish
264-modda. Ayrim hollarda nol darajali stavkaning qo‘llanilishi

37-bob. Soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi. Soliq hisobotini taqdim etish tartibi

265-modda. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi
266-modda. To‘langan soliq summalarini hisobga olish
266¹-modda. Soliq summalarini hisobga olishning ayrim o‘ziga xos xususiyatlari
267-modda. Hisobga olinmaydigan soliq summasi

268-modda. Soliq solishdan ozod etiladigan realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma mavjud bo‘lganda soliq summasini hisobga olish uchun qabul qilish tartibi
269-modda. Hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summalariga tuzatish kiritish
270-modda. Asosiy vositalarning ayrim obyektlari, ko‘chmas mulk obyektlari va nomoddiy aktivlar bo‘yicha hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summalariga tuzatish kiritish
271-modda. Majburiyatlarni hisobdan chiqarishda hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summalariga tuzatish kiritish
272-modda. To‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi
273-modda. Soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi
274-modda. Soliqning o‘rnini qoplash

38-bob. Alohida hollarda soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

275-modda. Birgalikdagi faoliyat, ishonchli boshqaruv yoki konsessiya bitimi doirasida operatsiyalarni amalga oshirishda soliqni hisoblab chiqarish va to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlari
276-modda. Qayta tashkil etilganda soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari
277-modda. O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirishda va O‘zbekiston Respublikasi hududidan tovarlarni olib chiqishda soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

39-bob. Elektron shaklda xizmatlar ko‘rsatuvchi chet el yuridik shaxslariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

278-modda. Soliq to‘lovchilar
279-modda. Elektron shaklda xizmatlar ko‘rsatuvchi chet el yuridik shaxslarini hisobga qo‘yish va hisobdan chiqarish tartibi
280-modda. Soliq solish obyekti va soliq bazasi. Soliq davri. Chet el yuridik shaxslari tomonidan soliqni hisoblab chiqarish tartibi
281-modda. Elektron shaklda xizmatlar ko‘rsatishda chet el yuridik shaxslari tomonidan soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi
282-modda. Elektron shakldagi xizmatlar

XI bo‘lim. Aksiz solig‘i

40-bob. Soliq to‘lovchilar, soliq solish obyekti va soliq bazasi

283-modda. Soliq to‘lovchilar
284-modda. Soliq solish obyekti
285-modda. Soliq bazasi
286-modda. Aksiz to‘lanadigan tovarlarga doir soliq solinadigan operatsiyalar amalga oshiriladigan sana
287-modda. Soliq bazasiga tuzatish kiritish
288-modda. Aksiz to‘lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlash
289-modda. Soliq stavkalari
289¹-modda. Tamaki mahsulotlariga doir soliq stavkalari
289²-modda. Alkogol mahsulotlariga doir soliq stavkalari
289³-modda. Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to‘lanadigan tovarlar va xizmatlarga doir soliq stavkalari

41-bob. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliq to‘lash tartibi

290-modda. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi
291-modda. Soliq davri
292-modda. Soliq hisobotini taqdim etish tartibi
293-modda. Soliq to‘lash tartibi

XII bo‘lim. Foyda solig‘i

42-bob. Soliq to‘lovchilar, soliq solish obyekti va soliq bazasi

294-modda. Soliq to‘lovchilar
295-modda. Soliq solish obyekti
296-modda. Soliq bazasi

43-bob. Jami daromad

297-modda. Umumiy qoidalar
298-modda. Amortizatsiya qilinadigan aktivlarning va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan daromadlar (zararlar)
299-modda. Tekin olingan mol-mulk (xizmatlar)
300-modda. Talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo‘yicha olingan daromadlar
301-modda. Ilgari chegirib tashlangan xarajatlarning yoki zararlarning o‘rnini qoplash tarzidagi daromad
302-modda. Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan olingan daromadlar
303-modda. Uzoq muddatli kontraktlar bo‘yicha daromadlar
304-modda. Soliq solishda hisobga olinmaydigan daromadlar

44-bob. Xarajatlar

305-modda. Umumiy qoidalar
306-modda. Amortizatsiya xarajatlari
307-modda. Nomoddiy aktivlarni amortizatsiya qilish xarajatlari

308-modda. Investitsiyaviy chegirma
309-modda. Amortizatsiya qilinadigan aktivlarni ta’mirlash xarajatlari
310-modda. Foizlar va ayrim chiqimlar bo‘yicha xarajatlar
311-modda. Geologik jihatdan o‘rganish, qidirish va tabiiy resurslarni qazib olishga doir tayyorgarlik ishlari uchun xarajatlar
312-modda. Ilmiy tadqiqotlarga va (yoki) tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga doir xarajatlar
313-modda. Umidsiz qarzlar bo‘yicha xarajatlar
314-modda. Qo‘shilgan qiymat solig‘iga doir xarajatlar
315-modda. Zaxira fondlarini shakllantirish xarajatlari
316-modda. Kafolatli ta’mirlash va kafolatli xizmat ko‘rsatish yuzasidan kelgusi xarajatlar uchun zaxirani shakllantirish xarajatlari
317-modda. Chegirib tashlanmaydigan xarajatlar

45-bob. Ayrim soliq to‘lovchilar va operatsiyalar turlari bo‘yicha soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

318-modda. Notijorat tashkilotlarining soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari
319-modda. Oddiy shirkat (birgalikdagi faoliyat shartnomasi) doirasida operatsiyalarni amalga oshirishda soliqni hisoblab chiqarish va to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlari
320-modda. Kursdagi farqlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari
321-modda. Zaxiralarni baholash usullarini o‘zgartirish natijasiga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari
322-modda. Ishonchli boshqaruvda soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari
323-modda. Korxonani mol-mulk majmui sifatida sotib olishda daromadlarni va xarajatlarni e’tirof etishning o‘ziga xos xususiyatlari
324-modda. (o‘z kuchini yo‘qotgan)
325-modda. Qimmatli qog‘ozlar qarziga doir operatsiyalar chog‘ida soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari
326-modda. Qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilarida qimmatli qog‘ozlarning qadrsizlanish zaxiralarini shakllantirish xarajatlari
327-modda. Qimmatli qog‘ozlarga doir operatsiyalar bo‘yicha soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari
328-modda. Muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari
329-modda. Xedjirlash operatsiyasi bo‘yicha soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari
330-modda. Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchilari tomonidan olingan daromadlar bo‘yicha soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari
331-modda. Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining foydasiga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

46-bob. Soliq bazasiga tuzatish kiritish

332-modda. Daromadlar va xarajatlarga tuzatish kiritish
333-modda. Zararlarni kelgusiga o‘tkazish
334-modda. Qayta tashkil etilganda zararlarni o‘tkazish
335-modda. Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha zararlarni o‘tkazish
336-modda. Operatsiyalarning ayrim turlari bo‘yicha zararlarni o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari

47-bob. Soliq stavkalari. Soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi

337-modda. Soliq stavkalari
338-modda. Soliq davri. Hisobot davri
339-modda. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi
340-modda. Soliqni to‘lash tartibi
341-modda. Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi
342-modda. Soliqni hisobga olish

48-bob. O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlariga to‘lanadigan dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

343-modda. Dividendlar tarzidagi daromadlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari
344-modda. Foiz tarzidagi daromadlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari
345-modda. Soliq agentlari tomonidan dividendlar va foizlardan soliqni hisoblab chiqarish, ushlab qolish hamda to‘lash tartibi
346-modda. Soliq agentining javobgarligi

49-bob. Faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan norezidentlarning daromadlariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

347-modda. Soliq solinadigan daromadni aniqlash
348-modda. Chegirib tashlanadigan xarajatlarni aniqlash
349-modda. Soliq hisobotini taqdim etish va soliq to‘lash tartibi
350-modda. Soliq agenti tomonidan ushlab qolingan soliqni hisobga olish tartibi

50-bob. Norezidentlarning doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

351-modda. Umumiy qoidalar

352-modda. Soliq agentlari deb e’tirof etiladigan shaxslar
353-modda. Soliq stavkalari
354-modda. Soliq agentlari tomonidan soliqni hisoblab chiqarish tartibi
355-modda. Soliq agentlari tomonidan soliq hisob-kitobini taqdim etish va uni to‘lash tartibi
356-modda. O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari
357-modda. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo‘yicha soliq solishdan ozod qilishning yoki pasaytirilgan soliq stavkalarini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari
358-modda. Soliq rezidentligini tasdiqlovchi hujjatga qo‘yiladigan talablar

51-bob. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning daromadlariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

359-modda. Soliq solinadigan daromadlarni va chegiriladigan xarajatlarni hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari
360-modda. Soliq solish obyektini va soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari
361-modda. Soliq solishda hisobga olinmaydigan daromadlar
362-modda. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi
363-modda. Soliqni to‘lash tartibi

XIII bo‘lim. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i

52-bob. Soliq to‘lovchilar, soliq solish obyekti va soliq bazasi

364-modda. Soliq to‘lovchilar
365-modda. Soliq solish obyekti
366-modda. Soliq bazasi
367-modda. Daromad olingan sana

53-bob. Jami daromad

368-modda. Jami daromad
369-modda. Jami daromadga kiritilmaydigan daromadlar
370-modda. Jami daromadning tarkibi
371-modda. Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar
372-modda. Rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar
373-modda. Kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiya)
374-modda. Ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash
375-modda. Mulkiy daromadlar
376-modda. Moddiy naf tarzidagi daromadlar
377-modda. Boshqa daromadlar

54-bob. Soliq imtiyozlari

378-modda. Soliq solinmaydigan daromadlar
379-modda. Jismoniy shaxslarni soliq solishdan ozod etish
380-modda. Ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarning jami daromadini kamaytirish

55-bob. Soliq stavkalari. Soliq davri

381-modda. O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari
382-modda. O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari
383-modda. (o‘z kuchini yo‘qotgan)
384-modda. Soliq davri. Hisobot davri

56-bob. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va to‘lash tartibi

385-modda. Umumiy qoidalar
386-modda. Soliq agentlarining majburiyati va javobgarligi
387-modda. Soliq agentlarida soliq solinadigan daromadlar
388-modda. Soliq agentlari tomonidan soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish tartibi
389-modda. Soliq hisobotini taqdim etish tartibi va muddatlari
390-modda. Soliqni to‘lash tartibi
391-modda. Ortiqcha ushlangan soliq summasini qaytarish tartibi
392-modda. (o‘z kuchini yo‘qotgan)

57-bob. Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida daromadlarga soliq solish

393-modda. Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar
394-modda. Ayrim toifadagi soliq to‘lovchilar tomonidan olingan daromadlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari
395-modda. Mualliflik haqi tarzida olingan daromadlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari
396-modda. Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya
397-modda. Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etish tartibi
398-modda. Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya bo‘yicha soliq to‘lash tartibi
399-modda. Rezidentlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida to‘langan soliqni hisobga olish

400-modda. O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari
401-modda. Norezidentning daromadlaridan ushlab qolingan soliqni qaytarish tartibi

XIV bo‘lim. Ijtimoiy soliq

58-bob. Ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash

402-modda. Soliq to‘lovchilar
403-modda. Soliq solish obyekti
404-modda. Soliq bazasi
405-modda. Soliq stavkalari
406-modda. Soliq davri. Hisobot davri
407-modda. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi
408-modda. Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar tomonidan soliqni hisoblab chiqarish va to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlari
409-modda. Ixtiyoriy ravishda soliqni hisoblab chiqarish va to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlari

XV bo‘lim. Mol-mulk solig‘i

59-bob. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq

410-modda. Soliq to‘lovchilar
411-modda. Soliq solish obyekti
412-modda. Soliq bazasi
413-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi
414-modda. Soliq imtiyozlari
415-modda. Soliq stavkalari
416-modda. Soliq davri
417-modda. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi

60-bob. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i

418-modda. Soliq to‘lovchilar
419-modda. Soliq solish obyekti
420-modda. Soliq bazasi
421-modda. Soliq imtiyozlari
422-modda. Soliq stavkalari. Soliq davri
423-modda. Soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi

XVI bo‘lim. Yer solig‘i

61-bob. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i

424-modda. Umumiy qoidalar
425-modda. Soliq to‘lovchilar
426-modda. Soliq solish obyekti
427-modda. Soliq bazasi
428-modda. Soliq imtiyozlari
429-modda. Soliq stavkalari
430-modda. Soliq davri
431-modda. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi
432-modda. Soliqni to‘lash tartibi

62-bob. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i

433-modda. Soliq to‘lovchilar
434-modda. Soliq solish obyekti
435-modda. Soliq bazasi
436-modda. Soliq imtiyozlari
437-modda. Soliq stavkalari
438-modda. Soliq davri
439-modda. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi
440-modda. Soliq to‘lash tartibi

XVII bo‘lim. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

63-bob. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash

441-modda. Soliq to‘lovchilar
442-modda. Soliq solish obyekti
443-modda. Soliq bazasi
444-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi
445-modda. Soliq stavkalari

446-modda. Soliq davri
447-modda. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi
448-modda. Soliq to‘lash tartibi

XVIII bo‘lim. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq

64-bob. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash

449-modda. Soliq to‘lovchilar
450-modda. Soliq solish obyekti
451-modda. Soliq bazasi
451¹-modda. Metallarning ayrim turlarini qazib olish (ajratib olish) chog‘ida soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari
452-modda. Soliq stavkalari
453-modda. Soliq davri. Hisobot davri
454-modda. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi

XVIII¹ bo‘lim. Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘i

64¹-bob. Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lash

454¹-modda. Soliq to‘lovchilar
454²-modda. Soliq solish obyekti
454³-modda. Renta daromadi
454⁴-modda. Soliq bazasi
454⁵-modda. Soliq stavkalari
454⁶-modda. Soliq davri. Hisobot davri
454⁷-modda. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi

XIX bo‘lim. Yig‘imlar

65-bob. Yig‘imlar

455-modda. Yig‘imlarning turlari
455¹-modda. (o‘z kuchini yo‘qotgan)
456-modda. Soliq to‘lovchilar
457-modda. Soliq solish obyekti
458-modda. Soliq bazasi
459-modda. (o‘z kuchini yo‘qotgan)
460-modda. Yig‘imlarni to‘lash tartibi
460¹-modda. (o‘z kuchini yo‘qotgan)

XX bo‘lim. Aylanmadan olinadigan soliq

66-bob. Aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash

461-modda. Soliq to‘lovchilar
462-modda. Aylanmadan olinadigan soliqni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari
463-modda. Soliq solish obyekti
464-modda. Soliq bazasi
465-modda. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari
466-modda. Daromadlarga tuzatish kiritish
467-modda. Soliq stavkalari
468-modda. Alohida-alohida hisob yuritish
469-modda. Soliq davri. Hisobot davri
470-modda. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi
470¹-modda. (o‘z kuchini yo‘qotgan)

XXI bo‘lim. Soliq to‘lovchilarning ayrim toifalariga va o‘zbekiston respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

67-bob. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

471-modda. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solish shartlari
472-modda. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslar tomonidan soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi

68-bob. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

473-modda. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solish shartlari
474-modda. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi

69-bob. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

475-modda. Umumiy qoidalar
476-modda. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

70-bob. Advokatlar hay’atlariga, advokatlik firmalariga, advokatlik byurolariga va advokatlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

477-modda. Advokatlarga soliq solish
478-modda. Advokatlar daromadlariga soliq solish

71-bob. Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

479-modda. Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarga soliq solish
480-modda. Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarning foydasiga soliq solish

71¹-bob. O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

480¹-modda. Umumiy qoidalar
480²-modda. O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq stavkalarini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari

71²-bob. Islomiy moliya operatsiyalariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

480³-modda. Umumiy qoidalar
480⁴-modda. Islomiy moliya operatsiyalariga qo‘shilgan qiymat solig‘i solish
480⁵-modda. Islomiy moliya operatsiyalariga foyda solig‘i solish
480⁶-modda. Islomiy moliya operatsiyalari doirasida boshqa soliqlar solish

72-bob. Alohida sharoitlarda soliq majburiyatlarini bajarish

481-modda. Alohida sharoitlarda qo‘shimcha vakolatlar berish
482-modda. Soliqlarni, soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha foizsiz to‘lashni kechiktirishning yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashni qo‘llashning va alohida sharoitlarda soliq majburiyatlarini bajarishning vaqtinchalik tartibi
483-modda. Vaqtinchalik soliq imtiyozlari

UMUMIY QISM

I BO‘LIM
UMUMIY QOIDALAR

1-bob. Asosiy qoidalar

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan tartibga solinadigan munosabatlar

Ushbu Kodeks soliqlar va yig‘imlarni belgilash, joriy etish va bekor qilishga, hisoblab chiqarish hamda to‘lashga doir munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

2-modda. Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Kodeksdan va qabul qilinishi ushbu Kodeksda to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni bilan maxsus huquqiy rejim o‘rnatilgan hududda soliq bilan bog‘liq muayyan munosabatlar ushbu Kodeksda belgilanganidan boshqacha qoidalar bilan tartibga solinishi hamda tegishli vakolatli organning qarori bilan ushbu Kodeksning ayrim qoidalarini qo‘llash bo‘yicha alohida tartib belgilanishi mumkin.

(2-modda O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 13-iyuldagi O‘RQ-1158-sonli Konstitutsiyaviy Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 14.07.2026-y., 03/26/1158/0727-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 25-iyul)

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining soliq to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

(2-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 6-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro shartnomalari to‘g‘risida” Qonunining 2-moddasi.

3-modda. Normativ-huquqiy hujjatlarni yoki ularning qismlarini ushbu Kodeksning qoidalariga muvofiq emas deb topish

Normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi, agar mazkur hujjatga nisbatan quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda bittasi bajarilsa, ushbu Kodeksning qoidalariga muvofiq emas deb topiladi:

1) ushbu Kodeksga muvofiq bunday hujjatlarni qabul qilish huquqiga ega bo‘lmagan organ tomonidan qabul qilingan bo‘lsa yoxud normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning belgilangan tartibi buzilgan holda qabul qilingan bo‘lsa;

> **Izoh.** Qarang: “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasi, “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi Qonuni, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida”gi Qonunining 12 — 21, 25-26-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2025-yil 9-oktabrdagi 23-mh-sonli “Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash, qabul qilish, huquqiy ekspertiza va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3686, 09.10.2025-y.).

2) soliq munosabatlari subyektlarining ushbu Kodeksda nazarda tutilgan huquqlarini bekor qilsa yoki cheklasa;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 21-22-moddalari.

3) soliq munosabatlari subyektlari harakatlarining ushbu Kodeksda belgilangan asoslarini, shartlarini, ketma-ketligini yoki tartibini o‘zgartirsa;

4) ushbu Kodeksda taqiqlangan harakatlarga ruxsat bersa yoki yo‘l qo‘ysa;

5) ushbu Kodeksning normalariga yoki qoidalarining mazmuniga boshqacha tarzda zid bo‘lsa.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 16 —18-moddalari.

Ushbu Kodeksga muvofiq bo‘lmagan normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ yoki uning yuqori turuvchi organlari bu hujjatni bekor qilishga yoki unga zarur o‘zgartishlar kiritishga haqli. Bu organlar ushbu Kodeksga muvofiq bo‘lmagan normativ-huquqiy hujjatni bekor qilishni yoki unga zarur o‘zgartishlar kiritishni rad etgan taqdirda, u sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjat yoki uning qismi ular qabul qilingan sanadan e’tiboran ushbu Kodeksga muvofiq emas deb topiladi.

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksining 12-moddasi, Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksining 178 — 183-moddalari.

4-modda. Soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning vaqt bo‘yicha amal qilishi

Soliq solish, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq majburiyatlari yuzaga kelgan paytda amalda bo‘lgan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega emas va ular amalga kiritilganidan keyin yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni bekor qiladigan yoki yengillashtiradigan soliq to‘g‘risidagi qonunchiliklar orqaga qaytish kuchiga ega.

Soliqlar va yig‘imlarni bekor qilishni, soliqlar va yig‘imlar stavkalarini kamaytirishni, soliq to‘lovchilarning majburiyatlarini bekor qilishni yoki ularning ahvolini boshqacha tarzda yengillashtirishni nazarda tutuvchi soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari, agar bu soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilgan bo‘lsa, orqaga qaytish kuchiga ega bo‘lishi mumkin, bundan ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Yangi soliqlar va yig‘imlar belgilanishini nazarda tutuvchi soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kamida uch oy o‘tgach amalga kiritiladi. Soliq imtiyozlarini bekor qilishni, yangi majburiyatlarni joriy etishni, soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirishni yoki soliq munosabatlari subyektlarining holatini boshqacha tarzda og‘irlashtirishni nazarda tutuvchi soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari ham xuddi shunday tartibda amalga kiritiladi.

Soliqlar va yig‘imlar stavkalarining o‘zgartirilishini nazarda tutuvchi soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari, agar ularda kechroq muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ular rasman e’lon qilingan oydan keyingi oyning birinchi kunidan e’tiboran amalga kiritiladi.

Ushbu moddaning beshinchi va oltinchi qismlarida ko‘rsatilmagan soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari, agar hujjatlarning o‘zida kechroq muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa, rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

(4-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 43-moddasi.

5-modda. Soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan muddatlarni hisoblash tartibi

(5-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan muddatlar, ro‘y berishi kerak bo‘lgan voqea yoki sodir qilinishi kerak bo‘lgan harakatni ko‘rsatgan holda kalendar sana bilan yoki vaqtning yillar, choraklar, oylar yoki kunlar bilan hisoblanadigan o‘tish davri bilan aniqlanadi.

(5-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Kalendar sanadan yoki ro‘y berishi kerak bo‘lgan voqeadan keyingi kun soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan muddatni hisoblash boshlanadigan kun deb hisoblanadi.

(5-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Yillar bilan hisoblanadigan muddat muddatning oxirgi yilining tegishli oyi va kunida tugaydi. Bunda ketma-ket keladigan o‘n ikki oydan iborat har qanday vaqt davri yil deb e’tirof etiladi, bundan kalendar yil mustasno.

Choraklar bilan hisoblanadigan muddat muddatning oxirgi oyining tegishli kunida tugaydi. Bunda chorak uch kalendar oyga teng deb hisoblanadi, choraklar hisobi esa kalendar yil boshidan yuritiladi.

Oylar bilan hisoblanadigan muddat muddatning oxirgi oyining tegishli sanasida tugaydi.

Agar muddatning tamom bo‘lishi tegishli sana mavjud bo‘lmagan oyga to‘g‘ri kelsa, muddat mazkur oyning oxirgi kunida tugaydi.

Kunlar bilan hisoblanadigan muddat, agar bu muddat kalendar kunlar bilan belgilanmagan bo‘lsa, ish kunlari bilan hisoblanadi. Bunda qonunchilikka muvofiq dam olish va (yoki) ish kuni bo‘lmagan bayram kuni deb e’tirof etilmaydigan kun ish kuni deb hisoblanadi.

(5-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar muddatning oxirgi kuni qonunchilikka muvofiq dam olish va (yoki) ish kuni bo‘lmagan kun deb e’tirof etiladigan kunga to‘g‘ri kelsa, dam olish kunidan va (yoki) ish kuni bo‘lmagan kundan keyingi ish kuni muddatning tamom bo‘lish kuni deb hisoblanadi.

(5-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Amalga oshirilishi uchun muddat belgilangan harakat muddatning oxirgi kuni soat 24 ga qadar bajarilishi mumkin.

Agar hujjatlar yoxud pul mablag‘lari aloqa tashkilotiga muddatning oxirgi kuni soat 24 ga qadar topshirilgan bo‘lsa, muddat o‘tkazib yuborilmagan deb hisoblanadi.

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksining 11-bobi.

6-modda. O‘zbekiston Respublikasining soliq solishga oid xalqaro shartnomalarining qo‘llanilishi

O‘zbekiston Respublikasining soliq solish masalalariga oid xalqaro shartnomalarini va xalqaro soliq huquqining umumiy normalarini qo‘llash ushbu moddada belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonlardan biri bo‘lgan, ikkiyoqlama soliq solishning oldini olish va soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashni bartaraf etish masalalarini tartibga soladigan xalqaro shartnoma qoidalari shunday shartnomani tuzgan bir yoki ikkala davlatning soliq rezidentlariga nisbatan qo‘llaniladi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismi qoidalari O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi tuzilgan davlatning soliq rezidentiga nisbatan, agar soliq rezidenti ushbu xalqaro shartnoma qoidalaridan mazkur xalqaro shartnoma tuzilgan davlatning soliq rezidenti bo‘lmagan boshqa shaxs manfaatlarini ko‘zlab foydalansa, tatbiq etilmaydi.

Ushbu moddaning beshinchi — o‘n ikkinchi qismlari qoidalari O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasiga muvofiq to‘lov manbaidan daromad olish uchun haqiqiy huquqqa ega bo‘lgan shaxsni aniqlash uchun qo‘llaniladi.

Yuridik shaxs tomonidan to‘lanadigan daromadlardan mustaqil ravishda foydalanish va (yoki) ularni tasarruf etish huquqiga ega bo‘lgan shaxs yoxud uning manfaatlarini ko‘zlab bunday daromadlarni tasarruf etishga vakolatli bo‘lgan o‘zga shaxs ushbu daromadlarga nisbatan haqiqiy huquqqa ega bo‘lgan shaxs deb topiladi. Bunda bu huquq ushbu yuridik shaxsda bevosita va (yoki) bilvosita ishtirok etish yoki uning ustidan nazorat bo‘lganligi yoxud boshqa holatlar tufayli yuzaga kelganligi ahamiyatga ega emas.

Yuridik shaxs tashkil etmagan tuzilmaning daromadlariga nisbatan haqiqiy huquqqa ega bo‘lgan shaxs xuddi shunday tartibda aniqlanadi.

Daromadlarga nisbatan haqiqiy huquqqa ega bo‘lgan shaxsni aniqlashda ushbu moddaning beshinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar tomonidan bajariladigan vazifalar, shuningdek ular qabul qiladigan tavakkalchiliklar inobatga olinadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan daromadlarni tasarruf etishga nisbatan chet ellik shaxs cheklangan vakolatlarga ega bo‘lsa, hech qanday boshqa vazifalarni bajarmasa va hech qanday tavakkalchilikni o‘z zimmasiga olmasa, bunday daromadlarni bevosita yoki bilvosita boshqa shaxsga to‘lagan (to‘liq yoki qisman) holda, ushbu boshqa shaxsning manfaatlarini ko‘zlab mazkur daromadlarga nisbatan vositachilik vazifalarini amalga oshirsa, bu chet ellik shaxs O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan daromadlarga nisbatan haqiqiy huquqqa ega deb e’tirof etilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromadlarni bunday daromadlarga nisbatan haqiqiy huquqqa ega bo‘lmagan chet ellik shaxsga to‘lash chog‘ida, agar to‘lov manbaiga bunday daromadlarga (ularning bir qismiga) nisbatan haqiqiy huquqqa ega shaxs ma’lum bo‘lsa, to‘lanayotgan daromadga soliq solish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) agar to‘lanayotgan daromadlarga (ularning bir qismiga) nisbatan haqiqiy huquqqa ega bo‘lgan shaxs O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti bo‘lsa, to‘lanayotgan daromadga (uning bir qismiga) soliq solishi, O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlariga nisbatan ushbu Kodeks qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda to‘lanayotgan daromadlarga (ularning bir qismiga) taalluqli soliq, agar to‘lov manbai o‘zi hisobga olingan joydagi soliq organini xabardor qilgan bo‘lsa, to‘lov manbai tomonidan ushlab qolinmaydi. Bunday xabardor qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi;

(6-modda to‘qqizinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

2) agar to‘lanayotgan daromadlarga (ularning bir qismiga) nisbatan haqiqiy huquqqa ega bo‘lgan shaxs soliq solish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi bilan amaldagi xalqaro shartnoma mavjud bo‘lgan davlatning (hududning) soliq rezidenti bo‘lsa, to‘lanayotgan daromadlarga (ularning bir qismiga) soliq solishga nisbatan mazkur xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Ko‘rsatilgan qoidalar, basharti daromadlar to‘lanadigan va bu daromadlarga nisbatan haqiqiy huquqqa ega bo‘lmagan shaxsning doimiy turgan joyi soliq solish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi bilan amaldagi xalqaro shartnomaga ega bo‘lgan davlat (hudud) bo‘lsa, qo‘llaniladi.

Agar daromadlar to‘lanadigan va bu daromadlarga nisbatan haqiqiy huquqqa ega bo‘lmagan shaxsning doimiy turgan joyi soliq solish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi bilan amaldagi xalqaro shartnomaga ega bo‘lmagan davlat (hudud) bo‘lsa, soliq to‘lov manbaida mazkur Kodeks bilan belgilangan soliq stavkalari bo‘yicha ushlab qolinadi. Agar bunday daromadlar ushbu daromadlarga nisbatan haqiqiy huquqqa ega bo‘lmagan va bu daromadlarga (ularning bir qismiga) nisbatan haqiqiy huquqqa ega bo‘lgan shaxs qaysi davlat (hudud) rezidenti ekanligi o‘ziga ma’lum bo‘lmagan shaxsga to‘lansa, to‘lov manbaidagi soliq ham soliq stavkalari bo‘yicha ushlab qolinadi.

Xalqaro shartnomada O‘zbekiston Respublikasi tomonidan belgilangan vakolatli organ O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalariga muvofiq chet davlatning vakolatli organidan chet davlat soliq to‘lovchisi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida bajarilmagan soliq majburiyatlarini bajarishiga ko‘maklashish to‘g‘risida so‘rashga haqli.

7-modda. Soliq solish prinsiplari

Soliq solish majburiylik, aniqlik va soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan hamkorligi, adolatlilik, soliq tizimining yagonaligi, oshkoralik va soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsiplariga asoslanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 8 — 13-moddalari.

8-modda. Majburiylik prinsipi

Har bir shaxs ushbu Kodeksda belgilangan soliqlar va unda nazarda tutilgan yig‘imlarni to‘lashi shart.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeks 22-moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshisi.

Hech kimga soliqlar va yig‘imlarning barcha alomatlariga ega bo‘lgan, biroq ushbu Kodeksda nazarda tutilmagan yoxud uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeks 17-moddasining birinchi, to‘rtinchi qismlari.

9-modda. Soliq solishning aniqligi va soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan hamkorligi prinsipi

Soliqlarni va yig‘imlarni belgilovchi soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchilarni hamda ushbu soliqlarning va yig‘imlarning boshqa barcha elementlarini, shu jumladan ularni to‘lash muddatlari va tartibini aniqlab berishi kerak.

(9-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq organlari soliq munosabatlari doirasida soliq to‘lovchilar bilan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni to‘g‘ri bajarish maqsadida hamkorlik qilishi shart. Bunda soliq organlari soliq to‘lovchilarning qonuniy faoliyatiga asossiz to‘siqlar yaratishga haqli emas, soliq to‘lovchilar esa soliq organlari o‘z vakolatlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoit yaratishi kerak.

(9-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 20-moddasi.

10-modda. Adolatlilik prinsipi

Soliqlar va yig‘imlar kamsitish xususiyatiga ega bo‘lishi hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo‘llanilishi mumkin emas.

Mulkning shakliga, jismoniy shaxslarning fuqaroligiga yoki kapitalning kelib chiqish mamlakatiga qarab farqlangan soliq stavkalarini, soliq imtiyozlarini yoki boshqa afzalliklarni belgilashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Fuqarolarning o‘z konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qiladigan soliqlarni belgilashga yo‘l qo‘yilmaydi.

11-modda. Soliq tizimining yagonaligi prinsipi

Soliq tizimi O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagonadir.

O‘zbekiston Respublikasining yagona iqtisodiy makonini buzuvchi, xususan, O‘zbekiston Respublikasining hududi doirasida tovarlarning (xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag‘larning erkin muomalada bo‘lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo‘yadigan soliqlar belgilanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

12-modda. Oshkoralik prinsipi

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari rasman e’lon qilinishi shart.

(12-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Rasman e’lon qilinmagan soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.

(12-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

13-modda. Soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlaridagi barcha bartaraf etib bo‘lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to‘lovchining foydasiga talqin etiladi.

(13-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonunining 13-moddasi.

14-modda. Bitimlarning iqtisodiy mazmuni va ularni yuridik jihatdan rasmiylashtirish

Soliq solish maqsadida barcha bitimlar va soliq to‘lovchi kirishadigan boshqa iqtisodiy munosabatlar, ularning yuridik jihatdan rasmiylashtirilishi usulidan yoki shartnomaning nomlanishidan qat’i nazar, o‘zining haqiqiy iqtisodiy mazmunidan kelib chiqqan holda hisobga olinishi kerak.

Agar bitimning yoki iqtisodiy munosabatlarning yuridik jihatdan rasmiylashtirilishi ularning haqiqatdagi iqtisodiy mazmuniga muvofiq bo‘lmasa, soliq organlari soliq solish maqsadida bitimning yuridik tavsiflanishini, soliq to‘lovchining maqomini va (yoki) uning iqtisodiy faoliyati xususiyatini o‘zgartirishga haqli.

Qalbaki (ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan) bitimlar soliq solish maqsadida hisobga olinmaydi. Agar bunday bitimlar boshqa bitimlarni niqoblasa, soliqlarni hisoblash uchun haqiqiy bitimlarning iqtisodiy mazmuni va natijalari hisobga olinadi.

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksining 124-moddasi.

Agar bitimlarning yoki boshqa iqtisodiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari o‘zlari tuzgan bitimlarning barcha shartlari va talablarini bajarayotgan bo‘lsa, soliqqa oid bo‘lmagan munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan qoidalarning ayrim buzilishlari soliq to‘lovchi tomonidan olingan daromadlarni yoki ularning qilgan xarajatlarini (ko‘rgan zararlarini) soliq solish maqsadida e’tirof etishni rad etish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin emas.

Agar soliq to‘lovchi yagona yoki ustuvor maqsadi soliq to‘lamaslik tarzidagi asossiz soliq nafi olishdan yoxud o‘zi to‘laydigan soliqlarning summasini kamaytirishdan iborat bo‘lgan operatsiyalarni yoki operatsiyalar ketma-ketligini amalga oshirsa, uning bunday harakatlari ushbu Kodeks maqsadlarida huquqni suiiste’mol qilish deb e’tirof etiladi.

Soliqlarning summalarini kamaytirishga oid sxema ham huquqni suiiste’mol qilish deb e’tirof etiladi, bunda ushbu kamaytirish bevosita yoki bilvosita maqsad yoxud oqibat bo‘ladi yoki maqsadlardan yoxud oqibatlardan biri bo‘ladi hamda bu maqsad yoki oqibat ikkinchi darajali bo‘lmaydi. Soliqlarning summalarini kamaytirish soliq solish qamrovini bevosita yoki bilvosita o‘zgartirishni, soliq imtiyozlaridan foydalanishni yoki to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar summalarini boshqacha tarzda kamaytirishni o‘z ichiga oladi.

Huquq suiiste’mol qilingan hollarda, soliq organlari soliq to‘lovchi to‘lashi lozim bo‘lgan soliqlarning summalarini aniqlashda huquqni suiiste’mol qilish alomatlariga ega bo‘lgan ayrim operatsiyalarni yoki operatsiyalar ketma-ketligini e’tiborga olmaslikka haqli. Shuningdek soliq organlari to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar summalarini bunday suiiste’mollikning ta’sirini istisno etadigan tarzda o‘zgartirishga haqli.

Ushbu moddada ko‘rsatilgan huquqni suiiste’mol qilishning, bitim qalbakiligining (ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilganligining) holatlarini aniqlash, shuningdek ularning oqibatlarini qo‘llash soliq organlari tomonidan, soliq to‘lovchi norozi bo‘lgan taqdirda esa, soliq organlarining da’vosi bo‘yicha sud tomonidan amalga oshiriladi.

15-modda. Lozim darajada ehtiyotkorlik

Soliq munosabatlarida soliq to‘lovchilar kontragentlarni tanlash chog‘ida ularning soliq organlarida soliq to‘lovchilar sifatida hisobga qo‘yilganligini, kontragentning ishbilarmonlik obro‘sini, ishlab chiqarish bazasi va xodimlari mavjudligini, moliyaviy holatini, bitim bo‘yicha majburiyatlarni bajarish qobiliyatini tekshirib, lozim darajada ehtiyotkorlik qilishi shart.

Soliq to‘lovchi tomonidan uning oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarmagan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar bo‘yicha qilingan xarajatlar (ko‘rilgan zararlar), agar ushbu soliq to‘lovchi bitim tuzayotganda lozim darajada ehtiyotkorlik qilmagan bo‘lsa, soliq solish maqsadida tan olinmaydi.

Soliq organlari soliq to‘lovchilarga kontragentlarning soliq organlarida soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yilganligi to‘g‘risidagi axborotdan, shuningdek boshqa axborotdan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda foydalanish imkoniyatini beradi.

> **Izoh.** Qarang: Davlat soliq qo‘mitasining 2020-yil 30-maydagi 3237-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Soliq to‘lovchilar to‘g‘risida hisob ma’lumotlarini yuritish, bu ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etish, shuningdek soliq to‘lovchilarining ayrim toifalari uchun ma’lumotlar tarkibini shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom.

2-bob. O‘zbekiston Respublikasida soliqlar va yig‘imlar tizimi

16-modda. Soliqlar va yig‘imlar

Soliq deganda ushbu Kodeksda belgilangan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga (bundan buyon matnda budjet tizimi deb yuritiladi) to‘lanadigan majburiy beg‘araz to‘lov tushuniladi.

Yig‘im deganda budjet tizimiga ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunlarda belgilangan majburiy to‘lov tushuniladi, bu yig‘imning to‘lanishi uni to‘lovchi shaxsga nisbatan vakolatli organ yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan yuridik

ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan unga muayyan huquqlarni yoxud ruxsat etuvchi hujjatlarni berish shartlaridan biri bo‘ladi.

(16-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 5-fevraldagi O‘RQ-1117-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.02.2026-y., 03/26/1117/0116-son)

Shaxsning zimmasiga sud tartibida yuklatilgan jarimalar va boshqa to‘lovlar, shuningdek ijro ishini yuritish tartibida qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari, qonunda belgilangan hollarda mol-mulkni musodara qilish hamda boshqacha tarzda olib qo‘yish soliqlar yoki yig‘imlar jumlasiga kirmaydi.

(16-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 16-iyundagi O‘RQ-1069-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.06.2025-y., 03/25/1069/0510-son)

17-modda. Soliqlarning va yig‘imlarning turlari

O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar belgilanadi:

1) qo‘shilgan qiymat solig‘i;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning X bo‘limi.

2) aksiz solig‘i;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning XI bo‘limi.

3) foyda solig‘i;

4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning XIII bo‘limi.

5) yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning XVIII bo‘limi.

51) foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘i;

(17-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan 51-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning XVII bo‘limi.

7) mol-mulk solig‘i;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning XV bo‘limi.

8) yer solig‘i;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning XVI bo‘limi.

9) ijtimoiy soliq.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning XIV bo‘limi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida yig‘imlar belgilanishi mumkin. Yig‘imlarni joriy etish tartibi qonunlarda, yig‘imlarni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi ushbu Kodeksda hamda boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilanadi.

(17-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 5-fevraldagi O‘RQ-1117-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.02.2026-y., 03/26/1117/0116-son)

Chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘imni, yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalarining avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanishi huquqi uchun yig‘imni, alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarni, pivo va pivo ichimliklari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imni hamda tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi ushbu Kodeks bilan tartibga solinadi.

(17-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 16-maydagi O‘RQ-1063-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.05.2025-y., 03/25/1063/0445-son)

Davlat bojini hisoblab chiqarish va undirish tartibi davlat boji to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilanadi.

(17-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonuni.

18-modda. Maxsus soliq rejimlari

Soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi maxsus soliq rejimlari belgilanadi:

1) aylanmadan olinadigan soliq;

2) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi;

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida”gi Qonuni.

3) maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga soliq solishning alohida tartibi;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning XXI bo‘limi.

4) O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning alohida tartibi;

(18-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-714-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.09.2021-y., 03/21/714/0874-son)

5) islomiy moliya operatsiyalariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari.

(18-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-sonli Qonuniga asosan 5-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.03.2026-y., 03/26/1126/0279-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 29-iyun)

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga soliq solishning alohida tartibi qonunchilikda yoki investitsiya bitimlarida nazarda tutilgan investitsiyalarni amalga oshirish hamda boshqa shartlarni bajarish bilan bog‘liq holda muayyan muddat uchun belgilanadi.

(18-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Maxsus soliq rejimlari ayrim soliqlarni to‘lashdan ozod etishni, pasaytirilgan soliq stavkalarini va boshqa soliq imtiyozlarini qo‘llashni nazarda tutishi mumkin.

3-bob. Soliq munosabatlarining subyektlari, ularning huquqlari va majburiyatlari

19-modda. Soliq munosabatlarining subyektlari va hujjatlar almashish tartibi

Soliq to‘lovchilar, soliq agentlari va vakolatli organlar soliq munosabatlarining subyektlaridir.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 20, 23 va 25-moddalari.

Soliq organlari, ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda, hujjatlarni elektron hujjat tarzida soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga yuboradi. Yuborilgan hujjatlar soliq to‘lovchi tomonidan o‘qib chiqilganidan keyin, lekin ushbu hujjat jo‘natilgan sanadan e’tiboran uch kundan kechiktirmay olingan deb hisoblanadi.

Agar soliq to‘lovchida soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti mavjud bo‘lmasa, hujjatlar buyurtma xat qilib pochta orqali yuboriladi va ular jo‘natilganidan so‘ng besh kundan keyin olingan deb hisoblanadi.

Hujjatlar soliq to‘lovchiga yoki uning vakiliga shaxsan mazkur hujjatlar olingan sana ko‘rsatilgan holda imzo qo‘ydirib topshirilishi mumkin.

Soliq to‘lovchilar, ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda, soliq organlariga hujjatlarni mazkur moddaning ikkinchi — to‘rtinchi qismlarida ko‘rsatilganiga o‘xshash tartibda yuboradi. Bunda ushbu hujjatlar soliq organlariga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yuborilganda — jo‘natilgan kun, pochta orqali yuborilganda besh kundan keyin olingan deb hisoblanadi.

Soliq munosabatlarida foydalaniladigan elektron hujjatlarda hujjatni imzolagan shaxsning roziligini ifodalaydigan hamda mazkur shaxsni identifikatsiya va autentifikatsiya qilish imkonini beradigan elektron tasdiqlash usullari orqali elektron hujjatni tasdiqlash ham elektron raqamli imzoga tenglashtiriladi.

(19-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-iyundagi O‘RQ-1071-sonli Qonuniga asosan oltinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.06.2025-y., 03/25/1071/0545-son)

Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hujjatlarning, elektron hujjat aylanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan hujjatlarning shakllari, mazkur hujjatlarning shakllarini to‘ldirish tartibi, bunday hujjatlarni qog‘ozda yoki telekommunikatsiya kanallari orqali elektron shaklda yoxud soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yuborish hamda olish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

(19-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-iyundagi O‘RQ-1071-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.06.2025-y., 03/25/1071/0545-son)

> **Izoh.** Qarang: Davlat soliq qo‘mitasining 2016-yil 12-iyuldagi 2808-sonli qarori bilan tasdiqlangan Moliyaviy va soliq hisobotlarini aloqaning telekommunikatsiya kanallari vositasida davlat soliq xizmati organlariga taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizom.

20-modda. Soliq to‘lovchilar

Ushbu Kodeksga muvofiq zimmasiga belgilangan soliqlar hamda yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 30 — 33-moddalari.

Yuridik shaxslarning alohida bo‘linmalari mazkur shaxslarning soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatlarini ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda va tartibda ushbu alohida bo‘linmalar joylashgan yeri bo‘yicha bajaradi.

Yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan soliq to‘lovchilar alohida bo‘linmalarni hisobga olib markazlashgan holda soliq hisobotini taqdim etadi va soliqlarni (yig‘imlarni) to‘laydi.

> **Izoh.** Qarang: Davlat soliq qo‘mitasining 2019-yil 12-iyuldagi 3172-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yuridik shaxslarni yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to‘g‘risidagi nizom.

Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari soliq to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 35-moddalari.

21-modda. Soliq to‘lovchilarning huquqlari

Soliq to‘lovchilar quyidagi huquqlarga ega:

soliq organlaridan va boshqa vakolatli organlardan (ularning vakolatlari doirasida) amaldagi soliqlar to‘g‘risida, soliq to‘g‘risidagi qonunchilikdagi o‘zgarishlar haqida, soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risida axborotni, soliq hisobotining va arizalarning shakllarini, shuningdek ularni to‘ldirish tartibi haqida tushuntirishlarni bepul olish;

(21-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 12-moddasi.

o‘z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan soliq organlarida va boshqa vakolatli organlarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni olish;

ushbu Kodeksda belgilangan asoslar mavjud bo‘lganda va tartibda soliq imtiyozlaridan foydalanish yoxud ulardan foydalanishni rad etish;

soliqlar, penyalar va jarimalarning ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan summalarini o‘z vaqtida hisobga o‘tkazish yoki qaytarish;

ushbu Kodeksda belgilangan tartibda va shartlarda soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash;

soliq solish obyektlarini hisobga olishda, soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lashda o‘zlari yo‘l qo‘ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;

ushbu Kodeksga muvofiq o‘z hududida o‘tkaziladigan sayyor soliq tekshiruvini va soliq auditini o‘tkazish chog‘ida hozir bo‘lish;

sayyor soliq tekshiruvi va soliq auditi materiallari bilan tanishish, shuningdek ushbu tekshiruvlarning dalolatnomalarini olish;

soliq tekshiruvini amalga oshiruvchi soliq organlariga soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning ijrosiga taalluqli masalalar bo‘yicha tushuntirishlar berish;

(21-modda birinchi qismining o‘ninchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining ushbu Kodeksga va (yoki) soliq to‘g‘risidagi boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan talablarini bajarmaslik;

(21-modda birinchi qismining o‘n birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning normativ tusga ega bo‘lmagan hujjatlari hamda qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining noqonuniy harakatlari (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan zararlarning o‘rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda, soliq tekshiruvi materiallarini yoki soliq organlarining boshqa hujjatlarini ko‘rib chiqish jarayonida ishtirok etish;

soliq munosabatlari masalalariga oid o‘z manfaatlarini shaxsan yoxud soliq maslahatchilari tashkiloti yoki boshqa o‘z vakillari orqali ifodalash;

soliq siriga rioya etish va uni saqlash.

Soliq to‘lovchilar ushbu Kodeksda va soliq to‘g‘risidagi boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan o‘zga huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

(21-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq to‘lovchining soliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi uni vakilga ega bo‘lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek vakilning ishtirok etishi soliq to‘lovchini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum etmaydi.

Soliq to‘lovchilarning huquqlari soliq organlari va boshqa vakolatli organlar mansabdor shaxslarining tegishli majburiyatlari bilan ta’minlanadi.

Soliq to‘lovchilarning huquqlarini ta’minlashga oid majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

(21-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

22-modda. Soliq to‘lovchilarning majburiyatlari

Soliq to‘lovchilar:

belgilangan soliqlar va yig‘imlarni o‘z vaqtida hamda to‘liq hajmda hisoblab chiqarishi va to‘lashi;

hujjatlarni ko‘rib chiqish yoki tushuntirishlar berish zaruriyati to‘g‘risida chaqiruv xatini olganida soliq organiga kelishi;

tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda xaridorga hisobvaraq-fakturalarni, cheklarni yoki ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlarni berishi;

soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslariga soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan hujjatlar, shuningdek elektron manbalarda saqlanadigan tegishli axborot bilan tanishish imkoniyatini ta’minlashi;

soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning qonuniy talablarini bajarishi, ko‘rsatilgan organlarning va ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilmasligi;

agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq hisobotlarining va soliqlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlarning tegishli soliqlarni to‘lash uchun belgilangan kalendar yildan keyingi uch yil mobaynida but saqlanishini ta’minlashi;

(22-modda birinchi qismining yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

o‘zi soliq bo‘yicha hisobga olingan joydagi soliq organlarini O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslaridagi va chet el yuridik shaxslaridagi ishtiroki to‘g‘risida, agar ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi 10 foizdan ortiq bo‘lsa, xabardor etishi shart.

Yuridik shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchilar ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan majburiyatlardan tashqari, o‘zlari hisobga olingan joydagi soliq organlariga o‘zlarining barcha alohida bo‘linmalari to‘g‘risida va alohida bo‘linmalarga oid ilgari xabar qilingan ma’lumotlaridagi o‘zgarishlar to‘g‘risida alohida bo‘linma tashkil etilgan yoki mazkur ma’lumotlar o‘zgartirilgan kundan e’tiboran bir oy ichida xabar qilishi shart.

Ushbu Kodeks bilan zimmasiga soliq hisobotini elektron shaklda taqdim etish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq organlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonunchilik bilan tartibga solinadigan munosabatlardagi o‘z vakolatlarini amalga oshirish chog‘ida foydalaniladigan hujjatlarning soliq organidan telekommunikatsiya aloqa tarmoqlari orqali elektron shaklda olinishini ta’minlashi kerak.

(22-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Chet davlatlardan, xalqaro va chet el tashkilotlaridan, chet davlatlarning fuqarolaridan yoki ularning topshirig‘iga binoan boshqa shaxslardan pul mablag‘larini yoki mol-mulkni quyidagi maqsadlarda olgan yuridik shaxslar tegishli soliq hisobotida, jismoniy shaxslar esa jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyada olingan pul mablag‘lari yoki mol-mulki haqidagi ma’lumotni aks ettirishi shart:

jamoatchilik fikrini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar, so‘rovlar o‘tkazish (bundan tijorat maqsadlarida o‘tkaziladigan tadqiqot va so‘rovlar mustasno);

ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va tarqatish (bundan ushbu faoliyat tijorat maqsadlariga qaratilgan hollar mustasno).

Ushbu moddaning to‘rtinchi qismida belgilangan majburiyat quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

davlat organlari, tashkilotlari va muassasalariga;

nodavlat notijorat tashkilotlarga;

chet el diplomatik vakolatxonalariga hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar va konsullik muassasalariga;

O‘zbekiston Respublikasi a’zo bo‘lgan xalqaro tashkilotlarning ixtisoslashtirilgan muassasalariga.

(22-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 21-avgustdagi O‘RQ-1083-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi va beshinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.08.2025-y., 03/25/1083/0769-son)

Ushbu Kodeksga muvofiq soliq solish obyekti deb e’tirof etiladigan ko‘chmas mulkka ega bo‘lgan chet el yuridik shaxslari ushbu moddada nazarda tutilgan majburiyatlardan tashqari, ko‘chmas mulk obyekti turgan joydagi soliq organiga ushbu chet el yuridik shaxsining ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda va tartibda xabar qilishi shart. Yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari ko‘rsatilgan holatlarda o‘z muassislari, benefitsiarlari va boshqaruvchilari haqidagi ma’lumotlarni xabar qilishi kerak. Chet el yuridik shaxsida (yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmasida) ushbu qismda ko‘rsatilgan bir nechta mol-mulk obyekti mavjud bo‘lgan taqdirda, ushbu shaxs tanloviga ko‘ra, xabar mol-mulk obyektlarining biri turgan yerdagi soliq organiga taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o‘tilishi munosabati bilan soliqlar to‘laydigan soliq to‘lovchilar zimmasida O‘zbekiston Respublikasining bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlar ham bo‘ladi.

Soliq to‘lovchilarning zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

23-modda. Soliq agentlari

Ushbu Kodeksga muvofiq zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish va budjet tizimiga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq agentlari deb e’tirof etiladi.

Soliq agentlari, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchilar kabi huquqlarga ega bo‘ladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 19, 21-moddalari.

Soliq agentlari:

soliqlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda budjet tizimiga o‘tkazishi;

soliq organlariga soliqni ushlab qolish imkoniyati yo‘qligi va soliq to‘lovchining soliq qarzi summasi to‘g‘risida bunday holatlar soliq agentiga ma’lum bo‘lgan kundan e’tiboran bir oy ichida yozma ravishda yoki elektron shaklda xabar qilishi;

hisoblangan va to‘langan daromadlarning, hisoblab chiqarilgan, ushlab qolingan va budjet tizimiga o‘tkazilgan soliqlarning hisobini har bir soliq to‘lovchi bo‘yicha alohida yuritishi;

soliqlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, ushlab qolinishi va o‘tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni soliq organlariga taqdim etishi;

soliq hisobotlarining hamda soliqlarni hisoblab chiqarish, ushlab qolish va o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlarning ushbu Kodeksning 88-moddasida nazar tutilgan da’vo muddati mobaynida but saqlanishini ta’minlashi shart.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 88-moddasi.

Soliq agentlarining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

(23-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

24-modda. Soliq to‘lovchining vakillari

Soliq to‘lovchi, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq munosabatlarida qonuniy yoki vakolatli vakil orqali ishtirok etishga haqli.

Vakilning vakolatlari ushbu Kodeksga va boshqa qonunchilikka muvofiq hujjatlar bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

(24-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Yuridik shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining qonuniy vakili deb ushbu yuridik shaxsga qonun yoki uning ta’sis hujjatlari asosida vakillik qilishga vakolatli shaxslar e’tirof etiladi.

Jismoniy shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining qonuniy vakili deb fuqarolik qonunchiligiga muvofiq uning vakillari sifatida faoliyat olib boradigan shaxslar e’tirof etiladi.

(24-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Yuridik shaxs qonuniy vakillarining mazkur yuridik shaxsning soliq munosabatlarida ishtirok etishi munosabati bilan sodir etilgan harakatlari (harakatsizligi) ushbu yuridik shaxsning harakati (harakatsizligi) hisoblanadi.

Soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan tartibda soliq organlari, bojxona organlari va soliq munosabatlarining boshqa ishtirokchilari bilan munosabatlarda o‘z manfaatlarini ifodalash vakolati berilgan soliq maslahatchilari tashkilotlari yoki boshqa shaxslar soliq to‘lovchining vakolatli vakillari bo‘lishi mumkin.

Yuridik shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining vakolatli vakili, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, o‘z vakolatlarini tuzilgan shartnoma yoki fuqarolik qonunchiligida belgilangan tartibda beriladigan ishonchnoma asosida amalga oshiradi.

(24-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Jismoniy shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining vakolatli vakili o‘z vakolatlarini fuqarolik qonunchiligiga muvofiq notarial tasdiqlangan ishonchnoma asosida amalga oshiradi.

(24-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq, moliya, bojxona va boshqa davlat organlarining mansabdor shaxslari soliq to‘lovchining vakolatli vakillari bo‘la olmaydi.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi qonun asosida soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi barcha ishtirokchilarining vakolatli vakili hisoblanadi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to‘g‘risidagi shartnoma qoidalaridan qat’i nazar, ushbu guruhning mas’ul ishtirokchisi quyidagilar bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarda mazkur konsolidatsiyalashgan guruh ishtirokchilarining manfaatlarini ifodalashga haqli:

soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to‘g‘risidagi shartnomani soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish, shuningdek ushbu shartnomaga o‘zgartirish kiritish, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi qaror va uni tugatish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarda;

soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchisidan soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi uchun foyda solig‘i bo‘yicha qarzlarni majburiy undirish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarda;

soliq organining mansabdor shaxsi tomonidan amalga oshirilgan harakatlar (harakatsizlik) xususiyati bo‘yicha ular soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchisi bo‘lgan yuridik shaxsning huquqlariga bevosita ta’sir qilsa.

Amal qilish muddati tugashi bilan soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to‘g‘risidagi shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganda yoki tugatilganda ushbu guruhning mas’ul ishtirokchisi bo‘lgan shaxs ushbu moddaning o‘ninchi va o‘n birinchi qismlarida nazarda tutilgan vakolatlarini saqlab qoladi.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi bo‘lgan shaxslar mazkur guruh ishtirokchilarining manfaatlarini ifodalash bo‘yicha ushbu Kodeks bilan o‘zlariga berilgan vakolatlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tuzilgan shartnoma yoki berilgan ishonchnoma asosida uchinchi shaxslarga berishga haqlidir.

(24-moddaning o‘n uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 25-moddasi.

25-modda. Vakolatli organlar

Quyidagilar vakolatli organlardir:

soliq organlari — O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalari;

bojxona organlari — O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari, “Toshkent — AERO” maxsus bojxona kompleksi va bojxona postlari;

yig‘imlarni undirish funksiyasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 24-moddasi.

26-modda. Soliq organlarining huquqlari

Soliq organlari quyidagilarga haqli:

soliq to‘lovchilardan va uchinchi shaxslardan soliqlarni va yig‘imlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlarni (axborotni), shu jumladan elektron tarzda taqdim etishini talab qilish;

ushbu Kodeksda belgilangan tartibda soliq tekshiruvlari va boshqa soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

hududni, ishlab chiqarish, omborxona, savdo binolarini va boshqa binolarni, shu jumladan soliq to‘lovchi daromad olish uchun foydalanadigan yoki soliq solish obyektlarini saqlash bilan bog‘liq joylarni ko‘zdan kechirish;

mol-mulkni inventarizatsiya qilish va bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlarning nazorat o‘lchovlarini o‘tkazish;

qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda kassani va tovar-moddiy boyliklar hamda hujjatlar saqlanadigan joylarni ikki kundan ortiq bo‘lmagan muddatga, ikki kundan ortiq muddatga esa, sud qarori bo‘yicha muhrlash;

(26-modda birinchi qismining oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

soliqlarni va yig‘imlarni hisoblab chiqarish bilan bog‘liq hujjatlarni va elektron axborot jismlarini olib qo‘yish;

foto- va videotasvirga tushirish, tushuntirishlar hamda boshqa ma’lumotlarni olish;

tarjimonni, ekspertni jalb etish va ekspertiza tayinlash;

soliq to‘lovchi hisob hujjatlarini yo‘qotgan yoki yo‘q qilgan hollarda soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi o‘zida mavjud axborot, shuningdek boshqa shu kabi soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida soliqlar summasini hisob-kitob orqali mustaqil ravishda aniqlash;

o‘zaro kelishuv asosida soliq monitoringida ishtirok etayotgan soliq to‘lovchi tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi, soliqlarni hisoblab chiqarishning to‘g‘riligi, to‘liqligi va o‘z vaqtida to‘lanishi yuzasidan soliq monitoringini o‘tkazish;

(26-modda birinchi qismining o‘n birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

soliq qarzini majburiy undirish choralarini ko‘rish;

soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va moliyaviy sanksiyalar qo‘llash;

soliq huquqbuzarliklarining aniqlangan holatlari bo‘yicha tovar-moddiy boyliklarni belgilangan tartibda davlat daromadiga o‘tkazish. Yuridik shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning tovar-moddiy boyliklarini davlat daromadiga o‘tkazish sud tartibida amalga oshiriladi;

soliq to‘lovchilarga nisbatan ular tomonidan noqonuniy olingan mablag‘larni davlat daromadiga undirish to‘g‘risida sudlarga da’volar kiritish;

hujjatlarning davlat tiliga tarjima qilinishini talab qilish;

soliq to‘lovchilarni va soliq agentlarini yozma bildirish asosida soliq organlariga ular tomonidan soliqlarni to‘lash (ushlab qolish va o‘tkazish) yuzasidan yoki soliq tekshiruvi bilan bog‘liq ravishda, shuningdek ular tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning bajarilishi bilan bog‘liq boshqa hollarda tushuntirishlar berishga chaqirish;

(26-modda birinchi qismining o‘n yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda soliq to‘lovchining yoki soliq agentining bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish va ularning mol-mulkini xatlab qo‘yish;

soliq to‘lovchilar va ularning vakillaridan, soliq agentlaridan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning aniqlangan buzilishlarini bartaraf etishni talab qilish hamda ushbu talablarning bajarilishini nazorat qilish;

(26-modda birinchi qismining o‘n to‘qqizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

ushbu Kodeksda belgilangan majburiyatlarning banklar tomonidan bajarilishini nazorat qilish.

Soliq organlari qonunga muvofiq boshqa huquqlarni ham amalga oshirishi mumkin.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 19, 23, 25-moddalari.

27-modda. Soliq organlarining majburiyatlari

Soliq organlari:

soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etishi;

(27-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi, soliqlar va yig‘imlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq hamda o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi;

(27-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

soliq to‘lovchilar, soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlar, hisoblangan va to‘langan soliqlar to‘liq va o‘z vaqtida hisobga olinishini ta’minlashi;

soliq tekshiruvlarini o‘tkazishda soliq to‘lovchilarga ularning huquqlari va majburiyatlari to‘g‘risida ma’lumot berishi, shuningdek o‘tkazilgan tekshirishlar natijalari to‘g‘risida xabardor qilishi;

soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb-saytida o‘z vaqtida e’lon qilishi;

(27-modda birinchi qismining oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

soliq to‘lovchilarga soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni ijro etishida yordam berishi, soliq to‘g‘risidagi qonunchilik normalarini va soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibini tushuntirishi;

(27-modda birinchi qismining yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilganligi faktlarini tahlil qilishi va baholashi, soliqqa oid huquqbuzarliklarga olib keladigan sabablar va sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risidagi takliflarni tegishli davlat organlariga kiritishi;

(27-modda birinchi qismining sakkizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda soliqqa oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga doir uzoq muddatli va joriy dasturlarni ishlab chiqishi hamda amalga oshirishi;

soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilganligi to‘g‘risidagi arizalarni, xabarlarni va boshqa axborotni o‘rganishi;

(27-modda birinchi qismining o‘ninchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan pul mablag‘larining to‘liq va o‘z vaqtida tushishini nazorat qilishi;

masalani hal etish soliq organlari vakolatlari doirasiga kirmaydigan hollarda soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishi faktlari bo‘yicha materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirishi;

(27-modda birinchi qismining o‘n ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

o‘z vakolatlari doirasida valyuta va eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan tartibiga rioya etilishi ustidan nazorat qilishi;

soliq siriga rioya etishi va uning saqlanishini ta’minlashi;

soliq to‘lovchining talabiga binoan soliqlarni to‘lash bo‘yicha soliq majburiyatining bajarilishi yuzasidan solishtirma dalolatnoma tuzishi;

ushbu Kodeksga muvofiq soliq qarzi summasini so‘zsiz undirishi;

yuridik va jismoniy shaxslarni, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarini hisobga olishi, ularga soliq to‘lovchilarning identifikatsiya raqamini berishi hamda bu haqda statistika va ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlarga rasmiy ravishda ma’lum qilishi;

soliq to‘lovchining talabiga binoan uning soliq organlarida hisobga qo‘yilganligini tasdiqlovchi ma’lumotnomani berishi;

soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni qo‘llash masalalari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yozma tushuntirishlariga amal qilishi shart.

(27-modda birinchi qismining o‘n to‘qqizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq organlarining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

(27-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 25, 26-moddalari.

28-modda. Bojxona organlarining, yig‘imlarni undirishga doir vazifalarni amalga oshiruvchi davlat organlarining hamda tashkilotlarning huquq va majburiyatlari

Bojxona organlari tovarlarni va avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o‘tish chog‘ida bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka, ushbu Kodeksga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq soliqlar va yig‘imlarni undirish bo‘yicha huquqlardan foydalanadi hamda vazifalarni bajaradi.

(28-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Yig‘imlarni undirishga doir vazifalarni amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlarning huquqlari hamda majburiyatlari ushbu Kodeks va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

(28-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

29-modda. Soliq siri

Vakolatli organlar tomonidan olingan soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi ma’lumotlar soliq sirini tashkil etadi, quyidagilar bundan mustasno:

1) hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan, shu jumladan egasining roziligi bilan shunday foydalanish imkoni yaratilgan ma’lumotlar;

2) soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

3) soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishlari va bu qoidabuzarliklar uchun javobgarlik choralari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

(29-modda birinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

4) soliq to‘lovchilar tomonidan qo‘llaniladigan soliq rejimlari va qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar sifatida hisobga qo‘yilganlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

5) to‘langan soliqlarning va soliq qarzining summalari haqidagi ma’lumotlar;

6) yuridik shaxsning ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

7) xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

8) moliyaviy hisobot ma’lumotlari bo‘yicha daromadlar va xarajatlar summalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Soliq siri davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari, jalb etiladigan mutaxassislar va ekspertlar tomonidan oshkor etilishi mumkin emas, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

(29-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq sirini oshkor etish jumlasiga, xususan, soliq to‘lovchining tijorat sirini (ishlab chiqarish sirini) tashkil etuvchi va davlat organining mansabdor shaxsiga, jalb etilgan mutaxassisga yoki ekspertga ular o‘z majburiyatlarini bajarishi chog‘ida ma’lum bo‘lib qolgan axborotdan foydalanish yoki uni boshqa shaxsga berish kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq boshqa davlatlarning soliq organlariga yoki boshqa tegishli organlariga soliq to‘lovchi to‘g‘risida so‘ralgan ma’lumotlarni taqdim etish soliq sirini oshkor etish sirasiga kirmaydi.

Davlat organlariga kelib tushgan soliq sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar maxsus saqlash va foydalanish rejimiga ega.

Soliq sirini tashkil etuvchi ma’lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadigan mansabdor shaxslar foydalanish huquqiga ega.

Soliq sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjatlarning yo‘qotilishi yoki bunday ma’lumotlarning oshkor etilishi qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Ushbu moddaning qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tasarrufidagi, soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kiritadigan va ularga ishlov beradigan tashkilotlar tomonidan olingan ma’lumotlarga, shuningdek mazkur tashkilotlarning xodimlariga nisbatan tatbiq etiladi.

4-bob. Ushbu Kodeksda qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar

30-modda. Jismoniy shaxslar

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, chet davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar jismoniy shaxslardir.

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksi 16-moddasining birinchi qismi.

Tegishli maqomi o‘ziga nisbatan belgilangan soliq davri boshlanadigan yoki tugaydigan har qanday ketma-ket o‘n ikki oylik davr davomida jami bir yuz sakson uch kalendar kundan ko‘proq O‘zbekiston Respublikasida haqiqatda bo‘lgan jismoniy shaxslar O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e’tirof etiladi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismi qoidalari mazkur moddada belgilangan xususiyatlarni va O‘zbekiston Respublikasining soliq solish masalalariga doir xalqaro shartnomalari qoidalarini hisobga olgan holda qo‘llaniladi.

Agar jismoniy shaxs tegishli soliq davrida O‘zbekiston Respublikasida jami bir yuz sakson uch kundan kam bo‘lib, biroq ushbu turish muddati uning boshqa biror-bir davlatda turgan muddatidan ko‘proq bo‘lsa ham, u O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etiladi.

Agar jismoniy shaxs ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan o‘n ikki oylik muddat tugagunga qadar soliq organlariga uzoq muddatli mehnat shartnomasini yoki ushbu moddaning ikkinchi — to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan shartlar bajarilishini tasdiqlovchi boshqa hujjatni taqdim etsa, o‘zining arizasiga binoan O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasida haqiqatan bo‘lib turishi davri uning qisqa muddatli (olti oydan kam) davolanish yoki o‘qish uchun O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqqan davrida uzilmaydi.

Ushbu modda maqsadlarida chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning quyidagi davrlar mobaynida bo‘lgan vaqti uning O‘zbekiston Respublikasida haqiqatda bo‘lgan vaqtiga taalluqli hisoblanmaydi:

1) diplomatik yoki konsullik maqomiga ega shaxs sifatida bo‘lgan davri;

2) O‘zbekiston Respublikasi ishtirokchisi bo‘lgan, xalqaro shartnoma bo‘yicha tuzilgan xalqaro tashkilotning xodimi sifatida bo‘lgan davri;

3) tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmagan taqdirda, ushbu moddaning 1 va 2-bandlarida ko‘rsatilgan shaxslar oilasining a’zosi sifatida bo‘lgan davri.

O‘zbekiston Respublikasida haqiqatan qancha vaqt bo‘lganligidan qat’i nazar, chet elda xizmatni o‘tayotgan O‘zbekiston Respublikasining harbiy xizmatchilari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ishlash uchun xizmat safariga yuborilgan davlat hokimiyati organlarining xodimlari O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda bo‘lib turganlikni tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasiga kirish (O‘zbekiston Respublikasidan chiqish) kuni chet davlatlarning davlat chegaralarini kesib o‘tganlik to‘g‘risidagi belgi asosida aniqlanadi. Bunday belgi O‘zbekiston Respublikasining va (yoki) chet davlatning chegara nazoratini amalga oshiruvchi vakolatli organi tomonidan shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarga va (yoki) O‘zbekiston Respublikasiga kirish (O‘zbekiston Respublikasidan chiqish) hujjatlariga qo‘yiladi. Shuningdek shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda bo‘lib turganligi davlat organlari va tashkilotlar tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda taqdim etilgan, soliq organida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida ham aniqlanishi mumkin.

(30-moddaning to‘qqizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasi.

Agar ushbu moddaning to‘qqizinchi qismi qoidalari jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududida haqiqatan ham bo‘lib turganlik vaqtini aniq belgilash imkonini bermasa, jismoniy shaxs soliq organiga o‘zining kalendar yil (yillar) davomida haqiqatda bo‘lib turgan joyini tasdiqlovchi hujjatlarni (ularning ko‘chirma nusxalarini), shuningdek o‘zining haqiqatda bo‘lib turgan joyini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan har qanday boshqa hujjatlarni (yoki ularning ko‘chirma nusxalarini) taqdim etadi:

1) shaxsni tasdiqlovchi hujjat;

2) belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha yashash uchun ruxsatnoma;

3) haqiqatda bo‘lib turgan joyini tasdiqlovchi hujjatlar.

Agar ushbu moddaning qoidalariga yoki O‘zbekiston Respublikasining soliq solish masalalari bo‘yicha xalqaro shartnomalariga muvofiq, bir vaqtning o‘zida jismoniy shaxsni ham O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti, ham chet davlatning soliq rezidenti deb tan olish uchun asoslar bo‘lsa, uning soliq rezidentligi shunday xalqaro shartnomaning qoidalariga muvofiq jismoniy shaxs hayotiy manfaatlarining markazi asosida belgilanadi. Bunda quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda bittasi bajarilgan taqdirda, jismoniy shaxs hayotiy manfaatlarining markazi O‘zbekiston Respublikasida deb e’tirof etiladi:

1) jismoniy shaxsning eri (xotini) va (yoki) yaqin qarindoshlari O‘zbekiston Respublikasida yashasa;

2) O‘zbekiston Respublikasida jismoniy shaxsga va (yoki) uning eriga (xotiniga) va (yoki) uning yaqin qarindoshlariga mulk huquqida yoki boshqa asoslarda tegishli bo‘lgan, istalgan vaqtda uning yashashi va (yoki) eri (xotini) va (yoki) uning yaqin qarindoshlari yashashi mumkin bo‘lgan ko‘chmas mulkning mavjudligi.

Agar jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududida yashash joyi mavjud bo‘lmasa, ushbu Kodeksning maqsadlari uchun yashash joyi bu jismoniy shaxsning iltimosiga binoan uning bo‘lib turgan joyi bo‘yicha belgilanishi mumkin. Bunda jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda vaqtincha yashab turgan va ro‘yxatdan o‘tgan joyi (manzili) jismoniy shaxsning bo‘lib turgan joyi hisoblanadi.

(30-moddaning o‘n ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo‘lmagan jismoniy shaxslar O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari deb e’tirof etiladi.

31-modda. Yakka tartibdagi tadbirkorlar

Belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan va yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan jismoniy shaxs yakka tartibdagi tadbirkor hisoblanadi.

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksining 24-moddasi, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi, biroq yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tmagan jismoniy shaxslarga soliq solish va ularga nisbatan javobgarlik choralarini qo‘llash maqsadida yakka tartibdagi tadbirkor sifatida qaraladi.

32-modda. Yuridik shaxslar va ularning alohida bo‘linmalari

Quyidagilar yuridik shaxslardir:

1) O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxslar (O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari);

(32-modda birinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) chet davlatlarning qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan, fuqarolik huquqiy layoqatiga ega bo‘lgan chet el yuridik shaxslari (shu jumladan kompaniyalar va boshqa korporativ tuzilmalar);

(32-modda birinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

3) xalqaro tashkilotlar.

Yuridik shaxsning hududiy jihatdan alohida bo‘lgan, turgan yeri bo‘yicha doimiy ish joylari jihozlangan har qanday bo‘linmasi O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxsining alohida bo‘linmasidir.

Yuridik shaxsning alohida bo‘linmasini e’tirof etish, unga qanday vakolatlar berilganligidan va uning tashkil etilishi bo‘yicha yuridik shaxsning ta’sis hujjatlarida yoki boshqa tashkiliy-boshqaruv hujjatlarida aks ettirilganligi yoki aks ettirilmaganligidan qat’i nazar, amalga oshiriladi.

Agar ish joyi bir oydan ortiq muddatga yaratilgan bo‘lsa, u doimiy hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi alohida bo‘linmasining joylashgan yeri ushbu yuridik shaxs mazkur alohida bo‘linma orqali faoliyat olib boradigan joydir.

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksining 4-bobi.

33-modda. O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar. O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar

Quyidagi yuridik shaxslar O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlaridir:

1) O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

2) O‘zbekiston Respublikasining soliq solish masalalari bo‘yicha xalqaro shartnomalariga muvofiq ushbu xalqaro shartnomalarni qo‘llash maqsadlari uchun O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e’tirof etilgan chet el yuridik shaxslari;

3) haqiqatdagi boshqaruv joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lgan chet el yuridik shaxslari, agar O‘zbekiston Respublikasining soliq masalalari bo‘yicha xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa.

Ushbu moddaning birinchi qismi 3-bandining maqsadlari uchun chet el yuridik shaxsi haqiqatda boshqariladigan joy ushbu Kodeksning 34-moddasi qoidalariga muvofiq belgilanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeks 34-moddasi birinchi qismining 3-bandi.

Investitsiya fondining (pay fondining yoki jamoaviy investitsiyalarni amalga oshirish boshqa shaklining) boshqaruvchi kompaniyasini O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etish ushbu investitsiya fondini (pay fondini yoki jamoaviy investitsiyalarni amalga oshirishning boshqa shaklini) O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etish uchun asos bo‘lmaydi. Mazkur fondlar (jamoaviy investitsiyalarni amalga oshirishning boshqa shakllari) boshqaruvchi sheriklar yoki boshqa shaxslar tomonidan boshqarilgan taqdirda ham shunday qoidalar qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo‘lmagan yuridik shaxslar O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari deb e’tirof etiladi.

34-modda. Chet el yuridik shaxsi haqiqatda boshqariladigan joy

Quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda bittasiga rioya qilingan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi chet el yuridik shaxsi haqiqatda boshqariladigan joy deb e’tirof etiladi:

1) uning ijro etuvchi organi (ijro etuvchi organlari) o‘z faoliyatini ushbu yuridik shaxsga nisbatan muntazam ravishda O‘zbekiston Respublikasidan turib amalga oshiradi. Bunda O‘zbekiston Respublikasidagi faoliyatning boshqa davlatdagiga (davlatlardagiga) nisbatan sezilarli darajada kam hajmda amalga oshirilishi faoliyatni muntazam ravishda amalga oshirish deb e’tirof etilmaydi;

2) uning asosiy (rahbar) mansabdor shaxslari (faoliyatni rejalashtirish va nazorat qilishga, korxona faoliyatini boshqarishga va buning uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishga vakolatli bo‘lgan shaxslari) ushbu yuridik shaxsni rahbarlik asosida boshqarishni asosan O‘zbekiston Respublikasida amalga oshiradi. Bunda rahbarlik asosida boshqarish jumlasiga, xususan, ushbu chet el yuridik shaxsining joriy faoliyatiga doir bo‘lgan, boshqaruvning ijro organlari vakolatlariga kiradigan masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilish va boshqa harakatlarni amalga oshirish kiradi.

O‘zbekiston Respublikasida quyidagi faoliyatni amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasining chet el yuridik shaxsini haqiqatda boshqarish joyi sifatida e’tirof etishga sabab bo‘lmaydi:

1) aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig‘ilishining vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha qarorlar tayyorlash va (yoki) qabul qilish;

2) direktorlar kengashining majlisini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish;

3) chet el yuridik shaxsining faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish doirasida alohida funksiyalarni amalga oshirish.

Alohida funksiyalarni amalga oshirishga, xususan, strategik rejalashtirish, budjetlashtirish, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hamda boshqaruv hisobotini tayyorlash va tuzish, ushbu chet el yuridik shaxsining faoliyatini tahlil qilish, ichki audit hamda ichki nazorat, shuningdek standartlar, uslubiyatlar va (yoki) siyosatlarni qabul qilish (ma’qullash) kiradi.

Chet el yuridik shaxsining faoliyatiga nisbatan quyidagi shartlarga bir vaqtning o‘zida rioya etilgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi ushbu yuridik shaxs haqiqatda boshqariladigan joy deb e’tirof etilmaydi:

1) faoliyat o‘zi doimiy joylashgan yerdagi davlatda (uning hududida) o‘zining malakali xodimlari va aktivlaridan foydalangan holda amalga oshirilganda;

2) faoliyat O‘zbekiston Respublikasi bilan soliq solish masalalariga doir amaldagi xalqaro shartnomaga ega bo‘lgan chet davlat hududida amalga oshirilganda.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan shartlarning bajarilganligi hujjatlar bilan tasdiqlanishi kerak.

Agar ushbu moddaning birinchi qismi 1-bandida va (yoki) 2-bandida belgilangan shartlar bir vaqtning o‘zida ham O‘zbekiston Respublikasiga nisbatan, ham biror-bir chet davlatga nisbatan bajarilayotganligi hujjatlar bilan tasdiqlansa, agar chet el yuridik shaxsiga nisbatan quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda bittasi bajarilayotgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi chet el yuridik shaxsi haqiqatda boshqarilayotgan joy deb e’tirof etiladi:

1) buxgalteriya yoki boshqaruv hisobini yuritish (bundan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hamda boshqaruv hisobotlarini tayyorlash va tuzishga, shuningdek uning faoliyatini tahlil qilishga doir harakatlar mustasno) O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan bo‘lsa;

2) ish yuritish O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan bo‘lsa;

3) xodimlarni operativ boshqarish O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan bo‘lsa.

35-modda. Yuridik shaxsni tashkil etmagan chet el tuzilmalari

Chet davlatning qonunchilikka muvofiq yuridik shaxs tashkil etmagan holda tashkil etilgan va o‘z ishtirokchilarining (paychilarning, ishonch bildiruvchilarning yoki boshqa shaxslarning) yoxud boshqa benefitsiarlarning manfaatlarini ko‘zlab daromad (foyda) olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan tashkiliy tuzilma yuridik shaxsni tashkil etmagan chet el tuzilmasidir.

(35-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Yuridik shaxsni tashkil etmagan chet el tuzilmalari jumlasiga, xususan, fondlar, sherikliklar, shirkatlar, trastlar, jamoaviy investitsiyalar va (yoki) ishonchli boshqaruvning boshqa shakllari kiradi.

36-modda. Doimiy muassasa

Ushbu Kodeksning maqsadlarida chet el yuridik shaxsi O‘zbekiston Respublikasidagi tadbirkorlik faoliyatini to‘liq yoki qisman qaysi doimiy faoliyat joyida amalga oshirayotgan bo‘lsa, o‘sha joy chet el yuridik shaxsining O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deb e’tirof etiladi.

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksining 76-moddasi.

Doimiy muassasa deganda quyidagilar tushuniladi, chunonchi:

1) har qanday boshqaruv joyi, filial, bo‘linma, byuro, idora, ofis, xona, agentlik, fabrika, ustaxona, sex, laboratoriya;

2) tovarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, butlash, qadoqlash va o‘rab-joylash amalga oshiriladigan joy;

3) savdo shoxobchasi sifatida foydalaniladigan har qanday joy, shu jumladan ombor;

4) kon (shaxta), neft yoki gaz qudug‘i, karyer yoki tabiiy resurslar qazib olinadigan boshqa har qanday joy;

5) tabiiy resurslarni o‘rganish (qidirish), ishlatish, qazib olish va (yoki) ulardan foydalanish uchun qo‘llaniladigan qurilma yoki inshoot (shu jumladan uni montaj qilish), faqat qurilma yoki inshoot bir yuz sakson uch kundan ortiq muddat mobaynida foydalanilayotgan bo‘lishi yoki foydalanish uchun tayyor bo‘lishi shart;

6) quvur, gaz quvuri bilan bog‘liq faoliyat (shu jumladan nazorat yoki kuzatuv) amalga oshiriladigan har qanday joy;

7) o‘yin avtomatlarini (shu jumladan ularga qo‘shimchalarni), kompyuter tarmoqlari va aloqa kanallarini, attraksionlarni o‘rnatish, sozlash hamda ulardan foydalanish bilan bog‘liq faoliyat amalga oshiriladigan har qanday joy.

Quyidagilar ham doimiy muassasa deb e’tirof etiladi:

1) qurilish maydoni, qurilish, montaj qilish yoki yig‘ish obyekti yoxud ular bilan bog‘liq kuzatuv (nazorat qilish) faoliyati, basharti bunday maydon, obyekt yoki faoliyat istalgan ketma-ketlikdagi o‘n ikki oylik davr mobaynida bir yuz sakson uch kundan ortiq muddat mobaynida mavjud bo‘lsa yoki davom etsa;

2) xizmatlar ko‘rsatish, shu jumladan ushbu chet el yuridik shaxsi tomonidan o‘z xizmatchilari yoki shu maqsadlar uchun uning tomonidan yollangan boshqa xodimlar orqali bajariladigan maslahat xizmatlari, basharti bunday faoliyat (ayni bir loyiha bilan bog‘liq shaxs yoki chet el yuridik shaxsining bog‘langan tarafi uchun) istalgan ketma-ketlikdagi o‘n ikki oylik davr mobaynida kamida bir yuz sakson uch kun davom etsa.

Agar ushbu moddaning uchinchi qismi 1-bandida ko‘rsatilgan qurilish maydonida yoki boshqa obyektda turli vaqt davrlarida, bir yoki bir nechta o‘zaro bog‘liq chet el yuridik shaxsi tomonidan xizmatlar ko‘rsatish amalga oshirilsa, bu davrlarning har biri alohida olinganda ushbu moddaning uchinchi qismi 1 va 2-bandlarida ko‘rsatilgan muddatdan yoki muddatlardan oshmasa, ushbu xizmatlarga doir faoliyat davrlari mazkur qurilish maydonida yoki boshqa obyektda faoliyat amalga oshirilgan jami vaqt davriga qo‘shiladi.

Faqat tayyorgarlik yoki yordamchi xususiyatga ega bo‘lgan va chet el yuridik shaxsi tadbirkorlik faoliyatining asosiy turlari hisoblanmaydigan quyidagi faoliyat turlari doimiy muassasani tashkil etishga olib kelmaydi:

1) obyektlardan faqat ushbu yuridik shaxsga tegishli tovarlarni yoki buyumlarni saqlash yoxud namoyish etish maqsadida foydalanish;

2) o‘ziga tegishli tovarlar yoki buyumlar zaxiralarini faqat saqlash yoki namoyish etish maqsadida asrab turish;

3) o‘ziga tegishli tovarlar yoki buyumlar zaxiralarini faqat ularning boshqa shaxs tomonidan qayta ishlanishi maqsadida saqlab turish;

4) doimiy faoliyat joyini faqat tovarlarni, buyumlarni xarid qilish yoki ushbu chet el yuridik shaxsi uchun axborot yig‘ish maqsadida saqlab turish;

5) doimiy faoliyat joyini faqat tayyorgarlik yoki yordamchi xususiyatga ega bo‘lgan boshqa har qanday faoliyatni amalga oshirish maqsadida saqlab turish;

6) doimiy faoliyat joyini ushbu qismning 1 — 5-bandlarida eslatib o‘tilgan faoliyat turlarining istalgan birikmasi uchun saqlab turish, basharti ushbu doimiy faoliyat joyining bunday birikmadan yuzaga kelgan jami faoliyati tayyorgarlik xususiyatiga yoki yordamchi xususiyatga ega bo‘lsa. Bunda tayyorgarlik xususiyatiga va yordamchi xususiyatga ega bo‘lgan faoliyat uchinchi shaxslar uchun emas, balki O‘zbekiston Respublikasi norezidentining o‘zi uchun amalga oshirilishi kerak.

Ushbu moddaning beshinchi qismi qoidalari tadbirkorlik faoliyatining chet el yuridik shaxsi tomonidan foydalanilayotgan yoki saqlab turilgan doimiy joyiga nisbatan, agar bu chet el yuridik shaxsi yoki u bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxs tadbirkorlik faoliyatini O‘zbekiston Respublikasidagi ushbu joy yoki boshqa joy orqali amalga oshirsa va quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda bittasi bajarilsa, qo‘llanilmaydi:

1) ushbu joy yoki boshqa joy chet el yuridik shaxsi uchun yoxud u bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxs uchun ushbu moddaning qoidalariga muvofiq doimiy muassasani tashkil etsa;

2) ikki nafar shaxs, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi norezidenti bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan doimiy joy orqali yoki ayni shu norezident yoxud u bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxs tomonidan har ikkala joy orqali amalga

oshirilayotgan faoliyat turlarining birikmasi natijasi bo‘lgan jami faoliyat tayyorgarlik xususiyatiga yoki yordamchi xususiyatga ega bo‘lmasa.

Agar ikki nafar shaxs, shu jumladan chet el yuridik shaxslari tomonidan doimiy joy orqali yoki ayni shu shaxs yoxud u bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxs tomonidan har ikkala joy orqali amalga oshirilayotgan tadbirkorlik faoliyati umumiy tadbirkorlik faoliyatining bir qismi bo‘lgan o‘zaro to‘ldirib turuvchi funksiyalari bo‘lsa, ushbu moddaning oltinchi qismi qoidalari qo‘llaniladi.

Sug‘urta faoliyatini amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxsi, qayta sug‘urtalash holatlaridan tashqari, agar O‘zbekiston Respublikasi hududida sug‘urta mukofotlarini yig‘sa yoki tobe agent orqali tavakkalchilik xatarlaridan sug‘urta qilsa, u O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasaga ega deb e’tirof etiladi.

Agar biror-bir shaxs O‘zbekiston Respublikasida chet el yuridik shaxsi nomidan harakat qilsa va odatda mulk (xizmatlar ko‘rsatish) huquqini boshqa shaxslarga o‘tkazishga yoki mol-mulkdan ushbu chet el yuridik shaxsi nomidan foydalanish huquqini berishga doir kontraktlarni tuzishda asosiy rol o‘ynasa, bunday shaxsning faoliyati ushbu chet el yuridik shaxsining doimiy muassasasi tashkil etilishiga olib keladi.

Agar chet el yuridik shaxsi O‘zbekiston Respublikasidagi faoliyatini vositachilik (topshiriq) shartnomasi yoki shunga o‘xshash shartnoma asosida harakat qiluvchi va bitimlarni ushbu chet el yuridik shaxsi nomidan imzolashga vakolatli bo‘lmagan mustaqil agent orqali amalga oshirsa, ushbu moddaning to‘qqizinchi qismi qoidalari qo‘llanilmaydi. Bunda, agar bunday agent asosan o‘zi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir yoki bir nechta chet el yuridik shaxsi nomidan harakat qilsa, bu shaxs tobe agent deb hisoblanadi.

Chet el yuridik shaxsi tomonidan chet ellik xodimlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun boshqa yuridik shaxsga berish, quyidagi shartlar bir vaqtda bajarilgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasani tashkil etishga olib kelmaydi:

1) bunday xodimlar qaysi yuridik shaxsga berilgan bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxs nomidan va uning manfaatlarini ko‘zlab harakat qilsa;

2) xodimlarni bergan yuridik shaxs ushbu xodimlarning ish natijalari uchun javobgar bo‘lmasa;

3) yuridik shaxsning xodimlarni berishdan olgan daromadi uning ushbu xodimlarni berish yuzasidan soliq davrida qilgan xarajatlari umumiy summasining 10 foizidan oshmasa.

Chet el yuridik shaxsi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyat birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma asosida amalga oshirilgan taqdirda:

1) bunday shartnoma har bir ishtirokchisining faoliyati ushbu moddada belgilangan qoidalarga muvofiq doimiy muassasani tashkil etadi;

2) bunday shartnomaning har bir ishtirokchisi tomonidan soliq majburiyatlarini bajarish ushbu Kodeksda belgilangan tartibda mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Chet el yuridik shaxsining faoliyati bunday faoliyatni O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirish boshlangan sanadan e’tiboran ushbu moddaning qoidalariga muvofiq doimiy muassasani tashkil etadi.

Ushbu Kodeksni qo‘llash maqsadida chet el yuridik shaxsi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshirish boshlangan sana deb quyidagi sanalar e’tirof etiladi:

1) quyidagilar yuzasidan har qanday kontraktni (shartnomani, bitimni) tuzish sanasi:

a) O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar ko‘rsatish, shu jumladan birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma doirasida xizmatlar ko‘rsatish;

b) ushbu yuridik shaxs nomidan O‘zbekiston Respublikasida harakatlarni amalga oshirish vakolatlarini berish;

v) tovarlarni O‘zbekiston Respublikasida foydalanish yoki realizatsiya qilish maqsadida olish;

g) O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar ko‘rsatish uchun xizmatlarni olish.

2) O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni amal oshirish maqsadida birinchi mehnat shartnomasini (bitimni, kontraktni) tuzish sanasi;

3) norezident bo‘lgan jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasiga kelgan sana, chet el yuridik shaxsi tomonidan ushbu qismning 1 yoki 2-bandlarida ko‘rsatilgan kontrakt (shartnoma, bitim) shartlarini bajarish uchun xodim yoki

boshqa xodimlar yollangan sana.

Agar ushbu moddaning o‘n to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan bir nechta shart bajarilsa, ushbu sanalarning nisbatan ilgarigisi, biroq ushbu moddaning o‘n to‘rtinchi qismi 2 va 3-bandlarida ko‘rsatilgan sanalarning birinchisidan ilgari kirib kelmagan sana norezidentning O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshirishi boshlangan sana deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasani tashkil etishga olib keluvchi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxsi ushbu Kodeksning 130-moddasida belgilangan tartibda soliq organida soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tishi shart.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 130-moddasi.

Agar chet el yuridik shaxsi bitta soliq organida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan ikki va undan ortiq doimiy muassasa tashkil etilishiga olib keluvchi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirsa, bitta doimiy muassasa barcha shunday doimiy muassasalar guruhi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim. Mazkur qoida ushbu moddaning uchinchi qismi 1-bandida ko‘rsatilgan qurilish maydonini, qurilish, montaj yoki boshqa obyektni tashkil etuvchi faoliyatga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Agar chet el yuridik shaxsi ushbu moddaning ikkinchi, uchinchi yoki sakkizinchi qismlarida ko‘rsatilgan faoliyatni amalga oshiradigan, ro‘yxatdan o‘tkazilgan doimiy muassasaga ega bo‘lsa va ushbu doimiy muassasa ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydan farqlanuvchi joyda shunday yoki shunga o‘xshash faoliyatni amalga oshirsa, bunday faoliyatni amalga oshirish ham mazkur faoliyatni amalga oshirish boshlangan sanadan e’tiboran ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan doimiy muassasani tashkil etishga olib keladi.

Agar chet el yuridik shaxsining faoliyati ko‘chma xususiyatga ega bo‘lsa (yo‘l qurilishi, foydali qazilmalarni qidirish va ko‘chma xususiyatga ega bo‘lgan boshqa faoliyat turlari), bu holda butun loyihaga, uning ko‘chma xususiyatidan qat’i nazar, doimiy muassasa sifatida qaraladi.

Agar doimiy muassasa O‘zbekiston Respublikasining Yagona soliq to‘lovchilar reyestridan chiqarilganidan keyin chet el yuridik shaxsi o‘n ikki oylik davr ichida ushbu moddaning ikkinchi yoki uchinchi qismlarida ko‘rsatilgan faoliyatini tiklasa, u doimiy muassasani tashkil etgan deb e’tirof etiladi va bunday faoliyat tiklangan sanadan e’tiboran soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim.

37-modda. O‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxslar

Agar shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari ushbu shaxslar tuzadigan bitimlarning shartlariga va (yoki) natijalariga va (yoki) ushbu shaxslar faoliyatining iqtisodiy natijalariga yoki o‘zlarini vakil qilgan shaxslarning faoliyatiga ta’sir ko‘rsatsa, ushbu qismda ko‘rsatilgan shaxslar soliq solish maqsadlarida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxslar deb e’tirof etiladi.

Shaxslarning o‘zaro bog‘liqligini e’tirof etish uchun bir shaxsning boshqa shaxslar kapitalida ular o‘rtasida tuzilgan bitimga muvofiq ishtirok etishi tufayli yoxud bir shaxsning boshqa shaxslar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni belgilashda boshqacha imkoniyati mavjud bo‘lganda ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan ta’sir inobatga olinadi. Bunday ta’sir, u bitta shaxs tomonidan bevosita va mustaqil ravishda yoki shaxsning ushbu moddaga muvofiq o‘zaro bog‘liq deb e’tirof etiladigan o‘zaro bog‘liq shaxslari bilan birgalikda ko‘rsatilishi mumkinligidan yoki mumkin emasligidan qat’i nazar, inobatga olinadi.

Ushbu Kodeksning maqsadlarida mazkur moddaning birinchi va ikkinchi qismlari inobatga olingan holda quyidagilar o‘zaro bog‘liq shaxslar deb e’tirof etiladi:

1) yuridik shaxslar, agar bir yuridik shaxs boshqa yuridik shaxsda bevosita va (yoki) bilvosita ishtirok etsa va bunday ishtirokning ulushi 20 foizdan ortiqni tashkil etsa;

2) jismoniy shaxs va yuridik shaxs, agar jismoniy shaxs ushbu yuridik shaxsda bevosita va (yoki) bilvosita ishtirok etsa hamda bunday ishtirokning ulushi 20 foizdan ortiqni tashkil etsa;

3) yuridik shaxslar, agar ayni bir shaxs bevosita va (yoki) bilvosita ushbu yuridik shaxslarda ishtirok etsa va har bir yuridik shaxsdagi bunday ishtirokning ulushi 20 foizdan ortiqni tashkil etsa;

4) yuridik shaxs va ushbu yuridik shaxsning yakka tartibdagi ijro etuvchi organi tayinloviga (sayloviga) ko‘ra yoki ushbu yuridik shaxsning kollegial ijro etuvchi organi yoki direktorlar kengashi (kuzatuv kengashi) tarkibi kamida 50 foizining tayinloviga (sayloviga) ko‘ra vakolatlarga ega bo‘lgan shaxs (shu jumladan jismoniy shaxs). Jismoniy shaxs bilan bog‘liq holda, uning vakolatlarini belgilash chog‘ida jismoniy shaxsning ushbu qismning 11-bandida ko‘rsatilgan o‘zaro bog‘liq shaxslari bilan birgalikdagi vakolatlari ham inobatga olinadi;

5) kollegial ijro etuvchi organ yoki direktorlar kengashi (kuzatuv kengashi) tarkibining kamida 50 foizi ayni bir shaxsning (shu jumladan jismoniy shaxsning) qaroriga ko‘ra tayinlangan yoki saylangan yuridik shaxslar. Jismoniy shaxs bilan bog‘liq holda esa, ushbu shaxsning qarorlarini belgilash chog‘ida uning ushbu qismning 11-bandida ko‘rsatilgan o‘zaro bog‘liq shaxslari bilan birgalikda qabul qilingan qarorlari ham inobatga olinadi;

6) kollegial ijro etuvchi organ yoki direktorlar kengashi (kuzatuv kengashi) tarkibining 50 foizdan ortig‘ini ayni bir jismoniy shaxslar tashkil etadigan yuridik shaxslar. Bunda jismoniy shaxsning bevosita ishtiroki ushbu qismning 11-bandida ko‘rsatilgan shaxs bilan o‘zaro bog‘liq shaxslarning ishtirokiga tenglashtiriladi;

7) yuridik shaxs va uning yakka tartibdagi ijro etuvchi organi vakolatlarini amalga oshiruvchi shaxs;

8) yakka tartibdagi ijro etuvchi organning vakolatlari ayni bir shaxs tomonidan amalga oshiriladigan yuridik shaxslar;

9) yuridik shaxslar va (yoki) jismoniy shaxslar, agar ushbu shaxslarning biri boshqa shaxsda bevosita ishtirok etishini aks ettiruvchi ketma-ketlikda har bir ilgarigi shaxsning keyingi yuridik shaxsdagi bevosita ishtiroki 50 foizdan ortiqni tashkil etsa;

10) jismoniy shaxslar, agar bir jismoniy shaxs boshqa jismoniy shaxsga lavozim mavqeyi bo‘yicha bo‘ysunsa;

11) jismoniy shaxs, uning eri (xotini), ota-onasi (shu jumladan uni farzandlikka olgan ota-onasi), erining (xotinining) ota-onasi, farzandlari (shu jumladan u farzandlikka olgan farzandlar), to‘liq va to‘liq bo‘lmagan qarindosh aka-ukalari va opa-singillari, shuningdek vasiysi (homiysi) va jismoniy shaxs homiyligidagi shaxs.

Jismoniy shaxsning va uning ushbu moddaning uchinchi qismi 11-bandida ko‘rsatilgan o‘zaro bog‘liq shaxslarining yuridik shaxsda ishtirok etishining jami ulushi ushbu moddaning maqsadi uchun jismoniy shaxsning ushbu yuridik shaxsda ishtirok etishi ulushi deb e’tirof etiladi.

Agar shaxslar tomonidan tuziladigan bitimlarning shartlariga va (yoki) natijalariga va (yoki) bu shaxslar faoliyatining iqtisodiy natijalariga bir yoki bir nechta boshqa shaxslar tomonidan ularning bozordagi ustun mavqeyi tufayli yoxud boshqa shunga o‘xshash holatlar tufayli ta’sir ko‘rsatilsa, bunday ta’sir shaxslarni o‘zaro bog‘liq deb e’tirof etish uchun asos bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining O‘zbekiston yuridik shaxslaridagi bevosita va (yoki) bilvosita ishtiroki bunday yuridik shaxslarni o‘zaro bog‘liq deb e’tirof etish uchun o‘z-o‘zidan asos bo‘lmaydi. Mazkur yuridik shaxslar ushbu moddada nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko‘ra o‘zaro bog‘liq deb e’tirof etilishi mumkin.

Agar o‘zaro bog‘liq shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko‘rsatilgan belgilarga ega bo‘lsa, ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilmagan boshqa asoslar bo‘yicha shaxslarni o‘zaro bog‘liq deb e’tirof etish sud tomonidan amalga oshiriladi.

38-modda. Yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi

Soliq solish maqsadida bir jismoniy yoki yuridik shaxsning (bundan buyon matnda shaxs deb yuritiladi) ulushi tanlangan boshqa yuridik shaxsdagi (bundan buyon matnda tanlangan yuridik shaxs deb yuritiladi) ulushni aniqlash uchun ushbu shaxsning tanlangan yuridik shaxsda bevosita va bilvosita ishtirok etish ulushlarining summasi tarzida aniqlanadi.

Tanlangan yuridik shaxs ovoz beruvchi aksiyalarining bevosita shu shaxsga tegishli bo‘lgan ulushi yoki tanlangan yuridik shaxsning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) bevosita ushbu shaxsga tegishli bo‘lgan ulushi yuridik shaxsda bevosita ishtirok etish ulushi deb e’tirof etiladi.

Shaxsning tanlangan yuridik shaxsda bevosita ishtirok etish ulushini aniqlash mumkin bo‘lmagan taqdirda, ishtirokchilarning tanlangan yuridik shaxsdagi soniga mutanosib ravishda aniqlanadigan ulush shaxsning tanlangan yuridik shaxsda bevosita ishtirok etish ulushi deb e’tirof etiladi.

Quyidagi tartibda aniqlanadigan ulush shaxsning tanlangan yuridik shaxsda bilvosita ishtirok etish ulushi deb e’tirof etiladi:

1) ushbu shaxsning tanlangan yuridik shaxsda ishtirok etishining barcha ketma-ketligi har bir ilgarigi yuridik shaxsning tegishli ketma-ketlikdagi har bir keyingi yuridik shaxsdagi bevosita ishtiroki orqali aniqlanadi;

2) har bir ilgarigi yuridik shaxsning har bir keyingi yuridik shaxsdagi bevosita ketma-ketlikdagi ishtirok etish ulushi aniqlanadi;

3) har bir shunday ketma-ketlik uchun ushbu ketma-ketlikning barcha yuridik shaxslari uchun bevosita ishtirok etish ulushi topiladi;

4) har bir shunday ketma-ketlik uchun topilgan bevosita ishtirok etish ulushlarining barchasi jamlanadi.

Tashkilotda ishtirok etish ulushini aniqlashda jismoniy shaxsning yoki yuridik shaxsning yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmasidagi ishtirok etish ulushi ham hisobga olinadi, ushbu shaxs qaysi chet davlatning (hududning) qonun hujjatlariga muvofiq ta’sis etilgan bo‘lsa, shu qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tashkilotlarning yoxud yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi o‘zga chet el tuzilmalarining kapitalida ishtirok etishga haqlidir.

Yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini aniqlashda O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq ko‘pi bilan bir yil muddatga tuzilgan REPO shartnomasi doirasida olingan qimmatli qog‘ozlarga egalik qilish orqali amalga oshirilgan ishtirok yoki chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq REPO operatsiyasi deb e’tirof etiladigan operatsiya natijasida amalga oshirilgan ishtirok hisobga olinmaydi.

Bunday hollarda yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini aniqlash maqsadida ushbu qimmatli qog‘ozlar, agar REPOning birinchi qismi bo‘yicha sotuvchi tomonidan sotilgan qimmatli qog‘ozlar uning tomonidan REPOning boshqa operatsiyasi bo‘yicha yoki qimmatli qog‘ozlar qarziga doir operatsiyalar bo‘yicha sotilsagina, REPOning birinchi qismi bo‘yicha qimmatli qog‘ozlarni sotuvchi bo‘lgan shaxsda hisobga olinadi.

REPOning ikkinchi qismi bajarilmagan yoki to‘liq bo‘lmagan hajmda bajarilgan, shuningdek REPO shartnomasi ko‘pi bilan bir yil muddatga tuzilgan taqdirda, bir yuridik shaxsning boshqa yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini aniqlash ushbu moddaning beshinchi qismida belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olinmagan holda amalga oshiriladi.

Yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini aniqlashda O‘zbekiston Respublikasining yoki chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tuzilgan qimmatli qog‘ozlar qarziga doir shartnoma doirasida ko‘pi bilan bir yil muddatga olingan qimmatli qog‘ozlarga egalik qilish vositasida amalga oshirilgan ishtirok hisobga olinmaydi.

Bunday hollarda yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini aniqlash maqsadida bu qimmatli qog‘ozlar, agar qimmatli qog‘ozlar qarziga doir shartnoma doirasida berilgan qimmatli qog‘ozlar kreditor tomonidan qimmatli qog‘ozlar qarziga doir boshqa operatsiya bo‘yicha yoki REPO operatsiyasi bo‘yicha olingan bo‘lsagina, kreditor bo‘lgan (qimmatli qog‘ozlarni qarzga beradigan) shaxsda hisobga olinadi.

Qimmatli qog‘ozlar qarziga doir operatsiyalar bo‘yicha qimmatli qog‘ozlarni qaytarish majburiyatlari bajarilmagan yoki to‘liq bo‘lmagan hajmda bajarilgan, shuningdek qimmatli qog‘ozlar qarzi yuzasidan bir yildan ortiq muddatga shartnoma tuzilgan taqdirda bir yuridik shaxsning boshqa yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini aniqlash ushbu moddaning yettinchi qismida belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olinmagan holda amalga oshiriladi.

Bir yuridik shaxsning boshqa yuridik shaxsda yoki jismoniy shaxsning yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini aniqlashdagi qo‘shimcha holatlar sud tomonidan aniqlanadi.

39-modda. Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari

Soliq solish maqsadida bir vaqtning o‘zida quyidagi shartlarga javob beradigan chet el yuridik shaxsi nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi deb e’tirof etiladi:

1) chet el yuridik shaxsi O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etilmaydi;

2) O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e’tirof etiladigan yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar chet el yuridik shaxsini nazorat qiluvchi shaxslar hisoblanadi.

Nazorat qiluvchi shaxslari O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e’tirof etiladigan yuridik va (yoki) jismoniy shaxs bo‘lgan, yuridik shaxsni tashkil etmagan chet el tuzilmasi ham nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi

deb e’tirof etiladi.

Investitsiya fondining (pay fondining yoki jamoaviy investitsiyalarni amalga oshirish boshqa shaklining) boshqaruvchi kompaniyasini O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etish o‘z-o‘zidan ushbu qismda ko‘rsatilgan shaxs o‘zi uchun nazorat qiluvchi shaxs bo‘lgan ushbu investitsiya fondini (pay fondini yoki jamoaviy investitsiyalarni amalga oshirishning boshqa shaklini) nazorat qiluvchi kompaniya deb e’tirof etishga asos bo‘lmaydi. Mazkur fondlar (jamoaviy investitsiyalarni amalga oshirishning boshqa shakllari) boshqaruvchi sheriklar yoki o‘zga shaxslar tomonidan boshqarilgan taqdirda ham shunday qoidalar qo‘llaniladi.

40-modda. Chet el kompaniyalari ustidan nazorat qilish va nazorat qiluvchi shaxslar

Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq solish maqsadida quyidagilar chet el kompaniyasining nazorat qiluvchi shaxslari deb e’tirof etiladi:

1) chet el kompaniyasida ishtirok etish ulushi 25 foizdan ortiqni tashkil etadigan, O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etiladigan yuridik yoki jismoniy shaxs;

2) ushbu kompaniyada ishtirok etish ulushi 10 foizdan ortiq bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs, agar O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e’tirof etiladigan barcha shaxslarning ushbu kompaniyada ishtirok etish ulushi 50 foizdan ortiq bo‘lsa.

Ushbu moddaning birinchi qismi maqsadi uchun chet el kompaniyasida ishtirok etish ulushi ushbu Kodeksning 38-moddasida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan jismoniy shaxslar uchun ishtirok etish ulushi ushbu Kodeksning 37-moddasi uchinchi qismi 11-bandida ko‘rsatilgan shaxslar bilan birgalikda hisobga olinadi.

Agar shaxsning chet el kompaniyasida ishtirok etishi listing tartib-taomilidan o‘tgan va (yoki) tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan birjalarda yoki chet el moliyaviy vositachilari ro‘yxatiga kiritilgan birjalarda muomalaga kiritilgan qimmatli qog‘ozlar (depozitar qaydlar) emitenti bo‘lgan bir yoki bir nechta O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxsining bevosita va (yoki) bilvosita ishtirok etishi orqaligina amalga oshirilgan bo‘lsa hamda bu shaxs ushbu moddaning beshinchi — o‘n ikkinchi qismlariga muvofiq nazoratchi shaxs deb tan olinmasa, mazkur shaxs chet el kompaniyasining nazorat qiluvchi shaxsi deb e’tirof etilmaydi. Bunda chet el moliyaviy vositachilari deganda O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish bo‘yicha vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatga kiritilgan chet el fond birjalari va chet el depozitar-kliring tashkilotlari tushuniladi.

Qaysi shaxsning ishtirok etish ulushiga nisbatan kompaniyada ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan shartlarga rioya etilmasa, biroq bunda bu shaxs mazkur kompaniya ustidan nazoratni shaxsiy manfaatlarini yoki ushbu Kodeksning 37-moddasi uchinchi qismi 11-bandida nazarda tutilgan shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirsa, o‘sha shaxs ham chet el kompaniyasining nazorat qiluvchi organi deb e’tirof etiladi.

Sof foydani (daromadni) taqsimlashga nisbatan kompaniya tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatish yoki ta’sir ko‘rsatish imkoniyati ushbu Kodeksning maqsadlari uchun kompaniya ustidan nazoratni amalga oshirish deb e’tirof etiladi. Bunda shaxsning bunday qarorlarga ham ushbu kompaniyada bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi tufayli, ham ushbu kompaniyani boshqarish qaysi shartnomaning (bitimning) predmeti bo‘lsa, o‘sha shartnomada (bitimda) ishtirok etishi tufayli yoxud ushbu shaxs hamda kompaniya va (yoki) o‘zga shaxslar o‘rtasidagi boshqa o‘ziga xos munosabatlar tufayli ta’sir etishi yoki ta’sir etish imkoniyati hisobga olinadi.

Yuridik shaxsni tashkil etmagan chet el tuzilmasining aktivlarini boshqaruvchi shaxs tomonidan ushbu tuzilma olgan foydani (daromadni) jismoniy shaxs qaysi davlatning (hududning) fuqarosi bo‘lsa yoki yuridik shaxs qaysi davlatda (hududda) tashkil etilgan bo‘lsa, o‘sha davlatning (hududning) qonunchiligiga va mazkur yuridik shaxsning ta’sis hujjatlariga muvofiq taqsimlashga nisbatan qabul qilinadigan qarorga ta’sir ko‘rsatish yoki ta’sir ko‘rsatish imkoniyati ushbu Kodeksning maqsadlari uchun yuridik shaxsni tashkil etmagan chet el tuzilmasi ustidan nazoratni amalga oshirish deb e’tirof etiladi.

(40-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushbu Kodeksning maqsadlari uchun yuridik shaxsni tashkil etmagan chet el tuzilmasining nazorat qiluvchi shaxsi deb ushbu tuzilmaning muassisi (asoschisi) e’tirof etiladi.

Agar ushbu moddaning o‘n birinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa va agar yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmasining muassisiga (asoschisiga) nisbatan bir vaqtning o‘zida quyidagi barcha shartlarga rioya etilsa, ushbu muassis (asoschi) mazkur tuzilmani nazorat qiluvchi shaxs deb e’tirof etilmaydi:

1) bunday shaxs bu tuzilmaning foydasini (daromadini) bevosita yoki bilvosita to‘liq yoki qisman olishga (olishni talab qilishga) haqli bo‘lmasa;

2) bunday shaxs bu tuzilmaning foydasini (daromadini) yoki uning bir qismini tasarruf etishga haqli bo‘lmasa;

3) bunday shaxs bu tuzilmaga berilgan mol-mulkka bo‘lgan huquqni o‘zida saqlab qolmagan bo‘lsa (mol-mulk bu tuzilmaga qaytarmaslik shartlari asosida berilgan bo‘lsa);

4) bunday shaxs bu tuzilma ustidan ushbu moddaning yettinchi qismiga muvofiq nazoratni amalga oshirmasa.

Agar yuridik shaxsni tashkil etmagan chet el tuzilmasining muassisi (asoschisi) bu tuzilmaning aktivlarini o‘z mulkiga o‘tkazish huquqiga ega bo‘lmasa, ushbu moddaning to‘qqizinchi qismi 3-bandida nazarda tutilgan shart bajarilgan deb e’tirof etiladi. Bunda ushbu tuzilmaning aktivlarini tuzilmaning butun mavjud bo‘lish davri mobaynida, shuningdek u tugatilgan (shartnoma tugatilgan, bekor qilingan) taqdirda, to‘liq yoki qisman mulkka o‘tkazishga doir cheklov ushbu tuzilma tashkil etilgan chet davlatning (hududning) qonunchiligi va (yoki) tuzilmaning ta’sis hujjatlari bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

(40-moddaning o‘ninchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu moddaning to‘qqizinchi qismida ko‘rsatilgan shaxs, agar u ushbu moddaning to‘qqizinchi qismi 1 — 3-bandlarida ko‘rsatilgan huquqlardan istalganini olish huquqini o‘zida saqlab qolgan bo‘lsa, yuridik shaxsni tashkil etmagan chet el tuzilmasining nazorat qiluvchi shaxsi deb e’tirof etiladi.

Yuridik shaxsni tashkil etmagan chet el tuzilmasining ta’sis etuvchisi (asoschisi) hisoblanmaydigan o‘zga shaxs ham, agar bunday shaxs tuzilma ustidan nazoratni amalga oshirsa va bunda unga nisbatan quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda bittasi bajarilsa, ushbu Kodeks maqsadlarida ushbu shaxs mazkur tuzilmaning nazorat qiluvchi shaxsi deb e’tirof etiladi:

1) bunday shaxs ushbu tuzilma tomonidan olinadigan daromadga (uning bir qismiga) nisbatan haqiqiy huquqqa ega bo‘lsa;

2) bunday shaxs ushbu tuzilmaning mol-mulkini tasarruf etishga haqli bo‘lsa;

3) bunday shaxs ushbu tuzilma tugatilgan (shartnoma tugatilgan, bekor qilingan) taqdirda uning mol-mulkini olishga haqli bo‘lsa.

O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti o‘zini mustaqil ravishda ushbu moddaning birinchi yoki beshinchi qismlarida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra, chet el kompaniyasining nazorat qiluvchi shaxsi deb yoki ushbu moddaning to‘qqizinchi yoki o‘n ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra, yuridik shaxsni tashkil etmagan chet el tuzilmasining nazorat qiluvchi shaxsi deb e’tirof etishga haqli. Bunday hollarda, o‘zini nazorat qiluvchi shaxs deb e’tirof etgan shaxs o‘zi hisobga olingan joydagi soliq organiga ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda tegishli bildirish xati yuboradi.

Yuridik shaxsni tashkil etmagan chet el tuzilmalarining nazorat qiluvchi shaxslarini e’tirof etishning ushbu moddada belgilangan qoidalari, qaysi chet el yuridik shaxslarini nazorat qiluvchi shaxslar uchun ular ta’sis etilgan yoki fuqarosi bo‘lgan chet davlatning (hududning) qonunchiligiga muvofiq kapitalda ishtirok etishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, o‘sha shaxslarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

(40-moddaning o‘n to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

41-modda. Dividendlar va foizlar

Quyidagilar dividendlar deb e’tirof etiladi:

1) yuridik shaxsning foydasini (shu jumladan imtiyozli aksiyalar bo‘yicha foizlar tarzidagi foydasini) ushbu yuridik shaxsning aksiyadoriga (ishtirokchisiga) tegishli aksiyalar (ulushlar) bo‘yicha taqsimlash chog‘ida aksiyador (ishtirokchi) tomonidan olingan har qanday daromad;

2) tugatish chog‘ida yuridik shaxsning aksiyadoriga (ishtirokchisiga) ushbu aksiyadorning (ishtirokchining) shu yuridik shaxsning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi miqdoridan ko‘p bo‘lgan qismi bo‘yicha pul yoki natura shaklidagi to‘lovlar;

3) jamiyatdan chiqarilgan yoki chiqib ketgan ishtirokchiga ulushi qismining chiqarilish yoki chiqib ketish sanasidan oldingi oxirgi hisobot davri uchun jamiyatning buxgalteriya hisobotlari ma’lumotlari bo‘yicha aniqlanadigan haqiqiy qiymatini ushbu aksiyadorning (ishtirokchining) shu yuridik shaxsning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi miqdoridan ko‘p bo‘lmagan qismi bo‘yicha to‘lash;

4) ushbu yuridik shaxsning o‘z kapitali (mol-mulki) hisobiga ustav fondi (ustav kapitali) oshgan taqdirda yuridik shaxs aksiyadorining (ishtirokchisining) qo‘shimcha aksiyalar qiymati (ulush nominal qiymatining oshishi) tarzida olingan daromadlari.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan daromadlar, basharti ular aksiyadorlarning (ishtirokchilarning) bunday daromadni to‘lovchi yuridik shaxsning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga mutanosib ravishda to‘lansa, dividendlar deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan olinadigan, chet davlatlarning qonunchiligiga muvofiq dividendlar jumlasiga kiritiladigan har qanday daromadlar ham dividendlar deb e’tirof etiladi.

(41-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu Kodeksning maqsadlari uchun xususiy korxona mulkdoriga, oilaviy korxona ishtirokchisiga yoki fermer xo‘jaligi boshlig‘iga, shuningdek bank va mikromoliya tashkilotlaridagi islomiy qimmatli qog‘ozlarga (sertifikatlarga) ega bo‘lgan shaxslarga bunday yuridik shaxslar tasarrufida qolgan foyda summasidan to‘lanadigan daromadlar dividendlarga tenglashtiriladi.

(41-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.03.2026-y., 03/26/1126/0279-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 29-iyun)

Ilgari bildirilgan (belgilangan) har qanday daromad, shu jumladan har qanday turdagi qarz majburiyatlari bo‘yicha diskont tarzida olingan daromad (uni rasmiylashtirish usulidan qat’i nazar), islomiy moliya faoliyatidan olingan daromad, shu jumladan pul omonatlari bo‘yicha olingan daromad foizlar deb e’tirof etiladi.

(41-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.03.2026-y., 03/26/1126/0279-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 29-iyun)

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni.

42-modda. Daromad

Nafni baholash imkoniyati mavjud bo‘lgan taqdirda va bunday nafni baholash mumkin bo‘lgan darajada hisobga olinadigan pul yoki natura shaklidagi iqtisodiy naf daromad deb e’tirof etiladi.

43-modda. O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan daromadlar

Soliq to‘lovchining daromadlari O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlar yoki O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar jumlasiga kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasidagi iqtisodiy faoliyatdan olingan daromadlar hamda O‘zbekiston Respublikasining yurisdiksiyasi, huquq layoqati va (yoki) uning davlat organlari va iqtisodiy munosabatlarning boshqa subyektlari bilan iqtisodiy munosabatlarga bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa daromadlar O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlar jumlasiga kiradi.

Agar ushbu Kodeksning qoidalari daromadlarni O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlarga yoki O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlarga qat’iy kiritish imkoniyatini bermasa, daromadni u yoki bu manbaga kiritish O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur daromadlarning O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlarga kiritish mumkin bo‘lgan ulushi va O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlarga kiritish mumkin bo‘lgan ulushi ayni shunday tartibda aniqlanadi.

44-modda. Royalti

Har qanday nomoddiy aktivdan foydalanganlik yoki foydalanish huquqi uchun to‘lovlar royalti deb e’tirof etiladi, shu jumladan:

san’at, adabiyot, ilm-fan, shu jumladan dasturiy ta’minot va ma’lumotlar bazalariga, chizmaga, dizaynga yoki modelga, rejaga, maxfiy formulaga, texnologiyaga yoki jarayonga, audiovizual asarlarga hamda turdosh huquqlar obyektlariga, shu jumladan ijrolar va fonogrammalarga bo‘lgan mualliflik huquqlari;

patentlar, tovar belgilari, savdo markalari yoki huquqning boshqa shunga o‘xshash turlari;

sanoat, tijorat yoki ilmiy tajribaga taalluqli axborot (nou-xau). Bunda ilmiy-texnika sohasidagi intellektual faoliyat natijalari va (yoki) kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullari to‘g‘risidagi, ilgarigi tajribadan kelib chiqadigan, iqtisodiy faoliyatda amaliy jihatdan qo‘llaniladigan, shuningdek (uning uchinchi shaxslarga ma’lum emasligi tufayli) haqiqiy yoki potensial tijorat qiymatiga ega bo‘lgan sanoat, tijorat yoki ilmiy xususiyatga ega axborot (agar bunday ma’lumotlardan qonuniy asosda erkin foydalanish imkoniyati uchinchi shaxslarda mavjud bo‘lmasa) va uning oshkor etilishi natijasida iqtisodiy naf olish mumkin bo‘lsa, bu axborot nou-xau deb tushuniladi.

Quyidagilar uchun to‘lanadigan to‘lovlarga royalti sifatida qaralmaydi:

1) kompyuter dasturlaridan foydalanganlik (shu jumladan dasturni joylashtirilgan ichki imkoniyatlardan foydalangan holda sozlash yo‘li bilan moslashtirish), agar foydalanish shartlari bunday dasturning mo‘ljallangan funksional maqsadi bilan cheklangan va uni takrorlash bunday foydalanish uchun zarur bo‘lgan ko‘chirma nusxalar soni bilan chegaralangan bo‘lsa;

2) shaxsning foydalanishi, egalik qilishi va (yoki) tasarruf etishi uchun ushbu qismning 1-bandida belgilangan intellektual mulk huquqi obyektlari o‘zida aks ettirilgan yoki turgan tovarlarni (shu jumladan axborot tashuvchilarni) sotib olganlik;

3) kompyuter dasturlarini va ma’lumotlar bazalarini (hisoblash texnikasining dasturiy vositalarini va axborot mahsulotlarini) ishlab chiqish, shuningdek dasturlarni o‘rnatish, ularga ishlov berish va ularni sozlash, moslashtirish va modifikatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatganlik;

4) buyurtmachi bilan tuzilgan shartnoma asosida xizmatlar ko‘rsatish natijasi hisoblanadigan, yangi olingan, sanoat, tijorat yoki ilmiy xususiyatga ega bo‘lgan axborotdan foydalanganlik;

5) dasturiy mahsulotning nusxalarini ularni takrorlash huquqisiz yoki agar ularni takrorlash yakuniy iste’molchi tomonidan foydalanish bilan cheklangan bo‘lsa, tarqatishga bo‘lgan huquqni o‘tkazganlik.

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining O‘zbekiston Respublikasi va “Soyuzneftegaz Vostok Limited” kompaniyasi o‘rtasida 2007-yil 23-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasining janubiy-g‘arbiy hisor va ustyurt mintaqasi hududlaridagi konlarga nisbatan mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida neft va gaz kondensatini qazib olish bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun (royalti) soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi qarori (ro‘yxat raqami 2277, 11.10.2011-y.)

45-modda. Tovarlar va xizmatlar. Tovarlar (xizmatlar) bozori

Tabiatning yoki inson faoliyatining (shu jumladan intellektual faoliyatning) qiymat bahosiga ega bo‘lgan va realizatsiya qilish uchun mo‘ljallangan har qanday predmeti tovar deb e’tirof etiladi.

Tovarlar deb, xususan, elektr energiyasi, ma’lumotlar bazasi, axborot, intellektual faoliyat natijalari, shu jumladan ularga bo‘lgan mutlaq huquqlar e’tirof etiladi.

Soliq solish maqsadida mulkiy huquqlar ham tovar deb e’tirof etiladi.

Nomoddiy xususiyatga ega bo‘lgan, pulda ifodalangan bahoga ega mol-mulkka qaratilgan va ushbu mol-mulkdan mustaqil ravishda, unga bog‘liq bo‘lmagan holda muomalada bo‘lishga qodir (oldi-sotdi shartnomasining obyekti yoxud shartnomada yoki boshqa tasdiqlovchi hujjatda ko‘rsatilgan, ushbu mulkiy huquqqa egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish huquqiga ega bo‘lgan, o‘z mulkdoridan o‘zga shaxsga boshqacha tarzda o‘tkazish obyekti bo‘lishi mumkin bo‘lgan) fuqaroviy huquq obyekti soliq solish maqsadida mulkiy huquq deb e’tirof etiladi.

Mulkiy huquqlar jumlasiga quyidagilar kiradi, chunonchi: kreditorning qarzdorga talab qo‘yish huquqi, xo‘jalik jamiyatining ustav fondida (ustav kapitalida) ishtirok etish ulushi, qimmatli qog‘ozlar, muallifning (yoki boshqa huquq

egasining) intellektual mulk obyektiga bo‘lgan huquqi, shuningdek huquqlarning zamirida yotgan mol-mulk bilan bog‘liq, sotilishi yoki o‘z mulkdoridan o‘zga shaxsga boshqacha tarzda o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan boshqa turlari.

Ashyoning o‘zini o‘tkazmay turib, mustaqil muomalada bo‘lishi mumkin bo‘lmagan ashyoviy huquqlarga mulkiy huquqlar sifatida qaralmaydi.

Bojxona to‘lovlarini undirish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish maqsadida bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq tovarlar jumlasiga boshqa mol-mulk kiritilishi mumkin.

(45-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Boshqa shaxslarning ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan mahsulotlarni (moddiy yoki nomoddiy) ishlab chiqarishga doir tadbirkorlik faoliyatining turlari, shuningdek boshqa shaxslar uchun bajariladigan ishlar soliq solish maqsadida xizmatlar deb e’tirof etiladi.

Jismoniy shaxslarning ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi doirasidagi faoliyati xizmatlar jumlasiga kirmaydi.

Bir xil xususiyatli asosiy belgilarga ega bo‘lgan tovarlar (xizmatlar) soliq solish maqsadida aynan o‘xshash tovarlar (xizmatlar) deb e’tirof etiladi.

Tovarlarning aynan o‘xshashligini aniqlashda bunday tovarlarning tashqi ko‘rinishidagi arzimas farqlar hisobga olinmasligi mumkin.

Tovarlarning aynan o‘xshashligini aniqlashda ularning fizik xususiyatlari, sifati, mo‘ljallangan vazifasi, kelib chiqqan mamlakati va ishlab chiqaruvchisi, uning bozordagi ishbilarmonlik obro‘si hamda foydalaniladigan tovar belgisi hisobga olinadi.

Xizmatlarning aynan o‘xshashligini aniqlashda bajaruvchining (pudratchining) xususiyatlari, uning bozordagi ishbilarmonlik obro‘si va foydalaniladigan tovar belgisi hisobga olinadi.

Aynan o‘xshash bo‘lmagan holda, bir xil xususiyatlarga ega bo‘lgan hamda ayni bir vazifani bajarish imkoniyatini beradigan o‘xshash tarkibiy qismlardan iborat bo‘lgan va (yoki) tijorat jihatidan bir-birining o‘rnini bosa oladigan tovarlar ushbu Kodeksning maqsadlari uchun bir turdagi tovarlar deb e’tirof etiladi.

Tovarlarning bir turdaligini aniqlashda, ularning sifati, bozordagi mavqeyi, tovar belgisi, kelib chiqqan mamlakati hisobga olinadi.

Aynan o‘xshash bo‘lmagan holda, tijorat jihatidan va (yoki) bajaradigan vazifasi jihatidan bir-birining o‘rnini bosish imkoniyatini beradigan bir xil xususiyatlarga ega xizmatlar bir turdagi xizmatlar deb e’tirof etiladi.

Xizmatlarning bir turdaligini aniqlashda ularning sifati, tovar belgisi, bozordagi mavqeyi, shuningdek turlari, hajmlari, noyobligi va tijorat jihatidan bir-birining o‘rnini bosa olishi hisobga olinadi.

Tovarlarning muomalada bo‘lish sohasi tovarlar bozori deb e’tirof etiladi, bu soha xaridorning (sotuvchining) bu tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida yoki uning hududidan tashqarida uncha ko‘p bo‘lmagan qo‘shimcha xarajatlarsiz olish (realizatsiya qilish) imkoniyatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Xizmatlar bozori ham xuddi shunday tartibda belgilanadi.

46-modda. Tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilish

Tovarlarga bo‘lgan mulk huquqini haq olish asosida o‘tkazish yoki haq evaziga xizmatlar ko‘rsatish, shu jumladan qarzdor garov bilan ta’minlangan majburiyatlarini bajarmaganda garovga qo‘yilgan tovarlarni ayirboshlash va o‘tkazish tovarlarni yoki xizmatlarni realizatsiya qilish deb e’tirof etiladi.

Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda tovarlarga bo‘lgan mulk huquqini bepul asosda o‘tkazish yoki bepul asosda xizmatlar ko‘rsatish ham realizatsiya qilish deb e’tirof etiladi.

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksi.

Soliq to‘lovchining vakolatli davlat organlariga yuridik va jismoniy shaxslardan undirilgan jarimalar taqsimoti tarzida mablag‘larni olishga doir faoliyati vakolatli davlat organiga haq evaziga xizmatlar ko‘rsatish sifatida e’tirof etiladi.

(46-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

47-modda. Hisobvaraq-faktura

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, mazkur tovarlarni (xizmatlarni) sotib oluvchilarga hisobvaraq-fakturani taqdim etishi shart.

(47-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Hisobvaraq-faktura, qoida tariqasida, elektron hisobvaraq-fakturalarning axborot tizimida elektron shaklda rasmiylashtiriladi.

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyundagi 522-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraq-fakturalardan foydalanish tartibi to‘g‘risida” nizom.

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish chog‘ida, agar sotuvchi xaridorga kassa cheki yoki belgilangan shakldagi boshqa hujjatni bersa, ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan qoidalar qo‘llanilmaydi.

Realizatsiya qilinayotgan tovarlar (xizmatlar) qiymati o‘zgarganda, shu jumladan yetkazib berilgan tovarlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar narxi o‘zgargan yoxud miqdori (hajmi) aniqlashtirilgan hollarda, sotuvchi sotib oluvchiga ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda qo‘shimcha yoki tuzatilgan hisobvaraq-fakturani taqdim etishi shart.

Ushbu Kodeksning 279-moddasiga muvofiq hisobga turishi lozim bo‘lgan chet el yuridik shaxslari hisobvaraq-fakturalarni taqdim etmaydi, sotib olish reyestrlarini, sotish reyestrlarini, hisobga olish jurnallarini hamda ushbu Kodeks 282-moddasida ko‘rsatilgan xizmatlarni ko‘rsatish qismi bo‘yicha qabul qilingan va berilgan hisobvaraq-fakturalarni yuritmaydi.

Hisobvaraq-fakturaning shakli va uni to‘ldirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

(47-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-son qarori bilan tasdiqlangan Hisobvaraq-fakturalarning shakllari hamda ularni to‘ldirish, taqdim etish va qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom.

48-modda. Maqsadli mablag‘lar

Soliq solish maqsadida soliq to‘lovchi tomonidan maqsadli mablag‘larning manbai bo‘lgan shaxs tomonidan belgilangan yoki qonunchilikda belgilangan maqsadga ko‘ra foydalanish uchun olingan mol-mulk maqsadli mablag‘larga kiradi.

(48-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Maqsadli mablag‘larga jumladan quyidagilar kiradi:

1) budjetdan ajratiladigan mablag‘lar va budjet subsidiyalari;

2) grantlar va insonparvarlik yordami;

3) maqsadli tushumlar.

Soliq solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda bepul asosda beriladigan quyidagi mol-mulk grant deb e’tirof etiladi:

1) davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro yoki chet el hukumat tashkilotlari yoxud nohukumat tashkilotlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga berilgan mol-mulk;

2) chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga berilgan mol-mulk.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan u vakolat bergan tashkilotlar orqali taqsimlanadigan, aholining ijtimoiy jihatdan nochor guruhlariga tibbiy va (yoki) ijtimoiy yordam ko‘rsatish, ijtimoiy soha muassasalarini qo‘llab-quvvatlash, tabiiy ofatlar, falokatlar va halokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar va boshqa favqulodda

vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish uchun O‘zbekiston Respublikasiga aniq maqsadli beg‘araz ko‘maklashish soliq solish maqsadida insonparvarlik yordami deb e’tirof etiladi.

Maqsadli tushumlarga notijorat tashkilotlarni ta’minlash va ularning ustavda belgilangan faoliyatini yuritishga yo‘naltirilgan tushumlar (bundan aksiz to‘lanadigan tovarlar tarzidagi tushumlar mustasno) davlat hokimiyati organlarining qarorlari asosida bepul kelib tushgan, shuningdek boshqa yuridik va (yoki) jismoniy shaxslardan kelib tushgan, mazkur oluvchilar tomonidan maqsadli foydalaniladigan tushumlar kiradi.

Notijorat tashkilotlarni ta’minlash va ularning ustavda belgilangan faoliyatini yuritishga yo‘naltirilgan maqsadli tushumlarga quyidagilar kiradi:

1) muassislarning (ishtirokchilarning, a’zolarning) nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshirilgan badallari, shuningdek fuqarolik to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq deb e’tirof etiladigan xayriyalar;

(48-modda oltinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) notijorat tashkilotlar tomonidan bepul olingan tegishli shartnomalar asosida ko‘rsatilgan xizmatlar tarzidagi daromadlar;

3) ushbu Kodeksda belgilangan tartibda uy-joy mulkdorlari shirkatlari, uy-joy, bog‘dorchilik, bog‘-tomorqa, garaj-qurilish, uy-joy qurilish kooperativlari yoki boshqa ixtisoslashgan iste’molchilar kooperativlari tomonidan amalga oshiriladigan umumiy mulkni ta’mirlash, mukammal ta’mirlash uchun ularning a’zolari tomonidan zaxira shakllantirishga ajratmalar;

4) notijorat tashkilotlarga vasiyatnoma bo‘yicha meros tartibida o‘tadigan mol-mulk;

5) notijorat tashkilotlarning ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan budjet mablag‘lari;

6) xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun olingan mablag‘lar va boshqa mol-mulk;

7) kasaba uyushmasi tashkilotlariga kasaba uyushmasi tashkilotlarining ustavlarida nazarda tutilgan ijtimoiy-madaniy va boshqa tadbirlarni o‘tkazish uchun jamoa shartnomalariga (kelishuvlariga) muvofiq kelib tushgan mablag‘lar;

8) notijorat tashkilotlar tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan, ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun qonunchilikka muvofiq ular tomonidan tuzilgan soliq to‘lovchi bo‘lgan tarkibiy bo‘linmalardan bepul olingan mablag‘lar;

(48-modda oltinchi qismining 8-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

9) ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun diniy tashkilotlar tomonidan olingan mol-mulk;

10) notijorat tashkilotlar tomonidan ular ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun davlat hokimiyati organlarining qarorlariga binoan olingan davlat mulkidan bepul foydalanish huquqi tarzidagi mulkiy huquqlar.

49-modda. Qimmatli qog‘ozlar

Qimmatli qog‘ozlar mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o‘rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydigan, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to‘lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o‘tkazish imkoniyatini nazarda tutadigan hujjatlardir.

Qimmatli qog‘ozlarga aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar, depozit sertifikatlari, depozitar tilxatlar, opsionlar, fyuchers va forvard kontraktlari hamda islomiy qimmatli qog‘ozlar (sertifikatlar) kiradi, shuningdek qonunchilikka yoki chet davlatning qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan qonunchiligiga muvofiq qimmatli qog‘ozlar deb e’tirof etiladigan boshqa qimmatli qog‘ozlar kiradi.

(49-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.03.2026-y., 03/26/1126/0279-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 29-iyun)

Qimmatli qog‘ozlarni emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar jumlasiga kiritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki chet davlatlarning qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan qonunchiligi bilan belgilanadi.

(49-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar qimmatli qog‘ozlar bilan bajariladigan operatsiya muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga oid operatsiyalar mezonlariga muvofiq bo‘lsa, soliq to‘lovchi uni mustaqil ravishda soliq solish maqsadida qimmatli qog‘ozlar bilan bajariladigan operatsiyalar jumlasiga yoki muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga oid operatsiyalar jumlasiga kiritishga haqli.

Soliq solish maqsadida qimmatli qog‘ozlar quyidagi shartlarga bir vaqtning o‘zida rioya etilgan taqdirda qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozorida muomalada bo‘layotgan qimmatli qog‘ozlar (muomaladagi qimmatli qog‘ozlar) deb e’tirof etiladi:

ular qimmatli qog‘ozlar savdolarining hech bo‘lmaganda bitta tashkilotchisi tomonidan muomalaga kiritilgan bo‘lsa;

ularning narxlari (kotirovkalari) to‘g‘risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsa yoxud savdolarning tashkilotchisi yoki boshqa vakolatli shaxs tomonidan har qanday manfaatdor shaxsga qimmatli qog‘ozlarga doir operatsiyalar amalga oshirilgan sanadan e’tiboran uch yil ichida berilishi mumkin bo‘lsa;

soliq to‘lovchi bu qimmatli qog‘ozlarga doir bitimni tuzgan sanadan e’tiboran o‘tgan ketma-ket uch oy ichida ular bo‘yicha hech bo‘lmaganda bir marta bozor kotirovkasi hisoblab chiqarilgan bo‘lsa (bundan qimmatli qog‘ozlarni birlamchi joylashtirish chog‘idagi bozor kotirovkasining hisob-kitobi mustasno).

> **Izoh.** Qarang: “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni.

50-modda. Muddatli bitimlarning moliyaviy vositalari

Ushbu Kodeksning maqsadlari uchun shartnoma tomonlari huquq va majburiyatlarining asos aktivlarga nisbatan taqsimlanishi bo‘yicha va tomonlar majburiyatlarining bajarilishiga to‘g‘ri keladigan sana ko‘rsatilgan shartnoma muddatli bitimlarning moliyaviy vositasi deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligiga va (yoki) chet davlatlarning qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan qonunchiligiga muvofiq shartnoma talablari bo‘yicha sud himoyasi lozim bo‘lmasa, ushbu Kodeksning maqsadlari uchun o‘sha shartnoma muddatli bitimlarning moliyaviy vositasi deb e’tirof etilmaydi. Mazkur shartnoma tufayli ko‘rilgan zararlar soliq solishda hisobga olinmaydi.

(50-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Muddatli bitimlar moliyaviy vositalarining asos aktivi deganda muddatli bitimning predmeti tushuniladi.

Asos aktiv sifatida, jumladan chet el valyutasi, qimmatli qog‘ozlar va boshqa mol-mulk, foiz stavkalari, kredit resurslari, narx yoki foiz stavkalarining indekslari, muddatli bitimlarning boshqa moliyaviy vositalari ishtirok etishi mumkin.

Ushbu Kodeksning maqsadlari uchun muddatli bitimlarning ishtirokchilari deganda muddatli bitimlarning moliyaviy vositalari bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi.

Muddatli bitimlarning moliyaviy vositalarini asos aktivlarni yetkazib berish yo‘li bilan, muddatli bitimlarning moliyaviy vositasi bo‘yicha uzil-kesil o‘zaro hisob-kitobni amalga oshirish yo‘li bilan yoxud muddatli bitimning moliyaviy vositasi bilan ilgari amalga oshirilgan operatsiyaga muddatli bitim ishtirokchisi tomonidan qarama-qarshi operatsiyani amalga oshirish yo‘li bilan bajarish muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha huquqlar va majburiyatlarning bajarilishi deb e’tirof etiladi.

Muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir, asos aktivni xarid qilishga qaratilgan operatsiyalar uchun qarama-qarshi yo‘nalishdagi operatsiya deb — asos aktivni sotishga qaratilgan operatsiya, asos aktivni sotishga qaratilgan operatsiya uchun esa — asos aktivni xarid qilishga qaratilgan operatsiya e’tirof etiladi.

Soliq to‘lovchi asos aktivni yetkazib berish shartlarini nazarda tutuvchi bitimni muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiya deb yoki ijroni kechiktirgan holda bitim predmetini yetkazib berishga doir bitim deb e’tirof etib, ushbu bitimni mustaqil ravishda, ushbu moddaning talablarini inobatga olgan holda tavsiflashga haqli.

Bitimning predmetini yetkazib berishni (bundan xedjirlash operatsiyalari mustasno) nazarda tutuvchi bitimlarni muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar toifasiga kiritish mezonlari soliq to‘lovchi tomonidan hisob siyosatida soliq solish maqsadlari uchun aniqlanishi kerak.

Muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha huquq va majburiyatlarning ijro etilish sanasi muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyaning tugallanish sanasidir.

Muddatli bitimning moliyaviy vositasi bo‘yicha majburiyatlar quyidagi hollarda uni qayta tavsiflamagan holda tugatilishi mumkin:

1) bir turdagi talablar va majburiyatlarni hisobga o‘tkazgan holda (o‘zaro hisobga o‘tkazgan holda);

2) shartnomalarning namunaviy shartlariga muvofiq bo‘lgan bosh kelishuvda belgilangan tartibda, agar bunday tugatishda netto-majburiyatning summasini belgilash nazarda tutilgan bo‘lsa;

3) tashkil etilgan savdolarning qoidalari yoki kliring qoidalari shartlarida tuzilgan shartnomalardan kelib chiqadigan muqobil talablarni hisobga o‘tkazgan holda, agar bunday hisobga o‘tkazish netto-majburiyatning summasini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan bo‘lsa.

Ushbu Kodeksning maqsadlari uchun bir emitentning bir turdagi, bir toifadagi (xildagi) yoki bitta pay investitsiya fondining (pay investitsiya fondlarining investitsiya paylari uchun) bir xil hajmdagi huquqlarga ega bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarini yetkazib berishga doir talablar, shuningdek pul mablag‘larini ayni shu valyutada to‘lashga doir talablar bir turdagi talablar deb e’tirof etiladi.

Ijro etishni kechiktirgan holda bitim predmetini yetkazib berishga doir bitim sifatida tavsiflangan bitimlarga soliq solish bunday bitimlarning tegishli asos aktivlari uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Ushbu Kodeksning maqsadlari uchun muddatli bitimlarning moliyaviy vositalari uyushgan bozorda muomalada bo‘lgan bitimlarning moliyaviy vositalariga (muddatli bitimlarning muomaladagi moliyaviy vositalariga) va muddatli bitimlarning uyushgan bozorda muomalada bo‘lmagan moliyaviy vositalariga (muddatli bitimlarning muomalada bo‘lmagan moliyaviy vositalariga) bo‘linadi.

Muddatli bitimlarning moliyaviy vositalari quyidagi shartlarga bir vaqtning o‘zida rioya etilgan taqdirda uyushgan bozorda muomalada deb e’tirof etiladi:

1) bitimlarni tuzish, ularning muomalada bo‘lishi va bajarilishi tartibi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga yoki chet davlatlarning qonunchiligiga muvofiq shunday huquqqa ega bo‘lgan savdolarning tashkilotchisi tomonidan belgilansa;

(50-modda o‘n beshinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) muddatli bitimlar moliyaviy vositalarining narxlari to‘g‘risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsa yoxud savdolarning tashkilotchisi yoki boshqa vakolatli shaxs tomonidan har qanday manfaatdor shaxsga muddatli bitimning moliyaviy vositasiga doir operatsiyalar amalga oshirilgan sanadan keyin uch yil ichida berilishi mumkin bo‘lsa.

Agar bitim uyushmagan bozorda tuzilsa va uning shartlarida asos aktivni yetkazib berish nazarda tutilgan bo‘lsa, bitim muddatli bitimlarning moliyaviy vositasi sifatida faqat, basharti asos aktivni yetkazib berish bunday bitimning shartlariga muvofiq bitim tuzilgan kundan keyin kamida uchinchi kundan so‘ng amalga oshirilsa, muddatli bitimlarning moliyaviy vositasi sifatida tavsiflanishi mumkin.

Uyushmagan bozorda tuziladigan va shartlarida asos aktivni yetkazib berish nazarda tutilmagan bitim faqat muddatli bitimlarning moliyaviy vositasi sifatida tavsiflanishi mumkin.

O‘z shartlarida asos aktivni yetkazib berishni nazarda tutuvchi muddatli bitimlarning moliyaviy vositalari yoki o‘z shartlarida asos aktivni yetkazib berishni nazarda tutuvchi boshqa moliyaviy vositaning muddatli bitimlarini tuzish yetkazib berishga oid muddatli bitimlar deb e’tirof etiladi.

O‘z shartlarida asos aktivni yetkazib berish nazarda tutilmagan muddatli bitimlarning moliyaviy vositalari yoki o‘z shartlarida asos aktivni yetkazib berishni nazarda tutmaydigan moliyaviy vositalarning muddatli bitimlarini tuzish hisob-kitobli muddatli bitimlar deb e’tirof etiladi.

Yetkazib berishga oid muddatli bitimlar sifatida, shuningdek ijroni kechiktirgan holda bitim predmetini yetkazib berishga doir bitim sifatida tavsiflangan bitimlar majburiyatlar lozim darajada ijro etishdan farq qiladigan usullar orqali tugatilgan taqdirda hisob-kitobli muddatli bitimlar sifatida qayta tavsiflanmaydi.

Variatsiyali marja deganda savdolarning tashkilotchisi yoki kliring tashkiloti tomonidan hisoblab chiqiladigan hamda savdolarning tashkilotchilari va (yoki) kliring tashkilotlari tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq muddatli bitimlar ishtirokchilari tomonidan to‘lanadigan pul mablag‘lari summasi tushuniladi.

51-modda. Xedjirlash

Ushbu Kodeks maqsadida xedjirlash operatsiyalari deganda soliq to‘lovchi uchun noxush oqibatlarni (to‘liq yoki qisman) kamaytirish (kompensatsiya qilish) maqsadida muddatli bitimlarning moliyaviy vositalari (shu jumladan harxil turlari bilan) amalga oshiriladigan operatsiyalar (operatsiyalar majmui) tushuniladi.

Bunday noxush oqibatlar jumlasiga, xususan, zarar ko‘rish, tushumning yoki foydaning kamayishi, mol-mulk bozor qiymatining kamayishi, narxning, foiz stavkasining, milliy valyutaga nisbatan chet el valyutasi kursining yoki xedjirlash obyekti (obyektlari) boshqa ko‘rsatkichining (ko‘rsatkichlari majmuining) o‘zgarishi oqibatida soliq to‘lovchining majburiyatlari ko‘payishi kiritilishi mumkin.

Soliq to‘lovchining mol-mulki, mulkiy huquqlari va uning xedjirlash operatsiyasini amalga oshirish sanasida bajarilish muddati yetib kelmagan majburiyatlari xedjirlash obyektlari deb e’tirof etiladi.

Amalga oshirilishi (bajarilishi) tarafning shartnoma bo‘yicha talab qo‘yishi bilan bog‘liq bo‘lgan hamda ularga nisbatan soliq to‘lovchi xedjirlash to‘g‘risida qaror qabul qilgan talab qilish huquqlari va majburiyatlar xedjirlash obyektlari bo‘lishi mumkin.

Muddatli bitimlar moliyaviy vositalarining xedjirlash operatsiyasi uchun foydalaniladigan asos aktivlari xedjirlash obyektidan farq qilishi mumkin.

Xedjirlash maqsadida har xil turdagi muddatli bitimning bittadan ortiq moliyaviy vositasini, shu jumladan xedjirlash muddati ichida bitta xedjirlash operatsiyasi doirasida muddatli bitimlarning bir nechta moliyaviy vositalarini tuzishga yo‘l qo‘yiladi.

Soliq to‘lovchi muddatli bitimlarning moliyaviy vositalari bilan operatsiyani xedjirlash operatsiyasi jumlasiga kiritish asoslanganligini tasdiqlash uchun xedjirlash operatsiyasiga doir bitimni tuzish sanasida soliq to‘lovchining taxminlaridan kelib chiqqan holda ushbu operatsiyaning amalga oshirilishi narxning, bozor kotirovkasining, valyuta kursining yoki xedjirlash obyekti boshqa ko‘rsatkichining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan noxush oqibatlarni kamaytirish imkonini berishini tasdiqlovchi ma’lumotnomani tuzadi.

Agar bitta xedjirlash operatsiyasi maqsadida muddatli bitimlarning moliyaviy vositalari bilan bog‘liq operatsiyalar majmuidan foydalanilsa, bunday ma’lumotnoma ushbu bitimlar majmuining birinchisi tuzilgan sanadagi holatga ko‘ra tuziladi.

> **Izoh.** Qarang: Tijorat banklarining hisob siyosati va moliyaviy hisobotlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizom (ro‘yxat raqami 3337, 27.11.2021-y.)

52-modda. Qimmatli qog‘ozlar bilan REPO operatsiyalari

Repo shartnomasiga muvofiq bitimning bir tarafi bitimning boshqa tarafiga qimmatli qog‘ozlarni ushbu shartnomada oldindan belgilangan narxda muayyan muddatdan keyin ularni qaytarib sotish (sotib olish) majburiyati bilan sotadi. Bunda ushbu qimmatli qog‘ozlarning shartnomada belgilangan sotish (sotib olish) narxi ularning bozor narxlaridan farq qilishi mumkin.

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida va (yoki) chet davlatlarning qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan qonunchiligida repo shartnomalariga nisbatan qo‘yiladigan talablarga javob beradigan shartnoma REPO operatsiyasi deb e’tirof etiladi. Bunda repo shartnomasining birinchi va ikkinchi qismlari tegishincha REPOning birinchi va ikkinchi qismlari deb e’tirof etiladi.

(52-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Repo shartnomasi bo‘yicha sotib oluvchi va repo shartnomasi bo‘yicha sotuvchi tegishincha REPOning birinchi qismi bo‘yicha sotib oluvchi hamda REPOning birinchi qismi bo‘yicha sotuvchi deb e’tirof etiladi. Bunda REPOning ikkinchi qismi bo‘yicha majburiyatlar REPOning birinchi qismi bajarilishi sharti bilan yuzaga kelishi kerak.

REPO operatsiyasining shartlari bitim taraflarining quyidagi huquqlaridan kamida bittasini nazarda tutishi mumkin:

1) REPOning birinchi qismi bo‘yicha sotuvchining REPOning ikkinchi qismini bajarish sanasiga qadar REPOning birinchi qismi bo‘yicha sotib oluvchiga REPOning birinchi qismi bo‘yicha berilgan qimmatli qog‘ozlar yoki ular ayirboshlangan qimmatli qog‘ozlar o‘rniga boshqa qimmatli qog‘ozlarni berish huquqi;

2) REPOning birinchi qismi bo‘yicha sotib oluvchining REPOning birinchi qismi bo‘yicha sotuvchidan ushbu qismning 1-bandida ko‘rsatilgan o‘tkazishni talab qilish huquqi.

Ushbu Kodeks maqsadida REPO operatsiyasi ishtirokchilari tomonidan REPOning tegishli qismi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishining repo shartnomasida nazarda tutilgan muddatlari REPO birinchi yoki ikkinchi qismining bajarilish sanalari hisoblanadi.

REPOning birinchi yoki ikkinchi qismi bo‘yicha qimmatli qog‘ozlarni yetkazib berish va ularga haq to‘lash bo‘yicha majburiyatlar turli sanalarda bajarilgan taqdirda, qimmatli qog‘ozlarga haq to‘lash yoki ularni yetkazib berish bo‘yicha majburiyatlar bajarilishi sanalaridan eng kechrog‘i tegishincha REPO birinchi qismining sanasi va ikkinchi qismining sanasi deb e’tirof etiladi.

REPOning ikkinchi qismi bo‘yicha majburiyatlarni bajarish sanasi REPO muddatini qisqartirish tomonga ham, uni uzaytirish tomonga ham o‘zgartirilishi mumkin. REPOning ikkinchi qismini bajarish sanasi talab qilib olish payti bilan belgilanadigan operatsiyalar, agar repo shartnomasida REPO ikkinchi qismining narxini aniqlash tartibi belgilangan bo‘lsa va agar REPOning ikkinchi qismi taraflar tomonidan REPOning birinchi qismiga doir majburiyatlar bajarilgan sanadan e’tiboran bir yil ichida bajarilgan bo‘lsa, REPO operatsiyalari deb e’tirof etiladi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorida savdolarning tashkilotchisi (birja) orqali yoki kliring tashkiloti orqali bajarilgan holda amalga oshiriladigan REPO operatsiyalari uchun REPOning ikkinchi qismi bajarilishi sanasining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi savdolar tashkilotchisining (birjaning) yoki kliring tashkilotining qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan har qanday o‘zgartirilishi ushbu modda maqsadida REPO muddatini o‘zgartirish deb e’tirof etiladi.

Ushbu Kodeks maqsadida REPO stavkasi REPO operatsiyasini tuzish chog‘ida aniqlanadi va u qat’iy belgilangan yoki hisob-kitobli bo‘lishi mumkin.

REPO stavkasi hisobot (soliq) davrining oxirida foizlarning miqdorini belgilash imkonini berishi kerak va repo shartnomasi taraflarining kelishuviga ko‘ra o‘zgartirilishi mumkin.

Agar REPOning ikkinchi qismi bo‘yicha qimmatli qog‘ozlarni realizatsiya qilishga (sotib olishga) doir majburiyatlar REPOning ikkinchi qismini bajarish sanasida to‘liq yoki qisman bajarilmasa va o‘zaro talablarni tartibga solish tartib-taomili o‘tkazilmasa, REPOning ikkinchi qismi, agar ushbu moddaning oltinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, lozim darajada bajarilmagan deb e’tirof etiladi.

Ushbu Kodeks maqsadida quyidagilar REPOning ikkinchi qismini to‘liq bajarmaslik deb e’tirof etilmaydi:

1) REPOning ikkinchi qismi bo‘yicha majburiyatlarni REPOning ikkinchi qismini bajarishning taraflar tomonidan kelishgan sanasidan e’tiboran o‘n kun ichida bajarish;

2) majburiyatlarni quyidagi hollarda muqobil talablarni hisobga olish yo‘li bilan bajarish (tugatish):

a) agar bunday talablar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga yoki chet davlatlarning qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan qonunchiligiga muvofiq tasdiqlangan shartnomalarning namunaviy shartlariga mos bo‘lgan bosh kelishuv (yagona shartnoma) shartlari asosida tuzilgan shartnomalardan kelib chiqadigan bo‘lsa. Bunda muqobil talablarni hisobga olish netto-majburiyat summasini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan bo‘lsa;

(52-modda o‘n ikkinchi qismi 2-bandining “a” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

b) agar bunday talablar uyushgan savdolar qoidalarining va (yoki) kliring qoidalarining shartlari asosida tuzilgan shartnomalardan kelib chiqadigan bo‘lsa. Bunda muqobil talablarni hisobga olish netto-majburiyat summasini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan bo‘lsa.

REPOning ikkinchi qismi lozim darajada bajarilmagan hollarda REPO operatsiyasi soliq solish maqsadida qayta tavsiflanishi lozim.

REPO operatsiyasini soliq solish maqsadida qayta tavsiflash soliq to‘lovchi tomonidan quyidagi hollarda mustaqil ravishda amalga oshiriladi:

1) repo shartnomalariga nisbatan qonunchilikda qo‘yiladigan talablarga va (yoki) REPO operatsiyasiga nisbatan ushbu moddada qo‘yiladigan talablarga rioya etilmaganda;

(52-modda o‘n to‘rtinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) repo shartnomasi bekor qilinganda;

3) REPOning ikkinchi qismi lozim darajada bajarilmaganda.

REPO operatsiyasini soliq solish maqsadida qayta tavsiflash bunday qayta tavsiflash uchun asos bo‘lgan shartlardan biri yuzaga kelgan sanalardan eng avvalgisida amalga oshiriladi.

REPO operatsiyasi ishtirokchilarining REPO operatsiyasini soliq solish maqsadida qayta tavsiflash chog‘idagi majburiyatlari ushbu Kodeksning Maxsus qismida belgilanadi.

53-modda. Qimmatli qog‘ozlarning qarz operatsiyalari

Qimmatli qog‘ozlarni qarzga berish O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga yoki chet davlatlarning qonunchiligiga muvofiq tuzilgan, ushbu moddaning uchinchi — oltinchi qismlarida belgilangan shartlarni qanoatlantiradigan qarz shartnomasi (bundan buyon matnda qarz shartnomasi deb yuritiladi) asosida amalga oshiriladi.

(53-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu Kodeks qoidalari soliq to‘lovchining vositachilar, ishonchli vakillar, agentlar, ishonchli boshqaruvchilar tomonidan tegishli fuqaroviy-huquqiy shartnomalar asosida uning hisobidan amalga oshirilgan qimmatli qog‘ozlarning qarz operatsiyalariga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Ushbu Kodeks maqsadida qimmatli qog‘ozlarning qarz shartnomasida foizlar pul shaklida to‘lanishi nazarda tutilishi kerak.

Foiz stavkasi yoki uni aniqlash tartibi qarz shartnomasining shartlarida belgilanadi.

Qarz shartnomasi bo‘yicha foizlarni aniqlash maqsadi uchun, agar ushbu moddaning uchinchi va to‘rtinchi qismlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qarz shartnomasi bo‘yicha berilgan qimmatli qog‘ozlarning qiymati tegishli qimmatli qog‘ozlarning shartnomani tuzish sanasidagi bozor narxiga teng tarzda, bozor narxi mavjud bo‘lmagan taqdirda esa, hisob-kitob qilingan narxiga teng etib qabul qilinadi. Bunda qimmatli qog‘ozlarning bozor narxi va hisob-kitob qilingan narxi ushbu Kodeksning Maxsus qismida belgilangan qoidalarga muvofiq aniqlanadi.

Qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan mulk huquqini kreditor tomonidan qarz oluvchiga o‘tkazish chog‘idagi o‘tish sanasi qarzning boshlanish sanasi bo‘ladi, qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan mulk huquqini qarz oluvchi tomonidan kreditorga o‘tkazish chog‘idagi o‘tish sanasi qarzning tugash sanasi bo‘ladi.

Ushbu Kodeks maqsadida qimmatli qog‘ozlar tarzida berilgan (olingan) qarz shartnomasining muddati bir yildan oshmasligi kerak.

Agar qarz shartnomasida qimmatli qog‘ozlarni qaytarish muddati belgilanmagan bo‘lsa yoki mazkur muddat talab qilib olish payti bilan belgilangan bo‘lsa (ochiq sanali qarz shartnomasi) va qarz boshlangan sanadan e’tiboran bir yil ichida qimmatli qog‘ozlar qarz oluvchi tomonidan kreditorga qaytarilmagan bo‘lsa, soliq solish maqsadida qimmatli qog‘ozlar qarz boshlangan sanada realizatsiya qilingan deb e’tirof etiladi.

Bunda kreditorning va qarz oluvchining qarz shartnomasi bo‘yicha berilgan qimmatli qog‘ozlarni realizatsiya qilishdan (sotib olishdan) olingan daromadlari hamda qilingan xarajatlari qimmatli qog‘ozlarning qarz boshlangan va foizlar olingan (to‘langan) sanadagi bozor narxidan (hisob-kitob narxidan) kelib chiqqan holda hisob-kitob qilinadi.

Mazkur qimmatli qog‘ozlarning ko‘rsatilgan bozor (hisob-kitob) narxi ushbu Kodeksning Maxsus qismida belgilangan qoidalarga muvofiq aniqlanadi.

Ushbu modda sakkizinchi qismining qoidalari quyidagi hollarda ham qo‘llaniladi, agar:

1) qarz shartnomasida qarzni qaytarish muddati belgilangan bo‘lsa, biroq qimmatli qog‘ozlar qarz boshlangan sanadan e’tiboran bir yil o‘tgach kreditorga qarz oluvchi tomonidan qaytarilmagan bo‘lsa;

2) qimmatli qog‘ozlarni qaytarishga doir majburiyat kreditorga pul mablag‘larini to‘lash yoki qimmatli qog‘ozlardan farq qiladigan boshqa mol-mulkni o‘tkazish orqali tugatilgan bo‘lsa.

Qimmatli qog‘ozlarning qarz operatsiyalari bo‘yicha qimmatli qog‘ozlarni qaytarish yuzasidan majburiyatlar bajarilmagan yoki to‘liq hajmda bajarilmagan taqdirda, o‘ziga nisbatan lozim darajada bajarmaslikka yo‘l qo‘yilgan va o‘zaro talablarni tartibga solish tartib-taomili o‘tkazilmagan REPO operatsiyasi uchun ushbu Kodeksda belgilangan tartib soliq solish maqsadida qo‘llaniladi.

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni.

54-modda. Moliyaviy ijara va lizing

Ushbu Kodeks maqsadida shartnoma bo‘yicha mol-mulkni (moliyaviy ijara obyektini) o‘n ikki oydan ko‘p muddatga egalik qilish va foydalanishga berish chog‘ida yuzaga keladigan ijara munosabatlari moliyaviy ijara deb e’tirof etiladi. Moliyaviy ijara shartnomasi quyidagi talablardan hech bo‘lmaganda bittasiga javob berishi kerak:

1) moliyaviy ijara shartnomasining muddati tugagach, moliyaviy ijara obyekti ijarachining mulkiga o‘tkazilsa;

2) moliyaviy ijara shartnomasining muddati moliyaviy ijara obyekti xizmat qilish muddatining 80 foizidan oshsa yoki moliyaviy ijara obyektining moliyaviy ijara shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlang‘ich qiymatining kamida 20 foizini tashkil etsa;

3) moliyaviy ijara shartnomasining muddati tugagach, ijarachi moliyaviy ijara obyektini moliyaviy ijara shartnomasida belgilanadigan qat’iy narx bo‘yicha haqini to‘lab olish huquqiga ega bo‘lsa;

31) islomiy moliya faoliyati doirasida banklar va mikromoliya tashkilotlari bilan islomiy moliya standartlariga muvofiq tuzilgan moliyaviy ijara (islomiy ijara) shartnomasining muddati tugagach, ijarachi moliyaviy ijara obyektini mulk huquqini o‘tkazish bo‘yicha alohida shartnoma va unda belgilanadigan shartlar asosida qabul qilib olish huquqiga ega bo‘lsa;

(54-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-sonli Qonuniga asosan 31-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.03.2026-y., 03/26/1126/0279-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 29-iyun)

4) moliyaviy ijara shartnomasining amal qilish davrida ijara to‘lovlarining joriy diskontlangan qiymati obyektning uni moliyaviy ijaraga topshirish paytidagi joriy qiymatining 90 foizidan oshsa. Joriy diskontlangan qiymat buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlanadi.

(54-modda birinchi qismining 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu Kodeks maqsadida moliyaviy ijaraning alohida turi lizing deb e’tirof etilib, bunda bir taraf (lizing beruvchi) boshqa tarafning (lizing oluvchining) topshirig‘iga ko‘ra uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasi bo‘yicha shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) oladi hamda uni ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan talablarga muvofiq bo‘lgan shartnoma bo‘yicha egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga haq evaziga beradi.

Ushbu Kodeks maqsadi uchun moliyaviy ijara (lizing) shartnomasining tarafi bo‘lgan ijarachiga (lizing oluvchiga) moliyaviy ijara (lizing) predmetining xaridori sifatida qaraladi.

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Ijara to‘g‘risida”gi Qonuni, “Lizing to‘g‘risida”gi Qonuni.

Soliq solish maqsadida islomiy moliya faoliyati doirasida banklar va mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliya standartlariga muvofiq tuzilgan moliyaviy ijara (islomiy ijara) shartnomalariga ham moliyaviy ijara va lizing shartnomalari sifatida qaraladi hamda ularga nisbatan ushbu Kodeks qoidalari qo‘llaniladi.

(54-modda O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.03.2026-y., 03/26/1126/0279-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 29-iyun)

55-modda. Soliq qarzi

Ushbu Kodeks maqsadida hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) va belgilangan muddatlarda to‘lanmagan soliqlarning, shu jumladan ular bo‘yicha bo‘nak va joriy to‘lovlarning summalari, shuningdek ushbu Kodeksda belgilangan muddatda to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalar va penyalar soliq qarzi deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining Majburiyatlar reyestri ma’lumotlarini vaqtincha saqlash yagona elektron bazasiga (bundan buyon matnda Majburiyatlar reyestri deb

yuritiladi) kiritilgan ijro hujjatlari bo‘yicha soliq qarzining hisobi alohida yuritiladi.

(55-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 16-iyundagi O‘RQ-1069-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.06.2025-y., 03/25/1069/0510-son)

Soliq to‘lovchining yoki soliq agentining soliq qarzi barcha soliqlar bo‘yicha ham, ularning har biri bo‘yicha alohida-alohida ham aniqlanishi mumkin.

Soliq qarzini to‘lash, shu jumladan uni soliq organlari tomonidan undirish chog‘ida to‘lash quyidagi tartibdagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1) soliqlar summasi;

2) hisoblangan penyalar;

3) jarimalar.

56-modda. Soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan axborot resursi soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti hisoblanadi.

Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda, soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetidan soliq to‘lovchilar va soliq organlari o‘z huquqlari hamda majburiyatlarini elektron tarzda amalga oshirishi uchun foydalanilishi mumkin. Qonunda nazarda tutilgan hollarda, boshqa manfaatdor shaxslar ham ushbu axborot resursi orqali elektron hujjatlar almashinuvini amalga oshirishi mumkin.

(56-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 10-martdagi O‘RQ-607-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.03.2020-y., 03/20/607/0279-son)

Soliq organlari tomonidan soliq to‘lovchilarga va soliq to‘lovchilar tomonidan soliq organlariga yuboriladigan elektron hujjatlarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi. Har bir soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti ushbu soliq to‘lovchi soliq organlarida hisobga qo‘yilganidan keyin shakllantiriladi.

Soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetidan foydalanish soliq to‘lovchi tomonidan ixtiyoriy tartibda (bundan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno) amalga oshiriladi. Bunda soliq organlari hamda soliq to‘lovchilar bo‘lgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi faqat soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali amalga oshiriladi.

(56-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Jismoniy shaxsga, ushbu shaxs yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lishidan yoki bo‘lmasligidan qat’i nazar, soliq to‘lovchining bitta shaxsiy kabineti shakllantiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida hisobga turgan jismoniy shaxs o‘z soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetidan yakka tartibdagi tadbirkor sifatidagi o‘z huquqlari va majburiyatlarini elektron tarzda amalga oshirish uchun foydalanishi mumkin.

Soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga kirish yagona identifikatsiyalash tizimi orqali elektron raqamli imzo vositasida amalga oshiriladi.

> **Izoh.** Qarang: Davlat soliq qo‘mitasining 2017-yil 5-sentabrdagi 2926-sonli qarori bilan tasdiqlangan Soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetidan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizom.

Elektron raqamli imzo soliq to‘lovchiga uning arizasi asosida Davlat xizmatlari markazi orqali haq to‘lash asosida, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti faollashtirilganidan keyin to uning amal qilishi to‘xtatib turilguniga qadar soliq organlari barcha hujjatlarni soliq to‘lovchiga faqat uning shaxsiy kabineti orqali yuboradi. Soliq to‘lovchi hujjatlarni soliq organlariga xuddi shunday tartibda yuboradi.

Soliq organlari tomonidan hujjat va soliq to‘lovchiga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yuborilishi chog‘ida u ko‘rsatgan mobil telefon raqamiga tegishli SMS-xabar yuboriladi.

Agar soliq organi tomonidan elektron hujjat soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga yuborilganda soliq to‘lovchi shaxsiy kabinetining amal qilishi to‘xtatib turilganligi yoki elektron raqamli imzo kalitining sertifikati tugatilganligi to‘g‘risida ma’lumot olingan bo‘lsa, mazkur hujjat soliq to‘lovchiga ushbu ma’lumotlar olingan kundan e’tiboran uch kun ichida qog‘ozda yuboriladi.

Ushbu Kodeksning 129-moddasi yettinchi va o‘n uchinchi qismlariga muvofiq soliq organida hisobda turgan chet el yuridik shaxsi tomonidan soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetidan soliq organidan hujjatlarni (axborotni) olish hamda ushbu Kodeksning 282-moddasida ko‘rsatilgan xizmatlarni elektron shaklda ko‘rsatishga taalluqli ma’lumotlarni soliq organiga taqdim etish uchun foydalaniladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 282-moddasi.

Soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetidan foydalanish imkoniyati chet el yuridik shaxslariga ular soliq organlarida ushbu Kodeksning 129-moddasi yettinchi qismida nazarda tutilgan tartibda hisobga qo‘yilgan kundan e’tiboran beriladi. Bunday chet el yuridik shaxsi soliq organida hisobdan chiqarilgan taqdirda soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetidan foydalanish huquqi soliq organlari soliq to‘g‘risidagi qonunchilik bilan tartibga solinadigan munosabatlardagi o‘z vakolatlarini amalga oshirishi chog‘ida foydalanadigan hujjatlarni olish uchun saqlanib qoladi.

(56-moddaning o‘n uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeks 129-moddasining yettinchi qismi.

57-modda. Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari

Ushbu Kodeks maqsadida qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari deb bir vaqtning o‘zida quyidagi shartlarga javob beradigan yuridik shaxslar e’tirof etiladi:

qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchi va uni birlamchi qayta ishlovchi, basharti bunday yuridik shaxsning jami daromadida o‘zi ishlab chiqargan qishloq xo‘jaligi mahsulotini, shu jumladan uni o‘zi ishlab chiqargan qishloq xo‘jalik xom ashyosini qayta ishlashdan olingan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan daromadining ulushi soliq davridagi jami daromadning kamida 80 foizini tashkil etsa;

yer uchastkalariga ega bo‘lgan, bu yer uchastkalari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lsa.

Ushbu Kodeks maqsadida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari jumlasiga biologik resurslardan (hayvonlar va o‘simliklardan) olingan quyidagi mahsulotlar kiradi:

1) qishloq va o‘rmon xo‘jaligi o‘simlikshunosligi mahsulotlari;

2) chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik mahsulotlari;

3) ipakchilik mahsulotlari;

4) baliqchilik mahsulotlari va suvda yetishtiriladigan ekinlar.

Sanoatda qayta ishlangan qishloq xo‘jaligi mahsuloti ushbu Kodeks maqsadida qishloq xo‘jaligi mahsuloti deb e’tirof etilmaydi.

58-modda. Notijorat tashkilotlar

Qonunchilikda notijorat tashkilot uchun belgilangan shaklda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, quyidagi shartlarga muvofiq bo‘lgan yuridik shaxs ushbu Kodeks maqsadida notijorat tashkilot deb e’tirof etiladi, agar:

(58-moddaning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

daromad olish maqsadiga ega bo‘lmasa;

daromadlarni yoki mol-mulkni ishtirokchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamasa.

> **Izoh.** Qarang: “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni.

59-modda. Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar

Ushbu Kodeks maqsadida quyidagi sohalarda faoliyat ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar jumlasiga kiradi:

1) tegishli litsenziya asosida tibbiyot tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar (bundan kosmetologiya xizmatlari mustasno). Tibbiy xizmatlar jumlasiga, ushbu bandni qo‘llash maqsadida, quyidagilar kiradi, xususan, tibbiy yordam xizmatlari va sanitariya xizmatlari ko‘rsatish:

(59-modda birinchi qismi 1-bandining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

a) tashxis qo‘yish, profilaktika va davolash xizmatlari;

b) stomatologik xizmatlar, shu jumladan tish protezlarini o‘rnatish xizmatlari;

2) ta’limga oid xizmatlar, shu jumladan testlar va imtihonlar o‘tkazishni tashkil etish;

3) ilm-fan sohasidagi vakolatli organ tomonidan akkreditatsiya qilingan ilmiy va (yoki) ilmiy-texnikaviy faoliyat subyektlari tomonidan fan sohasida amalga oshiriladigan faoliyat (shu jumladan ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, muallif tomonidan ilmiy-intellektual mulkdan foydalanish, jumladan uni realizatsiya qilish);

4) jismoniy tarbiya va sport sohasidagi xizmatlar. Bunday xizmatlarga, xususan, quyidagilar kiradi:

a) sport inshootlarida, maktablarda, sog‘lomlashtirish yo‘nalishidagi klublarda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini sport turlari bo‘yicha o‘quv guruhlari hamda jamoalarida o‘tkazish xizmatlari, umumjismoniy tayyorgarlik xizmatlari;

b) sport musobaqalari yoki bayramlarini, sport-tomosha tadbirlarini o‘tkazish xizmatlari, shuningdek ushbu tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish uchun sport inshootlarini ijaraga berish;

v) sport-texnika asbob-uskunalarini, trenajyorlarni, anjomlarni, sport kiyim-boshlarini berib turish bo‘yicha xizmatlar;

5) bolalarni, keksalarni va nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish hamda ularning ijtimoiy ta’minoti sohasidagi xizmatlar.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar, ularning tegishli faoliyat turlaridan olingan daromadlari tekin olingan mol-mulk tarzidagi daromadlar hisobga olingan holda jami yillik daromadining kamida 90 foizini tashkil etishi sharti bilan, ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslar deb e’tirof etiladi.

Aksiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga va realizatsiya qilishga doir faoliyatdan daromadlar oluvchi, shuningdek foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar jumlasiga kirmaydi.

60-modda. Ushbu Kodeksda qo‘llaniladigan boshqa tushunchalar

Ushbu Kodeks maqsadida quyidagi tushunchalardan ham foydalaniladi:

asosiy faoliyat turi — yuridik shaxsning hisobot davri yakunlari bo‘yicha umumiy realizatsiya qilish hajmidagi sof tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyat turi;

(60-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

jismoniy shaxsning yaqin qarindoshlari — uning ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalari va opa-singillari, eri (xotini), farzandlari, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobolari, buvilari, nevaralari, shuningdek erining (xotinining) ota-onasi;

ijara (lizing) to‘lovi — ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijarachi (lizing oluvchi) tomonidan to‘lanadigan summa;

ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizdan olinadigan daromadi — moliyaviy ijara (lizing) obyektining ijara (lizing) to‘lovi summasi va qiymati o‘rtasidagi farq;

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Ijara to‘g‘risida”gi Qonuni, “Lizing to‘g‘risida”gi Qonuni.

nazorat-kassa texnikasi — fiskal xotira bilan jihozlangan nazorat-kassa mashinalari, fiskal to‘plagichlardagi fiskal ma’lumotlar yozib olinishi va saqlanishini ta’minlovchi, fiskal hujjatlarni shakllantiruvchi hamda ularning soliq organlariga fiskal ma’lumotlar operatori orqali topshirilishini, shuningdek fiskal hujjatlar nazorat-kassa texnikasini qo‘llash to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq qog‘ozda chop etilishini ta’minlovchi boshqa qurilmalar hamda dasturiy-texnik majmualar;

(60-moddaning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

ortiqcha to‘langan soliq summasi (penya, jarima) — soliqning (penyaning, jarimaning) to‘langan summasi bilan haqiqatda to‘lanishi lozim bo‘lgan summasi o‘rtasidagi ijobiy farq. Soliqning (penyaning, jarimaning) ortiqcha to‘langan summasi u ilgari hisobga olingan va (yoki) soliq to‘lovchiga qaytarilgan summalarni, shuningdek soliq bo‘yicha kelgusi to‘lovlar hisobiga o‘tkaziladigan summalarni hisobga olgan holda uni hisob-kitob qilish sanasida aniqlanadi;

ortiqcha undirilgan soliq summasi — soliq organlarining g‘ayriqonuniy hatti-harakatlari natijasida ortiqcha to‘langan soliq summasi;

tan olingan soliq qarzi — soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma berilgan sanadan boshlab o‘n kalendar kun ichida soliq to‘lovchi tomonidan e’tiroz bildirilmagan qarz yoki sud qarori bilan tasdiqlangan qarz;

xatolik bilan to‘langan soliq (penya, jarima) summasi — soliq (penya, jarima) summasini to‘lagan shaxsni va (yoki) ushbu to‘lovning maqsadini qat’iy aniqlash imkoniyatini bermaydigan to‘lov chog‘ida xatolikka yo‘l qo‘yilgan soliq (penya, jarima) summasi. Qaysi soliqqa (penyaga, jarimaga) nisbatan uni to‘lagan shaxs soliq to‘lovchi deb hisoblanmaydigan shaxsdan yoki to‘lanishi lozim bo‘lgan budjetdan boshqa budjetga kelib tushgan soliq (penya, jarima) summasi ham xatolik bilan to‘langan deb e’tirof etiladi;

umidsiz qarz — sud qarori bilan majburiyat bekor qilinganligi tufayli yoxud qarzdor bankrot deb topilganligi, tugatilganligi, vafot etganligi yoki da’vo muddati tugaganligi oqibatida to‘lanishi mumkin bo‘lmagan qarz, shuningdek Majburiyatlar reyestriga kiritilgan sanadan e’tiboran o‘n yil ichida to‘lanmagan qarz;

(60-moddaning o‘ninchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 16-iyundagi O‘RQ-1069-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.06.2025-y., 03/25/1069/0510-son)

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan tartibga muvofiq qonunchilik talablariga rioya etgan holda faoliyatni amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlarini aniqlashni va rag‘batlantirishni nazarda tutuvchi reyting;

(60-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 15-noyabrdagi O‘RQ-1000-sonli Qonuniga asosan o‘n birinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.11.2024-y., 03/24/1000/0928-son)

islomiy moliya faoliyati — qonunchilikda belgilangan tartibda, islomiy moliya standartlari asosida banklar va mikromoliya tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat;

islomiy moliya operatsiyalari — qonunchilikka muvofiq islomiy moliya standartlari asosida banklar va mikromoliya tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar.

(60-modda O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-sonli Qonuniga asosan o‘n uchinchi va o‘n to‘rtinchi xatboshilar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.03.2026-y., 03/26/1126/0279-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 29-iyun)

5-bob. Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi

61-modda. Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi

Soliq to‘lovchilarning xo‘jalik faoliyati bo‘yicha jami moliyaviy natijasini hisobga olgan holda foyda solig‘ini (bundan buyon matnda soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘i deb yuritiladi) hisoblab chiqarish va to‘lash maqsadida, ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartib hamda shartlarda tegishli shartnoma asosidagi ixtiyoriy birlashmasi soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi deb e’tirof etiladi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risida tuzilgan amaldagi shartnomaning tarafi bo‘lgan va ushbu Kodeksda bunday guruh ishtirokchilari uchun nazarda tutilgan barcha shartlarni qanoatlantiradigan yuridik shaxs soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchisi deb e’tirof etiladi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaga muvofiq zimmasiga soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lash majburiyati yuklatilgan ishtirokchi soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi deb e’tirof etiladi.

Ko‘rsatilgan soliqni hisoblab chiqarish va to‘lashga oid huquqiy munosabatlarda, foyda solig‘ini to‘lovchilar kabi, soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi shunday huquqlarni amalga oshiradi va majburiyatlarni zimmasiga oladi.

Ushbu Kodeksga va O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligiga muvofiq tuzilgan soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi mas’ul ishtirokchisining vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatdir.

(61-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni.

62-modda. Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish shartlari

O‘zbekiston Respublikasining ushbu moddada nazarda tutilgan barcha shartlarni qanoatlantiruvchi yuridik shaxslari soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etishga haqli.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchilari tomonidan qanoatlantirilishi lozim bo‘lgan ushbu moddada nazarda tutilgan shartlar, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, mazkur guruhni tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaning butun amal qilish muddati mobaynida bajarilishi kerak.

Basharti bir yuridik shaxs boshqa yuridik shaxslarning ustav fondida (ustav kapitalida) bevosita va (yoki) bilvosita ishtirok etsa hamda har bir shunday yuridik shaxsdagi bunday ishtirok etish ulushi kamida 90 foizni tashkil etsa, yuridik shaxslar tomonidan soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi tashkil etilishi mumkin. Ko‘rsatilgan shartga soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaning butun amal qilish muddati mobaynida rioya etilishi kerak.

Bir yuridik shaxsning boshqa yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi ushbu Kodeksning 38-moddasida belgilangan tartibda aniqlanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 38-moddasi.

Yuridik shaxs soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaning tarafi sifatida quyidagi barcha shartlarni qanoatlantirishi kerak:

agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, u qayta tashkil etilish yoki tugatilish jarayonida bo‘lmasligi kerak;

unga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish qo‘zg‘atilgan bo‘lmasligi kerak;

(62-modda beshinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-fevraldagi O‘RQ-911-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son)

soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish (o‘zgartirish) to‘g‘risidagi shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazish uchun hujjatlarni soliq organiga taqdim etish sanasidan oldingi oxirgi hisobot sanasidagi moliyaviy hisobot asosida hisob-kitob qilingan shaxs sof aktivlarining miqdori uning ustav fondi (ustav kapitali) miqdoridan oshishi kerak.

Soliq to‘lovchilarning mavjud konsolidatsiyalashgan guruhiga yangi yuridik shaxsni qo‘shib olish, agar qo‘shib olinayotgan yuridik shaxs o‘zining qo‘shib olinishi sanasida ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan shartlarni qanoatlantirsa, mumkin bo‘ladi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari bo‘lgan jami yuridik shaxslar quyidagi shartlarni qanoatlantirishi kerak:

1) ular tomonidan kalendar yil mobaynida to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, foyda solig‘i va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqning jami summasi kamida yuz milliard so‘mni tashkil etadi;

2) kalendar yil uchun moliyaviy hisobot ma’lumotlariga ko‘ra tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilishdan tushumning, shuningdek boshqa daromadlarning jami hajmi kamida besh yuz milliard so‘mni tashkil etadi;

3) aktivlarning jami qiymati kalendar yil oxirida moliyaviy hisobot ma’lumotlariga ko‘ra kamida bir trillion so‘mni tashkil etadi;

4) foyda solig‘i bo‘yicha bir xil soliq stavkasini qo‘llaydi.

Ushbu moddaning yettinchi qismida nazarda tutilgan barcha ko‘rsatkichlar soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazish uchun hujjatlar soliq organiga taqdim etiladigan yildan oldingi yil yakunlariga ko‘ra hisob-kitob qilinadi.

Quyidagilar soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari bo‘lishi mumkin emas:

1) maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari bo‘lgan yuridik shaxslar;

2) maxsus soliq rejimlarini qo‘llovchi yuridik shaxslar;

3) banklar, bundan ushbu konsolidatsiyalashgan guruhga kiruvchi boshqa barcha yuridik shaxslar banklar bo‘lgan hol mustasno;

4) sug‘urta tashkilotlari, bundan ushbu konsolidatsiyalashgan guruhga kiruvchi boshqa barcha yuridik shaxslar sug‘urta tashkilotlari bo‘lgan hol mustasno;

5) qimmatli qog‘ozlar bozorining banklar bo‘lmagan professional ishtirokchilari, bundan ushbu konsolidatsiyalashgan guruhga kiruvchi boshqa barcha yuridik shaxslar qimmatli qog‘ozlar bozorining banklar deb hisoblanmaydigan professional ishtirokchilari bo‘lgan hol mustasno;

6) foyda solig‘ini to‘lovchilar deb e’tirof etilmaydigan yuridik shaxslar;

7) kliring tashkilotlari;

8) mikromoliya tashkilotlari.

(62-modda to‘qqizinchi qismining 8-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 17-apreldagi O‘RQ-1058-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.04.2025-y., 03/25/1058/0355-son)

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi, faqat basharti ushbu moddada nazarda tutilgan talablarni qanoatlantiradigan barcha yuridik shaxslar ushbu konsolidatsiyalashgan guruhning ishtirokchilari bo‘lsa, tashkil etilishi mumkin.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilarining tarkibi unga faqat bunday talablarni qanoatlantiradigan ishtirokchilarning qo‘shib olinishi yoxud undan bunday talablarni qanoatlantirmay qo‘ygan ishtirokchilarning chiqarilishi hisobiga o‘zgarishi mumkin. Mazkur talabni buzgan holda tashkil etilgan yoxud bu talabga muvofiq bo‘lmay qolgan soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi g‘ayriqonuniy ravishda tashkil etilgan yoxud ushbu talab buzilgan sanadan e’tiboran amal qilishi tugatilgan deb e’tirof etiladi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi kamida ikki kalendar yil muddatga tashkil etiladi.

63-modda. Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaga muvofiq, ushbu Kodeksning 62-moddasida belgilangan shartlarni qanoatlantiruvchi yuridik shaxslar soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ini ushbu Kodeksda belgilangan tartibda va shartlarda hisoblab chiqarish hamda to‘lash maqsadida ixtiyoriy ravishda birlashadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 62-moddasi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish yuridik shaxsni tashkil etmagan holda amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomada quyidagi qoidalar bo‘lishi kerak:

1) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaning predmeti;

2) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari bo‘lgan yuridik shaxslarning ro‘yxati va rekvizitlari;

3) soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi bo‘lgan yuridik shaxsning nomi;

4) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari ushbu guruhning mas’ul ishtirokchisiga ushbu bobga muvofiq o‘tkazadigan vakolatlar ro‘yxati;

5) soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi va boshqa ishtirokchilari tomonidan ushbu Kodeksda nazarda tutilmagan majburiyatlarni bajarish hamda huquqlarni amalga oshirish tartibi va muddatlari, belgilangan majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik;

6) agar soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi muayyan muddatga tuzilayotgan bo‘lsa, kalendar yillarda hisoblanadigan muddat yoxud bu guruh qancha muddatga tashkil etilayotganligining muayyan muddati mavjud emasligini ko‘rsatish;

7) soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining har bir ishtirokchisi bo‘yicha ushbu Kodeksning Maxsus qismida nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda soliq bazasini aniqlash va foyda solig‘ini to‘lash uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatkichlar. Bunda tanlangan ko‘rsatkichlar soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaning butun amal qilish muddati mobaynida o‘zgartirilmaydi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaga asoslangan huquqiy munosabatlarga nisbatan soliq to‘g‘risidagi qonunchilik, soliq to‘g‘risidagi qonunchilik bilan tartibga solinmagan qismiga nisbatan esa, fuqarolik qonunchiligi qo‘llaniladi.

(63-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma va uning qoidalari qonunchilikka muvofiq bo‘lmagan taqdirda, sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

(63-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma quyidagi sanalardan eng avvalgisi yuzaga kelguniga qadar amal qiladi:

1) shartnoma amal qilishining tugash sanasi;

2) shartnomani bekor qilish sanasi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi bo‘lgan yuridik shaxs turgan joydagi soliq organida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Agar soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan bo‘lsa, soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma konsolidatsiyalashgan guruhning ko‘rsatilgan mas’ul ishtirokchisi yirik soliq to‘lovchi sifatida hisobga olingan joydagi soliq organida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim.

64-modda. Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini ro‘yxatdan o‘tkazish

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazish uchun ushbu guruhning mas’ul ishtirokchisi o‘zi hisobda turgan joydagi soliq organiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

1) tashkil etilayotgan konsolidatsiyalashgan guruh barcha ishtirokchilarining vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazish haqidagi ariza;

2) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaning ikkita nusxasi;

3) ushbu Kodeks 62-moddasining uchinchi, beshinchi, yettinchi va to‘qqizinchi qismlarida nazarda tutilgan shartlar bajarilganligini tasdiqlovchi, soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi tomonidan tasdiqlangan hujjatlar. Bunday hujjatlar jumlasiga, xususan, ushbu Kodeks 62-moddasi yettinchi qismining

1-bandida ko‘rsatilgan soliqlarni to‘lashga doir to‘lov topshiriqnomalarining (soliq organining bu soliqlar bo‘yicha hisobga olish amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi qarorining ko‘chirma nusxalari), guruh ishtirokchilaridan har biri uchun oldingi kalendar yildagi buxgalteriya balanslari, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotlarning ko‘chirma nusxalari kiradi;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 62-moddasi.

4) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani imzolagan shaxslarning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan hujjatlar soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi uchun foyda solig‘i hisoblanadigan va to‘lanadigan soliq davridan oldingi yilning 30-oktabridan kechiktirmay soliq organiga taqdim etiladi.

Soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan hujjatlar soliq organiga taqdim etilgan kundan e’tiboran o‘n besh kun ichida soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazadi yoki uni ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish haqida asoslantirilgan qaror qabul qiladi. Ushbu moddada belgilangan muddat doirasida bartaraf etiladigan qoidabuzarliklar aniqlanganda, soliq organi soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisini bu haqda xabardor qilishi shart. Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi aniqlangan qoidabuzarliklarni ushbu moddada belgilangan muddat tugagunga qadar bartaraf etishga haqli.

Ushbu Kodeksning 62-moddasida, 63-moddasining uchinchi qismida hamda ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan shartlarga rioya etilgan taqdirda soliq organi soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazishi shart.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 62, 63-moddalari.

Shartnoma ro‘yxatdan o‘tkazilgan sanadan e’tiboran besh kun ichida soliq organi soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisiga ushbu shartnomaning bir nusxasini uning ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida belgi qo‘ygan holda, shaxsan imzo qo‘ydirib yoki olinganlik sanasi to‘g‘risida guvohlik beruvchi boshqa usulda berishi shart.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma ro‘yxatdan o‘tkazilganligi haqidagi axborot xuddi shu muddatlarda soliq organi tomonidan soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari bo‘lgan yuridik shaxslar joylashgan yerdagi soliq organlariga yuboriladi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ushbu guruhni tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma soliq organi tomonidan ro‘yxatga olingan yildan keyingi kalendar yilning birinchi sanasida tashkil etilgan deb e’tirof etiladi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazishni soliq organi tomonidan rad etishga faqat quyidagi holatlardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lganda yo‘l qo‘yiladi:

1) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etishning ushbu Kodeksning 62-moddasida nazarda tutilgan shartlariga muvofiq emasligi;

2) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaning ushbu Kodeks 63-moddasining uchinchi qismida ko‘rsatilgan talablarga muvofiq emasligi;

3) ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazish uchun hujjatlarni vakolatli soliq organiga taqdim etmaslik yoxud to‘liq hajmda taqdim etmaslik yoki mazkur moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hujjatlarni taqdim etish muddatini buzish;

4) hujjatlar uni imzolashga vakolati bo‘lmagan shaxslar tomonidan imzolangan taqdirda.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazish soliq organi tomonidan rad etilgan taqdirda, ushbu guruhning mas’ul ishtirokchisi kamchiliklar bartaraf etilganidan so‘ng bunday shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi hujjatlarni qayta taqdim etishga haqli.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish haqidagi qarorning ko‘chirma nusxasi u qabul qilingan kundan e’tiboran besh kun ichida soliq organi tomonidan bunday shartnomada soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi sifatida ko‘rsatilgan vakolatli vakiliga shaxsan imzo qo‘ydirib yoki olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usul orqali topshiriladi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazish rad etilganligi ustidan bunday shartnomada soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi sifatida ko‘rsatilgan shaxs tomonidan mazkur Kodeksda soliq organlarining va ular mansabdor shaxslarining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat qilish uchun belgilangan tartibda va muddatlarda shikoyat qilinishi mumkin.

Ariza (shikoyat) qanoatlantirilgan taqdirda soliq organi ushbu shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazishi shart, soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi esa ushbu moddaning to‘rtinchi qismiga muvofiq ro‘yxatdan o‘tishi lozim bo‘lgan yildan keyingi kalendar yilning birinchi sanasidan e’tiboran tashkil etilgan deb e’tirof etiladi. Agar soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazish uchun ushbu bobda belgilangan boshqa to‘siqlar bo‘lmasa, ko‘rsatilgan qoida qo‘llaniladi.

65-modda. Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani o‘zgartirish va uning amal qilish muddatini uzaytirish

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda o‘zgartirilishi mumkin.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma taraflari quyidagi hollarda mazkur shartnomaga o‘zgartishlar kiritishi shart:

1) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari bo‘lgan bir yoki bir nechta yuridik shaxsni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilinganda;

2) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari bo‘lgan bir yoki bir nechta yuridik shaxsni qayta tashkil etish to‘g‘risida (qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, ajratib chiqarish yoki bo‘lish shaklida) qaror qabul qilinganda;

3) bir yoki bir nechta yuridik shaxs soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhiga qo‘shib olinganda;

4) yuridik shaxs mazkur Kodeksning 62-moddasida nazarda tutilgan shartlarga javob bermay qolgan hollarda, ushbu yuridik shaxs soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhidan chiqib ketganda;

5) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risida qaror qabul qilinganda.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchisi qayta tashkil etilganda qayta tashkil etilgan yuridik shaxslar, agar ular ushbu Kodeksning 62-moddasida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq bo‘lsa, shu konsolidatsiyalashgan guruh tarkibiga kiritilishi shart.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 62-moddasi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani o‘zgartirish to‘g‘risidagi bitim shunday guruhning barcha ishtirokchilari tomonidan yangidan qo‘shib olinayotgan ishtirokchilarni qo‘shib hisoblaganda va guruhdan chiqayotgan ishtirokchilarni istisno etgan holda qabul qilinadi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani o‘zgartirish to‘g‘risidagi bitim ro‘yxatdan o‘tkazish uchun soliq organiga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) mazkur shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risida qaror qabul qilinganda — soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaning amal qilish muddati tugashidan kamida bir oy oldin;

2) boshqa hollarda — soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani o‘zgartirish uchun holatlar yuzaga kelgan kundan e’tiboran bir oy ichida.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani o‘zgartirish to‘g‘risidagi bitimni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun uning mas’ul ishtirokchisi soliq organiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

1) shartnomaga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi bildirish xati;

2) soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilarining vakolatli shaxslari tomonidan shartnomani o‘zgartirish, shu jumladan uning muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi imzolangan bitimning ikkita nusxasi;

3) shartnomaga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi bitimni imzolagan shaxslarning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar;

4) shartnomaga kiritilgan o‘zgartishlarni hisobga olgan holda ushbu Kodeksning 62-moddasida nazarda tutilgan shartlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar;

5) shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi qarorning ikkita nusxasi.

Soliq organi soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani o‘zgartirish to‘g‘risidagi bitimni ushbu moddaning oltinchi qismida ko‘rsatilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida ro‘yxatdan o‘tkazishi va mazkur guruh mas’ul ishtirokchisining vakolatli vakiliga o‘zgartishlarning bir nusxasini, u ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi belgini qo‘ygan holda, berishi shart.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani o‘zgartirish to‘g‘risidagi bitimni ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

1) ushbu Kodeksning 62-moddasida nazarda tutilgan shartlarning soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining hech bo‘lmaganda bitta ishtirokchisiga nisbatan bajarilmaganligi;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 62-moddasi.

2) hujjatlarning bunga vakolati bo‘lmagan shaxslar tomonidan imzolanganligi;

3) mazkur shartnomani o‘zgartirish uchun hujjatlar taqdim etish muddatining buzilganligi;

4) ushbu moddaning oltinchi qismida nazarda tutilgan hujjatlar taqdim etilmaganligi (to‘liq hajmda taqdim etilmaganligi).

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani o‘zgartirish to‘g‘risidagi bitim quyidagi tartibda kuchga kiradi:

1) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaga bunday guruhga yangi yuridik shaxslar qo‘shib olinishi bilan bog‘liq o‘zgartishlar (bundan guruh ishtirokchilari qayta tashkil etilgan hollar mustasno) shartnomaga tegishli o‘zgartishlar soliq organi tomonidan ro‘yxatga olingan yildan keyingi kalendar yilning kamida birinchi kunidan keyin kuchga kiradi;

2) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaga bunday guruh tarkibidan ishtirokchilar chiqib ketishi bilan bog‘liq o‘zgartishlar shartnomaga tegishli o‘zgartishlar kiritish uchun holatlar yuzaga kelgan yildan (agar ushbu qismning 3-bandida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa) keyingi kalendar yilning birinchi kunidan kuchga kiradi;

3) boshqa hollarda soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaga o‘zgartishlar uning taraflari ko‘rsatgan sanadan e’tiboran, lekin tegishli o‘zgartishlar soliq organi tomonidan ro‘yxatga olingan sanadan keyin keladigan sanada kuchga kiradi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaga majburiy o‘zgartishlarni kiritishdan bo‘yin tovlash shartnomaga tegishli majburiy o‘zgartishlar kuchga kirishi kerak bo‘lgan kalendar yilning birinchi kunidan e’tiboran shartnomaning amal qilishi tugatilishiga sabab bo‘ladi.

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni.

66-modda. Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchilari quyidagilarga haqli:

1) konsolidatsiyalashgan guruhning mas’ul ishtirokchisidan ushbu konsolidatsiyalashgan guruhning faoliyati munosabati bilan soliq organi tomonidan mas’ul ishtirokchiga taqdim etilgan hujjatlar, qarorlar, talabnomalar, solishtirma dalolatnomalar va boshqa hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini olish;

2) ushbu Kodeksda nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda soliq organlarining hujjatlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan yuqori turuvchi soliq organiga yoki sudga shikoyat qilish;

3) soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi mas’ul ishtirokchisining soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ini to‘lash majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarish;

4) mas’ul ishtirokchida soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘i hisoblab chiqarilishi va to‘lanishi munosabati bilan o‘tkaziladigan soliq tekshiruvlarini o‘tkazishda, shuningdek bunday soliq tekshiruvlarining materiallarini ko‘rib chiqishda ishtirok etish.

Ushbu Kodeksning 62-moddasida soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari uchun nazarda tutilgan shartlarga muvofiq bo‘lgan bunday guruh ishtirokchisi soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaning amal qilish muddati mobaynida o‘zining ushbu guruhdagi ishtirokini ixtiyoriy ravishda tugatishga haqli emas.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchilari:

1) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to‘g‘risidagi shartnomani va unga o‘zgartishlarni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan barcha harakatlarni amalga oshirishi hamda barcha hujjatlarni taqdim etishi;

2) soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisiga soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ini to‘lovchining majburiyatlarini bajarish va huquqlarini amalga oshirish uchun unga zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etishi (shu jumladan elektron shaklda taqdim etishi). Bunday ma’lumotlar jumlasiga olingan daromadlar va qilingan xarajatlarga nisbatan foyda solig‘i bo‘yicha soliq bazasining hisob-kitoblari, hisobga olish registrlarining ma’lumotlari va boshqa hujjatlar kiradi;

3) soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining faoliyati munosabati bilan soliq organi tomonidan soliq nazorati tadbirlari amalga oshirilganda talab qilinadigan hujjatlar va boshqa axborotni ushbu Kodeksda belgilangan tartibda soliq organlariga taqdim etishi;

4) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ini (bo‘nak va joriy to‘lovlarni), tegishli penyalar va jarimalarni to‘lash bo‘yicha majburiyat ushbu Kodeksning III bo‘limida belgilangan tartibda ushbu guruhning mas’ul ishtirokchisi tomonidan bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, bunday majburiyatni bajarishi;

5) ushbu Kodeksning 62-moddasida nazarda tutilgan shartlarga rioya etilmagan taqdirda, soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisini va mazkur guruhni tuzish to‘g‘risidagi shartnoma ro‘yxatga olingan soliq organini darhol xabardor qilishi;

6) ushbu Kodeksning II bo‘limida nazarda tutilgan tartibda soliq solish maqsadida hisob yuritishi shart.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘iga nisbatan soliq majburiyati mas’ul ishtirokchi tomonidan bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda, ushbu guruhning ko‘rsatilgan soliq majburiyatini bajargan ishtirokchisi fuqarolik qonunchiligida va mazkur guruhni tuzish to‘g‘risidagi shartnomada nazarda tutilgan miqdorlarda hamda tartibda regress talabi qo‘yish huquqiga ega bo‘ladi. Ushbu qoida soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi o‘rniga uning soliq majburiyati (shu jumladan bo‘nak va joriy to‘lovlarni to‘lash) shu konsolidatsiyalashgan guruhning bir nechta ishtirokchisi tomonidan bajarilgan hollarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

(66-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Yuridik shaxs soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi tarkibidan chiqqanda:

1) yuridik shaxs foyda solig‘i bo‘yicha konsolidatsiyalashgan guruh tarkibidan chiqqan soliq davridan boshlab soliq hisobiga soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchisi bo‘lmagan soliq to‘lovchining soliq hisobi bo‘yicha ushbu Kodeksning II bo‘limi talablariga rioya etishga qaratilgan o‘zgartishlar kiritishi;

2) ushbu yuridik shaxs soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining tarkibidan chiqib ketgan soliq davridan boshlab o‘zi tomonidan haqiqatda olingan foydadan kelib chiqqan holda foyda solig‘ini hisoblab chiqishi va to‘lashi. Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi tomonidan ushbu guruh bo‘yicha haqiqatda

to‘langan foyda solig‘i summalarini hisobga olgan holda, ko‘rsatilgan talab tegishli hisobot va soliq davrlariga nisbatan tatbiq etiladi hamda foyda solig‘i bo‘yicha bo‘nak va joriy to‘lovlarni ushbu Kodeksning XII bo‘limida belgilangan muddatlarda to‘lash majburiyatini o‘z ichiga oladi;

3) ushbu Kodeksning XII bo‘limida nazarda tutilgan muddatlarda foyda solig‘i bo‘yicha soliq hisobotini o‘zi hisobda turgan yerdagi soliq organiga taqdim etishi shart.

Yuridik shaxsning soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi tarkibidan chiqib ketishi uni ushbu yuridik shaxs shunday konsolidatsiyalashgan guruhning ishtirokchisi bo‘lgan davrda yuzaga kelgan soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘iga nisbatan soliq majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

Mazkur qoida, ushbu yuridik shaxsga uning soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi tarkibidan chiqib ketguniga qadar mazkur soliq majburiyati bajarilmaganligi yoki soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilganligi to‘g‘risida ma’lum bo‘lganidan yoki ma’lum bo‘lmaganidan qat’i nazar, qo‘llaniladi.

(66-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 61 — 65-moddalari.

67-modda. Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi mas’ul ishtirokchisining huquqlari va majburiyatlari

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi ushbu Kodeksning 66-moddasida nazarda tutilgan huquqlar va majburiyatlardan tashqari, ushbu moddada belgilangan huquqlarga ega bo‘ladi va majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 66-moddasi.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining faoliyati munosabati bilan yuzaga keladigan munosabatlarda foyda solig‘ini to‘lovchilar uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan huquqlarga ega bo‘ladi va majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi quyidagi huquqlarga ega:

1) soliq organlariga va ularning mansabdor shaxslariga soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ini (bo‘nak va joriy to‘lovlarni) hisoblab chiqarish va to‘lash yuzasidan har qanday tushuntirishlarni taqdim etish;

2) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘i to‘lanishi munosabati bilan bunday guruhning istalgan ishtirokchisi va uning alohida bo‘linmalari joylashgan yerda o‘tkaziladigan sayyor soliq tekshiruvlari hamda soliq auditi o‘tkazilayotganda ishtirok etish;

3) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘i to‘lanishi munosabati bilan o‘tkaziladigan soliq tekshiruvlari hujjatlarining va soliq tekshiruvlarining natijalari yuzasidan soliq organi tomonidan chiqarilgan qarorlarning ko‘chirma nusxalarini olish. Shuningdek foyda solig‘ini (bo‘nak to‘lovlarini) to‘lash to‘g‘risidagi talabnomalarni hamda soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi faoliyati bilan bog‘liq boshqa hujjatlarni olish;

4) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ini to‘lash munosabati bilan o‘tkaziladigan soliq tekshiruvlarining va soliq nazorati qo‘shimcha tadbirlarining materiallari ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda va tartibda soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan ko‘rib chiqilayotganda ishtirok etish;

5) soliq organlaridan soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari to‘g‘risidagi soliq sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni olish;

6) soliq organlarining va boshqa vakolatli organlarning hujjatlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan, shu jumladan soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ini hisoblab chiqarishda ular tomonidan majburiyatlarning bajarilishi (huquqlarning amalga oshirilishi) munosabati bilan

soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ayrim ishtirokchilari manfaatlarini ko‘zlab belgilangan tartibda shikoyat qilish;

7) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha ortiqcha to‘langan foyda solig‘ini hisobga olish (qaytarish) to‘g‘risidagi ariza bilan soliq organiga murojaat etish.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi:

1) soliq organiga ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda ro‘yxatdan o‘tkazish uchun soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to‘g‘risidagi shartnomani, ushbu shartnomani o‘zgartirish to‘g‘risidagi bitimni, soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi faoliyatini tugatish to‘g‘risidagi qarorni yoki bildirish xatini taqdim etishi;

2) ushbu Kodeksning XII bo‘limida belgilangan tartibda soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha soliq hisobini yuritishi, foyda solig‘ini (bo‘nak va joriy to‘lovlarni) hisoblab chiqarishi va to‘lashi;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning XII bo‘limi.

3) soliq organiga soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘i bo‘yicha soliq hisobotini, shuningdek mazkur guruhning boshqa ishtirokchilaridan olingan hujjatlarni ushbu Kodeksda belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim etishi;

4) soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining faoliyati tugatilgan taqdirda, ushbu guruh ishtirokchilariga foyda solig‘ini (bo‘nak va joriy to‘lovlarni) hisoblab chiqarish va to‘lash hamda tegishli hisobot hamda soliq davrlari uchun soliq hisobotini tuzish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to‘g‘risidagi shartnomada nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda taqdim etishi. Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi tarkibidan bir yoki bir nechta yuridik shaxs chiqib ketganda bunday ma’lumotlar ushbu konsolidatsiyalashgan guruhning boshqa ishtirokchilariga va konsolidatsiyalashgan guruh tarkibidan chiqib ketgan yuridik shaxslarga xuddi shunday tartibda taqdim etiladi;

5) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ini to‘lovchining majburiyatlarini bajarish munosabati bilan yuzaga keladigan soliq qarzini uzishi;

6) soliqlarni to‘lash to‘g‘risidagi talabnoma olinganligi haqida u olingan kundan e’tiboran besh kun ichida soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilarini xabardor qilishi;

7) soliq organlari tomonidan soliq nazorati amalga oshirilishi hamda soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ini to‘lovchining majburiyatlari bajarilishi uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni, izohlarni va boshqa axborotni soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilaridan talab qilib olishi;

8) ushbu konsolidatsiyalashgan guruhni tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazgan soliq organi tomonidan soliq nazorati tadbirlari doirasida talab qilingan, soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha boshlang‘ich hujjatlarni, soliq hisobi registrlarini va boshqa axborotni taqdim etishi shart.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi tarkibidan bir yoki bir nechta yuridik shaxs chiqib ketgan taqdirda shu konsolidatsiyalashgan guruhning mas’ul ishtirokchisi:

1) soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining foyda solig‘i bo‘yicha yuridik shaxslar konsolidatsiyalashgan guruh tarkibidan chiqib ketgan soliq davri boshlanishidan soliq hisobiga tegishli o‘zgartishlar kiritishi;

2) tugagan hisobot davrlari bo‘yicha foyda solig‘i yuzasidan bo‘nak va joriy to‘lovlarni qaytadan hisoblashni amalga oshirishi va hisobda turgan joyidagi soliq organiga soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘iga doir aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etishi shart.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida soliq to‘lovchining ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa huquqlariga ega bo‘ladi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo‘ladi.

68-modda. Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi faoliyatini tugatish

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi quyidagi holatlardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lgan taqdirda faoliyatini tugatadi:

1) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaning amal qilish muddati tugaganda;

2) taraflarning kelishuviga ko‘ra soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma bekor qilinganda;

3) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi sudning qarori qonuniy kuchga kirganda;

4) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani uning ishtirokchilari tarkibi o‘zgarishi munosabati bilan o‘zgartirish to‘g‘risidagi bitim belgilangan muddatlarda soliq organiga taqdim etilmaganda;

5) soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi qayta tashkil etilganda (bundan qayta o‘zgartirish mustasno) yoki tugatilganda;

6) qonunchilikka muvofiq soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisiga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish yuritish qo‘zg‘atilganda;

(68-modda birinchi qismining 6-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-fevraldagi O‘RQ-911-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son)

7) soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi ushbu Kodeksning 62-moddasida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq kelmaganda;

8) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaga majburiy o‘zgartishlarni kiritishdan bo‘yin tovlaganda.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchisi bo‘lgan yuridik shaxsning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) ushbu Kodeks 62-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan shartlarning buzilishiga olib kelmaydigan xarid qilish yoki sotish soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi faoliyatini tugatishga sabab bo‘lmaydi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeks 62-moddasining uchinchi qismi.

Ushbu modda birinchi qismining 2-bandida ko‘rsatilgan holat mavjud bo‘lganda, soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi ushbu guruhni tuzish to‘g‘risidagi shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazgan soliq organiga uning faoliyatini tugatish to‘g‘risidagi, konsolidatsiyalashgan guruh ishtirokchilari bo‘lgan barcha yuridik shaxslarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan qarorni yuborishi shart. Bunday qaror ko‘rsatilgan soliq organiga qaror qabul qilingan kundan e’tiboran besh kundan kechiktirmay yuboriladi.

Ushbu modda birinchi qismining 1, 3 — 7-bandlarida ko‘rsatilgan holatlar mavjud bo‘lganda, soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi ushbu guruhni tuzish to‘g‘risidagi shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazgan soliq organiga bunday holatlar yuzaga kelgan sanani ko‘rsatgan holda bildirish xati yuborishi shart. Bunday bildirish ixtiyoriy shaklda tuziladi va mazkur soliq organiga tegishli holat yuzaga kelgan kundan e’tiboran besh kundan kechiktirmay yuboriladi.

Soliq organi ushbu moddaning uchinchi yoki to‘rtinchi qismlarida ko‘rsatilgan hujjatlar olingan sanadan e’tiboran besh kun ichida soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi faoliyati tugatilganligi haqidagi axborotni soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari bo‘lgan yuridik shaxslar joylashgan yerdagi soliq organlariga yuboradi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan holatlar yuzaga kelgan yildan keyingi kalendar yilning birinchi kunidan e’tiboran faoliyatini tugatadi.

Ushbu modda birinchi qismining 3-bandida nazarda tutilgan asos mavjud bo‘lgan taqdirda, soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi foyda solig‘i bo‘yicha sudning ko‘rsatilgan qarori qonuniy kuchga kirgan soliq davrining birinchi kunidan e’tiboran faoliyatini tugatadi.

Ushbu modda birinchi qismining 4-bandida nazarda tutilgan asos mavjud bo‘lgan taqdirda, soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi foyda solig‘i bo‘yicha ushbu Kodeksning 65-moddasida belgilangan shart qaysi soliq davrida buzilgan bo‘lsa, o‘sha soliq davrining birinchi kunidan e’tiboran faoliyatini tugatadi.

Ushbu modda birinchi qismining 5, 6 yoki 7-bandlarida nazarda tutilgan asos mavjud bo‘lgan taqdirda, soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi tegishli holat yuzaga kelgan kalendar yilning birinchi kunidan e’tiboran faoliyatini tugatadi.

6-bob. Soliqlarning elementlari

69-modda. Soliqlarning elementlari

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda soliqning barcha elementlari aniqlab qo‘yilgan taqdirdagina ushbu soliq belgilangan deb hisoblanadi.

(69-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Bunday soliq elementlariga quyidagilar kiradi:

1) soliq solish obyekti;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 70-moddasi.

2) soliq bazasi;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 71-moddasi.

3) soliq stavkasi;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 72-moddasi.

4) soliq davri;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 73-moddasi.

5) soliqni hisoblab chiqarish tartibi;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 74-moddasi.

6) soliq hisobotini taqdim etish tartibi;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 82-moddasi.

7) soliqni to‘lash tartibi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 74-moddasi.

Soliqni belgilashda soliq imtiyozlari va ularning qo‘llanilishi uchun asoslar nazarda tutilishi mumkin.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 75-moddasi.

70-modda. Soliq solish obyekti

Soliq solish obyekti mol-mulk, harakat, harakat natijasi yoki qiymat, miqdoriy yoki fizik xususiyatga ega bo‘lgan boshqa holat bo‘lib, u mavjud bo‘lganda soliq to‘g‘risidagi qonunchilik soliq to‘lovchida soliq majburiyatini vujudga keltiradi.

(70-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Har bir soliq ushbu Kodeksning Maxsus qismiga muvofiq belgilanadigan mustaqil soliq solish obyektiga ega bo‘ladi.

71-modda. Soliq bazasi

Soliq bazasi soliq solish obyektining qiymat, fizik yoki boshqa xususiyatini ifodalaydi.

Har bir soliq uchun soliq bazasi va uni aniqlash tartibi ushbu Kodeks bilan belgilanadi.

72-modda. Soliq stavkasi

Soliq stavkasi soliq bazasining o‘lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan soliqning foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorini ifodalaydi.

Soliq stavkalari ushbu Kodeks bilan belgilanadi. Aksiz solig‘ining stavkalari, mahsulot narxi dinamikasidan va uni realizatsiya qilish, shu jumladan import qilish hajmidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan yil davomida qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

(72-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

(72-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuniga asosan 2021-yil 1-yanvardan chiqariladi — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son)

73-modda. Soliq davri

Soliq davri deganda tugagandan keyin soliq bazasi aniqlanadigan hamda to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi hisoblab chiqariladigan kalendar yil yoki boshqa davr tushuniladi.

Soliq davri bir necha hisobot davrlaridan iborat bo‘lishi mumkin.

Kalendar yil soliq davri hisoblanadigan soliqlarga nisbatan ushbu qismning qoidalari mazkur moddaning to‘rtinchi — o‘ninchi qismlarida nazarda tutilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda qo‘llaniladi.

Agar yuridik shaxs kalendar yil boshlanganidan keyin, lekin shu yilning 1-dekabriga qadar tashkil etilgan bo‘lsa, uning uchun u tashkil etilgan kundan e’tiboran shu yilning oxiriga qadar bo‘lgan davr birinchi soliq davri deb e’tirof etiladi.

Agar yuridik shaxs 1-dekabrdan 31-dekabrga qadar bo‘lgan davrda tashkil etilgan bo‘lsa, tashkil etilgan kundan e’tiboran tashkil etilgan yildan keyingi kalendar yilning oxirigacha bo‘lgan davr uning uchun birinchi soliq davri deb e’tirof etiladi. Bunda yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kun u tashkil etilgan kun deb e’tirof etiladi.

Ushbu moddaning to‘rtinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan qoidalar ushbu Kodeksda belgilangan tartibda o‘zini mustaqil ravishda O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e’tirof etgan hamda faoliyati bunday e’tirof etish sanasida O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa tuzishga olib kelmagan chet el yuridik shaxslari uchun foyda solig‘i bo‘yicha birinchi soliq davrini aniqlashga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Agar yuridik shaxs kalendar yil oxirigacha tugatilgan (qayta tashkil etilgan) bo‘lsa, uning uchun shu yil boshidan to tugatish (qayta tashkil etish) tamomlangan kungacha bo‘lgan davr oxirgi soliq davri deb e’tirof etiladi.

Agar kalendar yil boshlanganidan keyin tashkil etilgan yuridik shaxs shu yil oxiriga qadar tugatilgan (qayta tashkil etilgan) bo‘lsa, uning uchun u tuzilgan kundan e’tiboran tugatilgan (qayta tashkil etilgan) kungacha bo‘lgan davr soliq davri deb e’tirof etiladi.

Agar yuridik shaxs joriy kalendar yilning 1-dekabridan 31-dekabriga qadar bo‘lgan davrda tashkil etilgan bo‘lsa va tashkil etilgan yildan keyingi kalendar yil oxirigacha tugatilgan (qayta tashkil etilgan) bo‘lsa, uning uchun u tuzilgan kundan e’tiboran tugatilgan (qayta tashkil etilgan) kungacha bo‘lgan davr soliq davri deb e’tirof etiladi.

Ushbu moddaning to‘qqizinchi qismida nazarda tutilgan qoidalar tarkibidan bir yoxud bir nechta yuridik shaxslar ajralib chiqadigan yoki unga bir yoki bir nechta yuridik shaxslar qo‘shib olinadigan yuridik shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Agar faoliyati O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa tuzishga olib kelmagan chet el yuridik shaxsi o‘zini mustaqil ravishda O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etsa, uning uchun foyda solig‘i bo‘yicha birinchi soliq davrini aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) agar ushbu chet el yuridik shaxsi o‘zini O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etish to‘g‘risidagi arizani taqdim etgan kalendar yilning 1-yanvaridan e’tiboran o‘zini O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etsa, mazkur ariza taqdim etilgan kalendar yil uning uchun birinchi soliq davri hisoblanadi;

2) agar ushbu chet el yuridik shaxsi tegishli ariza taqdim etilgan sanadan e’tiboran o‘zini O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etsa, ko‘rsatilgan ariza soliq organiga taqdim etilgan sanadan e’tiboran ushbu ariza taqdim etilgan kalendar yilning oxirigacha bo‘lgan davr uning uchun birinchi soliq davri hisoblanadi.

Bunda, agar chet el yuridik shaxsining o‘zini O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etish to‘g‘risidagi arizasi 1-dekabrdan 31-dekabrga qadar bo‘lgan davrda taqdim etilgan bo‘lsa, uning uchun ushbu ariza soliq organiga taqdim etilgan sanadan e’tiboran u soliq organiga taqdim etilgan kundan keyingi kalendar yilning oxirigacha bo‘lgan davr birinchi soliq davri hisoblanadi.

74-modda. Soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi

Soliqni hisoblab chiqarish tartibi soliq bazasidan, soliq stavkasidan, shuningdek mavjud bo‘lgan taqdirda, soliq imtiyozlaridan kelib chiqqan holda soliq davri uchun soliq summasini hisob-kitob qilish qoidalarini belgilaydi.

Soliqni hisoblab chiqarish soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda bu majburiyat soliq organiga yoki soliq agentiga yuklatilishi mumkin.

Agar mazkur Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchilar va soliq agentlari soliqlar hamda yig‘imlarni mustaqil ravishda to‘laydi.

Soliqni to‘lash soliqning to‘liq summasi bo‘yicha yoki ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqacha tartibda amalga oshiriladi.

Agar soliq bo‘yicha soliq davri bir necha hisobot davrini tashkil etsa, ulardan har birining natijalari bo‘yicha joriy to‘lovlar to‘lanadi. Joriy to‘lovlarni to‘lash majburiyati soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatga tenglashtiriladi.

Alohida soliq turlari uchun bo‘nak to‘lovlari nazarda tutilishi mumkin. Bo‘nak to‘lovlarini to‘lash majburiyati soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatga tenglashtiriladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqlarni banklar orqali naqd pulsiz shaklda to‘laydi.

Soliqlar va yig‘imlarni turlari bo‘yicha hisoblab chiqarish tartibi hamda to‘lash muddatlari ushbu Kodeksning Maxsus qismida belgilanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 4-moddasi, 2-bobi.

75-modda. Soliq imtiyozlari

Soliq to‘lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan soliqni to‘lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyati soliq imtiyozlari deb e’tirof etiladi.

(75-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq to‘lovchiga soliqlarni to‘lash bo‘yicha muddatni kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) imkoniyati berilishi soliq imtiyozlari hisoblanmaydi.

Agar ushbu moddaning beshinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq imtiyozlari ushbu Kodeks bilan taqdim etiladi.

Soliq imtiyozlari individual xususiyatga ega bo‘lishi mumkin emas.

Ayrim soliqlar bo‘yicha soliq imtiyozlari, qo‘shilgan qiymat solig‘i, foyda solig‘i, aksiz solig‘i solinadigan mahsulotlar ishlab chiqarilganda va (yoki) realizatsiya qilinganda aksiz solig‘i, yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqdan, foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari, ushbu moddaning yettinchi qismi qoidalarini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan faqat belgilangan soliq stavkasini kamaytirish, lekin ko‘pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida va ko‘pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin.

(75-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Foyda solig‘i bo‘yicha soliq imtiyozlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan, faqat amortizatsiya qilinadigan asosiy vositalarni tezlashtirilgan amortizatsiya qilish huquqini berish tarzida, uch yildan ortiq bo‘lmagan muddatga beriladi.

(75-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan oltinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchilar soliqlar bo‘yicha imtiyozlardan tegishli huquqiy asoslar yuzaga kelgan paytdan e’tiboran ularning butun amal qilish davri mobaynida foydalanishga yoki soliq imtiyozidan foydalanishdan voz kechishga yoxud undan foydalanishni bir yoki bir necha soliq davrlarida to‘xtatib turishga haqli, bundan qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish mustasno.

Soliqlar bo‘yicha imtiyozlar soliq solishdan bo‘shagan mablag‘larni aniq maqsadlarga yo‘naltirishi sharti bilan berilishi mumkin. Bunday mablag‘lar maqsadli ishlatilmagan taqdirda maqsadsiz ishlatilgan mablag‘lar summasi belgilangan tartibda penya hisoblangan holda budjetga undirilishi lozim. Soliqlar bo‘yicha imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo‘shagan va mazkur imtiyozlarning amal qilish davrida foydalanilmagan mablag‘lar summasi berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati tugaganidan so‘ng bir yil davomida ularni taqdim etishda belgilangan maqsadlar uchun yo‘naltirilishi mumkin. Bunda belgilangan muddatda foydalanilmagan mablag‘lar budjetga o‘tkazilishi lozim.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha imtiyozlar, shu jumladan tovarlar O‘zbekiston Respublikasining hududiga olib kirilishida (importida) soliq solishdan bo‘shagan mablag‘larni aniq maqsadlarga yo‘naltirish sharti bilan, berilishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bosh boshqarmalari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining muassasalari, shuningdek Omonatlarni kafolatlash agentligi ushbu Kodeksda nazarda tutilgan soliqlarni to‘lashdan ozod etiladi, bundan ijtimoiy soliq va O‘zbekiston Respublikasining hududiga tovarlarni olib kirishda (importida) to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i mustasno.

(75-moddaning to‘qqizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 18-fevraldagi O‘RQ-1031-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.02.2025-y., 03/25/1031/0160-son)

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari turistik zonalarda joylashgan alohida sanatoriy-kurort obyektlari egallagan yer uchastkalariga nisbatan mol-mulk solig‘i va yer solig‘ining kamaytirilgan soliq stavkalarini belgilash yoki soliq to‘lashdan ozod qilish huquqiga ega.

(75-modda O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuniga asosan o‘ninchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Ushbu Kodeksning 483-moddasida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lashdan to‘liq ozod qilish tarzida berilgan soliq imtiyozlariga ega bo‘lgan soliq to‘lovchilar mazkur soliqlarni ushbu soliqlardan hisoblangan summaning bir foizi miqdorida to‘laydi.

(75-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 5-maydagi O‘RQ-767-sonli Qonuniga asosan o‘n birinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.05.2022-y., 03/22/767/0386-son — 2022-yil 7-avgustdan kuchga kiradi)

Soliq imtiyozlarini hisobga olish soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan va soliq imtiyozlarining har bir turiga maxsus identifikatsiya kodini bergan holda amalga oshiriladi.

(75-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan o‘n birinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha berilgan soliq imtiyozlari joriy soliq davrida soliq to‘lovchilar tomonidan o‘tgan kalendar yil yakunlari bo‘yicha quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda qo‘llaniladi:

tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromad yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va (yoki) yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha foydalanilgan soliq imtiyozining summasidan oshganda;

har bir xodimga har oyda mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining ikki baravaridan kam bo‘lmagan oylik ish haqi hisoblanganda va xodimlarning yillik o‘rtacha soni kamida uch nafarni tashkil etganda.

Ushbu moddaning o‘n to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan shartlarni aniqlashda:

soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan aniqlashtirilgan soliq hisobotlari;

soliq davri yakunlari bo‘yicha soliq hisobotlarini taqdim etish muddati yetib kelmagan taqdirda, oxirgi o‘n ikki oyda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma inobatga olinadi.

Ushbu moddaning o‘n to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan shartlar quyidagilarga nisbatan qo‘llanilmaydi:

to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga;

mahsulot taqsimotiga oid bitim ishtirokchilariga;

notijorat tashkilotlarga va budjet tashkilotlariga;

yagona ishtirokchilari nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo‘lgan va xodimlarining umumiy sonida nogironligi bo‘lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnatiga haq to‘lash fondi mehnatga haq to‘lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslarga;

2026-yil 1-yanvarga qadar maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomini olgan yuridik shaxslarga.

Soliq davri davomida yangi tashkil etilgan soliq to‘lovchilarga, shu jumladan yangi taqdim etilgan soliq imtiyozlariga nisbatan ushbu moddaning o‘n to‘rtinchi qismi qoidalari keyingi soliq davri yakunlari bo‘yicha qo‘llaniladi, bundan qayta tashkil etilgan yuridik shaxslar mustasno.

(75-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan o‘n to‘rtinchi — o‘n yettinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

II BO‘LIM
SOLIQ HISOBI VA SOLIQ HISOBOTLARI

7-bob. Soliq hisobi

76-modda. Soliq solish maqsadlarida hisobga olish va hisob hujjatlari

Soliq solish obyektlari va (yoki) soliq solish bilan bog‘liq obyektlar to‘g‘risidagi axborotni umumlashtirish hamda tizimlashtirish, shuningdek soliqlarni, yig‘imlarni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini tuzish maqsadida ushbu Kodeks talablariga muvofiq soliq to‘lovchi yoki soliq agenti tomonidan hisob hujjatlarini yuritish soliq solish maqsadlarida hisobga olish deb e’tirof etiladi.

Hisob hujjatlari soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni aniqlash, shuningdek soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish uchun asos bo‘lgan boshlang‘ich hujjatlar, buxgalteriya hisobi registrlari hamda boshqa hujjatlardan iboratdir.

Agar ushbu moddaning to‘rtinchi qismida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq solish maqsadlarida hisobga olish buxgalteriya hisobi ma’lumotlariga asoslanadi. Buxgalteriya hisobi va hisob hujjatlarini yuritish tartibi buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilik bilan belgilanadi.

(76-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq zimmasiga buxgalteriya hisobini yuritish majburiyati yuklatilmagan shaxslar soliq solish maqsadlarida hisobga olishni ushbu bobga muvofiq tashkil etadi va yuritadi.

(76-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq solish maqsadlarida hisobga olishga nisbatan soliq organlarining axborot tizimlaridan majburiy foydalanishga doir talablar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan aniqlanadigan tartibda belgilanishi mumkin.

(76-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan beshinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

> **Izoh.** Qarang: “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6-moddalari, Moliyaviy va soliq hisobotlarini aloqaning telekommunikatsiya kanallari vositasida davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishning tartibi to‘g‘risidagi nizom (ro‘yxat raqami 2808, 12.07.2016-y.).

77-modda. Soliq solish maqsadlarida hisob siyosati

Soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosati soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Bunda hisob siyosati ixtiyoriy shaklda tasdiqlanadi va unda quyidagilar aks ettirilishi kerak:

1) agar soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchi yoki soliq agenti tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqilgan soliq registrlarining shakli va ularni tuzish tartibi;

(77-modda birinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) unga rioya etilishi ustidan mas’ul mansabdor shaxslar;

3) soliq solish maqsadlarida alohida-alohida hisob yuritish tartibi, agar bunday hisob yuritish majburiyati ushbu Kodeksda nazarda tutilgan bo‘lsa;

4) soliq to‘lovchi tomonidan foyda solig‘ini hisoblab chiqarish maqsadida sarflarni xarajatlar sirasiga kiritish, shuningdek qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olishning tanlangan usullari;

5) xedjirlanadigan tavakkalchiliklarni, xedjirlanadigan moddalarni va ularga nisbatan qo‘llaniladigan xedjirlash vositalarini aniqlash siyosati, xedjirlash operatsiyalari, shuningdek boshqa moliyaviy tavakkalchiliklar amalga oshirilgan taqdirda xedjirlash samaradorligi darajasini baholash uslubiyati;

6) aktivlarning har bir guruhi va kichik guruhi bo‘yicha amortizatsiya normalari (hisoblash usullari);

7) buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq islomiy moliya faoliyatidan va islomiy qimmatli qog‘ozlardan olingan daromadlarning alohida hisobini yuritish tartibi.

(77-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-sonli Qonuniga asosan 7-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.03.2026-y., 03/26/1126/0279-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 29-iyun)

Soliq solish maqsadlarida hisob siyosatini o‘zgartirish va (yoki) unga qo‘shimchalar kiritish soliq to‘lovchi tomonidan quyidagi usullardan biri yordamida amalga oshiriladi:

1) buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilgan yangi hisob siyosatini yoki uning yangi bo‘limini tasdiqlash;

(77-modda ikkinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilgan amaldagi hisob siyosatiga yoki amaldagi hisob siyosatining bo‘limiga o‘zgartirish va (yoki) qo‘shimchalar kiritish.

(77-modda ikkinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Hisob siyosatini shakllantirishda soliq to‘lovchi tomonidan soliq solish maqsadlarida tanlangan hisob yuritish usullari tegishli hisob siyosati tasdiqlangan yildan keyingi yilning 1-yanvaridan e’tiboran qo‘llaniladi.

Yangi tashkil etilgan yuridik shaxs yoki chet el yuridik shaxsining doimiy muassasasi soliq solish maqsadlarida hisob yuritish usullari to‘g‘risidagi qarorni o‘zi tashkil etilgandan keyingi birinchi hisobot davri davomida qabul qiladi.

Soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosati kalendar yil davomida o‘zgartirilmaydi. Soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka yoxud soliq solish shartlariga o‘zgartirish kiritilganda va faqat ushbu o‘zgartirishlar taalluqli bo‘lgan qismida soliq to‘lovchining hisob siyosatida o‘zgartirishlar qilishga yo‘l qo‘yiladi.

(77-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

78-modda. Soliq solish maqsadlarida hisobni yuritish

Agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchi yoki soliq agenti soliq solish maqsadlarida hisobni hisoblash usuli bo‘yicha milliy valyutada yuritadi.

Foydali qazilmalarni qazib olish uchun maxsus renta solig‘ini to‘lovchi bo‘lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soliq hisobini soliq solish maqsadida hisoblash usuli bo‘yicha AQSH dollarida yuritishga haqli.

(78-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

79-modda. Hisob hujjatlarini tuzish va saqlashga doir talablar

Hisob hujjatlari qog‘ozda va (yoki) elektron shakllarda tuziladi hamda ushbu Kodeksning 88-moddasida belgilangan soliq majburiyati bo‘yicha da’vo muddati tugagunga qadar saqlanadi.

Soliq to‘lovchi qayta tashkil etilganda qayta tashkil etilgan shaxsning hisob hujjatlarini saqlash majburiyati uning huquqiy vorisiga (huquqiy vorislariga) yuklatiladi.

Yuridik shaxs tugatilganda hisob hujjatlari tegishli davlat arxiviga qonunchilikda belgilangan tartibda topshiriladi.

(79-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

80-modda. Alohida-alohida hisob va uni yuritish qoidalari

Ushbu Kodeksda soliq solishning turlicha tartibi nazarda tutilgan faoliyat turlarini bir vaqtda amalga oshirayotgan soliq to‘lovchilar soliq solish obyektlarining va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning alohida-alohida hisobini yuritishi shart.

Soliq solish obyektlarining va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning alohida-alohida hisobi soliq to‘lovchilar tomonidan buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida yuritiladi.

Faoliyatning muayyan turiga taalluqli barcha daromadlar va xarajatlar tegishli hisob hujjatlari bilan tasdiqlanishi kerak.

Soliq solish obyektlarining va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning alohida-alohida hisobi mutanosib usul yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobga olish usuli yordamida yuritilishi mumkin.

Hisobga olishning mutanosib usulida daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obyektlari yoki soliq solish bilan bog‘liq obyektlar realizatsiya qilishdan olingan tushumning umumiy summasida faoliyatning muayyan turlari bo‘yicha, qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ini hisobga olmagan holda realizatsiya qilishdan olingan tushum ulushiga mutanosib tarzda shu muayyan faoliyat turlariga kiritiladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobga olish usuli qo‘llanilganda daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obyektlari yoki soliq solish bilan bog‘liq obyektlar faoliyatning qaysi turi amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, shu turiga kiritiladi. Bunda faoliyatning faqat bitta aniq turiga kiritish mumkin bo‘lmagan daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obyektlari yoki soliq solish bilan bog‘liq obyektlar hisobga olishning mutanosib usuli orqali faoliyatning amalga oshirilayotgan barcha turlariga kiritiladi.

Maqsadli mablag‘lar oluvchi soliq to‘lovchilar ushbu maqsadli mablag‘lardan foydalanish doirasida olingan daromadlarning (qilingan xarajatlarning) alohida-alohida hisobini yuritishi shart.

Soliq to‘lovchilar, bundan budjet tashkilotlari mustasno, soliq davri tugaganidan keyin o‘zi hisobga olingan joydagi soliq organlariga olingan maqsadli mablag‘lardan foydalanganlik to‘g‘risida hisobot taqdim etadi. Olingan maqsadli mablag‘lardan foydalanganlik to‘g‘risidagi hisobotning shakli va uni taqdim etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

8-bob. Soliq hisoboti

81-modda. Soliq hisobotini shakllantirish va tuzish

(81-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Soliq to‘lovchining har bir soliq turi yoki to‘langan daromadlar bo‘yicha hisob-kitoblarni va soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisob-kitoblarga hamda soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o‘z ichiga oladigan, soliq to‘lovchilarning va soliq agentlarining soliq majburiyatlarini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan hujjatlari soliq hisobotidir.

Soliq hisoboti O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shakllarda tuziladi.

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2020-yil 24-fevraldagi 3221-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

Soliq hisoboti soliq organlariga shaxs faqat soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladigan soliqlar bo‘yicha taqdim etiladi.

Soliq hisobotida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun javobgarlik soliq to‘lovchining yoki soliq agentining zimmasiga yuklanadi.

> **Izoh.** Qarang: “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi Qonun.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, ijtimoiy soliq, qo‘shilgan qiymat solig‘i va aylanmadan olinadigan soliq hisobotlari soliq organlarining axborot tizimida mavjud bo‘lgan hamda soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan shaxsiy kabinetdagi interaktiv xizmatga kiritilgan ma’lumotlar asosida soliq organlari tomonidan elektron shaklda shakllantiriladi.

Soliq organlari tomonidan shakllantirilgan hisobot ma’lumotlari soliq to‘lovchining (soliq agentining) hisob hujjatlaridan farq qilganda, soliq to‘lovchi (soliq agenti) mazkur hisobotga besh kun ichida, biroq tegishli hisobotni taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan tuzatish kiritadi va uni taqdim etadi.

Soliq organlari tomonidan shakllantirilgan soliq hisobotiga ushbu moddaning oltinchi qismida ko‘rsatilgan muddatda tuzatishlar kiritilmaganligi soliq to‘lovchining (soliq agentining) soliq organlari tomonidan shakllantirilgan hisobotga rozi ekanligini bildiradi va soliq organlari tomonidan shakllantirilgan holda taqdim etilgan deb hisoblanadi.

Soliq organlari tomonidan shakllantiriladigan hisobotni tuzish, unga tuzatish kiritish va uni taqdim etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

(81-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan beshinchi — sakkizinchi qismlar bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

82-modda. Soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Soliq hisoboti soliq to‘lovchi hisobga olingan joydagi soliq organiga belgilangan shaklda qog‘oz yoki elektron shaklda ushbu Kodeksga muvofiq soliq hisobotiga ilova qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar bilan birga taqdim etiladi.

Soliq to‘lovchi ushbu Kodeksga muvofiq soliq hisobotiga ilova qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlarni elektron shaklda taqdim etishga haqli.

Yuridik shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq hisobotini o‘zi hisobga olingan joydagi soliq organiga belgilangan shakllar bo‘yicha elektron hujjat tarzida taqdim etadi.

Yirik soliq to‘lovchilar, joylashgan yeridan qat’i nazar, soliq hisobotini Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasiga taqdim etadi.

Ushbu moddaning uchinchi va to‘rtinchi qismlari qoidalari davlat sirlari jumlasiga kiritilgan axborotni taqdim etishga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Soliq hisoboti blankalari soliq organlari tomonidan bepul taqdim etiladi.

Soliq hisoboti ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda soliq to‘lovchi tomonidan soliq organiga shaxsan yoki vakil orqali taqdim etilishi yoxud pochta jo‘natmasi tarzida joylanmalar ro‘yxati bilan yuborilishi mumkin.

Soliq maslahatchilari tashkiloti soliq hisobotini soliq to‘lovchi nomidan soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron hujjat tarzida taqdim etishga haqli.

Soliq organi soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan shaklda taqdim etilgan soliq hisobotini qabul qilishni rad etishga haqli emas.

Soliq hisoboti qog‘ozda olingan taqdirda, soliq organi soliq to‘lovchining iltimosiga ko‘ra, soliq hisobotining ko‘chirma nusxasiga uning qabul qilib olingani to‘g‘risida belgi qo‘yishi va u olingan sanani ko‘rsatishi shart.

Soliq hisoboti, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami ko‘rsatilgan holda taqdim etiladi.

Soliq to‘lovchi va uning vakolatli vakili soliq hisobotida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va to‘liqligini tasdiqlab, unga imzo qo‘yadi.

Agar soliq hisobotida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va to‘liqligini soliq to‘lovchining vakolatli vakili tasdiqlasa, soliq hisobotida bu haqda tegishli belgi qo‘yiladi. Bunda soliq hisobotiga ushbu vakilning uni imzolashga bo‘lgan vakolatini tasdiqlovchi hujjatning ko‘chirma nusxasi ilova qilinadi.

Soliq hisoboti elektron shaklda taqdim etilganda vakilning uni imzolashga bo‘lgan vakolatini tasdiqlovchi hujjatning ko‘chirma nusxasi telekommunikatsiya aloqa kanallari orqali elektron shaklda taqdim etilishi mumkin.

Soliq hisoboti soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

(82-moddaning o‘n beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar ushbu Kodeksning Maxsus qismiga muvofiq soliq hisobotini taqdim etish majburiyati zimmasiga yuklatilgan soliq agentlariga va boshqa shaxslarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 297-moddasi.

83-modda. Soliq hisobotiga o‘zgartirishlar kiritish

O‘zi ilgari taqdim etgan soliq hisobotida hisoblab chiqarilgan soliq summasi kamayishiga (o‘zgarishiga) olib kelgan noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlarni va (yoki) xatolarni aniqlagan soliq to‘lovchi ushbu soliq hisobotiga zarur tuzatishlarni kiritishi va soliq organiga aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etishi shart.

Soliq imtiyozlaridan foydalanilganidan keyin jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va ijtimoiy soliq bo‘yicha hisoblangan soliq summasining kamayishiga olib keladigan aniqlashtirilgan soliq hisobotlari ularning asosliligi soliq organlari tomonidan o‘rganib chiqilganidan keyin qabul qilinadi.

(83-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1104-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1104/1213-son)

Agar ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan holatlar hisoblab chiqarilgan soliq summasining kamayishiga olib kelmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchi o‘zi ilgari taqdim etgan soliq hisobotiga zarur tuzatishlar kiritishga va soliq organiga aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etishga haqli. Bunda soliq hisobotini taqdim etishning belgilangan muddati o‘tgandan keyin taqdim etilgan aniqlashtirilgan soliq hisoboti muddat buzilgan holda taqdim etilgan deb hisoblanmaydi.

Agar aniqlashtirilgan soliq hisoboti soliq organiga soliq hisobotini taqdim etish muddati o‘tgunga qadar taqdim etilgan bo‘lsa, soliq hisoboti aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilgan kun taqdim etilgan deb hisoblanadi.

Agar aniqlashtirilgan soliq hisoboti soliq organiga soliqni to‘lash muddati o‘tgandan keyin taqdim etilgan bo‘lsa, soliq to‘lovchi bir paytning o‘zida quyidagi shartlarga rioya etgan taqdirda javobgarlikdan ozod qilinadi:

1) aniqlashtirilgan soliq hisoboti u hisoblab chiqarilgan soliq summasi kamayishiga (o‘zgarishiga) olib kelgan holatlar soliq organi tomonidan aniqlanganligini yoki soliq auditi tayinlanganligini bilgan paytga qadar taqdim etilgan bo‘lsa;

2) aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilgunga qadar u yetishmayotgan soliq summasini va unga tegishli penyalarni to‘lagan bo‘lsa.

Aniqlashtirilgan soliq hisoboti soliq organiga, ushbu moddada nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda, soliq hisobotini topshirish uchun belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar soliq agentlari tomonidan taqdim etiladigan aniqlashtirilgan soliq hisobotiga nisbatan ham qo‘llaniladi.

84-modda. Soliq hisobotini saqlash muddati

Soliq to‘lovchilar va soliq agentlari soliq organlariga soliq hisobotini va unga ilova qilinadigan hujjatlarni, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, ushbu hisobot taqdim etilgan yildan keyin kamida uch yil saqlashi shart.

(84-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Agar soliq to‘g‘risidagi qonunchilik soliq stavkasini qo‘llashni, to‘lanadigan soliq miqdorini, soliq imtiyozini yoki soliq chegirmasini qo‘llashni va (yoki) soliqni to‘lash muddatini o‘zgartirishni soliq to‘lovchining muayyan shartlarga rioya etishi bilan bog‘lasa, ushbu soliq to‘lovchi barcha tasdiqlovchi hujjatlarni mazkur shartlarning amal qilishi tugaydigan yildan keyin kamida uch yil saqlashi kerak. Bunday tasdiqlovchi hujjatlar jumlasiga, xususan, ushbu soliq bo‘yicha soliq hisoboti, unga ilova qilinadigan hujjatlar, shuningdek ko‘rsatilgan shartlarga yoki majburiyatlarga rioya etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar kiradi. Ushbu qismning qoidalari, agar ko‘rsatilgan shartlar yoki majburiyatlar vaqtinchalik tusga ega bo‘lsa va ularga rioya etilishini hujjatlar bilan tasdiqlashni talab qilsa, qo‘llaniladi.

(84-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

III BO‘LIM
SOLIQ MAJBURIYATINI BAJARISH

9-bob. Soliq majburiyatini bajarishning umumiy qoidalari

85-modda. Soliq majburiyati

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik bilan soliq to‘lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliqlarni va yig‘imlarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish hamda o‘z vaqtida to‘lash majburiyati ularning soliq majburiyatidir.

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik bilan soliq agentlarining zimmasiga yuklatilgan, o‘ziga nisbatan ushbu shaxslar soliq agentlari deb e’tirof etiladigan munosabatlar doirasida soliqlarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish, ushlab qolish va o‘z vaqtida o‘tkazish majburiyati soliq majburiyatiga tenglashtiriladi.

Soliq majburiyati ushbu Kodeks yoki boshqa soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan asoslar mavjud bo‘lganda yuzaga keladi, o‘zgartiriladi va tugatiladi.

Har bir soliqqa nisbatan soliq majburiyati soliq to‘lovchiga soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan ushbu soliqni to‘lashni nazarda tutuvchi holatlar yuzaga kelgan paytdan e’tiboran yuklatiladi.

(85-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 8, 86 — 88-moddalari.

86-modda. Soliq majburiyatini bajarish tartibi va muddati

Soliq to‘lovchi o‘zining soliq majburiyatini, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, mustaqil ravishda bajaradi.

Yakka tartibdagi tadbirkor hisoblanmaydigan jismoniy shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining soliq majburiyati o‘zga jismoniy shaxs tomonidan bajarilishi mumkin. Bunda soliq to‘lovchi uning soliq majburiyati o‘zga jismoniy shaxs tomonidan bajarilishi natijasida olgan moddiy naf soliq solish maqsadlarida shu soliq to‘lovchining daromadi deb e’tirof etilmaydi. O‘zga shaxs o‘zi tomonidan soliq to‘lovchi uchun to‘langan soliqning qaytarilishini talab qilishga haqli emas.

Soliq majburiyati soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan muddatda bajarilishi kerak.

(86-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq majburiyatini bajarish muddatlari kalendar sana yoki vaqt davri (yil, chorak, oy, o‘n kunlik va kun) o‘tishi bilan belgilanadi.

Muddatning o‘tishi kalendar sanadan yoki muddatning boshlanishi belgilab qo‘yilgan voqea yuz berganidan keyingi kundan boshlanadi. Soliq majburiyati ushbu majburiyatni bajarish muddatining so‘nggi kuni soat yigirma to‘rtga qadar bajarilishi kerak.

Agar soliq majburiyatini bajarish muddatining so‘nggi kuni dam olish (ishlanmaydigan) kuniga to‘g‘ri kelsa, undan keyingi birinchi ish kuni muddatning tugash kuni hisoblanadi.

Soliq to‘lovchi soliq majburiyatini muddatidan oldin bajarishga haqli.

Soliq majburiyatini bajarish muddati ushbu Kodeksning 97 — 102-moddalarida nazarda tutilgan tartibda o‘zgartirilishi mumkin.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 97 — 102-moddalari.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliq majburiyatining bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi unga soliq organi tomonidan soliq qarzini to‘lash to‘g‘risida talabnoma yuborilishi uchun asos bo‘ladi.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliq majburiyati bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, soliq organlari ushbu majburiyatning majburiy tartibda bajarilishi yuzasidan ushbu Kodeksning 15-bobida nazarda tutilgan choralarni ko‘rishi va (yoki) uning bajarilishini ta’minlashga doir ushbu Kodeksning 13-bobida nazarda tutilgan choralarni qo‘llashi shart.

87-modda. Soliq majburiyatining tugatilishi

Soliq majburiyati, agar ushbu moddaning ikkinchi — to‘rtinchi qismlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, quyidagi hollarda tugatiladi:

soliq to‘lovchi tomonidan soliq to‘langanda yoki soliq agenti tomonidan o‘tkazib berilganda;

soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq soliq majburiyatini tugatish bilan bog‘liq boshqa holatlar yuzaga kelganda.

(87-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Jismoniy shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:

mazkur shaxs vafot etganda;

uni vafot etgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi sud qarori qonuniy kuchga kirganda.

Vafot etgan yoki vafot etgan deb e’lon qilingan jismoniy shaxsning soliq qarzi ushbu Kodeksning 94-moddasida belgilangan tartibda meros mol-mulkning qiymati doirasida merosxo‘rlardan undiriladi.

Yuridik shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:

ushbu Kodeksning 91-moddasiga muvofiq, budjet tizimi bilan barcha hisob-kitoblar amalga oshirilgandan keyin u tugatilganda;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 91-moddasi.

ushbu Kodeksning 92-moddasiga muvofiq, budjet tizimi bilan barcha hisob-kitoblar amalga oshirilgandan keyin u qayta tashkil etilganda.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 92-moddasi.

88-modda. Soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddatlari

Soliq organi yoki boshqa vakolatli organ soliq tekshiruvini o‘tkazishga, tekshiruv natijalari bo‘yicha soliq to‘lovchiga soliq qarzini uzish to‘g‘risida talabnoma yuborishga yoki soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar miqdorini qayta ko‘rib chiqishga haqli bo‘lgan muddat soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati hisoblanadi.

(88-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati, natijalariga ko‘ra soliq majburiyati aniqlanadigan soliq davri tugaganidan keyin uch yilni tashkil etadi. Agar soliq majburiyatining yuzaga kelishi muayyan voqea yoki harakat bilan bog‘liq bo‘lsa, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati shu voqea yoki harakat sodir bo‘lgan paytdan e’tiboran uch yilni tashkil etadi.

(88-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Ushbu Kodeks 84-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollarda da’vo qilish muddati soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka ko‘ra soliq to‘lovchi tomonidan soliq stavkasi, to‘lanadigan soliq miqdori, soliq imtiyozi yoki soliq chegirmasi qo‘llanilishi va (yoki) soliqni to‘lash muddati o‘zgarishi bilan bog‘liq shartlarning amal qilish muddatiga uzaytiriladi.

(88-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddatining o‘tishi fuqarolik qonunchiligiga muvofiq to‘xtatib turiladi, uziladi va qayta tiklanadi.

(88-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksining 12-bobi.

10-bob. Soliq majburiyatini bajarish

89-modda. Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash

Soliqni to‘lash, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, milliy valyutada amalga oshiriladi.

Chet el valyutasida hisoblab chiqarilgan soliq summasini milliy valyutada qaytadan hisoblash O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining soliqni to‘lash sanasidagi rasmiy kursi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchining soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyati, agar ushbu moddaning to‘rtinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, quyidagi hollarda bajarilgan deb e’tirof etiladi:

1) pul mablag‘larini soliq to‘lovchining bankdagi hisobvarag‘idan budjet tizimiga tegishli g‘aznachilik hisobvarag‘iga o‘tkazishga doir topshiriqnoma bankka taqdim etilgan paytdan e’tiboran – soliq to‘lovchining hisobvarag‘ida to‘lov kunida yetarlicha pul qoldig‘i mavjud bo‘lgan taqdirda;

2) bankda hisobvaraq ochmasdan tegishli g‘aznachilik hisobvarag‘iga budjet tizimiga o‘tkazish uchun bank kassasiga naqd pul mablag‘lari topshirilgan paytdan e’tiboran. Bunday qoida soliqni to‘lash uchun pul mablag‘lari yetarlicha bo‘lgan taqdirda, faqat jismoniy shaxslar tomonidan soliqni to‘lashda qo‘llaniladi;

3) bank yoki aloqa bo‘limiga budjet tizimiga o‘tkazish uchun naqd pul mablag‘lari kiritilgan kundan e’tiboran. Bunday qoida soliqni to‘lash uchun pul mablag‘lari yetarlicha bo‘lgan taqdirda, faqat jismoniy shaxslar tomonidan soliqni to‘lashda qo‘llaniladi;

4) g‘aznachilikda shaxsiy hisobvarag‘i ochilgan yuridik shaxsning shaxsiy hisobvarag‘ida tegishli pul mablag‘larini budjet tizimiga o‘tkazishga doir operatsiya aks ettirilgan paytdan e’tiboran;

5) ortiqcha to‘langan summalarni yoki ortiqcha undirilgan soliqlar, penyalar, jarimalar summalarini tegishli soliq turi bo‘yicha majburiyatning bajarilishi hisobiga hisobga olish to‘g‘risida soliq organi tomonidan qaror chiqarilgan kundan e’tiboran;

6) soliqni hisoblab chiqarish va soliq to‘lovchining pul mablag‘laridan ushlab qolishga doir majburiyat ushbu Kodeksga muvofiq soliq agentiga yuklatilgan bo‘lsa, soliq summalari soliq agenti tomonidan ushlab qolingan kundan e’tiboran.

Soliq to‘lovchining soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyati quyidagi hollarda bajarilgan deb e’tirof etilmaydi:

1) tegishli pul mablag‘larini budjet tizimiga o‘tkazishga doir bajarilmagan topshiriqnoma soliq to‘lovchi tomonidan qaytarib olinganda yoki bank tomonidan unga qaytarilganda;

2) g‘aznachilikda shaxsiy hisobvarag‘i ochilgan yuridik shaxs tomonidan tegishli pul mablag‘larini budjet tizimiga o‘tkazishga doir bajarilmagan topshiriqnoma qaytarib olinganda yoki g‘aznachilik tomonidan unga qaytarilganda;

3) pul mablag‘lari ushbu pul mablag‘larini budjet tizimiga o‘tkazishga doir to‘lov topshiriqnomasida bank rekvizitlari noto‘g‘ri ko‘rsatilganligi sababli budjet tizimining tegishli g‘aznachilik hisobvarag‘iga o‘tkazilmay qolganda;

4) agar soliq to‘lovchi soliq to‘lovi uchun bankka pul mablag‘larini o‘tkazish uchun topshiriqnoma taqdim etgan kuni uning fuqarolik qonunchiligiga muvofiq birinchi navbatda bajariladigan hisobvarag‘iga taqdim etilgan bajarib bo‘lmaydigan boshqa talablar mavjud bo‘lsa, agar ushbu hisobvaraqda barcha talablarni qanoatlantirish uchun yetarlicha qoldiqqa ega bo‘lmasa.

(89-modda to‘rtinchi qismining 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar penyalar va jarimalarga nisbatan ham qo‘llaniladi hamda soliq agentlariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Soliq organlari budjet tizimiga tushumlar hisobini hisoblangan hamda to‘langan soliqlar va yig‘imlar summalarini, shuningdek penyalar va jarimalarni soliq to‘lovchining shaxsiy hisobvarag‘ida aks ettirish orqali yuritadi. Soliq to‘lovchining shaxsiy hisobvarag‘ini yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Bojxona organlari O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tish bilan bog‘liq to‘lanishi lozim bo‘lgan, soliqlar va yig‘imlarning, shuningdek penyalar va jarimalarning budjet tizimiga tushumlari hisobini yuritadi. Hisob yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Undirilishi boshqa davlat organlari va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan davlat bojining hamda boshqa yig‘imlarning budjet tizimiga tushumlarini hisobga olish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

(89-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

> **Izoh.** Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrdagi 736-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan undirilgan davlat boji va boshqa yig‘imlarning budjet tizimiga tushumlarini hisobga olish tartibi to‘g‘risida nizom.

90-modda. Soliqlarni o‘tkazishga doir to‘lov topshiriqnomalarining banklar tomonidan bajarilishi

Banklar soliq to‘lovchining pul mablag‘lari hisobidan soliqni budjet tizimiga o‘tkazishga doir to‘lov topshiriqnomasini (bundan buyon ushbu moddada soliq to‘lovchining topshiriqnomasi deb yuritiladi), shuningdek soliq organining soliqni budjet tizimiga o‘tkazishga doir inkasso topshiriqnomasini (bundan buyon ushbu moddada soliq organining inkasso topshiriqnomasi deb yuritiladi) bajarishi shart.

Soliq to‘lovchining topshiriqnomalari va soliq organining inkasso topshiriqnomalari fuqarolik qonunchiligida belgilangan navbat bo‘yicha bajarilishi lozim.

(90-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq to‘lovchining topshiriqnomasi yoki soliq organining inkasso topshiriqnomasi bunday topshiriqnoma olingan kundan keyingi bir operatsiya kuni ichida bank tomonidan bajariladi.

Soliq to‘lovchining hisobvarag‘ida pul mablag‘lari mavjud bo‘lgan va to‘lov hujjatida rekvizitlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan taqdirda bank soliq to‘lovchining topshiriqnomasini yoki soliq organining inkasso topshiriqnomasini bajarishni kechiktirishga haqli emas.

Soliq to‘lovchining hisobvarag‘ida pul mablag‘larining yo‘qligi (yetarli emasligi) sababli soliq organining inkasso topshiriqnomasini belgilangan muddatda bajarishning imkoni bo‘lmaganda, bank belgilangan muddat tugaganidan keyingi kundan kechiktirmay inkasso topshiriqnomasini yuborgan soliq organiga uning topshiriqnomasi bajarilmaganligi (qisman bajarilganligi) to‘g‘risida xabar qilishi shart.

Soliq to‘lovchining topshiriqnomasi yoki soliq organining inkasso topshiriqnomasi bajarilmaganligi (qisman bajarilganligi) to‘g‘risidagi bank xabarnomasining shakli va uni elektron shaklda uzatish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

(90-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

Ushbu moddada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun banklar ushbu Kodeksda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Javobgarlik choralarining qo‘llanilishi bankni soliq to‘lovchining topshiriqnomasini yoki soliq organining inkasso topshiriqnomasini bajarish majburiyatidan ozod etmaydi.

Banklar soliq to‘lovchilarning topshiriqnomalarini va soliq organlarining inkasso topshiriqnomalarini ko‘rsatilgan operatsiyalar bo‘yicha xizmat ko‘rsatilganligi uchun haq undirmasdan bajaradi. Soliq to‘lovchilarga yoki soliq agentlariga ortiqcha to‘langan (undirilgan) soliqlar, penyalar va jarimalar summalarini qaytarish bo‘yicha banklar tomonidan topshiriqnomalar bajarilganda ko‘rsatilgan operatsiyalar bo‘yicha xizmat ko‘rsatilganligi uchun ham haq undirilmaydi.

91-modda. Yuridik shaxs tugatilganda soliq majburiyatini bajarish

Tugatilayotgan yuridik shaxsning soliq majburiyati mazkur yuridik shaxsning pul mablag‘lari, shu jumladan uning mol-mulkini realizatsiya qilishdan olingan pul mablag‘lari hisobidan tugatuvchi tomonidan bajariladi.

Agar tugatilayotgan yuridik shaxsning pul mablag‘lari, shu jumladan uning mol-mulkini realizatsiya qilishdan olingan pul mablag‘lari uning soliq qarzini to‘liq hajmda uzish uchun yetarli bo‘lmasa, to‘lanmay qolgan qarz mazkur yuridik shaxsning ishtirokchilari tomonidan qonunchilikda belgilangan miqdorda va tartibda uzilishi mumkin.

(91-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Yuridik shaxs tugatilayotganda soliq majburiyatini mazkur yuridik shaxsning boshqa kreditorlari bilan hisob-kitoblari o‘rtasida bajarish navbati fuqarolik qonunchiligi bilan belgilanadi.

(91-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Tugatilayotgan yuridik shaxs tomonidan ortiqcha to‘langan yoki undan ortiqcha undirilgan soliqlar (penyalar, jarimalar) summalari soliq organi tomonidan ushbu Kodeksda belgilangan tartibda boshqa soliqlar bo‘yicha soliq qarzini uzish hisobiga hisobga olinishi lozim.

Ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan soliqlarning (penyalarning, jarimalarning) hisobga olinishi lozim bo‘lgan summasi boshqa soliqlar bo‘yicha soliq qarziga mutanosib ravishda yoki tugatuvchining qaroriga binoan taqsimlanadi.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning soliqlar bo‘yicha qarzi bo‘lmagan taqdirda, ortiqcha to‘langan yoki undan ortiqcha undirilgan soliqlar (penyalar, jarimalar) summasi shu yuridik shaxsga ushbu Kodeksda belgilangan tartibda u ariza bergan kundan e’tiboran o‘n besh kundan kechiktirmay qaytarilishi lozim. Soliq to‘lovchi tomonidan ariza taqdim etilmagan taqdirda, ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan soliqlar (penyalar, jarimalar) summasi O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestridan chiqarilgan soliq to‘lovchining shaxsiy hisobvarag‘idan hisobdan chiqariladi.

(91-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tish munosabati bilan soliqlar to‘lashda ham qo‘llaniladi.

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksining 53-moddasi.

92-modda. Yuridik shaxs qayta tashkil etilganda soliq majburiyatini bajarish

Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning soliq majburiyati ushbu moddada belgilangan tartibda uning huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) tomonidan bajarilishi lozim.

Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning soliq majburiyatini bajarish, qayta tashkil etish tugallanguniga qadar huquqiy vorisga (huquqiy vorislarga) qayta tashkil etilgan yuridik shaxs soliq majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi faktlari va (yoki) holatlari ma’lum bo‘lganligi-bo‘lmaganligidan qat’i nazar, uning huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) zimmasiga yuklatiladi.

Huquqiy voris (huquqiy vorislar) o‘ziga o‘tgan majburiyatlar bo‘yicha jami soliq qarzini, shu jumladan qayta tashkil etilgan yuridik shaxsga uning qayta tashkil etilishi tugallanguniga qadar soliq huquqbuzarliklarini sodir etganlik uchun belgilangan jarimalar summalarini ham uzishi shart.

Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) o‘z zimmasiga ushbu modda bilan yuklatilgan majburiyatlarni bajarishda soliq to‘lovchilar uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda huquqlardan foydalanadi va zimmasida majburiyatlar bo‘ladi.

Yuridik shaxsning qayta tashkil etilishi uning huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) tomonidan uning soliq majburiyatlarini bajarish muddatlarini o‘zgartirmaydi.

Bir necha yuridik shaxslar qo‘shib yuborilganda ularning majburiyatlarini bajarish qismi bo‘yicha bunday qo‘shib yuborish natijasida vujudga kelgan yuridik shaxs ularning huquqiy vorisi deb e’tirof etiladi.

Bir yuridik shaxs boshqa yuridik shaxsga qo‘shib olinganda, uni qo‘shib olgan yuridik shaxs soliq majburiyatini bajarish qismi bo‘yicha qo‘shib olingan yuridik shaxsning huquqiy vorisi deb e’tirof etiladi.

Yuridik shaxs bo‘linganda bunday bo‘lish natijasida vujudga kelgan yuridik shaxslar soliq majburiyatini bajarish qismi bo‘yicha uning huquqiy vorislari deb e’tirof etiladi.

Bir necha huquqiy vorislar mavjud bo‘lgan taqdirda, ulardan har birining qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning soliq majburiyatini bajarishdagi ishtiroki ulushi fuqarolik qonunchiligiga muvofiq tuzilgan taqsimlash balansi bilan aniqlanadi. Agar taqsimlash balansi qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning har bir huquqiy vorisining ulushini aniqlash imkonini bermasa, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar qayta tashkil etilgan shaxsning soliq majburiyatini sudning qaroriga ko‘ra solidar bajarishi mumkin.

(92-moddaning to‘qqizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar qayta tashkil etish soliq majburiyatini bajarmaslikka qaratilgan bo‘lsa, qayta tashkil etilgan yuridik shaxs soliq majburiyatining hech bo‘lmaganda bitta huquqiy voris tomonidan unga to‘g‘ri keladigan soliq majburiyati qismini to‘liq hajmda bajarish imkoniyatini istisno etgan taqdirda ham, ushbu moddaning to‘qqizinchi qismida ko‘rsatilgan qoida qo‘llaniladi.

Yuridik shaxs tarkibidan bir yoki bir necha yuridik shaxslar ajratib chiqarilganda qayta tashkil etilgan yuridik shaxsga nisbatan uning soliq majburiyatini bajarish qismi bo‘yicha huquqiy vorislik, agar ushbu moddaning o‘n ikkinchi qismida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, yuzaga kelmaydi.

Agar yuridik shaxs tarkibidan bir yoki bir necha yuridik shaxslarni ajratib chiqarish natijasida qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxs o‘zining soliq majburiyatini to‘liq hajmda bajarish imkoniyatiga ega bo‘lmasa va bunday qayta tashkil etish soliq majburiyatini bajarmaslikka qaratilgan bo‘lsa, ajratib chiqarilgan yuridik shaxslar ushbu qayta tashkil etilgan shaxsning soliq majburiyatiga sudning qaroriga ko‘ra solidar ega bo‘lishi mumkin.

Bir yuridik shaxs boshqa yuridik shaxs etib o‘zgartirilganda, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxs soliq majburiyatini bajarish qismida qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorisi deb e’tirof etiladi.

Yuridik shaxs tomonidan u qayta tashkil etilgunga qadar undan ortiqcha undirilgan yoki ortiqcha to‘langan soliq (penya, jarima) summasi huquqiy voris (huquqiy vorislar) qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning soliq qarzini uzishi hisobiga soliq organi tomonidan hisobga olinishi lozim. Bunday hisobga olish qayta tashkil etish tugallangan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay ushbu moddada nazarda tutilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs tomonidan u qayta tashkil etilgunga qadar ortiqcha to‘langan yoki undan ortiqcha undirilgan soliqning (penyaning, jarimaning) hisobga olinishi lozim bo‘lgan summasi hisoblanishi va to‘lanishi ustidan nazorat qilish soliq organlari zimmasiga yuklatilgan boshqa soliqlar bo‘yicha soliq qarziga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsda soliq qarzi bo‘lmagan taqdirda, ushbu yuridik shaxs tomonidan ortiqcha to‘langan yoki undan ortiqcha undirilgan soliq (penya, jarima) summasi uning vorisiga (huquqiy vorislariga) huquqiy voris (huquqiy vorislar) ariza bergan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay qaytarilishi lozim. Bunda ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan soliq (penya, jarima) summasi qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorisiga (huquqiy vorislariga) har bir huquqiy vorisning taqsimlash balansi asosida aniqlanadigan ulushiga mutanosib ravishda qaytariladi.

Ushbu moddaning qoidalari yuridik shaxs qayta tashkil etilganda yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatni bajarishga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar chet davlat qonunchiligiga muvofiq qayta tashkil etilgan chet el tashkiloti majburiyatlarining huquqiy vorisini (huquqiy vorislarini) aniqlashda ham qo‘llaniladi.

(92-moddaning o‘n sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tish munosabati bilan soliqlar to‘lashda ham qo‘llaniladi.

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksining 49 va 50-moddalari.

93-modda. Mol-mulkni ishonchli boshqaruvga berishda soliq majburiyatini bajarish

Ishonchli boshqaruvchi ishonchli boshqaruv shartnomasi tuzilgan sanadan e’tiboran ishonchli boshqarish shartnomasi bo‘yicha soliq majburiyatlarini bajaradi.

Ishonchli boshqaruvni ta’sis etuvchi (naf oluvchi), mol-mulk ishonchli boshqaruvga topshirilishi munosabati bilan o‘zida yuzaga keladigan soliq majburiyatlarini, agar soliq majburiyatlarini bajarish (qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha majburiyatlardan tashqari) ishonchli boshqaruvchiga yuklatilmagan bo‘lsa yoxud mol-mulk O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan ishonchli boshqaruvchiga ishonchli boshqarishga topshirilgan taqdirda, mustaqil ravishda bajaradi.

Ishonchli boshqaruvchi soliq solish obyektlarining va (yoki) soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning hisobini ishonchli boshqaruvni ta’sis etuvchining (naf oluvchining) manfaatlarida amalga oshiriladigan ishonchli boshqaruv faoliyati bo‘yicha va boshqa faoliyat bo‘yicha alohida-alohida yuritishi shart.

Agar ishonchli boshqaruvni ta’sis etuvchi (naf oluvchi) uchun soliq majburiyatini bajarish, shuningdek soliq hisobotini va moliyaviy hisobotni tuzish hamda taqdim etish bo‘yicha majburiyatni bajarish ishonchli boshqaruvchiga yuklatilgan bo‘lsa, bunday soliq majburiyatini bajarish ishonchli boshqaruvchi hisoblanuvchi shaxs nomidan ushbu Kodeksning Maxsus qismida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agar ishonchli boshqaruvchi soliqlarni hisoblash va to‘lash bo‘yicha ushbu moddada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmagan yoki to‘liq hajmda bajarmagan bo‘lsa, ularni bajarish majburiyati ishonchli boshqaruvni ta’sis etuvchiga (naf oluvchiga) yuklatiladi.

94-modda. Jismoniy shaxs vafot etgan yoki u vafot etgan deb e’lon qilingan taqdirda soliq majburiyatini bajarish

Soliq qarzi mavjud bo‘lgan jismoniy shaxs vafot etgan taqdirda, soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni lozim darajada bajarmaganlik uchun unga hisoblangan penyalar va jarimalar summasi undirilishi umidsiz summalar deb e’tirof etiladi. Ushbu jismoniy shaxsning soliqlar bo‘yicha uzilmay qolgan qarzi vafot etgan shaxsning meros qilib olinadigan mol-mulkini meros qilib olish tartibida qabul qilib olgan uning merosxo‘ri (merosxo‘rlari) tomonidan meros qilib olinadigan mol-mulkning qiymati doirasida va uning (ularning) merosdagi ulushiga mutanosib ravishda, ushbu moddaning qoidalarini inobatga olgan holda uziladi.

(94-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar vafot etgan jismoniy shaxsning soliqlar bo‘yicha soliq qarzi meros qilib olinadigan mol-mulk qiymatidan ortiq bo‘lsa, soliq qarzining meros qilib olinadigan mol-mulk qiymatidan ortiq summasi undirilishi umidsiz summa deb e’tirof etiladi. Mazkur norma merosxo‘r (merosxo‘rlar) tomonidan meros qilib olinadigan mol-mulkning qiymati hujjatlar bilan tasdiqlangan hollarda qo‘llaniladi.

Merosxo‘r bo‘lmaganda yoki merosxo‘r (merosxo‘rlar) meros olish huquqidan voz kechganda, vafot etgan jismoniy shaxsning soliq qarzi undirilishi umidsiz qarz deb e’tirof etiladi. Umidsiz soliq qarzi soliq organlari tomonidan hisobdan chiqarilishi lozim.

Soliq qarzi bo‘lgan jismoniy shaxs vafot etgan taqdirda, mazkur jismoniy shaxs hisobga qo‘yilgan joydagi va (yoki) uning mol-mulki turgan joydagi soliq organi vafot etgan shaxsning merosxo‘ri (merosxo‘rlari) to‘g‘risida axborot olingan paytdan e’tiboran bir oy ichida unga (ularga) soliq qarzi mavjudligi to‘g‘risida xabar qilishi shart.

Vafot etgan jismoniy shaxsning merosxo‘ri (merosxo‘rlari) mazkur jismoniy shaxsning soliqlar bo‘yicha qolgan qarzini meros qabul qilib olingan kundan e’tiboran bir yildan kechiktirmay uzishi shart.

Soliq organining qaroriga binoan uzish muddati, agar soliq qarzi mavjudligi to‘g‘risidagi xabarni merosxo‘r (merosxo‘rlar) to‘lash muddati o‘tishiga olti oydan kam vaqt qolganida olgan bo‘lsa, uzaytirilishi mumkin.

Vafot etgan jismoniy shaxsning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va ijtimoiy soliqni to‘lash bo‘yicha qarzi umidsiz qarz deb e’tirof etiladi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar fuqarolik qonunchiligida belgilangan tartibda vafot etgan deb e’lon qilingan jismoniy shaxsning soliq qarziga nisbatan ham qo‘llaniladi.

(94-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksining 36 va 37-moddalari.

95-modda. Bedarak yo‘qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning soliq majburiyatini bajarish

Sud tomonidan bedarak yo‘qolgan deb e’tirof etilgan jismoniy shaxsning soliqlarni to‘lash bo‘yicha soliq majburiyati ushbu bedarak yo‘qolgan shaxsning mol-mulkini boshqarish huquqiga ega bo‘lgan shaxs (bundan buyon matnda vakolatli shaxs deb yuritiladi) tomonidan qonunchilikka muvofiq uning mol-mulki hisobidan bajariladi.

(95-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Vakolatli shaxs sud tomonidan bedarak yo‘qolgan deb topilgan jismoniy shaxsning u bedarak yo‘qolgan deb topilgan kunda vujudga kelgan butun soliq qarzini shu bedarak yo‘qolgan shaxsning pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulki hisobidan uzishi shart.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning soliq majburiyati shu muomalaga layoqatsiz shaxsning mol-mulki hisobidan uning vasiysi tomonidan bajariladi.

Vasiy muomalaga layoqatsiz jismoniy shaxsning soliqlar bo‘yicha butun soliq qarzini shu muomalaga layoqatsiz shaxsning pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulki hisobidan uzishi shart.

Sud tomonidan bedarak yo‘qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning soliqlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatini, shuningdek unga tegishli penyalar va jarimalarni to‘lash bo‘yicha majburiyatni bajarish, shu jismoniy shaxsning pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulki ko‘rsatilgan majburiyatni bajarish uchun yetarli bo‘lmagan (mavjud bo‘lmagan) taqdirda, tegishli soliq organining qarori bilan to‘xtatiladi.

Jismoniy shaxsni bedarak yo‘qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topishni bekor qilish to‘g‘risida belgilangan tartibda qaror qabul qilingan taqdirda, to‘xtatib turilgan majburiyatlarning bajarilishi mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran tiklanadi.

Ushbu moddaga muvofiq, sud tomonidan bedarak yo‘qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan jismoniy shaxslarning soliqlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatlari yuklatilgan shaxslar soliq to‘lovchilar uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda barcha huquqlardan foydalanadi va barcha majburiyatlarni mazkur moddada nazarda tutilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda bajaradi. Ushbu modda bilan o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish chog‘ida, shu munosabat bilan soliq huquqbuzarliklarini sodir etganlik aybi uchun javobgarlikka tortiladigan mazkur shaxslar ushbu Kodeksda nazarda tutilgan jarimalarni tegishlicha sud tomonidan bedarak yo‘qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxsning mol-mulki hisobidan to‘lashga haqli emas.

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksining 33-34-moddalari.

96-modda. Soliq qarzining undirilishini umidsiz deb e’tirof etish

Ayrim soliq to‘lovchilar va soliq agentlari zimmasida turgan soliqlarning to‘lanishi va (yoki) undirilishi quyidagi hollarda undirish imkoni bo‘lmay qolgan umidsiz soliq qarzi deb e’tirof etiladi:

1) yuridik shaxs tugatilganda — yuridik shaxsning mol-mulki yetarli emasligi va (yoki) shu yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) tomonidan qonunchilikda belgilangan miqdorda va tartibda uning soliq qarzini uzish

imkoni bo‘lmaganligi sababli uning ushbu Kodeksning 91-moddasida nazarda tutilgan tartibda uzilmay qolgan qismi bo‘yicha;

(96-modda birinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 91-moddasi.

2) yakka tartibdagi tadbirkor yoki jismoniy shaxs bankrot deb e’tirof etilganda — qarzdorning mol-mulki yetarli emasligi sababli soliq qarzining uzilmay qolgan qismi bo‘yicha;

(96-modda birinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-fevraldagi O‘RQ-911-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son)

3) jismoniy shaxs vafot etganda yoki jismoniy shaxs vafot etgan deb e’lon qilinganda — uning mol-mulki yetarli emasligi sababli, shu jumladan meros davlat mulkiga o‘tgan taqdirda, uning soliq qarzining ushbu Kodeksning 94-moddasida nazarda tutilgan tartibda uzilmay qolgan qismi bo‘yicha;

4) sud tomonidan hujjat qabul qilinib, unga muvofiq soliq organi soliq qarzini undirishning belgilangan muddati o‘tishi munosabati bilan uni undirish imkoniyatini yo‘qotganda, shu jumladan sud tomonidan soliq qarzini undirish to‘g‘risida ariza berishning o‘tkazib yuborilgan muddatini tiklashni rad etish haqida ajrim chiqarilganda;

41) Majburiyatlar reyestriga kiritilgan sanadan e’tiboran o‘n yil davomida qarzdorning mol-mulki yoki pul mablag‘lari to‘g‘risidagi ma’lumotlar aniqlanmaganda — soliq qarzining uzilmay qolgan qismi bo‘yicha;

(96-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 16-iyundagi O‘RQ-1069-sonli Qonuniga asosan 41-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.06.2025-y., 03/25/1069/0510-son)

5) mazkur Kodeks 129-moddasining yettinchi qismiga muvofiq, chet el yuridik shaxsi soliq organidan hisobdan chiqarilganda — doimiy muassasaning mol-mulki yetarli emasligi va qonunchilikda belgilangan miqdor va tartibda O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan yuridik shaxs tomonidan to‘lash imkonsizligi sababli to‘lanmagan soliq qarzi bo‘yicha undirilishi umidsiz deb e’tirof etilgan mazkur soliq qarzi shu chet el yuridik shaxsi ushbu Kodeks 129-moddasining yettinchi qismida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra soliq organida qaytadan hisobga qo‘yilganda tiklanishi lozim.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 129-moddasi.

Quyidagilar soliq qarzini undirilishi umidsiz qarz deb e’tirof etish va uni hisobdan chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish vakolatiga ega organlardir:

1) yuridik shaxs joylashgan yerdagi yoki jismoniy shaxsning yashash joyidagi soliq organlari (ushbu qismning 2 va 3-bandlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno) – mazkur modda birinchi qismining 1, 2, 3 va 41-bandlarida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo‘lganda;

(96-modda ikkinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 16-iyundagi O‘RQ-1069-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.06.2025-y., 03/25/1069/0510-son)

2) soliq to‘lovchi yoki soliq agenti hisobda turgan joydagi soliq organlari (ushbu qismning 3-bandida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno) — ushbu modda birinchi qismining 4 va 5-bandlarida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo‘lganda;

3) O‘zbekiston Respublikasining Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan belgilanadigan bojxona organlari — O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o‘tilishi munosabati bilan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar, penyalar va jarimalar bo‘yicha.

Undirilishi umidsiz deb e’tirof etilgan soliq qarzini hisobdan chiqarish tartibi va ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

> **Izoh.** Qarang: Davlat soliq qo‘mitasining 2020-yil 30-iyundagi 3256-sonli qarori bilan tasdiqlangan Undirilishi umidsiz deb e’tirof etilgan soliq qarzini hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi nizom.

O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o‘tilishi munosabati bilan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar bo‘yicha tartib va hujjatlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasining Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

11-bob. Soliqlarni to‘lash muddatlarini o‘zgartirish

97-modda. Soliqlarni to‘lash muddatlarini o‘zgartirishning umumiy shartlari

Soliq to‘lashning muddatini keyinroq muddatga ko‘chirish soliqni to‘lash muddatini o‘zgartirish deb e’tirof etiladi.

Soliq to‘lash muddatini o‘zgartirishga ushbu bobda belgilangan tartibda yo‘l qo‘yiladi.

Agar ushbu bobda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, to‘lanishi lozim bo‘lgan umumiy soliq summasiga yoki uning bir qismiga (bundan buyon ushbu bobda qarz summasi deb yuritiladi) nisbatan, qarz summasiga foizlar hisoblangan holda, soliq to‘lash muddatini o‘zgartirish mumkin.

Soliq to‘lash muddatini o‘zgartirish uni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash shaklida amalga oshiriladi.

Soliq to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash, shu soliq bo‘yicha tegishlicha bir yo‘la yoki bosqichma-bosqich qarz summasini to‘lagan holda, ushbu soliqni to‘lash muddatini o‘zgartirishdan iboratdir.

Soliq to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risida qaror qabul qilinguniga qadar yuzaga kelgan qarz summasiga yoki kelgusida yuzaga keladigan qarz summasiga nisbatan berilishi mumkin.

Soliq to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash, agar ushbu Kodeksning 99-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, bir yildan oshmagan muddatga beriladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 99-moddasi.

Soliq to‘lash muddati o‘zgartirilishiga talabgor shaxs (bundan buyon ushbu bobda manfaatdor shaxs deb yuritiladi) soliq to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash to‘g‘risida ariza berishga yoxud bu haqda xabardor qilishga haqli. Bunday ariza bir yoki bir nechta soliqqa nisbatan berilishi mumkin.

(97-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Manfaatdor shaxsning soliq to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash haqidagi arizasini ko‘rib chiqish chog‘ida, soliqlarni to‘lash muddatlarini o‘zgartirish to‘g‘risida qaror qabul qilishga vakolatli organ mazkur shaxsga u bilan kelishilgan holda qabul qilinishi mumkin bo‘lgan kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashning ushbu bobda nazarda tutilgan boshqa shartlarini taklif etishga haqli.

Soliq to‘lash muddatining o‘zgartirilishi soliq to‘lash bo‘yicha mavjud majburiyatlarni bekor qilmaydi va yangi majburiyatlarni vujudga keltirmaydi.

Ushbu Kodeksning 99-moddasida ko‘rsatilgan organlarning qaroriga ko‘ra soliq to‘lash muddatini o‘zgartirish, agar ushbu bobda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushbu Kodeksning 107 — 109-moddalariga muvofiq mol-mulk garovi, kafillik yoki bank kafolati bilan ta’minlanishi mumkin.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 99, 107 — 109-moddalari.

Ushbu bob qoidalari penya va jarima to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berilganda ham qo‘llaniladi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv jarayonida yuzaga keladigan barcha turdagi joriy soliq to‘lovlarini (bundan mehnat shartnomalari (kontraktlari) va fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomalar bo‘yicha olingan daromadlar solig‘i, shuningdek ijtimoiy soliq mustasno) to‘lash, sud ajrimi asosida joriy etilgan sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv tartib-taomilining muddatida to‘xtatib turiladi. Bu holda sud sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining yoki tashqi boshqaruvchining hisobotini tasdiqlagan va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish yuritishni tugatish haqida ajrim chiqargan sanadan e’tiboran mazkur soliq qarzlari olti oy ichida teng ulushlarda bo‘lib-bo‘lib to‘lanadi.

(97-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-fevraldagi O‘RQ-911-sonli Qonuniga asosan o‘n uchinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son)

Ushbu bobning qoidalari soliq agentlariga va ushbu Kodeksning 482-moddasida nazarda tutilgan hollarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

(97-moddaning o‘n uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 1-dekabrdagi O‘RQ-652-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 02.12.2020-y., 03/20/652/1581-son — 2020-yil 1-martdan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq

etiladi)

98-modda. Soliqni to‘lash muddatini o‘zgartirishni istisno etadigan holatlar

Agar manfaatdor shaxsga nisbatan quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda bittasi bajarilayotgan bo‘lsa, soliqni to‘lash muddati o‘zgartirilishi mumkin emas:

1) agar ushbu moddaning ikkinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishi bilan bog‘liq jinoyat alomatlari bo‘yicha jinoiy ish qo‘zg‘atilgan bo‘lsa;

(98-modda birinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) ushbu shaxs bunday o‘zgartirishdan soliq solinishi lozim bo‘lgan o‘z pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkini yashirish uchun foydalanishini yoki ushbu shaxs doimiy yashash uchun O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqib ketishini taxmin qilish uchun yetarlicha asoslar mavjud bo‘lsa;

3) ushbu shaxs soliqni to‘lash muddatini o‘zgartirish to‘g‘risida ariza bergan kundan oldingi uch yil mobaynida ushbu Kodeksning 99-moddasida ko‘rsatilgan organ tomonidan soliq to‘lash muddatini tegishli o‘zgartirish shartlari buzilganligi munosabati bilan ilgari berilgan kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatining amal qilishini tugatish to‘g‘risida qaror chiqarilgan bo‘lsa;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 99-moddasi.

4) shaxs bankrot deb topilgan bo‘lsa;

(98-modda birinchi qismining 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-fevraldagi O‘RQ-911-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son)

5) shaxs ushbu Kodeks 100-moddasi ikkinchi qismining 32-bandi bo‘yicha yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga kiritilgan bo‘lsa.

(98-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan 5-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan shartlar ushbu Kodeks 99-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, soliq to‘lash muddatini o‘zgartirish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi mumkin emas, qabul qilingan qaror esa bekor qilinishi lozim.

Qabul qilingan qaror bekor qilingani to‘g‘risida manfaatdor shaxs va ushbu shaxs hisobda turgan joydagi soliq organi uch kunlik muddatda yozma shaklda xabardor qilinadi. Manfaatdor shaxs bunday qaror ustidan ushbu Kodeksda belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqli.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘iga nisbatan soliq to‘lash muddatini o‘zgartirish amalga oshirilmaydi.

99-modda. Soliqlarni to‘lash muddatlarini o‘zgartirish to‘g‘risida qaror qabul qilishga vakolatli organlar

Quyidagi organlar soliqlarni to‘lash muddatlarini o‘zgartirish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish vakolatiga ega organlardir (bundan buyon ushbu moddada vakolatli organlar deb yuritiladi):

1) ushbu Kodeks 17-moddasi birinchi qismining 1 — 5-bandlarida ko‘rsatilgan soliqlar bo‘yicha — O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi (bundan ushbu qismning 3-bandida va ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno). O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ushbu Kodeksning 17-moddasida ko‘rsatilgan soliqlarni, shuningdek aylanmadan olinadigan soliqni ushbu bobda nazarda tutilgan tartibda mol-mulkni garovga bermagan holda, kafilliksiz yoki bank kafolatisiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini taqdim etishga (bundan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, ijtimoiy soliq, to‘lov manbaida olinadigan foyda solig‘i hamda soliq agenti sifatida to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i mustasno) ham haqli;

(99-modda birinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-oktabrdagi O‘RQ-722-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2021-y., 03/21/722/0960-son)

2) ushbu Kodeks 17-moddasi birinchi qismining 6 — 8-bandlarida ko‘rsatilgan soliqlar va aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mahalliy davlat

hokimiyati organlari. Bunday soliqlarga nisbatan to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati ikki yilgacha muddatga berilishi mumkin;

> **Izoh.** Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-dekabrdagi 776-son qarori bilan tasdiqlangan Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarning soliq to‘lash muddatlarini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida nizom.

3) O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o‘tilishi munosabati bilan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar bo‘yicha — bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda bojxona organlari (bundan ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno).

(99-modda birinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi soliq to‘lovchiga ushbu Kodeksning 17-moddasida ko‘rsatilgan har qanday soliq bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini uch yilgacha muddatga berishga haqli. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berishda ushbu Kodeks 98-moddasining birinchi qismida belgilangan cheklovlardan chetga chiqishga haqli.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 17 va 99-moddalari.

100-modda. Soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish shartlari

Soliqni to‘lash bo‘yicha muddatni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati manfaatdor shaxsga, basharti uning moliyaviy ahvoli ushbu soliqni belgilangan muddatda to‘lash imkonini bermasa, biroq ko‘rsatilgan shaxsda bunday soliqni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash uchun berilgan muddat mobaynida to‘lash imkoniyati yuzaga keladi deb taxmin qilish uchun yetarlicha asoslar mavjud bo‘lsa, berilishi mumkin.

Soliq to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati manfaatdor shaxsga quyidagi asoslardan loaqal bittasi mavjud bo‘lgan taqdirda berilishi mumkin:

1) ushbu shaxsga tabiiy ofat, texnologik falokat yoki boshqa bartaraf etib bo‘lmaydigan holatlar natijasida zarar yetkazilganligi;

2) ushbu shaxsni budjetdan (davlat maqsadli jamg‘armalaridan) moliyalashtirish kechiktirilganligi yoki ushbu shaxs tomonidan bajarilgan davlat buyurtmasi, davlat ehtiyojlari yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining ehtiyojlari uchun bajarilgan ishlar va (yoki) ko‘rsatilgan xizmatlar haqini to‘lash kechiktirilganligi;

3) manfaatdor shaxs soliqni bir yo‘la to‘lashi oqibatida uning to‘lovga qobiliyatsizligi alomatlari paydo bo‘lishi xavfi yuzaga kelganligi;

(100-modda ikkinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-fevraldagi O‘RQ-911-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son)

31) manfaatdor shaxs faoliyatni uch yildan ortiq vaqtdan buyon amalga oshirayotganligi hamda hisoblangan soliqlarni o‘z vaqtida to‘lab kelganligi, ammo moliyaviy ahvoliga ko‘ra soliq qarzini belgilangan muddatlarda to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lmaganligi;

(100-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-oktabrdagi O‘RQ-722-sonli Qonuniga asosan 31-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2021-y., 03/21/722/0960-son)

32) agar manfaatdor shaxs (tadbirkorlik subyekti) ushbu Kodeks 101-moddasining birinchi qismiga binoan soliq to‘lashni kechiktirish huquqi to‘g‘risidagi xabarnomani yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo‘lgan mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran uch oy ichida soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo‘lgan mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tganligining qayd raqamini va sanasini ko‘rsatgan holda soliq organlariga yuborgan bo‘lsa;

(100-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan 32-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

33) agar o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha jami daromadi o‘n milliard so‘mdan oshmagan shaxs soliq qarzi yuzaga kelgan sanadan e’tiboran bir oy ichida soliq organlariga soliqlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqi to‘g‘risida xabarnoma yuborgan bo‘lsa. Mazkur tartib qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i to‘lovchilariga nisbatan qo‘llaniladi (ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ko‘proq bo‘lgan yuridik shaxslar, yer qa’ridan foydalanuvchilar va aksiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchilar bundan mustasno);

(100-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuniga asosan 33-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

4) jismoniy shaxsning mulkiy holati (qonunchilikka muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo‘lmagan mol-mulk hisobga olinmaganda) soliqni bir yo‘la to‘lash imkoniyatini istisno etishi;

(100-modda ikkinchi qismining 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

5) manfaatdor shaxs tomonidan tovarlar yoki xizmatlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish mavsumiy xususiyatga ega ekanligi;

6) O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o‘tilishi munosabati bilan bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish uchun asoslar mavjud ekanligi;

(100-modda ikkinchi qismining 6-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

7) ushbu Kodeks 97-moddasining o‘n uchinchi qismida nazarda tutilgan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgan bo‘lsa.

(100-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-fevraldagi O‘RQ-911-sonli Qonuniga asosan 7-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son)

Ushbu modda ikkinchi qismining 1, 3 — 6-bandlarida ko‘rsatilgan asoslar mavjud bo‘lganda, soliqni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati quyidagilarga berilishi mumkin:

1) yuridik shaxsga — uning sof aktivlari qiymatidan oshmaydigan summaga;

2) jismoniy shaxsga — uning mol-mulki qiymatidan oshmaydigan summaga, bundan O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo‘lmagan mol-mulk mustasno.

(100-modda uchinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqni hisobga olish joyidagi soliq organiga yozma, shu jumladan soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali xabarnoma yuborib, soliq auditi natijalari bo‘yicha qo‘shimcha hisoblangan soliqlar summalarini va moliyaviy sanksiyalarning tekshiruv materiallarini, shuningdek kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qo‘shimcha hisoblangan soliqlar summalarini ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan soliq organi tomonidan qabul qilingan qaror kuchga kirgan kundan e’tiboran olti oy ichida teng ulushlarda to‘lashga haqli. Bunda ushbu tartib sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha hisoblangan moliyaviy sanksiyalar summasini to‘lashga nisbatan ham tatbiq etiladi.

(100-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Agar soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati ushbu modda ikkinchi qismining 1 yoki 2-bandlarida ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha berilgan bo‘lsa, qarz summasiga foizlar hisoblanmaydi. Agar soliqlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash ushbu modda ikkinchi qismining 33-bandida ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha taqdim etilgan va soliq qarzi bo‘yicha bo‘lib-bo‘lib to‘lash kalendar yil davomida bir marta foydalanilgan bo‘lsa, foizlar olti oy davomida ham hisoblanmaydi.

(100-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30 dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Agar soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati ushbu modda ikkinchi qismining 3, 31, 4, 5 va 6-bandlarida va (yoki) to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan asoslarga ko‘ra berilgan bo‘lsa, kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash davrida amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasiga teng stavkadan kelib chiqqan holda, ushbu modda ikkinchi qismining 32-bandi bo‘yicha soliqlarni to‘lash kechiktirilgan kundan e’tiboran qarz summasiga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizi miqdorida foizlar hisoblanadi. Ushbu moddaning ikkinchi qismi 32-bandida ko‘rsatilgan asoslarga ko‘ra foizlar soliqlarni to‘lash kechiktirish bo‘yicha qarz summasiga nisbatan kechiktirish davrida amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foiziga teng stavkadan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Bunda, soliqlarni manfaatdor shaxs tomonidan to‘lashni kechiktirishning amal qilish muddati soliq organiga xabarnoma yuborilgan sanadan e’tiboran hisoblab chiqariladi, kechiktirilgan soliqlar

summasi esa, muddati tugagan oyidan keyingi oyidan boshlab kechiktirish muddati tugaganidan so‘ng amal qilish muddati tugagan sanadan e’tiboran kechiktirilgan soliq summasi hisoblangan foizlar bilan birga teng ulushlarda o‘n ikki oy ichida to‘lanadi.

(100-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

101-modda. Soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish tartibi

Soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi ariza manfaatdor shaxs tomonidan tegishli vakolatli organga beriladi. Tadbirkorlik subyektlari (bundan davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar, yer qa’ridan foydalanuvchilar va aksiz osti mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar mustasno) umumiy maydoni bir ming kvadrat metrdan ortiq bo‘lgan yer uchastkalariga va (yoki) binolar hamda inshootlarga bo‘lgan mulkiy huquq olinganda ushbu Kodeks 17-moddasi birinchi qismining 7 va 8-bandlarida ko‘rsatilgan soliqlarni to‘lashni taqdim etilgan xabarnoma asosida xabardor qilgan holda va garov ta’minotisiz olti oy muddatga kechiktirish huquqiga ega. Bunda kechiktirilgan soliqlar summasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan yer uchastkalarining, binolarning va inshootlarning qiymatidan va (yoki) maydonlaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan soliqlar miqdorida belgilanadi.

(101-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Manfaatdor shaxsning soliqni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

1) ushbu shaxs hisobda turgan joydagi soliq organining uning soliqlar, penyalar va jarimalar bo‘yicha hisob-kitoblari holati to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi;

2) ushbu shaxs hisobda turgan joydagi soliq organining mazkur shaxsga banklarda ochilgan barcha hisobvaraqlar ro‘yxati ko‘rsatilgan ma’lumotnomasi;

3) ushbu shaxsning banklardagi hisobvaraqlari bo‘yicha ko‘rsatilgan ariza berilishidan oldingi olti oy davomida har oylik pul mablag‘lari aylanishi to‘g‘risida, shuningdek uning haqi to‘lanmagan hisob-kitob hujjatlarining tegishli kartotekasiga joylashtirilgan hisob-kitob hujjatlari mavjudligi to‘g‘risida yoxud ushbu kartotekada ularning mavjud emasligi to‘g‘risida banklar ma’lumotnomalari;

4) ushbu shaxsning banklardagi barcha hisobvaraqlarida mavjud bo‘lgan pul mablag‘larining qoldiqlari to‘g‘risida banklar ma’lumotnomalari;

5) ushbu shaxsning soliqni to‘lash muddati o‘zgartirilgan davrda soliqni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi qaror qaysi shartlarga ko‘ra qabul qilingan bo‘lsa, o‘sha shartlarga rioya etilishini nazarda tutuvchi majburiyati, shuningdek qarzdorlikni so‘ndirishning taxminiy grafigi;

6) soliqni to‘lash muddatini o‘zgartirish asoslari mavjudligini tasdiqlovchi ushbu moddaning uchinchi — sakkizinchi qismlarida ko‘rsatilgan hujjatlar.

Ushbu Kodeks 100-moddasining ikkinchi qismi 1-bandida ko‘rsatilgan asos bo‘yicha soliqni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi manfaatdor shaxsning arizasiga quyidagilar ilova qilinadi:

1) ushbu shaxsga nisbatan uning ariza bilan murojaat etishi uchun asos bo‘lgan bartaraf etib bo‘lmaydigan holatlar vujudga kelganligi fakti to‘g‘risidagi xulosa;

2) ko‘rsatilgan holatlar natijasida ushbu shaxsga yetkazilgan zararni baholash dalolatnomasi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan hujjatlar mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari yoki fuqaro muhofazasi, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish sohasidagi organlar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi organlari tomonidan tuziladi.

(101-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-1109-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2025-y., 03/25/1109/1241-son)

Ushbu Kodeks 100-moddasining ikkinchi qismi 2-bandida ko‘rsatilgan asos bo‘yicha soliqni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi manfaatdor shaxsning arizasiga bunday asos mavjudligini va budjetdan (davlat maqsadli jamg‘armalaridan) moliyalashtirish hisobiga ushbu shaxsga kelib tushmagan summani yoki

ushbu shaxs tomonidan bajarilgan davlat buyurtmasining, davlat ehtiyojlari yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining ehtiyojlari uchun bajarilgan ishlar va (yoki) ko‘rsatilgan xizmatlarning haqi to‘lanmaganligini tasdiqlovchi moliya organining hujjati ilova qilinadi.

Ushbu Kodeks 100-moddasining ikkinchi qismi 3-bandida ko‘rsatilgan asos mavjudligi manfaatdor shaxsning moliyaviy holatini tahlil qilish natijalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi yoki u vakolat bergan soliq organi tomonidan aniqlanadi. Bunday tahlil O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan uslubiyatga muvofiq o‘tkaziladi.

Ushbu Kodeks 100-moddasining ikkinchi qismi 4-bandida ko‘rsatilgan asos bo‘yicha soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi manfaatdor shaxsning arizasiga jismoniy shaxsning ko‘char va ko‘chmas mulki (bundan qonunchilikka muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo‘lmagan mol-mulk mustasno) to‘g‘risidagi ma’lumotlar ilova qilinadi.

(101-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu Kodeks 100-moddasining ikkinchi qismi 5-bandida ko‘rsatilgan asos bo‘yicha soliqni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi manfaatdor shaxsning arizasiga ushbu shaxs tomonidan tuzilgan, mazkur shaxsning umumiy daromadlarida uning mavsumiy xususiyatga ega bo‘lgan faoliyatdan olingan daromadlarining ulushi kamida 50 foizni tashkil etishini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi.

Mavsumiy xususiyatga ega bo‘lgan tarmoqlar va faoliyat turlarining ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

> **Izoh.** Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-dekabrdagi 776-son qarori bilan tasdiqlangan Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarning soliq to‘lash muddatlarini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida nizomga ilova tasdiqlangan Mavsumiy xususiyatga ega bo‘lgan tarmoqlar va faoliyat turlari ro‘yxati.

Ushbu Kodeks 100-moddasi ikkinchi qismining 31-bandida ko‘rsatilgan asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, manfaatdor shaxsning arizasiga muvofiq soliqni bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati beriladi. Bunda ushbu qismda nazarda tutilgan tartibda to‘lanadigan soliq summasi oxirgi uch yil davomida to‘langan soliqlar summasining ellik foizidan oshmasligi kerak.

(101-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-oktabrdagi O‘RQ-722-sonli Qonuniga asosan o‘ninchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2021-y., 03/21/722/0960-son)

Soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi manfaatdor shaxsning arizasida ushbu shaxs mazkur bobga muvofiq qarz summasiga hisoblangan foizlarni to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Vakolatli organning talabiga ko‘ra, manfaatdor shaxs garov predmeti bo‘lishi mumkin bo‘lgan mol-mulk to‘g‘risidagi hujjatlarni, kafillik xatini yoki bank kafolatini taqdim etadi.

Vakolatli organ manfaatdor shaxsning iltimosnomasi bo‘yicha ushbu shaxs tomonidan qarz summasining to‘lanishini vaqtinchalik (ariza ko‘rib chiqiladigan davrda) to‘xtatib turish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli. Bunday qarorning ko‘chirma nusxasi manfaatdor shaxs tomonidan o‘zi hisobga olingan joydagi soliq organiga qaror qabul qilingan kundan e’tiboran besh kunlik muddatda taqdim etiladi.

Soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish yoxud uni berishni rad etish to‘g‘risidagi qaror vakolatli organ tomonidan manfaatdor shaxsning arizasi olingan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida qabul qilinadi.

Soliqni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi qarorda quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

1) qarz summasi;

2) kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berilayotgan soliq;

3) qarz summasini va hisoblangan foizlarni to‘lash tartibi hamda muddatlari.

Tegishli hollarda soliqni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi qarorda garov predmeti bo‘lgan mol-mulk to‘g‘risidagi hujjatlar, kafillik xati yoki bank kafolati ko‘rsatilishi kerak.

Soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi qaror ushbu qarorda belgilangan kundan e’tiboran kuchga kiradi. Bunda soliqni to‘lash uchun belgilangan kundan e’tiboran ushbu qaror kuchga kiradigan kunga qadar bo‘lgan butun vaqt uchun tegishli penyalar, agar to‘lovning ko‘rsatilgan muddati ushbu qaror kuchga kiradigan kundan oldin bo‘lsa, qarz summasiga kiritiladi.

Agar soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash mol-mulk garovi evaziga beriladigan bo‘lsa, uni berish to‘g‘risidagi qaror faqat ushbu Kodeksning 107-moddasida nazarda tutilgan tartibda mol-mulk garovi to‘g‘risidagi shartnoma tuzilgandan keyingina kuchga kiradi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 107-moddasi.

Soliqni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berishni rad etish to‘g‘risidagi qaror asoslantirilgan bo‘lishi kerak. Agar soliq to‘lovchi tomonidan yuborilgan xabarnoma ushbu Kodeks 100-moddasi ikkinchi qismining 32-bandida nazarda tutilgan asoslarga muvofiq bo‘lmasa, soliq organi uch kundan kechiktirmay soliq to‘lovchiga soliqlarni to‘lash bo‘yicha kechiktirish uchun asoslar mavjud emasligi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi.

(101-moddaning o‘n to‘qqizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Soliqlarni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berishni rad etish to‘g‘risidagi qaror ustidan manfaatdor shaxs qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

(101-moddaning o‘n to‘qqizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi qarorning ko‘chirma nusxasi vakolatli organ tomonidan mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran uch kunlik muddatda ushbu shaxs hisobda turgan joydagi soliq organiga yuboriladi.

> **Izoh.** Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-dekabrdagi 776-son qarori bilan tasdiqlangan Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarning soliq to‘lash muddatlarini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida nizom.

102-modda. Soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashning amal qilishini tugatish

Soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashning amal qilishi tegishli qarorning amal qilish muddati o‘tganidan keyin tugatiladi yoxud ushbu moddada nazarda tutilgan hollarda bu muddat kelishidan oldin tugatilishi mumkin.

Soliqning to‘liq summasi va tegishli foizlarning summasi belgilangan muddat o‘tgunga qadar to‘langan taqdirda soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashning amal qilishi muddatidan oldin tugatiladi.

Soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash shartlari manfaatdor shaxs tomonidan buzilgan taqdirda, uning amal qilishi soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatni bajarish muddatini tegishli o‘zgartirish to‘g‘risida qaror qabul qilgan vakolatli organning qarori bilan muddatidan oldin tugatilishi mumkin. Yer uchastkalar, binolar va inshootlar soliq to‘lovlarini to‘lashni kechiktirish muddati davrida realizatsiya qilingan yoki ijaraga berilgan taqdirda, ushbu Kodeks 100-moddasi ikkinchi qismining 32-bandida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra kechiktirish summasi bir oy ichida to‘liq miqdorda undiriladi.

(102-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollarda soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashning amal qilishi muddatidan oldin tugatilganda manfaatdor shaxs tegishli qarorni olganidan keyin bir oy ichida soliq qarzining to‘lanmagan summasini, shuningdek soliqni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashning amal qilishini tugatish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan kundan keyingi kundan boshlab ushbu summa to‘langan kungacha bo‘lgan har bir kalendar kun uchun penya to‘lashi kerak. Bunda soliq qarzining qoplanmasdan qolgan summasi kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) imkoniyatini berish to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan soliq qarzi summasi to‘lashni kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) amal qilgan davrda kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) haqidagi qarorga

muvofiq hisoblangan foizlar summasiga oshirilgan summa bilan haqiqatda to‘langan summalar hamda foizlar o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi qaror bekor qilingani to‘g‘risidagi xabarnoma ushbu qarorni qabul qilgan vakolatli organ tomonidan qaror qabul qilingan kundan e’tiboran besh kun ichida ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda manfaatdor shaxsga yuboriladi. Bunday qarorning ko‘chirma nusxasi ayni shu muddatda manfaatdor shaxs hisobda turgan joydagi soliq organiga yuboriladi.

Vakolatli organning soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashning amal qilishini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risidagi qarori ustidan manfaatdor shaxs qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

(102-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu bobda nazarda tutilgan va manfaatdor shaxs tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan foizlar ularni to‘lash muddati buzilgan taqdirda hamda ularni to‘lash to‘g‘risidagi talabnomani bajarish muddati o‘tganidan keyin ushbu Kodeksning 15-bobida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda undiriladi.

12-bob. Ortiqcha to‘langan va ortiqcha undirilgan soliqlarni hisobga olish hamda qaytarish

103-modda. Ortiqcha to‘langan va ortiqcha undirilgan soliqlarni hisobga olish hamda qaytarish to‘g‘risidagi umumiy qoidalar

Soliq to‘lovchi tomonidan ortiqcha to‘langan yoki undan ortiqcha undirilgan soliq summasi soliq to‘lovchining qarzi bo‘lmagan taqdirda shu soliq to‘lovchiga qaytarilishi yoxud ushbu soliq yoki boshqa soliqlar bo‘yicha kelgusi to‘lovlar hisobiga hisobga olinishi lozim.

(103-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-iyundagi O‘RQ-1071-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.06.2025-y., 03/25/1071/0545-son)

Soliq to‘lovchida soliq qarzi mavjud bo‘lgan taqdirda, ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan soliq summasi ushbu qarzni uzish hisobiga quyidagi ketma-ketlikda hisobga olinishi lozim:

1) mazkur soliq turining penyasi bo‘yicha qarz hisobiga;

2) boshqa soliqlar va ularning penyalari bo‘yicha qarzni uzish hisobiga;

3) soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun jarimalarni to‘lash hisobiga.

Ortiqcha to‘langan soliq summasi soliq to‘lovchining arizasiga ko‘ra soliq to‘lovchiga to‘liq yoki qisman qaytarilishi mumkin.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismiga muvofiq va uchinchi qismini hisobga olgan holda qaytarilishi lozim bo‘lgan summani soliq to‘lovchiga qaytarish ushbu Kodeksning 104 va 105-moddalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 104-105-moddalari.

Soliqlarning ortiqcha to‘langani ehtimolidan dalolat beruvchi faktlar aniqlangan taqdirda, soliq organining yoki soliq to‘lovchining taklifiga ko‘ra soliqlar, penyalar va jarimalar bo‘yicha hisob-kitoblarni birgalikda o‘zaro solishtirish o‘tkazilishi mumkin.

Soliqning ortiqcha to‘langan summalarini hamda hisoblangan foizlarini hisobga olish yoki qaytarish milliy valyutada amalga oshiriladi.

Ushbu bobda belgilangan qoidalar ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan bo‘nak va joriy to‘lovlar, yig‘imlar, penyalar va jarimalarning summalarini hisobga olishga yoki qaytarishga nisbatan ham qo‘llaniladi hamda soliq agentlari va yig‘imlarni to‘lovchilarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Ushbu bobda belgilangan qoidalar ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan yig‘imlar, penyalar va jarimalar summalarini boshqa vakolatli organlar tomonidan hisobga olishga yoki qaytarishga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Ushbu bobda belgilangan qoidalar soliq organining qaroriga ko‘ra o‘rni qoplanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini hisobga olishga yoki qaytarishga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Ushbu bobda belgilangan qoidalar noto‘g‘ri to‘langan soliq summasini, shuningdek penyalar va jarimalarni hisobga olishga yoki qaytarishga nisbatan ham qo‘llaniladi.

104-modda. Ortiqcha to‘langan soliqni hisobga olish yoki qaytarish tartibi

Soliq bo‘yicha qarzini qoplash hisobiga soliq to‘lovchi tomonidan ortiqcha to‘langan summani ushbu Kodeksning 103-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan hisobga olish soliq organlari tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Ortiqcha to‘langan soliq summasini soliq qarzini qoplash hisobiga hisobga olish to‘g‘risidagi qaror soliq organi tomonidan soliqning ortiqcha to‘langanligi fakti aniqlagan kundan e’tiboran yoki agar soliq organi va soliq to‘lovchi tomonidan u to‘lagan soliqlarni birgalikda o‘zaro solishtirish o‘tkazilgan bo‘lsa, bunday birgalikdagi solishtirish dalolatnomasi soliq organi va soliq to‘lovchi tomonidan imzolangan kundan e’tiboran yoxud sudning tegishli qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida qabul qilinadi.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan qoida soliq to‘lovchiga o‘zi ortiqcha to‘lagan soliq summasini uning soliq qarzini qoplash hisobiga hisobga olish to‘g‘risida soliq organiga yozma ariza taqdim etishiga to‘sqinlik qilmaydi. Bunday ariza mavjud bo‘lgan taqdirda soliq organining ortiqcha to‘langan soliq summasini soliq qarzini uzish hisobiga hisobga olish to‘g‘risidagi qarori soliq to‘lovchining arizasi olingan kundan e’tiboran yoki, agar birgalikda o‘zaro solishtirish o‘tkazilgan bo‘lsa, soliq organi soliq to‘lovchi bilan u to‘lagan soliqlarni birgalikda o‘zaro solishtirish dalolatnomasini imzolagan kundan e’tiboran o‘n kun ichida qabul qilinadi.

Ortiqcha to‘langan soliq summasi soliq to‘lovchiga ushbu Kodeksning 103-moddasi qoidalari inobatga olingan holda, uning yozma arizasiga ko‘ra, bunday ariza soliq organi tomonidan olingan kundan e’tiboran o‘n besh kun ichida, Tadbirkorlik subyektlarining yuqori barqarorlik reytingiga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlariga esa (bundan davlat korxonalari hamda ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar mustasno) uch kun ichida qaytarilishi lozim (bundan qo‘shilgan qiymat solig‘i mustasno).

(104-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 15-noyabrdagi O‘RQ-1000-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.11.2024-y., 03/24/1000/0928-son)

Ortiqcha to‘langan soliq summasini hisobga olish yoki qaytarish to‘g‘risidagi ariza, agar soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ko‘rsatilgan summa to‘langan kundan e’tiboran uch yil ichida berilishi mumkin.

(104-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Ortiqcha to‘langan soliq summasini qaytarish to‘g‘risidagi qaror soliq organi tomonidan soliq to‘lovchining tegishli arizasi olingan kundan e’tiboran yoki, agar birgalikda o‘zaro solishtirish o‘tkazilgan bo‘lsa, soliq organi soliq to‘lovchi bilan u to‘lagan soliqlarning birgalikdagi o‘zaro solishtirish dalolatnomasini imzolagan kundan e’tiboran o‘n kun ichida, Tadbirkorlik subyektlarining yuqori barqarorlik reytingiga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan esa (bundan davlat korxonalari hamda ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar mustasno) ikki kun ichida qabul qilinadi (bundan qo‘shilgan qiymat solig‘i mustasno).

(104-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 15-noyabrdagi O‘RQ-1000-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.11.2024-y., 03/24/1000/0928-son)

Ushbu moddaning sakkizinchi qismida ko‘rsatilgan muddat o‘tgunga qadar soliq organining tegishli summani qaytarish to‘g‘risidagi qarori asosida rasmiylashtirilgan ortiqcha to‘langan soliq summasini qaytarishga doir topshiriqnoma soliq organi tomonidan budjet to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq soliq to‘lovchiga qaytarib berishni amalga oshirish uchun g‘aznachilikka yuboriladi.

(104-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq organi ortiqcha to‘langan soliq summasini hisobga olishni yoki qaytarishni rad etish to‘g‘risidagi qabul qilingan qaror haqida soliq to‘lovchiga bunday qaror qabul qilingan kundan e’tiboran uch kun ichida xabar qilishi shart. Agar ortiqcha to‘langan soliq summasini soliq to‘lovchiga qaytarish ushbu moddaning to‘rtinchi qismida belgilangan muddat buzilgan holda amalga oshirilsa, belgilangan muddatda qaytarilmagan summa uchun soliq to‘lovchiga qaytarish muddati buzilgan har bir kalendar kun uchun foizlar hisoblanadi. Hisoblangan foizlar tegishli budjet mablag‘lari

hisobidan to‘lanadi. Foiz stavkasi qaytarish muddati buzilgan kunlarda amal qilgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasiga teng etib qabul qilinadi.

Yanglishib to‘langan soliq summalari, shuningdek penyalar va (yoki) jarimalar soliq to‘lovchiga uning yoxud bankning yoki O‘zbekiston Respublikasi G‘aznachiligining yozma murojaati asosida, agar xatolik ular tomonidan yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, qaytariladi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ining ortiqcha to‘langan summalari shu konsolidatsiyalashgan guruhning mas’ul ishtirokchisiga ushbu moddada belgilangan tartibda hisobga olinishi (qaytarilishi) lozim.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaning amal qilishi tugagan taqdirda, soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha ortiqcha to‘langan foyda solig‘ining ushbu konsolidatsiyalashgan guruh bo‘yicha mavjud bo‘lgan soliq qarzi hisobiga hisobga olinmaydigan va (yoki) hisobga olinmagan summalari shu soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi bo‘lgan yuridik shaxsga uning yozma arizasiga binoan hisobga olinishi yoki qaytarilishi lozim.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 103 va 105-moddalari.

105-modda. Ortiqcha undirilgan soliqni hisobga olish yoki qaytarish tartibi

Ortiqcha undirilgan soliq summalarini hisobga olish yoki qaytarish to‘g‘risida soliq organiga ariza soliq to‘lovchi tomonidan undan soliq ortiqcha undirilgani fakti o‘ziga ma’lum bo‘lgan kundan yoki sud qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran uch yil ichida berilishi mumkin.

(105-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Ortiqcha undirilgan soliq summasi soliq to‘lovchiga ushbu Kodeksning 103-moddasi qoidalari inobatga olingan holda, uning yozma arizasiga ko‘ra, bunday ariza soliq organi tomonidan qabul qilingan kundan e’tiboran o‘n besh kun ichida, Tadbirkorlik subyektlarining yuqori barqarorlik reytingiga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlariga esa (bundan davlat korxonalari hamda ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar mustasno) unga hisoblangan foizlar bilan birga uch kun ichida (bundan qo‘shilgan qiymat solig‘i mustasno) qaytarilishi lozim.

(105-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 15-noyabrdagi O‘RQ-1000-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.11.2024-y., 03/24/1000/0928-son)

Ortiqcha undirilgan soliq summasiga foizlar soliq to‘lovchi undan soliq ortiqcha undirilgani fakti o‘ziga ma’lum bo‘lgan kundan yoki sudning qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida murojaat etgan taqdirda hisoblanadi. Foizlar undirilgan kundan keyingi kundan e’tiboran haqiqiy hisobga olingan (qaytarilgan) kunga qadar hisoblanadi. Hisoblangan foizlar tegishli budjet mablag‘lari hisobidan to‘lanadi. Foiz stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu kunlardagi amal qilayotgan qayta moliyalashtirish stavkasiga teng etib qabul qilinadi.

Agar soliq ortiqcha undirilgani fakti aniqlangan bo‘lsa, soliq organi ortiqcha undirilgan soliq summasini, shuningdek ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan tartibda ortiqcha undirilgan summaga hisoblangan foizlarni hisobga olish va (yoki) qaytarish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Ortiqcha undirilgan soliq summasini soliq to‘lovchining soliq qarzini uzish hisobidan yoki o‘sha soliq turi bo‘yicha yoxud ushbu Kodeks 103-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan boshqa soliqlar bo‘yicha kelgusi to‘lovlar hisobidan hisobga olish ushbu Kodeks 104-moddasining birinchi — beshinchi qismlarida ortiqcha to‘langan soliq summalarini hisobga olish uchun belgilangan tartibda soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda boshqa soliqlar bo‘yicha kelgusi to‘lovlar uchun hisobga olish soliq to‘lovchining yozma yoki elektron tarzdagi arizasiga ko‘ra soliq organlari tomonidan uch kun ichida amalga oshiriladi.

(105-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-iyundagi O‘RQ-1071-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.06.2025-y., 03/25/1071/0545-son)

Ortiqcha undirilgan soliqni qaytarish tartibi ushbu Kodeksning 104-moddasida ortiqcha to‘langan soliq summalarini qaytarish uchun belgilangan tartibga aynan o‘xshashdir.

Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida aniqlanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ortiqcha to‘langan (ushlab qolingan) summasi soliq to‘lovchi bo‘lgan jismoniy shaxsga, uning soliq hisobida turgan joyidan qat’i nazar, uning soliq organiga taqdim etgan arizasi asosida qaytariladi.

(105-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan yettinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha ortiqcha undirilgan foyda solig‘i summalari shu konsolidatsiyalashgan guruhning mas’ul ishtirokchisiga ushbu moddada belgilangan tartibda hisobga olinishi yoki qaytarilishi lozim.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to‘g‘risidagi shartnomaning amal qilishi tugatilgan taqdirda ushbu konsolidatsiyalashgan guruh bo‘yicha mavjud bo‘lgan soliq qarzi hisobiga hisobga olinishi lozim bo‘lmagan va (yoki) hisobga olinmagan soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ining ortiqcha undirilgan summalari soliq to‘lovchilar ushbu konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi bo‘lgan yuridik shaxsga uning yozma arizasi asosida hisobga olinishi yoki qaytarilishi lozim.

13-bob. Soliq majburiyatining bajarilishini ta’minlash

106-modda. Soliq majburiyatining bajarilishini ta’minlash usullari

Soliq majburiyatining bajarilishi mol-mulk garovi, kafillik, bank kafolati, penyalar, bankdagi hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarning to‘xtatilishi va soliq to‘lovchining mol-mulkini xatlash bilan ta’minlanishi mumkin.

Soliq to‘lovchining soliq majburiyatini bajarish bo‘yicha ta’minlash chorasi sifatida mol-mulkni xatlash uning arizasiga ko‘ra:

1) qimmatli qog‘ozlar uyushgan bozorida muomalada bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarning garovi yoki ushbu Kodeksning 107-moddasida nazarda tutilgan tartibda rasmiylashtirilgan boshqa mol-mulk garovi bilan;

2) ushbu Kodeksning 108-moddasida nazarda tutilgan tartibda rasmiylashtirilgan uchinchi shaxsning kafilligi bilan almashtirilishi mumkin;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 108-moddasi.

3) ushbu Kodeksning 109-moddasida nazarda tutilgan tartibda rasmiylashtirilgan bank kafolati bilan.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 109-moddasi.

Ushbu Kodeksning 109-moddasida nazarda tutilgan tartibda rasmiylashtirilgan amaldagi bank kafolati berilgan taqdirda, soliq organi soliq to‘lovchiga ushbu bandda nazarda tutilgan ta’minlash choralarini almashtirishni rad etishga haqli emas.

Soliq majburiyatining bajarilishini ta’minlash usullari, ularni qo‘llash tartibi va shartlari ushbu bobda belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tish munosabati bilan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar bo‘yicha bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda va shartlarda soliq majburiyatining bajarilishini ta’minlashning boshqa choralari ham qo‘llanilishi mumkin.

(106-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksining 22-bobi.

107-modda. Mol-mulk garovi

Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda soliqlarni to‘lash majburiyati mol-mulk garovi bilan ta’minlanishi mumkin.

Mol-mulk garovi soliq organi va garovga qo‘yuvchi o‘rtasidagi shartnoma bilan rasmiylashtiriladi. Soliq to‘lovchining o‘zi yoki uchinchi shaxs garovga qo‘yuvchi bo‘lishi mumkin.

Soliq to‘lovchi tegishli soliq summalarini va tegishli penyalarni to‘lash bo‘yicha majburiyatini bajarmagan taqdirda, soliq organi ushbu majburiyatning garovga qo‘yilgan mol-mulk qiymati hisobidan bajarilishini fuqarolik

to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiradi.

(107-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Fuqarolik qonunchiligiga muvofiq o‘ziga nisbatan garov belgilanishi mumkin bo‘lgan mol-mulk, agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, garov predmeti bo‘lishi mumkin.

(107-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Boshqa shartnoma bo‘yicha garov predmeti soliq organi va garovga qo‘yuvchi o‘rtasidagi shartnoma bo‘yicha garov predmeti bo‘lishi mumkin emas.

Garov chog‘ida mol-mulk garovga qo‘yuvchida qolishi yoxud garovga qo‘yuvchining mablag‘lari hisobiga soliq organiga (garovga oluvchiga), garovga qo‘yilgan mol-mulkning but saqlanishini ta’minlash majburiyati unga yuklangan holda, topshirilishi mumkin.

Garovga qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan biron-bir bitimni, shu jumladan soliq qarzi summalarini uzish maqsadida bitimlarni tuzish faqat garovga oluvchi bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Soliq majburiyatining bajarilishini ta’minlash usuli sifatida garov belgilashda yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarga nisbatan, agar soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, fuqarolik qonunchiligining qoidalari qo‘llaniladi.

(107-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksining 264 — 289-moddalari.

108-modda. Kafillik

Soliq majburiyatini bajarish muddatlari o‘zgargan taqdirda va ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa hollarda soliqlarni to‘lash majburiyati kafillik bilan ta’minlanishi mumkin.

Kafillik tufayli kafil, agar soliq to‘lovchi tegishli soliq summalarini va tegishli penyalarni belgilangan muddatda to‘lamasa, soliq organlari oldida soliq to‘lovchining soliqlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatini to‘liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

Kafillik fuqarolik to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq organi va kafil o‘rtasidagi shartnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Soliq to‘lovchi kafillik bilan ta’minlangan soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatini bajarmagan taqdirda, kafil va soliq to‘lovchi solidar javobgar bo‘ladilar.

To‘lanishi bo‘yicha majburiyat kafillik bilan ta’minlangan soliq belgilangan muddatda to‘lanmagan yoki to‘liq to‘lanmagan taqdirda, soliq organi soliqni to‘lash to‘g‘risidagi talabnomani bajarish muddati tugagan kundan e’tiboran besh kun ichida kafillik shartnomasi bo‘yicha pul summasini to‘lash to‘g‘risida kafilga talabnoma yuboradi.

Agar kafil kafillik shartnomasi bo‘yicha pul summasini to‘lash to‘g‘risidagi talabnomani belgilangan muddatda bajarmasa, soliq organi ushbu Kodeksning 15-bobida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda ushbu kafildan to‘lash majburiyati uning kafilligi bilan ta’minlangan summalarni majburiy ravishda undirish choralarini qo‘llaydi.

Kafil shartnomaga muvofiq o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajargach, kafil tomonidan to‘langan summalarni, shuningdek shu summalar bo‘yicha foizlarni hamda soliq to‘lovchining majburiyatlari bajarilishi munosabati bilan ko‘rilgan zararlarning o‘rni qoplanishini soliq to‘lovchidan talab qilish huquqi unga o‘tadi.

Yuridik yoki jismoniy shaxs kafil bo‘lishi mumkin.

Soliqni to‘lash bo‘yicha bitta majburiyatga nisbatan bir vaqtning o‘zida bir nechta kafilning ishtirok etishiga yo‘l qo‘yiladi.

Soliq majburiyatining bajarilishini ta’minlash bo‘yicha chora sifatida kafillik belgilanishida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarga nisbatan, agar soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, fuqarolik qonun hujjatlarining qoidalari qo‘llaniladi.

Ushbu moddaning qoidalari yig‘imlarni to‘lashdagi kafillikka nisbatan ham qo‘llaniladi.

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksining 292 — 298-moddalari.

109-modda. Bank kafolati

Soliq majburiyatini bajarish muddatlari o‘zgargan taqdirda va ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa hollarda soliqni to‘lash majburiyati bank kafolati bilan ta’minlanishi mumkin.

Agar soliq to‘lovchi to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summalarini va tegishli penyalarni belgilangan muddatda to‘lamasa, bank kafolati tufayli bank (kafolat beruvchi) soliq organlari oldida soliq to‘lovchining soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatini to‘liq hajmda bajarish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Bank kafolati quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1) kafolat qaytarib olinmaydigan va boshqa shaxsga o‘tkazilmaydigan bo‘lishi kerak;

2) kafolatda soliq organi tomonidan kafolat beruvchiga ushbu moddada nazarda tutilmagan hujjatlarni taqdim etishga doir ko‘rsatma bo‘lishi mumkin emas;

3) amal qilish muddati, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchi tomonidan bank kafolati bilan ta’minlangan soliq to‘lash majburiyatini bajarishning belgilangan muddati o‘tadigan kundan e’tiboran kamida olti oydan keyin tugashi kerak;

4) qaysi summaga berilgan bo‘lsa, o‘sha summa kafolat beruvchi tomonidan soliq to‘lovchining soliqni va tegishli penyalarni to‘lash bo‘yicha majburiyati, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, to‘liq hajmda bajarilishini ta’minlashi kerak;

5) kafolat beruvchi tomonidan ushbu bank kafolati bo‘yicha pul summasini to‘lash to‘g‘risidagi talabnoma belgilangan muddatda bajarilmagan taqdirda, soliq organi tomonidan to‘lash majburiyati bank kafolati bilan ta’minlangan summalarni kafolat beruvchidan undirish choralari qo‘llanilishini nazarda tutishi kerak.

Kafolat beruvchidan undirish, agar soliq organining mazkur talabnomasi kafolat beruvchiga bank kafolatining amal qilish muddati tugagunga qadar yuborilgan bo‘lsa, ushbu Kodeksning 121 va 123-moddalarida nazarda tutilgan tartibda hamda muddatlarda amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatning bajarilishi bank kafolati bilan ta’minlangan soliq belgilangan muddatda to‘lanmagan yoki to‘liq to‘lanmagan taqdirda, soliq organi soliqni to‘lash to‘g‘risidagi talabnomani bajarish muddati tugagan kundan e’tiboran besh kun ichida kafolat beruvchiga bank kafolati bo‘yicha pul summasini to‘lash haqida talabnoma yuboradi.

Bank kafolati bo‘yicha majburiyat kafolat beruvchi tomonidan u bank kafolati bo‘yicha pul summasini to‘lash to‘g‘risida talabnoma olgan kundan e’tiboran besh kun ichida bajarilishi lozim.

Kafolat beruvchi soliq organiga bank kafolati bo‘yicha pul summasini to‘lash to‘g‘risidagi talabnomani qanoatlantirishni rad etishga haqli emas (bundan bank kafolati berilgan muddat tugaganidan keyin kafolat beruvchiga talabnoma taqdim etilgan hollar mustasno).

Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar penyalar va jarimalarni to‘lash bo‘yicha majburiyatning bajarilishini ta’minlovchi bank kafolatlariga nisbatan ham qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda va shartlarda O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi yoki chet el yuridik shaxsi tomonidan soliqni to‘lash majburiyati xalqaro reyting agentliklarining yuqori reytingiga ega bo‘lgan chet el bankining bank kafolati bilan ta’minlanishi mumkin. Chet el bankining bunday kafolati ushbu modda uchinchi qismining 1 — 4-bandlarida nazarda tutilgan talablarga mos bo‘lishi kerak.

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksining 299 — 310-moddalari.

110-modda. Penya

Soliq to‘lovchi soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan soliqlarni to‘lash muddatini buzgan taqdirda to‘lashi lozim bo‘lgan pul summasi penyadir.

(110-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Tegishli penyalarning summasi to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summalaridan tashqari va soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatning bajarilishini ta’minlashga doir boshqa choralar, shuningdek soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik choralari qo‘llanilishidan qat’i nazar to‘lanadi.

(110-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Penyalar, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan soliqni to‘lash kunidan keyingi kundan boshlab soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatni bajarish kechiktirilgan har bir kalendar kun uchun hisoblanadi.

(110-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) imkoniyatini berish to‘g‘risida ariza berilganligi to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasiga penyalar hisoblanishini to‘xtatib turmaydi.

Soliq to‘lovchi, uning bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarning to‘xtatilishi yoki pul mablag‘lariga taqiq qo‘yilishi shaklidagi soliq organining undirish to‘g‘risida ta’minot choralari haqidagi qarori qabul qilinganligi sababli to‘lay olmagan soliq qarziga penya hisoblanmaydi. Bunday holda penyalar ko‘rsatib o‘tilgan holatlarning butun amal qilish davri uchun hisoblanmaydi.

Soliqni hisoblash va to‘lash tartibi haqida yoki soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni qo‘llashga doir boshqa masalalar bo‘yicha moliya yoki soliq organi (uning mansabdor shaxsi) tomonidan o‘z vakolatlari doirasida soliq to‘lovchiga yoki nomuayyan doiradagi shaxslarga berilgan yozma tushuntirishlarni bajarishi natijasida soliq to‘lovchida hosil bo‘lgan soliq bo‘yicha qarz summasiga penya hisoblanmaydi.

(110-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Penyalar soliq monitoringini o‘tkazish jarayonida soliq organining soliq to‘lovchiga yuborilgan asosli fikrini bajarishi natijasida soliq to‘lovchida hosil bo‘lgan soliq bo‘yicha qarz summasiga hamda qo‘shimcha hisoblangan soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha undirilgan mablag‘lar tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarning depozit hisobvaraqlaridan budjetga o‘tkazilgan kunga qadar shu mablag‘lar summasiga hisoblanmaydi.

(110-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 17-apreldagi O‘RQ-1131-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.04.2026-y., 03/26/1131/0377-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 19-iyul)

Majburiyatlar reyestriga kiritilgan ijro hujjatlari bo‘yicha soliq qarziga mazkur ijro hujjatlari ushbu Reyestrga kiritilgan sanadan e’tiboran penya hisoblanmaydi.

(110-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 16-iyundagi O‘RQ-1069-sonli Qonuniga asosan sakkizinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.06.2025-y., 03/25/1069/0510-son)

Ushbu moddaning oltinchi va yettinchi qismlarida ko‘rsatilgan holatlar, shu organning mohiyati va mazmuniga ko‘ra soliq qarzi hosil bo‘lgan soliq (hisobot) davrlariga taalluqli tegishli hujjat mavjud bo‘lgan taqdirda, shunday hujjat qabul qilingan sanadan qat’i nazar, aniqlanadi.

Ushbu moddaning oltinchi va yettinchi qismlari qoidalari, agar soliq organining mazkur yozma tushuntirishlari yoki asoslantirilgan fikri soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan to‘liq bo‘lmagan yoki noto‘g‘ri axborotga asoslangan bo‘lsa, qo‘llanilmaydi.

Har bir kechiktirilgan kun uchun penyalar soliqning to‘lanmagan summasidan kelib chiqib foizlarda belgilanadi.

Penyaning foiz stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalash stavkasining uch yuzdan biriga teng etib qabul qilinadi.

Penyalar tegishli soliq to‘lanadigan budjetga (davlat maqsadli jamg‘armasiga) to‘lanadi.

Penyalar soliq to‘lovchining bankdagi hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan, shuningdek soliq to‘lovchining boshqa mol-mulki hisobidan ushbu Kodeksning 15-bobida nazarda tutilgan tartibda majburiy ravishda undirilishi mumkin.

Yuridik shaxslardan va yakka tartibdagi tadbirkorlardan penyani majburiy ravishda undirish ushbu Kodeksning 121 — 124-moddalarida nazarda tutilgan tartibda, boshqa jismoniy shaxslardan esa — ushbu Kodeksning 125-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Ushbu Kodeksning 120-moddasi yettinchi — sakkizinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda yuridik shaxslardan va yakka tartibdagi tadbirkorlardan penyani majburiy ravishda undirish sud tartibida amalga oshiriladi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar soliq agentlariga ham tatbiq etiladi.

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksining 260 — 263-moddalari.

111-modda. Banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan o‘n kundan ko‘p bo‘lmagan muddatga qabul qilinishi mumkin. Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni o‘n kundan ko‘p muddatga to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror soliq organining iltimosnomasiga asosan sud tomonidan qabul qilinishi mumkin. Bunda soliq to‘lovchining (soliq agentining) bank hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalari sud tomonidan qaror qabul qilingunga qadar to‘xtatib turiladi.

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risida qaror elektron shaklda soliq organi tomonidan bankka yuboriladi. Bir vaqtning o‘zida soliq organi tomonidan soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga uning bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalar to‘xtatib turilishi to‘g‘risida xabarnoma buning sabablarini ko‘rsatgan holda yuboriladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish soliq organi tomonidan mazkur soliq to‘lovchilarning (soliq agentlarining) soliq majburiyatlari bajarilishini ta’minlash uchun quyidagi hollarda qo‘llanilishi mumkin:

1) ushbu soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq organiga moliyaviy va (yoki) soliq hisoboti bunday hisobotni taqdim etishning belgilangan muddati tugaganidan keyin o‘n kun ichida taqdim etilmaganda;

2) soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq organining kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha talabnomasiga tushuntirishlar va (yoki) tuzatishlar belgilangan muddatda taqdim etilmaganda, shuningdek soliq to‘lovchi tomonidan soliq organi talab qilgan hujjatlar taqdim etilmaganda;

3) soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslarini ko‘rsatilgan hududga yoki binoga (bundan turar joylar mustasno) kirishiga to‘sqinlik qilishda. Soliq organi mansabdor shaxsining kirishiga to‘sqinlik qilinishi uning o‘zi va tekshirilayotgan shaxs tomonidan imzolanadigan dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bunday dalolatnoma asosida soliq organi bankdagi hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turadi;

4) soliq to‘lovchining (soliq agentining) o‘zi ko‘rsatgan manzilda yo‘qligida.

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarning to‘xtatib turilishi banklar tomonidan soliq to‘lovchining (soliq agentining) barcha hisobvaraqlari bo‘yicha barcha chiqim operatsiyalari to‘xtatib turilishini anglatadi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi tomonidan soliq hisoboti bunday hisobotni taqdim etishning belgilangan muddati o‘tgach o‘n kun ichida taqdim etilmagan taqdirda, bankdagi hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror mas’ul ishtirokchining yoki ushbu konsolidatsiyalashgan guruh barcha ishtirokchilarining operatsiyalariga nisbatan soliq organi rahbari (uning o‘rinbosari) tomonidan qabul qilinishi mumkin.

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarning to‘xtatib turilishi fuqarolik qonunchiligiga muvofiq birinchi navbatda ko‘rsatilgan to‘lovlarga, shuningdek qonunchilikka muvofiq undiruvga yo‘l qo‘yilmaydigan banklardagi hisobvaraqlarga tatbiq etilmaydi.

(111-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

112-modda. Soliq to‘lovchining (soliq agentining) banklardagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarorni bekor qilish tartibi

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) banklardagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror quyidagilar asosida qaror qabul qilingan taqdirda bekor qilinadi:

1) ushbu Kodeksning 111-moddasi uchinchi qismi 1-bandi asosida — soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan moliyaviy va (yoki) soliq hisoboti taqdim etilgan kundan keyin bir kundan kechiktirmasdan;

2) ushbu Kodeksning 111-moddasi uchinchi qismi 2-bandi asosida — soliq organining talabiga javoban hujjatlar, tushuntirishlar va (yoki) tuzatishlar taqdim etilgan kuni;

3) ushbu Kodeksning 111-moddasi uchinchi qismi 3-bandi asosida — soliq organining tekshiruv o‘tkazayotgan mansabdor shaxslariga kirish huquqi berilgan kundan keyin bir kundan kechiktirmay;

4) ushbu Kodeksning 111-moddasi uchinchi qismi 4-bandi asosida — soliq to‘lovchining (soliq agentining) u ma’lum qilgan manzilida yo‘qligining asosliligi soliq organi tomonidan e’tirof etilgan kundan keyin bir kundan kechiktirmay. Bunday e’tirof uchun soliq to‘lovchining vakili soliq to‘lovchi hisobda turgan joydagi soliq organiga zarur tushuntirishlarni shaxsan taqdim etishi shart;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 111-moddasi.

Soliq to‘lovchi (soliq agenti) boshqa soliq organida hisobga qo‘yilganda, agar hisobda turish joyi o‘zgarganligi haqidagi ma’lumotlar oldingi hisobda turish joyidagi soliq organiga ma’lum bo‘lmasa, shuningdek texnik xatolar yuz berganda va boshqa shu kabi hollarda soliq to‘lovchining hisobga olingan joyda yo‘qligi asosli deb e’tirof etilishi mumkin.

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) uning filiali yoki alohida bo‘linmasi hisobda turgan joyda yoxud soliq solish obyekti hisoblangan mulki joylashgan yerda yo‘qligi, xususan filial yoki alohida bo‘linma tugatilgan yoki ko‘rsatilgan mulk realizatsiya qilingan taqdirda asosli deb e’tirof etilishi mumkin.

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turishni bekor qilish to‘g‘risidagi qaror bankka elektron shaklda bunday qaror qabul qilingan kundan keyingi kundan kechiktirmay yuboriladi.

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish va to‘xtatib turishni bekor qilish to‘g‘risidagi soliq organining qarorlarini bankka elektron shaklda yuborish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

(112-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

Soliq organi tomonidan soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarorni bekor qilish muddati yoki bunday qarorni bankka yuborish muddati buzilgan taqdirda to‘xtatib turish rejimi amal qilgan pul mablag‘lari summasiga foizlar hisoblanadi, bu foizlar soliq organi tomonidan soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) muddat buzilgan har bir kalendar kun uchun to‘lanishi lozim.

Agar soliq organi soliq to‘lovchining (soliq agentining) hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risida noqonuniy qaror chiqargan bo‘lsa, to‘xtatib turish rejimi amal qilgan pul mablag‘lari summasiga nisbatan bank soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarorni olgan kundan e’tiboran to uni bekor qilish to‘g‘risidagi qarorni olgunga qadar har bir kalendar kun uchun ushbu soliq to‘lovchiga to‘lanishi lozim bo‘lgan foizlar hisoblanadi.

Ushbu moddaning oltinchi va yettinchi qismlarida ko‘rsatilgan hollarda, foiz stavkasi soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalar noqonuniy to‘xtatib turilgan, soliq organi soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarorni bekor qilish yoki soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turishni bekor qilish to‘g‘risidagi qarorni bankka yuborish muddatini buzgan kunlarda amal qilgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasiga teng etib qabul qilinadi.

113-modda. Banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarorlarning banklar tomonidan bajarilishi tartibi

Soliq organining soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarori bank tomonidan so‘zsiz bajarilishi lozim.

Soliq organining qaroriga ko‘ra hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalar to‘xtatib turilishi oqibatida soliq to‘lovchi (soliq agenti) ko‘rgan zarar uchun bank javobgar bo‘lmaydi.

Agar ushbu Kodeksning 111-moddasi birinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish bank soliq to‘lovchining bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risida soliq organining qarorini olgan kundan e’tiboran, to soliq organining ushbu to‘xtatib turishni bekor qilish to‘g‘risidagi qarori olinadigan kunga qadar amal qiladi.

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror bankka elektron shaklda yuborilganda bank ushbu qarorni olgan sana va vaqt O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan tartibda belgilanadi.

(113-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

Agar soliq to‘lovchining (soliq agentining) hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinganidan so‘ng soliq to‘lovchining (soliq agentining) nomi va (yoki) uning soliq organining ushbu qaroriga muvofiq operatsiyalar to‘xtatib turilgan bankdagi hisobvarag‘i rekvizitlari o‘zgarsa, mazkur qaror bank tomonidan o‘z nomini o‘zgartirgan soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) va rekvizitlari o‘zgartirilgan hisobvaraqqa nisbatan ijro etilishi shart.

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risida soliq organi yoki sudning qarorini olganidan keyin banklar ushbu soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) yangi hisobvaraqlar, omonatlar va depozitlar ochishga haqli emas, bundan qonunchilikka muvofiq undiruv yo‘l qo‘yilmaydigan hisobvaraqlar mustasno.

(113-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

114-modda. Mol-mulkni xatlash

Soliq organining soliq to‘lovchi bo‘lgan yuridik shaxsning mol-mulkiga nisbatan mulk huquqini cheklashga doir harakati soliq qarzini undirish to‘g‘risidagi qarorning bajarilishini ta’minlash usuli sifatida mol-mulkni xatlashdir.

Soliq qarzi bo‘yicha soliq to‘lovchilarning mol-mulkini xatlash sud qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi. Soliq to‘lovchi tomonidan soliq qarzi tan olingan taqdirda, soliq organi qarori asosida soliq to‘lovchining soliq qarzi bo‘yicha mol-mulkiga taqiq qo‘yishi mumkin.

Soliq to‘lovchining soliq qarzi bo‘yicha uning mol-mulkini xatlash soliq to‘lovchiga soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma yuborilgan kundan boshlab o‘n besh kalendar kun ichida u tomonidan to‘liq bajarilmagan taqdirda amalga oshiriladi.

Mol-mulkni xatlash to‘liq yoki qisman bo‘lishi mumkin.

Mol-mulkni to‘liq xatlash soliq to‘lovchining o‘z mol-mulkiga nisbatan huquqlarini shunday cheklashki, bunda u xatlangan mol-mulkni tasarruf etishga haqli emas, ushbu mol-mulkka egalik qilish va undan foydalanish esa soliq organining ruxsati bilan hamda uning nazorati ostida amalga oshiriladi.

Mol-mulkni qisman xatlash soliq to‘lovchining o‘z mol-mulkiga nisbatan huquqlarini shunday cheklashki, bunda ushbu mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish soliq organining ruxsati bilan va uning nazorati ostida amalga oshiriladi.

Mol-mulkni xatlash soliq to‘lovchining bankdagi hisobvaraqlarida pul mablag‘lari yetarli bo‘lmagan yoki yo‘q bo‘lgan taqdirda faqat soliqni (penyani, jarimani) to‘lash majburiyati uning ana shu mol-mulki hisobidan bajarilishini ta’minlash uchun qo‘llanilishi mumkin.

Mol-mulkni xatlash ushbu Kodeksning 117-moddasiga muvofiq soliq organi tomonidan soliq qarzini undirish to‘g‘risidagi talabnoma soliq to‘lovchiga yuborilgandan so‘ng qo‘llanilishi mumkin.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 117-moddasi.

Soliq to‘lovchining barcha mol-mulki xatlab qo‘yilishi mumkin.

Faqat soliq qarzini uzish uchun zarur va yetarli bo‘lgan mol-mulk xatlab qo‘yilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshirmaydigan chet el yuridik shaxsining ko‘chmas mulki obyekti, mazkur ko‘chmas mulki obyektining qiymati undiriladigan soliq qarzi summasidan ortiq bo‘lganda, O‘zbekiston Respublikasi hududida ushbu chet el shaxsining undiruv qaratilishi mumkin bo‘lgan boshqa mol-mulki bo‘lmagan taqdirda xatlab qo‘yiladi.

Soliq to‘lovchining mol-mulkini xatlash to‘g‘risidagi qaror soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan tegishli qaror shaklida qabul qilinadi.

Soliq to‘lovchining mol-mulkini xatlash videotasvirga olingan holda, bunday imkoniyat mavjud bo‘lmaganda esa — xolislar ishtirokida amalga oshiriladi.

(114-moddaning o‘n uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

Mol-mulkni xatlashni amalga oshiruvchi organ mol-mulkni xatlash chog‘ida soliq to‘lovchining (uning qonuniy va (yoki) vakolatli vakilining) ishtirok etishini rad qilishga haqli emas.

Xatlashni amalga oshirishda xolislar, mutaxassislar sifatida ishtirok etuvchi shaxslarga, shuningdek soliq to‘lovchiga (uning vakiliga) ularning huquqlari va majburiyatlari tushuntiriladi.

Mol-mulkni xatlash oldidan xatlashni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar soliq to‘lovchiga (uning vakiliga) xatlab qo‘yish to‘g‘risidagi qarorni va o‘zlarining vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlarni ko‘rsatishi shart.

Xatlashni amalga oshirishda mol-mulkni xatlash to‘g‘risida bayonnoma tuziladi.

Mol-mulkni xatlash to‘g‘risidagi bayonnomada yoki unga ilova qilinadigan ro‘yxatda xatlanishi lozim bo‘lgan mol-mulk sanab o‘tiladi va tavsiflanadi, ashyolarning nomi, miqdori va xususiy alomatlari, imkoni bo‘lganda ularning qiymati ko‘rsatiladi.

Xatlanishi lozim bo‘lgan barcha ashyolar xolislarga va soliq to‘lovchiga (uning vakiliga) ko‘rsatiladi.

Mol-mulkni xatlab qo‘yish to‘g‘risida qaror chiqargan soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) xatlab qo‘yilgan mol-mulk turishi lozim bo‘lgan joyni belgilaydi.

Xatlab qo‘yilgan mol-mulkni boshqa shaxsga berishga (bundan xatlashni qo‘llagan soliq organining nazorati ostida yoki ruxsati bilan amalga oshirilishi mustasno), rastrata qilishga yoki yashirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Mol-mulkni xatlab qo‘yish to‘g‘risida o‘ziga nisbatan qaror qabul qilingan soliq to‘lovchining iltimosiga ko‘ra, soliq organi mol-mulkni xatlashni ushbu Kodeksning 107-moddasiga muvofiq mol-mulk garoviga almashtirishga haqli.

Soliq qarzi uzilgan va (yoki) ushbu Kodeksning 107-moddasiga muvofiq mol-mulk garovi to‘g‘risida shartnoma tuzilgan taqdirda, mol-mulkni xatlash to‘g‘risidagi qaror soliq organining vakolatli mansabdor shaxsi tomonidan bekor qilinadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 107-moddasi.

Soliq organi mol-mulkni xatlash to‘g‘risidagi qaror bekor qilingani to‘g‘risida soliq to‘lovchini ushbu qaror qabul qilingan kundan keyin besh kun ichida xabardor qiladi.

Mol-mulkni xatlash to‘g‘risidagi qaror mol-mulk xatlab qo‘yilgan paytdan to ushbu qaror uni chiqargan soliq organining vakolatli mansabdor shaxsi tomonidan bekor qilingunga qadar yoxud ushbu qaror yuqori turuvchi soliq organi yoki sud tomonidan bekor qilingunga qadar amal qiladi.

Ushbu moddada belgilangan qoidalar yuridik shaxs bo‘lgan soliq agentining mol-mulkini xatlashga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘iga doir soliq majburiyatlarining bajarilishini ta’minlash maqsadida ushbu moddaning qoidalari quyidagi xususiyatlarni hisobga olgan holda qo‘llaniladi:

birinchi navbatda ushbu soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi mas’ul ishtirokchisining mol-mulki xatlanadi;

soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi mas’ul ishtirokchisining mol-mulki ushbu soliq majburiyatini bajarish uchun yetarli bo‘lmagan taqdirda, soliq organi yetishmagan summa qismida ushbu konsolidatsiyalashgan guruhning boshqa ishtirokchilariga tegishli mol-mulkni xatlashga haqli. Bunda soliq organining rahbari (uning

o‘rinbosari) soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi mavjud axborot asosida soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining boshqa ishtirokchilari mol-mulkini qaysi ketma-ketlikda xatlashni mustaqil ravishda belgilaydi.

14-bob. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma

115-modda. Soliqlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash

Soliq to‘lash majburiyatiga ega bo‘lgan soliq to‘lovchi uni to‘lashga doir to‘lov topshiriqnomasini xizmat ko‘rsatuvchi bankka, o‘zining bank hisobvarag‘ida pul mablag‘lari bor-yo‘qligidan qat’i nazar, ushbu Kodeksda belgilangan to‘lov muddatidan kechiktirmasdan taqdim etishi shart.

Agar soliq to‘lovchida to‘lanmagan soliq qarzi mavjud bo‘lsa, soliq organi unga soliqlarni to‘lash muddati o‘tganidan keyin uch kundan kechiktirmay soliq qarzini uzish to‘g‘risida talabnoma yuboradi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 22-moddasi.

116-modda. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma

Soliq to‘lovchiga uning zimmasidagi soliq qarzi summasi to‘g‘risida, shuningdek shu qarz summasini belgilangan muddatda to‘lash majburiyati haqida xabar yuborish soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomadir.

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma soliq to‘lovchi bo‘lgan yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha unda ushbu Kodeksning 100-moddasida nazarda tutilgan soliq qarzi yoki foizlar mavjud bo‘lgan taqdirda yuboriladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 100-moddasi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘iga doir soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma ushbu soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisiga yuboriladi.

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma soliq to‘lovchiga soliq haqidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikka tortilishidan qat’i nazar yuboriladi.

(116-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomada soliq bo‘yicha qarz summasi, talabnoma yuborilayotgan paytga hisoblangan penyalar miqdori, jarimalar summasi, shuningdek soliq to‘lovchi talablarni bajarmagan taqdirda, soliq qarzini undirish va soliq majburiyati bajarilishini ta’minlash bo‘yicha ko‘riladigan choralar haqidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak.

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomaning shakli O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ushbu bobda nazarda tutilgan qoidalar soliq agentlariga yuboriladigan talabnomalarga ham tatbiq etiladi.

Ushbu Kodeksning 120-moddasi sakkizinchi — o‘ninchi qismlarida va 122-moddasida nazarda tutilgan hollarda soliq to‘lovchining soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma boshqa shaxslarga yuborilishi mumkin. Bunday hollarda ushbu bobda nazarda tutilgan barcha qoidalar mazkur shaxslarga yuborilgan soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomalarga ham tatbiq etiladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 115, 117 — 120-moddalari.

117-modda. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomani yuborish tartibi va muddatlari

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma soliq to‘lovchiga u hisobda turgan soliq organi tomonidan yuboriladi.

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma soliq to‘lovchiga ushbu qarz aniqlangan kundan e’tiboran yoki soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha aniqlangan soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi qaror kuchga kirgan sanadan e’tiboran uch ish kunidan kechiktirmay yuborilishi kerak.

Ushbu Kodeks 116-moddasining yettinchi va sakkizinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomalar boshqa shaxslarga ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan tartibda

yuboriladi. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma olingan sanadan e’tiboran ko‘rsatilgan boshqa shaxslar ushbu talabnomani bajarish qismida soliq qarziga ega bo‘lgan soliq to‘lovchilarga tenglashtiriladi.

118-modda. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomani o‘zgartirish

Agar soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma soliq to‘lovchiga yuborilganidan keyin ushbu talabnomada ko‘rsatilgan soliqlar bo‘yicha qarz summasi, penyalar yoki soliq haqidagi qonunchilikni buzganlik uchun jarimalar summasi o‘zgarishiga olib kelgan holatlarni aniqlagan taqdirda, soliq organi ushbu soliq to‘lovchiga soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi aniqlashtirilgan talabnomani yuborishi yoxud ilgari yuborilgan talabnomani chaqirib olishi shart. Mazkur qoida soliq to‘lovchi tomonidan soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomada ko‘rsatilgan soliq, penya yoki jarimalar bo‘yicha qarzlari qisman to‘langan hollarga tatbiq etilmaydi.

(118-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi aniqlashtirilgan talabnoma yoki ilgari yuborilgan talabnomaga doir chaqiruv xati soliq to‘lovchiga ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan o‘zgarishlarga olib kelgan holatlar aniqlangan kundan e’tiboran uch kun ichida yuboriladi.

119-modda. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomani bajarish

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma yuridik shaxs, shuningdek tadbirkorlik faoliyatiga doir qismi bo‘yicha yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan olingan kundan e’tiboran oltmish kalendar kun ichida soliq qarzi to‘lanmagan taqdirda va agar ushbu Kodeksning 120 — 122-moddalarida nazarda tutilgan choralar qo‘llanishi natijasida soliq qarzi uzilmay qolaversa, soliq organlari undiruvni ushbu Kodeksning 123-124-moddalarida belgilangan tartibda soliq to‘lovchining mol-mulkiga qaratadi.

(119-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 120 — 124-moddalari.

15-bob. Soliq qarzini undirish

120-modda. Soliq qarzini undirish to‘g‘risidagi umumiy qoidalar

Soliq qarzi belgilangan muddatda to‘lanmagan yoki to‘liq to‘lanmagan taqdirda bu qarzni undirish ushbu bobda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Soliq qarzi mazkur soliq qarziga ega bo‘lgan soliq to‘lovchidan, ushbu moddada nazarda tutilgan hollarda esa — boshqa shaxslardan undiriladi.

Agar soliq to‘lovchining soliqlar bo‘yicha qarzini uzishga doir majburiyati bank kafolati, uchinchi shaxsning kafilligi yoxud mol-mulk garovi bilan ta’minlangan bo‘lsa, soliq to‘lovchi soliqlar bo‘yicha soliq qarzini uzmagan yoki to‘liq uzmagan taqdirda, soliq organi soliq qarzining to‘lanmagan summasini tegishlicha bank kafolatini bergan bankdan, kafildan yoxud garovga qo‘yilgan mol-mulk qiymatidan undirishi shart.

Yuridik shaxsdan yoki yakka tartibdagi tadbirkordan soliq qarzini undirish ushbu Kodeksning 121 — 124-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxsdan soliq qarzini undirish ushbu Kodeksning 125-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Yuridik shaxsdan yoki yakka tartibdagi tadbirkordan soliq qarzini undirish dastlab uning bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan, ular yetishmagan taqdirda esa mazkur shaxsning boshqa mol-mulki hisobidan amalga oshiriladi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan hollarda soliq to‘lovchining yoki boshqa shaxsning soliq qarzi uning bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan undirish imkoni bo‘lmagan qismida boshqa shaxslardan undirilishi mumkin.

Agar soliq to‘lovchining tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan oladigan tushumi yoki boshqa daromadlari boshqa shaxslarning bankdagi hisobvaraqlariga kelib tushgan bo‘lsa, soliq to‘lovchining soliq qarzi shu shaxslardan undirilishi mumkin.

Agar soliq to‘lovchi soliq tekshiruvi to‘g‘risida bilgan paytdan e’tiboran o‘zining pul mablag‘larini yoki boshqa mulkini o‘zga shaxslarga bergan bo‘lsa, soliq to‘lovchining soliq qarzi shu shaxslardan undirilishi mumkin.

Ushbu modda sakkizinchi va to‘qqizinchi qismlarining qoidalari tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan tushum yoki boshqa daromadlar yoxud pul mablag‘lari yoki boshqa mulk o‘zga shaxslarga bir nechta operatsiyalar orqali o‘tkazib berilganligi aniqlangan hollarda ham qo‘llaniladi.

Ushbu moddaning sakkizinchi — o‘ninchi qismlarida ko‘rsatilgan hollarda mazkur shaxslardan soliq qarzini undirish soliq to‘lovchining realizatsiya qilingan tovarlari (ishlari, xizmatlari) uchun kelib tushgan tushum, boshqa daromadlari, u tomonidan o‘tkazilgan pul mablag‘lari, boshqa mol-mulkning qiymati doirasida amalga oshiriladi. Soliq organi mazkur shaxslar to‘g‘risida o‘zida mavjud bo‘lgan axborot asosida va soliq to‘lovchining soliq qarzi miqdoriga bog‘liq tarzda ushbu qarzni undirishni ko‘rsatilgan qaysi shaxslardan va qanday nisbatda undirishni amalga oshirishni mustaqil ravishda belgilashga haqli.

Ushbu moddaning sakkizinchi — o‘ninchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda soliq qarzini undirish sud tartibida amalga oshiriladi.

Soliqni sud tartibida undirish quyidagi hollarda ham amalga oshiriladi, agar soliqni to‘lash majburiyati:

1) soliq organi tomonidan bitimni tavsiflashni, soliq to‘lovchining maqomini yoki faoliyati xususiyatini o‘zgartirishga asoslangan bo‘lsa;

2) o‘zaro aloqador shaxslar o‘rtasida bitimlar tuzilishi munosabati bilan transfert narx belgilash chog‘idagi soliq nazorati natijalariga ko‘ra yuzaga kelgan bo‘lsa.

Soliq organlari tomonidan soliq qarzi soliq to‘lovchining debitorlari hisobidan undirilishi mumkin. Soliq qarzi bo‘yicha undiruv soliq to‘lovchining debitorlik qarziga ushbu Kodeksning 121¹-moddasida nazarda tutilgan tartibda qaratiladi.

(120-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan o‘n to‘rtinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Ushbu bobning qoidalari O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tish munosabati bilan to‘lanadigan soliqlar bo‘yicha soliq qarzini undirishga, shuningdek soliq agentlarining soliq qarzini undirishga ham tatbiq etiladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 121 — 124-moddalari.

121-modda. Soliq qarzini bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan undirish

Soliq qarzi belgilangan muddatda to‘lanmagan yoki to‘liq to‘lanmagan taqdirda, soliq qarzini undirish — undiruvni bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lariga (shu jumladan, korporativ kartalardagi pul mablag‘lariga) qaratish yo‘li bilan majburiy tartibda amalga oshiriladi.

Ushbu moddaning qoidalari faqat yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Soliq qarzini majburiy tartibda undirish to‘lanmagan soliq qarziga ega bo‘lgan soliq to‘lovchidan yoki soliq agentidan, ushbu Kodeksning 120 va 122-moddalarida nazarda tutilgan hollarda esa boshqa shaxslardan ham amalga oshirilishi mumkin.

Soliq qarzini undirish soliq organi tomonidan majburiyatga ega shaxsning hisobvarag‘i ochilgan bankka ushbu shaxsning hisobvaraqlaridan zarur pul mablag‘larini hisobdan chiqarish va budjetga o‘tkazish uchun inkasso topshiriqnomasini elektron shaklda yuborish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Soliq organining majburiyatga ega shaxsning hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish va budjetga o‘tkazishga doir inkasso topshiriqnomasining shakli hamda uni bankka yuborish tartibini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishilgan holda belgilaydi.

Agar soliq to‘lovchi soliqni to‘lash uchun to‘lov topshiriqnomasini mustaqil ravishda yubormagan bo‘lsa, soliq organining inkasso topshiriqnomasi soliq to‘lovchining hisobvarag‘iga soliqni to‘lash uchun belgilangan muddat

tugagach uch ish kunidan kechiktirmay qo‘yiladi.

Soliq organining majburiyatga ega shaxsning hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish va budjet tizimiga o‘tkazishga doir inkasso topshiriqnomasi bank tomonidan fuqarolik to‘g‘risidagi qonunchiligida belgilangan to‘lovlar navbatini hisobga olgan holda bank tomonidan so‘zsiz bajarilishi shart.

(121-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Quyidagi hollarda soliq organlari majburiyatga ega shaxslarning hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish va budjet tizimiga o‘tkazishga doir bajarilmagan (to‘liq yoki qisman) inkasso topshiriqnomalarini chaqirib olish to‘g‘risida qaror qabul qiladi:

1) ushbu Kodeksning 11-bobiga muvofiq soliq qarziga nisbatan kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati taqdim etilganda;

2) soliq qarzi uzilganda, shu jumladan ushbu Kodeksning 12-bobiga muvofiq ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan summalar hisobga olinishi munosabati bilan soliq qarzi uzilganda;

3) ushbu Kodeksning 96-moddasiga muvofiq undirilishi umidsiz deb e’tirof etilgan soliq qarzi hisobdan chiqarilganda;

4) ushbu Kodeksning 83-moddasiga muvofiq taqdim etilgan aniqlashtirilgan soliq hisoboti bo‘yicha soliq va penya summalari kamaytirilganda.

Soliq qarzini undirish milliy valyutadagi talab qilib olguncha depozit hisobvaraqlaridan, bunday hisobvaraqlarda mablag‘lar yetarli bo‘lmagan taqdirda esa — majburiyatga ega shaxsning chet el valyutasidagi talab qilib olguncha depozit hisobvaraqlaridan amalga oshirilishi mumkin. Majburiyatga ega shaxsning valyuta hisobvaraqlaridan soliq qarzini undirish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta sotiladigan sanada belgilangan kursi bo‘yicha milliy valyutada undiriladigan summaga ekvivalent summada amalga oshiriladi.

Soliq qarzini undirish muddatli depozitlarga joylashtirilgan mablag‘lar hisobidan, ularning amal qilish muddati tugagunga qadar amalga oshirilmaydi.

Valyuta hisobvaraqlarida turgan mablag‘larni undirish chog‘ida soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) inkasso topshiriqnomasi bilan bir vaqtning o‘zida bankka majburiyatga ega shaxsning valyutasini sotish uchun topshiriqnoma yuboradi. Mazkur topshiriqnoma bank tomonidan u olingan kundan keyingi operatsiya kunidan kechiktirmay bajariladi. Chet el valyutasini sotish bilan bog‘liq xarajatlar shu majburiyatga ega shaxsning hisobidan amalga oshiriladi.

Soliq organining majburiyatga ega shaxsning bankdagi hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish va budjet tizimiga o‘tkazishga doir inkasso topshiriqnomasi bank tomonidan inkasso topshiriqnomasi olingan kundan keyingi bir operatsiya kunidan kechiktirmay, valyuta hisobvaraqlaridan undirishda esa — ikki operatsiya kunidan kechiktirmay bajariladi.

Agar bank tomonidan soliq organining inkasso topshiriqnomasi olingan kunda majburiyatga ega shaxsning hisobvaraqlarida uni bajarish uchun pul mablag‘lari yetarli bo‘lmasa, inkasso topshiriqnomasi shu hisobvaraqlarga pul mablag‘lari kelib tushishiga qarab, har bir bunday tushum kunidan keyingi bir yoki ikki operatsiya kunidan kechiktirmay, hisobvaraq valyutasiga bog‘liq holda bajariladi. Mazkur inkasso topshiriqnomasi bank tomonidan fuqarolik to‘g‘risidagi qonunchiligida belgilangan to‘lovlar navbatini hisobga olgan holda bank tomonidan bajariladi.

(121-moddaning o‘n uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchilaridan bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan soliq qarzini undirishning o‘ziga xos xususiyatlari ushbu Kodeksning 122-moddasida belgilanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 116 — 119, 120 va 122-moddalari.

121¹-modda. Soliq qarzini undirishni soliq to‘lovchining debitorlik qarziga qaratish

Soliq qarzi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq organiga soliq qarzini o‘z debitori hisobidan undirishni so‘rab murojaat qilishga haqli. Murojaatga o‘zaro tasdiqlangan yoki bir tomonlama imzolangan hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasi ilova qilinishi lozim.

Soliq to‘lovchi soliq qarzini o‘z debitori hisobidan undirishni so‘rab murojaat qilgan taqdirda, soliq organi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan bir tomonlama imzolangan solishtirma dalolatnomaning va kreditorlik qarzi mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlarning ko‘chirma nusxasini uch ish kunidan kechiktirmay debitorning shaxsiy kabinetiga solishtirma dalolatnomani imzolash uchun yoki imzolashni rad etish uchun bildirish xati bilan birga yuboradi.

Soliq to‘lovchining debitori bildirish xati olingan kundan e’tiboran o‘n ish kuni ichida o‘zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasini imzolashi (tasdiqlashi) yoki solishtirma dalolatnomada ko‘rsatilgan qarz mavjud emasligini asoslagan holda rad javobini berishi shart. Soliq to‘lovchining debitori tomonidan soliq organining bildirish xatiga rad javobi taqdim etilmagan yoki u javobsiz qoldirilgan taqdirda, debitorlik qarzi tan olingan va soliq to‘lovchining soliq qarzini debitor hisobidan undirishga rozilik berilgan deb hisoblanadi.

Agar soliq to‘lovchining debitori tomonidan tan olingan qarz summasi solishtirma dalolatnomada ko‘rsatilgan summadan farq qilsa, debitor bildirish xati olingan kundan e’tiboran o‘n ish kuni ichida soliq organiga o‘zi tan olgan summani ko‘rsatgan holda solishtirma dalolatnomani taqdim etishi shart.

Soliq to‘lovchining debitori tomonidan imzolangan yoki elektron hujjat shaklida tasdiqlangan o‘zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasi kreditorning imzosi mavjudligidan yoki mavjud emasligidan qat’i nazar, uning kreditori soliq qarzini undirishni unga qaratishi uchun asos bo‘ladi. Ushbu moddaning uchinchi qismida belgilangan majburiyat soliq to‘lovchining debitori tomonidan bajarilmagan taqdirda, undiruv soliq to‘lovchi taqdim etgan solishtirma dalolatnoma asosida amalga oshiriladi.

Soliq organi uch ish kunidan kechiktirmay debitorlarning bank hisobvaraqlariga soliq to‘lovchining soliq qarzi summasidan va debitorlik qarzi summasidan oshmaydigan miqdorda undirish to‘g‘risida inkasso topshiriqnomasi taqdim etadi.

Soliq organi tomonidan o‘zida mavjud bo‘lgan yoki boshqa manbalardan olingan ma’lumotlar asosida yoxud soliq tekshiruvlari natijasida soliq to‘lovchining debitorlik qarzi mavjudligi mustaqil ravishda aniqlangan hollarda, soliq qarzini undirish ushbu moddada belgilangan tartibda soliq to‘lovchining debitorlik qarziga qaratilishi mumkin. Bunda soliq to‘lovchining debitorlik qarzi aniqlangan kundan e’tiboran uch ish kunidan kechiktirmay bu haqda soliq to‘lovchining o‘ziga va debitoriga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali bildirish xati yuboriladi.

Soliq to‘lovchi va uning debitori soliq organining bildirish xatini ushbu bildirish xati olingan kundan e’tiboran o‘n ish kunidan kechiktirmay tasdiqlashi yoki asoslangan holda rad etishi lozim. Bildirish xati javobsiz qoldirilgan taqdirda, debitorlik (kreditorlik) qarzi tan olingan deb hisoblanadi.

Soliq organining ushbu moddaga muvofiq taqdim etilgan inkasso topshiriqnomasining ijrosini banklar tomonidan ta’minlash yoki soliq organi tomonidan undirish, ijrosiz chaqirib olish ushbu Kodeksning 121-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Debitorlik qarzi soliq to‘lovchiga to‘lab berilganligi haqida asoslovchi hujjatlar taqdim etilgan taqdirda yoki sud qarori asosida inkasso topshiriqnomasi soliq organi tomonidan uch ish kunidan kechiktirmay ijrosiz qaytarib olinadi.

Soliq to‘lovchi bilan uning debitori o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasida quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

soliq to‘lovchi va uning debitorining nomi, ularning identifikatsiya raqami;

soliq to‘lovchi va uning debitori soliq hisobida turgan joydagi soliq organining nomi;

soliq to‘lovchi va uning debitorining bankdagi hisobvaraqlari rekvizitlari;

debitorning soliq to‘lovchi oldidagi qarz summasi;

soliq to‘lovchi va uning debitorining elektron hujjat shaklida tasdiqlangan imzolari;

soliq to‘lovchi va uning debitori o‘rtasida o‘zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasi tuzilgan sana.

Soliq to‘lovchi bilan uning debitori o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasi elektron hujjat shaklida tuziladi. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi soliq to‘lovchilarga o‘zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasini elektron hujjat shaklida taqdim etish, tasdiqlash (qisman tasdiqlash) yoki rad etish imkoniyatini yaratadi.

Quyidagi hollarda soliq qarzini undirish soliq to‘lovchining debitorlik qarziga qaratilmaydi, agar:

debitorlik qarz summasi asoslangan holda rad etilgan bo‘lsa;

da’vo muddati o‘tgan bo‘lsa;

debitordan undirilishi lozim bo‘lgan qarz summasi bo‘yicha sud hujjati majburiy ijro organining ish yurituvida bo‘lsa yoki uni ijroga taqdim etish muddati o‘tgan bo‘lsa yoxud ushbu sud hujjati bo‘yicha ijro harakatlari belgilangan tartibda to‘xtatib turilgan, tugatilgan yoki kechiktirilgan (bo‘lib-bo‘lib ijro etilgan) bo‘lsa;

u O‘zbekiston Respublikasining soliq to‘lovchisi bo‘lmasa;

u jismoniy shaxs bo‘lsa;

debitor tugatilish jarayonida bo‘lsa yoki unga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan bo‘lsa;

debitorning faoliyati tugatilgan yoki yuridik shaxslarning davlat reyestridan chiqarilgan bo‘lsa.

Soliq organi tomonidan undiruvning debitorlik qarziga qaratilishi soliq to‘lovchini soliq qarzi to‘languniga qadar soliqlarni to‘lash majburiyatidan ozod qilmaydi.

(121¹-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

122-modda. Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilarining bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan soliq qarzini undirish

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘i yuzasidan soliq qarzini shu konsolidatsiyalashgan guruh ishtirokchilarining bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan undirishda ushbu Kodeksning 124-moddasi qoidalari mazkur moddada nazarda tutilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda qo‘llaniladi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘i yuzasidan soliq qarzini to‘lash to‘g‘risidagi talabnoma ushbu Kodeksning 116-moddasida belgilangan tartibda yuboriladi. Bunday talabnoma soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ini to‘lash uchun belgilangan muddat o‘tganidan keyin yuboriladi.

Bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan soliq qarzini undirish birinchi navbatda soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi mas’ul ishtirokchisining pul mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi mas’ul ishtirokchisining bank hisobvaraqlarida soliq qarzining butun summasini undirish uchun pul mablag‘lari yetarli bo‘lmasa yoki umuman bo‘lmasa, undirilmay qolgan summani undirish ushbu konsolidatsiyalashgan guruh qolgan ishtirokchilarining banklardagi pul mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Soliq organi soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi o‘zida mavjud bo‘lgan axborot asosida soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilarining bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobiga undirish amalga oshiriladigan tarkibini, shuningdek oldingi ishtirokchilarning bankdagi hisobvaraqlarida pul mablag‘lari yetarli bo‘lmagan taqdirda, ushbu ishtirokchilardan bunday undirishning ketma-ketligini mustaqil ravishda belgilaydi.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining soliq qarzi ushbu konsolidatsiyalashgan guruh ishtirokchilaridan biri tomonidan uzilgan, shu jumladan qisman uzilgan taqdirda, ko‘rsatilgan soliq qarzini undirish tartib-taomili ushbu ishtirokchi tomonidan uzilgan qismi bo‘yicha tugatiladi.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining o‘ziga nisbatan undiruv to‘g‘risida qaror chiqarilgan ishtirokchilariga soliq to‘lovchilar uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan huquqlar va kafolatlar tatbiq etiladi.

123-modda. Soliq qarzini boshqa mol-mulk hisobidan undirish

Agar majburiyatga ega shaxsning soliq qarzini ushbu Kodeksning 121 va 122-moddalarida nazarda tutilgan tartibda undirish mumkin bo‘lmasa, soliq organi soliq qarzini shu majburiyatga ega shaxsning boshqa mol-mulki, shu jumladan naqd pul mablag‘lari hisobidan undirishga haqli.

Soliq qarzini undirish soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomada ko‘rsatilgan summalar doirasida hamda ushbu Kodeksning 121 va 122-moddalariga muvofiq undiruv amalga oshirilgan summalarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Ushbu moddaning qoidalari soliq qarzini faqat yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlardan undirishga nisbatan qo‘llaniladi.

Majburiyatga ega shaxsning mol-mulki hisobidan soliq qarzini undirish quyidagilarga nisbatan ushbu ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1) ushbu Kodeksning 121 va 122-moddalariga muvofiq undiruv qaratilmagan naqd pul mablag‘lariga nisbatan;

2) mahsulotlar (tovarlar) ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan mol-mulkka, xususan, qimmatli qog‘ozlar, valyuta qimmatliklari, ishlab chiqarishga mo‘ljallanmagan binolar, yengil avtotransport, xizmat xonalarining dizayni ashyolariga nisbatan;

3) tayyor mahsulotlarga (tovarlarga), shuningdek ishlab chiqarishda ishtirok etmaydigan va (yoki) bevosita ishtirok etishga mo‘ljallanmagan boshqa moddiy qimmatliklarga nisbatan;

4) ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etish uchun mo‘ljallangan xom ashyo va materiallarga nisbatan, shuningdek dastgohlar, uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalarga nisbatan;

5) boshqa shaxslarga egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish shartnomasi bo‘yicha ushbu mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi ularga o‘tkazilmagan holda topshirilgan mol-mulkka nisbatan, agar soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatning bajarilishini ta’minlash uchun bunday shartnomalar bekor qilingan yoki haqiqiy emas deb topilgan bo‘lsa;

6) boshqa mol-mulkka nisbatan, bundan yakka tartibdagi tadbirkor yoki uning oila a’zolari kundalik shaxsiy foydalanishi uchun mo‘ljallangan, qonunchilikka muvofiq belgilanadigan boshqa mol-mulk mustasno.

(123-modda to‘rtinchi qismining 6-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq qarzini soliq qarzi bo‘yicha majburiyatga ega shaxsning mol-mulki hisobidan undirishning ushbu modda to‘rtinchi qismida belgilangan ketma-ketligi buzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq qarzi bo‘yicha majburiyatga ega shaxsning mol-mulki hisobidan soliq qarzdorligini undirish sud tartibida amalga oshiriladi. Soliq to‘lovchi tomonidan soliq qarzdorligi tan olinsa, soliq organi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) qaroriga binoan soliq qarzi bo‘yicha majburiyatga ega shaxsning mulki hisobidan soliq qarzdorligi undirilishi mumkin.

Soliq organi majburiyatga ega shaxsning mol-mulki hisobidan soliq qarzini undirish to‘g‘risida qaror chiqarilgan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida tegishli qarorni qog‘ozda yoki elektron shaklda ushbu moddada nazarda tutilgan xususiyatlarni inobatga olgan holda, qonunchilikda belgilangan tartibda ijro etish uchun majburiy ijro etuvchi davlat organiga yuborishi kerak.

(123-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq organining ushbu modda yettinchi qismida ko‘rsatilgan qarorni majburiy ijro etuvchi davlat organiga yuborish shakli va tartibi, shuningdek uning mazmuni O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Davlat ijrochisi soliq qarzi bo‘yicha majburiyatga ega shaxsning mol-mulki hisobidan undirish to‘g‘risidagi qaror o‘ziga kelib tushgan kundan e’tiboran ikki oylik muddatda ijro harakatlarini amalga oshirishi va ushbu qarorda mavjud bo‘lgan talablarni bajarishi kerak.

Soliq qarzini soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilarining boshqa mol-mulki hisobidan undirish xususiyatlari ushbu Kodeksning 124-moddasida belgilanadi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar soliq qarzlarini bojxona organlari tomonidan bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan qoidalarni hisobga olgan holda undirish chog‘ida ham qo‘llaniladi.

(123-moddaning o‘n birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 124-moddasi.

124-modda. Soliq qarzini soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilarining boshqa mol-mulki hisobidan undirish

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘iga doir soliq qarzini shu konsolidatsiyalashgan guruh ishtirokchilarining boshqa mol-mulki hisobidan undirishda ushbu Kodeks 123-moddasining qoidalari ushbu moddada nazarda tutilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda qo‘llaniladi.

Soliqni soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilarining mol-mulki hisobidan undirish birinchi navbatda mazkur konsolidatsiyalashgan guruh mas’ul ishtirokchisining ushbu Kodeksning 122-moddasiga muvofiq undiruvga qaratilmagan naqd pul mablag‘lari va banklardagi pul mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisida ushbu Kodeksning 122-moddasiga muvofiq undiruvga qaratilmagan naqd pul mablag‘lari va banklardagi pul mablag‘lari yetarli bo‘lmagan yoki umuman bo‘lmagan taqdirda, soliqni undirish mazkur guruhning boshqa a’zolaridan ularning naqd pul mablag‘lari hamda banklardagi pul mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilarida ushbu Kodeksning 122-moddasiga muvofiq undiruvga qaratilmagan naqd pul mablag‘lari va banklardagi pul mablag‘lari yetarli bo‘lmagan yoki umuman bo‘lmagan taqdirda, soliqni undirish mazkur guruh mas’ul ishtirokchisining boshqa mol-mulki hisobidan amalga oshiriladi. Bunday undiruv ushbu Kodeks 123-moddasi to‘rtinchi qismining 2 — 6-bandlarida belgilangan ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi mas’ul ishtirokchisining mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda, soliqni undirish ushbu Kodeks 123-moddasi to‘rtinchi qismining 2 — 6-bandlarida belgilangan ketma-ketlikda mazkur guruh o‘zga ishtirokchilarining boshqa mol-mulki hisobidan amalga oshiriladi.

Soliq organi soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi mavjud axborot asosida boshqa mol-mulki hisobidan soliq qarzini undirish amalga oshiriladigan soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilarining tarkibini hamda avvalgi ishtirokchilarning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda mazkur ishtirokchilardan undiruv qanday ketma-ketlikda amalga oshirilishini mustaqil tarzda belgilaydi.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining soliq qarzini boshqa mol-mulk hisobidan undirish to‘g‘risida qaror chiqarilgan ishtirokchilariga nisbatan soliq to‘lovchilar uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan huquq va kafolatlar tatbiq etiladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 5-bobi.

125-modda. Yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxsning soliq qarzini undirish

Agar yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxs (bundan buyon ushbu moddada jismoniy shaxs deb yuritiladi) soliq to‘lash bo‘yicha majburiyatlarini belgilangan muddatda bajarmagan bo‘lsa, soliq organi soliq qarzini ushbu jismoniy shaxsning mol-mulki hisobidan undirish to‘g‘risidagi ariza (bundan buyon ushbu moddada undirish to‘g‘risidagi ariza deb yuritiladi) bilan sudga murojaat qilishga haqli.

Undirish to‘g‘risidagi arizaga soliq organining talabnomani ta’minlash tartibida javobgarning mol-mulkini xatlash haqidagi iltimosnomasi ilova qilinishi mumkin.

Undirish to‘g‘risidagi arizaning nusxasi u sudga berilgan kundan kechiktirmay soliq organi tomonidan soliq qarzi undirilayotgan jismoniy shaxsga yuboriladi.

Agar jismoniy shaxsning soliq qarzi umumiy summasi bir million so‘mdan oshsa, undirish to‘g‘risidagi ariza soliq organi tomonidan sudga beriladi.

Soliq qarzini jismoniy shaxsning mol-mulki hisobidan undirish to‘g‘risidagi ishlar qonunchilikka muvofiq ko‘rib chiqiladi.

(125-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Qonuniy kuchga kirgan sud qarori asosida soliq qarzini jismoniy shaxsning mol-mulki hisobidan undirish ushbu moddada nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

(125-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq qarzini jismoniy shaxsning mol-mulki hisobidan undirish quyidagilarga nisbatan ushbu ketma-ketlik bilan amalga oshiriladi:

1) bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lariga;

2) naqd pul mablag‘lariga;

3) boshqa shaxslarga shartnoma bo‘yicha egalik qilishga, foydalanishga, tasarruf etishga berilgan mol-mulkka, ushbu mol-mulkka doir mulk huquqi ularga o‘tmagan holda, agar soliq majburiyati ijrosini ta’minlash uchun bunday shartnomalar bekor qilingan yoki haqiqiy emas deb topilgan bo‘lsa;

4) boshqa mol-mulkka, bundan qonunchilikka muvofiq belgilanadigan jismoniy shaxsning yoki uning oilasi a’zolarining kundalik shaxsiy foydalanishi uchun mo‘ljallangan mol-mulk mustasno.

(125-modda yettinchi qismining 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq qarzini jismoniy shaxsning mol-mulki hisobidan undirishda ushbu moddaning yettinchi qismida belgilangan ketma-ketlikni buzishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq qarzi jismoniy shaxsning pul mablag‘lari ko‘rinishida bo‘lmagan mol-mulki hisobidan undirilgan taqdirda, soliq qarzi bunday mol-mulk realizatsiya qilingan va undan kelib tushgan summalar hisobidan to‘langan paytdan e’tiboran to‘langan deb hisoblanadi.

Mazkur mol-mulk xatlab qo‘yilgan kundan e’tiboran va tushgan summalar budjet tizimiga o‘tkazilgan kunga qadar soliqlarni o‘z vaqtida to‘lamaganlik uchun penyalar hisoblanmaydi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 167 va 168-moddalari.

IV BO‘LIM
SOLIQ TO‘LOVCHILARNI VA SOLIQ SOLISH OBYEKTLARINI HISOBGA OLISH

16-bob. Soliq to‘lovchilarni hisobga olish tartibi

126-modda. Soliq to‘lovchilarni hisobga olish to‘g‘risida umumiy qoidalar

Soliq nazoratini amalga oshirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar soliq organlarida hisobga qo‘yilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlarini hisobga qo‘yish ushbu Kodeks u yoki bu soliqni to‘lash majburiyatining paydo bo‘lishini bog‘laydigan holatlar mavjudligidan qat’i nazar amalga oshiriladi.

Soliq organlarida hisobga qo‘yish va hisobdan chiqarish bepul amalga oshiriladi.

(126-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 14-martdagi O‘RQ-759-sonli Qonuniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son)

Jismoniy shaxslarni soliq organlarida soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yish ularga vakolatli organ tomonidan identifikatsiyalovchi ID-kartalarni yoki jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini berish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. Bunda soliq to‘lovchi hisobga qo‘yilganligini tasdiqlovchi alohida hujjat berilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxsini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish chog‘ida u bir vaqtning o‘zida soliq organlarida va davlat statistika organlarida hisobga qo‘yilgan holda berilgan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma soliq to‘lovchining hisobga qo‘yilganligini tasdiqlovchi hujjatdir.

Chet davlatlarning qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan chet el yuridik shaxslariga (shu jumladan kompaniyalar va boshqa korporativ tuzilmalarga) berilgan soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami to‘g‘risidagi guvohnoma soliq to‘lovchining ro‘yxatdan o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatdir.

(126-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 14-martdagi O‘RQ-759-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi — oltinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son)

Soliq to‘lovchilarni hisobga olish ma’lumotlari asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestrini yuritadi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestrida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarning tarkibi hamda reyestrni yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, agar ushbu Kodeksning 29-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq organida hisobga qo‘yilgan paytdan boshlab soliq siridir.

127-modda. Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami

Hisobga olishda har bir soliq to‘lovchiga O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona bo‘lgan soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami beriladi va uning hisob ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestriga kiritiladi.

Adliya organlarida hisobga qo‘yilgan, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan kasaba uyushmalarining bo‘linmalariga va boshlang‘ich kasaba uyushmalari tashkilotlariga soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami ularning ixtiyoriga ko‘ra beriladi.

(127-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 13-avgustdagi O‘RQ-942-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 14.08.2024-y., 03/24/942/0612-son)

Ushbu Kodeks 126-moddasining to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami hisoblanadi.

(127-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 14-martdagi O‘RQ-759-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son)

Soliq to‘lovchiga identifikatsiya raqamini berish, qo‘llash hamda uni o‘zgartirish tartibi va shartlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

> **Izoh.** Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 5-avgustdagi 480-son qarori bilan tasdiqlangan Yuridik shaxslarga soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamini berish va uni qo‘llash bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti.

Soliq organi soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamini unga yuboriladigan barcha hujjatlarda ko‘rsatadi.

Har bir soliq to‘lovchi o‘zining soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamini soliq hisobotlarida, soliq organiga taqdim etiladigan arizalar va boshqa hujjatlarda, shuningdek, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda ko‘rsatadi.

(127-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami quyidagi hujjatlarda majburiy ko‘rsatiladi:

faoliyatning ayrim turlari bilan shug‘ullanish uchun litsenziyalarda;

yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar tomonidan tuziladigan xo‘jalik, fuqarolik-huquqiy va mehnat shartnomalarida;

yuridik shaxslar va (yoki) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan bitimlar tuzilganligini belgilovchi yoki tasdiqlovchi hujjatlarda, shu jumladan hisobvaraq-fakturalarda va tovar-kuzatuv hujjatlarida;

pul, hisob-kitob va to‘lov hujjatlarida;

qonunchilikda belgilangan hollarda boshqa hujjatlarda.

(127-modda beshinchi qismining oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

128-modda. Soliq to‘lovchilarni hisobga qo‘yish

Yuridik shaxslar o‘zlari joylashgan yerdagi va ularning alohida bo‘linmalari joylashgan yerdagi soliq organlarida hisobga qo‘yiladi.

Tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan alohida bo‘linmalar kiradigan yuridik shaxslar har bir alohida bo‘linma joylashgan yerdagi soliq organlarida hisobga qo‘yilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida tovar-xomashyo birjalarida, kripto-birjalarda va (yoki) tashkillashtirilgan savdolarda aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini sotib oladigan norezident bo‘lgan yuridik shaxslar birja savdolari amalga oshiriladigan joydagi soliq organida hisobga qo‘yiladi.

(128-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 17-apreldagi O‘RQ-1057-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.04.2025-y., 03/25/1057/0351-son)

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Moliya vazirligi soliq organlarida yirik soliq to‘lovchilarni hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilashga haqli.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni vakolatxona yoki doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari faoliyatni amalga oshirish joyidagi soliq organlarida hisobga qo‘yilishi lozim.

Jismoniy shaxslar o‘z yashash joyidagi soliq organlarida hisobga qo‘yiladi.

Bundan tashqari, yuridik va jismoniy shaxslar o‘ziga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk joylashgan yerdagi soliq organlarida, shuningdek ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko‘ra hisobga qo‘yilishi lozim.

Ushbu moddada nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra soliq organlarida hisobga qo‘yish tartibi ushbu Kodeksning 129 va 130-moddalarida belgilanadi.

129-modda. Soliq to‘lovchilarni hisobga qo‘yish tartibi

Yuridik va jismoniy shaxslarni ushbu Kodeksning 128-moddasida nazarda tutilgan tartibda olinadigan ma’lumotlar asosida soliq organlarida hisobga olish, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq organlari tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Soliq organlari o‘zlaridagi mavjud ma’lumotlar asosida soliq to‘lovchilar hisobga olinishini (hisobdan chiqarilishini) va soliq to‘lovchilar to‘g‘risida ma’lumotlar hisobi yuritilishini ta’minlashi shart.

O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestrida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida soliq organlarida hisobga qo‘yish quyidagilarga nisbatan amalga oshiriladi:

1) yuridik shaxs o‘zi joylashgan yerida, filiali va (yoki) vakolatxonasi joylashgan yerida;

2) chet el notijorat nohukumat tashkilotining o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘linmasi orqali amalga oshirish joyida;

3) yakka tartibdagi tadbirkor O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ro‘yxatga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish joyida yoki o‘z yashash joyida.

(129-modda uchinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

Chet el yuridik shaxsini akkreditatsiya qilingan filial va (yoki) vakolatxona orqali o‘z faoliyatini amalga oshirish joyidagi soliq organlarida hisobga qo‘yish O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Faoliyatini boshqa alohida bo‘linmalar orqali amalga oshirish chog‘ida chet el yuridik shaxsini hisobga qo‘yish, agar ushbu moddaning uchinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi ariza asosida amalga oshiriladi. Chet el yuridik shaxsini soliq organlarida hisobdan chiqarish xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi.

Hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi ariza chet el yuridik shaxsi tomonidan u O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z faoliyatini boshlagan kundan e’tiboran o‘ttiz kalendar kundan kechiktirmay soliq organiga beriladi. Hisobdan chiqarish to‘g‘risidagi ariza bunday shaxs tomonidan u O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z faoliyatini tugallagan kundan e’tiboran o‘n besh kalendar kundan kechiktirmay beriladi.

Hisobga qo‘yish (hisobdan chiqarish) to‘g‘risidagi ariza berilayotganda chet el yuridik shaxsi mazkur ariza bilan bir vaqtning o‘zida soliq organiga hisobga qo‘yish (hisobdan chiqarish) uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni taqdim etadi. Bunday hujjatlarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Chet el yuridik shaxsni O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti sifatida soliq organida hisobga qo‘yish (hisobdan chiqarish) soliq organi tomonidan bunday chet el yuridik shaxsining o‘zini O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etishi to‘g‘risidagi (O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti maqomidan voz kechishi haqidagi) arizasi asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida tovar-xomashyo birjalarida va (yoki) tashkillashtirilgan savdolarda aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini sotib oladigan norezident bo‘lgan yuridik shaxslarni hisobga qo‘yish tartibini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi belgilaydi.

Yuridik shaxsni soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi sifatida hisobga qo‘yish ushbu Kodeksning 64-moddasiga muvofiq soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to‘g‘risidagi shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazgan soliq organi tomonidan shartnoma ro‘yxatga olingan sanadan e’tiboran besh kun ichida amalga oshiriladi. Xuddi shu muddatda mazkur yuridik shaxsga soliq organida soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi sifatida hisobga qo‘yilganligi haqida bildirishnoma beriladi (yuboriladi).

Yuridik shaxsni soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi sifatida hisobdan chiqarish soliq organi tomonidan ushbu Kodeksning 68-moddasiga muvofiq soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining amal qilishi tugatilgan kundan e’tiboran besh kun ichida amalga oshiriladi. Xuddi shu muddatda mazkur yuridik shaxsga soliq organida soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi sifatida hisobdan chiqarilganligi haqida bildirishnoma beriladi (yuboriladi).

Jismoniy shaxslarga ushbu Kodeksning 282-moddasida ko‘rsatilgan, O‘zbekiston Respublikasi hududi realizatsiya qilish joyi deb e’tirof etiladigan elektron shakldagi xizmatlar ko‘rsatuvchi va hisob-kitoblarni bevosita mazkur jismoniy shaxslar bilan amalga oshiradigan chet el yuridik shaxsini soliq organida hisobga qo‘yish (hisobdan chiqarish) soliq organi tomonidan hisobga olish (hisobdan chiqarish) to‘g‘risidagi ariza hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Soliq agenti deb e’tirof etiladigan vositachi bo‘lgan chet el yuridik shaxsini soliq organida hisobga qo‘yish (hisobdan chiqarish) ham xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi.

Hisobga qo‘yish (hisobdan chiqarish) to‘g‘risidagi ariza ushbu moddaning o‘n uchinchi qismida ko‘rsatilgan chet el tashkilotlari tomonidan soliq organiga mazkur xizmatlar ko‘rsatish boshlangan (tugallangan) kundan e’tiboran o‘ttiz kalendar kundan kechiktirmay beriladi. Hisobga qo‘yish (hisobdan chiqarish) soliq organi tomonidan tegishli ariza va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadigan boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Chet el yuridik shaxsi tomonidan ushbu moddaning o‘n uchinchi qismida ko‘rsatilgan O‘zbekiston Respublikasining soliq to‘g‘risidagi qonunchiligi talablari buzilgan taqdirda, soliq organi bunday yuridik shaxsni tegishli ariza taqdim etmagan holda soliq hisobidan chiqarishga haqli.

(129-moddaning o‘n to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq organida avval ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha hisobdan chiqarilgan chet el yuridik shaxsini hisobga qo‘yish soliq organi tomonidan hisobga olish to‘g‘risidagi ariza va ushbu moddaning o‘n uchinchi qismida ko‘rsatilgan hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Ushbu modda o‘n uchinchi — o‘n oltinchi qismlarining qoidalari mazkur xizmatlarni elektron shaklda ko‘rsatuvchi yoki bunday xizmatlarni bevosita vositachi sifatida o‘zining O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi orqali ko‘rsatuvchi chet el yuridik shaxslariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxslarni soliq organlarida hisobga qo‘yish ushbu Kodeksning 133-moddasida ko‘rsatilgan organlar taqdim etadigan ma’lumot yoki jismoniy shaxsning arizasi asosida mazkur jismoniy shaxsning yashash joyidagi soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yashash joyi soliq solish maqsadlari uchun jismoniy shaxsning turgan joyi bo‘yicha aniqlanadigan jismoniy shaxslar o‘zi turgan joydagi soliq organiga soliq organlarida hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qilishga haqli.

Soliq to‘lovchida hisobga qo‘yish joyini aniqlash xususida qiyinchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, qaror u taqdim etgan ma’lumotlar asosida soliq organi tomonidan qabul qilinadi.

130-modda. O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan chet ellik shaxslarni hisobga qo‘yishning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan yuridik shaxs mazkur faoliyatni amalga oshirish boshlangan kundan e’tiboran bir yuz sakson uch kalendar kundan kechiktirmay soliq organiga soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi arizani taqdim etishi

shart. Ushbu arizaga quyidagilarning davlat tiliga tarjima qilingan asl nusxalari yoki notarial tarzda tasdiqlangan nusxalari ilova qilinadi:

1) O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan yuridik shaxs o‘zi ta’sis etilgan mamlakatda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatning;

2) maxsus ruxsat beruvchi hujjatlarning yoki litsenziyalarning (ular mavjud bo‘lgan taqdirda);

3) O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan yuridik shaxs nomidan O‘zbekiston Respublikasida harakatlarni amalga oshirish huquqini tasdiqlovchi ishonchnomaning yoki boshqa hujjatning (ular mavjud bo‘lgan taqdirda);

4) ijro etilishi doimiy muassasa tashkil etilishiga olib keladigan shartnomaning (mavjud bo‘lgan taqdirda).

Agar O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan yuridik shaxs bir yuz sakson uch kalendar kundan ortiq muddatga shartnoma tuzgan bo‘lsa, soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi ariza va ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan hujjatlar mazkur faoliyatni amalga oshirish boshlangan sanadan o‘ttiz kalendar kundan kechiktirmay soliq organiga taqdim etiladi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan yuridik shaxs o‘z faoliyatining umumiy muddati bir yuz sakson uch kalendar kundan ortiq muddatni tashkil etadigan bir nechta shartnomalar tuzgan bo‘lsa, soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi ariza va ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan hujjatlar faoliyatni amalga oshirish boshlangan yoki qaysi shartnomaga muvofiq faoliyatning umumiy muddati bir yuz sakson uch kalendar kundan oshadigan bo‘lsa, o‘sha shartnoma tuzilgan sanadan e’tiboran o‘ttiz kalendar kundan kechiktirmay soliq organiga taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti bilan tuzilgan oddiy shirkatning (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomaning) ishtirokchisi bo‘lgan, faoliyati doimiy muassasa tashkil etilishiga olib keladigan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yish uchun o‘z faoliyatini amalga oshirish boshlangan sanadan e’tiboran o‘ttiz kalendar kun ichida birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomaning ishtirokchisi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti joylashgan (yashaydigan, turgan) yeridagi soliq organiga hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi arizani quyidagi hujjatlarning notarial tarzda tasdiqlangan ko‘chirma nusxalarini ilova qilgan holda taqdim etishi shart:

1) birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomani;

2) O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatni yoki O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan yuridik shaxsning o‘z mamlakatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligini, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi raqamini ko‘rsatgan holda, tasdiqlovchi hujjatni (yoki uning o‘rniga o‘tadigan hujjatni).

O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromadlar oladigan, ushbu Kodeks qoidalariga muvofiq to‘lash manbasida soliq solinishi lozim bo‘lmagan chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar faoliyatni amalga oshirish boshlangan sanadan o‘ttiz kalendar kun davomida turgan (yashaydigan) joyidagi soliq organiga hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi arizani quyidagi hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini ilova qilgan holda taqdim etishi shart:

1) chet ellik fuqaroning yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni;

2) fuqarolik (rezidentlik) mamlakatida soliq ro‘yxatiga olinganligini tasdiqlovchi hujjatni, bunday hujjat mavjud bo‘lgan taqdirda;

3) O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromad summasini tasdiqlovchi hujjatni, bunday hujjat mavjud bo‘lgan taqdirda.

O‘zbekiston Respublikasida mol-mulk solig‘i yoki yer solig‘i solish obyekti bo‘lgan mol-mulkni oluvchi chet ellik fuqarolar yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tish uchun bunday mol-mulk yoki yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organiga hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi arizani quyidagi hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini ilova qilgan holda taqdim etishi shart:

1) chet ellik fuqaroning yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni;

2) fuqarolik (rezidentlik) mamlakatida soliq ro‘yxatiga olinganligini tasdiqlovchi hujjatlarni, bunday hujjat mavjud bo‘lgan taqdirda.

131-modda. Soliq to‘lovchilarni soliq solish obyekti bo‘yicha hisobga qo‘yish

Soliq to‘lovchini hisobga qo‘yish soliq solish obyekti joylashgan yerdagi soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchini obyektlar bo‘yicha hisobga qo‘yish u ushbu Kodeksning 129-moddasida belgilangan tartibda hisobga qo‘yilganidan keyin, agar ushbu Kodeksga muvofiq soliq to‘lovchida soliq to‘lovchi sifatida hisobga olinmagan joydagi yer solig‘i, mol-mulk solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va (yoki) noruda qazilma boyliklari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq to‘lash majburiyati yuzaga kelgan bo‘lsa, amalga oshiriladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 129-moddasi.

Hisobga qo‘yilmagan joyda yer solig‘ini, mol-mulk solig‘ini yoki suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lash majburiyati o‘zida yuzaga kelgan soliq to‘lovchi mazkur majburiyat yuzaga kelgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida soliq solish obyektlarini ular joylashgan yerda hisobga qo‘yish uchun davlat soliq xizmati organlariga qonunchilikda belgilangan tartibda murojaat qilishi kerak, bundan ushbu Kodeks 133-moddasining uchinchi va oltinchi qismlariga muvofiq soliq organlariga bunday ma’lumotlarni taqdim etish organlar, muassasalar va tashkilotlarning majburiyati bo‘lgan hollar mustasno.

(131-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 13-apreldagi O‘RQ-1128-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 03/26/1128/0349-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 14-iyul)

Hisobga olinishi davlat soliq xizmati organlari tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladigan soliq solinadigan obyektlar bo‘yicha mol-mulk solig‘i va yer solig‘i to‘lovchisi bo‘lgan jismoniy shaxslarga nisbatan ushbu moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan majburiyat tatbiq etilmaydi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan majburiyat, shuningdek:

benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘ining soliq to‘lovchilariga;

hududiy alohida bo‘linma joylashgan yeri bo‘yicha xodimlar soni yigirma besh kishidan ko‘p bo‘lgan doimiy ish joyi yaratgan soliq agentiga tatbiq etiladi.

Ushbu modda beshinchi qismining ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchi aksizosti mahsulotni realizatsiya qilish boshlangan paytdan boshlab o‘n kun ichida avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchasi joylashgan yerdagi soliq organiga aksiz solig‘i soliq to‘lovchisi sifatida hisobga qo‘yish uchun murojaat qilishi shart.

Ushbu modda beshinchi qismining uchinchi xatboshisida ko‘rsatilgan soliq agenti alohida bo‘linma tashkil etilgan paytdan bir oy o‘tganidan keyin o‘n kun ichida alohida bo‘linma joylashgan yerdagi soliq organiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lovchi soliq agenti sifatida hisobga qo‘yish uchun murojaat qilishi shart.

Soliq organi soliq to‘lovchiga ilgari berilgan soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamiga muvofiq uni murojaat qilgan kunidan e’tiboran uch ish kunidan kechiktirmay obyektning joylashgan yeri bo‘yicha hisobga oladi.

132-modda. Soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi hisob ma’lumotlari

Ushbu Kodeksning maqsadlari uchun soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi hisob ma’lumotlari deganda soliq to‘lovchi tomonidan soliq organlariga taqdim etilgan ma’lumotlar, shuningdek ushbu Kodeksning 133-moddasida nazarda tutilgan tartibda organlar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan yuborilgan ma’lumotlar tushuniladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 133-moddasi.

Yuridik shaxs to‘g‘risidagi hisob ma’lumotlari tarkibiga quyidagilar kiradi, xususan:

1) soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;

2) to‘liq va qisqartirilgan nomi;

3) joylashgan yeri (pochta manzili);

4) tashkiliy-huquqiy shakli;

5) davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sana, joyi va raqami;

6) ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori — tijorat tashkilotlari uchun;

7) alohida bo‘linmalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

8) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan ishtirokchilar soliq to‘lovchisining identifikatsiya raqami, chet ellik ishtirokchining mamlakati hamda har bir muassisning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi ko‘rsatilgan holda ishtirokchilarning to‘liq tarkibi — tijorat tashkilotlari uchun.

Jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi hisob ma’lumotlari tarkibiga ularning quyidagi shaxsga doir ma’lumotlari kiritiladi:

1) familiyasi, ismi, otasining ismi;

2) fuqaroligi;

3) jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami;

4) pasportining yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasining seriyasi va raqami, berilgan sanasi va joyi;

5) yashash joyi (manzili).

(132-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 14-martdagi O‘RQ-759-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son)

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun hisob ma’lumotlari tarkibiga ushbu moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan ma’lumotlardan tashqari, quyidagilar ham kiritiladi:

1) davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sana, joyi va raqami;

2) faoliyat turi;

3) faoliyat amalga oshiriladigan joy.

Soliq to‘lovchi soliq organlarining ma’lumotlar bazasida mavjud bo‘lgan o‘z hisob ma’lumotlarini soliq organining so‘roviga ko‘ra soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali tasdiqlashi kerak.

(132-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan beshinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Soliq to‘lovchilar to‘g‘risida hisob ma’lumotlarini yuritish, soliq to‘lovchilar tomonidan ularni tasdiqlash, bu ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etish tartibi, shuningdek soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari uchun ma’lumotlar tarkibini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

(132-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

133-modda. Organlar, muassasalar va tashkilotlarning soliq organlariga ma’lumotlar taqdim etish majburiyatlari

Tadbirkorlik subyekti bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlar ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi soliq organiga ushbu shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay tegishli yuridik shaxslarning davlat reyestridan ko‘chirmani, rahbar (rahbar vazifalarini bajaruvchi shaxs) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini va uning pasportiga yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasiga oid ma’lumotlarni topshirishi shart. Shuningdek mazkur organlar soliq organiga davlat reyestriga kiritilgan va tegishli shaxslarga taalluqli bo‘lgan har qanday o‘zgartirishlar to‘g‘risida bunday o‘zgartirishlar kiritilgan kundan e’tiboran uch kundan kechiktirmay ma’lum qilishi shart.

(133-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 14-martdagi O‘RQ-759-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son)

Ichki ishlar organlari identifikatsiyalovchi ID-kartalar berilganligi, shu jumladan yo‘qotilgan yoki amal qilish muddati o‘tgan pasportlar yoki identifikatsiyalovchi ID-kartalar o‘rniga identifikatsiyalovchi ID-kartalar berilganligi faktlari to‘g‘risida, bekor qilingan pasportlar yoki identifikatsiyalovchi ID-kartalar haqida o‘zlari joylashgan joydagi soliq organlariga har oyda xabar berib borishi, shuningdek turar joyni ijaraga olish (ijaraga berish) shartnomasi, tekin foydalanishga berish shartnomasi mavjud emasligi yoki ijaraga olish (ijaraga berish) shartnomasining soliq organlarida majburiy hisobga qo‘yilishiga rioya etilmaganligi bo‘yicha aniqlangan faktlar to‘g‘risida o‘zlari joylashgan joydagi soliq organlariga uch kun ichida xabar berishi shart.

(133-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 14-martdagi O‘RQ-759-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son)

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlar tegishli hududda joylashgan yer uchastkasi va boshqa ko‘chmas mol-mulk, ularning mulkdorlari (egalari) to‘g‘risidagi axborotni davlat soliq organlariga real vaqt rejimida elektron shaklda taqdim etishi shart.

(133-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-714-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.09.2021-y., 03/21/714/0874-son)

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarining dala chetlaridagi kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi qonunchilikka muvofiq qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish belgilangan maydonlarida har yili 1-mayga qadar maqbul ekin ekilmagan yer uchastkasi va ularning mulkdorlari (egalari) to‘g‘risidagi axborotni davlat soliq organlariga real vaqt rejimida, elektron shaklda taqdim etishi shart.

(133-modda O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 13-apreldagi O‘RQ-1128-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 03/26/1128/0349-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 14-iyul)

Tabiiy resurslardan foydalanuvchilarni hisobga olishni va (yoki) ularni ro‘yxatdan o‘tkazishni, shuningdek tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog‘liq faoliyatni litsenziyalashni amalga oshiruvchi organlar tabiatdan foydalanish joyidagi soliq organlariga tegishli tarzda ro‘yxatdan o‘tkazilgan (litsenziya, ruxsatnoma berilgan) kundan e’tiboran o‘n kun ichida soliq solish obyekti bo‘lgan bunday resurslardan foydalanishga doir huquqlar berish to‘g‘risida ma’lum qilishi shart.

Suv resurslarini hisobga olishni amalga oshiruvchi organlar suvdan foydalanish yoki suvni iste’mol qilish joyidagi soliq organlariga suvdan foydalanuvchi shaxslar va ular tomonidan foydalanilgan suv hajmlari to‘g‘risida real vaqt rejimida elektron shaklda axborot taqdim etishi shart.

(133-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-714-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.09.2021-y., 03/21/714/0874-son)

Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari sohasidagi vakolatli organlar berilgan, uzaytirilgan, to‘xtatib turilgan, qayta tiklangan, tugatilgan, bekor qilingan, qayta rasmiylashtirilgan va chaqirib olingan litsenziyalar, ruxsat berish xususiyatiga ega hujjatlar, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan vakolatli organlarga yuborilgan xabarnomalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘rsatilgan tartib-taomillardan o‘tgan shaxslar joylashgan yerdagi soliq organlariga elektron shaklda real vaqt rejimida taqdim etishi shart.

(133-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalarini akkreditatsiyadan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlar hamda tashkilotlar chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalari akkreditatsiyadan o‘tkazilganligi (akkreditatsiyadan mahrum etilganligi) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni vakolatxona joylashgan yerdagi soliq organiga tegishli hodisa ro‘y bergan kundan e’tiboran o‘n kun ichida ma’lum qilishi shart.

Xalqaro tashkilotlarning hamda chet el notijorat nohukumat tashkilotlarining vakolatxonalari reyestrini yuritish vakolatiga ega bo‘lgan organ mazkur reyestrga tegishli tarzda kiritilganlik (reyestrdagi o‘zgartirishlar) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni akkreditatsiyadan o‘tkazilgan (akkreditatsiyadan mahrum etilgan) yoki mazkur reyestrga ma’lumotlar (o‘zgartirishlar) kiritilgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida vakolatxona joylashgan yerdagi soliq organiga xabar qilishi shart.

Vasiylik va homiylik organlari mol-mulk mulkdorlari (egalari) bo‘lgan jismoniy shaxslarga nisbatan vasiylik, homiylik hamda mol-mulk boshqaruvi belgilanganligi to‘g‘risida, shu jumladan mol-mulk mulkdori (egasi) bo‘lgan bolaning vasiy oilaga topshirilganligi haqida, shu jumladan mazkur vasiylik, homiylik va mol-mulk boshqaruvi bilan bog‘liq keyingi o‘zgartirishlar to‘g‘risida tegishli qaror qabul qilingan kundan e’tiboran o‘n kun ichida o‘zlari joylashgan yerdagi soliq organlariga ma’lum qilishi shart.

Notarial harakatlarni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan organlar (muassasalar) ko‘chmas mulk oldi-sotdi shartnomalari, mol-mulk ijarasi shartnomalari tasdiqlanganligi va ijara haqi miqdori haqida, merosga egalik qilish huquqi to‘g‘risidagi guvohnomalar berilganligi hamda hadya etish shartnomalari notarial tarzda tasdiqlanganligi to‘g‘risida soliq organlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida real vaqt rejimida xabar qilishi shart. Bunda hadya etish shartnomalari tasdiqlanganligi to‘g‘risida taqdim etilayotgan axborotda hadya qiluvchi va hadya oluvchi shaxs o‘rtasidagi qarindoshlik darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak.

(133-moddaning o‘ninchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-714-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.09.2021-y., 03/21/714/0874-son)

Chet ellik fuqarolarga yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga ishlash uchun ruxsatnomalar yoki patentlar berishni amalga oshiruvchi organlar chet ellik fuqarolar yoxud fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar turgan joyi bo‘yicha migratsiya hisobiga qo‘yilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xabar qilishi shart. Bunday ma’lumotlar soliq organlarida hisobda turmagan va o‘ziga nisbatan ishlash uchun ruxsatnomani yoki patentni rasmiylashtirish uchun hujjatlar ko‘rib chiqishga qabul qilingan chet ellik fuqarolar hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga nisbatan taqdim etiladi. Mazkur organlar belgilangan hujjatlar qabul qilingan kundan keyin keladigan kundan kechiktirmay ushbu ma’lumotlarni o‘zlari joylashgan yerdagi soliq organlariga xabar qiladi.

Qimmatli qog‘ozlarning markaziy depozitariysi har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning o‘ninchi kunidan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga o‘zi va investitsiya vositachilari tomonidan ro‘yxatga olingan aksiyalarga doir bitimlar to‘g‘risidagi axborotni taqdim etishi shart.

> **Izoh.** Qarang: Davlat soliq qo‘mitasining 2012-yil 26-apreldagi 2355-sonli qarori bilan tasdiqlangan Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi tomonidan o‘zi va investitsiya vositachilari tomonidan ro‘yxatga olingan aksiyalarga doir bitimlar to‘g‘risidagi axborotni O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga taqdim etish tartibi to‘g‘risidagigi nizom.

Bojxona organlari soliq organlariga quyidagilarni taqdim etishi shart:

import operatsiyalari to‘g‘risidagi axborotni, tovarlar, shuningdek milliy va xorijiy elektron savdo maydonchalarida (elektron savdo platformalarida) xorijiy davlatlarga realizatsiya qilingan tovarlar bojxona chegarasini kesib o‘tganidan keyin eksport operatsiyalari bo‘yicha axborotni hamda tovarlarni olib o‘tish, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali elektron tijorat shaklida amalga oshirilgan tovarlarni olib o‘tish haqidagi axborotni real vaqt rejimida;

(133-modda o‘n uchinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining bojxona omborlarida tovarlar saqlanayotganligi faktlari to‘g‘risidagi axborotni har oyda.

(133-moddaning o‘n uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo‘yicha namunaviy texnologik xarita ma’lumotlarini axborot tizimi orqali elektron shaklda taqdim etishi shart.

(133-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan o‘n to‘rtinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Internet jahon axborot tarmog‘i milliy segmentining domen nomlari tizimini belgilovchi organ soliq organlariga tegishli ma’lumotlar bazasiga ulanish uchun dasturiy mahsulotlarni taqdim etish orqali domen nomlarining ma’murlari to‘g‘risidagi axborotlarga kirish huquqini beradi.

Soliq organlariga ushbu moddada nazarda tutilgan, qog‘ozda yoki elektron shaklda taqdim etiladigan ma’lumotlarning shakllari, shuningdek shakllarni to‘ldirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ma’lumotlarni soliq organlariga elektron shaklda taqdim etish tartibi o‘zaro hamkorlik qiluvchi taraflarning kelishuvi bilan belgilanadi.

Ushbu moddada ko‘rsatilgan ma’lumotlar soliq organlariga bepul taqdim etiladi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan ma’lumotlar ushbu moddada belgilangan organlar, muassasalar, tashkilotlar yoki notarial harakatlarni amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar tomonidan soliq organlarining so‘rovlariga binoan so‘rov olingan kundan e’tiboran besh kun ichida taqdim etiladi.

Muassasalar va tashkilotlar tomonidan soliq organlariga ma’lumotlar taqdim etish majburiyati qonunchilikda belgilanadi.

(133-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuniga asosan o‘n to‘qqizinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

134-modda. Banklarning soliq nazoratini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan majburiyatlari

Bank har qanday yuridik yoki jismoniy shaxsning (bundan buyon ushbu moddada mijoz deb yuritiladi) hisobvarag‘i yoki omonati (depoziti) ochilganligi (yopilganligi), hisobvarag‘i yoki omonati (depoziti) rekvizitlarining o‘zgartirilganligi to‘g‘risidagi axborotni tegishli hodisa ro‘y bergan kundan e’tiboran uch kun ichida elektron shaklda, o‘zi joylashgan yerdagi soliq organiga ma’lum qilishi shart.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan axborotni bank tomonidan ma’lum qilish tartibi va shakllari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

(134-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

Soliq organining bank mijoziga nisbatan axborot taqdim etish to‘g‘risidagi so‘roviga binoan bank yozma so‘rov olingan kundan e’tiboran uch kun ichida soliq organlariga quyidagilarni berishi shart:

1) mijozning bankda hisobvaraqlari va omonatlari (depozitlari) mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni;

2) mijozning hisobvaraqlari va omonatlaridagi (depozitlaridagi) pul mablag‘larining qoldiqlari haqidagi ma’lumotlarni;

3) mijozning hisobvaraqlaridagi operatsiyalarga hamda omonatlariga (depozitlariga) doir ko‘chirmalarni;

4) soliq to‘lovchining soliq majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq boshqa ma’lumotlarni.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan axborot, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan hollarda chet davlat vakolatli organining so‘rovi asosida ham soliq organlari tomonidan bankdan so‘rab olinishi mumkin.

Soliq organi tomonidan bankka so‘rov yuborish shakli va tartibi hamda banklar tomonidan soliq organlarining so‘rovlariga ko‘ra axborot taqdim etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

(134-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

V BO‘LIM
SOLIQ NAZORATI

17-bob. Soliq nazorati to‘g‘risidagi umumiy qoidalar. Soliq tekshiruvlari

135-modda. Soliq nazorati to‘g‘risidagi umumiy qoidalar

Vakolatli organlarning soliq to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilishga doir faoliyati soliq nazoratidir.

(135-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq nazorati maqsadida ushbu Kodeksning 133-moddasida ko‘rsatilgan davlat organlari, muassasalari, tashkilotlar va mansabdor shaxslar soliq to‘lovchilarni soliq bo‘yicha hisobga olish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni ushbu Kodeksda belgilangan tartibda soliq organlariga taqdim etishi shart.

Soliq nazorati maqsadida banklar ushbu Kodeksning 134-moddasida o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajaradi.

Soliq, bojxona organlari va boshqa vakolatli organlar, prokuratura organlari hamda tergov organlari soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlari, o‘zlari olib borayotgan soliq tekshiruvlari haqidagi o‘zida mavjud materiallar to‘g‘risida bir-birini xabardor qiladi. Shuningdek mazkur organlar o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida boshqa zarur axborot bilan almashishni amalga oshiradi. Bunday xabardor qilish tartibi mazkur organlar o‘rtasidagi kelishuvlar bilan belgilanadi.

(135-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq to‘lovchi (soliq agenti) to‘g‘risida qonunchilik talablarini buzgan holda olingan hujjatlar yoki boshqa axborot ushbu shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin emas.

(135-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq nazorati materiallari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda soliq to‘lovchi hisobda turgan joydagi soliq organida tekshiruv tugagan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak.

136-modda. Soliq nazoratining shakllari

Soliq organlari soliq nazoratini:

1) soliq tekshiruvlari;

2) soliq monitoringi shaklida amalga oshiradi.

Bojxona organlari tovarlarning O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o‘tilishi munosabati bilan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlarga nisbatan o‘z vakolatlari doirasida ushbu Kodeksga va bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq soliq nazoratini amalga oshiradi.

(136-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

137-modda. Soliq tekshiruvlarining turlari

Soliq tekshiruvlari soliq to‘lovchilar, yig‘imlarni to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida o‘tkaziladi.

(137-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq tekshiruvi soliq to‘lovchi to‘g‘risida soliq organlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

Soliq organlari soliq tekshiruvlarining quyidagi turlarini o‘tkazadi:

1) kameral soliq tekshiruvi;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 138-moddasi.

2) sayyor soliq tekshiruvi;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 139-moddasi.

3) soliq auditi;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 140-moddasi.

4) transfert narxning shakllanishini tekshirish.

(137-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan 4-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Tadbirkorlik subyektlari yuqori barqarorlik reytingining “AAA” toifasidagi tadbirkorlik subyektlariga nisbatan (bundan davlat korxonalari hamda ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar mustasno) soliq tekshiruvlari o‘tkazilmaydi (bundan jinoiy ishlar doirasida o‘tkaziladigan tekshiruvlar mustasno).

(137-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 15-noyabrdagi O‘RQ-1000-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.11.2024-y., 03/24/1000/0928-son)

138-modda. Kameral soliq tekshiruvi

Kameral soliq tekshiruvi soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotini, moliyaviy hisobotni, shuningdek soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida soliq organida mavjud bo‘lgan boshqa hujjatlar hamda ma’lumotlarni tahlil qilish asosida soliq organi tomonidan o‘tkaziladi.

Kameral soliq tekshiruvida quyidagi soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish taqiqlanadi, bundan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasining o‘rnini qoplash (qaytarish) maqsadida o‘tkaziladigan kameral soliq tekshiruvi mustasno:

1) soliq to‘lovchining hududiga kirish;

2) soliq to‘lovchining hududini va binolarini ko‘zdan kechirish;

3) soliq to‘lovchidan hujjatlarni talab qilib olish va uni chaqirtirish;

4) soliq to‘lovchining hujjatlari va buyumlarini olib qo‘yish.

(138-modda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Soliq organlari kameral soliq tekshiruvi o‘tkazilishi boshlanguniga qadar tekshiruvdan oldingi tahlilni o‘tkazishi mumkin. Bunda soliq auditi o‘tkazilgan yoki o‘tkazilayotgan soliq davri uchun tekshiruvdan oldingi tahlil o‘tkazilmaydi.

(138-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Tekshiruvdan oldingi tahlil — taqdim etilgan soliq hisobotini va soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risidagi boshqa axborotni soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan holda, soliq to‘lovchining ishtirokisiz o‘tkaziladigan avtomatlashtirilgan tahlildir.

Tekshiruvdan oldingi tahlil soliq organi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) buyrug‘isiz amalga oshiriladi.

Agar tekshiruvdan oldingi tahlil chog‘ida soliq organi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotida soliq organida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bilan tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlansa, soliq to‘lovchiga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq hisobotiga tegishli tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi xabarnoma yuboriladi.

Soliq to‘lovchi tegishli tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi xabarnoma olingan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoki aniqlangan tafovutlarning asosnomasini taqdim etishi shart. Bunday majburiyatning bajarilmaganligi soliq organi tomonidan soliq to‘lovchida kameral soliq tekshiruvini tayinlash uchun asos bo‘ladi.

Tekshiruvdan oldingi tahlil aniqlashtirilgan soliq hisoboti yoki aniqlangan tafovutlar asosnomasi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan yoxud kameral soliq tekshiruvi tayinlagan sanadan e’tiboran yakunlangan hisoblanadi.

(138-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan ikkinchi — yettinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Kameral soliq tekshiruvi soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) buyrug‘i asosida o‘tkaziladi. Buyruqda soliq to‘lovchining nomi va identifikatsiya raqami, tekshiruvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi, tekshiruvni o‘tkazish muddatlari, tekshirilayotgan davr, tekshirilayotgan soliqlar va yig‘imlarning turlari ko‘rsatiladi.

Kameral soliq tekshiruvi ushbu Kodeksning 88-moddasida belgilangan da’vo muddati o‘tmagan soliq davrlariga nisbatan o‘tkazilishi mumkin. Bunda aynan bitta soliq (hisobot) davri uchun aynan bir xil soliqlar bo‘yicha qayta kameral soliq tekshiruvini o‘tkazish mumkin emas, bundan kameral soliq tekshiruvini o‘tkazish chog‘ida soliq organiga ma’lum bo‘lmagan yangi holatlar aniqlangan hollar mustasno.

(138-moddaning o‘ninchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

(138-moddaning o‘n birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuniga asosan 2024-yil 1-yanvardan chiqariladi — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son)

(138-moddaning o‘n ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuniga asosan 2024-yil 1-yanvardan chiqariladi — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son)

Agar soliq to‘lovchi kameral soliq tekshiruvi tugaguniga qadar ushbu Kodeksning 83-moddasida nazarda tutilgan tartibda hisoblab chiqarilgan soliq summasi o‘zgartirilgan aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etsa, kameral soliq tekshiruvi taqdim etilgan aniqlashtirilgan soliq hisobotini hisobga olgan holda o‘tkaziladi.

Agar o‘tkazilgan kameral soliq tekshiruvi yakuni bilan taqdim etilgan soliq hisobotida tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlangan bo‘lsa, soliq organi soliq to‘lovchiga ushbu Kodeksda belgilangan tartibda soliq hisobotlariga tuzatishlar kiritish talabnomasini yuboradi.

Soliq hisobotiga tuzatishlar kiritish haqida talabnoma yuborilgan sana kameral soliq tekshiruvi tugatilgan sana hisoblanadi. Agar o‘rganish va tahlil qilish yakunlariga ko‘ra tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlanmagan bo‘lsa ham kameral soliq tekshiruvi yakunlangan hisoblanadi.

Soliq to‘lovchi tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi talabnoma olingan kundan e’tiboran besh kun ichida tegishli soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoxud tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgan holda aniqlangan tafovutlarning asosnomasini ushbu Kodeksda belgilangan tartibda taqdim etishi shart.

(138-moddaning o‘n beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Soliq to‘lovchi soliq organining tegishli talabnomasida ko‘rsatilgan, aniqlangan tafovutlarning asosnomasi sifatida soliq maslahatchilari tashkilotining xulosasini taqdim etishga haqli. Soliq to‘lovchining nomidan bunday asosnomani soliq maslahatchilari tashkiloti soliq to‘lovchi bilan tuzilgan shartnoma asosida mustaqil ravishda taqdim etishi mumkin.

Soliq to‘lovchining taqdim etgan asosnomasi tegishli hujjatlar (asosnomalar) olingan kundan e’tiboran o‘n besh kun ichida soliq organining rahbari (rahbari o‘rinbosari) tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Aniqlangan tafovutlar bo‘yicha taqdim etilgan asosnomalariga to‘liq yoki qisman rozilik berilgan taqdirda, soliq organi ilgari yuborilgan talabnoma bekor qilinganligi to‘g‘risidagi bildirish xatini yoxud soliq hisobotiga tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi aniqlashtirilgan talabnomani soliq to‘lovchiga yuboradi.

Agar soliq to‘lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etmasa (shu jumladan aniqlashtirilgan talabnomadan keyin), yoxud aniqlangan tafovutlar bo‘yicha asosnomalarni taqdim etmasa, yoki u taqdim etgan asosnomalar yetarli emas deb topilsa, soliq organi soliq to‘lovchiga soliq auditini tayinlashga haqli.

Agar soliq (hisobot) davri uchun soliq monitoringi o‘tkazilayotgan bo‘lsa, bunday davr uchun kameral soliq tekshiruvi o‘tkazilmaydi. Mazkur qoida soliq monitoringi muddatidan oldin tugatilganda qo‘llanilmaydi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, zimmasiga soliq hisobotini taqdim etish bo‘yicha majburiyat yuklatilgan soliq agentlarining va boshqa shaxslarning kameral soliq tekshiruvlariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplashga nisbatan kameral soliq tekshiruvi soliq to‘lovchi tomonidan soliq davri uchun soliq hisoboti taqdim etish chog‘ida soliq organlari qo‘shilgan qiymat solig‘ining salbiy summasi o‘rnini qoplash (qaytarish) to‘g‘risida xabardor qilingan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida soliq organining buyrug‘isiz, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplashga nisbatan kameral soliq tekshiruvi natijalariga ko‘ra soliq hisobotiga o‘zgartishlar kiritish haqidagi talabnoma yozib berilmaydi.

(138-moddaning yigirma ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qoplashga nisbatan kameral soliq tekshiruvi natijalariga ko‘ra soliq organlari ushbu summani qoplash to‘g‘risidagi qaror yoxud ularni qoplashni rad etish (to‘liq yoki qisman) to‘g‘risidagi asoslantirilgan qaror qabul qiladi.

Kameral soliq tekshiruvi o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

(138-moddaning yigirma to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

> **Izoh.** Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 4-bobi.

139-modda. Sayyor soliq tekshiruvi

Soliq to‘lovchilarning soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash sohasidagi ayrim majburiyatlarini, shuningdek soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan boshqa majburiyatlarini bajarilishini tekshirish sayyor soliq tekshiruvidir.

(139-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Sayyor soliq tekshiruvi chog‘ida hisobga olish hujjatlarining, tovar-moddiy qimmatliklar va pul mablag‘lari harakatining, shuningdek soliq to‘lovchining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa axborotning tahlili o‘tkaziladi.

Sayyor soliq tekshiruvlarini o‘tkazish chog‘ida soliq organlari profilaktika tadbirlarini va xronometraj kuzatuvlarini amalga oshirishga, nazorat-kassa texnikasi va to‘lov terminallari qo‘llanilishini tekshirishga va soliq nazoratining boshqa tadbirlarini o‘tkazishga haqli.

Sayyor soliq tekshiruvi soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) buyrug‘i asosida o‘tkaziladi. Buyruqda soliq to‘lovchining nomi, tekshiruvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi hamda lavozimi, tekshiruvlarni o‘tkazish muddatlari va maqsadi ko‘rsatiladi.

Sayyor soliq tekshiruvi o‘n kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda o‘tkaziladi.

Sayyor soliq tekshiruvini tayinlash to‘g‘risidagi buyruqda ko‘rsatilgan sana ushbu tekshiruvni o‘tkazish muddatining boshlanishi deb hisoblanadi.

Soliq to‘lovchiga sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasini topshirilgan yoki soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga elektron hujjat tarzida yuborilgan kun sayyor soliq tekshiruvi muddatining tugashi deb hisoblanadi.

(139-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

(139-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

Sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

(139-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

> **Izoh.** Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 5-bobi.

140-modda. Soliq auditi

Muayyan davr uchun soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lashning to‘g‘riligini tekshirish soliq auditidir.

Soliq auditi soliq to‘lovchilarning (soliq agentlarining) yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga mansub soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) nisbatan o‘tkaziladi.

> **Izoh.** Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo‘yicha toifalash tartibi to‘g‘risidagi nizomning 3-bobi.

Soliq organlari soliq auditi o‘tkazilishi boshlanishidan kamida o‘ttiz kalendar kun oldin soliq to‘lovchiga soliq auditi o‘tkazilishi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi.

Xabarnomada soliq auditining boshlanish sanasi, tekshirilishi lozim bo‘lgan masalalarning ro‘yxati, zarur hujjatlarning dastlabki ro‘yxati, shuningdek soliq auditini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Agar soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash belgilari mavjud bo‘lsa, soliq organi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishgan holda soliq to‘lovchini oldindan xabardor etmasdan soliq auditini boshlashga haqlidir.

Yirik soliq to‘lovchilar toifasiga mansub bo‘lgan soliq to‘lovchilarning soliq auditi Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi tomonidan inspeksiya boshlig‘ining (inspeksiya boshlig‘i o‘rinbosarining) buyrug‘i asosida amalga oshiriladi.

Soliq auditida ishtirok etish uchun boshqa soliq organlarining mansabdor shaxslari jalb etilishi mumkin.

Soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) soliq auditini o‘tkazish to‘g‘risidagi buyrug‘ida tekshiriladigan soliq to‘lovchining nomi va identifikatsiya raqami, tekshiruvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi hamda lavozimi, soliq auditini o‘tkazish muddatlari va maqsadi ko‘rsatiladi.

Soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) soliq auditini o‘tkazish to‘g‘risidagi buyrug‘i bilan uni o‘tkazish dasturi ham tasdiqlanadi.

Ushbu Kodeksning 143-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq auditi faqat ushbu Kodeksning 88-moddasida belgilangan da’vo qilish muddati o‘tmagan oxirgi soliq auditidan keyingi davrni qamrab olishi mumkin.

Soliq to‘lovchi ixtiyoriy ravishda tugatilayotganda soliq auditi, soliq to‘lovchining bevosita soliq auditi o‘tkazilayotgan yildan oldingi uch yildan ko‘p bo‘lmagan faoliyatini qamrab olishi mumkin.

Soliq auditi o‘tkazilayotgan davrda tekshirilayotgan davrning soliq hisobotiga soliq to‘lovchi tomonidan o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq auditi o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

(140-moddaning o‘n uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

> **Izoh.** Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 6-bobi.

141-modda. Soliq auditini o‘tkazish muddati

Agar ushbu Kodeksning 142-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq auditi o‘ttiz kundan ortiq davom etishi mumkin emas.

Soliq auditini o‘tkazish muddati soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) soliq auditini tayinlash to‘g‘risidagi buyruq topshirilgan kunda boshlanadi.

142-modda. Soliq auditini o‘tkazish muddatini uzaytirish

Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq auditini o‘tkazish muddati ikki oygacha, alohida hollarda esa — uch oygacha uzaytirilishi mumkin.

Soliq auditini o‘tkazish muddatini uzaytirish asoslari va tartibini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi belgilaydi.

Soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) soliq auditi o‘tkazilishini quyidagilar uchun ham uzaytirishga haqli:

1) ushbu Kodeksning 146-moddasi birinchi qismiga muvofiq hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish;

2) chet el davlat organlaridan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida axborot olish;

3) ekspertizalar o‘tkazish;

4) chet tilida taqdim etilgan hujjatlarni tarjima qilish.

Soliq auditi muddatini ushbu moddaning uchinchi qismi 1-bandida ko‘rsatilgan asos bo‘yicha uzaytirishga hujjatlar talab qilinayotgan har bir shaxs bo‘yicha ko‘pi bilan bir marta yo‘l qo‘yiladi.

Soliq auditi muddatini uzaytirish soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) tegishli buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

Soliq auditining umumiy muddati olti oydan oshishi mumkin emas.

Soliq auditini o‘tkazish muddati o‘tkazilgan soliq auditi to‘g‘risida dalolatnoma tuzilgan (imzolangan) kunda tugaydi.

143-modda. Soliq auditini o‘tkazishga doir cheklovlar

Soliq organlari soliq to‘lovchining aynan bitta davr uchun aynan bir xil soliqlar bo‘yicha bir martadan ortiq soliq auditini o‘tkazishga haqli emas, bundan soliq auditini o‘tkazish chog‘ida soliq organiga ma’lum bo‘lmagan yangi holatlar aniqlangan hollar mustasno. Yangi holatlar aniqlangan taqdirda soliq organi takroriy soliq auditini tayinlashga haqli.

144-modda. Mansabdor shaxslarning soliq to‘lovchining hududiga kirishi

Bevosita soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi soliq organlari mansabdor shaxslarining tekshirilayotgan shaxsning hududiga yoki binosiga kirishi ushbu mansabdor shaxslar tomonidan xizmat guvohnomalari va soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) ushbu shaxsning soliq tekshiruvini o‘tkazish to‘g‘risidagi buyrug‘i (qarori) taqdim etilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Soliq organlarining bevosita soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxslari ko‘rsatilgan obyektlar to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlarning tekshirilayotgan shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlarga asoslangan ma’lumotlarga muvofiqligini aniqlash maqsadida tekshirilayotgan shaxsning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun foydalaniladigan hududlarini yoki binosini yoxud soliq solish obyektlarini ko‘zdan kechirishni o‘tkazishi mumkin.

Soliq organlarining soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxslariga mazkur hududlarga yoki binolarga (bundan turar-joy binolari mustasno) kirishiga to‘sqinlik qilingan taqdirda soliq organining mansabdor shaxsi o‘zi va tekshirilayotgan shaxs tomonidan imzolanadigan dalolatnomani tuzadi. Bunday dalolatnoma asosida soliq organi tekshirilayotgan shaxs to‘g‘risida o‘zida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar yoki xuddi shunday soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini mustaqil tarzda aniqlashga haqli. Tekshirilayotgan shaxs ko‘rsatilgan dalolatnomani imzolashni rad etgan taqdirda mazkur dalolatnomaga tegishli qayd kiritiladi.

Soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi soliq organlari mansabdor shaxslarining turar-joy binolariga ularda yashovchi jismoniy shaxslarning xoxishiga qaramay yoki xoxishiga qarshi qonunda yoki sudning qarori asosida belgilangan hollardan boshqacha tarzda kirishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

145-modda. Hududni va binolarni ko‘zdan kechirish

Soliq organining soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxslari tekshiruvning to‘liqligi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni aniqlashtirish maqsadida tekshirilayotgan shaxsning hududlari va binolarini, shuningdek hujjatlar va buyumlarni ko‘zdan kechirishni amalga oshirishga haqli.

Agar hujjatlar va buyumlar soliq organining mansabdor shaxsi tomonidan soliq nazoratini amalga oshirish yuzasidan ilgari bajarilgan harakatlar natijasida yoki ushbu buyumlar egasi ularni ko‘zdan kechirishni amalga oshirishga rozi bo‘lgan taqdirda olingan bo‘lsa, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilmagan hollarda hujjatlar va buyumlarni ko‘zdan kechirishga yo‘l qo‘yiladi.

Ko‘zdan kechirish videotasvirga olingan holda amalga oshiriladi, bunday imkoniyat mavjud bo‘lmaganda esa — xolislar ishtirokida amalga oshiriladi.

(145-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

Ko‘zdan kechirish o‘tkazilayotganda tekshirilayotgan shaxs yoki uning vakili, shuningdek mutaxassislar ishtirok etishga haqlidir.

Zarur bo‘lgan hollarda, ko‘zdan kechirish chog‘ida fotosuratga olish va videoyozuvga tushirish amalga oshiriladi, hujjatlardan ko‘chirma nusxalar olinadi yoki ko‘zdan kechirish bilan bog‘liq boshqa harakatlar bajariladi.

Ko‘zdan kechirish o‘tkazilganligi to‘g‘risida bayonnoma tuziladi.

146-modda. Soliq tekshiruvini o‘tkazishda hujjatlarni talab qilib olish

Soliq organining soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan mansabdor shaxsi tekshirilayotgan shaxsdan tekshiruv uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni talab qilib olishga haqli.

Hujjatlar taqdim etish to‘g‘risidagi talabnoma tekshirilayotgan shaxsga (uning qonuniy yoki vakolatli vakiliga) shaxsan imzo qo‘ydirgan holda topshiriladi. Agar hujjatlarni taqdim etish to‘g‘risidagi talabnomani mazkur usulda topshirish imkoni bo‘lmasa, u ushbu Kodeks 19-moddasining ikkinchi qismida belgilangan tartibda yuboriladi.

Talab qilib olinadigan hujjatlar soliq organiga shaxsan yoki vakil orqali taqdim etilishi, pochta orqali buyurtma xat bilan yuborilishi yoxud telekommunikatsiya aloqa tarmoqlari yoki soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron shaklda topshirilishi mumkin.

Hujjatlarni qog‘ozda taqdim etish tekshirilayotgan shaxs tomonidan tasdiqlangan ko‘chirma nusxalar shaklida amalga oshiriladi. Agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq organiga (mansabdor shaxsga) taqdim etiladigan hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini notarial tarzda tasdiqlashni talab qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

(146-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Hisobga olish hujjatlari elektron shaklda tuzilgan taqdirda soliq to‘lovchi (soliq agenti) soliq tekshiruvi chog‘ida soliq organlari mansabdor shaxslarining talabiga ko‘ra bunday hujjatlarning qog‘ozdagi ko‘chirma nusxalarini taqdim etishi shart, bundan elektron hisobvaraq-fakturalarning axborot tizimida ro‘yxatga olingan hisobvaraq-fakturalar mustasno.

Zarur bo‘lgan taqdirda soliq organi hujjatlarning asl nusxalari bilan tanishishga haqli.

Soliq tekshiruvi davomida talab qilib olingan hujjatlar tegishli talabnoma olingan kundan e’tiboran besh kun ichida taqdim etiladi. Agar tekshirilayotgan shaxs talab qilinayotgan hujjatlarni belgilangan muddat ichida taqdim etish imkoniga ega bo‘lmasa, u tekshiruvchi mansabdor shaxslarni bu haqda yozma ravishda xabardor qiladi.

Soliq to‘lovchi talab qilinadigan hujjatlarni ko‘rsatilgan muddatlarda taqdim etishning imkoni yo‘qligi to‘g‘risidagi, talab qilib olinayotgan hujjatlarni taqdim etish imkoni bo‘lmagan sabablar ko‘rsatilgan yozma shakldagi xabarnomani hujjatlar taqdim etish haqidagi talabnoma olingan kundan keyingi kun davomida yuborishi kerak. Xabarnomada soliq to‘lovchi talab qilingan hujjatlarni taqdim eta olishi mumkin bo‘lgan muddatlar ko‘rsatilishi lozim.

Soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) soliq to‘lovchidan xabarnomani olgan kundan e’tiboran ikki kun ichida ushbu xabarnoma asosida hujjatlarni taqdim etish muddatlarini uzaytirish yoki muddatlarni uzaytirishni rad etishga haqli bo‘lib, bu haqda alohida qaror chiqaradi.

Tekshirilayotgan shaxsning talab qilinayotgan hujjatlarni taqdim etishni rad etganligi soliq organining mansabdor shaxsi tomonidan tuziladigan bayonnomada qayd etiladi. Bayonnoma soliq organining mansabdor shaxsi va tekshirilayotgan shaxs tomonidan imzolanadi. Tekshirilayotgan shaxs bayonnomani imzolashni rad etgan taqdirda bu haqda tegishli qayd kiritiladi. Ko‘rsatilgan hujjatlarni taqdim etish soliq to‘lovchi tomonidan rad etilganligi yoki belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganligi ushbu hujjatlarni ushbu Kodeksning 148-moddasida nazarda tutilgan tartibda olib qo‘yish uchun asos bo‘ladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 148-moddasi.

Soliq tekshiruvi va soliq nazoratining boshqa tadbirlari jarayonida soliq organlari tekshirilayotgan shaxsning kameral yoki sayyor soliq tekshiruvlari o‘tkazilganda soliq organlariga ilgari taqdim etilgan hujjatlarni, shuningdek soliq monitoringini o‘tkazish jarayonida tasdiqlangan ko‘chirma nusxalar shaklida taqdim etilgan hujjatlarni tekshirilayotgan shaxsdan talab qilib olishga haqli emas. Agar hujjatlar ilgari soliq organiga asl nusxalar tarzida taqdim etilib, keyinchalik tekshirilayotgan shaxsga qaytarilgan bo‘lsa, shuningdek soliq organiga taqdim etilib, bartaraf etib bo‘lmaydigan kuch holatlari oqibatida yo‘qotilgan taqdirda, hujjatlar tekshirilayotgan shaxsdan qayta talab qilib olinishi mumkin.

147-modda. Uchinchi shaxslardan hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish

Soliq organining soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan mansabdor shaxsi tekshirilayotgan soliq to‘lovchining faoliyatiga taalluqli hujjatlarga (axborotga) ega bo‘lgan kontragentdan yoki boshqa shaxslardan ushbu hujjatlarni (axborotni) talab qilib olishga haqli.

Tekshirilayotgan soliq to‘lovchining (soliq agentining) faoliyatiga taalluqli hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) soliq nazoratining qo‘shimcha tadbirlarini tayinlash to‘g‘risidagi qarori asosida soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish chog‘ida ham amalga oshirilishi mumkin.

Soliq tekshiruvlarini yoki soliq nazoratining boshqa tadbirlarini amalga oshiruvchi soliq organi tekshirilayotgan soliq to‘lovchining faoliyatiga taalluqli hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish to‘g‘risidagi topshiriqnomani mazkur hujjatlar (axborot) talab qilib olinishi kerak bo‘lgan shaxsning hisobda turgan joyidagi soliq organiga yuboradi. Bunda topshiriqnomada soliq nazoratining qaysi tadbirini o‘tkazish chog‘ida hujjatlar (axborot) taqdim etish zarurati yuzaga kelganligi ko‘rsatiladi, muayyan bitimga taalluqli axborot talab qilib olinayotganda esa ushbu bitimni identifikatsiyalash imkonini beruvchi ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Topshiriqnoma olingan kundan e’tiboran uch kun ichida hujjatlar (axborot) qaysi shaxsdan talab qilib olinayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxsning hisobda turgan joyidagi soliq organi ushbu shaxsga hujjatlarni (axborotni) taqdim etish to‘g‘risida talabnoma yuboradi.

Talabnomaga hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish to‘g‘risidagi topshiriqnomaning ko‘chirma nusxasi ilova qilinadi.

Hujjatlarni (axborotni) taqdim etish to‘g‘risidagi talabnomani olgan shaxs talabnoma olingan kundan e’tiboran besh kun ichida uni bajaradi yoki talab qilib olinayotgan hujjatlarga (axborotga) ega emasligini o‘sha muddatda xabar qiladi. Agar talab etiladigan hujjatlarni (axborotni) mazkur muddatda taqdim etish imkoni bo‘lmasa, soliq organi hujjatlar qaysi shaxsdan talab qilib olingan bo‘lsa o‘sha shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra ushbu hujjatlarni (axborotni) taqdim etish muddatini uzaytirishga haqli.

Talab etiladigan hujjatlar ushbu Kodeks 146-moddasining uchinchi — beshinchi va o‘n birinchi qismlarida nazarda tutilgan qoidalar hisobga olingan holda taqdim etiladi.

Hujjatlarni (axborotni) talab qilib olishning ushbu moddada nazarda tutilgan tartibi soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchilariga taalluqli hujjatlarni (axborotni) talab qilib olishda ham qo‘llaniladi.

Hujjatlarni (axborotni) talab qilib olishning ushbu moddada nazarda tutilgan tartibi soliq agentlariga tegishli bo‘lgan hujjatlar va axborotni talab qilib olishda ham qo‘llaniladi.

Hujjatlarni (axborotni) taqdim etish to‘g‘risidagi talabnomani olgan shaxs ushbu moddaning qoidalariga muvofiq bo‘lmagan talabnoma bo‘yicha hujjatlarni (axborotni) taqdim etishni rad etishga haqli.

148-modda. Hujjatlar va buyumlarni olib qo‘yish

Hujjatlar va buyumlarni olib qo‘yish soliq organining soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan mansabdor shaxsining asoslantirilgan qarori asosida amalga oshiriladi.

Hujjatlar va buyumlarni tungi paytda olib qo‘yishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Hujjatlar va buyumlarni olib qo‘yish xolislar hamda hujjatlari va buyumlarini olib qo‘yish amalga oshirilayotgan shaxslar ishtirokida o‘tkaziladi. Zarur bo‘lgan hollarda, olib qo‘yishni amalga oshirishda ishtirok etish uchun mutaxassis taklif etiladi.

Olib qo‘yish boshlanguniga qadar soliq organining mansabdor shaxsi olib qo‘yishni amalga oshirish to‘g‘risidagi qarorni taqdim etadi hamda hozir bo‘lgan shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi.

Soliq organining mansabdor shaxsi hujjatlar va buyumlarini olib qo‘yish amalga oshirilayotgan shaxsga ularni o‘z ixtiyori bilan topshirishni taklif etadi, taklif rad etilgan taqdirda esa olib qo‘yishni majburiy tarzda amalga oshiradi.

O‘ziga nisbatan olib qo‘yish amalga oshirilayotgan shaxs olib qo‘yilishi lozim bo‘lgan hujjatlar va buyumlar saqlanishi mumkin bo‘lgan binolarni yoki boshqa joylarni ochishdan bosh tortganda, soliq organining mansabdor shaxsi tambalarga, eshiklarga va boshqa buyumlarga zarurat sababli yuzaga kelmagan shikast yetkazishdan qochib olib qo‘yishni mustaqil tarzda bajarishga haqli.

Soliq tekshiruvi predmetiga aloqasi bo‘lmagan hujjatlar va buyumlar olib qo‘yilmaydi.

Hujjatlar va buyumlarni olib qo‘yishni amalga oshirish to‘g‘risida ushbu Kodeksning 154-moddasida hamda mazkur moddada nazarda tutilgan talablarga rioya etgan holda bayonnoma tuziladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 154-moddasi.

Olib qo‘yilgan hujjatlar va buyumlar olib qo‘yish bayonnomasida yoki unga ilova qilinadigan ro‘yxatlarda aniq nomi, soni, o‘ziga xos xususiyatlari va imkon qadar buyumlarning qiymati ko‘rsatilgan holda sanab o‘tiladi hamda ro‘yxatga olinadi.

Agar soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish uchun tekshirilayotgan shaxs hujjatlarining ko‘chirma nusxalari yetarli bo‘lmasa hamda soliq organlarida hujjatlarning asl nusxalari yo‘q qilinishi, yashirilishi, o‘zgartirilishi yoki almashtirib qo‘yilishi mumkinligi to‘g‘risida taxmin qilish uchun yetarlicha asoslar mavjud bo‘lsa, soliq organining mansabdor shaxsi hujjatlarning aslini ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda olib qo‘yishga haqli. Bunday hujjatlar olib

qo‘yilayotganda ulardan soliq organining mansabdor shaxsi tomonidan tasdiqlanadigan ko‘chirma nusxalar olinadi va hujjatlar olib qo‘yilayotgan shaxsga topshiriladi.

Hujjatlarni olib qo‘yish bilan bir vaqtning o‘zida ko‘chirma nusxalarni tayyorlash yoki topshirish imkoni bo‘lmagan taqdirda, soliq organi ko‘chirma nusxalarni hujjatlari olib qo‘yilgan shaxsga hujjatlar olib qo‘yilganidan keyin besh kun ichida topshiradi.

Barcha olib qo‘yiladigan hujjatlar va buyumlar xolislarga hamda olib qo‘yishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga ko‘rsatiladi va zarur bo‘lgan taqdirda olib qo‘yilgan joyda o‘raladi.

Olib qo‘yilgan hujjatlar raqamlanishi, tikilishi va olib qo‘yilayotgan shaxsning muhri yoki imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Ushbu shaxs olib qo‘yilayotgan hujjatlarni muhr yoki imzo bilan tasdiqlashdan bosh tortgan taqdirda, olib qo‘yish to‘g‘risidagi bayonnomaga bu haqda maxsus belgi qo‘yiladi.

Hujjatlar va buyumlarni olib qo‘yish to‘g‘risidagi bayonnomaning ko‘chirma nusxasi ular qaysi shaxsdan olib qo‘yilgan bo‘lsa, o‘sha shaxsga imzo qo‘ydirib topshiriladi yoki yuboriladi.

149-modda. Guvohning ishtiroki

Soliq nazoratini amalga oshirish uchun ahamiyatga ega biror-bir holatlar o‘ziga ma’lum bo‘lgan har qanday voyaga yetgan jismoniy shaxs ko‘rsatmalar berish uchun guvoh sifatida chaqirilishi mumkin.

Guvohning ko‘rsatmalari bayonnomaga kiritiladi.

Guvoh sifatida quyidagi shaxslar jalb etilishi mumkin emas:

o‘zining jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari sababli soliq nazoratini amalga oshirish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni to‘g‘ri idrok etishga qodir bo‘lmagan shaxslar;

o‘z kasbiy majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan soliq nazoratini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan va ushbu shaxslarning kasbiy siriga taalluqli bo‘lgan axborotni olgan shaxslar. Chunonchi, bunday shaxslar jumlasiga — advokat, auditor, soliq maslahatchisi va mediator kiradi.

(149-moddasi uchinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 20-oktabrdagi O‘RQ-1089-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2025-y., 03/25/1089/0953-son)

Guvohning ko‘rsatmalari, agar u kasalligi, keksaligi, nogironligi tufayli soliq organiga kela olmasa, u turgan joyda olinishi mumkin.

Ko‘rsatmalar olishdan avval soliq organining mansabdor shaxsi guvohni ko‘rsatmalar berishni rad etganlik yoki bundan bosh tortganlik yoxud bila turib yolg‘on ko‘rsatmalar berganlik uchun javobgarlik to‘g‘risida ogohlantiradi, bu haqda bayonnomaga guvohning imzosi bilan tasdiqlanadigan belgi kiritiladi.

Soliq organiga guvoh sifatida chaqirilgan xodimlar uchun soliq organiga kelganligi sababli ishda bo‘lmagan vaqt uchun asosiy ish joyidagi oylik ish haqi saqlanib qoladi.

150-modda. Ekspertiza

Zarur bo‘lgan hollarda, soliq nazoratini amalga oshirishga doir aniq harakatlarni o‘tkazishda ishtirok etish uchun ekspert jalb etilishi mumkin.

Shaxsni ekspert sifatida jalb etish soliq organi va ekspert o‘rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Agar yuzaga keladigan masalalarni tushuntirish uchun ilm-fan, san’at, texnika yoki hunarmandchilik sohasidagi maxsus bilimlar talab etilsa, ekspertiza tayinlanadi. Soliq organining soliq nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxsida bunday bilimlarga egaligi ekspertiza tayinlash zaruratidan ozod etmaydi.

Ekspert oldida qo‘yilgan masalalar va uning xulosasi ekspertning maxsus bilimlari doirasidan chiqishi mumkin emas.

Ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qarorni soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan mansabdor shaxsning iltimosnomasi asosida soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) qabul qiladi.

Qarorda ekspertizani tayinlash uchun asoslar, ekspertiza o‘tkazishi kerak bo‘lgan tashkilotning nomi yoki ekspertning familiyasi, ismi, otasining ismi, ekspertning oldiga qo‘yiladigan masalalar va uning ixtiyoriga beriladigan

materiallar koʻrsatiladi. Ekspert ekspertiza predmetiga taalluqli tekshiruv materiallari bilan tanishishga, oʻziga qoʻshimcha materiallar taqdim etilishi toʻgʻrisida iltimosnomalar berishga haqli.

Ekspert xulosani oʻz nomidan yozma shaklda beradi. Ekspert xulosasida oʻzi oʻtkazgan tekshirishlar, ular asosida qilingan xulosalar hamda qoʻyilgan masalalarga asoslantirilgan javoblar bayon etiladi.

Agar ekspertga berilgan materiallar yetarli boʻlmasa yoki u ekspertiza oʻtkazish uchun zarur bilimlarga ega boʻlmasa, ekspert xulosa berishni rad etishi mumkin.

Soliq tekshiruvini oʻtkazayotgan soliq organining mansabdor shaxsi tekshirilayotgan shaxsni ekspertiza tayinlanganligi toʻgʻrisidagi qaror bilan tanishtirishi va uning ushbu moddaning oʻninchi qismida nazarda tutilgan huquqlarini tushuntirishi shart boʻlib, bu haqda bayonnoma tuziladi.

Ekspertiza tayinlash va oʻtkazish jarayonida tekshirilayotgan shaxs:

1) ekspertni rad etish;

2) ekspertni oʻzi koʻrsatgan shaxslar orasidan tayinlash toʻgʻrisida iltimos qilish;

3) qoʻshimcha savollarni taqdim etib, ular yuzasidan ekspert xulosasini olish;

4) soliq organi mansabdor shaxsining ruxsati bilan ekspertiza oʻtkazishda ishtirok etish va ekspertga tushuntirishlar berish;

5) ekspertning xulosasi bilan tanishish;

6) ekspertning xulosasi yuzasidan asoslantirilgan fikr taqdim etish huquqiga ega.

> **Izoh.** Qarang: “Sud ekspertizasi toʻgʻrisida”gi Qonuni

151-modda. Mutaxassisni jalb etish

Zarur boʻlgan hollarda, soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarda ishtirok etish uchun soliq organi tomonidan maxsus bilim va koʻnikmalarga ega boʻlgan hamda ishning natijasidan manfaatdor boʻlmagan mutaxassis jalb etilishi mumkin.

Shaxsning mutaxassis sifatida jalb qilinishi soliq organi va mutaxassis oʻrtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Shaxsning mutaxassis sifatida ishtirok etishi uning guvoh sifatida aynan shu holatlar yuzasidan soʻroq qilinishi imkoniyatini istisno etmaydi.

152-modda. Tarjimonning ishtiroki

Zarur boʻlgan hollarda, soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarda ishtirok etish uchun tarjimon jalb etilishi mumkin.

Ishning natijasidan manfaatdor boʻlmagan, tarjima qilish uchun zarur darajada til biladigan yoki kar yoxud soqov jismoniy shaxsning imo-ishoralarini tushunadigan shaxs tarjimonlik qilishi mumkin.

Shaxsning tarjimon sifatida jalb qilinishi soliq organi va tarjimon oʻrtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Tarjimon soliq organi mansabdor shaxsining chaqiruviga binoan kelishi va oʻziga topshirilgan tarjimani aniq bajarishi shart.

153-modda. Soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarning xolisligini ta’minlash

Soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarning xolisligi videotasvirga olish qurilmalaridan foydalanish vositasida amalga oshiriladi, bunday imkoniyat mavjud boʻlmaganda esa — xolislar ishtirokida amalga oshiriladi.

Videotasvirni yozib olish toʻxtovsiz va izchil ravishda olib boriladi. Videotasvir materiallarining koʻchirma nusxasi soliq toʻlovchiga yoki uning vakiliga soliq nazoratiga oid tadbir tugagach taqdim etiladi.

Soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarda videotasvirga olish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi tomonidan belgilanadi.

Qonunchilikda videoyozuv taqiqlangan hollarda yoki videoyozuvga olish imkoniyati mavjud bo‘lmaganda xolislar soliq nazoratini amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlarga majburiy tartibda jalb etiladi.

(153-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

154-modda. Soliq nazorati doirasida harakatlarni amalga oshirish chog‘idagi bayonnomaga qo‘yiladigan umumiy talablar

Soliq nazorati harakatlarini o‘tkazish chog‘ida bayonnoma tuziladi. Bayonnomada quyidagilar ko‘rsatiladi:

1) tekshirish o‘tkazishning asoslari, turi va davri;

2) amalga oshiriladigan aniq harakatning joyi va sanasi;

3) harakatning boshlanish va tugash vaqti;

4) bayonnomani tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi;

5) harakatda ishtirok etgan yoki uni o‘tkazishda hozir bo‘lgan har bir shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, zarur bo‘lgan hollarda esa — uning manzili;

6) harakatning mazmuni, uni amalga oshirish ketma-ketligi;

7) harakatni bajarish chog‘ida aniqlangan, ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan faktlar va holatlar.

Bayonnoma harakatlarni amalga oshirishda ishtirok etgan yoki uni o‘tkazishda hozir bo‘lgan barcha shaxslar tomonidan o‘qib chiqiladi. Mazkur shaxslar bayonnomaga kiritilishi yoki materiallarga qo‘shib qo‘yilishi lozim bo‘lgan fikr-mulohazalarini bildirishga haqli.

Bayonnoma soliq organining uni tuzgan mansabdor shaxsi, shuningdek harakatni amalga oshirishda ishtirok etgan yoki uni o‘tkazishda hozir bo‘lgan barcha shaxslar tomonidan imzolanadi.

Bayonnomaga fotosuratlar, videoyozuvlar va harakatni amalga oshirish chog‘ida bajarilgan boshqa materiallar ilova qilinadi.

155-modda. Soliq tekshiruvini o‘tkazish chog‘ida g‘ayriqonuniy harakatlar orqali zarar yetkazilishiga yo‘l qo‘ymaslik

Soliq tekshiruvini o‘tkazish chog‘ida tekshirilayotgan shaxslarga yoki ularning egaligida, foydalanishida yoxud tasarrufida bo‘lgan mol-mulkka g‘ayriqonuniy harakatlar orqali zarar yetkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq tekshiruvini o‘tkazish chog‘ida soliq organlarining g‘ayriqonuniy qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining harakatlari orqali yetkazilgan zararning o‘rni to‘liq hajmda qoplanishi lozim.

Soliq organlarining g‘ayriqonuniy qarorlari orqali tekshirilayotgan shaxslarga yetkazilgan zarar uchun ularning mansabdor shaxslari qonunda nazarda tutilgan tartibda javobgar bo‘ladi.

Soliq organlari mansabdor shaxslarining qonuniy harakatlari orqali tekshirilayotgan shaxslarga yoki ularning vakillariga yetkazilgan zararning o‘rni qoplanmaydi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

(155-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

18-bob. Soliq tekshiruvlarining va soliq nazorati boshqa choralarining huquqiy oqibatlari

156-modda. Soliq auditi natijalarini rasmiylashtirish

Soliq auditi natijalariga ko‘ra soliq organlarining ushbu tekshiruvni o‘tkazgan vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan soliq auditi dalolatnomasi tuzilishi kerak.

Soliq auditi dalolatnomasida quyidagilar ko‘rsatiladi:

1) soliq auditi dalolatnomasini tuzish sanasi – ushbu tekshiruvni o‘tkazgan shaxslar tomonidan dalolatnoma imzolangan sana;

2) tekshirilayotgan shaxsning to‘liq va qisqartirilgan nomi yoki familiyasi, ismi, otasining ismi. Yuridik shaxs uning alohida bo‘linmasi joylashgan yerda tekshirilgan taqdirda yuridik shaxsning nomidan tashqari tekshirilayotgan alohida bo‘linmaning to‘liq va qisqartirilgan nomi hamda uning joylashgan yeri ko‘rsatiladi;

3) o‘zlari vakili bo‘lgan soliq organining nomi ko‘rsatilgan holda soliq auditini o‘tkazgan shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi, ularning lavozimlari;

4) soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) soliq auditi o‘tkazish to‘g‘risidagi buyrug‘i sanasi va raqami;

5) soliq auditi davomida tekshirilayotgan shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlar ro‘yxati;

6) soliq auditi o‘tkazilgan davr;

7) soliq auditi qaysi soliqqa nisbatan o‘tkazilgan bo‘lsa, o‘sha soliqning nomi;

8) soliq auditi boshlangan va tugagan sana;

9) yuridik shaxs joylashgan yerning yoki jismoniy shaxs yashash joyining manzili;

10) soliq auditini amalga oshirish chog‘ida o‘tkazilgan soliq nazorati tadbirlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

11) soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning tegishli normasiga havola qilgan holda soliqqa oid huquqbuzarlikning (u mavjud bo‘lgan taqdirda) batafsil tavsifi;

(156-modda ikkinchi qismining 11-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

12) soliq auditi natijalari bo‘yicha xulosalar va takliflar.

Agar o‘tkazilgan soliq auditi natijalariga ko‘ra soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishlari aniqlanmagan bo‘lsa, bu haqda soliq auditi dalolatnomasida qayd etiladi.

(156-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq auditi dalolatnomasiga tekshiruv davomida aniqlangan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishlari faktlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

(156-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq auditi dalolatnomasi shaklini va uni tuzishga doir talablarni O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi belgilaydi.

Soliq auditi dalolatnomasi kamida uch nusxada tuziladi.

Soliq auditi dalolatnomasining barcha nusxalari soliq organining soliq auditini o‘tkazgan mansabdor shaxslari tomonidan imzolanadi. Soliq auditi dalolatnomasining bir nusxasi soliq to‘lovchiga tekshiruv tugaganidan keyin uch kun ichida topshiriladi. Soliq to‘lovchi dalolatnomaning barcha nusxalariga uni olgan sanani ko‘rsatgan holda soliq auditi dalolatnomasini olganligiga imzo qo‘yishi shart. Soliq auditi dalolatnomasining soliq organida qolgan nusxalari soliq auditi materiallariga qo‘shib qo‘yiladi.

Soliq to‘lovchining soliq auditi dalolatnomasidagi imzosi uning soliq auditi natijalariga roziligini bildirmaydi.

Soliq to‘lovchi (uning vakili) soliq auditi dalolatnomasini olishdan bosh tortgan taqdirda, soliq organining mansabdor shaxsi bu haqda soliq auditi dalolatnomasiga tegishli yozuv kiritadi. Bunday holda soliq auditi dalolatnomasining bir nusxasi soliq to‘lovchiga yuridik shaxs (alohida bo‘linma) joylashgan yer bo‘yicha yoki jismoniy shaxsning yashash joyi bo‘yicha pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi.

Soliq auditi dalolatnomasi pochta orqali buyurtma xat bilan yuborilgan taqdirda buyurtma xat yuborilgan sanadan boshlab hisoblaganda beshinchi kun ushbu dalolatnoma topshirilgan sana deb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirmaydigan chet el yuridik shaxsiga (bundan xalqaro tashkilot yoki diplomatik vakolatxona mustasno) soliq auditi dalolatnomasi pochta orqali O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestridagi manzil bo‘yicha buyurtma xat bilan yuboriladi. Buyurtma xat yuborilgan sanadan boshlab hisoblaganda yigirmanchi kun ushbu dalolatnoma topshirilgan sana deb hisoblanadi.

O‘ziga nisbatan soliq auditi o‘tkazilgan shaxs (uning vakili) soliq tekshiruvi dalolatnomasida bayon etilgan faktlarga va (yoki) tekshiruvchilarning xulosalari hamda takliflariga rozi bo‘lmagan taqdirda, soliq auditi dalolatnomasini olgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida tegishli soliq organiga mazkur dalolatnoma bo‘yicha umuman yoki uning ayrim holatlari yuzasidan yozma e’tirozlarini taqdim etishga haqli.

Soliq to‘lovchi o‘z e’tirozlarining asoslanganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (ularning tasdiqlangan ko‘chirma nusxalarini) yozma e’tirozlarga ilova qilishga yoki kelishilgan muddatda soliq organiga topshirishga haqli.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 21 va 67-moddalari.

157-modda. Soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish tartibi

Soliq auditi, sayyor soliq tekshiruvi yoki qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi doirasida o‘tkazilgan taftish natijasida aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar ushbu Kodeksning 158 va 159-moddalarida nazarda tutilgan tartibda ko‘rib chiqiladi. Mazkur ko‘rib chiqish tartibi ushbu Kodeksning 223 yoki 224-moddalarida nazarda tutilgan soliqqa oid huquqbuzarliklarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

(157-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 223 va 224-moddalari.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilmagan, soliq tekshiruvi va (yoki) soliq nazoratining boshqa tadbirlari natijasida aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar, agar ushbu Kodeksning 159¹-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushbu Kodeksning 165 va 166-moddalarida nazarda tutilgan tartibda ko‘rib chiqiladi.

(157-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 165 va 166-moddalari.

Soliq organlarining mansabdor shaxslari tomonidan ushbu Kodeksda belgilangan talablarga rioya etmaslik yuqori turuvchi soliq organi yoki sud tomonidan soliq organining qarorini bekor qilish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish tartib-taomilining muhim shartlarini buzish yuqori turuvchi soliq organi yoki sud tomonidan soliq organining soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish va (yoki) soliq summalarini qo‘shib hisoblash to‘g‘risidagi qarorini bekor qilish uchun asos bo‘ladi. Bunday muhim shartlar jumlasiga o‘ziga nisbatan soliq tekshiruvi o‘tkazilgan shaxsning soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish jarayonida shaxsan va (yoki) o‘z vakili orqali ishtirok etish imkoniyatini ta’minlash hamda soliq to‘lovchining tushuntirishlar berish imkonini ta’minlash kiradi.

Soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish tartib-taomilining boshqacha buzilishlari ham, agar bunday qoidabuzarliklar soliq organi rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan g‘ayriqonuniy qaror qabul qilishga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lsa, yuqori turuvchi soliq organi yoki sud tomonidan soliq organining qarorini bekor qilish uchun asos bo‘lishi mumkin.

158-modda. Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish tartibi

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlari qaysi soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi davomida aniqlangan bo‘lsa, o‘sha soliq auditi dalolatnomasi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi materiallari, agar ushbu Kodeksning 159¹-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq tekshiruvini o‘tkazgan soliq organi yoki soliq tekshiruvi boshqa hududiy soliq organi yoxud boshqa vakolatli organ tomonidan o‘tkazilgan hollarda, shu soliq to‘lovchi ro‘yxatdan o‘tgan soliq organining rahbari (rahbari o‘rinbosari) tomonidan ushbu soliq tekshiruvi dalolatnomasi tuzilgan kundan e’tiboran o‘n kun o‘tgach, lekin o‘n besh kundan kechiktirmay ko‘rib chiqilishi kerak. Ularga doir qaror soliq tekshiruvi materiallari ko‘rib chiqilganidan keyin besh kundan kechiktirmay qabul qilinishi lozim.

(158-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Agar tekshirilayotgan shaxs (uning vakili) soliq auditining dalolatnomasiga va (yoki) sayyor soliq tekshiruvining materiallariga doir yozma e’tirozlarini ushbu Kodeksning 156-moddasi o‘n ikkinchi qismida nazarda tutilgan

muddatlarda taqdim etgan bo‘lsa, ushbu e’tirozlar ham ko‘rib chiqilishi lozim.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 156-moddasi.

Soliq organi tekshiruv materiallari ko‘rib chiqiladigan sana, vaqt va joy to‘g‘risida soliq to‘lovchini ularni ko‘rib chiqish boshlanguniga qadar kamida ikki ish kuni oldin xabardor qiladi. Soliq to‘lovchining iltimosnomasi yoki soliq organining tashabbusi (soliq to‘lovchining roziligi) bilan, taraflarda videokonferensaloqani amalga oshirishning texnik imkoniyati mavjud bo‘lganda tekshiruv materiallari videokonferensaloqa rejimida ko‘rib chiqilishi va uning audio-vizual tartibda yozib olingan shakli soliq to‘lovchiga uning shaxsiy kabineti orqali yetkazib berilishi mumkin. Tekshiruv materiallari ushbu rejimda ko‘rib chiqiladigan sana va elektron manzil haqida soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga ko‘rib chiqish boshlanguniga qadar kamida ikki ish kuni oldin xabar yuboriladi.

(158-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Agar soliq to‘lovchi soliq organini uzrli sabablarga ko‘ra soliq tekshiruvi materiallarining ko‘rib chiqilishiga kela olmasligi to‘g‘risida xabardor qilgan bo‘lsa, soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) soliq tekshiruvi materiallarining ko‘rib chiqishni besh kundan ortiq bo‘lmagan muddatga qoldirish to‘g‘risida qaror qabul qiladi, soliq to‘lovchi bu haqda xabardor qilinadi.

(158-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

O‘ziga nisbatan soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazilgan shaxs soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish jarayonida shaxsan va (yoki) o‘z vakili orqali ishtirok etishga haqli.

O‘ziga nisbatan soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazilgan, tekshiruv materiallari ko‘rib chiqiladigan vaqt va joy haqida tegishli tarzda xabardor qilingan shaxsning (uning vakilining) kelmaganligi soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish uchun to‘sqinlik qilmaydi, bundan ushbu shaxsning ishtirok etishi soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan mazkur materiallar ko‘rib chiqilishi uchun shart deb topilgan holatlar mustasno.

Soliq tekshiruvi materiallarini mohiyatiga ko‘ra ko‘rib chiqishdan oldin soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari):

1) ishni kim ko‘rib chiqayotganligini va qaysi soliq tekshiruvi materiallari ko‘rib chiqilishi lozimligini e’lon qilishi;

2) ko‘rib chiqishda ishtirok etish uchun taklif etilgan shaxslarning kelgan-kelmaganligi faktini aniqlashi shart.

Ushbu shaxslar kelmagan taqdirda soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) ish yuritish ishtirokchilari belgilangan tartibda xabardor qilingan-qilinmaganligini aniqlashtiradi va soliq tekshiruvi materiallarini mazkur shaxslarning yo‘qligida ko‘rib chiqish yoki ushbu ko‘rib chiqishni keyinga qoldirish to‘g‘risida qaror qabul qiladi;

3) o‘ziga nisbatan soliq tekshiruvi o‘tkazilgan shaxsning vakili ishtirok etgan taqdirda ushbu vakilning vakolatlarini tekshirishi;

4) ko‘rib chiqish tartib-taomilida ishtirok etayotgan shaxslarga ularning huquqlari va majburiyatlarini tushuntirishi;

5) ko‘rib chiqish uchun ishtirok etishi zarur bo‘lgan shaxs kelmagan taqdirda, soliq tekshiruvi materiallarining ko‘rib chiqilishini keyinga qoldirish to‘g‘risida qaror chiqarishi kerak.

Soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish chog‘ida tekshiruv dalolatnomasi, zarur bo‘lgan taqdirda esa soliq nazorati tadbirlarining boshqa materiallari, shuningdek o‘ziga nisbatan tekshiruv o‘tkazilgan shaxsning yozma e’tirozlari ham o‘qib eshittirilishi mumkin.

Yozma e’tirozlarning mavjud emasligi ushbu shaxsni (uning vakilini) tekshiruv materiallarini ko‘rib chiqish bosqichida o‘z tushuntirishlarini berish huquqidan mahrum etmaydi.

Soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish vaqtida taqdim etilgan dalillar, shu jumladan o‘ziga nisbatan tekshiruv o‘tkazilgan shaxsdan ilgari talab qilib olingan hujjatlar, ushbu shaxs soliq tekshiruvlaridan o‘tkazilganda soliq organlariga taqdim etilgan hujjatlar hamda soliq organida mavjud bo‘lgan boshqa hujjatlar o‘rganiladi.

Ushbu Kodeks talablari buzilgan holda olingan dalillardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risidagi qo‘shimcha ma’lumotlar (axborot), agar ular ushbu Kodeksda belgilangan muddatlar buzilgan holda soliq organiga taqdim etilgan bo‘lsa ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

Soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish davomida zarur bo‘lgan taqdirda ushbu ko‘rib chiqishda ishtirok etish uchun guvohni, ekspertni, mutaxassisni jalb etish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi mumkin.

Soliq tekshiruvi materiallari ko‘rib chiqilayotganda bayonnoma yuritiladi.

Soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish jarayonida soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari):

1) o‘ziga nisbatan tekshiruv dalolatnomasi tuzilgan shaxs soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishini sodir etgan-etmaganligini;

(158-modda o‘n beshinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) aniqlangan qoidabuzarliklar soliqqa oid huquqbuzarlik alomatini tashkil etish-etmasligini;

3) shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishga asoslar mavjud-mavjud emasligini;

4) soliq to‘lovchining e’tirozlari asoslanganligini belgilaydi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik alomati mavjud bo‘lgan taqdirda soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishdagi aybini istisno etuvchi holatlarni yoki soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikni yumshatuvchi yoxud og‘irlashtiruvchi holatlarni aniqlaydi.

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlari sodir etilganligi faktini tasdiqlash uchun qo‘shimcha dalillar olish zarur bo‘lgan taqdirda yoki ular bo‘lmaganda soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) soliq nazoratining qo‘shimcha tadbirlarini bir oydan oshiq bo‘lmagan muddatda o‘tkazish to‘g‘risida qaror chiqarishga haqlidir.

(158-moddaning o‘n yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq nazoratining qo‘shimcha tadbirlarini tayinlash to‘g‘risidagi qarorda bunday qo‘shimcha tadbirlarni o‘tkazish zaruratini keltirib chiqargan holatlar bayon etiladi, ularni o‘tkazish muddati va aniq shakli ko‘rsatiladi.

Soliq nazoratining qo‘shimcha tadbirlari sifatida ushbu Kodeksning 146 va 147-moddalariga muvofiq hujjatlarni talab qilib olish, guvohni so‘roq qilish, ekspertiza amalga oshirilishi mumkin.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 146 va 147-moddalari.

Soliq nazorati qo‘shimcha tadbirlarining boshlanishi va tugashi, soliq nazoratining o‘tkazilgan qo‘shimcha tadbirlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlari sodir etilganligi yoki ularning mavjud emasligi faktini tasdiqlash uchun olingan qo‘shimcha dalillar, tekshiruvchilarning aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etishga doir xulosalari va takliflari hamda ushbu Kodeksning moddalariga oid havolalar, agar ushbu Kodeksda soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning ushbu buzilishlari uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lsa, soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasiga doir qo‘shimchada qayd etiladi.

(158-moddaning yigirmanchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasiga doir qo‘shimcha soliq nazoratining qo‘shimcha tadbirlarini o‘tkazgan soliq organining mansabdor shaxslari tomonidan bunday tadbirlar tugagan kundan e’tiboran o‘n kun ichida tuzilishi va imzolanishi kerak.

Soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasiga doir qo‘shimcha soliq nazoratining qo‘shimcha tadbirlari natijasida olingan materiallar ilova qilingan holda ushbu qo‘shimcha tuzilgan sanadan e’tiboran uch kun ichida o‘ziga nisbatan tekshiruv o‘tkazilgan shaxsga (uning vakiliga) imzo qo‘ydirib berilishi yoki u olingan sana to‘g‘risida dalolat beruvchi boshqa usulda topshirilishi kerak.

Agar o‘ziga nisbatan tekshiruv o‘tkazilgan shaxs (uning vakili) soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasiga doir qo‘shimchani olishdan bosh tortsa, bunday fakt tekshiruv dalolatnomasiga doir qo‘shimchada aks ettiriladi. Bunday holda soliq tekshiruvi dalolatnomasiga doir qo‘shimcha tashkilotning (alohida bo‘linmaning)

joylashgan yeri yoki jismoniy shaxsning yashash joyi bo‘yicha pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi va buyurtma xat yuborilgan sanadan e’tiboran beshinchi kunda qabul qilingan deb hisoblanadi.

O‘ziga nisbatan soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazilgan shaxs (uning vakili) soliq tekshiruvi dalolatnomasiga doir qo‘shimcha olingan kundan e’tiboran o‘n kun ichida tekshiruv dalolatnomasiga doir bunday qo‘shimcha bo‘yicha umuman yoki uning alohida qoidalari yuzasidan yozma e’tirozlarini taqdim etishga haqli.

159-modda. Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qaror qabul qilish

Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ushbu Kodeksning 158-moddasida nazarda tutilgan tartibda ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari), agar ushbu Kodeksning 159¹-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa quyidagilarni nazarda tutuvchi qarorni (bundan buyon matnda soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qaror deb yuritiladi) qabul qiladi:

(159-modda birinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

1) soliqlar va penyalar qo‘shib hisoblash yoki buni rad etish;

(159-modda birinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

2) soliq to‘lovchini soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish yoki buni rad etish.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 158-moddasi.

Shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorda sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarlik holatlari mazkur holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar va boshqa ma’lumotlarga, o‘ziga nisbatan tekshiruv o‘tkazilgan shaxs tomonidan o‘z himoyasi uchun keltiriladigan vajlarga hamda ushbu vajlarni tekshirish natijalariga havola qilgan holda, o‘tkazilgan soliq tekshiruvida qanday belgilangan bo‘lsa, shunday bayon etiladi.

Shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorda ushbu Kodeksning shu huquqbuzarliklarni nazarda tutuvchi moddalari va qo‘llaniladigan javobgarlik choralari ko‘rsatiladi.

Soliqlarni qo‘shib hisoblashni nazarda tutuvchi qarorda, agar soliqlarga oid qarzdorlik tekshiruv jarayonida aniqlangan bo‘lsa, soliqlarga oid aniqlangan ushbu qarzdorlik miqdori va tegishli penyalar summasi ko‘rsatiladi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishni rad etishni nazarda tutuvchi qarorda bunday rad etish uchun asos bo‘lgan holatlar bayon etiladi.

Soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qarorda o‘ziga nisbatan qaror chiqarilgan shaxs ushbu qaror ustidan qaysi muddat ichida shikoyat qilishga haqli bo‘lsa, o‘sha muddat va qaror ustidan yuqori turuvchi soliq organiga yoki sudga shikoyat qilish tartibi ko‘rsatiladi.

(159-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 20-fevraldagi O‘RQ-910-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.02.2024-y., 03/24/910/0140-son)

Agar soliq auditi jarayonida soliq organining qarori asosida ortiqcha qaytarilgan soliq summasi aniqlangan bo‘lsa, soliqlar summalarini qo‘shib hisoblash to‘g‘risidagi qarorda mazkur summa ushbu soliq bo‘yicha soliq qarzi deb e’tirof etiladi. Ushbu soliq summasi soliq to‘lovchiga qaytarilgan taqdirda, u mablag‘larni haqiqatda olgan kundan e’tiboran, soliq summasi hisobga o‘tkazishga qabul qilingan taqdirda esa — ushbu soliq summasi hisobga olishga qabul qilingan kundan e’tiboran ushbu summa soliq qarzi deb e’tirof etiladi.

Soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qaror qabul qilinganidan keyin soliq organining rahbari (rahbari o‘rinbosari) ushbu Kodeksning 161-moddasida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda ushbu qarorning ijrosi uchun ta’minlash choralarini ko‘rishga haqli.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 161-moddasi.

159¹-modda. Ayrim hollarda sayyor soliq tekshiruvini tashkil etish, tekshiruv materiallarini ko‘rib chiqish hamda natijalari bo‘yicha qaror qabul qilishning o‘ziga xos xususiyatlari

Soliq organlari xodimlari tomonidan ularga biriktirilgan korxonalardagi yoki mahallalardagi soliq to‘lovchilarda ushbu Kodeks 221-moddasining birinchi qismida, 223-moddasi uchinchi qismining o‘n uchinchi va o‘n beshinchi

xatboshilarida, 429-moddasining o‘n yettinchi qismida belgilangan soliqqa oid huquqbuzarliklar yoki holatlar sodir etilgani aniqlangan taqdirda, birinchi marta rasmiy ogohlantiriladi va ushbu hujjat elektron tarzda soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi. Mazkur soliqqa oid huquqbuzarliklar yoki holatlar rasmiy ogohlantirishdan keyin uch kun muddatda bartaraf etilmagan va (yoki) ular qayta sodir etilganligi aniqlangan taqdirda, ushbu soliq to‘lovchida sayyor soliq tekshiruvlari o‘tkaziladi.

Ushbu Kodeks 223-moddasi uchinchi qismining o‘n uchinchi va o‘n beshinchi xatboshilarida nazarda tutilgan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo‘yicha sayyor soliq tekshiruvi materiallari soliq tekshiruvini o‘tkazgan soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan ushbu soliq tekshiruvi dalolatnomasi tuzilgan kundan e’tiboran bir kun o‘tgach, lekin uch kundan kechiktirmay ko‘rib chiqilishi kerak. Ularga doir qaror soliq tekshiruvi materiallari ko‘rib chiqilganidan keyin bir kundan kechiktirmay qabul qilinishi lozim.

Ushbu Kodeks 165-moddasining ikkinchi qismida va oltinchi — o‘n sakkizinchi qismlarida nazarda tutilgan qoidalar mazkur Kodeks 221-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan soliqqa oid huquqbuzarliklar hamda 429-moddasining o‘n yettinchi qismida nazarda tutilgan holatlar bo‘yicha o‘tkazilgan sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasiga nisbatan qo‘llanilmaydi. Mazkur huquqbuzarliklar yoki holatlar bo‘yicha o‘tkazilgan sayyor soliq tekshiruvi to‘g‘risida tuzilgan dalolatnoma asosida qaror soliq tekshiruvini o‘tkazgan soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan ushbu soliq tekshiruvi dalolatnomasi tuzilgan kundan e’tiboran bir kun o‘tgach, lekin uch kundan kechiktirmay qabul qilinishi lozim.

Sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda qabul qilingan qaror o‘ziga nisbatan ushbu qaror qabul qilingan shaxsga (shaxsning vakiliga) berilgan yoki soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga elektron hujjat tarzida yuborilgan kundan e’tiboran uch kun o‘tgach kuchga kiradi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan soliqqa oid huquqbuzarliklarni yoki holatlarni birinchi marta sodir etgan tadbirkorlik subyektini rasmiy ogohlantirish shakli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

(159¹-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

160-modda. Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qarorning kuchga kirishi

Soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha ushbu Kodeksning 159-moddasida nazarda tutilgan tartibda qabul qilingan qaror, agar ushbu Kodeksning 159¹-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa o‘ziga nisbatan ushbu qaror qabul qilingan shaxsga (shaxsning vakiliga) berilgan kundan e’tiboran bir oy o‘tgach kuchga kiradi.

(160-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qaror u qabul qilingan kundan e’tiboran ikki kun ichida o‘ziga nisbatan ushbu qaror qabul qilingan shaxsga (uning vakiliga) imzo qo‘ydirib berilishi yoki olingan sana to‘g‘risida dalolat beruvchi boshqa usul orqali topshirilishi kerak.

Agar qarorni berish yoki u olingan sana to‘g‘risida dalolat beruvchi boshqa usulda topshirish imkoni bo‘lmasa, u yuridik shaxsning (alohida bo‘linmaning) joylashgan yeri yoki jismoniy shaxsning yashash joyi bo‘yicha pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi. Qaror pochta orqali buyurtma xat bilan yuborilganda buyurtma xat yuborilgan kundan e’tiboran beshinchi kun u berilgan sana deb hisoblanadi.

Soliq organining qarori ustidan shikoyat berilgan taqdirda, mazkur qaror ushbu Kodeksning 163-moddasida nazarda tutilgan tartibda kuchga kiradi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 163-moddasi.

O‘ziga nisbatan tegishli qaror chiqarilgan shaxs qaror kuchga kirguniga qadar uni to‘liq yoki qisman ijro etishga haqli. Bunda shikoyatning berilishi shaxsni kuchga kirmagan qarorni to‘liq yoki qisman ijro etish huquqidan mahrum etmaydi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 159-moddasi.

161-modda. Ta’minlash choralari

Soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qaror qabul qilinganidan so‘ng soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) mazkur qarorni ijro etish imkonini ta’minlashga qaratilgan choralarni (ta’minlash choralarini) ko‘rishga haqli.

Agar ushbu choralarni ko‘rmaslik keyinchalik ushbu qarorning ijrosini va (yoki) soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan soliq qarzini undirishni qiyinlashtirishi mumkin yoxud undirishni imkonsiz qilib qo‘yadi deb taxmin qilish uchun yetarlicha asoslar bo‘lsa, ta’minlash choralari ko‘riladi.

Ta’minlash choralarini ko‘rish uchun soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tegishli qaror qabul qiladi. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi va soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qaror ijro etiladigan va (yoki) soliqlar qo‘shib hisoblanadigan kunga qadar yoxud yuqori turuvchi soliq organi yoki sud tomonidan qabul qilingan qaror bekor qilingan kunga qadar amal qiladi.

Soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) ushbu moddaning o‘n birinchi qismida nazarda tutilgan hollarda ta’minlash choralarini bekor qilish yoki ularni almashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli.

Ta’minlash choralarini bekor qilish (almashtirish) to‘g‘risidagi qaror u chiqarilgan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Soliq organining roziligisiz mol-mulkni boshqa shaxsning ixtiyoriga o‘tkazishga (garovga qo‘yishga) doir taqiq va ushbu Kodeksning 111-moddasida belgilangan tartibda bankdagi hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish ta’minlash choralari bo‘lishi mumkin.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 111-moddasi.

Boshqa shaxsning ixtiyoriga o‘tkazishga (garovga qo‘yishga) doir taqiq izchillik bilan quyidagilarga nisbatan amalga oshiriladi:

1) ko‘chmas mol-mulkka, shu jumladan mahsulotlarni ishlab chiqarishda (xizmatlarni ko‘rsatishda) ishtirok etmaydigan mol-mulkka;

2) transport vositalariga, qimmatli qog‘ozlarga, xizmat xonalarining dizayn buyumlariga;

3) tayyor mahsulot, xom ashyo va materiallardan tashqari boshqa mol-mulkka;

4) tayyor mahsulotga, xom ashyo va materiallarga.

Oldingi guruhlardagi mol-mulkning qiymati soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qaror asosida to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq qarzining umumiy summasidan kam bo‘lgan taqdirda, har bir navbatdagi guruhning mol-mulkini boshqa shaxs ixtiyoriga o‘tkazishga (garovga qo‘yishga) doir taqiq qo‘llaniladi. Bunda mol-mulkning qiymati buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bo‘yicha belgilanadi.

Bankdagi hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish bo‘yicha ta’minlash choralari tartibida faqat mol-mulkni boshqa shaxs ixtiyoriga o‘tkazishga (garovga qo‘yishga) doir taqiq qo‘yilganidan keyin va faqat agar bunday mol-mulkning jami qiymati soliq qarzining umumiy summasidan kam bo‘lsa, qo‘llanilishi mumkin.

Bankdagi hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qarorda ko‘rsatilgan soliq qarzining umumiy summasi bilan boshqa shaxs ixtiyoriga o‘tkazish (garovga qo‘yish) mumkin bo‘lmagan mol-mulk qiymati o‘rtasidagi farqqa nisbatan yo‘l qo‘yiladi.

O‘ziga nisbatan ta’minlash choralarini ko‘rish to‘g‘risida qaror chiqarilgan shaxsning iltimosiga ko‘ra soliq organi ushbu moddaning oltinchi qismida nazarda tutilgan ta’minlash choralarini:

1) bankning javobgarlikka tortish va (yoki) soliqlarni qo‘shib hisoblash to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan soliq qarzi summasini o‘ziga nisbatan shunday qaror chiqarilgan shaxs ushbu summalarni to‘lamagan taqdirda soliq organi tomonidan belgilangan muddatda to‘lashga roziligini tasdiqlovchi bank kafolatiga;

2) qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozorida muomalada bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarni garovga qo‘yishga yoki ushbu Kodeksning 107-moddasida nazarda tutilgan tartibda rasmiylashtirilgan boshqa mol-mulkni garovga qo‘yishga;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 107-moddasi.

3) ushbu Kodeksning 108-moddasida nazarda tutilgan tartibda rasmiylashtirilgan uchinchi shaxsning kafilligiga almashtirishga haqlidir.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 108-moddasi.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qaror asosida budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan summaga doir amaldagi bank kafolati taqdim etilgan taqdirda, soliq organi bu soliq to‘lovchiga ushbu moddaning oltinchi qismida nazarda tutilgan ta’minlash choralarini almashtirishni rad etishga haqli emas.

Ta’minlash choralarini ko‘rish to‘g‘risidagi qarorning va ularni bekor qilish haqidagi qarorning ko‘chirma nusxalari ular chiqarilgan kundan e’tiboran besh kun ichida o‘ziga nisbatan mazkur qarorlar chiqarilgan shaxsga (uning vakiliga) imzo qo‘ydirib beriladi yoki olingan sana to‘g‘risida dalolat beruvchi boshqa usulda topshiriladi. Qarorning ko‘chirma nusxasi pochta orqali buyurtma xat bilan yuborilganda ushbu nusxa buyurtma xat yuborilgan sanadan e’tiboran besh kun o‘tgach olingan deb hisoblanadi.

162-modda. Soliq organlari qarorlarini ijro etishning o‘ziga xos xususiyatlari

Qaysi qoidabuzarliklar uchun jismoniy shaxslar yoki yuridik shaxslarning mansabdor shaxslari ma’muriy javobgarlikka tortilishi lozim bo‘lsa, soliq organi tomonidan aniqlangan shunday qoidabuzarliklar yuzasidan soliq organining sayyor soliq tekshiruvini yoki soliq auditini o‘tkazgan vakolatli mansabdor shaxsi o‘z vakolatlari doirasida ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzadi.

Ushbu huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish hamda ularni sodir etganlikda aybdor bo‘lgan jismoniy shaxslarga va yuridik shaxslarning mansabdor shaxslariga nisbatan ma’muriy jazo choralarini qo‘llash ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

(162-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar soliq organi jismoniy shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinganidan keyin materiallarni prokuratura organlariga yuborgan bo‘lsa, ushbu soliq organi shu jismoniy shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorning ijrosini to‘xtatib turishi shart.

Materiallarni prokuratura organlariga yuborish bilan bir vaqtning o‘zida ushbu jismoniy shaxsdan soliq qarzini undirish to‘g‘risidagi qarorning ijrosi to‘xtatib turiladi. Bunday to‘xtatib turish soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) qarori bilan materiallar prokuratura organlariga yuborilgan kundan keyingi kundan kechiktirmay amalga oshiriladi. Bunda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan soliq qarzini undirish muddatlarining o‘tishi ushbu soliq qarzini undirish to‘g‘risidagi qarorning ijrosini to‘xtatib turish davriga to‘xtatib turiladi.

Agar prokuratura organlariga yuborilgan materiallar bo‘yicha jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish to‘g‘risidagi qaror yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi qaror chiqariladigan bo‘lsa, soliq organining to‘xtatib turilgan qarorlarining amal qilishi qayta tiklanadi. Qarorning amal qilishini qayta tiklash soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) qarori bilan prokuratura organlaridan ushbu faktlar to‘g‘risida bildirishnoma olingan kundan keyingi kundan kechiktirmay amalga oshiriladi. Agar tegishli jinoyat ishi bo‘yicha oqlov hukmi chiqariladigan bo‘lsa, xuddi shunday qoida qo‘llaniladi.

Agar jismoniy shaxsning uni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan harakatlari (harakatsizligi) ushbu jismoniy shaxsga nisbatan ayblov hukmini chiqarish uchun asos bo‘lgan bo‘lsa, soliq organi qabul qilingan qarorni ushbu jismoniy shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish qismi bo‘yicha bekor qiladi.

Soliq organlaridan materiallar olgan prokuratura organlari soliq organlariga tegishli qaror qabul qilingan kundan keyingi kundan kechiktirmay ularni ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risidagi bildirishnomalarni yuborishi shart.

Ushbu moddada ko‘rsatilgan soliq organi qarorlarining ko‘chirma nusxalari tegishli qaror chiqarilgan kundan e’tiboran besh kun ichida soliq organi tomonidan o‘ziga nisbatan tegishli qaror chiqarilgan shaxsga (uning vakiliga) topshiriladi (yuboriladi).

Ushbu moddaning qoidalari soliq to‘lovchilar, yig‘imlarni to‘lovchilar va (yoki) soliq agentlari bo‘lgan jismoniy shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

163-modda. Shikoyat qilinganda soliq organlari qarorlarini ijro etish

Soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qabul qilingan soliq organining qarori ustidan shikoyat qilinganda, bunday qaror yuqori turuvchi soliq organi tomonidan bekor qilinmagan va ustidan shikoyat qilinmagan qismi bo‘yicha shikoyat yuzasidan yuqori turuvchi soliq organi tomonidan qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Agar shikoyatni ko‘rib chiqadigan yuqori turuvchi soliq organi quyi soliq organining qarorini bekor qilsa va yangi qaror qabul qilsa, yuqori turuvchi soliq organining bunday qarori u qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Agar yuqori turuvchi soliq organi shikoyatni ko‘rib chiqmasdan qoldirsa, quyi soliq organining qarori yuqori turuvchi soliq organi tomonidan ushbu shikoyatni ko‘rib chiqmasdan qoldirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan e’tiboran, lekin mazkur shikoyatni berish muddati tugamasdan kuchga kiradi.

164-modda. Soliq organlarining qarorlarini ijro etish

Soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qaror u kuchga kirgan kundan e’tiboran ijro etilishi lozim.

Tegishli qarorni ijroga qaratish ushbu qarorni qabul qilgan soliq organining zimmasiga yuklatiladi.

Shikoyat yuqori turuvchi soliq organi tomonidan ko‘rib chiqilgan taqdirda, ushbu yuqori turuvchi soliq organining kuchga kirgan qarori yuqori turuvchi soliq organining qarori kuchga kirgan kundan e’tiboran uch kun ichida dastlabki qaror qabul qilgan soliq organiga yuboriladi.

165-modda. Soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ish yuritish

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning ushbu Kodeks 157-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan buzilishlari to‘g‘risida dalolat beruvchi faktlar aniqlangan taqdirda, soliq organining soliqqa oid huquqbuzarlik faktini aniqlagan mansabdor shaxsi ushbu mansabdor shaxs va huquqbuzarlik sodir etgan shaxs tomonidan imzolanishi lozim bo‘lgan dalolatnomani tuzadi.

(165-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 157-moddasi.

Dalolatnoma belgilangan shaklda soliqqa oid huquqbuzarlik aniqlangan kundan e’tiboran o‘n kun davomida tuziladi.

Dalolatnomada soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlarining hujjatlar bilan tasdiqlangan faktlari, shuningdek ushbu faktlarni aniqlagan mansabdor shaxsning aniqlangan qoidabuzarlikni bartaraf etishga doir xulosa va takliflari ko‘rsatilishi kerak.

(165-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Dalolatnomaning shaklini va uni tuzishga doir talablarni O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi belgilaydi.

Dalolatnoma soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga imzo qo‘ydirib beriladi yoki u olingan sana to‘g‘risida dalolat beruvchi boshqa usulda topshiriladi. Agar mazkur shaxs dalolatnomani olishdan bosh tortsa, soliq organining mansabdor shaxsi dalolatnomaga tegishli belgi qo‘yadi. Bunday holda dalolatnoma ushbu shaxsga pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi. Mazkur dalolatnoma buyurtma xat bilan yuborilgan sanadan boshlab hisoblaganda beshinchi kun u topshirilgan sana deb hisoblanadi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxs dalolatnomada bayon etilgan holatlarga va (yoki) soliqqa oid huquqbuzarlikni aniqlagan mansabdor shaxsning xulosalari hamda takliflariga rozi bo‘lmagan taqdirda, dalolatnoma olingan kundan e’tiboran o‘n kun ichida dalolatnoma bo‘yicha umuman yoki uning ayrim qoidalari yuzasidan yozma e’tirozlarini tegishli soliq organiga taqdim etishga haqlidir. Bunda mazkur shaxs e’tirozlarining asoslanganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (ularning tasdiqlangan ko‘chirma nusxalarini) yozma e’tirozlariga ilova qilishga yoki kelishilgan muddatda soliq organiga topshirishga haqli.

Ushbu moddaning oltinchi qismida ko‘rsatilgan muddat o‘tganidan keyin soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlari faktlari qayd etilgan dalolatnomani, shuningdek soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va materiallarni ko‘rib chiqadi.

(165-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Dalolatnoma javobgarlikka tortilayotgan shaxs yoki uning vakili ishtirokida ko‘rib chiqiladi.

Soliq organi tekshiruv dalolatnomasi ko‘rib chiqiladigan sana, vaqt va joy to‘g‘risida soliq to‘lovchini ko‘rib chiqish boshlanadigan kunga qadar kamida ikki ish kuni oldin xabardor qiladi.

Agar soliq to‘lovchi soliq organini uzrli sabablarga ko‘ra dalolatnomaning ko‘rib chiqilishiga kelolmasligi to‘g‘risida xabardor qilgan bo‘lsa, soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) dalolatnomaning ko‘rib chiqilishini ko‘pi bilan uch kun muddatga qoldirish to‘g‘risida qaror qabul qilib, soliq to‘lovchi bu haqda xabardor qilinadi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilayotgan, tegishli tarzda xabardor qilingan shaxsning yoki uning vakilining kelmaganligi soliq organi rahbarini (rahbar o‘rinbosarini) dalolatnomani ushbu shaxsning yo‘qligida ko‘rib chiqish imkonidan mahrum etmaydi.

Dalolatnomani ko‘rib chiqish chog‘ida tuzilgan dalolatnoma, soliq nazorati tadbirlarining boshqa materiallari, shuningdek soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilayotgan shaxsning yozma e’tirozlari o‘qib eshittirilishi mumkin. Yozma e’tirozlarning mavjud emasligi ushbu shaxsni dalolatnomani ko‘rib chiqish bosqichida o‘z tushuntirishlarini berish huquqidan mahrum etmaydi.

Dalolatnoma ko‘rib chiqilayotganda javobgarlikka tortilayotgan shaxsning tushuntirishlari eshitiladi, boshqa dalillar o‘rganib chiqiladi.

Ushbu Kodeks talablarini buzgan holda olingan dalillardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Javobgarlikka tortilayotgan shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlar (axborot), hatto ular soliq organiga ushbu Kodeksda belgilangan muddatlarni buzgan holda taqdim etilgan bo‘lsa ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

Dalolatnomani ko‘rib chiqish chog‘ida bayonnoma yuritiladi.

Dalolatnomani va soliq nazorati tadbirlarining boshqa materiallarini ko‘rib chiqish jarayonida, zarur bo‘lgan taqdirda, ushbu ko‘rib chiqishda ishtirok etish uchun guvohni, ekspertni, mutaxassisni jalb etish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi mumkin.

Dalolatnomani va boshqa materiallarni ko‘rib chiqish davomida soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari):

1) o‘ziga nisbatan dalolatnoma tuzilgan shaxs soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlarini sodir etgan-etmaganligini;

(165-modda o‘n sakkizinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) aniqlangan qoidabuzarliklar ushbu Kodeksdagi soliqqa oid huquqbuzarliklar tarkibini tashkil etish-etmasligini;

3) o‘ziga nisbatan dalolatnoma tuzilgan shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish uchun asoslar mavjud-mavjud emasligini belgilaydi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik alomati mavjud bo‘lgan taqdirda soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini istisno etuvchi holatlarni yoxud soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikni yumshatuvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlarni aniqlaydi.

166-modda. Soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi materiallar bo‘yicha qaror qabul qilish

Soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) dalolatnomani hamda unga ilova qilingan hujjatlar va materiallarni ushbu Kodeksning 165-moddasida nazarda tutilgan tartibda ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra quyidagilarni nazarda tutuvchi qarorni qabul qiladi:

1) soliqlar va penyalarni qo‘shib hisoblashni yoki buni rad etishni;

2) soliq to‘lovchini soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishni yoki buni rad etishni.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 165-moddasi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan qaror dalolatnoma ko‘rib chiqilganidan keyin besh kun ichida qabul qilinadi.

Shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorda sodir etilgan huquqbuzarlik holatlari bayon etiladi, mazkur holatlarni, javobgarlikka tortilayotgan shaxs tomonidan o‘z himoyasi uchun keltirilayotgan vajlarni tasdiqlovchi hujjatlar va boshqa ma’lumotlar hamda ushbu vajlarni tekshirish natijalari ko‘rsatiladi. Shuningdek qarorda ushbu Kodeksning shu qoidabuzarliklarni nazarda tutuvchi moddalari va qo‘llaniladigan javobgarlik choralari ko‘rsatiladi.

Shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorda o‘ziga nisbatan qaror chiqarilgan shaxs shu qaror ustidan qaysi muddat ichida shikoyat qilishga haqli bo‘lsa, o‘sha muddat va qaror ustidan yuqori turuvchi soliq organiga yoki sudga shikoyat qilish tartibi ko‘rsatiladi.

(166-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 20-fevraldagi O‘RQ-910-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.02.2024-y., 03/24/910/0140-son)

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning qaysi aniqlangan buzilishlari uchun shaxslar ma’muriy javobgarlikka tortilishi lozim bo‘lsa, o‘sha qoidabuzarliklar bo‘yicha soliq organining vakolatli mansabdor shaxsi ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzadi. Ushbu huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va ularni sodir etganlikda aybdor shaxslarga nisbatan ma’muriy jazoni qo‘llash soliq organlari tomonidan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

(166-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

167-modda. Moliyaviy sanksiyani undirish to‘g‘risidagi ariza

Yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qaror chiqarilganidan keyin tegishli soliq organi mazkur shaxsga nisbatan ushbu Kodeksda belgilangan moliyaviy sanksiya qo‘llash haqidagi ariza bilan sudga murojaat qiladi. Moliyaviy sanksiyalarni undirishning suddan tashqari tartibiga yo‘l qo‘yilmaydigan hollarda moliyaviy sanksiya qo‘llashning xuddi shunday tartibidan foydalaniladi.

Sudga murojaat qilingunga qadar soliq organi soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilayotgan shaxsga moliyaviy sanksiyaning tegishli summasini o‘z ixtiyori bilan to‘lashni yozma shaklda taklif qilishi shart.

Zarur bo‘lgan hollarda, soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilayotgan shaxsdan moliyaviy sanksiya undirish to‘g‘risida ariza berish bilan bir vaqtda soliq organi qonunchilikda belgilangan tartibda talabnomani ta’minlash haqidagi iltimosnomani sudga yuborishi mumkin.

(167-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

168-modda. Moliyaviy sanksiyalarni undirish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va qarorlarni ijro etish

Soliq organlarining yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar qo‘llanilishini nazarda tutuvchi qarorlari bo‘yicha moliyaviy sanksiyalar summalarini undirish soliq organlari tomonidan ushbu Kodeksning 120 — 124-moddalarida nazarda tutilgan tartibda mustaqil tarzda amalga oshiriladi.

Soliq organlarining arizasiga ko‘ra yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar undirish to‘g‘risidagi ishlar sud tomonidan ko‘rib chiqiladi. Sudlarning moliyaviy sanksiyalarni undirish to‘g‘risidagi qonuniy kuchga kirgan qarorlarini ijro etish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

(168-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 120 — 124-moddalari.

19-bob. Soliq monitoringi

169-modda. Soliq monitoringi to‘g‘risidagi umumiy qoidalar

Quyidagilar soliq monitoringining predmetidir: soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etish, o‘ziga nisbatan soliq monitoringi o‘tkazilayotgan yuridik shaxs tomonidan soliqlar va yig‘imlarni hisoblashning to‘g‘riligi, to‘liq va o‘z

vaqtida to‘langanligi (o‘tkazib berilganligi).

(169-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq monitoringi ushbu Kodeksga muvofiq yuridik shaxs qaysi soliqlar va yig‘imlarga nisbatan soliq to‘lovchi yoki soliq agenti bo‘lsa, barcha shunday soliqlar va yig‘imlarni qamrab oladi.

Soliq to‘lovchilar uchun soliq monitoringi ixtiyoriydir.

Soliq monitoringi soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror asosida soliq organi tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs, agar uning oldingi yil uchun daromadlari yillik moliyaviy hisobot ma’lumotlariga ko‘ra kamida besh milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risidagi ariza bilan soliq organiga murojaat qilishga haqli.

(169-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-714-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.09.2021-y., 03/21/714/0874-son)

Yuridik shaxs soliq organiga soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risida ariza taqdim etgan yildan keyingi kalendar yil soliq monitoringi o‘tkaziladigan davrdir.

Soliq monitoringini o‘tkazish soliq monitoringi o‘tkaziladigan yilning 1-yanvaridan boshlanadi va soliq monitoringi o‘tkazilgan davrdan keyingi yilning 1-iyulida tugallanadi.

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrdagi 736-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq monitoringini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 1-bobi.

170-modda. Axborotga doir hamkorlik reglamenti

Soliq monitoringida ishtirok etuvchi yuridik shaxs va soliq organi o‘rtasidagi axborotga doir hamkorlik reglament asosida amalga oshiriladi.

Axborotga doir hamkorlik reglamentida soliqlar hamda yig‘imlarni hisoblab chiqarish va to‘lash (ushlab qolish va o‘tkazib berish) uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi hujjatlarni (axborotni) soliq organiga elektron shaklda taqdim etish tartibi va (yoki) ko‘rsatilgan hujjatlar (axborot) mavjud bo‘lgan yuridik shaxsning axborot tizimlariga kirish tartibi aks ettiriladi.

Yuridik shaxs axborotga doir hamkorlik tartibini mustaqil ravishda tanlashga haqli.

Yuridik shaxs axborotga doir hamkorlik reglamentida:

1) buxgalteriya (soliq) hisobi registrlarida daromad va xarajatlar, soliq solish obyektlarini aks ettirish tartibini;

2) soliq hisobining tahliliy registrlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni;

3) soliqlar va yig‘imlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilganligi (ushlab qolinganligi), to‘liq va o‘z vaqtida to‘langanligi (o‘tkazib berilganligi) ustidan ichki nazorat tizimi to‘g‘risidagi axborotni ko‘rsatadi.

Ichki nazorat tizimi to‘g‘risidagi axborot bunday tizim mavjud bo‘lgan taqdirda taqdim etiladi.

Axborotga doir hamkorlik reglamentining shaklini va unga doir talablarni O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tasdiqlaydi.

> **Izoh.** Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrdagi 736-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq monitoringini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 2-bobi.

171-modda. Soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror

Soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risidagi ariza soliq monitoringi o‘tkaziladigan davrdan oldingi yilning 1-iyulidan kechiktirmay hisobga olish joyidagi soliq organiga yuridik shaxs tomonidan taqdim etiladi.

Soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risidagi arizaning shaklini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tasdiqlaydi.

> **Izoh.** Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrdagi 736-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq monitoringini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nnizomning 4-bandi.

Soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risidagi ariza bilan birga quyidagilar taqdim etiladi:

1) belgilangan shakl bo‘yicha axborotga doir hamkorlik reglamenti;

2) soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risida ariza taqdim etgan yuridik shaxsda bevosita va (yoki) bilvosita ishtirok etadigan hamda bunday ishtirok ulushi 25 foizni tashkil etadigan jismoniy va yuridik shaxslar to‘g‘risidagi axborot;

3) soliq solish maqsadi uchun amaldagi hisob siyosati.

Soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risida ariza taqdim etgan yuridik shaxs soliq organi tomonidan soliq monitoringini o‘tkazish yoki uni o‘tkazishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilinguniga qadar chaqirib olish haqidagi yozma ariza asosida uni chaqirib olishi mumkin.

Soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risidagi ariza chaqirib olingan taqdirda berilgan deb hisoblanmaydi.

Soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risidagi arizani va ushbu moddaning uchinchi qismiga muvofiq yuridik shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni (axborotni) ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) ariza berilgan yilning 1-noyabriga qadar quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

1) soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risidagi qarorni;

2) soliq monitoringini o‘tkazishni rad etish haqidagi qarorni.

Soliq monitoringini o‘tkazishni rad etish to‘g‘risidagi qaror asoslantirilgan bo‘lishi kerak.

Soliq monitoringini o‘tkazishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun quyidagilar asosdir:

1) ushbu moddaning uchinchi qismiga muvofiq hujjatlarni (axborotni) taqdim etmaslik yoki to‘liq hajmda taqdim etmaslik;

2) ushbu Kodeksning 169-moddasi beshinchi qismida nazarda tutilgan shartlarga rioya etmaslik;

3) axborotga doir hamkorlik reglamentining belgilangan shakl va talablarga nomuvofiqligi.

Soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror (soliq monitoringini o‘tkazishni rad etish haqidagi qaror) qabul qilingan kundan e’tiboran besh kun ichida arizachiga yuboriladi.

172-modda. Soliq monitoringini muddatidan oldin tugatish

Soliq monitoringi quyidagi hollarda muddatidan oldin tugatiladi:

1) axborotga doir hamkorlik reglamenti yuridik shaxs tomonidan ijro etilmaganda, agar bunday ijro etmaslik soliq monitoringini o‘tkazish uchun to‘siq bo‘lgan bo‘lsa;

2) soliq organi tomonidan soliq monitoringini o‘tkazish chog‘ida yuridik shaxs tomonidan ishonchli bo‘lmagan axborot taqdim etilganligi fakti aniqlanganda;

3) soliq monitoringini o‘tkazish jarayonida ushbu Kodeksning 173-moddasida nazarda tutilgan tartibda hujjatlar (axborot), tushuntirishlar soliq organiga muntazam ravishda (ikki marta va undan ortiq) taqdim etilmaganda.

Soliq organi ushbu moddaning 1-bandida nazarda tutilgan holatlar aniqlangan kundan e’tiboran o‘n kun ichida, lekin soliq monitoringi o‘tkazilayotgan davrdan keyingi yilning 1-iyunidan kechiktirmay yuridik shaxsni soliq monitoringini muddatidan oldin tugatish to‘g‘risida yozma shaklda xabardor qiladi.

> **Izoh.** Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrdagi 736-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq monitoringini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 66-bandi.

173-modda. Soliq monitoringini o‘tkazish tartibi

Soliq monitoringi soliq organining vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan o‘z xizmat majburiyatlariga muvofiq soliq organi joylashgan yer bo‘yicha o‘tkaziladi.

Agar soliq monitoringini o‘tkazish chog‘ida taqdim etilgan hujjatlardagi ma’lumotlar o‘rtasida ziddiyatlar yoki yuridik shaxs tomonidan taqdim etilgan hamda soliq organida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar o‘rtasida nomuvofiqliklar aniqlansa, soliq organi bu haqda zarur tushuntirishlar berish yoki tegishli tuzatishlar kiritish talabi bilan yuridik shaxsga xabar qiladi. Bunday tushuntirishlar yuridik shaxs tomonidan talabnoma olingan kundan e’tiboran besh kun ichida taqdim etiladi, tuzatishlar esa o‘n kun davomida kiritiladi.

Agar taqdim etilgan tushuntirishlar ko‘rib chiqilganidan keyin yoki ular mavjud bo‘lmagan taqdirda soliq organi soliqlar yoki yig‘imlar noto‘g‘ri hisoblab chiqarilganligi (ushlab qolinganligi), to‘liq yoki o‘z vaqtida to‘lanmaganligi (o‘tkazilmaganligi) to‘g‘risida dalolat beruvchi faktni aniqlasa, soliq organi ushbu Kodeksning 174-moddasida nazarda tutilgan tartibda asoslantirilgan fikrini tuzishi shart.

Soliq monitoringi o‘tkazilayotganda soliq organi soliqlar va yig‘imlar to‘g‘ri hisoblab chiqarilganligi (ushlab qolinganligi), to‘liq va o‘z vaqtida to‘langanligi (o‘tkazilganligi) bilan bog‘liq bo‘lgan zarur hujjatlarni (axborotni), tushuntirishlarni yuridik shaxsdan talab qilib olishga haqlidir.

Talab qilinadigan hujjatlar (axborot) va tushuntirishlar soliq organiga shaxsan yoki vakil orqali taqdim etilishi, pochta orqali buyurtma xat bilan yuborilishi, telekommunikatsiya aloqa kanallari orqali, soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron shaklda topshirilishi yoki axborotga doir hamkorlik reglamentida nazarda tutilgan tartibda berilishi mumkin.

Hujjatlarni qog‘oz shaklida taqdim etish yuridik shaxs tomonidan tasdiqlangan ko‘chirma nusxalar shaklida amalga oshiriladi. Agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq organiga (mansabdor shaxsga) taqdim etiladigan hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini notarial tarzda tasdiqlashni talab qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

(173-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq organining talabiga ko‘ra telekommunikatsiya aloqa kanallari orqali elektron shaklda hujjatlar taqdim etish to‘g‘risidagi talabnomani yuborish va hujjatlarni taqdim etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

(173-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

> **Izoh.** Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrdagi 736-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq monitoringini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 5-bobi

Soliq monitoringini o‘tkazishda ushbu moddaning to‘rtinchi qismiga muvofiq talab qilingan hujjatlar (axborot) va tushuntirishlar yuridik shaxs tomonidan tegishli talabnoma olingan kundan e’tiboran besh kun ichida taqdim etiladi.

Agar talabnomani belgilangan muddatda ijro etish imkoni bo‘lmasa, yuridik shaxs talabnoma olingan kundan keyingi kun davomida soliq organining soliq monitoringini o‘tkazuvchi mansabdor shaxslarini uni ijro etish imkoni yo‘qligi to‘g‘risida sabablarini hamda u talab etilayotgan hujjatlarni (axborotni) va tushuntirishlarni qaysi muddatlar ichida taqdim etishi mumkin bo‘lsa, o‘sha muddatlarni ko‘rsatgan holda yozma ravishda xabardor qiladi. Soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) mazkur bildirishnoma asosida u olingan kundan e’tiboran ikki kun ichida hujjatlarni (axborotni) va tushuntirishlarni taqdim etish muddatlarini uzaytirishga yoki muddatlarni uzaytirishni rad etishga haqli bo‘lib, bu haqda alohida qaror chiqariladi.

Soliq monitoringini o‘tkazish davomida soliq organi yuridik shaxs tomonidan ilgari soliq organiga tasdiqlangan ko‘chirma nusxalar ko‘rinishida taqdim etilgan hujjatlarni talab qilishga haqli emas.

174-modda. Soliq organining asoslantirilgan fikri

Soliq organining asoslantirilgan fikri soliq organining soliqlar va yig‘imlar to‘g‘ri hisoblab chiqarilganligi (ushlab qolinganligi), to‘liq va o‘z vaqtida to‘langanligi (o‘tkazilganligi) masalalariga doir nuqtai nazarini ifodalaydi.

Soliq organi soliq monitoringini o‘tkazish chog‘ida o‘z tashabbusiga ko‘ra yoki yuridik shaxsning so‘roviga binoan asoslantirilgan fikr tuzadi.

Asoslantirilgan fikr soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) imzosi bilan yuridik shaxsga yuboriladi.

Soliq organi asoslantirilgan fikrining shakli va uni tuzishga doir talablar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

(174-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

Agar soliq monitoringi o‘tkazilayotganda yuridik shaxs tomonidan soliqlar va yig‘imlar noto‘g‘ri hisoblab chiqarilganligi (ushlab qolinganligi), to‘liq yoki o‘z vaqtida to‘lanmaganligi (o‘tkazilmaganligi) to‘g‘risida dalolat beruvchi fakt aniqlangan bo‘lsa, soliq organining asoslantirilgan fikri tuziladi.

Soliq organining asoslantirilgan fikri tuzilgan kundan e’tiboran besh kun ichida yuridik shaxsga yuboriladi.

Soliq organining asoslantirilgan fikri soliq monitoringini o‘tkazish muddati tugaguniga qadar kamida uch oy oldin tuzilishi mumkin.

Asoslantirilgan fikr taqdim etish to‘g‘risidagi so‘rov yuridik shaxs tomonidan xo‘jalik faoliyatining sodir etilgan faktlari natijalariga ko‘ra soliq monitoringi o‘tkaziladigan davr uchun soliqlar va yig‘imlar to‘g‘ri hisoblab chiqarilganligiga (ushlab qolinganligiga), to‘liq va o‘z vaqtida to‘langanligiga (o‘tkazilganligiga) nisbatan shubhalar mavjud bo‘lganda yoki ushbu masalalar yuzasidan noaniqliklar bo‘lgan taqdirda soliq organiga yuboriladi.

Asoslantirilgan fikr taqdim etish to‘g‘risidagi so‘rovda yuridik shaxsning mazkur masalalarga doir nuqtai nazari bayon etiladi.

Asoslantirilgan fikr taqdim etish to‘g‘risidagi so‘rov soliq monitoringi davridan keyingi yilning 1-iyunidan kechiktirmay yuborilishi mumkin.

Yuridik shaxsning so‘rovi bo‘yicha soliq organining asoslantirilgan fikri ushbu yuridik shaxsga mazkur so‘rov olingan kundan e’tiboran o‘n besh kun ichida yuborilishi kerak. Bu muddat soliq organi tomonidan ushbu yuridik shaxsdan yoki boshqa shaxslardan asoslantirilgan fikrni tayyorlash uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish uchun bir oyga uzaytirilishi mumkin.

Soliq organi asoslantirilgan fikrni yuborish muddatini uzaytirish to‘g‘risida tegishli qaror qabul qilingan kundan e’tiboran uch kun ichida yuridik shaxsga yozma shaklda xabar qiladi.

Yuridik shaxs soliq organining asoslantirilgan fikriga roziligi to‘g‘risida shu asoslantirilgan fikrni tuzgan soliq organini mazkur asoslantirilgan fikr bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (ular mavjud bo‘lgan taqdirda) ilova qilgan holda asoslantirilgan fikr olingan kundan e’tiboran bir oy ichida xabardor qiladi.

Yuridik shaxs asoslantirilgan fikrni soliq organining buxgalteriya (soliq) hisobidagi va soliq hisobotidagi asoslantirilgan fikrda bayon etilgan nuqtai nazarini e’tiborga olish orqali, aniqlashtirilgan soliq hisobotini berish orqali yoki boshqa usulda bajaradi.

Yuridik shaxs soliq organining asoslantirilgan fikriga rozi bo‘lmagan taqdirda, u olingan kundan e’tiboran bir oy ichida soliq organiga o‘z e’tirozlarini taqdim etadi. Mazkur e’tirozlarni olgan soliq organi ular olingan kundan e’tiboran uch kun ichida bu e’tirozlarni o‘zida mavjud bo‘lgan barcha materiallar bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga o‘zaro kelishuv tartib-taomili tashabbusi bilan chiqish uchun yuborishi shart.

Soliq organi soliq monitoringi tugagan sanadan e’tiboran ikki oydan kechiktirmay yuridik shaxsni soliq monitoringini o‘tkazish jarayonida ushbu yuridik shaxsga yuborilgan, bajarilmagan asoslantirilgan fikrlar mavjudligi (mavjud emasligi) to‘g‘risida xabardor qiladi.

> **Izoh.** Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrdagi 736-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq monitoringini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 6-bobi.

175-modda. O‘zaro kelishuv tartib-taomili

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ushbu Kodeksning 174-moddasi o‘n beshinchi qismiga muvofiq soliq organi tomonidan taqdim etilgan e’tirozlar va materiallar olinganidan keyin o‘zaro kelishuv tartib-taomilini o‘tkazish tashabbusi bilan chiqadi.

O‘zaro kelishuv tartib-taomili asoslantirilgan fikrni tuzgan soliq organi va e’tirozlarni taqdim etgan yuridik shaxs (uning vakili) ishtirokida, soliq organi tomonidan taqdim etilgan e’tirozlar va boshqa materiallar olingan kundan e’tiboran bir oy ichida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi rahbari (rahbarining o‘rinbosari) tomonidan o‘tkaziladi.

O‘zaro kelishuv tartib-taomili natijalariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi asoslantirilgan fikr o‘zgartirilganligi yoki o‘zgarishsiz qoldirilganligi to‘g‘risida yuridik shaxsni xabardor qiladi.

Asoslantirilgan fikrni o‘zgartirish yoki o‘zgarishsiz qoldirish to‘g‘risidagi bildirishnomani O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi rahbari (rahbarining o‘rinbosari) imzolaydi.

Bildirishnoma u tuzilgan kundan e’tiboran uch kun ichida yuridik shaxsga beriladi yoki yuboriladi.

Asoslantirilgan fikrni o‘zgartirish yoki uni o‘zgarishsiz qoldirish to‘g‘risidagi bildirishnoma olingan kundan e’tiboran bir oy ichida yuridik shaxs asoslantirilgan fikrni tuzgan soliq organini asoslantirilgan fikrga rozi ekanligi (rozi emasligi) haqida mazkur asoslantirilgan fikr bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (ular mavjud bo‘lgan taqdirda) ilova qilgan holda xabardor qiladi.

> **Izoh.** Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrdagi 736-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq monitoringini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 7-bobi.

VI BO‘LIM
TRANSFERT NARXNI BELGILASHDA SOLIQ NAZORATI

20-bob. Transfert narxni belgilashda narxlar va soliq solish to‘g‘risidagi umumiy qoidalar

176-modda. Transfert narxni belgilash to‘g‘risidagi umumiy qoidalar

O‘zaro aloqador taraflar o‘rtasidagi bitimlarda shakllanadigan va (yoki) mustaqil shaxslar o‘rtasida bitimlar tuzilayotganda taqqoslanadigan iqtisodiy sharoitlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan xolis tarzda shakllanadigan narxdan farq qiladigan narx ushbu Kodeks maqsadida transfert narx deb tushuniladi.

O‘zaro aloqador taraflar faoliyatining mustaqil shaxslar tomonidan taqqoslanadigan iqtisodiy sharoitlarda olinishi mumkin bo‘lgan sharoitlar va natijalardan farq qiladigan tijoratga oid va (yoki) moliyaviy sharoitlar va (yoki) natijalar ushbu Kodeksning maqsadida transfert narxni belgilash deb tushuniladi.

Bitimning taraflaridan biri tomonidan olinishi mumkin bo‘lgan, lekin transfert narxni belgilash natijasida taraf olmagan har qanday daromadlar soliq solish maqsadida ushbu bo‘limda belgilangan hollarda va tartibda bitimning shu tarafida hisobga olinadi.

Ushbu bo‘limda belgilangan hollarda va tartibda tashqi savdo faoliyati ishtirokchilarining daromadlari soliq solish maqsadida bitim narxining bitim predmeti bo‘lgan tovarlarga (xizmatlarga) doir bozor narxidan farq qilishiga sabab bo‘lgan to‘liq olinmagan daromadlar summasiga ko‘paytirilishi mumkin. Bunda shunday bitimlar ishtirokchilari o‘zaro aloqador yoki mustaqil shaxslar ekanligi e’tiborga olinmaydi. Xuddi shunday qoidalar ushbu bo‘limda belgilangan hollarda va tartibda ishtirokchilari O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo‘lgan bitimlarda qo‘llanilishi mumkin.

Soliq solish maqsadida daromadlarni hisobga olish budjet tizimiga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasining kamayishiga yoki ushbu Kodeksning Maxsus qismiga muvofiq aniqlanadigan zarar summasining ko‘payishiga olib kelmagan taqdirda, bunday hisobga olish ushbu moddaning uchinchi va to‘rtinchi qismlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu moddaning uchinchi va to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan daromadlarni aniqlash ushbu bo‘limda belgilangan usullarni qo‘llagan holda transfert narxni belgilash chog‘ida soliq nazorati doirasida, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur qoida soliq to‘lovchining bitimning haqiqiy narxi o‘rniga soliq summasini hisoblab chiqarish chog‘ida bitimning bozor narxini soliq solish maqsadida mustaqil ravishda qo‘llash huquqini, agar bu narx haqiqiy narxdan farq qilsa va ushbu moddaning beshinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, cheklamaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi transfert narxni belgilashda soliq nazorati doirasida, ushbu bo‘limda nazarda tutilgan tartibda quyidagi soliqlarning to‘liq hisoblab chiqarilishi va to‘lanishini tekshiradi:

1) foyda solig‘ini;

2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini;

3) yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni;

4) qo‘shilgan qiymat solig‘ini;

5) aksiz solig‘ini.

Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqqa oid qismi bo‘yicha transfert narxni belgilash chog‘idagi soliq nazorati, agar bitimning taraflaridan biri mazkur soliqni soliq to‘lovchisi bo‘lsa hamda qazib olinishi chog‘ida soliq solish advalor soliq stavkasi bo‘yicha amalga oshiriladigan foydali qazilma bitimning predmeti bo‘lsa, amalga oshiriladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘iga oid qismi bo‘yicha transfert narxni belgilash chog‘idagi soliq nazorati, agar bitimning taraflaridan biri tegishli soliq to‘lovchisi bo‘lmagan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lsa, amalga oshiriladi.

Transfert narxni belgilash chog‘idagi soliq nazorati maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarining bunday ishtirokchi bo‘lmagan shaxslar bilan tuzilgan bitimlariga nisbatan ham amalga oshirilishi mumkin.

Transfert narxni belgilashda soliq nazorati natijasida ushbu moddaning yettinchi — o‘ninchi qismlarida ko‘rsatilgan soliq summalari kamaytirilganligi yoki zararning summasi ko‘paytirilganligi aniqlangan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tegishli soliq bazasiga va (yoki) soliq summasiga tuzatishlar kiritishni amalga oshiradi.

177-modda. Soliq to‘lovchi tomonidan soliq bazasiga mustaqil ravishda tuzatish kiritish

Agar transfert narxning belgilanishi ushbu Kodeksning 176-moddasi yettinchi qismida ko‘rsatilgan bir yoki bir nechta soliqning (bo‘nak va joriy to‘lovining) summalari kamaytirilishiga yoki zarar summasining ko‘paytirilishiga olib kelgan bo‘lsa, soliq to‘lovchi soliq bazasiga va (yoki) tegishli soliqlarning (zararning) summasiga mustaqil ravishda tuzatishlar kiritishni amalga oshirishga haqli. Bunday tuzatish kiritish summalariga tuzatish kiritilishi lozim bo‘lgan soliqlar bo‘yicha soliq davrini (soliq davrlarini) o‘z ichiga oluvchi kalendar yil o‘tgach amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchi qaysi bitimga nisbatan soliq bazasiga va (yoki) soliq summasiga mustaqil ravishda tuzatish kiritgan bo‘lsa, o‘sha bitimni identifikatsiya qilish imkonini beradigan ma’lumotlar tegishli aniqlashtirilgan soliq hisobotiga ilova qilinadigan tushuntirishlarda ko‘rsatiladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan tuzatishlar kiritish:

1) yuridik shaxslar tomonidan — foyda solig‘i bo‘yicha soliq hisobotini taqdim etish uchun belgilangan muddatlarda;

2) jismoniy shaxslar tomonidan — jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risida deklaratsiyani topshirish muddatlarida amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu moddaning uchinchi qismiga muvofiq amalga oshirilgan tuzatish kiritish natijalariga ko‘ra soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda aniqlangan to‘lanmagan soliqlar summasi tegishli soliq davri uchun foyda solig‘ini (jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini) to‘lash sanasidan kechiktirilmagan muddatda to‘lanishi kerak. Bunda taqdim etilgan aniqlashtirilgan hisobot bo‘yicha soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan to mazkur moddasining uchinchi qismida ko‘rsatilgan muddat tugaguniga qadar bo‘lgan davr uchun to‘lanmagan soliqlar summasiga penyalar hisoblanmaydi.

Kalendar yil ichida tugaydigan soliq davrlarining (hisobot davrlarining) yakunlari bo‘yicha soliqlarni (bo‘nak va joriy to‘lovlarni) hisoblab chiqarishda soliq to‘lovchi bitimlarning haqiqiy narxlaridan foydalanishga haqli.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 176-moddasi.

178-modda. Bozor narxlari to‘g‘risidagi umumiy qoidalar

Ushbu Kodeks maqsadida, agar ushbu bo‘limda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, bitimlarning narxlari, ushbu bitimlar taraflarining daromadlari va xarajatlari quyidagi hollarda bozor narxlari deb e’tirof etiladi:

1) mustaqil shaxslar o‘rtasidagi bitimlar;

2) O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga yoki chet davlatning qonunchiligiga muvofiq o‘tkazilgan birja savdolarining natijalariga ko‘ra tuzilgan bitimlar;

(178-modda birinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

3) monopoliyaga qarshi organning ko‘rsatmalariga muvofiq (tartibga solinadigan narxlar qo‘llaniladigan bitimlar uchun ushbu Kodeksning 179-moddasida nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda) narxlari

belgilangan bitimlar;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 179-moddasi.

4) narxlari ushbu Kodeksning 25-bobida nazarda tutilgan narxni belgilash to‘g‘risidagi kelishuviga muvofiq belgilangan bitimlar.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 25-bobi.

Nazorat qilinadigan bitimlarda bitimning narxi, agar O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan buning aksi isbotlanmagan bo‘lsa yoki soliq to‘lovchi ushbu Kodeksning 177-moddasiga muvofiq soliq (zarar) summalariga mustaqil tuzatish kiritishni amalga oshirmagan bo‘lsa, bozor narxi deb topiladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 177-moddasi.

Agar ushbu Kodeksning Maxsus qismida soliq solish maqsadida ayrim soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash masalalari bo‘yicha tovarning (xizmatning) narxini yoki bitim taraflarining daromadlarini (xarajatlarini) aniqlashning boshqacha qoidalari belgilangan bo‘lsa, ushbu Kodeksning Maxsus qismi qoidalari qo‘llaniladi.

179-modda. Narxlarni tartibga solishda bozor narxi deb topishning o‘ziga xos xususiyatlari

Agar ayrim turdagi bitimlarga nisbatan narxni belgilash, eng ko‘p va (yoki) eng kam chegaraviy narxlarni belgilash vositasida narxlarni tartibga solish nazarda tutilgan bo‘lsa, ko‘rsatilgan turdagi bitimlardagi narxlar ushbu moddaning to‘rtinchi — yettinchi qismlarida nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda soliq solish maqsadida bozor narxlari deb topiladi.

Agar ayrim turdagi bitimlarga nisbatan narxga doir eng ko‘p va (yoki) eng kam ustamalar yoki narxlardan chegirmalar belgilash vositasida yoxud rentabellikka yoki foydaga doir cheklovlar vositasida narxlarni tartibga solish nazarda tutilgan bo‘lsa, ko‘rsatilgan turdagi bitimlardagi narxlar soliq solish maqsadida ushbu moddaning sakkizinchi qismida belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda bozor narxlari deb topiladi.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko‘rsatilgan o‘ziga xos xususiyatlar, agar narxlarni tartibga solish O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va chet davlatlarning qonunchiligiga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshirilsa, hisobga olinadi.

(179-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Belgilangan narxlarga muvofiq bo‘lgan narxlar va narxning kelishilgan formulasiga muvofiq bo‘lgan narxlar bozor narxlari deb topiladi.

Eng kam chegaraviy narxni belgilashda bunday narx, agar bozor narxlari oralig‘ining ushbu Kodeksning 23-bobiga muvofiq mazkur eng kam chegaraviy narx hisobga olinmagan holda aniqlangan eng kam ko‘rsatkichi ushbu eng kam chegaraviy narxdan ko‘p bo‘lsa, bozor narxini aniqlashda hisobga olinmaydi. Aks holda, eng kam ko‘rsatkichi ushbu eng kam chegaraviy narxga teng bo‘lgan oraliq bozor narxlarining oralig‘i deb e’tirof etiladi, eng ko‘p ko‘rsatkich esa uning ushbu Kodeksning 23-bobiga muvofiq belgilangan eng ko‘p ko‘rsatkichiga teng ravishda qabul qilinadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 23-bobi.

Eng ko‘p chegaraviy narxni belgilash chog‘ida bunday narx bozor narxini aniqlashda, agar ushbu eng ko‘p chegaraviy narx bozor narxlari oralig‘ining ushbu Kodeksning 23-bobiga muvofiq mazkur eng ko‘p chegaraviy narx hisobga olinmagan holda aniqlangan eng ko‘p ko‘rsatkichidan ko‘p bo‘lsa, bozor narxini aniqlashda hisobga olinmaydi. Aks holda, eng ko‘p ko‘rsatkichi ushbu eng ko‘p chegaraviy narxga teng bo‘lgan oraliq bozor narxlarining oralig‘i deb e’tirof etiladi, eng kam ko‘rsatkich esa uning ushbu Kodeksning 23-bobiga muvofiq belgilangan eng kam ko‘rsatkichiga teng ravishda qabul qilinadi.

Bir vaqtning o‘zida eng kam va eng ko‘p chegaraviy narxlar belgilanganda ular bozor narxlarini aniqlashda, agar bozor narxlari oralig‘ining ushbu Kodeksning 24-bobiga muvofiq aniqlangan eng kam ko‘rsatkichi eng kam chegaraviy narxdan ko‘p bo‘lsa, eng ko‘p chegaraviy narx esa bozor narxlarining ushbu oralig‘ining eng ko‘p ko‘rsatkichidan ko‘p bo‘lsa, bozor narxini aniqlashda hisobga olinmaydi. Aks holda, bozor narxlari oralig‘ining tegishincha eng kam va (yoki) eng ko‘p ko‘rsatkichiga ushbu moddaning beshinchi — oltinchi qismlariga muvofiq tuzatishlar kiritiladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 24-bobi.

Agar bitim uchun narxga doir eng kam va (yoki) eng ko‘p ustamalar belgilangan bo‘lsa yoxud rentabellik yoki foyda miqdorlari uchun boshqa cheklovlar belgilangan bo‘lsa, ushbu Kodeksning 23-bobiga muvofiq aniqlangan bozor narxlari oraliqlariga (rentabellik oraliqlariga) ushbu moddaning beshinchi — yettinchi qismlarida nazarda tutilgan xuddi shunday tartibda tuzatishlar kiritilishi lozim.

21-bob. Nazorat qilinadigan bitimlar

180-modda. O‘zaro aloqador shaxslar o‘rtasidagi nazorat qilinadigan bitimlar

Ushbu Kodeks maqsadida, ushbu moddada nazarda tutilgan xususiyatlar hisobga olingan holda o‘zaro aloqador shaxslar o‘rtasidagi bitimlar nazorat qilinadigan bitimlar deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti bo‘lgan o‘zaro aloqador shaxslar o‘rtasidagi bitim quyidagi holatlardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lganda nazorat qilinadigan bitim deb e’tirof etiladi:

1) mazkur shaxslar o‘rtasidagi bitimlar bo‘yicha tegishli kalendar yildagi daromadlar summasi (bitimlar narxlarining summasi) besh milliard so‘mdan oshsa;

2) bitimning hech bo‘lmaganda bitta tarafi maxsus soliq rejimini qo‘llasa yoki maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi bo‘lsa, bunda bu bitimning boshqa taraflari orasida maxsus soliq rejimlarini qo‘llamaydigan shaxs bo‘lsa;

3) bitimning hech bo‘lmaganda bitta tarafi foyda solig‘ini to‘lashdan ozod etilgan bo‘lsa, pasaytirilgan soliq stavkasini yoki boshqa soliq imtiyozlarini qo‘llasa, bunda bu bitimning boshqa taraflari orasida bunday soliqni to‘lashdan ozod etilmagan va imtiyozlarni qo‘llamaydigan shaxs bo‘lsa;

4) bitimning taraflaridan biri tomonidan qazib olingan foydali qazilma bitim predmeti bo‘lsa, agar ushbu foydali qazilmaga nisbatan yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqning advalor soliq stavkasi nazarda tutilgan bo‘lsa.

Ushbu moddaning ikkinchi qismi 2 — 4-bandlarida nazarda tutilgan bitimlar, agar mazkur shaxslar o‘rtasidagi bitimlar bo‘yicha daromadlarning tegishli kalendar yildagi summasi besh yuz million so‘mdan ortiq bo‘lsa.

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir, ushbu tovarlarning (xizmatlarning) birinchi sotuvchisi va oxirgi xaridori bilan o‘zaro aloqador bo‘lmagan shaxslar ishtirokida (vositachiligida) tuziladigan bitimlar ketma-ketligi yoki majmui, agar mazkur sotuvchi va xaridor o‘zaro aloqador shaxslar bo‘lsa, ushbu Kodeks maqsadida o‘zaro aloqador shaxslar o‘rtasidagi bitimga tenglashtiriladi. Bunday hollarda, o‘z ishtirokida (vositachiligida) bitimlarning mazkur ketma-ketligi yoki majmui amalga oshiriladigan uchinchi shaxslarning mavjudligi e’tiborga olinmaydi.

Ushbu moddaning to‘rtinchi qismida belgilangan qoida, basharti bitimlarning mazkur ketma-ketligida yoki majmuida ishtirok etuvchi bunday uchinchi shaxslar:

1) bitimlarning ushbu ketma-ketligida yoki majmuida hech qanday qo‘shimcha vazifalarni bajarmasa, bundan tovarlarni (xizmatlarni) bir shaxs tomonidan boshqa shaxsga realizatsiya qilishni (qayta sotishni) tashkil etish mustasno;

2) o‘z zimmasiga hech qanday tavakkalchiliklarni qabul qilmasa va tovarlarni (xizmatlarni) bir shaxs tomonidan boshqa shaxsga realizatsiya qilishni (qayta sotishni) tashkil etish uchun hech qanday aktivlardan foydalanmasa, qo‘llaniladi.

Ushbu modda maqsadida kalendar yil uchun bitimlar bo‘yicha daromadlar summasi bir shaxs (o‘zaro aloqador shaxslar) bilan tuzilgan shunday bitimlar bo‘yicha kalendar yilda olingan daromadlar summasini foyda solig‘i uchun belgilangan daromadlarni e’tirof etish tartibini hisobga olgan holda qo‘shish yo‘li bilan aniqlanadi.

Nazorat qilinadigan bitimlardagi daromadlarni soliq solish maqsadida aniqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi bunday bitimlarni yoki jami shunday bitimlarni (bundan buyon ushbu bo‘limda tahlil etiladigan bitim deb yuritiladi) taraflari mustaqil shaxslar bo‘lgan bitta yoki bir nechta bitim (bundan buyon ushbu bo‘limda taqqoslanadigan bitimlar deb yuritiladi) bilan taqqoslashni amalga oshiradi. Bunday taqqoslash ushbu bo‘limda nazarda tutilgan transfert narx belgilash chog‘ida daromadlarni aniqlash uslublarini tanlash va ularni keyinchalik qo‘llash maqsadida amalga oshiriladi.

(180-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Bitimlar bo‘yicha daromadlar summasini aniqlashda O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi bitimlar bo‘yicha olingan daromadlar summasini ularning bozordagi darajasiga muvofiqligini ushbu Kodeksning 22 va 23-boblari qoidalarini inobatga olgan holda tekshirishga haqli.

(180-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining arizasiga ko‘ra, sud bitimni mazkur bitimning ushbu moddada belgilangan nazorat qilinadigan bitim belgilariga javob bermasligiga sabab bo‘ladigan sharoitlar yaratish maqsadida tuzilgan bir turdagi bitimlar guruhining qismi deb taxmin qilinishi uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda nazorat qilinadigan bitim deb e’tirof etishi mumkin.

(180-moddaning to‘qqizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Foizsiz qarz (mablag‘lar) berish bo‘yicha o‘zaro bog‘liq shaxslar o‘rtasida tuzilgan bitimlar, agar bunday bitimlarda ishtirok etuvchi barcha taraflar va foyda oluvchilar O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari hisoblansa hamda ushbu qarz shartnomalari bo‘yicha majburiyatlar faqat O‘zbekiston Respublikasi hududida bajarilsa, nazorat qilinadigan bitimlar deb e’tirof etilmaydi.

(180-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan o‘ninchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

181-modda. Nazorat qilinadigan tashqi savdo bitimlari

Ushbu Kodeks maqsadida mazkur moddada nazarda tutilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda, nazorat qilinadigan bitimlar deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) jahon birja savdosi tovarlarining tashqi savdosi sohasidagi bitimlar;

2) taraflaridan birining ro‘yxatdan o‘tkazilish joyi, yashash joyi yoki soliq rezidentligi joyi ofshor yurisdiksiya bo‘lgan shaxs hisoblanadigan bitimlar.

Agar bunda O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxsining faoliyati ofshor yurisdiksiyada doimiy muassasani tashkil etsa va nazorat qilinadigan bitim ushbu faoliyat bilan bog‘liq bo‘lsa, ushbu bitim qismida mazkur yuridik shaxsga ro‘yxatdan o‘tkazilish joyi ushbu ofshor yurisdiksiya bo‘lgan shaxs sifatida qaraladi.

Ushbu Kodeks maqsadida soliq solish bo‘yicha imtiyozli rejimni taqdim etadigan va (yoki) moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda axborotni oshkor etishni hamda taqdim etishni nazarda tutmaydigan davlatlar va hududlar ofshor yurisdiksiyalar deb e’tirof etiladi.

Ofshor yurisdiksiyalarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda tasdiqlanadi.

Ushbu moddaning birinchi qismi 1-bandida nazarda tutilgan bitimlar, agar bunday bitimlarning predmeti quyidagi tovar guruhlaridan birining yoki bir nechtasining tarkibiga kiruvchi tovarlar bo‘lsa, nazorat qilinadigan bitimlar deb e’tirof etiladi:

1) rangli metallar;

2) qimmatbaho metallar;

3) mineral o‘g‘itlar;

4) uglevodorod xom ashyosi va neft mahsulotlari;

5) paxta tolasi va kalava ip.

Ushbu moddaning beshinchi qismida sanab o‘tilgan tovarlarning kodlarini Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining arizasiga ko‘ra sud bitimni ushbu moddada belgilangan nazorat qilinadigan bitim belgilariga javob bermasligiga sabab bo‘ladigan sharoitlar yaratish maqsadida tuzilgan bir turdagi bitimlar guruhining qismi deb taxmin qilinishi uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda ham nazorat qilinadigan bitim deb e’tirof etishi mumkin.

182-modda. Nazorat qilinadigan bitimlar to‘g‘risidagi xabarnoma

Soliq to‘lovchilar soliq organlarini kalendar yilda o‘zlari tuzgan, ushbu Kodeksning 180 va 181-moddalarida ko‘rsatilgan nazorat qilinadigan bitimlar to‘g‘risida xabardor qilishi shart.

Nazorat qilinadigan bitimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar soliq to‘lovchi tomonidan o‘zi hisobda turgan joydagi soliq organiga nazorat qilinadigan bitimlar tuzilgan kalendar yilga oid yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatidan kechiktirmay yuboriladigan nazorat qilinadigan bitimlar to‘g‘risidagi xabarnomalarda ko‘rsatiladi.

Nazorat qilinadigan bitimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarda quyidagi axborot bo‘lishi kerak:

1) tuzilgan nazorat qilinadigan bitimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar taqdim etilayotgan kalendar yil;

2) bitimlarning predmeti;

3) bitimlarning ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma’lumotlar:

a) yuridik shaxsning to‘liq nomi va uning soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (agar yuridik shaxs O‘zbekiston Respublikasining soliq organlarida hisobda tursa);

b) yakka tartibdagi tadbirkorning familiyasi, ismi, otasining ismi va uning soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;

v) yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi va fuqaroligi;

4) narxlari tartibga solinishi lozim bo‘lgan bitimlar bo‘yicha daromadlar (xarajatlar) summalarini ajratgan holda nazorat qilinadigan bitimlar bo‘yicha olingan daromadlarning summasi va (yoki) qilingan xarajatlarning (ko‘rilgan zararning) summasi. Ushbu qismda ko‘rsatilgan ma’lumotlar bir turdagi bitimlarning guruhi bo‘yicha tayyorlanishi mumkin.

Soliq to‘lovchi nazorat qilinadigan bitimlar to‘g‘risida taqdim etilgan xabarnomada ma’lumotlarning to‘liq emasligi, ularni to‘ldirishda yo‘l qo‘yilgan noaniqliklar yoki xatolar aniqlanganda aniqlashtirilgan xabarnomani yuborishga haqli.

Nazorat qilinadigan bitimlar to‘g‘risidagi xabarnoma soliq organiga belgilangan shakl bo‘yicha qog‘ozda yoki elektron shaklda taqdim etilishi mumkin.

Nazorat qilinadigan bitimlar to‘g‘risidagi xabarnomaning shaklini, shuningdek uni to‘ldirish va nazorat qilinadigan bitimlar to‘g‘risidagi xabarnomani elektron shaklda taqdim etish tartibini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

(182-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Nazorat qilinadigan bitimlar to‘g‘risidagi xabarnomani olgan soliq organi u olingan kundan e’tiboran o‘n kun ichida ushbu xabarnomani O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga elektron shaklda yuboradi.

Agar soliq tekshiruvini yoki soliq monitoringini o‘tkazishda soliq organi ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq ma’lumotlar taqdim etilmagan nazorat qilinadigan bitimlar tuzilganligi faktini aniqlagan bo‘lsa, soliq organi aniqlangan faktlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga mustaqil tarzda xabar qiladi va o‘zi olgan bunday bitimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yuboradi.

Soliq tekshiruvini yoki soliq monitoringini o‘tkazayotgan soliq organi xabarnoma yuborilgan sanadan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay xabarnoma va tegishli ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga yuborilganligi to‘g‘risida soliq to‘lovchiga xabar qilishi shart.

Xabarnomaning shaklini va uni yuborish tartibini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tasdiqlaydi.

Soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan soliq organi tomonidan nazorat qilinadigan bitimlar to‘g‘risidagi o‘zi tomonidan olingan ma’lumotlarning O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga yuborilishi bunday tekshiruvni davom ettirish va (yoki) tugatish hamda tekshiruv materiallarini ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra qaror chiqarish uchun to‘sqinlik qilmaydi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 180 va 181-moddalari.

22-bob. Bitimlarning taqqoslanadigan shartlari

183-modda. Bitimlarning tijorat va moliyaviy shartlarini taqqoslash

Ushbu Kodeks maqsadida taqqoslanadigan bitimlar, agar ular tahlil etiladigan bitimlar bilan bir xil tijoratga oid va (yoki) moliyaviy shartlarda tuziladigan bo‘lsa, tahlil etiladigan bitim bilan taqqoslanadigan bitim deb e’tirof etiladi.

Agar taqqoslanadigan bitimlarning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlari tahlil etiladigan bitimning shartlaridan farq qilsa, bunday bitimlar, agar tahlil etiladigan va taqqoslanadigan bitimlarning mazkur shartlari o‘rtasidagi farqlar ularning natijalariga jiddiy ta’sir ko‘rsatmasa, tahlil etiladigan bitim bilan taqqoslanadigan bitimlar deb e’tirof etilishi mumkin. Agar ushbu bitimlarning shartlaridagi farqlarning bu bitimlar shartlariga va (yoki) natijalariga doir tegishli tuzatishlarni soliq solish maqsadida qo‘llash yordamida hisobga olinishi mumkin bo‘lsa, bunday bitimlar ham tahlil etiladigan bitim bilan taqqoslanadigan bitimlar deb e’tirof etilishi mumkin.

Bitimlarning taqqoslanishini aniqlashda, shuningdek bitimlarning tijoratga oid va (yoki) moliyaviy shartlarini tuzatishlarni amalga oshirish uchun tahlil etiladigan hamda taqqoslanadigan bitimlarning mustaqil shaxslar o‘rtasidagi bitimlarning tijoratga oid va (yoki) moliyaviy shartlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan asosiy tavsiflarining tahlili o‘tkaziladi. Bunday tahlil ushbu Kodeksning 184-moddasiga muvofiq o‘tkaziladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 184-moddasi.

184-modda. Bitimlarning shartlarini taqqoslash tahlili

Bitimlarning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlarini taqqoslashni tahlil qilishda bu shartlarning ushbu bitimlarning tijoratga oid va (yoki) moliyaviy shartlariga yoxud ularning moliyaviy natijalariga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan asosiy tavsiflari hisobga olinadi. Bunda quyidagilar hisobga olinadi:

1) tovarlarning soni, ko‘rsatiladigan xizmatlarning hajmi;

2) bitim bo‘yicha majburiyatlarni bajarish muddatlari;

3) tegishli bitimlarda qo‘llaniladigan to‘lovlarning shartlari;

4) bitimda qo‘llanilgan chet el valyutasining so‘mga yoki boshqa valyutaga nisbatan kursi va uning o‘zgarishi;

5) bitim taraflari o‘rtasidagi huquqlar va majburiyatlarni taqsimlashning boshqa shartlari.

Bitimlarning asosiy tavsiflari jumlasiga quyidagilar ham kiradi:

1) bitim predmeti bo‘lgan tovarlarning (xizmatlarning) tavsiflari;

2) ishbilarmonlik muomalasi an’analariga muvofiq bitim taraflari tomonidan bajariladigan vazifalarning tavsiflari, shu jumladan bitim taraflari foydalanadigan aktivlarning, o‘z zimmasiga oladigan tavakkalchiliklarning tavsiflari, shuningdek bitimlar taraflari o‘rtasidagi javobgarlikning taqsimlanishi va boshqa shartlar (bundan buyon ushbu bo‘limda funksional tahlil deb yuritiladi);

3) tovarlar (xizmatlar) narxlariga ta’sir ko‘rsatadigan bitim taraflari o‘rtasida tuzilgan shartnomalarning (kontraktlarning) shartlari;

4) bitim taraflari faoliyatining iqtisodiy shartlari tavsiflari;

5) tovarlar (xizmatlar) narxlariga ta’sir ko‘rsatadigan bitim taraflarining bozor (tijoratga oid) strategiyalari tavsiflari.

Bitimlarning shartlarini taqqoslashni tahlil qilish chog‘ida taqqoslanadigan va tahlil etiladigan bitimlar tuziladigan bozorlarning tavsiflari hisobga olinishi kerak. Bunda quyidagi omillar e’tiborga olinadi:

1) bozorlarning geografik joylashgan yeri va ularning o‘lchami;

2) bozorlarda raqobatning mavjudligi hamda bozordagi sotuvchilar va xaridorlarning nisbiy raqobatbardoshliligi;

3) bozorda bir turdagi tovarlarning (xizmatlarning) mavjudligi;

4) bozordagi taklif va talab, iste’molchilarning xarid qobiliyati;

5) ishlab chiqarish va transport infratuzilmasining rivojlanish darajasi;

6) bozorning bitim narxiga ta’sir etuvchi boshqa tavsiflari.

Bitimlarning taraflari tomonidan bajariladigan vazifalarni tahlil qilishda ularning tasarrufidagi moddiy va nomoddiy aktivlar hisobga olinadi.

Bitimlar shartlarining taqqoslanishini tahlil qilishda hisobga olinadigan bitim taraflarining asosiy vazifalari jumlasiga quyidagilar kiradi, xususan:

1) tovarlarning dizaynini amalga oshirish va ularni texnologik jihatdan ishlab chiqish;

2) tovarlarni ishlab chiqarish;

3) tovarlarni yoki ularning tarkibiy qismlarini yig‘ish;

4) uskunani montaj qilish va (yoki) o‘rnatish;

5) ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish;

6) tovar-moddiy qimmatliklarni sotib olish;

7) tovarlarning ulgurji yoki chakana savdosini amalga oshirish;

8) ta’mirlash, kafolatli xizmat ko‘rsatish bo‘yicha vazifalar;

9) yangi bozorlarda tovarlarni (xizmatlarni) o‘tkazish, marketing, reklama;

10) tovarlarni saqlash va tashish;

11) sug‘urta qilish;

12) moliyalashtirish, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish;

13) sifatni nazorat qilish;

14) tezkor va strategik boshqaruv, shu jumladan tovarlarning (xizmatlarning) narx siyosatini, ularni ishlab chiqarish strategiyasini, realizatsiya qilish hajmini va assortimentini, ularning iste’mol xususiyatlarini aniqlash.

Bitimlarning shartlarini taqqoslashni tahlil qilishda bitim taraflaridan har biri tomonidan o‘z faoliyatini amalga oshirishda zimmasiga olinadigan va bitimning shartlariga ta’sir ko‘rsatadigan tavakkalchiliklari hisobga olinishi mumkin. Taraflarning tijorat strategiyalari, shu jumladan chiqariladigan mahsulotni yangilashga va takomillashtirishga, mahsulot sotiladigan yangi bozorlarga chiqishga qaratilgan strategiyalari ham hisobga olinishi mumkin.

Agar bitimlarning shartlarini taqqoslash tahlil qilinayotganda kreditlar yoki zayomlar shartlarini taqqoslash talab etiladigan bo‘lsa, bitimlar taraflarining kredit tarixi va to‘lov qobiliyati, bunday kreditlar yoki zayomlar berilayotgan muddatlar, ularning valyutasi hamda foiz stavkasi o‘lchamiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa shartlar hisobga olinadi.

Ushbu moddada ko‘rsatilgan omillar va tavsiflar, ushbu moddada nazarda tutilgan funksional tahlil uchun qaysi hollarda va qaysi darajada zarur bo‘lsa, o‘sha hollarda va darajada hisobga olinadi.

Ushbu moddaning birinchi — sakkizinchi qismlariga muvofiq taqqoslanadigan bitimlar shartlarini tahlil qilish asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi taqqoslanadigan bitimlarning shartlari tahlil etiladigan bitim shartlari bilan taqqoslashning zarur darajasini ta’minlash uchun tuzatishlar kiritishni amalga oshirishga haqli. Bunday tuzatishlar quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

1) mustaqil shaxslarning nazorat qilinmaydigan bitimlardagi daromadlari ular tomonidan foydalaniladigan aktivlarni va tovarlar (xizmatlar) bozorida yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlarda o‘z zimmasiga olinadigan iqtisodiy (tijoratga oid) tavakkalchiliklarni hisobga olgan holda shakllantiriladi hamda shartnoma shartlariga va ishbilarmonlik muomalasi an’analariga muvofiq bitimning har bir tarafi tomonidan bajariladigan vazifalarni aks ettiradi;

2) boshqa teng sharoitlarda bozor (tijorat) strategiyasiga muvofiq bitim taraflari tomonidan qo‘shimcha vazifalarni amalga oshirish, daromadlar miqdoriga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi aktivlardan foydalanish, qo‘shimcha tijorat (iqtisodiy) tavakkalchiliklarini o‘z zimmasiga olish bunday bitim bo‘yicha kutiladigan daromadlarning oshishi bilan birga kechadi.

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksining 101 — 103-moddalari.

185-modda. Bitimlarning shartlarini taqqoslash tahlilida foydalaniladigan axborot

Transfert narxni belgilashda soliq nazoratini o‘tkazishda (shu jumladan tahlil etiladigan bitimning va taqqoslanadigan bitimlarning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlarini taqqoslash chog‘ida) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi quyidagi axborotdan foydalanadi:

1) O‘zbekiston Respublikasi birjalarining va chet el birjalarining narxlar hamda kotirovkalar to‘g‘risidagi ma’lumotlaridan;

2) O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan e’lon qilinadigan yoki so‘rovga ko‘ra taqdim etiladigan O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdosining bojxona statistikasidan;

3) O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq vakolatli davlat boshqaruvi organlarining rasmiy axborot manbalaridagi, chet davlatlarning yoki xalqaro tashkilotlarning rasmiy axborot manbalaridagi yoxud boshqa e’lon qilingan va (yoki) hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot manbalaridagi hamda axborot tizimlaridagi narxlar (narxlarning o‘zgarish chegaralari) va birja kotirovkalari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan;

(185-modda birinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

4) axborot-narx agentliklari ma’lumotlaridan;

5) soliq to‘lovchi tomonidan tuzilgan bitimlar to‘g‘risidagi axborotdan.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan axborot mavjud bo‘lmagan (yetarli bo‘lmagan) taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi quyidagi axborotdan foydalanadi:

1) e’lon qilingan va (yoki) hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan axborotlar manbalaridagi hamda axborot tizimlaridagi narxlar (narxlarning tebranish chegaralari) va kotirovkalar to‘g‘risidagi ma’lumotlardan;

2) yuridik shaxslarning moliyaviy va statistika hisobotidan olingan ma’lumotlardan, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining yoki chet davlatlarning hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot manbalarida e’lon qilingan va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslarining va (yoki) chet el yuridik shaxslarining hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot tizimlaridagi, shuningdek rasmiy saytlaridagi ma’lumotlardan.

Chet el yuridik shaxslarining moliyaviy hisobotidagi ma’lumotlardan foydalanishga O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslarining (O‘zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyati doimiy muassasaning tashkil etilishiga olib keladigan chet el yuridik shaxslarining) rentabelligi oralig‘ini aniqlash uchun faqat taqqoslanadigan bitimlar tuzgan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslarining moliyaviy hisoboti ma’lumotlari asosida rentabellikning bunday oralig‘ini hisoblash imkoni bo‘lmagan taqdirda yo‘l qo‘yiladi;

3) baholash obyektining baholash faoliyati to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga yoki chet davlatlar qonunchiligiga muvofiq aniqlangan bozor qiymati to‘g‘risidagi ma’lumotlardan;

(185-modda ikkinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

4) ushbu Kodeksning 23-bobiga muvofiq foydalaniladigan boshqa axborotdan.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 23-bobi.

Bitimlarning shartlarini taqqoslashni tahlil qilishda soliq sirini tashkil etuvchi axborotdan, shuningdek foydalanish huquqi qonunchilikka muvofiq cheklangan boshqa axborotdan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunday cheklov O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi transfert narxni belgilashda soliq nazoratini o‘tkazayotgan soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

(185-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Bitimlarning shartlarini taqqoslashni tahlil qilishda faqat hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot manbalaridan, shuningdek soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalaniladi.

Bitim shartlarining taqqoslanishini tahlil qilishda, ushbu Kodeksning 193-moddasiga muvofiq hujjatlarni tayyorlash va taqdim etishda soliq to‘lovchi o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotdan tashqari hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan har qanday axborot manbalaridan, shuningdek o‘zi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, xuddi shunday faoliyatni amalga oshirayotgan shaxslarning faoliyati to‘g‘risidagi axborotdan foydalanishga haqli.

Agar soliq to‘lovchiga nisbatan transfert narx belgilashda soliq nazorati o‘tkazilayotganda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ushbu soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil shaxslar bilan tuzilgan taqqoslanadigan bitimlar to‘g‘risidagi axborotga ega bo‘lsa, bunday bitimlarni tahlil etiladigan bitim bilan taqqoslashda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bozor narxlarining oralig‘ini aniqlash uchun ushbu axborotdan foydalanishga haqli.

> **Izoh.** Qarang: Fuqarolik kodeksining 103 — 112-moddalari.

23-bob. Transfert narxni belgilashda soliq nazoratida foydalaniladigan usullar

186-modda. Transfert narxni belgilashda soliq nazoratida foydalaniladigan usullar to‘g‘risidagi umumiy qoidalar

Transfert narxni belgilash chog‘ida soliq nazorati o‘tkazilganida (shu jumladan nazorat qilinadigan bitimning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlari hamda uning natijalari taqqoslanadigan bitimlarning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlari hamda ularning natijalari bilan taqqoslanganda) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ushbu moddada belgilangan tartibda quyidagi usullardan foydalanadi:

1) taqqoslanadigan bozor narxlarining usulidan;

2) keyingi realizatsiya qilish narxi usulidan;

3) xarajat usulidan;

4) taqqoslanadigan rentabellik usulidan;

5) foydani taqsimlash usulidan.

Zarur bo‘lgan hollarda ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan ikki va undan ortiq usullar kombinatsiyasidan foydalanishga yo‘l qo‘yiladi.

Taqqoslanadigan bozor narxlari usuli, agar ushbu Kodeks 189-moddasining ikkinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, nazorat qilinadigan bitimlar narxlarining bozor narxlariga muvofiqligini soliq solish maqsadida aniqlash uchun ustuvor hisoblanadi.

Agar soliq solish maqsadida taqqoslanadigan bozor narxlari usulini qo‘llash mumkin bo‘lmasa yoxud uni qo‘llash nazorat qilinadigan bitimlar narxlarining bozor narxlariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi to‘g‘risida asoslangan xulosa chiqarish imkonini bermasa, ushbu moddaning birinchi qismi 2 — 5-bandlarida ko‘rsatilgan boshqa usullarni qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi.

Agar tegishli tovarlar (xizmatlar) bozorida hech bo‘lmaganda bir turdagi tovarlar (xizmatlar) predmeti bo‘lgan bitta taqqoslanadigan bitim mavjud bo‘lsa, shuningdek bunday bitim haqida yetarlicha axborot mavjud bo‘lsa, nazorat qilinadigan bitimlar narxlarining bozor narxlariga muvofiqligini ushbu Kodeksning 188-moddasida nazarda tutilgan tartibda aniqlash uchun taqqoslanadigan bozor narxlari usulidan foydalaniladi.

Soliq to‘lovchining nazorat qilinadigan bitimi narxining bozor narxlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida taqqoslanadigan bozor narxlari usulini qo‘llash uchun ushbu soliq to‘lovchining mustaqil shaxslar bilan tuzgan bitimlaridan, basharti bunday bitimlar taqqoslansa, taqqoslanadigan bitimlar sifatida foydalanilishi mumkin.

Aynan o‘xshash (bir turdagi) tovarlar (xizmatlar) bilan taqqoslanadigan bitimlarda narxlar to‘g‘risidagi hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot mavjud bo‘lmagan taqdirda transfert narxni belgilashda soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lashning to‘liqligini aniqlash maqsadida ushbu moddaning birinchi qismi 2 — 5-bandlarida ko‘rsatilgan usullarning biridan foydalaniladi.

Agar ushbu bobda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, nazorat qilinadigan bitimning haqiqiy holatlari va shartlarini inobatga olgan holda bitim narxining bozor narxlariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi haqida ko‘proq asoslangan xulosa qilishga imkon beradigan usuldan foydalaniladi.

Ushbu moddaning birinchi qismi 2 — 5-bandlarida ko‘rsatilgan usullardan soliq solish maqsadi uchun nazorat qilinadigan bir turdagi bitimlar guruhi bo‘yicha daromadlarni aniqlashda ham foydalanilishi mumkin.

Aynan o‘xshash (bir turdagi) tovarlar (xizmatlar) predmeti bo‘lgan va taqqoslanadigan tijorat va (yoki) moliyaviy shartlarda amalga oshirilgan bitimlar ushbu bo‘limning maqsadi uchun bir turdagi bitimlar deb e’tirof etiladi.

Nazorat qilinadigan bitimlarda soliq solish maqsadida daromadlarni (foydani, tushumni) aniqlash chog‘ida foydalaniladigan usulni tanlashda dastlabki ma’lumotlarning to‘liqligi va to‘g‘riligi, shuningdek taqqoslanadigan bitimlarni nazorat qilinadigan bitim bilan taqqoslashni ta’minlash maqsadida amalga oshiriladigan tuzatishlarning asoslanganligi inobatga olinishi kerak.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan usullarni qo‘llash maqsadida aniq bitimlar to‘g‘risidagi axborotdan tashqari bozor narxlarining shakllangan darajasi va (yoki) birja kotirovkalari haqidagi hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan, shuningdek axborot-narx agentliklarining tegishli tovarlar (xizmatlar) bozorlaridagi aynan o‘xshash (bir turdagi) tovarlarga (xizmatlarga) oid narxlar (narxlar oraliqlari) haqidagi ma’lumotlaridan foydalanish mumkin.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan usullarni qo‘llash maqsadida bozor narxlari to‘g‘risidagi hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot manbalaridan foydalanishga, basharti ushbu axborot manbalarida ma’lumotlari mavjud bo‘lgan bitimlarning nazorat qiladigan bitim bilan taqqoslanishi ta’minlansa, yo‘l qo‘yiladi.

Ushbu moddaning birinchi qismi 2 va 3-bandlarida ko‘rsatilgan usullarni qo‘llash uchun xarajatlarni hisobga olish tartibida ushbu usullarga muvofiq hisob-kitob qilinadigan ko‘rsatkichlarga va rentabellik oralig‘iga ta’siri sezilarli bo‘lmasligini ta’minlaydigan rentabellik oralig‘i hisob-kitob qilinadigan moliyaviy hisobotlarning ma’lumotlari taqqoslanadigan tarzga keltirilishi kerak.

Agar rentabellik oralig‘ini hisob-kitob qilish va nazorat qilinadigan bitimlarda soliq solish maqsadida daromadlarni (foydani, tushumni) aniqlash uchun moliyaviy hisobotlar ma’lumotlarining taqqoslanishini ta’minlash mumkin bo‘lmasa, ushbu moddaning birinchi qismi 4 va 5-bandlarida ko‘rsatilgan usullardan foydalaniladi.

Ushbu moddaning birinchi qismi 4 va 5-bandlarida ko‘rsatilgan usullar bozor narxlari ko‘rsatkichlarini bevosita hisob-kitob qilmagan holda qo‘llanilishi mumkin. Ko‘rsatilgan usullardan foydalanilganda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi nazorat qilinadigan bitimning moliyaviy ko‘rsatkichlarini (natijalarini) taqqoslanadigan bitimlar bo‘yicha rentabellik oralig‘i bilan taqqoslaydi va uning asosida, agar ushbu bitim taraflari mustaqil shaxslar bo‘lsa, olinishi mumkin bo‘lgan daromad summasining hisob-kitobini amalga oshiradi.

Xuddi shunday tartibda nazorat qilinadigan bir turdagi bitimlar guruhining moliyaviy ko‘rsatkichlari (natijalari) taqqoslanadigan bitimlar bo‘yicha rentabellik oralig‘i asosida hisob-kitob qilingan moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanadi va daromadlarning summalariga hisob-kitob qilish amalga oshiriladi.

Sud bitim narxining bozor narxlariga muvofiqligini belgilash uchun ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa holatlarni ushbu bo‘limda nazarda tutilgan cheklovlarsiz inobatga olishi mumkin.

Soliq to‘lovchilar bitimlarni tuzishda ushbu Kodeksda nazarda tutilmagan maqsadlarda narxni belgilash sohasidagi o‘z siyosatini asoslash uchun ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan usullarga amal qilishi shart emas.

187-modda. Moliyaviy ko‘rsatkichlar va rentabellik oralig‘i

Nazorat qilinadigan bitimlarda soliq solish maqsadida daromadlarni ushbu Kodeksning 189 — 192-moddalarida nazarda tutilgan tartibda aniqlashda quyidagi rentabellik ko‘rsatkichlaridan foydalanish mumkin:

1) aksiz solig‘ini va qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olmagan holda hisoblab chiqarilgan, tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan yalpi foydaning tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan sof tushumga nisbati sifatida aniqlanadigan yalpi rentabellik;

2) yalpi foydaning sotilgan tovarlar (xizmatlar) tannarxiga nisbati sifatida aniqlanadigan xarajatlarning yalpi rentabelligi;

3) aksiz solig‘ini va qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olmagan holda hisoblab chiqarilgan, asosiy faoliyatdan olingan foydaning tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumga nisbati sifatida aniqlanadigan sotish rentabelligi;

4) asosiy faoliyatdan olingan foydaning realizatsiya qilingan tovarlarning (xizmatlarning) tannarxi, realizatsiya qilish xarajatlari va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bilan bog‘liq ma’muriy xarajatlarning summasiga nisbati sifatida aniqlanadigan xarajatlar rentabelligi;

5) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan yalpi foydaning realizatsiya qilishga doir xarajatlarga va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ma’muriy xarajatlarga nisbati sifatida aniqlanadigan realizatsiya qilish bo‘yicha xarajatlarning va ma’muriy xarajatlarning rentabelligi;

6) asosiy faoliyatdan olingan foydaning tahlil qilinadigan bitimda bevosita yoki bilvosita foydalaniladigan aktivlarning (muomalada bo‘lmagan va muomalada bo‘lgan) joriy bozor qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadigan aktivlar rentabelligi.

Aktivlarning joriy bozor qiymati to‘g‘risidagi axborot mavjud bo‘lmaganda aktivlar rentabelligi moliyaviy hisobotning ma’lumotlari asosida aniqlanishi mumkin.

Rentabellik va boshqa moliyaviy ko‘rsatkichlar ushbu bobning maqsadida O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari uchun O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchiligiga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida aniqlanadi. Chet el yuridik shaxslari uchun mazkur moliyaviy ko‘rsatkichlar chet davlatlarning qonunchiligiga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida aniqlanadi. Bunda O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchiligiga muvofiq tuziladigan moliyaviy hisobot ma’lumotlari bilan taqqoslashni ta’minlash maqsadida bunday ma’lumotlarga tuzatishlar kiritiladi.

(187-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Rentabellik oralig‘ini aniqlash chog‘ida, agar bitimlar nazorat qilinadigan bo‘lmasa, taqqoslanadigan kamida to‘rtta bitim, shu jumladan soliq to‘lovchi tomonidan amalga oshirilgan bitimlar natijalari bo‘yicha yoxud taqqoslanadigan kamida to‘rtta yuridik shaxsning moliyaviy hisoboti ma’lumotlari asosida aniqlanadigan rentabellik ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi. Mazkur yuridik shaxslarni tanlash nazorat qilinadigan bitimga nisbatan taqqoslanadigan iqtisodiy shartlarda (tijorat shartlarida) o‘zining tarmoq xususiyatini va amalga oshiriladigan faoliyat turlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Nazorat qilinadigan bitim tarafi mansub bo‘lgan tarmoqda, ushbu tarafga nisbatan mustaqil yuridik shaxslar mavjud bo‘lmaganda funksional tahlil uchun yuridik shaxslarni tanlash ushbu yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan vazifalarning taqqoslanishini, ular tomonidan qabul qilinadigan tavakkalchiliklarni va foydalaniladigan aktivlarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Taqqoslanadigan to‘rtta va undan ortiq bitim to‘g‘risidagi axborot mavjud bo‘lmaganda yoxud taqqoslanadigan to‘rtta va undan ortiq yuridik shaxsning moliyaviy hisoboti mavjud bo‘lmaganda, rentabellik oralig‘ini aniqlash maqsadida kam sondagi taqqoslanadigan bitimlar (kam sondagi yuridik shaxslarning moliyaviy hisoboti) to‘g‘risidagi axborotdan foydalanish mumkin.

Ushbu Kodeksning 186-moddasi birinchi qismi 2 — 4-bandlarida ko‘rsatilgan usullarni qo‘llash maqsadida rentabellik oralig‘i quyidagi tartibda aniqlanadi.

Dastlab rentabellik oralig‘ini aniqlash uchun foydalaniladigan rentabellik jami ko‘rsatkichlari ushbu oraliqni aniqlash uchun foydalaniladigan tanlamani hosil qilgan holda, o‘sib borish tarzida tartibga keltiriladi. Bunda rentabellikning har bir ko‘rsatkichiga, eng kamidan boshlab o‘z tartib raqami beriladi. Agar tanlanma rentabellikning ikki va undan ortiq bir xil ko‘rsatkichini o‘z ichiga olsa, unga barcha shunday ko‘rsatkichlar kiritiladi.

Rentabellik oralig‘ini aniqlashda nazorat qilinadigan bitim rentabelligi hisobga olinmaydi. So‘ngra to‘plamda rentabellik ko‘rsatkichlarining soni to‘rtga qoldiqsiz bo‘linishiga qarab, rentabellik oralig‘i quyidagi ikki usuldan biri bilan aniqlanadi:

1) agar ushbu son qoldiqsiz bo‘linsa, rentabellik oralig‘ining eng kam ko‘rsatkichi rentabellik ko‘rsatkichlarining yarim summasiga teng deb qabul qilinadi, mazkur ko‘rsatkichlar tanlamada bo‘linishdan hosil bo‘lgan qismga teng bo‘lgan tartib raqamiga va keyingi tartib raqamiga ega bo‘ladi. Rentabellik oralig‘ining eng yuqori qiymati bunday holda rentabellik ko‘rsatkichlarining yarim summasiga teng deb qabul qilinadi, mazkur ko‘rsatkichlar tanlamada bo‘linishdan hosil bo‘lgan qismning uch karrasiga teng bo‘lgan tartib raqamiga va keyingi tartib raqamiga ega bo‘ladi;

2) agar ushbu son qoldiqsiz bo‘linmasa, rentabellik oralig‘ining eng kam qiymati rentabellik ko‘rsatkichiga teng deb qabul qilinadi, mazkur ko‘rsatkich tanlamada bo‘linishdan hosil bo‘lgan qismning butun qismi birligiga oshirilgan ko‘rsatkichga teng bo‘lgan tartib raqamiga ega bo‘ladi. Rentabellik oralig‘ining eng yuqori ko‘rsatkichi bunday holda rentabellik ko‘rsatkichiga teng deb qabul qilinadi, mazkur ko‘rsatkich tanlamada bo‘linishdan hosil bo‘lgan qismning butun qismi uch karrasi birligiga oshirilgan qiymatga teng bo‘lgan tartib raqamiga ega bo‘ladi.

Taqqoslanadigan iqtisodiy shartlarda (tijorat shartlarida) amalga oshiriladigan faoliyat natijalari bo‘yicha rentabellikni hisob-kitob qilish yuridik shaxs moliyaviy hisobotining ma’lumotlari asosida quyidagi shartlarga bir vaqtda rioya qilinganida amalga oshirilishi mumkin:

1) yuridik shaxs taqqoslanadigan faoliyatni amalga oshiradi va u bilan bog‘liq taqqoslanadigan vazifalarni bajaradi. Faoliyatning taqqoslanishi O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasnifida,

shuningdek xalqaro va boshqa tasniflarda nazarda tutilgan iqtisodiy faoliyat turlarini hisobga olgan holda aniqlanishi mumkin;

2) yuridik shaxs sof aktivlarining umumiy miqdori rentabellik hisob-kitob qilinadigan bir necha yildan oxirgi yilning 31-dekabri holatiga koʻra moliyaviy hisobot maʼlumotlari boʻyicha manfiy hisoblanmaydi;

3) yuridik shaxs rentabellik hisob-kitob qilinadigan bir necha yildan bir yildan ortiq davrdagi moliyaviy hisobot maʼlumotlari boʻyicha sotuvlardan zararlarga ega boʻlmaydi;

4) yuridik shaxs 25 foizdan ortiq boʻlgan ulush bilan boshqa yuridik shaxs faoliyatida bevosita va (yoki) bilvosita ishtirok etmaydi hamda bevosita ishtirok etish ulushi 25 foizdan ortiq boʻlgan ishtirokchi (aksiyador) sifatidagi yuridik shaxsga ega boʻlmaydi.

Agar maʼlumotlaridan rentabellik oraligʻini hisob-kitob qilish uchun foydalaniladigan yuridik shaxslarning konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisoboti maʼlumotlaridan foydalanish imkoniyati boʻlsa, ushbu moddaning sakkizinchi qismi 4-bandida nazarda tutilgan mezonlar qoʻllanilmaydi.

Agar ushbu moddaning oʻninchi va oʻn birinchi qismlarida belgilangan cheklovlarga koʻra funksional tahlil uchun toʻrttadan kam yuridik shaxs qolsa, ushbu moddaning sakkizinchi qismi 4-bandida koʻrsatilgan ishtirok etish ulushi mezonlari 25 foizdan 50 foizga qadar oshirilishi mumkin.

Rentabellik oraligʻini hisob-kitob qilish uchun nazorat qilinadigan bitim tuzilgan paytdagi yoxud vaqt boʻyicha unga yaqin boʻlgan, ammo bitim tuzilgan kalendar yilning 31-dekabridan kechikmagan paytdagi mavjud axborotdan foydalaniladi.

Ushbu moddaning oʻn birinchi qismida koʻrsatilgan mazkur axborot oʻrniga nazorat qilinadigan bitim tuzilgan kalendar yildan bevosita oldingi uch kalendar yildagi (yoxud ushbu bitimda narxlar belgilangan kalendar yildagi) moliyaviy hisobot maʼlumotlaridan foydalanish mumkin. Mazkur axborot jumlasiga soliq toʻlovchining mustaqil shaxslar bilan oʻzi amalga oshirgan bitimlar toʻgʻrisidagi axboroti ham kiradi.

Rentabellik oraligʻini aniqlashda taqqoslanishni taʼminlash maqsadida rentabellik koʻrsatkichlari taqqoslanadigan yuridik shaxslarning moliyaviy hisobotlaridagi maʼlumotlarga asoslangan holda mavjud farqlarga tuzatish kiritish maqsadida oʻzgarishi mumkin. Bunday tuzatishlar, xususan, debitorlik va kreditorlik qarzi koʻrsatkichlarida, soliq toʻlovchining va moliyaviy hisobot maʼlumotlaridan rentabellik oraligʻini aniqlash uchun foydalaniladigan yuridik shaxslarning moliyaviy hisoboti maʼlumotlari boʻyicha tovar-moddiy zaxiralarning koʻrsatkichlarida amalga oshiriladi.

188-modda. Taqqoslanadigan bozor narxlari usuli

Taqqoslanadigan bozor narxlari usuli nazorat qilinadigan bitimdagi tovarlar (xizmatlar) narxlarining bozor narxlariga muvofiqligini nazorat qilinadigan bitim narxini ushbu moddaning ikkinchi — yettinchi qismlarida nazarda tutilgan tartibda aniqlangan bozor narxlari oraligʻi bilan taqqoslash asosida aniqlashni nazarda tutadi.

Agar nazorat qilinadigan bitimga nisbatan aynan oʻxshash (bir turdagi) tovarlar (xizmatlar) bilan tuzilgan faqat bitta taqqoslanadigan bitim haqidagi axborot mavjud boʻlsa, taqqoslanadigan bitimning narxi, basharti ushbu nazorat qilinadigan hamda taqqoslanadigan bitimlarning tijoratga oid va (yoki) moliyaviy shartlari toʻliq taqqoslansa, bir vaqtning oʻzida bozor narxlari oraligʻining eng kam va eng koʻp koʻrsatkichlari deb eʼtirof etilishi mumkin. Mazkur qoida nazorat qilinadigan va taqqoslanadigan bitimlarning tijoratga oid va (yoki) moliyaviy shartlari toʻliq taqqoslanishini tegishli tuzatishlar bilan taʼminlash mumkin boʻlgan taqdirda ham qoʻllanilishi mumkin. Agar taqqoslanadigan bitimdagi tovarlarni (xizmatlarni) sotuvchi ushbu tovarlar (xizmatlar) bozorida ustun mavqeni egallagan boʻlsa, ushbu qismda nazarda tutilgan qoidalar qoʻllanilmaydi.

Bir xil (bir turdagi) tovarlar (xizmatlar) predmeti boʻlgan bir nechta taqqoslanadigan bitim (shu jumladan soliq toʻlovchining mustaqil shaxslar bilan bitimlari) toʻgʻrisida axborot mavjud boʻlganda, bozor narxlari oraligʻi quyidagi tartibda aniqlanadi. Dastlab taqqoslanadigan bitimlarda qoʻllanilgan, bozor narxlari oraligʻini aniqlash uchun foydalaniladigan narxlar majmui ushbu oraliqni aniqlash uchun foydalaniladigan tanlamani hosil qilgan holda oʻsib borish tarzida tartibga solinadi. Bunda narxning har bir koʻrsatkichiga, eng kam miqdoridan boshlab oʻz tartib raqami beriladi. Agar tanlama narxning ikki va undan ortiq bir xil qiymatini oʻz ichiga olgan boʻlsa, unga barcha shunday koʻrsatkichlar kiritiladi. Bozor narxlari oraligʻini aniqlashda nazorat qilinadigan bitimning narxi hisobga olinmaydi. Soliq toʻlovchi tomonidan mustaqil shaxslar bilan amalga oshirilgan taqqoslanadigan bitimlar soni yetarli boʻlganda,

boshqa bitimlar bo‘yicha axborot hisobga olinmasligi mumkin. So‘ngra olingan tanlama asosida rentabellik oralig‘ini aniqlash uchun ushbu Kodeksning 187-moddasi to‘qqizinchi qismida nazarda tutilgan tartibda bozor narxlarining oralig‘i topiladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 187-moddasi.

Bozor narxlari oralig‘i tahlil qilingan davr mobaynida qo‘llanilgan narxlar haqidagi mavjud axborot yoki nazorat qilinadigan bitim amalga oshirilishiga qadar bo‘lgan eng yaqin sanadagi axborot asosida aniqlanadi.

Birja kotirovkalari to‘g‘risida e’lon qilingan yoki so‘rov bo‘yicha olingan axborotdan foydalanilganda bozor narxlarining oralig‘i tegishli birjada ro‘yxatdan o‘tkazilgan aynan o‘xshash (bir turdagi) tovarlar bilan amalga oshirilgan bitimlarning narxlari asosida aniqlanadi. Bunday holda bitimlarning ular amalga oshirilgan sanada qayd etilgan eng kam va eng ko‘p narxi o‘rtasidagi oraliq bozor narxlari oralig‘i deb e’tirof etiladi.

Bozor narxlari oralig‘i birja kotirovkalari asosida aniqlanganda bitimlarning iqtisodiy (tijorat) shartlaridagi farqlarni hisobga olishga, chunonchi, quyidagi iqtisodiy (tijorat) shartlar asosida farqlarni hisobga oladigan tuzatishlar vositasida yo‘l qo‘yiladi:

1) tegishli bozorga tovarlar (xizmatlar) yetkazib berilishi uchun zarur bo‘lgan, hujjatlar va (yoki) axborot manbalari bilan asoslangan va tasdiqlangan xarajatlar;

2) bojxona bojlarini to‘lash xarajatlari;

3) to‘lov shartlari;

4) savdo brokerining (vositachining yoki agentning) u tomonidan savdo-vositachilik funksiyalari bajarilganligi uchun vositachilik (agent) haqi.

Axborot-narx agentliklarining aynan o‘xshash (bir turdagi) tovarlarning (xizmatlarning) narxlari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanilganda eng kam va eng ko‘p ko‘rsatkichlar bunday tovarlarning (xizmatlarning) e’lon qilingan narxlarining eng kam va eng ko‘p ko‘rsatkichlariga muvofiq bo‘lgan oraliq ushbu Kodeksning 186-moddasi o‘n ikkinchi va o‘n uchinchi qismlariga muvofiq bozor narxlarining oralig‘i deb e’tirof etilishi mumkin. Bunda faqat nazorat qilinadigan bitim taalluqli bo‘lgan vaqt davrida taqqoslanadigan shartlar asosida tuzilgan bitimlar bo‘yicha ma’lumotlar inobatga olinadi.

Agar nazorat qilinadigan bitimning narxi ushbu modda qoidalariga muvofiq aniqlangan bozor narxlari oralig‘i chegarasida bo‘lsa, soliq solish maqsadlarida ushbu narx bozor narxlariga muvofiq bo‘lgan narx deb e’tirof etiladi.

Agar nazorat qilinadigan bitimning narxi bozor narxlari oralig‘ining eng kam miqdoridan kam bo‘lsa yoki uning eng ko‘p miqdoridan ko‘p bo‘lsa, ushbu narx bozor narxlariga muvofiq bo‘lmagan narx deb e’tirof etiladi. Mazkur nomuvofiqlik mavjud bo‘lgan taqdirda, soliq solish maqsadida bozor narxlari oralig‘ining o‘rtacha qiymatiga teng bo‘lgan narx qabul qilinadi.

Soliq solish maqsadida bozor narxlari oralig‘ining o‘rtacha qiymatini ushbu moddaning to‘qqizinchi qismiga muvofiq qo‘llash, basharti bu budjet tizimiga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini kamaytirmasa yoki soliq to‘lovchi zararining summasi oshishiga olib kelmasa, amalga oshiriladi.

189-modda. Keyingi realizatsiya qilish narxi usuli

Keyingi realizatsiya qilish narxi usuli nazorat qilinadigan bitim narxining ushbu nazorat qilinadigan bitimda (bir turdagi bitimlar guruhida) olingan tovarni keyingi realizatsiya qilishda (qayta sotishda) nazorat qilinadigan bitim tarafi tomonidan olingan yalpi rentabellikni taqqoslash asosida bozor narxlariga muvofiqligini aniqlashni nazarda tutadi. Ushbu usuldan foydalanilganda yalpi rentabellikning bozor oralig‘i ushbu Kodeksning 187-moddasida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadi.

Keyingi realizatsiya qilish narxi usulidan foydalanish narxlarning bozor narxlariga muvofiqligini aniqlash uchun boshqa usullarga nisbatan ustuvor bo‘lib, unga ko‘ra tovar nazorat qilinadigan bitim doirasida olinadi va taraflari mustaqil shaxslar bo‘lgan bitim doirasida qayta ishlanmagan holda qayta sotiladi. Agar qayta sotishni amalga oshirayotgan shaxs uning yalpi rentabelligi darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan nomoddiy aktivlar obyektlariga egalik qilmasa, mazkur usuldan foydalaniladi.

Agar tovar qayta sotilganda quyidagi operatsiyalar amalga oshirilsa ham keyingi realizatsiya qilish narxi usulidan foydalanish mumkin:

1) tovarni qayta sotishga va transportda tashishga tayyorlash (tovarlarni turkumlarga ajratish, jo‘natmalarni shakllantirish, saralash, qayta o‘rash);

2) agar yakuniy mahsulotning (yarim tayyor mahsulotlarning) xususiyatlari aralashtiriladigan tovarlarning xususiyatlaridan sezilarli farq qilmasa, tovarlarni aralashtirish.

Agar tovarni mustaqil shaxslarga keyingi realizatsiya qilish taqqoslanadigan tijorat shartlarida va (yoki) moliyaviy shartlarda turli narxlarda amalga oshirilsa, rentabellik oralig‘ini aniqlashda tovarni keyingi realizatsiya qilish narxi sifatida barcha shunday bitimlar bo‘yicha ushbu tovarning o‘rtacha narxidan foydalaniladi.

Agar qayta sotishni amalga oshirayotgan shaxsda yalpi rentabellik ushbu Kodeksning 187-moddasida nazarda tutilgan tartibda aniqlangan rentabellik oralig‘i chegarasida bo‘lsa, soliq solish maqsadida nazorat qilinadigan bitimda tovar sotib olingan narx bozor narxlariga muvofiq deb e’tirof etiladi.

Agar qayta sotishni amalga oshirayotgan shaxsda yalpi rentabellik ushbu Kodeksning 187-moddasida nazarda tutilgan tartibda aniqlangan rentabellik oralig‘ining eng kam miqdoridan kam bo‘lsa yoki uning eng yuqori miqdoridan ko‘p bo‘lsa, soliq solish maqsadida nazorat qilinadigan bitim narxi tovarni keyingi realizatsiya qilishning amaldagi narxidan va rentabellik oralig‘ining o‘rtacha qiymatiga muvofiq keladigan yalpi rentabellikdan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Keyingi realizatsiya qilish narxi usuli qo‘llanilganida axborot-narx agentliklarining aynan o‘xshash (bir turdagi) tovarlarning (xizmatlarning) narxlari (narxlar oralig‘i) to‘g‘risidagi ma’lumotlaridan va bunday tovarlarga (xizmatlarga) bozor narxlari oralig‘i narxlaridan ushbu Kodeks 188-moddasining yettinchi qismida nazarda tutilgan tartibda foydalanishga yo‘l qo‘yiladi.

Soliq solish maqsadida rentabellik oralig‘ining o‘rtacha qiymatini ushbu moddaning yettinchi qismiga muvofiq qo‘llash, basharti bu budjet tizimiga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini kamaytirmasa yoki soliq to‘lovchining zarari summasi oshishiga olib kelmasa, amalga oshiriladi.

190-modda. Xarajat usuli

Xarajat usuli nazorat qilinadigan bitim narxining bozor narxlariga muvofiqligini aniqlashni nazarda tutadi va mazkur usul nazorat qilinadigan bitim (nazorat qilinadigan bir turdagi bitimlar guruhi) tarafi bo‘lgan shaxs xarajatlarining yalpi rentabelligini taqqoslanadigan bitimlardagi xarajatlar yalpi rentabelligining ushbu Kodeksning 187-moddasida nazarda tutilgan tartibda aniqlangan bozor oralig‘i bilan taqqoslashga asoslanadi.

Xarajat usuli, chunonchi, quyidagi hollarda qo‘llanilishi mumkin:

1) sotuvchi bilan o‘zaro bog‘langan shaxslar tomonidan xizmatlar ko‘rsatilganda (bundan xizmatlar ko‘rsatilganda sotuvchi xarajatlarining rentabellik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi nomoddiy aktivlardan foydalanilgan hollar mustasno);

2) pul mablag‘larini boshqarishga doir xizmatlar ko‘rsatilganda, jumladan qimmatli qog‘ozlar bozorida va (yoki) valyuta bozorida savdo operatsiyalarini amalga oshirishda;

3) yuridik shaxsning yakka ijro etuvchi organi vazifalarni bajarish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilganda;

4) sotuvchi bilan o‘zaro bog‘liq shaxslarga xom ashyo yoki yarim tayyor mahsulotlar sotilganda;

5) o‘zaro bog‘liq shaxslar o‘rtasida uzoq muddatli shartnomalar bo‘yicha tovarlar (xizmatlar) realizatsiya qilinganda.

Agar nazorat qilinadigan bitim tarafi bo‘lgan sotuvchida ushbu bitim bo‘yicha xarajatlarning yalpi rentabelligi ushbu Kodeksning 187-moddasida nazarda tutilgan tartibda aniqlangan rentabellik oralig‘i doirasida bo‘lsa, nazorat qilinadigan bitimning narxi soliqqa tortish maqsadidagi bozor narxlariga muvofiq deb e’tirof etiladi.

Agar nazorat qilinadigan bitim tarafi bo‘lgan sotuvchida xarajatlarning yalpi rentabelligi rentabellik oralig‘ining eng kam miqdoridan kam yoki uning eng ko‘p miqdoridan ko‘p bo‘lsa, nazorat qilinadigan bitimning narxi soliq solish maqsadida realizatsiya qilingan tovarlarning (xizmatlarning) amaldagi tannarxidan va rentabellik oralig‘ining o‘rtacha qiymatiga muvofiq keladigan xarajatlarning yalpi rentabelligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Xarajat usuli qo‘llanilganda axborot-narx agentliklarining aynan o‘xshash (bir turdagi) tovarlar (xizmatlar) narxlari to‘g‘risidagi ma’lumotlaridan foydalanishga hamda ushbu Kodeks 188-moddasining yettinchi qismida nazarda tutilgan tartibda aynan o‘xshash (bir turdagi) tovarlarning (xizmatlarning) bozor narxlari oralig‘ini aniqlashga yo‘l qo‘yiladi.

Ushbu moddaning to‘rtinchi qismiga muvofiq soliq solish maqsadida rentabellik oralig‘ining o‘rtacha qiymatini qo‘llash, basharti bu budjet tizimiga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasining kamayishiga yoki soliq to‘lovchining zarari summasi oshishiga olib kelmasa, amalga oshiriladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 186 — 189-moddalari.

191-modda. Taqqoslanadigan rentabellik usuli

Taqqoslanadigan rentabellik usuli nazorat qilinadigan bitim tarafi bo‘lgan shaxsda yuzaga kelgan operatsion rentabellikni taqqoslanadigan bitimlardagi operatsion rentabellikning ushbu Kodeksning 187-moddasida nazarda tutilgan tartibda aniqlangan bozor oralig‘i bilan taqqoslashni nazarda tutadi.

Taqqoslanadigan rentabellik usulidan, xususan, axborot mavjud bo‘lmaganda yoki yetarli bo‘lmaganda foydalanish mumkin bo‘lib, mazkur axborotga asoslangan holda taqqoslanadigan bitimlarning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlarining zarur bo‘lgan taqqoslash darajasi mavjudligi haqida asoslangan xulosa chiqarish hamda ushbu Kodeks 186-moddasi birinchi qismining 2 va 3-bandlarida ko‘rsatilgan usullardan foydalanish mumkin bo‘ladi.

Ushbu moddaning maqsadi uchun ushbu Kodeks 187-moddasining birinchi va ikkinchi qismlariga muvofiq aniqlanadigan operatsion rentabellikning quyidagi ko‘rsatkichlaridan foydalanish mumkin:

1) sotish rentabelligi;

2) xarajatlar rentabelligi;

3) tijorat va boshqaruv xarajatlari rentabelligi;

4) aktivlar rentabelligi;

5) rentabellikning amalga oshirilayotgan vazifalar, foydalanilayotgan aktivlar hamda qabul qilinayotgan iqtisodiy (tijorat) tavakkalchiliklari va haq to‘lash darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettiruvchi boshqa ko‘rsatkichi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 187-moddasi.

Rentabellikning aniq ko‘rsatkichini tanlashda nazorat qilinadigan bitim tarafining faoliyat turi, ushbu taraf tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar, foydalaniladigan aktivlar va qabul qilinayotgan iqtisodiy (tijorat) tavakkalchiliklari, tegishli rentabellikni hisob-kitob qilish uchun foydalaniladigan ma’lumotlarning to‘liqligi, to‘g‘riligi va ularni taqqoslash mumkinligi, shuningdek bunday ko‘rsatkichning iqtisodiy asoslanganligi hisobga olinadi.

Ushbu moddani qo‘llash maqsadi uchun rentabellik ko‘rsatkichlaridan quyidagi xususiyatlar hisobga olingan holda foydalaniladi:

1) sotish rentabelligidan qayta sotuvchi bilan o‘zaro bog‘liq shaxslardan olingan tovarlarni keyingi qayta sotishda yoki qayta sotuvchi bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxslardan olingan tovarlarni u bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxslarga keyingi qayta sotishda foydalaniladi;

2) tijorat va boshqaruv xarajatlarining yalpi rentabelligidan ushbu qismning 1-bandida ko‘rsatilgan hollarda, agar quyidagi ikkita shart bir vaqtda bajarilsa, foydalaniladi:

a) qayta sotuvchi tovarlarni olishda va keyingi qayta sotishda uzoq bo‘lmagan vaqt davrida sezilarli bo‘lmagan iqtisodiy (tijorat) tavakkalchiliklariga duch kelsa;

b) qayta sotuvchining sotishdan olinadigan yalpi foydasi miqdori hamda u tomonidan amalga oshirilgan tijorat va boshqaruv xarajatlari miqdori o‘rtasida bevosita o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lsa;

3) xarajatlarning rentabelligidan xizmatlar ko‘rsatish va tovarlar ishlab chiqarishda foydalanilsa;

4) aktivlar rentabelligidan tovarlar ishlab chiqarishda (xususan, agar nazorat qilinadigan bitimlar ko‘p sarmoya talab qiladigan faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan amalga oshirilsa) foydalaniladi.

Taqqoslanadigan rentabellik usulidan foydalanilganda rentabellikning bozor oralig‘i bilan nazorat qilinadigan bitimning quyidagi talablarga javob beradigan tarafining rentabelligi taqqoslanadi:

1) nazorat qilinadigan bitim tarafi ayni bir tovar bilan ketma-ket bajarilgan bitimlar bo‘yicha olingan foydaga qo‘shgan hissasi nazorat qilinadigan bitimning boshqa tarafi qo‘shgan hissaga nisbatan kam bo‘lgan vazifalarni amalga oshiradi;

2) nazorat qilinadigan bitimning tarafi nazorat qilinadigan bitimning boshqa tarafiga nisbatan kam iqtisodiy (tijorat) tavakkalchiliklarni qabul qiladi;

3) nazorat qilinadigan bitimning tarafi rentabellik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan nomoddiy aktivlar obyektlariga egalik qilmaydi.

Agar nazorat qilinadigan bitimning tarafi ushbu modda oltinchi qismining 1 — 3-bandlarida nazarda tutilgan talablarga javob bermasa, rentabellikning bozor oralig‘i bilan taqqoslash uchun nazorat qilinadigan bitimning mazkur talablarga eng ko‘p darajada javob beradigan tarafi tanlanadi.

Agar nazorat qilinadigan bitim bo‘yicha rentabellik ushbu Kodeksning 187-moddasida nazarda tutilgan tartibda aniqlangan rentabellik oralig‘i doirasida bo‘lsa, soliq solish maqsadlarida nazorat qilinadigan bitimning narxi bozor narxlariga muvofiq deb e’tirof etiladi.

Agar nazorat qilinadigan bitim bo‘yicha rentabellik rentabellik oralig‘ining eng kam miqdoridan kam bo‘lsa yoki uning eng ko‘p miqdoridan ko‘p bo‘lsa, soliq solish maqsadlarida rentabellik oralig‘ining o‘rtacha qiymati inobatga olinadi.

Rentabellik oralig‘ining o‘rtacha qiymatiga asosan soliq solish maqsadida nazorat qilinadigan bitimga doir foydaga (daromadga, tushumga) tuzatishlar amalga oshiriladi.

Soliq solish maqsadida ushbu moddaning to‘qqizinchi va o‘ninchi qismlariga muvofiq foydaga (daromadga, tushumga) tuzatishlarni qo‘llash, basharti bu budjet tizimiga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasining kamayishiga yoki soliq to‘lovchining zarari summasi oshishiga olib kelmasa, amalga oshiriladi.

192-modda. Foydani taqsimlash usuli

Foydani taqsimlash usuli nazorat qilinadigan bitimning taraflari o‘rtasida ushbu bitimning barcha taraflari tomonidan olingan jami foydaning amalda taqsimlanishini foydani taqqoslanadigan bitimlar taraflari o‘rtasida taqsimlash bilan taqqoslashdan iboratdir.

Agar nazorat qilinadigan bitimning (nazorat qilinadigan bir turdagi bitimlar guruhining) taraflari bir vaqtning o‘zida ular bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxslar ishtirokidagi bir turdagi bitimlarning taraflari bo‘lsa, ushbu bir turdagi bitimlarning natijalari nazorat qilinadigan bitim natijalari bilan birgalikda baholanadi. Bunda soliq solish maqsadida nazorat qilinadigan bitim va mazkur bir turdagi bitimlar bo‘yicha jami foyda nazorat qilinadigan bitim bo‘yicha foydani taqsimlash tartibiga o‘xshash tartibda taqsimlanishi lozim.

Agar jami foydasi ushbu moddaning qoidalarini hisobga olgan holda taqsimlanishi lozim bo‘lgan yuridik shaxslar buxgalteriya hisobiga qo‘yiladigan turli talablar asosida buxgalteriya hisobini yuritsa, foydani taqsimlash usulini qo‘llash maqsadida bunday moliyaviy hisobot yagona hisobga olish talablariga moslashtirilishi kerak.

Foydani taqsimlash usulidan, chunonchi, quyidagi hollarda foydalanish mumkin:

1) ushbu Kodeks 186-moddasi birinchi qismining 1 — 4-bandlarida nazarda tutilgan usullardan foydalanish mumkin bo‘lmaganda va nazorat qilinadigan bitimning (nazorat qilinadigan bir turdagi bitimlar guruhining) taraflari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatning sezilarli o‘zaro bog‘liqligi mavjud bo‘lganda;

2) nazorat qilinadigan bitim taraflarining mulkida (foydalanishida) rentabellik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi nomoddiy aktivlar obyektlariga doir huquqlar mavjud bo‘lganda (nomoddiy aktivlar obyektlarining predmeti bo‘lgan, mustaqil shaxslar tomonidan amalga oshirilgan bir turdagi bitimlar mavjud bo‘lmaganda).

Nazorat qilinadigan bitim taraflari o‘rtasida nazorat qilinadigan bitim bo‘yicha foyda (zarar) summasini taqsimlash ushbu Kodeks 176-moddasining uchinchi va to‘rtinchi qismlari qo‘llanilishini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Foydani taqsimlash prinsiplarini tanlash nazorat qilinadigan bitimning (nazorat qilinadigan bir turdagi bitimlar guruhining) holatlariga bog‘liq bo‘ladi va nazorat qilinadigan bitim bo‘yicha foydani taqqoslanadigan tijorat va (yoki) moliyaviy shartlarda shunga o‘xshash faoliyatni amalga oshirayotgan mustaqil shaxslar o‘rtasida foydani taqsimlashga muvofiq tarzda taqsimlashga olib kelishi kerak.

Nazorat qilinadigan bitimning (nazorat qilinadigan bir turdagi bitimlar guruhining) taraflari o‘rtasida foydani taqsimlash foydani taqsimlash usuliga muvofiq holda nazorat qilinadigan bitim (nazorat qilinadigan bir turdagi bitimlar guruhi) bo‘yicha olinadigan jami foydaga nazorat qilinadigan bitim (nazorat qilinadigan bir turdagi bitimlar guruhi) taraflari qo‘shgan hissani baholash asosida quyidagi mezonlarga yoki ularning aralashmalariga muvofiq amalga oshiriladi:

1) nazorat qilinadigan bitim bo‘yicha jami foydaga nazorat qilinadigan bitim taraflari tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalarga, ular tomonidan foydalaniladigan aktivlarga va qabul qilinadigan iqtisodiy (tijorat) tavakkalchiliklarni qabul qilishiga mutanosib ravishda;

2) nazorat qilinadigan bitimda foydalanilgan kiritilgan sarmoyadan olingan daromadni nazorat qilinadigan bitim taraflari o‘rtasida mutanosib ravishda taqsimlashda;

3) taqqoslanadigan bitim taraflari o‘rtasida foydani taqsimlashga mutanosib ravishda.

Nazorat qilinadigan bitim taraflari o‘rtasida foydani taqsimlash usuli qo‘llanilganida jami foyda yoxud bunday bitim barcha taraflarining qoldiq foydasi taqsimlanadi.

Ushbu moddaning maqsadida nazorat qilinadigan bitim barcha taraflarining tahlil qilinayotgan davr uchun operatsion foydasining summasi tahlil qilinayotgan bitim barcha taraflarining jami foydasi deb e’tirof etiladi.

Ushbu moddaning maqsadida qoldiq foyda (zarar) quyidagi tartibda aniqlanadi:

dastlab ushbu Kodeks 186-moddasi birinchi qismining 1 — 4-bandlarida ko‘rsatilgan usullar asosida, nazorat qilinadigan bitimning (nazorat qilinadigan bir turdagi bitimlar guruhining) har bir tarafi uchun bozor narxlari oralig‘i asosida ushbu taraf uchun hisob-kitob qilingan foyda (zarar) aniqlanadi. Bunda bitimning har bir tarafi uchun ushbu taraf amalga oshiradigan vazifalar, u foydalanayotgan aktivlar, qabul qilinayotgan iqtisodiy va tijorat tavakkalchiliklari inobatga olinadi;

so‘ngra nazorat qilinadigan bitim bo‘yicha jami foyda (zarar) va nazorat qilinadigan bitimning barcha taraflari uchun sotishdan olinadigan jami hisoblangan foyda (zarar) summasi o‘rtasidagi ijobiy farq nazorat qilinadigan bitim bo‘yicha qoldiq foyda deb, salbiy farq esa ushbu nazorat qilinadigan bitim bo‘yicha qoldiq zarar deb e’tirof etiladi.

Foydani taqsimlash usuli qo‘llanilishi natijasida nazorat qilinadigan bitimning har bir ishtirokchisi foydasining (zararining) yakuniy miqdori soliqqa tortish maqsadidagi, hisob-kitob qilingan foydaga (zararga) va qoldiq foydaga (zararga) mos keladigan summaga teng deb qabul qilinadi.

Jami yoxud qoldiq foydani (zararni) nazorat qilinadigan bitimning taraflari o‘rtasida taqsimlash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar hisobga olinadi:

1) nazorat qilinadigan bitim tarafi tomonidan nomoddiy aktivlarni yaratishga sarflangan xarajatlarning miqdori;

2) nazorat qilinadigan bitim tarafda band bo‘lgan xodimlarning tavsiflari, shu jumladan ularning soni va malakasi (xodimlar tomonidan sarflangan vaqt, mehnatga haq to‘lash xarajatlarining miqdori);

3) nazorat qilinadigan bitim tarafining foydalanishida (tasarrufida) bo‘lgan aktivlarning bozor qiymati;

4) amalga oshirilayotgan vazifalar, foydalanilayotgan aktivlar va qabul qilinayotgan iqtisodiy (tijorat) tavakkalchiliklari hamda nazorat qilinadigan bitim bo‘yicha sotishlardan amalda olingan foyda (zarar) miqdori o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettiruvchi boshqa ko‘rsatkichlar.

Ushbu moddaning o‘n ikkinchi qismida ko‘rsatilgan ko‘rsatkichlar, basharti ular nazorat qilinadigan bitim bo‘yicha haqiqatda olingan foyda (zarar) miqdoriga ta’sir qilsa, e’tiborga olinadi va ularning ta’sir ko‘rsatish darajasiga ko‘ra e’tiborga olinadi.

Nazorat qilinadigan bitim (nazorat qilinadigan bir turdagi bitimlar guruhi) taraflari o‘rtasida foydani ushbu modda yettinchi qismining 3-bandida nazarda tutilgan mezon bo‘yicha taqsimlash mustaqil shaxslar o‘rtasida amalga oshirilgan taqqoslanadigan bir turdagi bitimlar bo‘yicha sotishdan olingan foyda (zarar) summasini taqsimlash haqidagi axborot mavjud bo‘lgandagina amalga oshiriladi. Nazorat qilinadigan bitim bo‘yicha foydani (zararni) taqsimlashning mazkur tartibidan foydalanishga quyidagi shartlarga bir vaqtning o‘zida rioya qilinganda yo‘l qo‘yiladi:

1) nazorat qilinadigan bitim taraflarining buxgalteriya hisobi ma’lumotlari taqqoslanadigan bitimlar taraflarining buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan taqqoslanadigan bo‘lishi yoxud zarur tuzatishlar vositasida taqqoslanadigan

turga mos keltirilgan bo‘lishi kerak;

2) nazorat qilinadigan bitim taraflari aktivlarining jami rentabelligi taqqoslanadigan bitimlar taraflarining jami rentabelligidan sezilarli tarzda farq qilmasligi yoxud zarur tuzatishlar vositasida taqqoslanadigan turga mos keltirilishi kerak.

Agar nazorat qilinadigan bitim tarafining haqiqiy foydasi foydani taqsimlash usuli bilan hisob-kitob qilingan foydadan ko‘p yoki unga teng bo‘lsa yoxud agar ushbu taraf tomonidan ko‘rilgan zarar bunday usul bilan hisob-kitob qilingan zarardan kam yoki unga teng bo‘lsa, ushbu tarafda soliq solish maqsadida tegishincha haqiqatda olingan foyda yoxud haqiqatda ko‘rilgan zarar qabul qilinadi.

Agar nazorat qilinadigan bitim tarafining haqiqiy foydasi foydani taqsimlash usuli bilan hisob-kitob qilingan foydadan kam bo‘lsa, soliq solish maqsadida uning uchun bunday usul bilan hisob-kitob qilingan foyda qabul qilinadi.

Agar nazorat qilinadigan bitim tarafining haqiqiy zarari foydani taqsimlash usuli bilan ushbu taraf uchun hisob-kitob qilingan zarardan ko‘p bo‘lsa, soliqqa tortish maqsadida uning uchun bunday usul bilan hisob-kitob qilingan zarar qabul qilinadi.

Ushbu moddaning o‘n oltinchi va o‘n yettinchi qismlariga muvofiq soliqqa tortish maqsadida hisobga olingan foydani (zararni) soliq to‘lovchi tomonidan haqiqatda olingan foyda (zarar) bilan taqqoslash asosida, foyda solig‘i soliq to‘lovchining foydasiga (zarariga) tuzatish amalga oshiriladi.

Soliqqa tortish maqsadida foydani taqsimlash usuli bilan hisob-kitob qilingan foydani (zararni) ushbu moddaning o‘n beshinchi — o‘n sakkizinchi qismlari asosida qo‘llash, agar bu ushbu holat budjet tizimiga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasining kamayishiga yoki soliq to‘lovchining zarari summasi oshishiga olib kelmasa, amalga oshiriladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 186 — 191-moddalari.

24-bob. Transfert narxni belgilashda soliq nazorati

193-modda. Transfert narxni belgilashda soliq nazorati maqsadida axborotni tayyorlash va taqdim etish

Soliq to‘lovchi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining talabiga ko‘ra mazkur talabda ko‘rsatilgan aniq bitimga (bir turdagi bitimlar guruhiga) taalluqli hujjatlarni taqdim etadi. Hujjatlar deganda hujjatlar majmui yoki erkin shaklda tuzilgan yagona hujjat (agar bunday hujjatlarni belgilangan shaklda tuzish O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilmagan bo‘lsa) tushuniladi.

(193-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan hujjatlar nazorat qilinadigan bitimni (bir turdagi bitimlar guruhini) amalga oshirgan soliq to‘lovchining (boshqa shaxslarning) faoliyati to‘g‘risidagi, ushbu bitim bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak:

1) nazorat qilinadigan bitim o‘zi bilan amalga oshirilgan shaxslarning ro‘yxati (ular soliq rezidenti bo‘lgan davlatlar va hududlarni ko‘rsatgan holda), bitimning tavsifi, uning shartlari, jumladan narxni belgilash usulining tavsifi (mavjud bo‘lsa), to‘lovlarni amalga oshirish shartlari va muddatlari hamda bitim haqidagi boshqa axborot;

2) bitim taraflari bo‘lgan shaxslarning vazifalari haqidagi (soliq to‘lovchi tomonidan funksional tahlil o‘tkazilgan taqdirda), ular tomonidan foydalaniladigan, ushbu nazorat qilinadigan bitim bilan bog‘liq bo‘lgan aktivlar to‘g‘risidagi va ular tomonidan qabul qilinayotgan, soliq to‘lovchi bitim tuzishda inobatga olgan iqtisodiy (tijorat) tavakkalchiliklar haqidagi ma’lumotlar.

Agar soliq to‘lovchi ushbu Kodeksning 23-bobida nazarda tutilgan usullardan foydalangan bo‘lsa, hujjatlarga foydalanilgan usullar haqidagi quyidagi ma’lumotlar kiritiladi:

1) foydalanilayotgan usulni tanlash va qo‘llash usuli sabablarining asosi;

2) foydalanilayotgan axborot manbalariga havola;

3) taqqoslanadigan bitimlarni tanlash uchun foydalanilgan yondashuvni tavsiflagan holda, nazorat qilinayotgan bitim bo‘yicha bozor narxlari oralig‘ining (rentabellik oralig‘ining) hisob-kitobi;

4) nazorat qilinadigan bitim amalga oshirilishi natijasida olingan daromadlarning (foydaning) summasi va (yoki) amalga oshirilgan xarajatlarning (ko‘rilgan zararlarning) summasi, olingan rentabellik;

5) nazorat qilinadigan bitimdan uni amalga oshirgan shaxs tomonidan axborotni, intellektual faoliyat natijalarini, korxonani, uning mahsulotini va xizmatlarini individuallashtirish belgilariga (firma nomi, tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilariga) bo‘lgan huquqlarni va boshqa mutlaq huquqlarni (tegishli holatlar mavjud bo‘lganda) qabul qilish natijasida olinadigan iqtisodiy naf haqidagi ma’lumotlar;

6) nazorat qilinadigan bitimning narxiga (rentabelligiga) ta’sir ko‘rsatgan boshqa omillar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shu jumladan nazorat qilinadigan bitimni tuzgan shaxsning bozor strategiyasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, agar ushbu bozor strategiyasi nazorat qilinadigan bitim narxiga (rentabelligiga) ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa;

7) soliq to‘lovchi tomonidan soliq bazasiga va soliq summasiga ushbu Kodeks 177-moddasining birinchi qismiga muvofiq kiritilgan tuzatishlar.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 23-bobi.

Soliq to‘lovchi nazorat qilinadigan bitimlarning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlari mustaqil shaxslarning taqqoslanadigan bitimlari shartlariga mos kelishini tasdiqlovchi boshqa axborotni mazkur shartlarni taqqoslashni ta’minlash uchun kiritilgan tuzatishlarni hisobga olgan holda taqdim etishga haqli.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan hujjatlar soliq to‘lovchidan nazorat qilinadigan bitimlar tuzilgan kalendar yildan keyingi yilning 1-iyunidan keyin O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan talab qilinishi mumkin.

Ushbu modda birinchi — to‘rtinchi qismlarining qoidalari quyidagi hollarda qo‘llanilmaydi:

1) agar bitimlarning narxlari yuzasidan ushbu Kodeks 178-moddasi birinchi qismining 3-bandiga muvofiq monopoliyaga qarshi organlar tomonidan ko‘rsatma belgilangan yoki narx tartibga solinadigan bo‘lsa va ushbu Kodeks 179-moddasining uchinchi qismiga muvofiq qo‘llanilsa;

2) agar bitim nazorat qilinmaydigan bo‘lsa;

3) qimmatli qog‘ozlarga doir va qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozorida muomalada bo‘lgan muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir bitimlar tuzilsa;

4) ushbu Kodeksning 25-bobiga muvofiq soliq solish maqsadida narxni belgilash to‘g‘risidagi kelishuv tuzilgan bitimlar amalga oshirilsa.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 25-bobi.

Soliq to‘lovchi ushbu moddaning oltinchi qismida nazarda tutilgan bitimlar bo‘yicha mazkur hujjatlarni ixtiyoriy ravishda taqdim etishga haqli.

Soliq organlariga taqdim etiladigan hujjatlarning batafsilligi va asoslanganligi bitimning murakkabligiga hamda uning narxi shakllanishiga (bitimlar taraflarining rentabelligiga) mutanosib bo‘lishi kerak.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 177 — 179-moddalari.

194-modda. Transfert narxni belgilashda soliq nazorati

Transfert narxni belgilashda soliq nazorati doirasida nazorat qilinadigan bitimlar tuzilganligi munosabati bilan soliqlarning to‘liq hisoblab chiqarilishi va to‘lanishini tekshirish (bundan buyon ushbu bobda tekshiruv deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan uning joylashgan yeri bo‘yicha o‘tkaziladi.

Tekshiruv ushbu Kodeksning 182-moddasiga muvofiq yuborilgan nazorat qilinadigan bitimlar haqidagi bildirishnoma yoki hududiy soliq organining xabarnomasi asosida, shuningdek soliq tekshiruvini o‘tkazish natijasida nazorat qilinadigan bitim aniqlangan taqdirda o‘tkaziladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 182-moddasi.

Tekshiruvlarni o‘tkazishda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ushbu Kodeksning 150 — 152-moddalarida belgilangan soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazishga haqli.

Nazorat qilinadigan bitimlar narxlarining bozor narxlariga muvofiqligini nazorat qilish Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi yoki hududiy soliq organlari tomonidan o‘tkaziladigan soliq nazoratining predmeti bo‘lishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, nazorat qilinadigan bitta bitimga (bir xil bitimlar guruhiga) nisbatan aynan bir kalendar yil uchun ikki va undan ortiq tekshiruv o‘tkazishga haqli emas.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan nazorat qilinadigan bitta bitimga (bir xil bitimlar guruhiga) nisbatan takroriy tekshiruv o‘tkazishga quyidagi hollarda yo‘l qo‘yiladi:

1) soliq to‘lovchi ushbu Kodeksning 177-moddasiga muvofiq soliq summasi ilgari soliq hisobotida bayon etilganidan ko‘ra kamroq miqdorda (zarar summasi — kattaroq miqdorda) aks ettirilgan aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etganda;

2) soliq to‘lovchi tomonidan nazorat qilinadigan bitim haqida ilgari taqdim etilgan axborotda nomutanosiblik aniqlanganda.

Tekshiruv doirasida tekshiruv o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan yildan avvalgi uch kalendar yildan oshmaydigan davrda tuzilgan nazorat qilinadigan bitimlar tekshirilishi mumkin.

(194-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Soliq to‘lovchi tomonidan tuzilgan bitimga nisbatan tekshiruv o‘tkazish ushbu soliq to‘lovchining soliq tekshiruvlarini hamda mazkur bitim tuzilgan soliq davri uchun soliq monitoringini o‘tkazishga to‘sqinlik qilmaydi.

Transfert narxni belgilashda soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirish chog‘ida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan olingan materiallar va ma’lumotlardan tekshirilayotgan nazorat qilinadigan bitim ishtirokchilari bo‘lgan boshqa shaxslarni tekshirishda foydalanilishi mumkin.

195-modda. Transfert narxni belgilashda soliq nazoratini o‘tkazish tartibi

Tekshiruv O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) tekshiruv o‘tkazish to‘g‘risidagi qarori asosida uning mansabdor shaxslari tomonidan o‘tkaziladi.

Tekshiruv o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushbu Kodeksning 182-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida ko‘rsatilgan bildirishnoma yoki xabarnoma olingan kundan e’tiboran uch yildan kechiktirmay chiqarilishi mumkin.

(195-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi qaror qabul qilinganligi to‘g‘risida u qabul qilingan kundan e’tiboran uch kun ichida soliq to‘lovchini xabardor qiladi.

Agar soliq to‘lovchi ushbu Kodeksning 177-moddasiga muvofiq soliq summasi soliq hisobotida ilgari berilganidan ko‘ra kam miqdorda (zarar summasi — kattaroq miqdorda) aks ettirgan holda aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etgan bo‘lsa, tekshiruv o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror ushbu aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilgan kundan e’tiboran uch yildan kechiktirmay chiqarilishi mumkin. Bunda tekshiruv faqat tuzatish kiritish amalga oshirilgan nazorat qilinadigan bitimga nisbatan o‘tkaziladi.

(195-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 177-moddasi.

Tekshiruv olti oydan oshmaydigan muddatda o‘tkaziladi.

Tekshiruv o‘tkazish muddati uni o‘tkazish to‘g‘risida qaror chiqarilgan kundan e’tiboran va bunday tekshiruv o‘tkazilganligi haqidagi ma’lumotnoma tuzilgan kunga qadar hisoblab chiqariladi.

Alohida hollarda, tekshirish o‘tkazishning mazkur muddati O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) qaroriga ko‘ra o‘n ikki oygacha uzaytirilishi mumkin.

Tekshiruv o‘tkazish muddatini uzaytirish asoslarini va tartibini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

(195-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Chet davlat organlaridan axborot olish, soliq to‘lovchi tomonidan chet tilida taqdim etilgan hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazish va (yoki) o‘zbek yoki rus tiliga tarjima qilish zarur bo‘lgan taqdirda, tekshiruv o‘tkazish muddati qo‘shimcha ravishda olti oydan oshmaydigan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Agar tekshiruv chet davlat organlaridan axborot olish uchun uzaytirilgan bo‘lsa va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi so‘ralayotgan axborotni olti oy ichida ololmagan bo‘lsa, mazkur tekshiruvni uzaytirish muddati qo‘shimcha ravishda uch oyga ko‘paytirilishi mumkin.

Tekshiruv o‘tkazish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi qarorning ko‘chirma nusxasi soliq to‘lovchiga qaror qabul qilingan kundan e’tiboran uch kun ichida yuboriladi.

Agar nazorat qilinadigan bitimlarning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlarining mustaqil shaxslar o‘rtasidagi taqqoslanadigan bitimlarning shartlari bilan taqqoslanishini aniqlash uchun soliq to‘lovchi ushbu Kodeksning 23-bobida ko‘rsatilgan usullarni yoki ularning kombinatsiyasini qo‘llagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tekshiruvni amalga oshirish chog‘ida soliq to‘lovchi tomonidan qo‘llanilgan usulni (usullar kombinatsiyasini) qo‘llaydi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi nazorat qilinadigan bitimni tuzish shartlaridan kelib chiqqan holda soliq to‘lovchi tomonidan qo‘llanilgan usul (usullar kombinatsiyasi) nazorat qilinadigan bitimlarning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlarining mustaqil shaxslar o‘rtasidagi taqqoslanadigan bitimlar shartlari bilan taqqoslanishi mumkinligi yoki taqqoslana olmasligi to‘g‘risida asoslangan xulosa chiqarishga imkon bermasligini isbotlasa, boshqa usul (usullar kombinatsiyasi) qo‘llanilishi mumkin.

Tekshiruv davomida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ushbu Kodeksning 23-bobida nazarda tutilmagan boshqa usullarni qo‘llashga haqli emas.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ushbu Kodeksning 146-moddasida nazarda tutilgan tartibda soliq to‘lovchiga tekshirilayotgan bitimga (bir xil bitimlar guruhiga) nisbatan ushbu Kodeksning 193-moddasida nazarda tutilgan hujjatlarni taqdim etish haqidagi talabnomani yo‘llashga haqli.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 193-moddasi.

Talab qilinayotgan hujjatlar tegishli talabnoma olingan kundan e’tiboran o‘ttiz kalendar kun ichida soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining tekshiruv o‘tkazayotgan mansabdor shaxsi tekshirilayotgan bitimlarning ushbu bitimlarga taalluqli hujjatlarga (axborotga) ega bo‘lgan ishtirokchilaridan hujjatlarni (axborotni) talab qilishga haqli. Hujjatlarni (axborotni) bunday talab qilish hujjatlarni talab qilishning ushbu Kodeksning 147-moddasida belgilangan tartibiga o‘xshash tartibda amalga oshiriladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 147-moddasi.

Tekshiruvning oxirgi kunida tekshiruvchi o‘tkazilgan tekshiruv to‘g‘risidagi ma’lumotnomani tuzishi shart bo‘lib, unda tekshiruv predmeti va uni o‘tkazish muddatlari qayd etiladi.

O‘tkazilgan tekshiruv to‘g‘risidagi ma’lumotnoma o‘ziga nisbatan bunday tekshiruv o‘tkazilgan shaxsga yoki uning vakiliga imzo qo‘ydirib topshiriladi yoki u olingan sana haqida dalolat beruvchi boshqa usulda topshiriladi.

Agar soliq to‘lovchi (uning vakili) o‘tkazilgan tekshiruv to‘g‘risidagi ma’lumotnomani olishdan bosh tortsa, mazkur ma’lumotnoma soliq to‘lovchiga pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi.

O‘tkazilgan tekshiruv to‘g‘risidagi ma’lumotnoma pochta orqali buyurtma xat bilan yuborilganda, buyurtma xat yuborilgan sanadan e’tiboran hisoblaganda beshinchi kun u topshirilgan sana deb hisoblanadi.

Agar tekshiruv natijalariga ko‘ra soliq summasining kamayishiga (zarar summasining oshishiga) olib kelgan, nazorat qilinadigan bitim narxining bozor narxlaridan chetga chiqishi faktlari aniqlangan bo‘lsa, tekshiruvni o‘tkazgan

vakolatli mansabdor shaxslar belgilangan shakldagi tekshiruv dalolatnomasini tekshiruv to‘g‘risidagi ma’lumotnoma tuzilgan kundan e’tiboran ikki oy ichida tuzishi kerak.

Tekshiruv dalolatnomasi tekshiruvni o‘tkazgan mansabdor shaxslar va o‘ziga nisbatan ushbu tekshiruv o‘tkazilgan shaxs yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

O‘ziga nisbatan tekshiruv o‘tkazilgan shaxs yoki uning vakili tekshiruv dalolatnomasini imzolashni rad etgan taqdirda ushbu dalolatnomaga bu haqda tegishli yozuv kiritiladi.

Tekshiruv dalolatnomasi ushbu Kodeksning 156-moddasi beshinchi qismida nazarda tutilgan talablar hisobga olingan holda tuziladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 156-moddasi.

Tekshiruv dalolatnomasi nazorat qilinadigan bitim narxining bozor narxlari oralig‘i chegarasidan chiqishining hujjatlar bilan tasdiqlangan faktlarini ham, shuningdek ushbu holat soliq summasining kamayishiga (zarar summasining oshishiga) olib kelganligining asoslanishini va bunday kamayish (ko‘payish) summasining hisob-kitobini o‘z ichiga olishi kerak.

Tekshiruv dalolatnomasi o‘ziga nisbatan tekshiruv o‘tkazilgan shaxsga u tuzilgan sanadan e’tiboran besh kun ichida yoki ushbu shaxsning vakiliga imzo qo‘ydirib topshirilishi yoki olingan sana haqida dalolat beruvchi boshqa usulda topshirilishi kerak.

Agar o‘ziga nisbatan tekshiruv o‘tkazilgan shaxs yoki uning vakili tekshiruv dalolatnomasini olishdan bosh tortsa, ushbu fakt tekshiruv dalolatnomasida aks ettiriladi va tekshiruv dalolatnomasi yuridik shaxsning joylashgan yeri yoki jismoniy shaxsning yashash joyi bo‘yicha pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi.

Tekshiruv dalolatnomasi pochta orqali buyurtma xat bilan yuborilganda, buyurtma xat yuborilgan sanadan e’tiboran hisoblaganda beshinchi kun u olingan sana deb hisoblanadi.

O‘ziga nisbatan tekshiruv o‘tkazilgan shaxs (uning vakili) tekshiruv dalolatnomasida bayon qilingan faktlarga va (yoki) tekshiruvchilarning xulosalari hamda takliflariga rozi bo‘lmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga umuman mazkur dalolatnoma bo‘yicha yoki uning alohida qismlari bo‘yicha yozma e’tirozlarini taqdim etishga haqli.

Bunda mazkur shaxs o‘z e’tirozlarining asoslanganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (ularning tasdiqlangan ko‘chirma nusxalarini) yozma e’tirozlariga ilova qilishga yoki kelishilgan muddatda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga topshirishga haqli.

Bunday e’tirozlar soliq tekshiruvi dalolatnomasi olingan kundan e’tiboran yigirma kalendar kun ichida taqdim etiladi.

Soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan dalolatnomani, boshqa tekshiruv materiallarini va dalolatnomaga doir yozma e’tirozlarni ko‘rib chiqish, shuningdek tekshiruv natijalariga ko‘ra qaror qabul qilish ushbu Kodeksning 158 — 160-moddalarida nazarda tutilgan materiallarni ko‘rib chiqish va soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qaror qabul qilish tartibiga o‘xshash tartibda amalga oshiriladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 158 — 160-moddalari.

25-bob. Soliq solish maqsadlarida narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim

196-modda. Soliq solish maqsadlarida narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim haqidagi umumiy qoidalar

Yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi (bundan buyon ushbu bobda soliq to‘lovchi deb yuritiladi) soliq solish maqsadida narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim (bundan buyon matnda narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim deb yuritiladi) tuzish haqidagi ariza bilan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga murojaat qilishga haqli.

Soliq to‘lovchi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi o‘rtasida tuzilgan, o‘zining amal qilishi muddati davomida soliq solish maqsadida nazorat qilinadigan bitimlarda narxlarni aniqlash va (yoki) narxlarni belgilash usullarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi bitim narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim deb hisoblanadi.

Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimning maqsadi soliq to‘lovchi tomonidan tuziladigan bitimlarda bozor narxlarini qo‘llashdan iboratdir.

Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim predmeti quyidagilardan iborat:

1) nazorat qilinadigan bitimlarning hamda o‘ziga nisbatan narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim tuziladigan tovarlarning (xizmatlarning) turlari va (yoki) ro‘yxatlari;

2) soliq solish maqsadida narxlarni aniqlash tartibi va (yoki) narxni belgilash usullarining (formulalarining) tavsifi hamda ularning qo‘llanilish tartibi;

3) bitimlar narxlarining narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim shartlariga muvofiqligini aniqlashda foydalaniladigan axborot manbalarining ro‘yxati;

4) narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimning amal qilish muddati;

5) narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim shartlari bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlarning ro‘yxati, ularni taqdim etish tartibi va muddatlari.

Taraflarning kelishuvi bo‘yicha boshqa shartlar ham narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim predmeti bo‘lishi mumkin.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 197 — 202-moddalari.

197-modda. Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimning taraflari

Soliq to‘lovchi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi nomidan uning rahbari (rahbar o‘rinbosari), agar ushbu moddaning ikkinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim taraflaridir.

Agar tashqi savdo bitimiga nisbatan narxlarni belgilash to‘g‘risida taraflardan hech bo‘lmaganda biri chet davlatning soliq rezidenti hisoblanib, bitim tuzish nazarda tutilsa, soliq to‘lovchi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga bunday chet davlat ijro etuvchi hokimiyatining vakolatli organi ishtirokida narxni belgilash to‘g‘risida shunday bitim tuzish haqidagi ariza bilan murojaat etishga haqli. Chet davlat ijro etuvchi hokimiyatining vakolatli organi ishtirokidagi bunday bitimni tuzish, basharti ushbu davlat bilan ikkiyoqlama soliq solishning oldini olish maqsadida shartnoma (bitim) tuzilsa, mumkin bo‘ladi. Narxni belgilash to‘g‘risidagi bunday bitimlarni tuzish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

(197-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Agar bir turdagi nazorat qilinadigan bitimlar O‘zbekiston Respublikasining bir nechta o‘zaro bog‘liq yuridik shaxsi (yuridik shaxslar guruhi) o‘rtasida tuzilsa, mazkur yuridik shaxslar bilan narxni belgilash to‘g‘risida ko‘p tomonlama bitim tuzilishi mumkin. Bunday bitimning shartlari ushbu bitimni tuzgan barcha yuridik shaxslar guruhiga nisbatan tatbiq etiladi.

Ushbu Kodeksning tegishincha 199 va 200-moddalarida belgilangan tartibda narx belgilash to‘g‘risidagi bitimni tuzishda, uning shartlarini o‘zgartirishda va uning shartlari bajarilishi yuzasidan tekshirish o‘tkazishda yuridik shaxslar guruhining umumiy manfaatlarini ushbu guruhdan bitta yuridik shaxs ifodalashi mumkin. Bunday shaxsning vakolatlari qonunchilikda belgilangan tartibda berilgan ishonchnomalar bilan tasdiqlanadi.

(197-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Narxni belgilash to‘g‘risida bitim tuzgan soliq to‘lovchi bitim qaysi shaxslar bilan tuzilayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxslarni bunday bitim tuzilganligi fakti haqida va unda belgilangan, soliqqa tortish maqsadida qo‘llaniladigan narxni aniqlash tartibi to‘g‘risida xabardor qilishga haqli.

198-modda. Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimning amal qilish muddati

Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim bitta bitim yoki ayni bir predmetga ega bo‘lgan bir nechta bitim (bir turdagi bitimlar guruhi) bo‘yicha uch yildan oshmaydigan muddatga tuzilishi mumkin.

Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimning amal qilishi soliq to‘lovchi mazkur bitim kuchga kirgan kunga qadar O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga bitim tuzish haqidagi ariza bilan murojaat qilgan kalendar yilning birinchi sanasidan e’tiboran o‘tgan davrga nisbatan tatbiq etiladi.

Soliq to‘lovchi, agar u narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimning barcha shartlariga rioya etsa, narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimning amal qilish muddatini uzaytirish haqidagi ariza bilan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga murojaat qilishga haqli.

Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim taraflarning kelishuviga ko‘ra ushbu Kodeksning 199-moddasida nazarda tutilgan tartibda ikki yildan ortiq bo‘lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim, agar bevosita mazkur bitimda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, bitim imzolangan yildan keyingi kalendar yilning 1-yanvaridan e’tiboran kuchga kiradi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 196, 198 — 202-moddalari.

199-modda. Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimni tuzish tartibi

Soliq to‘lovchining narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimni tuzish haqida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga taqdim etilgan arizasiga soliq to‘lovchi tomonidan quyidagilar ilova qilinadi:

1) narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim loyihasi;

2) soliq to‘lovchining nazorat qilinadigan bitimlar bilan bog‘liq faoliyati haqidagi hujjatlar, shuningdek soliq to‘lovchi tomonidan narxni belgilash to‘g‘risida bitim tuzish taklif qilinayotgan nazorat qilinadigan bitimlar haqidagi hujjatlar;

3) soliq to‘lovchi ta’sis hujjatlarining ko‘chirma nusxalari;

(199-modda birinchi qismining 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuniga asosan 2023-yil 1-yanvardan chiqariladi — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son)

5) soliq to‘lovchi O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan joydagi soliq organida soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yilganligi haqidagi guvohnomaning ko‘chirma nusxasi;

6) soliq to‘lovchining oxirgi hisobot davri uchun moliyaviy hisoboti;

7) narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimni tuzishda ahamiyatga ega axborot mavjud bo‘lgan boshqa hujjatlar.

Ushbu moddaning birinchi qismida sanab o‘tilgan hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga, agar qonunchilikda boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, erkin shaklda taqdim etiladi.

(199-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi soliq to‘lovchidan ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilmagan, narx belgilash haqidagi bitim maqsadi uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni so‘rab olishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi soliq to‘lovchi tomonidan ushbu moddaning birinchi — uchinchi qismlariga muvofiq taqdim etilgan arizani va boshqa hujjatlarni ular olingan kundan e’tiboran olti oydan ko‘p bo‘lmagan muddatda ko‘rib chiqadi. Mazkur muddat to‘qqiz oyga qadar uzaytirilishi mumkin.

Soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqish muddatini uzaytirish asoslari va tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

(199-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Ushbu moddaning birinchi — uchinchi qismlariga muvofiq taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

1) narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimni tuzish haqidagi qaror;

2) narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimni tuzishni rad etish haqidagi asoslantirilgan qaror;

3) narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim loyihasini maromiga yetkazish zarurligi haqidagi qaror.

Tegishli qaror soliq to‘lovchiga (uning vakiliga) qabul qilingan sanadan e’tiboran besh kun ichida yuboriladi.

Narxni belgilash to‘g‘risida bitim tuzish haqidagi qaror qabul qilingan taqdirda, qarorda bitim imzolangan joy, sana va vaqt ko‘rsatiladi.

Takroran taqdim etilgan bitim loyihasi bo‘yicha qaror O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan uch oy ichida qabul qilinadi.

Quyidagilar narxni belgilash to‘g‘risida bitim tuzishni rad etish haqida qaror qabul qilish uchun asos bo‘ladi, xususan:

1) ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan hujjatlarning taqdim etilmaganligi yoki to‘liq hajmda taqdim etilmaganligi;

2) narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim loyihasida taklif etilgan narxlarni aniqlash tartibini va (yoki) narxni belgilash usullarini qo‘llash natijasida bitimlar narxlarining bozor narxlariga muvofiqligi ta’minlanmasligi haqidagi asoslantirilgan xulosa.

Narxni belgilash to‘g‘risida tuzilgan bitimning ko‘chirma nusxasi soliq to‘lovchi hisobda turgan joydagi soliq organiga ushbu bitim imzolangan kundan e’tiboran uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan yuboriladi.

Soliq to‘lovchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga taqdim etilgan narxni belgilash to‘g‘risida bitim tuzish haqidagi arizani uning o‘zi chaqirib olishi mumkin.

Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda o‘zgartirilishi mumkin.

200-modda. Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimning bajarilishini tekshirish

Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimning soliq to‘lovchi tomonidan bajarilishini tekshirish ushbu Kodeksning 24-bobida nazarda tutilgan tartibga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar soliq to‘lovchi o‘zi tuzgan narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimning barcha shartlariga rioya qilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi mazkur bitimda narxlari (narxlarni aniqlash usullari) kelishilgan nazorat qilinadigan bitimlarga nisbatan soliqlarning, penyalarning yoki jarimalarning qo‘shimcha hisoblanishini yoxud zarar summalarini kamaytirishni nazarda tutadigan qarorni qabul qilishga haqli emas.

201-modda. Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimni tugatish tartibi

Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim uning amal qilish muddati o‘tganidan keyin tugatiladi yoki ushbu moddada nazarda tutilgan hollarda muddatidan ilgari tugatilishi mumkin.

Soliq to‘lovchi narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimni uning amal qilishi muddati davomida soliqlarning to‘liq to‘lanmasligini keltirib chiqargan holda buzgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) qaroriga ko‘ra ushbu bitim muddatidan oldin tugatiladi.

Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim taraflarning kelishuviga yoki sudning qaroriga ko‘ra ham muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimni tugatish haqidagi qarori soliq to‘lovchiga (uning vakiliga) undan tilxat olingan holda topshiriladi yoki unga qaror olingan sana to‘g‘risida dalolat beruvchi boshqa usul bilan beriladi yoxud soliq to‘lovchiga tegishli qaror qabul qilingan kundan e’tiboran besh kun ichida pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi.

Soliq to‘lovchiga pochta orqali buyurtma xat bilan yuborilgan qaror ushbu buyurtma xat yuborilgan kundan e’tiboran besh kun o‘tgach olingan deb hisoblanadi.

Soliq to‘lovchi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimni tugatish haqidagi qarori ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda sudga shikoyat qilishi mumkin.

(201-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

202-modda. Narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim shartlarining barqarorligi

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik o‘zgartirilganda narxni belgilash haqidagi bitimning narxni belgilash to‘g‘risida bitim tuzish, unga o‘zgartishlar kiritish va uning amal qilishini tugatishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish qismiga taalluqli shartlari o‘zgarishsiz qoladi.

(202-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda soliq to‘lovchining faoliyatiga va narx belgilashga ta’sir qiluvchi o‘zgartirishlar bo‘lgan taqdirda, bitim taraflari narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimning matniga tegishli o‘zgartishlar kiritishga haqli.

(202-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

VII BO‘LIM
NAZORAT QILINADIGAN CHET EL KOMPANIYALARINING FOYDASIGA SOLIQ SOLISH SHARTLARI VA UMUMIY QOIDALARI

26-bob. Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining foydasiga soliq solishning umumiy qoidalari

203-modda. Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining foydasiga solinadigan soliqni to‘lovchi shaxslar

Agar ushbu bo‘limda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining taqsimlanmagan foydasidan ushbu Kodeksda belgilangan tartibda soliq to‘lashi shart.

Chet el kompaniyalarini nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari deb e’tirof etish tartibi hamda yuridik va jismoniy shaxslarni bunday chet el kompaniyalarini nazorat qiluvchi shaxslar deb e’tirof etish tartibi ushbu Kodeksning tegishincha 39 va 40-moddalarida belgilanadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti nazorat qilinadigan chet el kompaniyasini nazorat qiluvchi shaxs deb e’tirof etilsa, u ushbu nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining taqsimlanmagan foydasini ushbu Kodeksga muvofiq soliq solinishi lozim bo‘lgan o‘z daromadlari tarkibiga kiritishi shart. Yuridik shaxslar mazkur taqsimlanmagan foydani foyda solig‘i bazasiga, jismoniy shaxslar esa – jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bazasiga kiritadi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan qoidalar har bir nazorat qilinadigan chet el kompaniyasiga nisbatan uning har bir nazorat qiluvchi shaxsi tomonidan alohida qo‘llaniladi.

Ushbu Kodeksning 204-moddasida nazarda tutilgan hollarda nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining taqsimlanmagan foydasi ushbu Kodeksga muvofiq soliq solishdan ozod qilinadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 39, 204 va 208-moddalari.

204-modda. Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining foydasini soliq solishdan ozod qilish

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasi, agar ushbu chet el kompaniyasiga nisbatan quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda bittasi bajarilsa, ushbu modda qoidalari hisobga olingan holda, ushbu Kodeksga muvofiq soliq solishdan ozod qilinadi:

1) u o‘zi tashkil qilingan chet davlatning (hududning) qonunchiligiga muvofiq notijorat tashkiloti bo‘lib, olingan foydani (daromadni) aksiyadorlar (ishtirokchilar, ta’sischilar) yoki boshqa shaxslar o‘rtasida taqsimlamaydigan bo‘lsa;

(204-modda birinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) u aktiv chet el kompaniyasi yoki aktiv chet el xolding kompaniyasi bo‘lsa;

3) ushbu chet el kompaniyasi uchun daromadlarni (foydani) bunday kompaniya doimiy joylashgan davlatning (hududning) qonunchiligiga muvofiq moliyaviy yil uchun moliyaviy hisobot tuziladigan davr yakunlari bo‘yicha ushbu Kodeksning 207-moddasiga muvofiq aniqlanadigan soliq solishning samarali stavkasi ushbu Kodeksning 337-moddasi 12-bandida ko‘rsatilgan foydadan olinadigan soliq stavkasi miqdoridan kam bo‘lmagan miqdorni tashkil etsa;

(204-modda birinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

4) u chet davlatning (hududning) qonunchiligiga muvofiq bank yoki sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya yoxud boshqa maxsus ruxsatnoma asosida faoliyat yuritadigan bank yoki sug‘urta tashkiloti bo‘lsa.

(204-modda birinchi qismining 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu modda birinchi qismining 2-bandida ko‘rsatilgan nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasi, agar bunday chet el kompaniyasi doimiy joylashgan davlat (hudud) ushbu Kodeksning 181-moddasi uchinchi va to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan ofshor yurisdiksiyalar ro‘yxatiga kiritilmagan bo‘lsa, ushbu Kodeksga muvofiq soliq solishdan ozod qilinadi.

Ushbu moddaning birinchi qismi 3 va 4-bandlarida ko‘rsatilgan nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasi, agar O‘zbekiston Respublikasi bilan soliq solish masalalari bo‘yicha xalqaro shartnomasi mavjud bo‘lgan davlat (hudud) bunday chet el kompaniyasi doimiy joylashgan yer bo‘lsa, ushbu Kodeksga muvofiq soliq solishdan ozod qilinadi.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasini aktiv chet el kompaniyasi yoki aktiv chet el xolding kompaniyasi deb e’tirof etish qoidalari ushbu Kodeksning 205-moddasida belgilanadi.

Foyda solig‘i bo‘yicha daromadga (foydaga) soliq solishning samarali stavkasini hisob-kitob qilish qoidalari ushbu Kodeksning 207-moddasida belgilanadi.

Aktiv chet el xolding kompaniyasining foydasi ushbu Kodeksning 205-moddasida ko‘rsatilgan O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi — bunday aktiv chet el xolding kompaniyasini nazorat qiluvchi shaxs uchun soliq solishdan ozod qilinadi. Mazkur aktiv chet el xolding kompaniyasining foydasi O‘zbekiston Respublikasining ushbu yuridik shaxsida — ushbu aktiv chet el xolding kompaniyasini nazorat qiluvchi shaxsda bevosita yoki bilvosita ishtirok etuvchi ushbu chet el xolding kompaniyasini nazorat qiluvchi boshqa shaxslarda ham ozod qilinadi. Ushbu foyda bunday shaxslarning mazkur nazorat qiluvchi shaxsda ishtirok etish ulushiga muvofiq miqdorda soliq solishdan ozod qilinadi.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasini foyda solig‘i solishdan ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan asoslarga ko‘ra ushbu Kodeksga muvofiq ozod qilish huquqi hujjat bilan tasdiqlanishi kerak. Mazkur huquqni tasdiqlash uchun ushbu nazorat qilinadigan chet el kompaniyasini nazorat qiluvchi shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchi o‘zi hisobga olingan joydagi soliq organiga bunday soliqdan ozod qilish shartlariga rioya qilinishini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadi. Bu hujjatlar ushbu Kodeksning 209-moddasi ikkinchi — beshinchi qismlarida nazarda tutilgan muddatda taqdim etiladi va uning nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasini soliq solishdan ozod qilish huquqini beruvchi shartlarga rioya etilishini tasdiqlash uchun zarur bo‘lgan qismi davlat tiliga tarjima qilinishi lozim.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 39 va 208-moddalari.

205-modda. Aktiv chet el kompaniyalari va aktiv chet el xolding kompaniyalari

O‘zining moliyaviy hisoboti ma’lumotlariga ko‘ra moliya yilida passiv faoliyatdan olingan daromadlarining ulushi ko‘rsatilgan davr uchun daromadlarining umumiy summasida 20 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorni tashkil etgan chet el yuridik shaxsi ushbu Kodeksning maqsadida aktiv chet el kompaniyasi deb e’tirof etiladi.

Ustav fondida (ustav kapitalida) O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi bo‘lgan nazorat qiluvchi shaxsning bevosita ishtirok etish ulushi ketma-ket keladigan kamida uch yuz oltmish besh kalendar kun ichida kamida 75 foizni tashkil etgan chet el yuridik shaxsi ushbu Kodeksning maqsadida chet el xolding kompaniyasi deb e’tirof etiladi.

Agar chet el xolding kompaniyasiga nisbatan quyidagi shartlarga bir vaqtning o‘zida rioya qilinsa, ushbu chet el xolding kompaniyasi ushbu Kodeksning maqsadida aktiv chet el xolding kompaniyasi deb e’tirof etiladi:

1) uning passiv faoliyatdan olingan daromadlarining (bundan aktiv chet el kompaniyasidan olingan dividendlar mustasno) ulushi moliya yilida moliyaviy hisobot ma’lumotlariga ko‘ra o‘z daromadlari umumiy summasining 5 foizidan oshmasa;

2) ushbu qismning 1-bandida ko‘rsatilgan ulushni hisob-kitob qilishda dividendlari passiv faoliyatdan olingan daromadlar tarkibidan chiqariladigan har bir aktiv chet el kompaniyasining ustav fondida (ustav kapitalida) uning bevosita ishtirok etish ulushi ketma-ket keladigan kamida uch yuz oltmish besh kalendar kun ichida kamida 50 foizni tashkil etsa.

Ushbu moddaning maqsadida moliya yili deganda, chet el yuridik shaxsi tashkil etilgan davlatning qonunchiligiga muvofiq moliyaviy hisobot tuziladigan vaqt davri moliyaviy yil, uning moliyaviy hisoboti deganda esa ushbu yuridik

shaxsning konsolidatsiya qilinmagan moliyaviy hisoboti tushuniladi.

(205-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Qaysi faoliyat turini amalga oshirishdan olingan daromad soliq solish maqsadida passiv faoliyatdan olingan daromad deb qaralishi ushbu Kodeksning 206-moddasiga muvofiq aniqlanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 206-moddasi.

206-modda. Aktiv va passiv faoliyatdan olinadigan daromadlar

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining daromadlarini aniqlashda ushbu Kodeksning maqsadida uning quyidagi daromadlari hisobga olinadi:

1) ushbu chet el kompaniyasi tomonidan olingan dividendlar;

2) yuridik shaxslarning, boshqa shaxslarning yoki ular birlashmalarining foydasini yoki mol-mulkini taqsimlash natijasida, shu jumladan ularni tugatish chog‘ida taqsimlash natijasida olinadigan daromadlar;

3) har qanday turdagi qarz majburiyatlari bo‘yicha, shu jumladan foydada ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan obligatsiyalar va ayirboshlanadigan obligatsiyalar bo‘yicha foizli daromad;

4) royalti;

5) chet el huquqi bo‘yicha yuridik shaxs bo‘lmagan chet el tashkilotida aksiyalarni (ulushlarni) realizatsiya qilishdan va (yoki) huquqlarni boshqa shaxsga o‘tkazishdan olinadigan daromadlar;

6) muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga (hosila moliyaviy vositalariga) doir operatsiyalar bo‘yicha daromadlar;

7) ko‘chmas mulkni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

8) mol-mulkni ijaraga yoki ikkilamchi ijaraga berishdan olinadigan daromadlar, shu jumladan lizing operatsiyalaridan olinadigan daromadlar, bundan dengiz yoki havo kemalarini va (yoki) transport vositalarini, shuningdek xalqaro tashishlarda foydalaniladigan konteynerlarni ijaraga yoki ikkilamchi ijaraga berishdan olinadigan daromadlar mustasno. Bunda lizing oluvchi tomonidan lizing predmetini olish va undan foydalanish bilan bog‘liq lizing operatsiyalaridan olinadigan daromad lizing to‘lovining lizing beruvchiga lizingga berilgan mol-mulk qiymatini to‘lashni chiqarib tashlangan holdagi barcha summasidan kelib chiqib hisob-kitob qilinadi;

9) investitsiya pay fondlarining investitsiya paylarini realizatsiya qilishdan (shu jumladan to‘lanishidan) olinadigan daromadlar;

10) maslahat berish, yuridik, buxgalterlik, auditorlik, injiniring, reklama, marketing xizmatlari, axborotga ishlov berish xizmatlari ko‘rsatishdan, shuningdek ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirishdan olinadigan daromadlar;

11) xodimlarni taqdim etishga oid xizmatlardan olinadigan daromadlar;

12) ushbu modda birinchi qismining 1 — 11-bandlarida ko‘rsatilgan daromadlarga o‘xshash bo‘lgan boshqa daromadlar;

13) boshqa daromadlar.

Ushbu Kodeksning maqsadida ushbu moddaning birinchi qismi 1 — 12-bandlarida ko‘rsatilgan daromadlar passiv faoliyatdan olinadigan daromadlar deb, ushbu moddaning birinchi qismi 13-bandida ko‘rsatilgan daromadlar aktiv faoliyatdan olinadigan daromadlar deb e’tirof etiladi.

Agar bunda chet el kompaniyasining asosiy faoliyati ushbu modda birinchi qismining 3-bandida ko‘rsatilgan daromadlarni olishga yo‘naltirilgan bo‘lsa va chet davlatning (hududining) qonunchiligiga muvofiq maxsus litsenziya asosida amalga oshirilsa, ko‘rsatilgan daromadlar aktiv faoliyatdan olinadigan daromadlar jumlasiga kiritilishi mumkin. Xususan, banklar uchun bunday daromadlar aktiv faoliyatdan olinadigan daromadlar deb e’tirof etiladi.

(206-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 205-moddasi.

207-modda. Daromadlarga (foydaga) soliq solishning samarali stavkasi

Chet el kompaniyasi mansub bo‘lgan davlat (hudud) qonunchiligiga muvofiq chet el kompaniyasi va uning alohida bo‘linmalari tomonidan hisoblab chiqarilgan daromad (foyda) solig‘i hamda bunday daromadlarning to‘lov manbaida ushbu kompaniya daromadlaridan (foydasidan) ushlab qolingan daromad (foyda) solig‘i summasining chet el kompaniyasining uning alohida bo‘linmalari bilan birgalikdagi daromadining (foydasining) umumiy summasiga nisbati chet el kompaniyasining daromadlariga (foydasiga) soliq solishning samarali stavkasi hisoblanadi.

(207-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Daromad (foyda) solig‘i summasini hisob-kitob qilish chog‘ida soliq to‘lovchi chet el kompaniyasining uning alohida bo‘linmalari bilan birgalikdagi daromadining (foydasining) umumiy summasini hisob-kitob qilish chog‘ida inobatga olingan daromadlar (foyda) jumlasiga kiruvchi va chet el tashkilotining chet el kompaniyasi mansub bo‘lgan davlat (hudud) qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilishi va (yoki) chet el kompaniyasining uning alohida bo‘linmalari bilan birgalikdagi daromadining (foydasining) umumiy summasi hisoblab chiqarilgan davrdan farq qiluvchi boshqa davrlarda ushlab qolinishi lozim bo‘lgan soliqlar summasiga tuzatish kiritishga haqli.

(207-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar soliq davri yakunlari bo‘yicha chet el kompaniyasida daromadlar mavjud bo‘lmasa yoki daromadining (foydasining) umumiy summasi manfiy yoxud nolga teng bo‘lsa, samarali soliq stavkasini hisob-kitob qilish amalga oshirilmaydi, nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi esa ushbu Kodeksning 204-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan shartlarni qanoatlantiruvchi deb e’tirof etiladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 204-moddasi.

208-modda. Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasini soliq solishda hisobga olish tartibi

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining ushbu Kodeksning XI bo‘limiga muvofiq hisob-kitob qilingan foydasi (zarari) summasi ushbu Kodeksning maqsadida mazkur kompaniyaning foydasi (zarari) deb e’tirof etiladi.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasini hisoblab chiqarishda ushbu Kodeksning XI bo‘limida nazarda tutilgan, xususan, ushbu chet el kompaniyasi doimiy joylashgan davlat (hudud) bilan xalqaro bitim mavjudligidan kelib chiqadigan xususiyatlar hisobga olinadi.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasi bunday kompaniya mansub bo‘lgan davlat (hudud) qonunchiligiga muvofiq moliyaviy hisobot tuziladigan yildan keyingi kalendar yilda ushbu chet el kompaniyasi tomonidan to‘langan dividendlar miqdoriga, ushbu moliyaviy hisobot tuziladigan moliyaviy yil davomida to‘langan oraliq dividendlar hisobga olingan holda kamayadi.

(208-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining moliyaviy hisoboti u mansub bo‘lgan davlat (hudud) qonunchiligiga muvofiq tuzilmasa, ushbu band maqsadida kalendar yil qo‘llaniladi.

(208-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasini aniqlashda O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari to‘lov manbai bo‘lgan dividendlar tarzidagi daromadlar, agar ushbu nazorat qilinadigan chet el kompaniyasini nazorat qiladigan shaxs bunday daromadlarga nisbatan haqiqatda huquqqa ega bo‘lsa va bunday daromadlar hisobidan soliq to‘lashdan ozod qilingan bo‘lsa yoxud ularni ushbu Kodeksga muvofiq mustaqil ravishda to‘lagan bo‘lsa, hisobga olinmaydi.

Agar nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi yuridik shaxs tashkil etmagan chet el tuzilmasi bo‘lsa, uning foydasi ushbu chet el kompaniyasining nazorat qiluvchi shaxslari va (yoki) uning ta’sis hujjatlariga muvofiq benefitsiarlar deb e’tirof etilgan boshqa shunday shaxslar foydasiga taqsimlangan foyda miqdoriga kamayadi.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining ushbu Kodeksga muvofiq aniqlanadigan taqsimlanmagan foydasi, ushbu kompaniyani nazorat qiluvchi shaxs deb e’tirof etiladigan soliq to‘lovchi tomonidan olingan daromadlarga tenglashtiriladi. Bunday daromadlar nazorat qiluvchi shaxslarda nazorat qiluvchi shaxs yuridik yoki jismoniy shaxs

ekanligiga bog‘liq ravishda foyda solig‘i yoki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha soliq bazasini aniqlashda inobatga olinadi.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining taqsimlanmagan foydasi nazorat qiluvchi shaxsda soliq bazasini aniqlashda nazorat qiluvchi shaxsning ushbu kompaniyada foydani taqsimlash haqidagi qaror qabul qilingan sanadagi holatga ko‘ra ishtirok etishi ulushiga muvofiq bo‘lgan ulushda hisobga olinadi.

Agar foydani taqsimlash haqidagi qaror bunday kompaniya mansub bo‘lgan davlatning (hududning) qonunchiligiga muvofiq moliya yili uchun moliyaviy hisobot tuziladigan davr oxiriga to‘g‘ri keladigan yilning 31-dekabriga qadar qabul qilinmagan bo‘lsa, mazkur foyda nazorat qiluvchi shaxsning tegishli davrning oxiridagi ishtirok etishi ulushiga to‘g‘ri keladigan ulushda hisobga olinadi.

(208-moddaning to‘qqizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydadagi ulushini mazkur usulda aniqlash imkoni bo‘lmasa, uning foydasi nazorat qiluvchi shaxsda soliq bazasini aniqlashda haqiqatda shunday foydaga (daromadga) doir huquqqa ega bo‘lgan shaxslar o‘rtasida ushbu foyda taqsimlangan taqdirda u huquqqa ega bo‘lgan (ega bo‘ladigan) foyda summasidan kelib chiqqan holda hisobga olinadi.

Agar nazorat qiluvchi shaxs nazorat qilinadigan chet el kompaniyasida uning nazorat qiluvchi shaxslari bo‘lgan va O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan e’tirof etiladigan yuridik shaxslar orqali bilvosita ishtirok etsa, u holda ushbu nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining mazkur nazorat qiluvchi shaxsda hisobga olinadigan foydasi boshqa nazorat qiluvchi shaxslarda hisobga olinishi lozim bo‘lgan foyda summasiga kamayadi. Bunday kamaytirish mazkur nazorat qiluvchi shaxsning bilvosita ishtiroki nazorat qilinadigan chet el kompaniyasida qaysi yuridik shaxs orqali amalga oshirilayotgan bo‘lsa, nazorat qiluvchi shaxsning ana shu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushiga mutanosib ulushda amalga oshiriladi.

Agar bunda nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining nazorat qiluvchi shaxsda soliq bazasini aniqlashda hisobga olinishi lozim bo‘lgan foydasining summasi nolga teng bo‘lsa, soliq to‘lovchi uni foyda solig‘i (jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i) bo‘yicha soliq deklaratsiyasida aks ettirmaydi.

Nazorat qiluvchi shaxs quyidagi hujjatlar ilova qilingan holda soliq bo‘yicha soliq hisobotini taqdim etadi, bunda ushbu soliq bo‘yicha soliq bazasini aniqlashda mazkur shaxs tomonidan nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasi hisobga olinadi:

1) nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining soliq hisoboti taqdim etilgan soliq bo‘yicha soliq bazasini aniqlashda foyda hisobga olingan davr uchun moliyaviy hisoboti yoki moliyaviy hisobot mavjud bo‘lmagan taqdirda boshqa hujjatlar;

2) agar ushbu nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi mansub bo‘lgan davlatning (hududning) qonunchiligiga yoki ta’sis (korporativ) hujjatlariga muvofiq bu moliyaviy hisobotning auditini majburiy ravishda o‘tkazish belgilangan bo‘lsa yoki audit chet el tashkiloti tomonidan ixtiyoriy ravishda amalga oshirilsa, ushbu qismning 1-bandida ko‘rsatilgan nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining moliyaviy hisoboti bo‘yicha auditorlik xulosasi.

(208-modda o‘n uchinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu moddaning o‘n uchinchi qismida ko‘rsatilgan, chet tilida tuzilgan hujjatlar (ularning nusxalari) davlat tiliga tarjima qilingan bo‘lishi kerak.

Agar moliyaviy hisobot bo‘yicha auditorlik xulosasini soliq hisobotini taqdim etish bilan bir vaqtda taqdim etish mumkin bo‘lmasa, moliyaviy hisobot nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari to‘g‘risidagi bildirishnomada moliyaviy hisobot bo‘yicha auditorlik xulosasi tuzilgan sana sifatida aks etgan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirilmagan muddatda taqdim etiladi.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasi, agar uning ushbu Kodeksning XI bo‘limiga muvofiq hisob-kitob qilingan miqdori uch yuz million so‘mdan ortiqni tashkil etsa, tegishli soliq bo‘yicha soliq davri uchun soliq bazasini ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlariga muvofiq aniqlashda hisobga olinadi.

Agar nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi moliya yili yakunlari bo‘yicha foydani (to‘liq yoki qisman) o‘z davlati (hududi) qonunchiligida ushbu foydani ustav kapitalini ko‘paytirish uchun yo‘naltirish majburiyati

belgilanganligi tufayli ishtirokchilar (paychilar, ishonchli vakillar yoki boshqa shaxslar) o‘rtasida taqsimlay olmasa, bunday foyda nazorat qiluvchi shaxsda soliq bazasini aniqlashda hisobga olinmaydi.

(208-moddaning o‘n yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 39-moddasi.

209-modda. Chet el kompaniyalarida ishtirok etish to‘g‘risidagi va nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari haqidagi xabarnomalar

O‘zbekiston Respublikasi soliq rezidentlari bo‘lgan soliq to‘lovchilar ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda va tartibda soliq organini quyidagilar to‘g‘risida xabardor qiladi:

chet el yuridik shaxsi faoliyatida o‘zining ishtirok etishi to‘g‘risida (yuridik shaxs tashkil etmagan holda chet el tuzilmalarini ta’sis etish haqida);

chet el kompaniyalarining nazorat qiluvchi shaxslari hisoblangan nazorat qilinadigan chet el kompaniyalar haqida.

Chet el yuridik shaxslari faoliyatida ishtirok etish to‘g‘risidagi xabarnoma shunday chet el yuridik shaxsida bunday xabarnomani taqdim etish uchun asos bo‘lgan ishtirok etish yuzaga kelgan (ulush o‘zgargan) sanadan e’tiboran bir oydan kechiktirilmagan muddatda taqdim etiladi.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari to‘g‘risidagi xabarnoma nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi foydasining ulushi ushbu Kodeksning 208-moddasiga muvofiq nazorat qiluvchi shaxsda hisobga olinishi kerak bo‘lgan soliq davridan keyingi yilning 20-martidan kechiktirilmagan muddatda taqdim etiladi.

Agar chet el tashkilotlari faoliyatida ishtirok etish to‘g‘risidagi xabarnoma taqdim etilganidan keyin bunday xabarnomani taqdim etish uchun asoslar o‘zgarmagan bo‘lsa, takroriy xabarnomalar taqdim etilmaydi.

Chet el tashkilotlari faoliyatida ishtirok etish tugatilgan taqdirda, soliq to‘lovchi ishtirok etish tugatilgan sanadan e’tiboran bir oydan kechiktirilmagan muddatda soliq organini bu haqda xabardor qiladi.

Soliq to‘lovchilar chet el yuridik shaxslari faoliyatida ishtirok etish to‘g‘risidagi xabarnomalarni va nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari haqidagi xabarnomalarni o‘zi hisobga olingan joydagi soliq organiga taqdim etadi.

Chet el yuridik shaxslarida ishtirok etish to‘g‘risidagi xabarnomalar va nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari haqidagi xabarnomalar soliq organiga elektron shaklda taqdim etiladi. Jismoniy shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchilar mazkur xabarnomalarni qog‘ozda taqdim etishga haqlidir.

Chet el yuridik shaxslarida ishtirok etish to‘g‘risidagi xabarnomaning va nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari haqidagi xabarnomaning shakli, shuningdek ularni to‘ldirish hamda taqdim etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

(209-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

> **Izoh.** Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-son qarori bilan tasdiqlangan Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari haqidagi xabarnomalarning shakllari, ularni to‘ldirish va taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizom, Chet el yuridik shaxslarida ishtirok etish to‘g‘risidagi xabarnomalarning shakllari, ularni to‘ldirish va taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizom.

Chet el yuridik shaxslarida ishtirok etish to‘g‘risidagi xabarnoma quyidagi axborotni o‘z ichiga olishi kerak:

1) xabarnomani taqdim etish uchun asoslar yuzaga kelgan sana;

2) soliq to‘lovchi undagi ishtiroki haqida (uning ta’sis etilganligi haqida) xabarnoma taqdim etgan chet el yuridik shaxsining (yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmasining) nomi;

3) ro‘yxatdan o‘tkazilgan (inkorporatsiya qilingan) davlatda (hududda) chet el yuridik shaxsiga berilgan ro‘yxatdan o‘tkazilganlik raqami, ushbu chet el yuridik shaxsining ro‘yxatdan o‘tkazilgan (inkorporatsiya qilingan) davlatda (hududda) soliq to‘lovchi sifatidagi kodi — ular mavjud bo‘lgan taqdirda;

4) soliq to‘lovchining chet el yuridik shaxsida ishtirok etish ulushi, basharti bilvosita ishtirok etish mavjud bo‘lsa, soliq to‘lovchining chet el yuridik shaxsida ishtirok etish tartibini quyidagi axborotni ko‘rsatgan holda ochib berish:

a) chet el yuridik shaxsi faoliyatida bilvosita ishtirok etish amalga oshirilayotgan har bir keyingi yuridik shaxsga nisbatan — ushbu qismning 2 va 3-bandlarida nazarda tutilgan axborot;

b) chet el yuridik shaxsi faoliyatida bilvosita ishtirok etish amalga oshirilayotgan har bir keyingi yuridik shaxs faoliyatida ishtirok etish ulushi;

5) chet el yuridik shaxsida (yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmasida) ishtirok etishning yakunlanish sanasi.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari to‘g‘risidagi xabarnoma quyidagi axborotni o‘z ichiga olishi kerak:

1) xabarnoma taqdim etilayotgan davr;

2) chet el yuridik shaxsining (yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmasining) nomi;

3) ro‘yxatdan o‘tkazilgan (inkorporatsiya qilingan) davlatda (hududda) chet el yuridik shaxsiga berilgan ro‘yxatdan o‘tkazilganlik raqami, ro‘yxatdan o‘tkazilgan (inkorporatsiya qilingan) davlatda (hududda) ushbu chet el yuridik shaxsining soliq to‘lovchi sifatidagi kodi (kodlari) — ular mavjud bo‘lgan taqdirda;

4) chet el yuridik shaxsining (yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmasining) u joylashgan davlatning (hududning) qonunchiligiga muvofiq moliya yili uchun moliyaviy hisoboti tuziladigan davrning oxirgi kuni bo‘lgan sana;

5) chet el yuridik shaxsi mansub bo‘lgan davlatning (hududning) qonunchiligiga muvofiq moliya yili uchun moliyaviy hisobot tuzilgan sana, shuningdek u mansub bo‘lgan davlatning (hududning) qonunchiligiga muvofiq foydadan (daromaddan) olinadigan soliq bo‘yicha soliq davrining tugallanish sanasi;

6) chet el yuridik shaxsining moliya yili uchun moliyaviy hisoboti bo‘yicha auditorlik xulosasi tuzilgan sana (ushbu yuridik shaxs mansub bo‘lgan davlatning (hududning) qonunchiligiga muvofiq audit majburiy ravishda o‘tkazilgan taqdirda);

(209-modda o‘ninchi qismining 4 — 6-bandlari O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

7) chet el yuridik shaxsida soliq to‘lovchining ishtirok etishi ulushi, bilvosita ishtirok etish mavjud bo‘lganda chet el yuridik shaxsida soliq to‘lovchining ishtirok etish tartibini quyidagi axborotni ko‘rsatgan holda ochib berish:

a) bilvosita ishtirok etish o‘zi orqali amalga oshirilayotgan har bir keyingi yuridik shaxsga nisbatan — ushbu qismning 2 va 3-bandlarida nazarda tutilgan axborot;

b) bilvosita ishtirok etish amalga oshirilayotgan har bir keyingi yuridik shaxs faoliyatida ishtirok etish ulushi;

8) soliq to‘lovchini nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining nazorat qiluvchi shaxsi deb e’tirof etish uchun asoslarning tavsifi;

9) nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasini ushbu Kodeksga muvofiq soliq solishdan ozod qilish uchun asoslarning tavsifi.

Chet el yuridik shaxslarida ishtirok etish to‘g‘risida taqdim etilgan xabarnomadagi yoki nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari haqidagi xabarnomadagi ma’lumotlarning to‘liq emasligi, ularni to‘ldirishda yo‘l qo‘yilgan noaniqliklar yoxud xatolar aniqlanganda soliq to‘lovchi aniqlashtirilgan xabarnomani taqdim etishga haqli.

Soliq organida soliq to‘lovchi chet el kompaniyasining (yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmasining) nazorat qiluvchi shaxsi ekanligi, lekin soliq organiga ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan xabarnomani yubormaganligi haqida axborot mavjud bo‘lganda, soliq organi zarur tushuntirishlarni taqdim etish yoki ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan xabarnomani topshirish haqidagi talabnomani ushbu soliq to‘lovchiga yuboradi.

Talabnoma soliq to‘lovchiga, xususan, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq soliq maqsadida axborot almashish doirasida chet davlatlarning vakolatli organlaridan axborot olishda, shu jumladan ushbu Kodeksning 40-moddasi birinchi qismida ko‘rsatilmagan hollarda yuboriladi. Mazkur talabnoma olingan sanadan e’tiboran yigirma kalendar kun ichida soliq to‘lovchi tomonidan bajarilishi lozim.

Soliq organining talabnomasi quyidagi axborotni o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak:

1) xabar yuborilayotgan soliq to‘lovchining nomi;

2) soliq organida soliq to‘lovchi qaysi chet el yuridik shaxslarini nazorat qiluvchi shaxs ekanligi to‘g‘risida dalolat beruvchi axborot mavjud bo‘lsa, o‘sha chet el yuridik shaxslarining (yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el

tuzilmalarining) nomi;

3) ro‘yxatdan o‘tkazilgan (inkorporatsiya qilingan) davlatda (hududda) chet el yuridik shaxsiga berilgan ro‘yxatdan o‘tkazilganlik raqami, ushbu chet el yuridik shaxsining ro‘yxatdan o‘tkazilgan (inkorporatsiya qilingan) davlatdagi (hududdagi) soliq to‘lovchi sifatidagi kodi (kodlari) — ular mavjud bo‘lgan taqdirda;

4) soliq to‘lovchini chet el yuridik shaxsning (yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmasining) nazorat qiluvchi shaxsi deb e’tirof etish uchun soliq organida mavjud asoslarning tavsifi.

Soliq to‘lovchi soliq organiga yuborilgan talabnomada bayon etilgan faktlarga taalluqli tushuntirishlarni taqdim etib, tushuntirishlar bilan bir vaqtda uni chet el yuridik shaxsini nazorat qiluvchi shaxs deb e’tirof etish uchun asoslar mavjud emasligi haqida dalolat beruvchi hujjatlarni qo‘shimcha ravishda taqdim etishga haqli.

Soliq organi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan tushuntirishlarni va hujjatlarni ko‘rib chiqishi shart.

Agar taqdim etilgan tushuntirishlar va hujjatlar ko‘rib chiqilganidan keyin yoxud ular mavjud bo‘lmagan taqdirda soliq organi soliq to‘lovchini chet el yuridik shaxsini (yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmasini) nazorat qiluvchi shaxs deb e’tirof etish uchun asoslarni aniqlasa, soliq organining mansabdor shaxsi ushbu soliq to‘lovchiga bunday shaxsni nazorat qiluvchi shaxs deb e’tirof etish uchun shunday shaxs tomonidan nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari haqidagi xabarnomani yuboradi. Mazkur xabarnoma ushbu modda o‘ninchi qismining 8-bandida nazarda tutilgan axborotni o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak.

O‘ziga xabarnoma yuborilgan shaxs mazkur xabarnoma yuzasidan u olingan sanadan e’tiboran uch oy ichida sudga shikoyat qilishga haqli. Bunda mazkur shaxs tegishli ariza sudga berilgan paytdan e’tiboran uch kun ichida ushbu fakt haqida soliq organini xabardor qiladi.

O‘ziga xabarnoma yuborilgan shaxs xabarnoma yuzasidan nizolashish haqidagi arizani ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qabul qilingan sud hujjati qonuniy kuchga kirguniga qadar ushbu Kodeksning maqsadida chet el yuridik shaxsini (yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmasini) nazorat qiluvchi shaxs deb e’tirof etilishi mumkin emas.

Agar shaxs o‘zi nazorat qiladigan chet el kompaniyalari to‘g‘risida o‘z manziliga yuborilgan xabarnoma ustidan shikoyat bermagan bo‘lsa, mazkur xabarnoma olingan sanadan e’tiboran uch oy o‘tgach ushbu shaxs o‘zini chet el kompaniyasini nazorat qiluvchi shaxs deb e’tirof etgan hisoblanadi. Bunda mazkur shaxs uchun ushbu Kodeksning nazorat qilinadigan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan qoidalari tatbiq etiladi.

VIII BO‘LIM
SOLIQQA OID HUQUQBUZARLIKLAR VA ULARNI SODIR ETGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

27-bob. Soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarlik to‘g‘risidagi umumiy qoidalar

210-modda. Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi

Soliq to‘lovchining, soliq agentining yoki boshqa shaxsning ushbu Kodeksda javobgarlik belgilangan g‘ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbuzarlik deb e’tirof etiladi.

211-modda. Javobgarlikka tortilishi lozim bo‘lgan shaxslar

Yuridik va jismoniy shaxslar soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun ushbu Kodeksning 28 va 29-boblarida nazarda tutilgan hollarda javobgar bo‘ladi.

Jismoniy shaxs soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun o‘n olti yoshdan boshlab javobgarlikka tortilishi mumkin.

212-modda. Javobgarlikka tortishning umumiy shartlari

Hech kim soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilganidan boshqa asoslar bo‘yicha va tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Hech kim soliqqa oid sodir etilgan ayni bir huquqbuzarlik uchun takroran javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Agar jismoniy shaxs tomonidan sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarlikda ma’muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat alomatlari mavjud bo‘lmasa, bu huquqbuzarlik uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan javobgarlik kelib chiqadi.

(212-modda O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 17-apreldagi O‘RQ-1131-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.04.2026-y., 03/26/1131/0377-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 19-iyul)

Yuridik shaxsning soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganligi uchun javobgarlikka tortilishiga mazkur huquqbuzarlik sodir etilganligi fakti soliq organining kuchga kirgan qarorida aniqlanganligi asos bo‘ladi.

(212-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi tegishli asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda uning mansabdor shaxslarini ma’muriy, jinoiy yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa javobgarlikdan ozod etmaydi.

Shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi uni to‘lanishi kerak bo‘lgan soliqlar (yig‘imlar) va penyalarning summalarini to‘lash (o‘tkazish) majburiyatidan ozod etmaydi.

Shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmaguniga qadar u soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda aybdor deb hisoblanmaydi. Javobgarlikka tortilayotgan shaxs o‘zining soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybdor emasligini isbotlashi shart emas.

Soliqqa oid huquqbuzarlik fakti va shaxsning uni sodir etishda aybdorligi to‘g‘risida dalolat beruvchi holatlarni isbotlash majburiyati soliq organlarining yoki bunday huquqbuzarliklarni aniqlagan vakolatli organlarning zimmasiga yuklatiladi.

(212-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 17-apreldagi O‘RQ-1131-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.04.2026-y., 03/26/1131/0377-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 19-iyul)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 210 va 211-moddalari.

213-modda. Javobgarlikka tortishni istisno etuvchi holatlar

Shaxs soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun quyidagi holatlardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lgan taqdirda javobgarlikka tortilishi mumkin emas:

1) soliqqa oid huquqbuzarlik holatining mavjud emasligi;

2) soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda shaxsning aybi mavjud emasligi;

3) soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish muddatlari o‘tib ketganligi.

Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa holatlar mavjud bo‘lganda ham shaxs soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 210 — 212-moddalari.

214-modda. Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilganda ayb shakllari

G‘ayrihuquqiy xatti-harakatni (harakat va harakatsizlik) qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etgan shaxs soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybdor deb e’tirof etiladi.

Agar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o‘z harakati (harakatsizligi) g‘ayriqonuniy ekanligini bilgan bo‘lsa, bunday harakatning (harakatsizlikning) zararli oqibatlari yuzaga kelishini istagan yoxud ularning yuzaga kelishiga ongli ravishda yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, bunday huquqbuzarlik qasddan sodir etilgan deb topiladi.

Agar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o‘z harakatlari (harakatsizligi) g‘ayriqonuniy ekanligini yoxud bunday harakatlar (harakatsizlik) natijasida yuzaga keladigan oqibatlarning zararli ekanligini garchand ularni oldindan ko‘rishi lozim va mumkin bo‘lgani holda bilmagan bo‘lsa, bunday huquqbuzarlik ehtiyotsizlik tufayli sodir etilgan deb e’tirof etiladi.

Yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybdorligi uning mansabdor shaxslarining yoki vakillarining harakatlari (harakatsizligi) ushbu soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilishini keltirib chiqargan aybiga qarab aniqlanadi.

215-modda. Shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini istisno qiluvchi holatlar

Shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini istisno qiladigan holatlar deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) soliqqa oid huquqbuzarlik belgilari bo‘lgan qilmishning tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo‘lmaydigan holatlar oqibatida sodir etilganligi. Mazkur holatlar hammaga ma’lum faktlarning mavjudligi, ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan ma’lumotlar va isbotlash uchun maxsus vositalar talab etilmaydigan boshqa usullar bilan aniqlanadi;

2) soliqqa oid huquqbuzarlik alomatlari bo‘lgan qilmish bunday qilmish sodir etilgan paytda kasallik oqibatida o‘z harakatlarini o‘zi idora etolmaydigan yoki boshqara olmaydigan holatda bo‘lgan soliq to‘lovchi — jismoniy shaxs tomonidan sodir etilganda. Mazkur holatlar mazmuni, mohiyati va sanasi bo‘yicha soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan o‘sha soliq davriga taalluqli bo‘lgan hujjatlarni soliq organiga taqdim etish orqali isbotlanadi;

3) soliq organining yoki boshqa vakolatli organning (ushbu organ mansabdor shaxsining) soliqni (yig‘imni) hisoblab chiqarish, to‘lash tartibi to‘g‘risida yoki soliq to‘g‘risidagi qonunchilik qo‘llanilishining boshqa masalalari bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida soliq to‘lovchiga (yig‘im to‘lovchiga, soliq agentiga) yoxud noma’lum doiradagi shaxslarga bergan yozma tushuntirishlari soliq to‘lovchi (yig‘im to‘lovchi, soliq agenti) tomonidan bajarilganda. Mazkur holatlar ushbu organning tegishli hujjati mavjud bo‘lgan taqdirda belgilanadi, ushbu hujjat ma’nosi va mazmuniga ko‘ra, bunday hujjat qabul qilingan sanadan qat’i nazar, soliqqa oid huquqbuzarlik yuz bergan soliq davriga taalluqli bo‘ladi;

(215-modda birinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

4) soliq monitoringini o‘tkazish davrida soliq organining soliq to‘lovchiga (yig‘im to‘lovchiga, soliq agentiga) yuborilgan asoslantirilgan fikri soliq to‘lovchi (yig‘im to‘lovchi, soliq agenti) tomonidan bajarilganda.

Ushbu modda birinchi qismining 3 va 4-bandlari qoidalari, agar soliq organining yozma tushuntirishlari yoki asoslantirilgan fikri soliq to‘lovchi (yig‘im to‘lovchi, soliq agenti) tomonidan taqdim etilgan to‘liq bo‘lmagan yoki noto‘g‘ri axborotga asoslangan bo‘lsa, qo‘llanilmaydi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan holatlar mavjud bo‘lganida shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgar bo‘lmaydi.

216-modda. Javobgarlikni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) shaxsiy yoki oilaviy sharoitlar og‘ir kechishi oqibatida soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etish;

2) tahdid yoki majburlash ta’sirida yoxud moddiy, xizmat yoki boshqa jihatdan qaramlik sababli soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etish;

3) sud yoki ishni ko‘rayotgan soliq organi tomonidan javobgarlikni yengillashtiruvchi deb topilishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlar.

Soliqqa oid huquqbuzarlikning ilgari xuddi shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilganligi javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat deb e’tirof etiladi. Agar soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun o‘ziga nisbatan javobgarlik choralari qo‘llanilgan shaxs bu choralar qo‘llanilgan kundan e’tiboran bir yil ichida bunday huquqbuzarlikni qayta sodir etmagan bo‘lsa, u javobgarlikka tortilmagan deb hisoblanadi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlar sud yoki ishni ko‘rayotgan soliq organi tomonidan belgilanadi va moliyaviy sanksiyalar qo‘llanilganda inobatga olinadi.

217-modda. Javobgarlikka tortish muddatining o‘tishi

Agar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan kundan e’tiboran yoki mazkur huquqbuzarlik sodir etilgan soliq davri tugaganidan keyingi kundan e’tiboran va javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan paytga qadar uch yil (o‘tish muddati) o‘tgan bo‘lsa, shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

(217-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan kundan e’tiboran muddatning o‘tishini hisoblab chiqarish barcha soliqqa oid huquqbuzarliklarga nisbatan qo‘llaniladi, ushbu Kodeksning 223 va 224-moddalarida nazarda tutilgan soliqqa oid huquqbuzarliklar bundan mustasno.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 223 va 224-moddalari.

Muddatning o‘tishini tegishli soliq davri tugaganidan keyingi kundan e’tiboran hisoblab chiqarish ushbu Kodeksning 223 va 224-moddalarida nazarda tutilgan soliqqa oid huquqbuzarliklarga nisbatan qo‘llaniladi.

Agar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilayotgan shaxs soliq tekshiruvini o‘tkazishga faol qarshilik ko‘rsatgan bo‘lsa va ushbu soliq tekshiruvini o‘tkazish hamda budjet tizimiga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summalarini soliq organlari tomonidan aniqlash uchun bartaraf etib bo‘lmaydigan to‘siqqa aylangan bo‘lsa, javobgarlikka tortish muddatining o‘tishi to‘xtatiladi.

Javobgarlikka tortish muddatining o‘tishi ushbu Kodeks 144-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan dalolatnoma tuzilgan kundan e’tiboran to‘xtatilgan deb hisoblanadi. Mazkur holatda javobgarlikka tortish muddatining o‘tishi sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazishga to‘sqinlik qiluvchi holatlarning amal qilishi tugagan va muddat o‘tishini tiklash to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan kundan e’tiboran qayta tiklanadi.

218-modda. Moliyaviy sanksiyalar

Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlik chorasidir.

Moliyaviy sanksiyalar ushbu Kodeksning 28 va 29-boblarida nazarda tutilgan miqdorlarda belgilanadi va pul undirish (jarimalar) tarzida qo‘llaniladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 28 bobi.

Javobgarlikni yengillashtiruvchi hech bo‘lmaganda bitta holat mavjud bo‘lgan taqdirda, jarima miqdori ushbu Kodeksning tegishli moddasida belgilangan miqdorga nisbatan ikki marta kamaytiriladi.

Aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklardagi aybga iqror bo‘linganda va soliq organining soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarori olingan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda moliyaviy sanksiyalar summasi ixtiyoriy ravishda to‘langanda jarima miqdori ushbu Kodeksning tegishli moddalarida belgilangan miqdorga nisbatan ikki baravarga kamaytiriladi.

Ushbu Kodeksning 216-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, jarima miqdori ikki barobar oshiriladi.

Bir shaxs tomonidan ikki va undan ortiq soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, moliyaviy sanksiyalar har bir huquqbuzarlik uchun alohida tarzda undiriladi.

28-bob. Soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularni sodir etganlik uchun javobgarlik

219-modda. Soliq organida hisobga qo‘yish tartibini buzish

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliq to‘lovchisi sifatida soliq organlarida hisobga qo‘yishning belgilangan tartibi soliq to‘lovchi tomonidan buzilganda, —

soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hisobga qo‘yish sanasidan haqiqatda hisobga qo‘yilgan sanagacha bo‘lgan davrda olgan daromadining besh foizi miqdorida, lekin besh million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

(219-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu moddaning birinchi qismi qoidalari 2026-yil 1-yanvardan boshlab ilk marta aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashdan qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tgan soliq to‘lovchilarga nisbatan ular qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tish majburiyati yuzaga kelgan muddatdan e’tiboran bir yil ichida ro‘yxatdan o‘tgan hollarda tatbiq etilmaydi.

(219-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Ushbu Kodeksning 131-moddasida nazarda tutilgan hollarda soliq solish obyekti bo‘yicha soliq organlarida hisobga qo‘yish muddatlari buzilganda, agar hisobga qo‘yishning belgilangan muddatidan o‘tishi:

o‘ttiz kundan ko‘p bo‘lmaganda, — bir million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi;

o‘ttiz kundan ko‘p bo‘lganda, — ikki million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Chet el yuridik shaxsi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy muassasasini tashkil etishga olib keluvchi faoliyatning soliq organida hisobga qo‘ymasdan amalga oshirilishi —

bunday faoliyatni amalga oshirish boshlangandan haqiqatda hisobga qo‘yilgan sanagacha bo‘lgan davrda olingan daromaddan o‘n foiz miqdorida, lekin o‘n million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Jismoniy shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan amalga oshirish, —

bunday faoliyatdan olingan daromadlarning o‘n foizi miqdorida, lekin bir million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 129-moddasi.

220-modda. Soliq hisobotini taqdim etish tartibini buzish

Soliq hisobotini o‘z vaqtida taqdim etmaganlik uchun soliq to‘lovchi bo‘lgan yuridik shaxsning mansabdor shaxsi yoki soliq to‘lovchi bo‘lgan jismoniy shaxs ma’muriy javobgarlikka tortiladi.

(220-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 20 — 22, 66, 67 va 69-moddalari.

221-modda. Nazorat-kassa texnikasining, hisob-kitob terminallarining, elektron to‘lov tizimlarining va to‘lov tashkilotlarining raqamli platformalarida generatsiya qilingan maxsus QR-kodlarning qo‘llanilish tartibini buzish

(221-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Nazorat-kassa texnikasining, hisob-kitob terminallarining, elektron to‘lov tizimlarining va (yoki) to‘lov tashkilotlarining raqamli platformalarida generatsiya qilingan maxsus QR-kodlarning qo‘llanilishi majburiy bo‘lgani holda, ularni qo‘llamasdan savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko‘rsatganlik, xuddi shuningdek sotib oluvchiga kvitansiyalar yozib berish, talonlarni, cheklarni yoki ularga tenglashtirilgan hujjatlarni berish majburiy bo‘lgani holda bunday hujjatlarni bermasdan tovarlarni realizatsiya qilganlik va xizmatlar ko‘rsatganlik, shuningdek hisob-kitob terminallari, elektron to‘lov tizimlari va (yoki) to‘lov tashkilotlarining raqamli platformalarida generatsiya qilingan maxsus QR-kodlar orqali to‘lovlarni qabul qilishni rad etganlik, —

besh million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

(221-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Soliq organlarida ro‘yxatga olinmagan nazorat-kassa texnikasini qo‘llagan yoki sotib oluvchiga kvitansiyalar, talonlar, cheklar yoki ularga tenglashtirilgan hujjatlarni bergan holda savdoni amalga oshirganlik va (yoki) xizmatlar ko‘rsatganlik, —

yetti million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Boshqa shaxslar nomiga rasmiylashtirilgan hisob-kitob terminallaridan yoki to‘lov tashkilotlarining raqamli platformalaridan ro‘yxatdan o‘tgan boshqa soliq to‘lovchilarga tegishli bo‘lgan maxsus QR-koddan soliq to‘lovchi tomonidan foydalanilishi, —

yigirma million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

(221-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Texnik talablarga muvofiq bo‘lmagan yoki xizmat ko‘rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa texnikalaridan foydalanganlik, —

yigirma million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

222-modda. Daromadlar va (yoki) xarajatlarni hisobga olish qoidalarini buzish

Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan daromadlar va (yoki) xarajatlarni hisobga olish (daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish kitobi) qoidalarini buzish —

besh yuz ming so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

223-modda. Soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko‘rsatish)

Soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko‘rsatish) —

yashirilgan (kamaytirib ko‘rsatilgan) soliq bazasi summasining yigirma foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Yashirilgan (kamaytirib ko‘rsatilgan) soliq bazasi summasidan ushbu Kodeksga muvofiq soliqlarni hisoblash amalga oshiriladi.

Ushbu moddaning maqsadida soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko‘rsatish) deb quyidagilar e’tirof etiladi:

tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum summasini hisobga olish registrlarida aks ettirmaslik;

yuklarni tovar-kuzatuv hujjatlarini rasmiylashtirmasdan yoxud soxta hujjatlar bo‘yicha tashish;

hisobda realizatsiya qilinmagan deb ko‘rsatilgan tovarlarning omborda yoki realizatsiya qilish joyida mavjud emasligi;

rasmiylashtirilmagan (kirim qilinmagan) tovarlarni saqlash, ulardan foydalanish va realizatsiya qilish;

tovarlar (xizmatlar) realizatsiya qilinganligidan dalolat beruvchi hujjatlarni almashtirish, soxtalashtirish yoki yo‘q qilish;

qalbaki birlamchi buxgalteriya hujjatlaridan foydalanish;

nazorat-kassa texnikasining fiskal xotirasi xizmati dasturiga noqonuniy ravishda o‘zgartirish kiritish;

foydalanilmagan moddiy xarajatlarni foydalanilgan deb, ishlab chiqarish hisobotiga qo‘shish;

tovarlarni sotishdan (xizmat ko‘rsatishdan) olingan tushumni hisobot davridan keyingi davrga o‘tkazish (sotish hajmini va daromadni (foydani) qasddan kamaytirish);

moddiy, yoqilg‘i-energetika resurslari xarajatlarini (limitlarni) va amortizatsiya (eskirish) normasini sun’iy ravishda oshirish yoki normativlarni noto‘g‘ri qo‘llash;

ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan xodimlarning haqiqiy ish haqi summasi soliq hisobotida aks ettirilmaganligi;

mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlarning soliq hisobotida aks ettirilmaganligi;

realizatsiya qilingan tovarlar qiymatini hisob hujjatlarida haqiqatda realizatsiya qilingan qiymatidan pasaytirilgan narxlar bo‘yicha aks ettirish;

qazib olingan foydali qazilmalar hajmining soliq hisobotida to‘liq aks ettirilmaganligi.

(223-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan o‘n beshinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Ushbu modda uchinchi qismining o‘n uchinchi va o‘n to‘rtinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo‘yicha yashirilgan soliq bazasi summasi oxirgi o‘n ikki oy uchun aniqlanadi.

Hisobvaraq-fakturalarda yoki nazorat-kassa texnikasi cheklarida olingan tovarlar (xizmatlar) nomenklaturasiga yoxud faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlariga va amalga oshiriladigan turlariga muvofiq bo‘lmagan identifikatsiya kodlarini aks ettirish —

hisobvaraq-fakturalarda yoki nazorat-kassa texnikasi cheklarida ko‘rsatilgan realizatsiya qilingan tovarlar (xizmatlar) qiymatining bir foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

(223-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan beshinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son — 2022-yil 1-iyuldan e’tiboran amalga kiritiladi.)

224-modda. Soliqni (yig‘imni) to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik

Soliqni (yig‘imni) noto‘g‘ri hisoblab chiqarish yoki boshqa g‘ayriqonuniy harakatlar (harakatsizlik) natijasida soliq (yig‘im) summasini to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik, agar bunday qilmish ushbu Kodeksning 223, 226 va 227-moddalarida nazarda tutilgan soliqqa oid huquqbuzarliklar alomatlarini o‘z ichiga olmagan bo‘lsa, —

to‘lanmagan soliq (yig‘im) summasining yigirma foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

225-modda. Hisobvaraq-fakturalarni rasmiylashtirish tartibini buzish

Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda, shuningdek qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar bo‘lmagan mahsulot yetkazib beruvchilar tomonidan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobvaraq-fakturada aks ettirganlik, —

mahsulot yetkazib beruvchilarga hisobvaraq-fakturada ko‘rsatilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasining yigirma foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi. Bunda mahsulot yetkazib beruvchi hisobvaraq-fakturada ko‘rsatilgan soliq summasini budjetga to‘lashi shart.

226-modda. Transfert narxni belgilashda soliqlarni to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik

Nazorat qilinadigan bitimlarda soliq solish maqsadida mustaqil shaxslar o‘rtasidagi bitimlarning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlari bilan solishtirib bo‘lmaydigan tijorat va (yoki) moliyaviy shartlar qo‘llanilishi natijasida soliq summalarini soliq to‘lovchi tomonidan to‘lamaganlik yoki to‘liq to‘lamaganlik, —

to‘lanmagan soliq summasining qirq foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

227-modda. Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foyda ulushi soliq bazasiga kiritilmaganligi natijasida soliqni to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining yuridik yoki jismoniy shaxs bo‘lgan nazorat qiluvchi shaxslari tomonidan mazkur kompaniya foydasining ulushi soliq bazasiga kiritilmaganligi natijasida soliq summalarini to‘lamaganlik yoki to‘liq to‘lamaganlik, —

nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining soliq bazasiga kiritilishi lozim bo‘lgan foydasiga nisbatan tegishincha foyda solig‘i bo‘yicha yoki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha to‘lanmagan soliq summasining yigirma foizi miqdorida, lekin o‘n million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

227¹-modda. Fiskal belgilarni aks ettirish yoxud avtomatlashtirilgan hisobga olish o‘lchov vositalari bilan jihozlash yoki soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishini ta’minlash bo‘yicha qonunchilikda belgilangan talablarni yoki tartibni, shuningdek tovarlarni (mahsulotlarni) identifikatsiya vositalari orqali majburiy raqamli markirovkalash qoidalarini buzish

Fiskal belgilarni aks ettirish yoxud avtomatlashtirilgan hisobga olish o‘lchov vositalari bilan jihozlash yoki soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishini ta’minlash bo‘yicha qonunchilikda belgilangan talablarni yoki tartibni buzish, shuningdek tovarlarni (mahsulotlarni) ishlab chiqaruvchilar, import qiluvchilar va sotuvchilar tomonidan identifikatsiya vositalari orqali majburiy raqamli markirovkalash qoidalarini buzish —

realizatsiya amalga oshirilgan oxirgi hisobot choragida olingan sof tushumning ikki foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik jarima qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo‘lsa, —

realizatsiya amalga oshirilgan oxirgi hisobot choragida olingan sof tushumning yigirma foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

(227¹-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 29-maydagi O‘RQ-927-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.05.2024-y., 03/24/927/0379-son)

29-bob. Soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun banklarning javobgarligi

228-modda. Soliq (yig‘im), bo‘nak to‘lovi, penyalar va jarimalarni o‘tkazish to‘g‘risidagi topshiriqnomalarni bajarish muddatlarini buzish

Bank tomonidan soliq (yig‘im), bo‘nak to‘lovi, penya va jarima summasini o‘tkazish to‘g‘risidagi soliq to‘lovchining topshiriqnomasini, soliq organining inkasso topshiriqnomasini bajarmaslik (bajarilishini kechiktirish) —

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasining bir yuz ellikdan bir qismi miqdorida, lekin kechiktirilgan har bir kalendar kun uchun o‘tkazilmagan summa bir foizining beshdan bir qismidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

229-modda. Banklar tomonidan bank hisobvaraqlari va operatsiyalar bo‘yicha ma’lumotnomalarni (ko‘chirmalarni) soliq organiga taqdim etmaslik

Ushbu Kodeksning 134-moddasida nazarda tutilgan ma’lumotnomani (ko‘chirmalarni) bank tomonidan soliq organiga taqdim etmaslik, shuningdek ma’lumotnomalarni (ko‘chirmalarni) belgilangan muddatni buzgan holda yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar bo‘lgan ma’lumotnomalarni (ko‘chirmalarni) taqdim etish, —

ikki million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 134-moddasi.

(29-bobning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

IX BO‘LIM
SOLIQ ORGANLARINING HUJJATLARI VA ULAR MANSABDOR SHAXSLARINING HARAKATLARI (HARAKATSIZLIGI) USTIDAN SHIKOYAT BERISH

30-bob. Soliq organlarining hujjatlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat berish tartibi

230-modda. Shikoyat berish huquqi

Har bir shaxs soliq organlarining normativ xususiyatga ega bo‘lmagan hujjatlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan, agar ushbu shaxsning fikriga ko‘ra bunday hujjatlar, harakatlar (harakatsizlik) uning huquqlarini buzsa, shikoyat berish huquqiga ega.

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka yoki idoraviy normativ hujjatlarga muvofiq tuzilgan, soliq organlarining bir yoki bir nechta jismoniy yoki yuridik shaxsga qaratilgan, yuridik ahamiyatga molik muayyan harakatlarni sodir etishga undovchi ko‘rsatmasi mavjud bo‘lgan hujjat soliq organining normativ xususiyatga ega bo‘lmagan hujjati deb e’tirof etiladi.

(230-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq organlarining normativ-huquqiy hujjatlari ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

Soliq organining sayyor soliq tekshiruvi yoki soliq auditi natijalari bo‘yicha qabul qilgan qarori yuqori turuvchi soliq organi yoki sud tomonidan bekor qilingan taqdirda, ushbu qaror bo‘yicha soliqlarning va moliyaviy

sanksiyalarning undirilgan (to‘langan) summalari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ushbu summalar undirilgan (to‘langan) davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblangan foizlarni inobatga olgan holda qaytarilishi (hisobga olinishi) lozim.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 231 — 236-moddalari.

231-modda. Shikoyat berish tartibi

Soliq organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan yuqori turuvchi soliq organiga yoki sudga shikoyat qilish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

(231-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 20-fevraldagi O‘RQ-910-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.02.2024-y., 03/24/910/0140-son)

Shaxsning soliq organiga yoki sudga soliq organining kuchga kirgan va kuchga kirmagan, normativ xususiyatga ega bo‘lmagan hujjatlari, uning mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilingan murojaati, agar ushbu shaxsning fikriga ko‘ra mazkur hujjatlar, harakatlar yoki harakatsizlik uning huquqlarini buzsa, shikoyat deb e’tirof etiladi.

(231-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 20-fevraldagi O‘RQ-910-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.02.2024-y., 03/24/910/0140-son)

Soliq organining yuqori turuvchi organiga yoki sudga shikoyat berish tegishincha shikoyat bo‘yicha soliq organining yuqori turuvchi organi tomonidan qaror qabul qilinguniga yoki sudning qarori qonuniy kuchga kirguniga qadar shikoyat qilinayotgan qarorni yoki harakatni ijro etishni, shu jumladan qo‘shimcha hisoblangan soliqlar va yig‘imlarni undirishni, shuningdek moliyaviy sanksiyalar qo‘llanilishini to‘xtatib turadi. Soliq to‘lovchi qaysi soliq organining qarori yoki mansabdor shaxsining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilayotgan bo‘lsa, o‘sha organni soliq organining yuqori turuvchi organiga yoki sudga shikoyat berganligi to‘g‘risida tegishli tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda xabardor qilishi shart.

(231-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 20-fevraldagi O‘RQ-910-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.02.2024-y., 03/24/910/0140-son)

(231-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 20-fevraldagi O‘RQ-910-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.02.2024-y., 03/24/910/0140-son)

(231-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 20-fevraldagi O‘RQ-910-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.02.2024-y., 03/24/910/0140-son)

Tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalarining normativ xususiyatga ega bo‘lmagan, shikoyatlarni ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha qabul qilingan hujjatlari ustidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga ham shikoyat qilinishi mumkin.

(231-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 20-fevraldagi O‘RQ-910-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.02.2024-y., 03/24/910/0140-son)

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining normativ xususiyatga ega bo‘lmagan hujjatlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sud tartibida shikoyat qilinadi.

Yuqori turuvchi soliq organiga shikoyat bergan shaxs shikoyat bo‘yicha qaror qabul qilinishiga qadar uni ko‘rib chiqayotgan soliq organiga yozma ariza yuborish yo‘li bilan shikoyatni to‘liq yoki qisman chaqirib olishi mumkin.

(231-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 20-fevraldagi O‘RQ-910-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.02.2024-y., 03/24/910/0140-son)

Yuqori turuvchi soliq organidan shikoyatni chaqirib olish uni bergan shaxsni o‘sha asoslarda shikoyat bilan takroran murojaat qilish huquqidan mahrum etadi.

(231-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 20-fevraldagi O‘RQ-910-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.02.2024-y., 03/24/910/0140-son)

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliq organlarining hujjatlari (shu jumladan normativ hujjatlari), ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sud tartibida shikoyat qilish O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

(231-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 20-fevraldagi O‘RQ-910-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.02.2024-y., 03/24/910/0140-son)

232-modda. Soliq tekshiruvlari natijalari bo‘yicha qabul qilingan soliq organlarining qarorlari ustidan yuqori turuvchi soliq organiga shikoyat berish tartibi va muddatlari

(232-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 20-fevraldagi O‘RQ-910-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.02.2024-y., 03/24/910/0140-son)

Soliq organlarining sayyor soliq tekshiruvlari va soliq auditi natijalari bo‘yicha qabul qilingan qarorlari ustidan shikoyat yuqori turuvchi soliq organiga qarorlari ustidan shikoyat qilinayotgan soliq organi orqali beriladi.

Qarorlari ustidan shikoyat qilinayotgan soliq organi bunday ariza kelib tushgan kundan e’tiboran uch kun ichida uni yuqori turuvchi soliq organiga barcha materiallar bilan birga yuborishi shart.

Soliq organlarining sayyor soliq tekshiruvlari va soliq auditi natijalari bo‘yicha qabul qilingan qarorlari ustidan shikoyat shaxs o‘z huquqlari buzilganligi to‘g‘risida bilgan yoki bilishi kerak bo‘lgan kundan e’tiboran bir oy ichida berilishi mumkin.

Ushbu moddaning uchinchi qismida belgilangan muddat uzrli sababga ko‘ra o‘tkazib yuborilgan taqdirda, ushbu muddat shikoyat berayotgan shaxsning iltimosnomasi bo‘yicha yuqori turuvchi soliq organi tomonidan tiklanishi mumkin.

233-modda. Yuqori turuvchi soliq organiga beriladigan shikoyatning shakli va mazmuni

(233-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 20-fevraldagi O‘RQ-910-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.02.2024-y., 03/24/910/0140-son)

Shikoyat va unga ilova qilinadigan hujjatlar soliq organiga yozma yoki elektron shaklda yuborilishi mumkin.

Shikoyat uni bergan shaxs yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Shikoyatda quyidagilar ko‘rsatiladi:

1) jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi hamda yashash joyi yoki shikoyat berayotgan yuridik shaxsning nomi va manzili;

2) soliq organining normativ xususiyatga ega bo‘lmagan hujjati, mansabdor shaxsning harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilayotgan shikoyat;

3) soliq organining nomi, normativ xususiyatga ega bo‘lmagan hujjat, ustidan shikoyat berilayotgan mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi);

4) shikoyat berayotgan shaxs o‘zining huquqlari qaysi asoslarga ko‘ra buzilgan deb hisoblasa, o‘sha asoslar;

5) shikoyat berayotgan shaxsning talablari.

Shikoyatda telefon raqamlari, elektron pochta manzillari va shikoyatni o‘z vaqtida ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlar ko‘rsatilishi mumkin.

Shikoyat soliq organining normativ xususiyatga ega bo‘lmagan hujjati, uning mansabdor shaxslarining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat berayotgan shaxsning vakolatli vakili tomonidan berilgan taqdirda, shikoyatga ushbu vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Shikoyatga shikoyat berayotgan shaxsning dalillarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi mumkin.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 230 — 232-moddalari.

234-modda. Yuqori turuvchi soliq organi tomonidan shikoyatni ko‘rmasdan qoldirish

(234-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 20-fevraldagi O‘RQ-910-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.02.2024-y., 03/24/910/0140-son)

Yuqori turuvchi soliq organi, agar quyidagilarni aniqlagan bo‘lsa, shikoyatni to‘liq yoki qisman ko‘rmasdan qoldiradi:

shikoyat shikoyatni bergan shaxs yoki uning vakili tomonidan imzolanmagan bo‘lsa yoxud vakilning shikoyatni imzolash uchun vakolatlarini tasdiqlovchi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlar taqdim etilmagan bo‘lsa;

shikoyat ushbu Kodeksda belgilangan shikoyat berish muddati tugaganidan keyin berilgan va uni tiklash to‘g‘risidagi iltimosnomani o‘z ichiga olmagan bo‘lsa yoki shikoyat berish uchun o‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash

rad etilgan bo‘lsa;

shikoyat bo‘yicha qaror qabul qilinishiga qadar shikoyatni bergan shaxs nomidan shikoyatni to‘liq yoki qisman chaqirib olish to‘g‘risidagi ariza kelib tushgan bo‘lsa;

ilgari aynan o‘sha asoslar bo‘yicha shikoyat berilgan bo‘lsa;

shikoyat soliq organining ushbu Kodeksga muvofiq belgilangan tartibda ilgari shikoyat qilingan qarori ustidan berilgan bo‘lsa;

shikoyat ushbu Kodeksning 232-moddasida belgilangan tartib buzilgan holda berilgan bo‘lsa;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 232-moddasi.

shikoyat ushbu Kodeksning 233-moddasi talablariga muvofiq rasmiylashtirilmagan bo‘lsa;

> **Izoh.** shikoyat qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi doirasida yoki soliq to‘lovchi sudga shikoyat masalasi bo‘yicha murojaat qilganda berilgan bo‘lsa.

Shikoyatni ko‘rib chiqayotgan soliq organi shikoyat olingan yoxud shikoyatni to‘liq yoki qisman chaqirib olish to‘g‘risidagi ariza olingan kundan e’tiboran besh kun ichida shikoyatni to‘liq yoki qisman ko‘rmasdan qoldirish haqida qaror qabul qiladi.

Qabul qilingan qaror to‘g‘risida shikoyatni bergan shaxsga qaror qabul qilingan kundan e’tiboran uch kun ichida yozma shaklda xabar beriladi.

Shikoyatni ko‘rmasdan qoldirish shaxsning shikoyat berish uchun ushbu Kodeksda belgilangan muddatlarda shikoyat bilan takroran murojaat qilishiga monelik qilmaydi, bundan ushbu modda birinchi qismining to‘rtinchi va beshinchi xatboshilarida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha shikoyatni ko‘rmasdan qoldirish hollari mustasno.

235-modda. Yuqori turuvchi soliq organi tomonidan shikoyatni ko‘rib chiqish

(235-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 20-fevraldagi O‘RQ-910-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.02.2024-y., 03/24/910/0140-son)

Shikoyatni ko‘rib chiqish davomida uni bergan shaxs o‘z dalillarini tasdiqlovchi qo‘shimcha hujjatlarni shikoyat bo‘yicha qaror qabul qilinguniga qadar taqdim etishga haqli.

Yuqori turuvchi soliq organi shikoyatni, uni bergan shaxsning dalillarini tasdiqlovchi hujjatlarni, shikoyat ko‘rib chiqilishi davomida taqdim etilgan qo‘shimcha hujjatlarni, shuningdek quyi turuvchi soliq organi tomonidan taqdim etilgan materiallarni ko‘rib chiqadi.

Shikoyatni ko‘rib chiquvchi soliq organi o‘z tashabbusiga ko‘ra yoki murojaat qiluvchining iltimosiga ko‘ra shikoyatni eshitishni tashkil etishi mumkin.

Yuqori turuvchi soliq organi shikoyatni ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

shikoyatni qanoatlantirmasdan qoldiradi;

soliq organining normativ xususiyatga ega bo‘lmagan hujjatini bekor qiladi;

soliq organining qarorini to‘liq yoki qisman bekor qiladi;

soliq organining qarorini to‘liq bekor qiladi va ish yuzasidan yangi qaror qabul qiladi;

soliq organlari mansabdor shaxslarining harakatlarini (harakatsizligini) noqonuniy deb e’tirof etadi va ishning mohiyati bo‘yicha qaror chiqaradi.

Agar shikoyat bergan shaxs shikoyat bo‘yicha qaror qabul qilinishiga qadar ushbu shikoyatni ko‘rib chiqish davomida taqdim etilgan qo‘shimcha hujjatlarni qarori ustidan shikoyat berilgan soliq organiga o‘z vaqtida taqdim etish mumkin bo‘lmagan sabablar bo‘yicha tushuntirishlarni taqdim etgan bo‘lsa, bu qo‘shimcha hujjatlar yuqori turuvchi soliq organi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Mazkur qoida ushbu Kodeksning 159 yoki 166-moddalarida nazarda tutilgan tartibda qabul qilingan qarorlar ustidan shikoyat berilganda qo‘llaniladi.

Yuqori turuvchi soliq organi, agar shikoyatni ko‘rib chiqish natijasida soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish tartib-taomilining muhim shartlari buzilganligi aniqlangan bo‘lsa, ushbu Kodeksning 159 yoki 166-moddalarida nazarda tutilgan tartibda qabul qilingan qarorni bekor qilishga haqlidir.

Yuqori turuvchi soliq organi qarorni bekor qilib, ko‘rsatilgan materiallarni, shikoyat bergan shaxsning vajlarini tasdiqlovchi hujjatlarni, shikoyatni ko‘rib chiqish davomida taqdim etilgan qo‘shimcha hujjatlarni va ushbu Kodeksning tegishincha 159 yoki 166-moddalarida nazarda tutilgan tartibda quyi turuvchi soliq organi tomonidan taqdim etilgan materiallarni ko‘rib chiqadi hamda ushbu moddaning to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan qarorni qabul qiladi.

Ushbu Kodeksning 159-moddasida nazarda tutilgan tartibda qabul qilingan qaror ustidan berilgan shikoyat bo‘yicha qaror, soliq auditi natijalari bo‘yicha soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish va (yoki) qo‘shimcha hisoblangan soliqlarni to‘lash to‘g‘risidagi qaror shikoyat olingan sanadan e’tiboran bir oy ichida yuqori turuvchi soliq organi tomonidan qabul qilinadi. Bu muddat soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan quyi turuvchi soliq organlaridan shikoyatni ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni (axborotni) olish uchun yoki shikoyat bergan shaxs qo‘shimcha hujjatlarni taqdim etganda uzaytirilishi, biroq o‘n besh kundan ortiq bo‘lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 159 va 166-moddalari.

Ushbu moddaning sakkizinchi qismida ko‘rsatilmagan shikoyat bo‘yicha qaror soliq organi tomonidan shikoyat olingan sanadan e’tiboran o‘n besh kun ichida qabul qilinadi. Bu muddat soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan quyi turuvchi soliq organlaridan shikoyatni ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni (axborotni) olish uchun yoki shikoyat bergan shaxs qo‘shimcha hujjatlar taqdim etganda uzaytirilishi, biroq o‘n besh kundan ortiq bo‘lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Soliq organi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) shikoyatni ko‘rib chiqish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi qarori shikoyat bergan shaxsga qaror qabul qilingan sanadan e’tiboran uch kun ichida topshiriladi yoki yuboriladi.

Soliq organining shikoyatni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qarori shikoyat bergan shaxsga qaror qabul qilingan sanadan e’tiboran uch kun ichida topshiriladi yoki yuboriladi.

236-modda. Sudlar tomonidan shikoyatlarni ko‘rib chiqish

Soliq organlarining hujjatlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga berilgan shikoyatlar qonunchilikda belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi va hal etiladi.

(236-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

MAXSUS QISM

X BO‘LIM
QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I

31-bob. Soliq to‘lovchilar va soliq solish obyekti

237-modda. Soliq to‘lovchilar

O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi va (yoki) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi quyidagilar qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar deb e’tirof etiladi (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq to‘lovchilar deb yuritiladi):

1) O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

2) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida bir milliard so‘mdan oshgan yoxud ixtiyoriy ravishda qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashga o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

3) O‘zbekiston Respublikasi hududida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi chet el yuridik shaxslari, shuningdek chet davlatning qonunchiligiga muvofiq tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar, agar bunday tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish joyi deb O‘zbekiston Respublikasi e’tirof etilsa;

(237-modda birinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

4) faoliyatni O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari;

5) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo‘yicha — oddiy shirkatning ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs – oddiy shirkatning ishtirokchisi;

6) O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tuvchi shaxslar. Mazkur shaxslar bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

(237-modda birinchi qismining 6-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq majburiyatlari ushbu bo‘limda belgilangan hollarda va tartibda soliq agentlari tomonidan bajariladi.

Quyidagilar soliq to‘lovchilar deb hisoblanmaydi, bundan ushbu moddaning birinchi qismi 6-bandida nazarda tutilgan hollar mustasno:

1) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari — o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish doirasida. Bunda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar deb e’tirof etilishi mumkin;

(237-modda uchinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

2) aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchi shaxslar.

Soliq to‘lovchilar soliq organlarida qo‘shilgan qiymat solig‘ini (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq deb yuritiladi) to‘lovchi sifatida maxsus ro‘yxatdan o‘tkazish hisobida turadi.

(237-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan quyidagilarning tartibi belgilanadi:

soliq organlarida soliq to‘lovchi sifatida maxsus ro‘yxatga olish hisobiga qo‘yilganlik to‘g‘risidagi guvohnomani (bundan buyon ushbu bo‘limda guvohnoma deb yuritiladi) berish;

guvohnomaning amal qilishini to‘xtatib turish, qayta tiklash, tugatish yoki uni bekor qilish;

guvohnoma o‘z vaqtida berilmaganligi yoki uni berish rad etilganligi yoxud guvohnomaning amal qilishi to‘xtatib turilganligi, tugatilganligi yoki uning bekor qilinganligi, shuningdek o‘z vaqtida qayta tiklanmaganligi munosabati bilan soliq organining qarori ustidan shikoyat qilish;

soliq to‘lovchi sifatida maxsus ro‘yxatga olish hisobidan chiqarish.

(237-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuniga asosan beshinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

238-modda. Soliq solish obyekti

Quyidagilar soliq solish obyektidir:

1) realizatsiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma;

2) O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirish.

Faoliyatni O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmani bunday doimiy muassasaning faoliyatidan kelib chiqqan holda belgilaydi.

Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

1) yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan o‘z tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkni realizatsiya qilish;

2) yuridik shaxs qayta tashkil etilayotganda uning mol-mulkini huquqiy vorisga (huquqiy vorislarga) o‘tkazish;

3) ishonchli boshqaruvning muassisi tomonidan mol-mulkni ishonchli boshqaruvchiga berish va ishonchli boshqaruv shartnomasining amal qilish muddati tugagan taqdirda, ishonchli boshqaruvchining o‘zi ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulkni qaytarishi;

4) milliy valyuta yoki chet el valyutasi muomalasi bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirish (bundan numizmatika maqsadlari mustasno).

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 25-moddasi.

32-bob. Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma. Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish joyi

239-modda. Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma

Tovarlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma quyidagilardan iborat:

1) tovarga bo‘lgan mulk huquqini pullik asosda, shu jumladan tovarning qarz shartnomasi bo‘yicha o‘tkazish;

2) tovarni bepul berish, bundan shunday berish iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlaydigan hollar mustasno;

3) mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) berish;

4) tovarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash shartlari asosida berish.

Tovarni realizatsiya qilishdan farq qiluvchi har qanday faoliyat, shu jumladan quyidagilar xizmatlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma deb e’tirof etiladi:

1) pullik asosda xizmatlar ko‘rsatish;

2) bepul xizmatlar ko‘rsatish, shu jumladan mol-mulkni soliq to‘lovchining bepul foydalanishi uchun berish, bundan shunday xizmatlarni ko‘rsatish iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlaydigan hollar mustasno.

Tovarlarni bepul berish yoki bepul xizmatlar ko‘rsatish quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda biriga rioya etilganda iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlaydi deb e’tirof etiladi:

1) daromad olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqarilgan bo‘lsa;

2) shunday tadbirkorlik faoliyatini saqlash yoki rivojlantirish uchun zarur bo‘lsa va xarajatlarning tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liqligi asoslantirilgan bo‘lsa;

3) qonunchilikning qoidalaridan kelib chiqsa.

(239-modda uchinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu bo‘limni qo‘llash maqsadida quyidagilar ham tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmadir:

1) yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida tovarlarni berish (xizmatlar ko‘rsatish);

2) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma) ishtirokchilari o‘rtasida shunday shartnoma doirasida tovarlarni berish (xizmatlar ko‘rsatish);

3) quyidagilarga tovarlarni berish (xizmatlar ko‘rsatish):

a) yuridik shaxs ishtirokchilari tarkibidan ishtirokchi chiqqanda (chiqarilganda) yoki uning yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi kamayganda yoxud ishtirokchidan ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning bir qismi) yuridik shaxs tomonidan qaytarib sotib olinganda, ishtirokchiga;

b) emitent bo‘lgan yuridik shaxs tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalarni qaytarib sotib olishda, aksiyadorga;

v) yuridik shaxs tugatilganda, aksiyadorga yoki ishtirokchiga;

4) xarajatlari ushbu Kodeksning 317-moddasiga muvofiq (bundan 20-bandda nazarda tutilgan xarajatlar mustasno) foyda solig‘ini hisoblab chiqarishda chegirilmaydigan, soliq to‘lovchining o‘z ehtiyojlari uchun soliq to‘lovchi tomonidan ishlab chiqargan tovarlarni berish, o‘z kuchi bilan xizmatlar ko‘rsatish;

5) jismoniy shaxslarga mehnatga haq to‘lash yoki dividendlar to‘lash hisobiga tovarlarni berish (xizmatlar ko‘rsatish);

6) soliq to‘lovchi tomonidan o‘ziga tegishli mol-mulkni (xizmatlarni), agar bunday mol-mulk (xizmatlar) bo‘yicha soliq summasi to‘liq yoki qisman hisobga o‘tkazilgan bo‘lsa, boshqaruv organi a’zolariga, xodimlarga, ularning oila a’zolariga yoxud boshqa shaxslarga soliq to‘lovchining tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy maqsadlarda foydalanish uchun berish (xizmatlar ko‘rsatish);

7) tovarlarni va boshqa mol-mulkni qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berish, agar tovarlar va (yoki) mol-mulk qayta ishlash mahsuli shaklida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo‘lsa;

8) erkin bojxona hududining bojxona tartib-taomiliga soliq to‘lamasdan joylashtirilgan tovarni yo‘qotish, boshqa holatlarda soliqni to‘lash zarur bo‘lgan taqdirda;

9) qaytarilishi lozim bo‘lgan, ko‘p marta muomalada bo‘ladigan idishlarning sotuvchi tomonidan berilishi, agar idish bunday idishdagi mahsulotni yetkazib berishga doir shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmasa.

Tovarlarni (xizmatlarni) olish huquqini beruvchi vaucherlarni realizatsiya qilish yoki bepul berish mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma deb e’tirof etiladi.

240-modda. Tovarlarni realizatsiya qilish joyi

Quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda bittasi bajarilgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi hududi tovarlarni realizatsiya qilish joyi deb e’tirof etiladi:

1) tovar O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan bo‘lsa va bitim natijasida uning hududidan tashqariga chiqarilmaydigan bo‘lsa;

2) tovar jo‘natish yoki transportda tashish boshlangan paytda O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan bo‘lsa.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 239-moddasi.

241-modda. Xizmatlarni realizatsiya qilish joyi

Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, basharti bunday xizmatlarning xaridori O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyatni amalga oshirsa yoki tursa, O‘zbekiston Respublikasi hududi xizmatlarni

realizatsiya qilish joyi deb e’tirof etiladi.

Agar xizmatlarning xaridori O‘zbekiston Respublikasi hududida yuridik shaxsni (uning filiallarini yoki vakolatxonalarini) yoki jismoniy shaxsni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish asosida haqiqatda hozir bo‘lsa, mazkur hudud xaridorning faoliyatni amalga oshirish joyi deb e’tirof etiladi. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan taqdirda, xaridorning O‘zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda hozir bo‘lishi yuridik shaxsning ta’sis hujjatlarida ko‘rsatilgan joy yoki uni boshqarish joyi, uning doimiy muassasasi joylashgan yer (agar xizmatlar ushbu doimiy muassasa orqali olingan bo‘lsa), jismoniy shaxsning yashash joyi asosida belgilanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 239-moddasi.

Quyidagi hollarda ham O‘zbekiston Respublikasi hududi xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb e’tirof etiladi, agar:

1) xizmatlar O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan ko‘chmas mol-mulk bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa. Bunday xizmatlar jumlasiga, xususan, arxitektura loyihasini ishlab chiqish, qurilish faoliyatini tayyorlash va muvofiqlashtirish, arxitektura va qurilish faoliyati ustidan mualliflik va (yoki) texnik nazorat bilan bog‘liq bo‘lgan qurilish, montaj qilish, qurilish-montaj xizmatlari, ko‘chmas mol-mulkka doir ishga tushirish-sozlash, ta’mirlash, restavratsiya qilish ishlari, ko‘kalamzorlashtirish ishlari, shuningdek ko‘chmas mol-mulkni ijaraga berish kiradi;

2) xizmatlar O‘zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda bo‘lgan ko‘char mol-mulk bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa, bundan transport vositalarini ijaraga berish mustasno. Bunday xizmatlar jumlasiga, xususan, ko‘char mol-mulkni montaj qilish, sozlash, yig‘ish, ishlov berish, qayta ishlash, ta’mirlash, texnik xizmat ko‘rsatish, saqlash kiradi;

3) umumiy ovqatlanish, ko‘ngilochar, dam olish va boshqa shunga o‘xshash xizmatlar, turizm, mehmonxona xizmatlari va joylashtiruvi, madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sport, o‘qitish (ta’lim) sohasidagi, shu jumladan malaka imtihonlari o‘tkazish, seminarlar, malaka oshirish kurslarini, pullik ko‘rgazmalarni, konferensiyalarni, simpoziumlarni va boshqa shunga o‘xshash tadbirlarni tashkil etishga doir xizmatlar haqiqatda O‘zbekiston Respublikasi hududida ko‘rsatilsa. Ushbu bandning qoidalari elektron shaklda ko‘rsatiladigan o‘qitish (ta’lim) sohasidagi xizmatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi;

4) tashish va (yoki) transportda tashish bo‘yicha xizmatlar yoxud bevosita tashish va (yoki) transportda tashish bilan bog‘liq xizmatlar quyidagilar tomonidan ko‘rsatiladigan bo‘lsa:

a) O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, agar jo‘natish punkti va (yoki) belgilangan punkt O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo‘lsa. Ushbu kichik bandda ko‘rsatilgan qoida ushbu transport vositalarida tashishni (transportda tashishni) nazarda tutuvchi, kemada vaqtincha yuk tashishga doir shartnoma bo‘yicha (ekipaj bilan bo‘lgan vaqtga) transport vositalarini berish chog‘ida ham qo‘llaniladi. Bunda, agar havo kemalaridan O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan punktlar o‘rtasida tashish uchun foydalaniladigan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi hududi kemada vaqtincha yuk tashish shartnomasiga ko‘ra havo kemalarini foydalanishga berish bo‘yicha xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb e’tirof etilmaydi;

b) chet ellik shaxslar tomonidan, agar jo‘natish punkti va belgilangan punkt O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo‘lsa (bundan chet el yuridik shaxslari tomonidan yo‘lovchilarni, pochtani va yukni ushbu yuridik shaxsning doimiy bo‘lmagan muassasasi orqali tashishga doir xizmatlar mustasno). Ushbu kichik bandning qoidalari tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyigacha transportda tashish chog‘ida bojxona tranzitining bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni bevosita tashish va (yoki) transportda tashish bilan bog‘liq xizmatlarga hamda ushbu qismning 5-bandida ko‘rsatilgan xizmatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi;

5) tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyigacha tashish chog‘ida bojxona tranzitining bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni tashish va (yoki) transportda tashish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar (bundan ushbu qismning 7-bandida ko‘rsatilgan xizmatlar mustasno) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar yoki chet el yuridik shaxsining doimiy muassasasi yoxud yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko‘rsatilsa;

6) havo kemalariga bevosita O‘zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O‘zbekiston Respublikasining havo hududida ko‘rsatiladigan xizmatlar, shu jumladan aeronavigatsiya xizmatlari ko‘rsatilsa;

7) O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tabiiy gazni quvurlar orqali tashishni tashkil etish bo‘yicha xizmatlar O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan ko‘rsatilsa;

8) ijaraga berish paytida O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan transport vositalarini qisqa muddatli ijaraga berish bilan bog‘liq xizmatlar. Agar xizmatlar transport vositalarini uzoq muddatli ijaraga berish bilan bog‘liq bo‘lsa, transport vositalarining joylashgan yeridan qat’i nazar, xizmatlarni sotib oluvchining faoliyatini amalga oshiradigan joyi (joylashgan yeri) bunday xizmatlarning realizatsiya qilish joyi deb e’tirof etiladi. Bunda havo va dengiz kemalariga, vertolyotlarga va temir yo‘l transportining harakatdagi tarkibiga nisbatan shartnoma, agarda u 90 kungacha bo‘lgan muddatga tuzilgan bo‘lsa, qisqa muddatli deb hisoblanadi. Boshqa transport vositalariga nisbatan bunday shartnomalar 30 kungacha bo‘lgan muddatga tuzilgan bo‘lsa, qisqa muddatli deb hisoblanadi;

9) televideniyeda va (yoki) radioda, ommaviy axborot vositalarida va boshqa shakllarda reklamani joylashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining hududida amalga oshiriladigan xizmatlar;

10) ushbu Kodeksning 282-moddasida ko‘rsatilgan elektron shakldagi xizmatlar O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan yoki faoliyatni amalga oshirayotgan shaxslar tomonidan olinsa. Bunda, agar quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda bittasi bajarilsa, O‘zbekiston Respublikasining hududi jismoniy shaxs tomonidan elektron shakldagi xizmatlarni olish joyi deb e’tirof etiladi;

a) xaridorning yashash joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lsa;

b) xaridor tomonidan xizmatlarga haq to‘lash uchun foydalaniladigan bank yoki xaridor tomonidan xizmatlarga haq to‘lash amalga oshiriladigan to‘lov tizimlarining operatori O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo‘lsa;

v) xaridor xizmatlarni olish chog‘ida foydalangan tarmoqning manzili O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lsa;

g) xizmatlarni olish yoki xizmatlarga haq to‘lash uchun foydalaniladigan telefon raqami mansub bo‘lgan mamlakatning xalqaro kodi O‘zbekiston Respublikasi tomonidan berilgan bo‘lsa.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 282-moddasi.

O‘zbekiston Respublikasi, agarda ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan xizmatlarni realizatsiya qilish joyi unda belgilangan mezonlarga muvofiq bo‘lmasa, ushbu xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb e’tirof etilmaydi.

Agar xizmatlar ko‘rsatish asosiy xizmatlarni realizatsiya qilishga nisbatan yordamchi xususiyatga ega bo‘lsa, bunday realizatsiya qilish joyi deb asosiy xizmatlar realizatsiya qilingan joy e’tirof etiladi.

242-modda. Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma amalga oshirilgan sana

Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan hisobvaraq-faktura taqdim etilgan sana yoki tovarlar jo‘natilgan (berilgan) sana, agar ushbu sana hisobvaraq-faktura taqdim etilgan sanadan oldin kelsa, tovarlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir.

Agar tovarni jo‘natish (berish) amalga oshirilmasa, tovarga bo‘lgan mulk huquqi xaridorga o‘tkazilgan kun tovarlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir.

Ko‘chmas mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda, ko‘chmas mol-mulkni boshqa shaxs tasarrufiga o‘tkazish to‘g‘risidagi shartnomaning taraflari tomonidan imzolangan qabul qilib olish-topshirish dalolatnomasi bo‘yicha xaridorga ko‘chmas mol-mulk berilgan sana aylanma amalga oshirilgan sana deb hisoblanadi.

Xizmatlar ko‘rsatilganligi faktini tasdiqlovchi hisobvaraq-faktura yoki boshqa hujjat rasmiylashtirilgan (imzolangan) sana xizmatlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir.

Ushbu moddaning to‘rtinchi qismi qoidalari boshlanishi bir hisobot (soliq) davriga, tamomlanishi esa boshqa hisobot (soliq) davriga to‘g‘ri keladigan xizmatlarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Elektr va (yoki) issiqlik energiyasi, suv, gaz, kommunal xizmatlar, aloqa xizmatlari, moliyaviy va sug‘urta xizmatlari, quvurlar tizimi orqali yuklarni tashishga doir xizmatlar realizatsiya qilinganda, tovarlar (xizmatlar) doimiy (uzluksiz) asosda realizatsiya qilingan boshqa hollarda tovarlar yetkazib berilgan (xizmatlar ko‘rsatilgan) kalendar oyning so‘nggi kuni tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir.

(242-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Obyektlar qurilishida, shu jumladan obyektlarni foydalanish uchun tayyor holda qurishda, shuningdek uzoq (bir soliq hisoboti davridan ortiq) texnologik davriylikdagi uzoq muddatli shartnomalar bo‘yicha, agar tuzilgan uzoq muddatli shartnomalar shartlarida xizmatlarni har oyda topshirish nazarda tutilmagan bo‘lsa, har bir kalendar oyning oxirgi kuni aylanma amalga oshirilgan sana deb hisoblanadi.

Mol-mulk moliyaviy ijaraga (lizingga) berilganda, moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi taraflari tomonidan imzolangan qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga ko‘ra mol-mulk ijaraga oluvchining (lizingga oluvchining) tasarrufiga berilgan sana aylanma amalga oshirilgan sana deb hisoblanadi.

Soliq to‘lovchining o‘z ehtiyojlari uchun tovarlarni berishda (xizmatlar ko‘rsatishda) aylanma amalga oshirilgan sana deb soliq to‘lovchining tegishli ichki hujjati bilan rasmiylashtirilgan, ushbu tovarni berish (xizmatlar ko‘rsatish) amalga oshirilgan kun e’tirof etiladi.

Tovarlar eksport bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan holda O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqilgan taqdirda, quyidagi sanalar tovarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma amalga oshirilgan sana deb hisoblanadi:

1) bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlanadigan bojxona chegarasi haqiqatda kesib o‘tilgan sana;

(242-modda o‘ninchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) bojxonaga oid deklaratsiyalashni amalga oshirgan bojxona organining belgilari qo‘yilgan holda tovarlarga taalluqli bojxona yuk deklaratsiyasi ro‘yxatdan o‘tkazilgan sana – davriy va (yoki) vaqtinchalik bojxonaga oid deklaratsiyalashdan foydalanilgan hollarda.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 22, 47, 75 va 120-moddalari.

33-bob. Soliq solishdan ozod etish

243-modda. Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma

Agar ushbu Kodeksning 260-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, quyidagilarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma soliq solishdan ozod etiladi:

1) maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga qarash bo‘yicha xizmatlarni;

(243-modda birinchi qismining birinchi bandi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 3-dekabrdagi O‘RQ-653-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son)

2) bemorlar va keksalarni parvarish qilish bo‘yicha xizmatlarni;

3) dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlarini, diniy ashyolarni, diniy tashkilotlar hamda birlashmalar tomonidan udumlarni va marosimlarni o‘tkazishga doir xizmatlarni;

4) protez-ortopediya buyumlarini, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun inventarni, shu jumladan ushbu buyumlar va inventarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinadigan buyumlar va inventarni, shuningdek nogironligi bo‘lgan shaxslarga ortopedik protezlash, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mo‘ljallangan protez-ortopediya buyumlarini va inventarni ta’mirlash hamda ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlarni;

(243-modda birinchi qismining 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-maydagi O‘RQ-770-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son)

5) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mahsulotlarini ushbu muassasalar tomonidan realizatsiya qilish;

6) ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizi nogironligi bo‘lgan shaxslardan iborat bo‘lgan hamda nogironligi bo‘lgan shaxslar mehnatiga haq to‘lash fondi umumiy mehnatga haq to‘lash fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan, yagona ishtirokchisi nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari hisoblangan yuridik shaxslar tomonidan realizatsiya qilinadigan ishlab chiqarilgan tovarlarni, ko‘rsatilgan xizmatlarni;

(243-modda birinchi qismining 6-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 17-apreldagi O‘RQ-1131-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.04.2026-y., 03/26/1131/0377-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 19-iyul)

(243-modda birinchi qismining 7-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuniga asosan 2023-yil 1-apreldan chiqariladi — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son)

8) pensiyalar va nafaqalar to‘lashga doir xizmatlarni;

(243-modda birinchi qismining 9-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuniga asosan 2023-yil 1-apreldan chiqariladi — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son)

10) o‘qitish (ta’lim) sohasidagi xizmatlarni, shu jumladan test sinovlari va imtihonlar o‘tkazishni tashkil etish xizmatlarini, xususan:

boshlang‘ich, o‘rta, o‘rta maxsus, professional, oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’lim sohasidagi ta’lim xizmatlarini;

(243-modda birinchi qismi 10-bandining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-sentabrdagi O‘RQ-957-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.09.2024-y., 03/24/957/0689-son)

ta’lim muassasalari (tashkilotlari), shuningdek kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiradigan tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘shimcha ta’lim berish bo‘yicha xizmatlarni;

maktabgacha ta’lim va tarbiya dasturlari doirasida ta’lim va tarbiyalash faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda bolalarga qarash va ularni parvarishlash bo‘yicha xizmatlarni, to‘garaklarda, seksiyalarda (shu jumladan sport seksiyalarida) va studiyalarda voyaga yetmagan bolalar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish bo‘yicha xizmatlarni;

(243-modda birinchi qismining 11-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuniga asosan 2024-yil 1-apreldan chiqariladi — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son)

(243-modda birinchi qismining 12-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuniga asosan 2024-yil 1-apreldan chiqariladi — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son)

(243-modda birinchi qismining 13-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuniga asosan 2024-yil 1-apreldan chiqariladi — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son)

14) sanatoriy-kurort, sog‘lomlashtirish xizmatlarini, shuningdek budjet tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan jismoniy tarbiya va sportga doir xizmatlarni. Ushbu bandning maqsadida:

(243-modda birinchi qismi 14-bandining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

a) sanatoriy-kurort va sog‘lomlashtirish xizmatlari jumlasiga sanatoriylar, shifoxonalar, profilaktoriylar, kurortlar, pansionatlar, dam olish uylari va zonalari, bolalar dam olish oromgohlari hamda boshqa dam olish tashkilotlari tomonidan ularning asosiy faoliyati doirasida ko‘rsatiladigan, ular yuridik shaxslar yoki yuridik shaxslarning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ko‘rsatilishidan qat’i nazar, yo‘llanmalar yoki joysiz davolanish uchun beriladigan hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xizmatlar kiradi;

b) budjet tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan jismoniy tarbiya va sport xizmatlari jumlasiga, xususan, sport inshootlarida, maktablarda, klublarda sport turlari bo‘yicha o‘quv guruhlari hamda jamoalarida sog‘lomlashtirish yo‘nalishidagi jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini o‘tkazishga oid xizmatlar, umumjismoniy tayyorgarlik xizmatlari, sport musobaqalarini yoki bayramlarini, sport-tomosha tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha xizmatlar, shuningdek mazkur tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish uchun sport inshootlarini ijaraga berish kiradi;

(243-modda birinchi qismi 14-bandining “b” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

(O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan 243-modda birinchi qismi 15-bandining chiqarilish sanasi 2025-yil 1-iyul — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son.)

16) uy-joy fondini saqlash va ta’mirlash yuzasidan aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar. Uy-joy fondini saqlash va ta’mirlash yuzasidan ko‘rsatiladigan xizmatlar jumlasiga lift xo‘jaliklari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari va bo‘limlari, uy-joy fondidan foydalanish, uni saqlash va ta’mirlash boshqarmalari hamda bo‘limlarining bevosita aholi tomonidan haq to‘lanadigan xizmatlari, shu jumladan ushbu xizmatlarga uy-joy mulkdorlari shirkatlari orqali haq to‘lash kiradi;

(243-modda birinchi qismining 16-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-avgustdagi O‘RQ-708-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son)

161) boshqaruvchi tashkilotlar yoki ko‘p kvartirali uylarni boshqaruvchilar tomonidan umumiy mol-mulkni boshqarish, unga texnik xizmat ko‘rsatish va uni ta’mirlash, shuningdek ko‘p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalarini obodonlashtirish bo‘yicha ko‘rsatilayotgan xizmatlar hamda bajarilayotgan ishlar;

(243-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-773-sonli Qonuniga asosan 161-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/773/0461-son)

17) tovarlarni (xizmatlarni), agar tovarlarni berish (xizmatlar ko‘rsatish) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bepul amalga oshirilsa;

18) qimmatbaho metallardan ishlangan bank va o‘lchovli quymalarini, qimmatbaho metallardan ishlangan quyma (investitsiya) tangalarni (numizmatika maqsadlari uchun foydalaniladigan tangalardan, shuningdek qimmatbaho metallardan ishlangan chet el tangalaridan tashqari), qimmatbaho metallarni ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan parchalarni va chiqindilarni, qimmatbaho metallarning o‘lchov plastinalari va granulalarini, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlarni;

(243-modda birinchi qismining 18-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

19) bojsiz savdo bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni;

20) yuridik va jismoniy shaxslarga muayyan huquqlar berilganda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va vakolatli organlar, tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni, agar bunday xizmatlar ko‘rsatish shart ekanligi qonunchilikda belgilangan bo‘lsa, faoliyatning muayyan sohasida ushbu organlar va tashkilotlarning zimmasiga yuklatilgan alohida vakolatlarni bajarish doirasida davlat boji yoki boshqa to‘lovlar undiriladi;

(243-modda birinchi qismining 20-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

21) budjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan yer-kadastr, yer tuzish, tuproqqa oid va geobotanika ishlarini;

(243-modda birinchi qismining 22-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuniga asosan 2023-yil 1-apreldan chiqariladi — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son)

23) xalqaro moliyaviy institutlarning qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olinadigan tovarlarni (xizmatlarni), agar ularni soliqdan ozod etish qonunda nazarda tutilgan bo‘lsa;

(243-modda birinchi qismining 23-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

(243-modda birinchi qismining 24-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuniga asosan 2023-yil 1-iyuldan chiqariladi — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son)

25) telekommunikatsiya tarmoqlarida operativ-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga hamda ularga xizmat ko‘rsatishga doir xizmatlar;

26) metsenatlik ko‘magi tarzida beriladigan (ko‘rsatiladigan) tovarlarni (xizmatlarni);

261) davlat mol-mulkini, shu jumladan mulk huquqi asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan yer uchastkalarini;

(243-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan 261-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

27) ushbu Kodeksning 244-moddasida nazarda tutilgan moliyaviy xizmatlarni;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 244-moddasi.

28) ushbu Kodeksning 245-moddasida nazarda tutilgan hayotni sug‘urta qilish xizmatlarini va boshqa sug‘urta xizmatlarini.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 245-moddasi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 260-moddasi.

Ushbu moddada sanab o‘tilgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir aylanma soliq to‘lovchilarda bunday faoliyatni amalga oshirish uchun tegishli litsenziyalar va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, agar uning amalga oshirilishini litsenziyalash lozim bo‘lsa yoki ruxsat etuvchi hujjatlar talab etsa, qonunchilikka muvofiq soliq solishdan ozod etiladi.

(243-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq solinadigan aylanmalarni va ushbu moddaning qoidalariga muvofiq soliq solishdan ozod etiladigan aylanmalarni amalga oshiradigan soliq to‘lovchilar ushbu Kodeksning 268-moddasiga muvofiq aylanmalarning alohida

hisobini yuritishi shart.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 268-moddasi.

244-modda. Soliq solishdan ozod etiladigan moliyaviy xizmatlar

Quyidagi moliyaviy xizmatlar soliq solishdan ozod etiladi:

1) bank operatsiyalari, bundan qiymati qat’iy summada belgilangan xizmatlar mustasno, xususan:

(244-modda birinchi qismi 1-bandining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘larini omonatlarga jalb etish;

yuridik va jismoniy shaxslarning jalb etilgan pul mablag‘larini banklar nomidan hamda ularning hisobidan joylashtirish;

yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan bank kartalari bo‘yicha hisob-kitoblar uchun xizmat qiluvchi bank hisobvaraqlarini yuritish, shuningdek bank kartalariga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq operatsiyalar;

(244-modda birinchi qismi 1-bandining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan vakil banklarning topshirig‘iga ko‘ra ularning bank hisobvaraqlari bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;

yuridik va jismoniy shaxslarga kassa xizmatlarini bank kassalari yoki maxsus asbob-uskunalar (bankomat, avtomatik depozit mashinalar va hokazo) orqali ko‘rsatish;

chet el valyutasining naqd puldagi va naqd pulsiz oldi-sotdisi (shu jumladan chet el valyutasining oldi-sotdi operatsiyalariga doir vositachilik xizmatlari ko‘rsatish);

bank kafolatlarini bajarish (bank kafolati bo‘yicha to‘lov);

(244-modda birinchi qismi 1-bandining sakkizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

majburiyatlarning pul shaklida bajarilishini nazarda tutuvchi uchinchi shaxslar uchun kafillik berish;

akkreditivlar bo‘yicha hisob-kitoblar va to‘lovlar;

(244-modda birinchi qismi 1-bandining o‘ninchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

to‘lov tizimlari, dasturlaridan va uskunalardan foydalangan holda hisob-kitoblarni (to‘lovlarni) amalga oshirish;

2) hisob-kitoblar ishtirokchilari o‘rtasida axborot va texnologik hamkorlikni, shu jumladan hisob-kitoblar ishtirokchilariga bank kartalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar bo‘yicha axborotni to‘plash, unga ishlov berish va uni taqdim etish yuzasidan xizmatlar ko‘rsatilishini ta’minlovchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar;

3) yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini, kooperativlarning pay fondlaridagi va investitsiya pay jamg‘armalaridagi paylarni, qimmatli qog‘ozlarni hamda hosila moliyaviy vositalarni realizatsiya qilish, bundan soliq solinishi lozim bo‘lgan hosila moliyaviy vositalarning asos aktivini realizatsiya qilish mustasno. Ushbu bo‘lim maqsadlarida hosila moliyaviy vositani realizatsiya qilish deganda uning asos aktivini realizatsiya qilish, shuningdek kontrakt bo‘yicha mukofotlar summalarini, variatsiyaga oid marja summalarini to‘lash, hosila moliyaviy vositalar shartlariga muvofiq asos aktiv to‘lovi bo‘lmagan hosila moliyaviy vosita taraflarining boshqa davriy yoki bir martalik to‘lovlari tushuniladi;

4) realizatsiya qilinishi ushbu qismning 3-bandiga binoan soliq solishdan ozod etiladigan hosila moliyaviy vositalar asosida yuzaga keladigan majburiyatlar bo‘yicha huquqlardan (talablardan) boshqa shaxs foydasiga voz kechish (ularni boshqalarga berish);

5) forfeyting va faktoring operatsiyalari;

6) zayomlarni pul shaklida berishga doir shartnomalardan va (yoki) kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar yuzasidan kreditorning huquqlaridan (talablaridan) boshqa shaxs foydasiga voz kechish (ularni

boshqalarga berish, olish) bo‘yicha, shuningdek boshqa shaxs foydasiga voz kechish shartnomasi asosida dastlabki shartnoma yuzasidan qarz oluvchining har bir yangi kreditor oldidagi majburiyatlarining bajarilishga doir operatsiyalar;

7) kreditlarni, zayomlarni pul shaklida va qimmatli qog‘ozlar bilan berish, shu jumladan ular bo‘yicha foizlar bilan birga berish, shuningdek REPO operatsiyalari, shu jumladan REPO operatsiyalari bo‘yicha qimmatli qog‘ozlar berilganligi uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan pul summalari;

8) mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) berishga doir xizmatlarning ushbu xizmatlar bo‘yicha foizli daromadlar olishga taalluqli qismi bo‘yicha;

9) qimmatli qog‘ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar) bilan bog‘liq operatsiyalar. Qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalar jumlasiga qimmatli qog‘ozlarni saqlash, qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqni hisobga olish, qimmatli qog‘ozlarni o‘tkazish hamda ularning reyestrini yuritish, qimmatli qog‘ozlar savdosini tashkil etish bo‘yicha operatsiyalar kiradi, ularni tayyorlash bo‘yicha xizmatlar bundan mustasno;

10) tranzaksiyalarni bir vaqtning o‘zida to‘lov ishtirokchilari o‘rtasida vositachilik haqlarini taqsimlagan holda amalga oshirish bilan bog‘liq to‘lov tizimlarining moliya xizmatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va qimmatli qog‘ozlarga taalluqli qism bo‘yicha qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish bo‘yicha vakolatli organ bilan kelishilgan holda, ushbu moddaning qoidalarini qo‘llash tartibi yuzasidan tushuntirishlar, shu jumladan ayrim aylanmalarni batafsil aniqlashtirish bo‘yicha tushuntirishlar berishga haqli.

245-modda. Soliq solishdan ozod qilinadigan sug‘urta xizmatlari

Sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish xizmatlari bo‘yicha sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sug‘urta qilish bo‘yicha xizmatlar bu xizmatlar natijasida:

1) sug‘urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:

sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari;

qayta sug‘urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo‘yicha vositachilik haqi va tantyemalar;

sug‘urta agenti, sug‘urta va qayta sug‘urta brokeri, syurveyer hamda sug‘urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;

sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveyerlar, assistans xizmatlari va shu singarilar) ko‘rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

qonunchilikka muvofiq sug‘urtalovchiga o‘tgan, sug‘urta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan mablag‘lar;

(245-modda birinchi qismi 1-bandining oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

qayta sug‘urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo‘yicha sug‘urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalari;

bevosita sug‘urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar;

2) sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:

sug‘urta to‘lovi (sug‘urta tovoni);

preventiv tadbirlar o‘tkazish uchun beriladigan mablag‘lar;

sug‘urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug‘urtalovchi to‘laydigan mablag‘lar;

sug‘urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag‘lar.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan birgalikda ushbu modda qoidalarining qo‘llanilish tartibi yuzasidan, ayrim aylanmalarni batafsillashtirgan holda, tushuntirishlar berishga haqli.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 250-moddasi.

246-modda. Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish

Quyidagilarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish soliq solishdan ozod etiladi:

1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikda tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

(246-moddaning 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirilayotgan tovarlar;

3) davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan hollarda — boshqa tashkilotlar va shaxslar yo‘nalishlari bo‘yicha xayriya yordami maqsadlarida, shu jumladan texnik yordam ko‘rsatish (grantlar) uchun olib kiriladigan tovarlar;

(246-moddaning 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

4) chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalarning diplomatik va ma’muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ularning o‘zlari bilan birga yashayotgan oila a’zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo‘ljallangan tovarlar;

5) qonunchilikka muvofiq alohida qimmatga ega madaniy meros obyektlari jamoasiga kiritilgan, davlat madaniyat muassasalari tomonidan olingan yoki ular tomonidan sovg‘aga olingan madaniy qimmatliklar. Ushbu soliq solishdan ozod etish O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining tegishli tasdiqnomasi mavjud bo‘lgan taqdirda qo‘llaniladi;

(246-moddaning 5-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 23-iyuldagi O‘RQ-1160-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.07.2026-y., 03/26/1160/0786-son)

6) o‘xshashi O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan texnologik asbob-uskunalar;

7) xalqaro kitob almashinuvi bo‘yicha davlat kutubxonalari va muzeylari tomonidan olinadigan bosma nashrlarning barcha turlari, shuningdek xalqaro notijorat almashinuvini amalga oshirish maqsadida ixtisoslashtirilgan davlat tashkilotlari tomonidan olib kiriladigan kinematografiya asarlari;

8) milliy valyuta va chet el valyutasi, qonuniy to‘lov vositalari bo‘lgan banknotlar (bundan kolleksiyalash uchun mo‘ljallanganlari mustasno), shuningdek qimmatli qog‘ozlar;

9) xalqaro moliya institutlarining qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olib kiriladigan tovarlar, agar ular olib kirilayotganda soliqdan ozod etilishi qonunda nazarda tutilgan bo‘lsa;

(246-moddaning 9-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

10) maxsus vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig‘i mavjud bo‘lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo‘yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

(246-moddaning 10-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-noyabrdagi O‘RQ-992-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.11.2024-y., 03/24/992/0895-son)

101) maxsus vakolatli davlat organi tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari.

(246-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-noyabrdagi O‘RQ-992-sonli Qonuniga asosan 101-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.11.2024-y., 03/24/992/0895-son)

(246-moddaning 11-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuniga asosan 2024-yil 1-apreldan chiqariladi — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 243 — 245-moddalari.

34-bob. Soliq bazasi

247-modda. Soliq bazasini aniqlashning umumiy qoidalari

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda soliq bazasi soliq to‘lovchi tomonidan ushbu bobga muvofiq o‘zi ishlab chiqargan yoki olgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab aniqlanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 26-moddasi.

Tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasi soliq to‘lovchi tomonidan ushbu bobga va bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlanadi.

(247-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq bazasini aniqlash chog‘ida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum soliq to‘lovchining ushbu tovarlarga (xizmatlarga) pulda va (yoki) natura shakllaridagi to‘lov, shu jumladan qimmatli qog‘ozlar bilan haq to‘lash sifatida olingan barcha daromadlaridan kelib chiqqan holda hisobga olinadi.

Soliq bazasini aniqlash chog‘ida soliq to‘lovchining chet el valyutasida ifodalangan tushumi (xarajatlari) ushbu Kodeksning 242-moddasida belgilangan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma amalga oshirilgan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

Agar sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi shartnomada tovarlarga (xizmatlarga) chet el valyutasida belgilangan summaga teng bo‘lgan summadagi milliy valyutada haq to‘lash nazarda tutilgan bo‘lsa hamda bunda realizatsiya qilingan tovarlarga (xizmatlarga) haq to‘langan sana ularni realizatsiya qilish bo‘yicha ushbu Kodeksning 242-moddasiga muvofiq aniqlanadigan aylanma amalga oshirilgan sanaga to‘g‘ri kelmasa, mazkur sanalarda chet el valyutasi kurslaridagi farq tufayli yuzaga kelgan tushum summasidagi ijobiy yoki salbiy farq soliq bazasini belgilashda hisobga olinmaydi. Bunday ijobiy yoki salbiy farq ushbu Kodeksning XII bo‘limiga muvofiq boshqa daromadlar yoki boshqa xarajatlar tarkibida sotuvchi tomonidan hisobga olinishi lozim.

Ushbu Kodeksning 239-moddasiga muvofiq o‘z ehtiyojlari uchun soliq solish obyekti deb e’tirof etiladigan tovarlar berilgan (xizmatlar ko‘rsatilgan) taqdirda, soliq bazasi soliq to‘lovchi tomonidan ushbu bobga muvofiq aniqlanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 239 va 242-moddalari.

248-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi

Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq bazasi ushbu Kodeksning 176-moddasi talablarini hisobga olgan holda, aksiz solig‘ini (aksiz to‘lanadigan tovarlar, xizmatlar uchun) hisobga olib, unga soliqni kiritmagan holda, bitim taraflari tomonidan qo‘llanilgan narxdan (tarifdan) kelib chiqqan holda realizatsiya qilinadigan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati sifatida aniqlanadi.

Xaridorlarga realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmani amalga oshirish sanasida chegirmalar (boshqa tijorat bonuslari) bergan soliq to‘lovchi soliq bazasini bunday chegirmalar (tijorat bonuslari) chegirib tashlangan holdagi narxdan (tarifdan) kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Soliq bazasi quyidagi hollarda tovarlarning (xizmatlarning) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan tartibga muvofiq aniqlanadigan bozor qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi:

(248-modda uchinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

1) tovarlarni (xizmatlarni) boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlab realizatsiya qilishda;

2) agar ushbu Kodeksning 239-moddasi birinchi qismi 2-bandida yoki ikkinchi qismining 2-bandida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, tovarlarni (xizmatlarni) bepul berishda (ko‘rsatishda);

3) yuridik shaxsning mol-mulkidan ushbu Kodeksning 239-moddasi to‘rtinchi qismi 6-bandiga muvofiq shaxsiy maqsadlarda foydalanishda.

> **Izoh.** Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-son qarori bilan tasdiqlangan Qo‘shilgan qiymat solig‘i bazasini tovarlarning (xizmatlarning) bozor qiymatidan kelib chiqib aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizom.

Agar bitimning narxi tovarlarning (xizmatlarning) bozor qiymatidan past yoki yuqori bo‘lsa, soliq organlari soliq bazasiga tuzatish kiritishga haqli. Soliq to‘lovchi bunday qaror yuzasidan bitimning narxi bozor narxlariga muvofiqligini va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashga qaratilmaganligining asoslarini taqdim etish yo‘li bilan nizolashishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilgan (import qilingan) tovarlarni realizatsiya qilish chog‘ida soliq bazasi ushbu tovarlarni olib kirish (import qilish) chog‘ida budjetga haqiqatda to‘langan soliq hisoblab chiqarilgan qiymatdan past bo‘lishi mumkin emas.

Qaytarib berish sharti bilan qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tovarlar ishlab chiqarish bo‘yicha xizmatlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi ularni qayta ishlashga doir xizmatlarning qiymati asosida, unga soliqni kiritmagan holda, aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha esa ularni qayta ishlashga doir xizmatlarning qiymati asosida, ushbu Kodeksga muvofiq hisoblab chiqarilgan aksiz solig‘i hisobga olingan holda aniqlanadi.

Obyektlarni qurishda, shu jumladan obyektlarni foydalanish uchun tayyor qilib qurishda, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlarni, shuningdek uzoq texnologik (bir hisobot davridan ortiq) davriylikdagi boshqa uzoq muddatli shartnomalarni bajarishda soliq bazasi har bir kalendar oyning oxirida haqiqatda bajarilgan ishlar hajmining ushbu Kodeksning 303-moddasiga muvofiq soliq bazasi kiritilmagan holda aniqlanadigan qiymati asosida aniqlanadi. Agar shartnomaga binoan bu ishlarni materiallar bilan ta’minlash majburiyati buyurtmachining zimmasida bo‘lsa, ushbu materiallarga bo‘lgan mulk huquqi buyurtmachining o‘zida saqlanib qolgan taqdirda, soliq bazasi bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning qiymatidan kelib chiqqan va buyurtmachi materiallarining qiymatini soliq bazasiga kiritmagan holda aniqlanadi.

Jismoniy shaxslarga mehnat haqi hisobiga yoki dividendlar to‘lovlari hisobiga tovarlar berilganda (xizmatlar ko‘rsatilganda), shuningdek ushbu Kodeksning 239-moddasi to‘rtinchi qismi 3-bandida belgilangan hollarda soliq bazasi tovarlarning (xizmatlarning) ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq aniqlanadigan qiymatidan kelib chiqqan va soliqni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Erkin bojxona hududining bojxona rejimiga soliq to‘lamasdan joylashtirilgan tovar yo‘qotilganda soliq bazasi ushbu Kodeksning 254-moddasi birinchi qismiga muvofiq aniqlanadi.

Tovarlarni (xizmatlarni) olishga bo‘lgan huquqni beruvchi vaucherni realizatsiya qilish chog‘ida vaucherning soliq hisobga olingan holdagi qiymati soliq bazasi bo‘ladi.

Olib sotish uchun jismoniy shaxslardan olingan avtomobillar va uy-joy ko‘chmas mulk obyektlari realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi soliq summasini o‘z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi va sotib olish qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Foyda solig‘ini hisoblab chiqarishda ushbu Kodeksning 317-moddasiga muvofiq xarajatlari chegirilmaydigan soliq to‘lovchining o‘z ehtiyojlari uchun o‘zi ishlab chiqargan tovarlardan foydalanilganda (o‘z kuchi bilan xizmatlar ko‘rsatilganda), soliq bazasi ushbu tovarlarning (xizmatlarning) bunday soliq to‘lovchi tomonidan o‘tgan 90 kun davomida realizatsiya qilingan aynan shunday (ular mavjud bo‘lmaganda shunga o‘xshash) tovarlarning (xizmatlarning) o‘rtacha o‘lchangan narxidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan qiymati sifatida, ko‘rsatilgan davrda bunday realizatsiya mavjud bo‘lmaganda esa aksizlar hisobga olingan (aksizosti tovarlar uchun) va soliq qo‘shilmagan bozor narxlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ushbu bo‘limga muvofiq realizatsiya qilishga doir aylanmalari soliq solinmaydigan aylanmalar bo‘lgan chiptalar, abonementlar, yo‘llanmalar (joysiz davolanish uchun berilgan hujjatlar) va xizmatlarni olish huquqini beruvchi boshqa hujjatlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi soliq summasini o‘z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi va ularni sotib olish narxi o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Agar garov bilan ta’minlangan majburiyatni bajarish uchun kreditor tomonidan olingan mol-mulk bo‘yicha ushbu Kodeksning 266-moddasiga muvofiq soliq hisobga olinmagan bo‘lsa, ushbu mol-mulk realizatsiya qilinganda soliq solinadigan baza soliq summasini o‘z ichiga oladigan, mol-mulkni realizatsiya qilish narxi va mazkur mol-mulkning majburiyatni bajarish uchun kredit tashkiloti balansiga olish chog‘idagi qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

(248-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 22-apreldagi O‘RQ-1060-sonli Qonuniga asosan o‘n to‘rtinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.04.2025-y., 03/25/1060/0373-son)

Ushbu Kodeks 46-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hollarda soliq bazasi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan, undirilgan jarimalar taqsimoti tarzida olingan, soliqni o‘z ichiga olgan holda haq summasidan aniqlanadi.

(248-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan o‘n beshinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Soliq bazasini aniqlashning boshqa shartlar va holatlarni hisobga oladigan o‘ziga xos xususiyatlari ushbu Kodeksning 249 — 256-moddalarida belgilanadi.

249-modda. Moliyaviy ijara (lizing) shartnomalari bo‘yicha operatsiyalar amalga oshirilganda soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

Mol-mulk moliyaviy ijaraga (lizingga) berilgan taqdirda, ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) soliq bazasi barcha davriy ijara (lizing) to‘lovlari summasi (shu jumladan, qaytarib sotib olish summasi, agar shartnomada shunday summa nazarda tutilgan bo‘lsa) sifatida, ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) foiz hisobidagi daromadi chegirib tashlangan va soliq hisobga olinmagan holda aniqlanadi.

Ijaraga oluvchi (lizingga oluvchi) tomonidan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasining shartlari bajarilmaganligi sababli moliyaviy ijara (lizing) obyekti qaytarilgan taqdirda, soliq bazasi ijaraga oluvchi (lizingga oluvchi) tomonidan obyekt qaytarilgan sanada bunday obyekt uchun o‘zi to‘lamagan ijara (lizing) to‘lovlarining summasi miqdorida foiz hisobidagi xarajat chegirib tashlangan va soliq hisobga olinmagan holda aniqlanadi.

Ushbu Kodeksning 246-moddasiga muvofiq soliq solishdan ozod etilgan, olib kirilgan texnologik asbob-uskunalar moliyaviy ijaraga (lizingga) berilganda soliq bazasi mazkur asbob-uskunalarni sotib olish narxi va realizatsiya qilish narxi o‘rtasidagi ijobiy farqdan kelib chiqib aniqlanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 246-moddasi.

250-modda. Vositachilik (topshiriq), transport ekspeditsiyasi shartnomalari bo‘yicha operatsiyalar amalga oshirilganda soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

Komitentning (ishonch bildiruvchining) topshirig‘iga ko‘ra komitentga (ishonch bildiruvchiga) tegishli bo‘lgan tovarlar realizatsiya qilingan taqdirda, vositachilik (topshiriq) shartnomasining shartlariga muvofiq bo‘lgan shartlar asosida vositachi (ishonchli vakil) tomonidan uchinchi shaxs bilan tuzilgan bitim bo‘yicha komitent (ishonch bildiruvchi) bunday uchinchi shaxsga xizmatlar ko‘rsatganda soliq bazasi quyidagicha aniqlanadi:

1) vositachining (ishonchli vakilning) soliq bazasi – uning soliqni o‘z ichiga oladigan vositachilik haqi miqdorida;

2) komitentning (ishonch bildiruvchining) soliq bazasi – komitentning (ishonch bildiruvchining) topshirig‘iga ko‘ra vositachi (ishonchli vakil) tomonidan realizatsiya qilingan tovarlarning qiymati, shuningdek soliqni kiritmagan holda vositachi (ishonchli vakil) tomonidan uchinchi shaxs bilan tuzilgan bitim bo‘yicha komitent (ishonch bildiruvchi) bunday uchinchi shaxsga ko‘rsatgan xizmatlarning qiymati miqdorida.

Soliq solishdan ozod etish soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan vositachilik (topshiriq), transport ekspeditsiyasi shartnomalari asosida xizmatlar ko‘rsatishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Vositachilik (topshiriq) shartnomasi shartlariga muvofiq bo‘lgan shartlar asosida komitent (ishonch bildiruvchi) uchun uning topshirig‘iga ko‘ra olingan tovarlar vositachi (ishonchli vakil) tomonidan komitentga (ishonch bildiruvchiga) berilgan taqdirda, uchinchi shaxs tomonidan vositachi (ishonchli vakil) bilan tuzilgan bitim bo‘yicha bunday uchinchi shaxs komitent (ishonch bildiruvchi) uchun xizmatlar ko‘rsatganda vositachining (ishonchli vakilning) soliq bazasi uning soliqni o‘z ichiga oladigan vositachilik haqi miqdorida aniqlanadi.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasida belgilangan, transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo‘yicha mijoz bo‘lgan taraf uchun tashuvchi va (yoki) boshqa yetkazib beruvchilar tomonidan xizmatlar ko‘rsatilgan taqdirda, ekspeditorning soliq bazasi transport ekspeditsiyasi shartnomasida nazarda tutilgan, uning soliqni o‘z ichiga oladigan haqi miqdorida aniqlanadi.

251-modda. Korxona mol-mulk majmuasi sifatida realizatsiya qilinganda soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

Korxona mol-mulk majmuasi sifatida realizatsiya qilinganda, soliq bazasi ushbu moddada belgilangan tartibda, uni realizatsiya qilishning soliqni o‘z ichiga oladigan narxi miqdorida, ushbu korxona mol-mulkining har bir soliq obyekti bo‘yicha alohida aniqlanadi.

Agar korxonani realizatsiya qilish narxi uning tarkibiga kiradigan jami mol-mulkning balans qiymatidan past bo‘lsa, korxonani realizatsiya qilish narxining mazkur mol-mulkning balans qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadigan tuzatish koeffitsiyenti qo‘llaniladi.

Agar korxonani realizatsiya qilish narxi uning tarkibiga kiradigan jami mol-mulkning balans qiymatidan yuqori bo‘lsa, korxonani realizatsiya qilishning debitorlik qarzi summasiga va qimmatli qog‘ozlar qiymatiga kamaytirilgan narxining realizatsiya qilingan korxona tarkibiga kiradigan mol-mulkning debitorlik qarzi summasiga va qimmatli qog‘ozlarning qiymatiga kamaytirilgan balans qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadigan tuzatish koeffitsiyenti qo‘llaniladi. Ushbu qismga muvofiq tuzatish koeffitsiyentini hisob-kitob qilishda qimmatli qog‘ozlarning qiymati, agar u faqat bozor qiymati bo‘yicha qayta baholangan bo‘lsa, chiqarib tashlanadi.

Mol-mulkning har bir turini realizatsiya qilish narxi uning balans qiymatining ushbu moddaning ikkinchi yoki uchinchi qismlarida nazarda tutilgan tartibda belgilanadigan tuzatish koeffitsiyentiga ko‘paytmasi sifatida aniqlanadi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan holatda, debitorlik qarzining summasiga doir tuzatish koeffitsiyenti qo‘llanilmaydi. Agar bunday holda qimmatli qog‘ozlarning qiymati qayta baholangan bo‘lsa, mazkur koeffitsiyent ularning qiymatiga nisbatan ham qo‘llanilmaydi.

Korxona sotuvchisi tomonidan korxona sotilgan narxni ko‘rsatgan holda jamlama hisobvaraq-faktura tuziladi.

Jamlama hisobvaraq-fakturada asosiy mablag‘lar, nomoddiy aktivlar, ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan va ishlab chiqarish uchun mo‘ljallanmagan mol-mulkning boshqa turlari, debitorlik qarzining summalari, qimmatli qog‘ozlarning qiymati hamda balans aktivlarining boshqa pozitsiyalari mustaqil pozitsiyalarga ajratiladi. Jamlama hisobvaraq-fakturaga inventarizatsiya dalolatnomasi ilova qilinadi.

Jamlama hisobvaraq-fakturada har bir mol-mulk turining narxi ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda balans qiymatining tuzatish koeffitsiyentiga ko‘paytmasiga teng deb qabul qilinadi.

Realizatsiya qilinishiga soliq solinadigan mol-mulkning har bir turi bo‘yicha tegishli ravishda soliq stavkasi va tegishli soliq summasi ko‘rsatiladi.

252-modda. Transportda tashishni amalga oshirishda soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

Yo‘lovchilarni, bagajni, yuklarni yoki pochtani temir yo‘l, avtomobil, havo yoki daryo transportida tashishlar amalga oshirilganda soliq bazasi soliqni qo‘shmagan holdagi tashish qiymati sifatida aniqlanadi.

Imtiyozli tariflar bo‘yicha yo‘l hujjatlari realizatsiya qilinganda soliq bazasi ushbu imtiyozli tariflardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Safar boshlanguniga qadar xaridorlarga ishlatilmagan yo‘l hujjatlari uchun pullar qaytarilgan taqdirda, qaytarilishi lozim bo‘lgan summaga soliqning barcha summasi kiritiladi.

Safar tugatilganligi sababli yo‘l davomida yo‘lovchilarga yo‘l hujjatlari qaytarilgan taqdirda, qaytarilishi lozim bo‘lgan summaga yo‘lovchilar yurishi kerak bo‘lgan qolgan masofaga tegishli miqdordagi soliq summasi kiritiladi. Bunday holda soliq bazasini aniqlashda yo‘lovchilarga haqiqatda qaytarilgan summalar hisobga olinmaydi.

253-modda. Muddatli bitimlar bo‘yicha tovarlar (xizmatlar) realizatsiya qilinganda soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

Muddatli bitim deganda shartnomada belgilangan muddat tugagach bevosita ushbu shartnomada ko‘rsatilgan narx bo‘yicha tovarlar yetkazib berilishini (xizmatlar ko‘rsatilishini) taqozo etadigan bitim tushuniladi.

Muddatli bitimlar bo‘yicha tovarlar (xizmatlar) realizatsiya qilinganda soliq bazasi ushbu tovarlarning (xizmatlarning) bevosita shartnomada ko‘rsatilgan, lekin realizatsiya qilingan sanadagi bozor narxlaridan kelib chiqqan

holda hisoblangan qiymatdan past bo‘lmagan qiymati sifatida aniqlanadi.

Uyushgan bozorda muomalada bo‘lmagan hosila moliyaviy vositalar realizatsiya qilinganda soliq bazasi asos aktivning bevosita shartnomada ko‘rsatilgan, lekin realizatsiya qilingan sanadagi bozor narxlaridan kelib chiqqan holda hisoblangan qiymatdan past bo‘lmagan qiymati sifatida aniqlanadi.

Uyushgan bozorda muomalada bo‘lgan va asos aktiv yetkazib berilishini nazarda tutuvchi hosila moliyaviy vositalarning asos aktivi realizatsiya qilinganda, soliq bazasi, agar ushbu moddaning beshinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, asos aktivni realizatsiya qilish amalga oshirilishi kerak bo‘lgan hamda ushbu hosila moliyaviy vositani birja tasdiqlagan tasniflash shartlariga muvofiq belgilangan qiymat sifatida aniqlanadi.

Uyushgan bozorda muomalada bo‘lgan va asos aktiv yetkazib berilishini nazarda tutuvchi opsion kontraktlarning asos aktivi realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi ushbu asos aktivni realizatsiya qilish amalga oshirilishi kerak bo‘lgan va hosila moliyaviy vositani birja tasdiqlagan tasniflash shartlariga muvofiq belgilangan qiymat sifatida, lekin realizatsiya qilish sanasidagi bozor narxlaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilganidan past bo‘lmagan qiymatda aniqlanadi.

Ushbu bo‘limni qo‘llash maqsadida opsion kontrakt (opsion) deganda bir taraf (opsion xaridori) boshqa tarafdan (opsionni sotuvchidan) oldindan belgilangan narx bo‘yicha asos aktivning muayyan sonini sotib olish (“koll” opsioni) yoki sotish (“put” opsioni) huquqini oladigan bitim tushuniladi.

Ushbu moddaning ikkinchi — beshinchi qismlarini qo‘llash maqsadida tovarning, xizmatning yoki asos aktivning narxi aksizlar hisobga olingan (aksiz to‘lanadigan tovarlar uchun) va soliq hisobga olinmagan holda aniqlanadi.

Tovarlarning, xizmatlarning yoki asos aktivning bozor qiymati — ushbu Kodeksning VI bo‘limiga muvofiq, ularni realizatsiya qilish sanasi esa ushbu Kodeksning 242-moddasiga muvofiq aniqlanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 242-moddasi.

Ushbu bo‘limni qo‘llash maqsadida uyushgan bozorda muomalada bo‘lgan hosila moliyaviy vositaning tasniflanishi deganda hosila moliyaviy vositaning shartlarini belgilovchi birja hujjati tushuniladi.

254-modda. Tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasini aniqlash tartibi

Tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasi quyidagilarni qo‘shgan holda hisoblab chiqarilgan ushbu tovarlarning qiymati sifatida aniqlanadi:

1) tovarlarning bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymatini;

(254-modda birinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) tovarlar O‘zbekiston Respublikasiga olib kirilayotganda to‘lanishi lozim bo‘lgan aksiz solig‘i va bojxona bojini.

O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududidan ilgari olib chiqilgan tovarlarning qayta ishlash mahsulotlari ushbu hududga olib kirilayotganda soliq bazasi bunday qayta ishlashning qiymati sifatida aniqlanadi.

Soliq bazasi O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan bir nomdagi, turdagi va markadagi tovarlarning har bir guruhi bo‘yicha alohida aniqlanadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarning bir turkumi tarkibida bir vaqtning o‘zida ham aksiz to‘lanadigan, ham aksiz to‘lanmaydigan tovarlar mavjud bo‘lsa, soliq bazasi mazkur tovarlarning har bir guruhiga nisbatan alohida aniqlanadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlar turkumi tarkibida bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududidan ilgari olib chiqilgan tovarlarning qayta ishlash mahsulotlari mavjud bo‘lsa, soliq bazasi xuddi shunday tartibda aniqlanadi.

255-modda. Tovarlar (xizmatlar) chet ellik shaxslar tomonidan realizatsiya qilinganda soliq agentlari tomonidan soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasining hududi realizatsiya qilish joyi bo‘lgan tovarlar (xizmatlar) soliq to‘lovchilar sifatida soliq organlarida hisobda turmagan chet ellik shaxslar tomonidan realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi soliq

agentlari tomonidan ushbu tovarlarni (xizmatlarni) aksizlar (aksiz to‘lanadigan tovarlar uchun) va soliq hisobga olingan holda realizatsiya qilishdan olingan daromadning summasi sifatida aniqlanadi.

Soliq agentlari deb ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan tovarlarning (xizmatlarning) xaridorlari (ularni oluvchilar) bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari, yakka tartibdagi tadbirkorlar (ushbu moddaning to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno), O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari e’tirof etiladi.

Agar ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan chet ellik shaxslar bilan hisob-kitoblarda O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari, yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki chet el yuridik shaxslarining doimiy muassasalari topshiriq, vositachilik shartnomalari yoki boshqa vositachilik shartnomalari asosida ishtirok etsa, bunday shaxslar soliq agentlari deb e’tirof etiladi. Mazkur hollarda soliq bazasi soliq to‘lovchi tomonidan bunday tovarlarning aksizlar (aksiz to‘lanadigan tovarlar uchun) va soliq hisobga olingan holdagi qiymati sifatida aniqlanadi.

(255-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Ushbu Kodeksning 282-moddasi birinchi qismida ko‘rsatilgan chet el yuridik shaxslari realizatsiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi deb e’tirof etiladigan elektron shakldagi xizmatlarni ko‘rsatgan, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslariga yoki O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslariga topshiriq, vositachilik shartnomalari yoki shunga o‘xshash shartnomalar asosida elektron shakldagi xizmatlar ko‘rsatgan taqdirda, bunday xizmatlarning mazkur xaridorlari soliq agentlari deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir har bir operatsiya amalga oshirilganda soliq bazasi ushbu bo‘limning qoidalari hisobga olingan holda alohida aniqlanadi.

Ushbu moddaga muvofiq soliq agentlari deb e’tirof etiladigan shaxslar tegishli soliq summasini hisoblab chiqarishi, soliq to‘lovchidan, u soliq to‘lovchi ekanligidan yoki soliq to‘lovchi emasligidan qat’i nazar, uni ushlab qolishi va budjetga o‘tkazishi shart.

Agar kontraktlarning shartlariga muvofiq xizmatlar chet ellik shaxslar tomonidan soliqni hisobga olmasdan taqdim etilsa, ushbu xizmatlar bo‘yicha soliq bazasi soliq agentlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlarning qiymatidan kelib chiqqan holda, soliqni hisobga olmasdan aniqlanadi. Bunday holda soliq agenti tegishli soliq summasini mustaqil tarzda hisoblab chiqarishi va budjetga o‘tkazishi shart.

Ushbu moddaning qoidalari mazkur Kodeksning 243 — 245-moddalarida ko‘rsatilgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda qo‘llanilmaydi.

Ushbu moddaga muvofiq soliqning to‘langanligini tasdiqlovchi to‘lov hujjati ushbu Kodeksning 37-bobiga muvofiq to‘langan soliq summasini hisobga kiritish huquqini beradi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 243 — 245-moddalari.

256-modda. Davlat mol-mulki bilan operatsiyalar amalga oshirilganda soliq agentlari tomonidan soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mol-mulki ijaraga berilganda, davlat mulkini ijaraga berish bo‘yicha vakolatli organ soliq agenti deb e’tirof etiladi. Bunday hollarda soliq bazasi bunday mol-mulkning soliq hisobga olingan holdagi ijara shartnomasida belgilangan ijara to‘lovi miqdorida soliq agenti tomonidan aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat mol-mulki realizatsiya qilinganda (berilganda) soliq bazasi soliq agenti tomonidan aniqlanadi. Bunday hollarda ushbu mol-mulkning xaridorlari (uni oluvchilar) soliq agenti deb e’tirof etiladi, bundan yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxslar mustasno. Bunday hollarda soliq bazasi sotib olinayotgan (olinayotgan) davlat mol-mulkining soliq hisobga olinmasdan shartnomada belgilangan qiymati miqdorida soliq agenti tomonidan aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida musodara qilingan mol-mulk, sudning qaroriga binoan realizatsiya qilinadigan mol-mulk, egasiz qimmatliklar, xazinalar va sotib olingan qimmatliklar, shuningdek meros olish huquqi asosida davlatga o‘tkazilgan qimmatliklar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi ushbu mol-mulkni (qimmatliklarni) aksiz

solig‘ini (aksiz to‘lanadigan tovarlar uchun) va soliqni hisobga olgan holda realizatsiya qilishdan olingan daromad summasi sifatida soliq agenti tomonidan aniqlanadi. Bunday hollarda ushbu mol-mulkni realizatsiya qilishni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan organ, tashkilot yoki yakka tartibdagi tadbirkor soliq agenti deb e’tirof etiladi.

Soliq bazasi ushbu moddada nazarda tutilgan har bir operatsiyani amalga oshirish chog‘ida soliq agentlari tomonidan alohida aniqlanadi.

Ushbu moddaga muvofiq soliq agenti deb e’tirof etiladigan shaxslar soliq to‘lovchidan tegishli soliq summasini, u soliq to‘lovchi ekanligidan yoki soliq to‘lovchi emasligidan qat’i nazar, hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi va budjetga to‘lashi shart.

Ushbu moddaning qoidalari ushbu Kodeks 243-moddasi birinchi qismining 261-bandida nazarda tutilgan tovarlarni realizatsiya qilishda qo‘llanilmaydi.

(256-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan oltinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

Ushbu moddaga muvofiq soliq to‘langanligini tasdiqlovchi to‘lov hujjati xaridorga to‘langan soliq summasini ushbu Kodeksning 37-bobiga muvofiq hisobga olish huquqini beradi.

257-modda. Soliq bazasiga tuzatish kiritish

Soliq to‘lovchida soliq bazasiga tuzatish kiritish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

1) tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda;

2) ko‘rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda;

3) bitim shartlari o‘zgarganda, shu jumladan jo‘natilgan tovarlarning, ko‘rsatilgan xizmatlarning narxi va (yoki) soni (hajmi) o‘zgarganda;

4) tovarlarni (xizmatlarni) sotuvchi tomonidan chegirmalar berilganda. Ushbu bandda nazarda tutilgan tuzatish kiritish, agar siylovlar berish shartlari shartnoma shartlarida yoki soliq to‘lovchining narx (tarif) siyosatida nazarda tutilgan bo‘lsa, ilgari amalga oshirilgan tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib berish bo‘yicha soliq bazasini kamaytiradi. Bunday shartlar tovarlar yetkazib berish (xizmatlar ko‘rsatish) shartnomasining muayyan shartlarini xaridor tomonidan bajarishni, shu jumladan tovarlarning (xizmatlarning) muayyan hajmini olishni va muddatidan oldin haq to‘lashni nazarda tutishi mumkin.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 248-moddasi.

Soliq bazasiga uni kamaytirish yoki ko‘paytirish tarafga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchida soliq bazasiga tuzatish kiritish tovarlarga (xizmatlarga) haq to‘lash bo‘yicha majburiyat ushbu Kodeksning 313-moddasiga muvofiq umid qilib bo‘lmaydigan qarzdorlik deb e’tirof etilganda va uni hisobdan chiqarish lozim bo‘lgan hollarda ham amalga oshiriladi. Bunday holda tuzatish kiritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

(257-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

> **Izoh.** Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-son qarori bilan tasdiqlangan Tovarlarga (xizmatlarga) haq to‘lash bo‘yicha majburiyat umid qilib bo‘lmaydigan qarzdorlik deb e’tirof etilganda va uni hisobdan chiqarish lozim bo‘lgan hollarda qo‘shilgan qiymat solig‘i bazasiga tuzatish kiritish tartibi to‘g‘risidagi nizom.

Soliq bazasiga tuzatish kiritish (salbiy yoki ijobiy) qo‘shimcha hisobvaraq-faktura yoki ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan holatlar yuzaga kelganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida va ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan hollar ro‘y bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Soliq bazasi xatolarni tuzatish natijasida o‘zgartirilgan taqdirda, shuningdek ilgari yozib berilgan hisobvaraq-fakturaga o‘zgartish va (yoki) qo‘shimchalar kiritish zarur bo‘lganda ushbu moddaning qoidalari qo‘llanilmaydi. Bunday holda ilgari yozib berilgan hisobvaraq-faktura bekor qilinadi va uning o‘rniga qonunchilikda belgilangan tartibda tuzatilgan hisobvaraq-faktura rasmiylashtiriladi.

(257-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beruvchi tomonidan soliq bazasiga tuzatish kiritish amalga oshirilayotganda, xaridor yetkazib beruvchi tomonidan rasmiylashtirilgan qo‘shimcha hisobvaraq-faktura asosida ilgari o‘zi hisobga olish uchun qabul qilgan soliq summasiga tegishli tarzda tuzatish kiritadi (ko‘paytiradi yoki kamaytiradi).

35-bob. Soliq stavkalari. Soliq davri

258-modda. Soliq stavkalari

Agar ushbu Kodeksning 36-bobida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq stavkasi 12 foiz miqdorida belgilanadi.

(258-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Ushbu Kodeksning 36-bobida nazarda tutilgan hollarda soliq stavkasi 0 foiz miqdorida belgilanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 27-moddasi, 36-bobi.

259-modda. Soliq davri

Ushbu Kodeksning 39-bobida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, bir oy soliq davridir.

(259-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

36-bob. Nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadigan aylanma

260-modda. Eksport operatsiyalariga va ularga tenglashtirilgan operatsiyalarga soliq solish

Nol darajali stavka bo‘yicha soliq solish quyidagilar realizatsiya qilinganda amalga oshiriladi:

1) O‘zbekiston Respublikasi hududidan eksport bojxona tartib-taomiliga olib chiqilgan tovarlar;

2) ilgari O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan, O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan tovarlar va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududidan bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash natijasida olingan (hosil bo‘lgan) tovarlar (qayta ishlash mahsulotlari, chiqindilar va (yoki) qoldiqlar);

3) O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan g‘amlab qo‘yilgan narsalar. Ushbu modda maqsadida havo kemalaridan risoladagidek foydalanilishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan yoqilg‘i va yonilg‘i-moylash materiallari g‘amlab qo‘yilgan narsalar deb e’tirof etiladi;

4) chet eldan keltirilgan tovarlarni tashish chog‘ida bojxona tranziti bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni bevosita O‘zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidagi bojxona organidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyidagi bojxona organigacha tashish yoxud transportda tashish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar;

5) xalqaro tashishlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar.

Nol darajali stavkani ayrim hollarda qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari ushbu Kodeksning 264-moddasida belgilangan.

Nol darajali stavkani qo‘llash huquqini tasdiqlovchi hujjatlar soliq hisoboti bilan birga taqdim etiladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 261 — 263-moddalari.

261-modda. Eksport operatsiyalarini tasdiqlash

Tovarlar eksport qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardan iborat:

1) kontrakt (kontraktning belgilangan tartibda tasdiqlangan ko‘chirma nusxasi);

2) tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqish uchun asos bo‘lgan bojxona yuk deklaratsiyasi, milliy va xorijiy elektron savdo maydonchalarida (elektron savdo platformalarida) xorijiy davlatlarga

realizatsiya qilingan tovarlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish uchun asos bo‘lgan hujjatlar;

(261-modda birinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

3) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan o‘tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar ortilgan transport vositalari bojxona chegarasini kesib o‘tganligini tasdiqlovchi belgisi qo‘yilgan tovarning kuzatuv hujjatlari.

(261-modda birinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar. 2023-yil 1-dekabrdan e’tiboran ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar bo‘lgan davrdagi eksport operatsiyalariga nisbatan ham tatbiq etiladi)

Bojxona organlari tomonidan real vaqt rejimida elektron axborot almashinuvi vositasida soliq organlariga ushbu Kodeksning 133-moddasiga muvofiq tovarlar bojxona chegarasini kesib o‘tganligi to‘g‘risida taqdim etilgan ma’lumotlar tovarlar eksport qilinganligini tasdiqlash uchun asos bo‘ladi.

(261-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar. 2023-yil 1-dekabrdan e’tiboran ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar bo‘lgan davrdagi eksport operatsiyalariga nisbatan ham tatbiq etiladi)

Tovarlar eksportga vositachi (ishonchli vakil) orqali vositachilik (topshiriq) shartnomasi bo‘yicha realizatsiya qilinganda eksportni tasdiqlash uchun komitent (ishonch bildiruvchi) tomonidan qo‘shimcha tarzda soliq to‘lovchining vositachi yoki ishonchli vakil bilan tuzilgan vositachilik shartnomasi yoki topshiriq shartnomasi (shartnomaning ko‘chirma nusxasi) taqdim etiladi.

Tovarlar eksport qilinganligini tasdiqlash uchun amalga oshirilayotgan faoliyatning turiga qarab boshqa hujjatlar taqdim etilishi mumkin. Soliq to‘lovchining amalga oshiriladigan faoliyat turiga qarab nol soliq stavkasini qo‘llash huquqini tasdiqlash uchun zarur bo‘lgan hujjatlar ro‘yxati hamda ularni taqdim etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

(261-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 260-moddasi.

262-modda. O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududida tovarlarni qayta ishlash bo‘yicha xizmatlarga soliq solish

Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo‘yicha xizmatlarga qayta ishlash mahsulotlarini O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqish sharti bilan nol stavka bo‘yicha soliq solinadi.

(262-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo‘yicha xizmatlarga qayta ishlash mahsulotlarini keyinchalik bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq erkin muomalaga chiqarish rejimiga joylashtirgan holda ushbu Kodeksning 258-moddasi birinchi qismida belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha soliq solinishi lozim.

(262-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

263-modda. Xalqaro tashishlar bilan bog‘liq xizmatlarga soliq solish

Nol stavka bo‘yicha soliq solish quyidagilarni realizatsiya qilish chog‘ida amalga oshiriladi:

1) tovarlarni xalqaro tashish bo‘yicha xizmatlarni. Tovarlarni xalqaro tashish deganda tovarlarning jo‘natish punkti yoki belgilangan punkti O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan taqdirda tovarlarni havo kemalari, temir yo‘l transporti va (yoki) avtotransport vositalari orqali tashish tushuniladi;

2) chet eldan keltirilgan tovarlarni tashish chog‘ida bojxona tranziti bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidagi bojxona organidan to O‘zbekiston Respublikasi

hududidan chiqib ketish joyidagi bojxona organigacha tashish yoki transportda tashish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlarni;

3) tashishlar yagona xalqaro tashish hujjatlari asosida rasmiylashtirilgan taqdirda, basharti yo‘lovchilarni, pochtani va bagajni jo‘natish punkti yoki belgilangan punkti O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan bo‘lsa, yo‘lovchilarni, pochtani va bagajni tashish bo‘yicha xizmatlarni;

4) O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga eksport qilinadigan tovarlarni tashish yoki transportda tashish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududidagi qayta ishlash mahsulotlarini O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari bo‘lgan tashuvchilar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni. Ushbu bandning qoidalari, basharti tashish hujjatlarida bojxona organlarining belgilari qo‘yilgan bo‘lsa, qo‘llaniladi;

5) xalqaro tashishda havo kemalariga bevosita O‘zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O‘zbekiston Respublikasining havo hududida ko‘rsatiladigan xizmatlarni, shu jumladan aeronavigatsiya xizmatlarini.

(263-modda birinchi qismining 5-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Ushbu moddaning qoidalari tovarlarni xalqaro tashishni tashkil etishda transport ekspeditsiyasi shartnomalariga asosan ko‘rsatiladigan transport-ekspeditorlik xizmatlariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Ushbu modda maqsadida transport-ekspeditorlik xizmatlari jumlasiga yuklarni qabul qilish va yetkazib berish, ortish-tushirish va saqlash, yuklarni sug‘urtalashni tashkil etish, tovarlarning va transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvi xizmatlari, yetkazib berish muddatlari tugaganidan keyin yuklarni qidirish, ularni ekspeditorning omborxonalarida saqlash xizmatlari kiradi.

(263-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1104-sonli Qonuniga asosan ikkinchi va uchinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1104/1213-son)

264-modda. Ayrim hollarda nol darajali stavkaning qo‘llanilishi

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish aylanmasi to‘langan soliqni qoplash (qaytarish) yo‘li bilan nol darajali stavkasi bo‘yicha tortiladi, agar ushbu tovarlar (xizmatlar) quyidagicha olinsa:

1) chet el diplomatik vakolatxonalarining va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalar diplomatik va ma’muriy-texnik xodimlarining (shu jumladan ular bilan birga yashaydigan oila a’zolarining) shaxsiy foydalanishi uchun;

2) Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida tovarlarni (xizmatlarni) sotib olayotgan soliq to‘lovchilar tomonidan, agar bitimda nol darajali stavka qo‘llanilishi nazarda tutilgan bo‘lsa.

Agar tegishli chet davlatning qonunchiligida O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalariga va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga, ushbu vakolatxonalarning diplomatik hamda ma’muriy-texnik xodimlariga (shu jumladan ular bilan birga yashaydigan oila a’zolariga) nisbatan xuddi shunday tartib belgilangan bo‘lsa yoxud bunday norma O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan bo‘lsa, nol darajali stavkani qo‘llash ushbu moddaning birinchi qismi 1-bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

(264-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

(264-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuniga asosan 2024-yil 1-apreldan chiqariladi — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son)

Nol darajali stavka qimmatbaho metallarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan qimmatbaho metallarni olish bo‘yicha vakolatli organga realizatsiya qilinadigan bunday metallarga nisbatan qo‘llaniladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 260 — 263-moddalari.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan yetishtirilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (bundan paxta va g‘alla mustasno) ro‘yxatiga kiritilgan tovarlarni realizatsiya qilish aylanmasiga nisbatan nol darajali stavkada soliq solinadi.

(264-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

37-bob. Soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi. Soliq hisobotini taqdim etish tartibi

265-modda. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi

Ushbu Kodeksning 247 — 257-moddalariga muvofiq soliq bazasini aniqlashda soliq summasi soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo‘lgan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq summasi tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir operatsiyalarning soliq bazasidan, tegishli soliq davriga taalluqli bo‘lgan aylanmalarni amalga oshirish sanasidan kelib chiqqan holda, tegishli soliq davrida soliq bazasini ko‘paytiradigan yoki kamaytiradigan barcha o‘zgartishlar hisobga olingan holda har bir soliq davrining yakunlariga ko‘ra hisoblab chiqariladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning II bo‘limi.

Tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliqning umumiy summasi ushbu Kodeksning 254-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq bazasining soliq stavkasiga mos keladigan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Agar ushbu Kodeksning 254-moddasi to‘rtinchi qismida belgilangan talablarga muvofiq soliq bazasi O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlarning har bir guruhi bo‘yicha alohida aniqlansa, soliq summasi mazkur soliq bazalarining har biri bo‘yicha alohida hisoblab chiqariladi. Bunda soliqning umumiy summasi bunday soliq bazalarining har biri bo‘yicha alohida hisoblab chiqarilgan soliq summalarini qo‘shish orqali hisoblab chiqariladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 247 — 257-moddalari.

266-modda. To‘langan soliq summalarini hisobga olish

Budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini aniqlashda, agar ushbu Kodeksning 267-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchi haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha to‘langan (to‘lanishi lozim bo‘lgan) soliq summasini hisobga olish orqali ushbu Kodeksning 265-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliqning umumiy summasini kamaytirishga, quyidagi shartlarni bir vaqtda bajargan taqdirda, haqli bo‘ladi:

1) soliq to‘lovchining tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish (xizmat ko‘rsatish) bilan bog‘liq faoliyatini amalga oshirish chog‘ida tovarlardan (xizmatlardan), foydalanilganda realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmasiga soliq solinishi, shu jumladan nol stavka bo‘yicha soliq solinishi lozim bo‘lganda;

2) olingan tovarlarga (xizmatlarga) soliq to‘lovchi tomonidan hisobvaraq-faktura yoki yetkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan soliq summasi alohida ajratib ko‘rsatilgan boshqa hujjat olinganda hamda tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beruvchi soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilganda;

3) tovarlar olib kirilgan (import qilingan) taqdirda soliq budjetga to‘langanda;

4) ushbu Kodeksning 255, 256 va 266¹-moddalarida nazarda tutilgan hollarda soliq budjetga to‘langanda;

(266-modda birinchi qismining 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

5) nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadigan tovarlar eksportida chet ellik sotib oluvchi (to‘lovchi) tomonidan eksport qilinayotgan tovarlar uchun haq to‘langanligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko‘chirma mavjud bo‘lsa, bundan ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

(266-modda birinchi qismining 5-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 237, 265, 267 — 274-moddalari.

Nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadigan tovarlarni eksportga realizatsiya qilish aylanmasi maqsadida foydalaniladigan, haqiqatda olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan (to‘langan) soliq tovarlar eksportidan soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag‘iga kelib tushgan valyuta tushumining ulushida hisobga olinadi, bundan ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

(266-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Agar soliq to‘lovchi oxirgi bir yil davomida valyuta tushumlarini o‘z vaqtida ta’minlab kelayotgan va eksport shartnomalari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorligi bo‘lmagan intizomli soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan bo‘lsa, eksport qilinadigan tovarlar uchun ishlatilgan, haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan (to‘langan) soliq summasi soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlariga chet el valyutasi tushumi kelib tushishidan qat’i nazar hisobga olinadi. Tovarlar “eksport” bojxona rejimi ostida chiqarilgan kundan e’tiboran bir yuz sakson kalendar kuni ichida valyuta tushumi yoki uning bir qismi soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlariga kelib tushmagan taqdirda, hisobga olingan soliq summasi yoki uning tegishli qismi belgilangan tartibda hisobdan chiqariladi.

(266-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Nol darajali stavka bo‘yicha tortiladigan tovarlar eksporti vositachilik, topshiriq shartnomasi bo‘yicha vositachi, ishonchli vakil orqali amalga oshirilgan taqdirda, soliq vositachining, ishonchli vakilning yoki soliq to‘lovchining hisobvarag‘iga kelib tushgan valyuta tushumining summasi ulushida hisobga olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududi realizatsiya qilish joyi deb e’tirof etilmaydigan xizmatlarni ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari ushbu bobda belgilangan tartibda haqiqatda olingan tovarlar bo‘yicha to‘langan (to‘lanishi lozim bo‘lgan) soliq summasini hisobga olish huquqiga ega. Bunda ushbu bobni qo‘llash maqsadida bunday xizmatlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmadan olinadigan soliq solinadigan aylanmaga tenglashtiriladi.

Soliq to‘lovchi tomonidan asosiy vositalar (shu jumladan o‘rnatiladigan asbob-uskunalar), nomoddiy aktivlar va ko‘chmas mulk obyektlari, shu jumladan qurilishi tugallanmagan obyektlar sotib olinganda, shuningdek kelgusida o‘z asosiy vositalari sifatida foydalanish uchun mo‘ljallangan aktivlarni yaratish uchun tovarlar (xizmatlar) sotib olinganda sotuvchi tomonidan soliq to‘lovchiga taqdim etilgan soliq summasini hisobga olish to‘liq hajmda amalga oshiriladi. Soliq to‘lovchi O‘zbekiston Respublikasi hududiga bunday tovarlarni olib kirish chog‘ida ushbu soliq to‘lovchi tomonidan to‘langan soliq summasini hisobga olish xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi.

Mol-mulk ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida olingan taqdirda, oluvchi mol-mulkni ustav fondiga (ustav kapitaliga) berish chog‘ida ishtirokchi tomonidan to‘langan soliq summasini hisobga olish huquqiga ega. Ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida olingan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va ko‘chmas mol-mulk obyektlari, shu jumladan qurilishi tugallanmagan obyektlar bo‘yicha ishtirokchi ularni berish chog‘ida to‘lagan soliq ushbu moddaning oltinchi qismida nazarda tutilgan tartibda berilgan aktivlarni oluvchi soliq to‘lovchida hisobga olinadi.

(266-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Soliq to‘lovchi bo‘lmagan shaxs soliq to‘lovchi sifatida ushbu Kodeksning 237-moddasiga muvofiq maxsus ro‘yxatga olish hisobiga qo‘yilganda, shuningdek soliq to‘lashdan ozod etish bekor qilingan taqdirda, soliq to‘lovchi maxsus ro‘yxatga olish hisobiga qo‘yish (ozod qilishni bekor qilish) sanasida o‘z balansida mavjud bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlarining va uzoq muddatli aktivlarning balans qiymatida hisobga olingan soliq summasini, ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan shartlarga rioya etilgan taqdirda, hisobga olish huquqiga ega.

(266-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Ushbu moddaning sakkizinchi qismiga muvofiq hisobga olinadigan soliq summasi:

(266-modda to‘qqizinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

tovar-moddiy zaxiralarning qoldiqlari bo‘yicha — shaxs ro‘yxatdan o‘tkazish hisobiga qo‘yilgan sanadan oldingi so‘nggi o‘n ikki oy ichida olingan, soliq to‘lovchida uni ro‘yxatdan o‘tkazish hisobiga qo‘yish (ozod etishni bekor qilish) sanasida mavjud bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralar qoldig‘iga to‘g‘ri keladigan tovarlarning (xizmatlarning) haqiqiy qiymati bo‘yicha;

uzoq muddatli aktivlar bo‘yicha — mazkur obyektlarning shaxs soliq bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish hisobiga qo‘yilgan (ozod etish bekor qilingan) sanadagi qayta baholanishi hisobga olinmagan, soliqning tegishli summasini o‘z ichiga olgan balans (qoldiq) qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Agar soliq to‘lovchi sifatida hisobda turmaydigan chet ellik shaxs komitent (ishonch bildiruvchi) bo‘lsa, tovar tegishli vositachilik (topshiriq) shartnomasiga muvofiq shartlar asosida vositachi (ishonchli vakil) tomonidan realizatsiya qilingan taqdirda, ushbu tovar O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilganda to‘langan soliq summasi tegishli soliq davrida vositachi (ishonchli vakil) tomonidan realizatsiya qilingan tovarlar ulushiga to‘g‘ri keladigan ulushda vositachi (ishonchli vakil) tomonidan hisobga olish uchun qabul qilinadi.

(266-moddaning o‘ninchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi yoki yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lgan komitentning (ishonch bildiruvchining) topshirig‘iga ko‘ra olingan tovar O‘zbekiston Respublikasi hududiga vositachi (ishonchli vakil) tomonidan olib kirilgan taqdirda, import qilingan tovarning bojxona rasmiylashtiruvi chog‘ida vositachi (ishonchli vakil) tomonidan to‘langan soliq komitentda (ishonch bildiruvchida) hisobga olinishi lozim.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni bajarish chog‘ida ekspeditor tomonidan tashuvchidan va (yoki) boshqa yetkazib beruvchilardan olingan xizmatlarga doir soliq summasi bunday shartnoma bo‘yicha ekspeditorning mijozi bo‘lgan tarafda hisobga olinadi.

Sotuvchilar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining soliq to‘lovchisi bo‘lmagan chet ellik shaxsga ushbu chet ellik shaxs tomonidan O‘zbekiston Respublikasida tovarlarni (xizmatlarni) olish chog‘ida taqdim etilgan yoki ushbu chet ellik shaxslar tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish maqsadlari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishi chog‘ida ular tomonidan to‘langan soliq summalari hisobga olinishi lozim. Soliqning mazkur summalari ushbu Kodeksning 255-moddasiga muvofiq soliq agenti tomonidan ushbu chet ellik shaxsning daromadlaridan ushlab qolingan soliq budjetga to‘languniga qadar, ushbu shaxs olgan (olib kirgan) tovarlardan (xizmatlardan) faqat soliq agenti qiymatidan soliqni ushlab qolgan tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish maqsadida foydalanilgan qismi bo‘yichagina hisobga olinishi yoki ushbu chet ellik shaxsga qaytarilishi lozim. Bunda soliqning mazkur summalari, basharti chet ellik shaxs ushbu Kodeksning 237-moddasiga muvofiq soliq to‘lovchi sifatida maxsus ro‘yxatdan o‘tkazish hisobiga qo‘yilgan bo‘lsa, hisobga olinishi yoki ushbu shaxsga qaytarilishi lozim.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 255-moddasi.

Agar soliq to‘lovchi realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmasiga soliq solinishi lozim bo‘lgan tovarlarni (xizmatlarni), shuningdek realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmasi soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilsa, hisobga olinishi lozim bo‘lgan soliq summasi ushbu Kodeksning 268-moddasida belgilangan tartibda aniqlanadi.

Agar hisobga olish huquqi tovarlarni (xizmatlarni) olish bo‘yicha qalbaki yoki ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan bitim natijasida vujudga kelganligiga oid dalillar mavjud bo‘lsa, soliq organlari hisobga olishni bekor qilishni yoki unga tuzatishni amalga oshirishga haqli.

266¹-modda. Soliq summalarini hisobga olishning ayrim o‘ziga xos xususiyatlari

Guvohnomasining amal qilishi to‘xtatib turilgan yoki tugatilgan yoxud bekor qilingan soliq to‘lovchi tomonidan haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha to‘langan (to‘lanishi lozim bo‘lgan) soliq summasi hisobga olinmaydi. Mazkur hodisalar yuzaga kelganda, bunday soliq to‘lovchiga undan haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha to‘langan (to‘lanishi lozim bo‘lgan) soliq summasi uning xaridorlarida ham hisobga olinmaydi.

Guvohnomaning amal qilishi to‘xtatib turilganligi munosabati bilan hisobga olish uchun qabul qilinmagan, haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha to‘langan (to‘lanishi lozim bo‘lgan) soliq summasi guvohnomaning amal qilishi qayta tiklangan taqdirda, guvohnomaning amal qilishi to‘xtatib turilgan sanadan e’tiboran soliq to‘lovchida va uning xaridorlarida hisobga olinadi (tuzatiladi).

(266¹-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Hisobvaraq-fakturalar soliq xavfining yuqori darajasiga kiritilgan taqdirda, mazkur hisobvaraq-fakturalar asosida tovarlarni yetkazib berish (xizmatlar ko‘rsatish) bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha soliq summasini hisobga olish maqsadida soliq soliq agenti tomonidan to‘lanishi mumkin. Bunda soliq to‘lovchi bo‘lgan va soliq to‘lovchidan tovarlarni (xizmatlarni) oluvchi yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor yoki o‘zini o‘zi band qilgan shaxs soliq agenti deb e’tirof etiladi.

Tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beruvchida soliq bo‘yicha salbiy farq yoki ortiqcha to‘lov summasi hosil bo‘lgan taqdirda, bunday summa soliq bo‘yicha kelgusi to‘lovlar hisobidan hisobga olinishi yoxud ushbu Kodeksda belgilangan tartibda qoplanishi (qaytarilishi) mumkin.

Tovarlarni yetkazib beruvchilar (xizmatlar ko‘rsatuvchilar) tomonidan rasmiylashtirilgan hisobvaraq-fakturalarning yuqori xavf darajasiga kirishi ular tomonidan olingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini ushbu bo‘limda belgilangan tartibda hisobga olish huquqidan mahrum etmaydi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollarda soliq summalari soliq agentida tegishli soliq summasi budjetga to‘langan soliq davrida hisobga olinadi, bundan ushbu moddaning yettinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Hisobot taqdim etishning oxirgi muddati yetib kelmagan soliq davriga taalluqli hisobvaraq-fakturalar bo‘yicha to‘lov amalga oshirilgan taqdirda, soliq agentida mazkur hisobvaraq-fakturalar sanasi bo‘yicha tegishli soliq davrida hisobga olinadi.

Hisobvaraq-fakturalarning xavf darajasini aniqlash, reyestrini yuritish, bunday hisobvaraq-fakturalar asosida soliq to‘lash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Agar xaridor tomonidan past xavf darajasiga kiritilgan hisobvaraq-fakturalar bo‘yicha hisobga olingan soliq summalari qalbaki yoki ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan bitim natijasida yuzaga kelganligiga oid dalillar mavjud bo‘lsa, soliq organlari ushbu hisobvaraq-fakturalar bo‘yicha hisobga olishni bekor qilishga yoki unga tuzatish kiritishga haqli, bundan xaridor tomonidan dastlab yuqori xavf darajasiga kiritilgan hisobvaraq-fakturalar bo‘yicha ushbu moddada belgilangan tartibda soliq to‘langanligi sababli hisobga olingan soliq summalari mustasno.

(266¹-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan uchinchi — to‘qqizinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

267-modda. Hisobga olinmaydigan soliq summasi

Tovarlarni (xizmatlarni) olish (olib kirish) chog‘ida soliq to‘lovchi tomonidan to‘langan soliq summasi ushbu Kodeksning 266-moddasiga muvofiq quyidagi hollarda hisobga olinmaydi:

1) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmalari ushbu bo‘limga muvofiq soliq solishdan ozod etilgan tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish (xizmatlar ko‘rsatish) uchun mo‘ljallangan asosiy vositalar, ko‘chmas mulk obyektlari va nomoddiy aktivlar sotib olinganda (olib kirilganda);

2) tovarlar (xizmatlar) ushbu qismning 1-bandida ko‘rsatilgan asosiy vositalarni, ko‘chmas mulk obyektlarini qurish, modernizatsiyalash, rekonstruksiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va ta’mirlash uchun sotib olinganda;

3) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmalari soliqdan ozod etilgan tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish (xizmatlar ko‘rsatish) uchun sotib olinganda;

4) tovarlar (xizmatlar) soliq to‘lovchi bo‘lmagan yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan sotib olinganda;

5) vakillik xarajatlari;

6) tovarlar (xizmatlar) bepul olinganda, bundan oluvchi ular bo‘yicha soliq to‘lagan hollar mustasno;

7) soliq to‘lovchining shaxsiy ehtiyojlari uchun foydalanishga mo‘ljallangan, ushbu Kodeksning 317-moddasiga muvofiq foyda solig‘ini hisoblab chiqarishda xarajatlar chegirib tashlanmaydigan tovarlar (xizmatlar) sotib olinganda.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 317-moddasi.

Yuqori xavf darajasiga kiritilgan hisobvaraq-fakturalar asosida tovarlarni (xizmatlarni) xarid qilgan xaridorlar tomonidan mazkur hisobvaraq-fakturada ko‘rsatilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi hisobga olinmaydi, bundan ushbu Kodeksning 266¹-moddasida nazarda tutilgan tartibda soliq summasi to‘langan hollar mustasno.

(267-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Soliq to‘lovchi tovarlarni (xizmatlarni) sotib olish chog‘ida to‘lagan soliq summalari quyidagi tovarlarni (xizmatlarni) sotib olish yoki olib kirish chog‘ida ham, agar bu tovarlarni (xizmatlarni) sotib olish amalga oshirilayotgan faoliyat turiga bog‘liq bo‘lmasa, hisobga olinmaydi:

1) yengil avtomobillarni, mototsikllarni, vertolyotlarni, motorli qayiqlarni, samolyotlarni, shuningdek motorli vositalarning boshqa turlarini va ular uchun yoqilg‘ini;

2) alkogol va tamaki mahsulotlarini.

Ushbu Kodeksning 268 — 270-moddalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, hisobga olinmaydigan soliq summasi sotib olingan tovarlarning (xizmatlarning) qiymatida hisobga olinadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 268 — 270-moddalari.

268-modda. Soliq solishdan ozod etiladigan realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma mavjud bo‘lganda soliq summasini hisobga olish uchun qabul qilish tartibi

Agar soliq to‘lovchi soliq solinadigan va soliq solishdan ozod etiladigan aylanmalarni amalga oshirsa, soliq solinadigan aylanmaga to‘g‘ri keladigan soliq summasi hisobga olish uchun qabul qilinadi.

Hisobga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan soliq summasi soliq to‘lovchining tanloviga ko‘ra alohida-alohida usulda va (yoki) mutanosib usulda aniqlanadi.

Alohida-alohida usul bo‘yicha soliq to‘lovchi soliq solinadigan va soliq solishdan ozod etilgan aylanmalar uchun foydalaniladigan, olingan tovarlarning (xizmatlarning) hamda ular bo‘yicha to‘langan soliq summalarining alohida-alohida hisobini yuritadi. Bunda alohida-alohida hisobni yuritish imkoni bo‘lmagan umumiy xarajatlar bo‘yicha xarajatlarni ajratish mutanosib usulda amalga oshiriladi.

Mutanosib usul bo‘yicha soliq to‘lovchi tomonidan hisobga olish uchun qabul qilinadigan soliq summasi soliq solinadigan aylanma summasining tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish (soliqni hisobga olmasdan) bo‘yicha aylanmaning umumiy summasidagi joriy kalendar yil ichida o‘sib boruvchi yakun bilan aniqlanadigan solishtirma miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Mutanosib usuldan foydalanish chog‘ida hisobga olish uchun qabul qilinmagan soliq, shuningdek ushbu Kodeksning 269-moddasida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinishi lozim bo‘lgan soliq summasiga tuzatish kiritilgan hollarda hisobga olishga qabul qilinmagan soliq soliq to‘lovchi tomonidan foyda solig‘ini hisoblab chiqarish chog‘ida chegirib tashlanadigan xarajatlar tarkibida hisobga olinadi.

Agar soliq solinadigan aylanmalarning ulushi joriy soliq davrida aylanma umumiy summasining 5 foizidan oshib ketmasa, soliq to‘lovchi haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar bo‘yicha), shu jumladan uzoq muddatli aktivlar bo‘yicha to‘langan (to‘lanishi lozim bo‘lgan) soliq summasini joriy soliq davrida olingan tovarlarning (xizmatlarning) qiymatiga to‘liq kiritishga haqli.

269-modda. Hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summalariga tuzatish kiritish

Ilgari tovarlarni (xizmatlarni) olish chog‘ida hisobga olish uchun qabul qilingan, olingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha soliq summasiga quyidagi hollarda tuzatish kiritilishi lozim:

1) tovarlardan (xizmatlardan) kelgusida soliq solishdan ozod etilgan aylanma uchun foydalanilganda;

2) ular buzilganda yoxud qonunchilikka muvofiq vakolatli organ tomonidan, ular yo‘qligida esa soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan tabiiy kamayish normalaridan ortiqcha yo‘qotilgan taqdirda. Ushbu bandning qoidasi favqulodda holatlar (tabiiy ofat, yong‘in, avariya, yo‘l-transport hodisasi va boshqa shu kabi holatlar) munosabati bilan tovarlarning buzilishiga yoxud yo‘qotilishiga nisbatan tatbiq etilmaydi;

(269-modda birinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

3) yetkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalar qonunchilikda belgilangan tartibda haqiqiy emas deb e’tirof etilganda;

(269-modda birinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

4) soliq to‘lovchi maqomini yo‘qotganda (yoki soliq to‘lashdan ozod qilinganda);

5) ushbu tovarlar soliq organlarida hisobga qo‘yilmagan shartnomalar asosida ijaraga olingan yoki bepul foydalanilayotgan ko‘chmas mulk obyektlarida saqlanganda.

(269-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan 5-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Sotib olingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha ushbu Kodeks 267-moddasi birinchi qismining 1 — 4-bandlariga muvofiq ilgari hisobga olish uchun qabul qilinmagan soliq summasi kelgusida ulardan soliq solinadigan aylanma uchun foydalanilgan hollarda tuzatiladi (hisobga olinadi).

(269-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Tuzatish kiritilishi lozim bo‘lgan soliq summasi bunday tuzatishlarni amalga oshirishdan oldingi oxirgi o‘n ikki oy ichida olingan tovarlarning (xizmatlarning) soliq summasi qayta tiklanishi lozim bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlariga to‘g‘ri keladigan qiymati asosida aniqlanadi.

Asosiy vositalarning obyektlari, ko‘chmas mulk obyektlari va nomoddiy aktivlar bo‘yicha tuzatish kiritilishi lozim bo‘lgan soliq summasi ushbu Kodeksning 270-moddasida nazarda tutilgan tartibda qayta baholash hisobga olinmagan, ushbu obyektlarning balans qiymatiga to‘g‘ri keladigan, ilgari bu obyektlar bo‘yicha hisobga olingan (yoki ularning qiymatiga kiritilgan) soliq summasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 270-moddasi.

Ilgari bunday tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha hisobga olish uchun qabul qilingan miqdordagi, asosiy vositalarga, ko‘chmas mulk obyektlariga va nomoddiy aktivlarga nisbatan esa ularning qayta baholash hisobga olinmagan holdagi qoldiq (balans) qiymatiga mutanosib miqdordagi soliq summalari tiklanishi lozim.

Tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beruvchi tomonidan ushbu Kodeksning 257-moddasiga muvofiq soliq bazasiga tuzatishlar kiritish amalga oshirilganda, xaridor yetkazib beruvchi tomonidan rasmiylashtirilgan qo‘shimcha (yoki tuzatilgan) hisobvaraq-faktura asosida u tomonidan ilgari hisobga qabul qilingan soliq summasiga tegishli tartibda tuzatish kiritishi kerak.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 257-moddasi.

Soliqqa tuzatish kiritish summasi ko‘rsatilgan obyektlarning balans qiymatini oshirishga (yoki kamaytirishga) taalluqli bo‘ladi yoxud foyda solig‘ini hisoblab chiqarishda hisobga olinadigan xarajatlar (yoki daromadlar) tarkibiga kiritiladi.

Tovar reeksport bojxona tartib-taomiliga joylashtirilganda va ushbu tovarning importi chog‘ida soliq to‘lovchi tomonidan to‘langan soliq summasi unga bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda qaytarilganda, soliq to‘lovchi hisobga o‘tkaziladigan soliq summasiga o‘ziga qaytarilgan soliq summasi bo‘yicha tuzatish kiritadi (uni kamaytiradi).

(269-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Hisobga olingan soliq summasiga tuzatishlar kiritish ushbu moddada ko‘rsatilgan holatlar yuzaga kelgan soliq davrida amalga oshiriladi.

270-modda. Asosiy vositalarning ayrim obyektlari, ko‘chmas mulk obyektlari va nomoddiy aktivlar bo‘yicha hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summalariga tuzatish kiritish

Ushbu Kodeksning 266-moddasi uchinchi va to‘rtinchi qismlarida ko‘rsatilgan obyektlar bo‘yicha hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summasiga ushbu Kodeksning 267-moddasiga muvofiq obyektlardan kelgusida foydalanilgan taqdirda tuzatish kiritilishi lozim, bundan to‘liq amortizatsiya qilingan yoki ishga tushirilgan paytidan e’tiboran o‘n yildan ortiq vaqt o‘tgan obyektlar mustasno.

Soliqqa tuzatish kiritish summasi ushbu obyektlar bo‘yicha ilgari hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summasidan kelib chiqqan holda, ularning bunday tuzatish kiritilayotgan sanadagi (qayta baholash hisobga olinmagan holdagi) balans (qoldiq) qiymatiga mutanosib ravishda hisoblab chiqariladi. Bunda soliqqa tuzatish kiritish summasi mazkur obyektlar balans qiymatining ko‘payishiga olib boriladi.

Agar ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan obyektdan kelgusida soliq to‘lovchi tomonidan ushbu bo‘limga muvofiq soliq solinishi lozim bo‘lgan tovarlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish (xizmatlar ko‘rsatish)

uchun yangidan foydalanilsa, soliq to‘lovchi tuzatish kiritishga va hisoblab chiqarilgan soliq summasini ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilganiga o‘xshash tartibda hisobga olish uchun qabul qilishga haqli.

Ushbu Kodeksning 266-moddasi birinchi qismi 1-bandida ko‘rsatilgan obyektlar bo‘yicha hisobga olish uchun qabul qilinmagan soliq summasi, agar soliq to‘lovchi tomonidan keyinchalik bunday obyektlardan ushbu Kodeksning 267-moddasi birinchi qismi 1-bandida ko‘rsatilgan maqsadlar uchun foydalanilsa, hisobga o‘tkazilishi lozim, bundan to‘liq amortizatsiya qilingan yoki ishga tushirilgan paytidan e’tiboran o‘n yildan ortiq vaqt o‘tgan obyektlar mustasno.

Ushbu moddaning to‘rtinchi qismiga muvofiq soliqqa tuzatish kiritish summasi ilgari mazkur obyektlar qiymatiga kiritilgan soliq summasidan kelib chiqqan holda, ularning tegishli soliq summasini o‘z ichiga oladigan, bunday tuzatish kiritilgan sanadagi (qayta baholash hisobga olinmagan holdagi) balans (qoldiq) qiymatiga mutanosib ravishda hisoblab chiqariladi. Ushbu qismga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliqqa tuzatish kiritish summasi ushbu Kodeksning 266-moddasi uchinchi qismida belgilangan tartibda hisobga o‘tkazilishi lozim.

Agar ushbu moddaning to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan obyektdan keyinchalik realizatsiya qilinishi soliq solishdan ozod etilgan tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish) uchun yangidan foydalanilsa, soliq to‘lovchi hisobga o‘tkaziladigan soliq summasiga tuzatish kiritishni amalga oshirish hamda ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan tartibga o‘xshash tartibda hisoblab chiqarilgan soliq summasini tiklashi kerak.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan obyektdan realizatsiyasiga soliq solinadigan tovarlarni (xizmatlarni) ham, soliq solishdan ozod qilingan tovarlarni ishlab chiqarish (xizmatlarni ko‘rsatish) uchun ham foydalanilgan taqdirda, tiklanishi lozim bo‘lgan soliq summasi ko‘rsatilgan obyekt bo‘yicha hisobga olish uchun qabul qilingan, obyektning bunday tuzatish kiritilgan sanadagi balans (qoldiq) qiymatiga (qayta hisoblashni hisobga olmagan holda) to‘g‘ri keladigan soliq summasining qismi sifatida aniqlanadi. Mazkur qism soliq solishdan ozod qilingan realizatsiya qilingan tovarlar (xizmatlar) qiymatining joriy kalendar yili davomida o‘sib boruvchi yakun bilan aniqlanadigan realizatsiya qilingan tovarlar (xizmatlar) umumiy qiymatining ulushiga mutanosib ravishda belgilanadi.

Agar ushbu moddaning to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan obyektdan kelgusida ham realizatsiya qilish aylanmasi soliq solishdan ozod qilinadigan, ham realizatsiya qilish aylanmasiga soliq solinadigan tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish) uchun foydalanilsa, hisobga olinmaydigan soliq summasi quyidagi tartibda aniqlanadi:

1) ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan tartibga o‘xshash tartibda hisoblab chiqarilgan, obyektning balans (qoldiq) qiymatida hisobga olingan soliq summasi ajratiladi;

2) ushbu moddaning yettinchi qismida nazarda tutilgan tartibga muvofiq hisobga olinmaydigan, soliq solishdan ozod qilingan aylanmaga to‘g‘ri keladigan soliq summasining ajratilgan qismi aniqlanadi. Qoldiq summa ushbu bobga muvofiq hisobga olinadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 266-moddasi.

271-modda. Majburiyatlarni hisobdan chiqarishda hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summalariga tuzatish kiritish

Tovarlarni (xizmatlarni) olishda ilgari hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summasi, agar bunday tovarlarga (xizmatlarga) haq to‘lash bo‘yicha majburiyat ushbu Kodeksning 313-moddasiga muvofiq bunday tuzatish amalga oshirilgan soliq davrida hisobdan chiqariladi, bundan ushbu Kodeksning 266-moddasi birinchi qismi 3 va 4-bandlariga muvofiq hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summalari mustasno.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 313-moddasi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan tuzatish kiritish amalga oshirilgan tovarlar (xizmatlar) uchun haq to‘langan taqdirda, haq to‘lash amalga oshirilgan soliq davridagi tegishli soliq summasiga soliq to‘lovchi hisobga olish uchun qabul qilinadigan soliq summasini ko‘paytirish tomonga teskari tuzatish kiritish huquqiga ega.

272-modda. To‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi

Budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi har bir soliq davri yakunlari bo‘yicha, ushbu Kodeksning 265-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan, ushbu bobga muvofiq hisobga olinishi va tuzatish kiritilishi lozim bo‘lgan summalar hisobga olingan holda hisoblab chiqariladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirish chog‘idagi soliq summasi bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq budjetga to‘lanadi.

(272-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan, budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi salbiy bo‘lsa, soliq to‘lovchi mazkur summaning o‘rnini ushbu Kodeksning 274-moddasida belgilangan tartibda qoplash huquqiga ega bo‘ladi.

273-modda. Soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi

Soliq to‘lovchilar, agar ushbu bobda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq hisobotini o‘zlari soliq hisobida turgan joydagi soliq organlariga o‘tgan soliq davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirilmagan muddatda taqdim etishlari shart.

Ushbu Kodeksning 272-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliqni to‘lash agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq hisobida turilgan joy bo‘yicha har bir soliq davrining yakunlariga ko‘ra, soliq hisoboti taqdim etishlari muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 272-moddasi.

O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirish chog‘ida soliq ushbu bo‘lim qoidalari hisobga olingan holda, bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda budjetga to‘lanadi.

(273-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq agentlari soliqni o‘zi soliq hisobida turgan joy bo‘yicha to‘laydi. Soliq to‘lovchilar bo‘lmagan soliq agentlari o‘zi soliq hisobida turgan joydagi soliq organlariga tegishli soliq hisobotini ushbu Kodeksning 255 va 256-moddalariga muvofiq to‘lash amalga oshirilgan o‘tgan soliq davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay taqdim etishi shart.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 255 va 256-moddalari.

Soliq hisobotiga soliq to‘lovchining xaridlar reyestrida va sotuvlar reyestrida ko‘rsatilgan ma’lumotlar kiritiladi.

Ushbu moddaning to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar, shuningdek vositachilik (topshiriq) va transport ekspeditsiyasi shartnomalari asosida boshqa shaxsning manfaatlarni ko‘zlab tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslar olingan va taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalar daftarlaridagi ma’lumotlarni ham belgilangan shakl bo‘yicha taqdim etishi shart. Agar bunday shaxslar soliq to‘lovchilar bo‘lmasa, ular soliq hisobotiga faqat soliq agenti sifatida operatsiyalarni yoki vositachilik (topshiriq) shartnomasi asosida komitentning (ishonch bildiruvchining), transport ekspeditsiyasi shartnomasi asosida yukni oluvchining (yukni jo‘natuvchining) manfaatlarini ko‘zlab vositachilik operatsiyalarini amalga oshirish chog‘ida olingan hamda taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalarni hisobga olish daftarlarida aks ettiriladigan ma’lumotlarni kiritadi.

Xaridlar va sotuvlar reyestrlarini, shuningdek kelib tushgan va taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalarni hisobga olish daftarlarini yuritish shakllari va tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

274-modda. Soliqning o‘rnini qoplash

Ushbu Kodeksning 272-moddasiga muvofiq o‘rni qoplanishi lozim bo‘lgan soliq summasi, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq bo‘yicha kelgusi to‘lovlar hisobidan hisobga olinadi.

Soliq to‘lovchi o‘rni qoplanishi lozim bo‘lgan soliq summasini qaytarishga doir soliq hisobotini taqdim etishda soliq organlarini bu haqda xabardor qilgan holda, soliqning salbiy summasi o‘rnini qoplash (qaytarish) uchun murojaat qilish huquqiga ham ega bo‘ladi.

Agar kameral soliq tekshiruvi natijalariga ko‘ra, soliq organi soliq summasining o‘rnini to‘liq yoki qisman qoplash to‘g‘risida qaror qabul qilsa, mazkur soliq summasi soliq to‘lovchiga soliq hisobotini taqdim etishda soliq summasini qaytarish haqida soliq organlari xabardor qilingan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay qaytariladi.

(274-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Soliqning jami summasi o‘rnini tezlashtirilgan tarzda qoplash tartibi soliq hisobotini taqdim etishda soliq organlarini xabardor qilgan taqdirda, quyidagi toifadagi soliq to‘lovchilarga nisbatan qo‘llaniladi:

(274-modda to‘rtinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

1) O‘zbekiston Respublikasining yirik soliq to‘lovchilar toifasiga belgilangan tartibda kiritilgan yuridik shaxslariga;

> **Izoh.** Qarang: Davlat soliq qo‘mitasining 2019-yil 12-iyuldagi 3172-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yuridik shaxslarni yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to‘g‘risidagigi Nizom.

2) soliq hisoboti bilan birga amaldagi bank kafolatini taqdim etgan yoki soliq organlari bilan garov shartnomasini ushbu Kodeksning 107 yoki 109-moddalarida belgilangan tartibda rasmiylashtirgan soliq to‘lovchilarga;

(274-modda to‘rtinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 107 va 109-moddalari.

3) eksport va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshiradigan shaxslarga — agar ilgari bu shaxslarga soliq summasi qoplangan va bunda qonunbuzarliklar aniqlanmagan bo‘lsa, nol darajali soliq stavkasi qo‘llanilishi natijasida hosil bo‘lgan soliqning oshib ketgan summalari qismida;

4) chet el diplomatik vakolatxonalariga va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalariga;

5) mahsulot taqsimotiga oid bitim ishtirokchilariga, agar bunday bitimda nol darajali stavka qo‘llanilishi nazarda tutilgan bo‘lsa;

6) soliq monitoringi ishtirokchilariga;

7) Tadbirkorlik subyektlari yuqori barqarorlik reytingining “AAA” toifasidagi tadbirkorlik subyektlariga (bundan davlat korxonalari hamda ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar mustasno);

(274-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 15-noyabrdagi O‘RQ-1000-sonli Qonuniga asosan 7-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.11.2024-y., 03/24/1000/0928-son)

8) qishloq xo‘jaligi tovarlarini ishlab chiqaruvchilarga (bundan paxta va g‘alla mustasno);

9) o‘z faoliyatini kichik tadbirkorlik subyektidan o‘rta yoki yirik toifaga, o‘rta tadbirkorlik subyektidan yirik toifaga yiriklashtirgan tadbirkorlik subyektlariga — tegishli toifaga o‘tgan sanadan e’tiboran bir yil davomida. Bunda mazkur tartib tadbirkorlik subyektlarining faoliyati davomida bir marotaba qo‘llaniladi. Ushbu band qoidalari tegishli toifaga o‘tganidan keyin qayta tashkil etilgan subyektning huquqiy vorisiga (huquqiy vorislariga) nisbatan tatbiq etilmaydi.

(274-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan 8 va 9-bandlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Soliqning o‘rnini tezlashtirilgan tartibda qoplashda soliq to‘lovchi tomonidan qaytarish uchun soliq hisobotida ko‘rsatilgan soliq summasining o‘rni unga yetti kun ichida, ushbu modda to‘rtinchi qismining 7-bandida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilarga bir kun ichida to‘liq hajmda, ushbu modda to‘rtinchi qismining 8-bandida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilarga esa avtomatik tarzda uch kun ichida qoplanadi. Bunda o‘rni qoplanishi uchun soliq hisobotida ko‘rsatilgan soliq summasi asoslantirilganligining kameral soliq tekshiruvi umumiy tartibda amalga oshiriladi. Agar kameral soliq tekshiruvi natijalariga ko‘ra soliq hisobotida o‘rni qoplanishi uchun ko‘rsatilgan soliq summasi yoki uning bir qismi asossiz bo‘lib chiqsa, soliq to‘lovchi soliqning o‘rni o‘ziga asossiz ravishda qoplangan summasini qoplash sanasidan to uni budjetga to‘lash sanasigacha penya hisoblangan holda budjetga to‘lashi shart. Ushbu modda to‘rtinchi qismining 7-bandida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilarga o‘rni qoplanishi uchun soliq hisobotida ko‘rsatilgan soliq summasining asoslantirilganligi kameral soliq tekshiruvidan o‘tkazilmaydi.

(274-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Soliq summalarining o‘rnini qoplash tartibi va shartlari, ushbu moddaga muvofiq kameral soliq tekshiruvini o‘tkazish tartibi, shuningdek chet davlatlar fuqarolariga soliq summalarini qaytarish (TAX FREE) tartibi va shartlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

(274-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

> **Izoh.** Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-son qarori bilan tasdiqlangan Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash tartibi to‘g‘risidagi nizom.

38-bob. Alohida hollarda soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

275-modda. Birgalikdagi faoliyat, ishonchli boshqaruv yoki konsessiya bitimi doirasida operatsiyalarni amalga oshirishda soliqni hisoblab chiqarish va to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlari

Agar oddiy shirkat shartnomasining (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomaning) ishtirokchilaridan hech bo‘lmaganda bittasi O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi yoxud yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lsa, soliq solish maqsadida birgalikdagi faoliyat doirasida amalga oshiriladigan hamda ushbu Kodeksning 239-moddasiga muvofiq soliq solinishi lozim bo‘lgan operatsiyalarning umumiy hisobini yuritish shunday ishtirokchi (bundan buyon ushbu moddada ishonchli shaxs deb yuritiladi) tomonidan amalga oshirilishi kerak.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 239-moddasi.

Mazkur qoida oddiy shirkat shartnomasiga (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomaga) muvofiq shirkat ishlarini yuritish kimning zimmasiga yuklatilganligidan qat’i nazar, qo‘llaniladi.

Oddiy shirkat shartnomasiga (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomaga) konsessiya bitimiga yoki mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasiga muvofiq operatsiyalarni amalga oshirishda shirkatning ishonchli shaxsi, konsessioner yoki ishonchli boshqaruvchi zimmasiga soliq to‘lovchining ushbu bo‘limda belgilangan majburiyatlari yuklatiladi.

Oddiy shirkat shartnomasiga (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomaga) konsessiya bitimiga yoki mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasiga muvofiq tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda shirkatning ishonchli shaxsi, konsessioner yoki ishonchli boshqaruvchi soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli hisobvaraq-fakturalarni taqdim etishi shart.

(275-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq solinishi lozim bo‘lgan tovarlarni (xizmatlarni) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma) doirasida ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish uchun olinadigan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha soliqni hisobga olish imkoniyati faqat shirkatning ishonchli shaxsiga, basharti sotuvchilar tomonidan ushbu shaxsga soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalar mavjud bo‘lsa, beriladi.

(275-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Shirkatning ishonchli shaxsi tomonidan boshqa faoliyat amalga oshirilgan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasiga (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomaga) muvofiq operatsiyalarni amalga oshirish chog‘ida foydalaniladigan va ushbu shaxs tomonidan o‘zining boshqa faoliyati amalga oshirilganda foydalaniladigan tovarlarning (xizmatlarning) alohida-alohida hisobi mavjud bo‘lganda, soliq summalarini hisobga olishga bo‘lgan huquq yuzaga keladi.

Soliqni hisobga olishga oid qism bo‘yicha xuddi shunday qoidalar konsessiya bitimiga yoki mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasiga muvofiq amalga oshiriladigan operatsiyalarga nisbatan belgilanadi.

Shirkatning soliq hisobini yuritish uchun mas’ul bo‘lgan ishonchli shaxsi, konsessioner, ishonchli boshqaruvchi oddiy shirkat shartnomasini (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomani) konsessiya bitimini, mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasini bajarish jarayonida amalga oshirilgan operatsiyalarning hisobini har bir ko‘rsatib o‘tilgan shartnoma bo‘yicha alohida-alohida yuritadi.

276-modda. Qayta tashkil etilganda soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Yuridik shaxs qayta tashkil etilganda uning soliq majburiyati ushbu moddada belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda, ushbu Kodeksning 92-moddasiga muvofiq o‘zining huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) tomonidan bajariladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 92-moddasi.

Yuridik shaxs qayta tashkil etilganda, qayta tashkil etish shaklidan qat’i nazar, qayta tashkil etilgan yuridik shaxsga qo‘yilgan va (yoki) ushbu shaxs tomonidan tovarlarni (xizmatlarni) olishda (olib kirishda) to‘langan, lekin u tomonidan hisobga olish uchun qabul qilinmagan soliq summasi ushbu bo‘limda nazarda tutilgan tartibda ushbu yuridik shaxsning huquqiy vorisida, agar huquqiy voris soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lsa, hisobga olinishi lozim.

Soliq summalarini hisobga olish qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorisi tomonidan qayta tashkil etilgan yuridik shaxs tovarlarni (xizmatlarni) olganda, unga taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalar asosida, shuningdek huquqiy voris tovarlarni (xizmatlarni) olganda unga taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalar asosida amalga oshiriladi. Soliq summalarini hisobga olish qayta tashkil etilgan yuridik shaxs tomonidan tovarlar (xizmatlar) olinishi bilan bog‘liq majburiyatlar bo‘yicha qarz huquqiy vorisga o‘tkazilganidan keyin to‘liq hajmda amalga oshiriladi.

Agar qayta tashkil etilgan shaxs ushbu Kodeksning 274-moddasiga muvofiq soliqning o‘rni qoplanishi huquqiga ega bo‘lsa, lekin soliqning o‘rni qoplanishi lozim bo‘lgan summasi qayta tashkil etish tugallanguniga qadar unga qoplanmasa, ko‘rsatilgan soliq summasining o‘rni uning huquqiy vorisiga qoplanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 274-moddasi.

Agar yuridik shaxs qayta tashkil etilganda uning huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) soliq to‘lovchi bo‘lmasa, qayta tashkil etilayotgan shaxs ushbu bo‘limda belgilangan tartibda soliqni hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summasiga tuzatish kiritishni amalga oshirishi kerak.

277-modda. O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirishda va O‘zbekiston Respublikasi hududidan tovarlarni olib chiqishda soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq solish tanlangan bojxona rejimiga qarab, quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) tovarlar erkin muomalada bo‘lish (import) uchun chiqarish bojxona rejimiga joylashtirilganda soliq to‘liq hajmda hisoblanadi;

2) tovarlar reimport bojxona rejimiga joylashtirilganda soliq to‘lovchi ushbu Kodeksga muvofiq tovarlar eksport qilinganda to‘lashdan ozod etilgan soliq summalarini yoxud unga tovarlar eksport qilinganligi tufayli qaytarib berilgan summalarni to‘laydi. Sanab o‘tilgan summalarni to‘lash bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi;

(277-modda birinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

3) tovarlar tranzit, bojxona ombori, reeksport, boj olinmaydigan savdo, erkin bojxona hududi, yo‘q qilish, davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga, shuningdek g‘amlab qo‘yilgan narsalar bojxonada deklaratsiya qilinganda soliq to‘lanmaydi;

4) tovarlar O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilganda, basharti qayta ishlash mahsulotlarini muayyan muddatda O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqilsa, soliq to‘lanmaydi;

5) tovarlar vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirilganda bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda soliq to‘lashdan to‘liq yoki qisman ozod etish qo‘llaniladi;

(277-modda birinchi qismining 5-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

6) bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash mahsulotlari olib kirilgan taqdirda, soliq to‘lovi bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi;

(277-modda birinchi qismining 6-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

7) tovarlar ichki iste’mol uchun qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilganda soliq to‘liq hajmda to‘lanadi.

Tovarlar O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilayotganda soliq solish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) tovarlar O‘zbekiston Respublikasi hududidan eksport bojxona tartib-taomilida olib chiqilayotganda soliq to‘lanmaydi. Mazkur qoida tovarlarni keyinchalik eksport bojxona tartib-taomiliga muvofiq olib chiqish maqsadida ushbu tovarlar bojxona ombori tartib-taomiliga joylashtirilganda ham qo‘llaniladi;

2) tovarlar O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga reeksport bojxona tartib-taomilida olib chiqilayotganda soliq to‘lanmaydi, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish chog‘ida to‘langan soliq summalari esa soliq to‘lovchiga bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda qaytariladi. Mazkur qoida tovarlar reeksport bojxona tartib-taomiliga muvofiq keyinchalik olib chiqish maqsadida bojxona ombori bojxona tartib-taomiliga joylashtirilganda ham qo‘llaniladi;

(277-modda ikkinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

3) maxsus bojxona tartib-taomilini tugallash maqsadida g‘amlab qo‘yilgan narsalar, shuningdek tovarlar O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilayotganda soliq to‘lanmaydi;

4) tovarlar O‘zbekiston Respublikasi hududidan ushbu qismning 1 — 3-bandlarida ko‘rsatilganlariga nisbatan boshqa tartib-taomillarga muvofiq olib chiqilayotganda, agar bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, bojxona tartib-taomillari bilan soliq to‘lashdan ozod etish va (yoki) to‘langan soliq summalarini qaytarish amalga oshirilmaydi.

(277-modda ikkinchi qismining 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy, oilaviy, uy-ro‘zg‘or ehtiyojlari va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa ehtiyojlar uchun mo‘ljallangan tovarlar olib o‘tilayotganda, tovarlar O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotganligi munosabati bilan soliq to‘lash tartibi bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilanadi.

(277-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

39-bob. Elektron shaklda xizmatlar ko‘rsatuvchi chet el yuridik shaxslariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

278-modda. Soliq to‘lovchilar

Realizatsiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lgan elektron shakldagi xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari bunday xizmatlarni jismoniy shaxslarga ko‘rsatishga oid qism bo‘yicha soliq to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

Agar chet el yuridik shaxslari jismoniy shaxslarga ushbu Kodeksning 282-moddasida belgilangan xizmatlarni elektron shaklda ko‘rsatsa hamda ularni realizatsiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lsa, bunday xizmatlarni ko‘rsatuvchi chet el yuridik shaxslari bilan topshiriq, vositachilik, agentlik shartnomalari yoki boshqa shunga o‘xshash shartnomalar asosida bevosita jismoniy shaxslar bilan hisob-kitoblarda ishtirok etadigan vositachilar bo‘lgan chet el yuridik shaxslari bunday xizmatlarni realizatsiya qilishga doir operatsiyalarga nisbatan soliq agentlari deb e’tirof etiladi.

Agar bunday xizmatlar vositachilar bo‘lgan bir nechta yuridik shaxsning hisob-kitoblarida izchil ketma-ketlikda ishtirok etgan holda ko‘rsatilsa, bevosita jismoniy shaxslar bilan hisob-kitoblarda ishtirok etayotgan vositachi bo‘lgan chet el yuridik shaxsi, unda ushbu xizmatlarni ko‘rsatuvchi chet el yuridik shaxsi bilan shartnoma mavjudligidan qat’i nazar, soliq agenti deb e’tirof etiladi.

Agar bunday xizmatlar O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslariga va O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan yuridik

shaxslarga ko‘rsatiladigan bo‘lsa, bunday xizmatlarning xaridorlari bo‘lgan mazkur shaxslar soliq agentlari deb e’tirof etiladi.

279-modda. Elektron shaklda xizmatlar ko‘rsatuvchi chet el yuridik shaxslarini hisobga qo‘yish va hisobdan chiqarish tartibi

Agar chet el yuridik shaxsi jismoniy shaxslarga ushbu Kodeksning 282-moddasida ko‘rsatilgan, realizatsiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi deb e’tirof etiladigan elektron shakldagi xizmatlar ko‘rsatadigan bo‘lsa, va agar bu yuridik shaxsning o‘zi vositachilarsiz xizmatlarni oluvchi bo‘lgan jismoniy shaxslar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirsa, chet el yuridik shaxsini soliq organida hisobga qo‘yish (hisobdan chiqarish) to‘g‘risidagi ariza va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan ro‘yxati tasdiqlanadigan boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Shunday xizmatlarda soliq agenti deb e’tirof etiladigan vositachi bo‘lgan chet el yuridik shaxsini soliq organida hisobga qo‘yish (hisobdan chiqarish) xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi.

Hisobga qo‘yish (hisobdan chiqarish) to‘g‘risidagi ariza chet el yuridik shaxslari tomonidan soliq organiga elektron shaklda xizmatlar ko‘rsatish boshlangan (tugatilgan) kundan e’tiboran o‘ttiz kalendar kundan kechiktirmay beriladi.

280-modda. Soliq solish obyekti va soliq bazasi. Soliq davri. Chet el yuridik shaxslari tomonidan soliqni hisoblab chiqarish tartibi

Jismoniy shaxslarga elektron shakldagi xizmatlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma soliq solish obyektidir.

Chet el yuridik shaxslari jismoniy shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi realizatsiya qilish joyi deb e’tirof etiladigan, ushbu Kodeksning 282-moddasida belgilangan elektron shakldagi xizmatlarni ko‘rsatganda soliq bazasi mazkur xizmatlarning ularni realizatsiya qilishning haqiqiy narxlaridan kelib chiqib hisoblab chiqarilgan soliq summasi hisobga olingan holdagi qiymati sifatida aniqlanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 282-moddasi.

Bir chorak soliq davridir.

Soliq bazasi har bir chorak bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lov (qisman to‘lov) kelib tushgan vaqtdan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq bazasini ushbu moddaga muvofiq aniqlash chog‘ida elektron shaklda ko‘rsatiladigan xizmatlarning chet el valyutasida ifodalangan qiymati O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ko‘rsatilgan xizmatlar to‘lovi (qisman to‘lovi) kelib tushgan oyning oxirgi kunida belgilangan kursi bo‘yicha milliy valyutada qayta hisoblanadi.

Agar bunday xizmatlarni realizatsiya qilishga doir operatsiyalarga nisbatan soliqni hisoblab chiqarish bo‘yicha majburiyat ushbu moddaga muvofiq soliq agentining zimmasiga yuklatilmagan bo‘lsa, chet el yuridik shaxslari soliqni hisoblab chiqarishni mustaqil ravishda amalga oshiradi.

281-modda. Elektron shaklda xizmatlar ko‘rsatishda chet el yuridik shaxslari tomonidan soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi

Ushbu Kodeksning 82-moddasida belgilangan elektron shakldagi xizmatlar ko‘rsatuvchi chet el yuridik shaxslari soliq organiga soliq hisobotini soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali, belgilangan format bo‘yicha elektron shaklda taqdim etadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 82-moddasi.

Chet el yuridik shaxslari tomonidan soliq organiga hujjatlarni (axborotni) va ma’lumotlarni taqdim etish uchun soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetidan foydalanish mumkin bo‘lmagan davrda bunday hujjatlar (axborot) va ma’lumotlar telekommunikatsiya aloqa kanallari orqali taqdim etiladi.

Soliq hisobotlari, hujjatlar (axborot) va boshqa ma’lumotlar o‘tgan chorakdan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Chet el yuridik shaxslari tomonidan soliqni to‘lash soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

282-modda. Elektron shakldagi xizmatlar

Ushbu bo‘limni qo‘llash maqsadida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda jahon Internet axborot tarmog‘idan (bundan buyon matnda Internet tarmog‘i deb yuritiladi) avtomatik usulda foydalanish orqali ko‘rsatilgan xizmatlar elektron shakldagi xizmatlar jumlasiga kiradi. Xususan, bunday xizmatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) dasturiy ta’minotdan (shu jumladan Internet tarmog‘i orqali yetkazib beriladigan o‘yinlardan), shuningdek ma’lumotlar bazalaridan, ularga kiritiladigan yangi ma’lumotlardan va qo‘shimcha funksional imkoniyatlardan Internet tarmog‘i orqali, shu jumladan ulardan masofadan turib foydalanish imkonini berish yo‘li bilan foydalanishga bo‘lgan huquqlarni taqdim etish;

2) elektron kitoblardan (nashrlardan) va boshqa elektron nashrlardan, axborot, ta’limga oid materiallardan, grafik tasvirlardan, matnli yoki matnsiz musiqa asarlaridan, audiovizual asarlardan foydalanish huquqini Internet tarmog‘i orqali, shu jumladan Internet tarmog‘i orqali ko‘rib chiqish yoki eshitish uchun ulardan masofadan turib foydalanish imkonini berish yo‘li bilan taqdim etish;

3) Internet tarmog‘ida, shu jumladan elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlardan va Internet tarmog‘ida ishlab turgan ma’lumotlar bazalaridan foydalangan holda reklamaga oid xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek Internet tarmog‘ida reklama uchun reklamaga oid maydon (joy) va vaqt berish;

4) Internet tarmog‘ida tovarlarni (xizmatlarni) va mulkiy huquqlarni olish (realizatsiya qilish) to‘g‘risida takliflar joylashtirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish;

5) Internet tarmog‘i orqali sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasida aloqalar o‘rnatish va bitimlar tuzish uchun axborot texnologiyalari va tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan texnik, tashkiliy, axborot imkoniyatlarini hamda boshqa imkoniyatlarni berish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish. Bunday xizmatlar jumlasiga, xususan, Internet tarmog‘ida real vaqt rejimida ishlaydigan savdo maydonchasini berish kiradi, bu maydonda potensial xaridorlar avtomatlashtirilgan tartib-taomil vositasida o‘z narxini taklif etadi hamda taraflar avtomatik tarzda yaratiladigan xabar orqali sotuv to‘g‘risida xabardor qilinadi;

6) o‘z maqsadlari uchun yoki iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish maqsadida Internet tarmog‘ida hozir bo‘lishni ta’minlash va (yoki) saqlab turish, foydalanuvchilarning elektron resurslarini (saytlarini va (yoki) Internet tarmog‘idagi saytlari sahifalarini) saqlab turish, ulardan Internet tarmog‘idan boshqa foydalanuvchilarning foydalanishini ta’minlash, foydalanuvchilarga ularni modifikatsiyalash imkonini taqdim etish;

7) dasturning masofadan va onlayn rejimida ishlashini avtomatik tarzda saqlab turish, Internet tarmog‘ida axborot tizimlarini, saytlarni va (yoki) sahifalarni boshqarish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish;

8) basharti axborotni taqdim etgan shaxs undan Internet tarmog‘i orqali foydalanish imkoniga ega bo‘lsa, ushbu axborotni saqlash va unga ishlov berish;

9) axborot tizimida axborotni joylashtirish uchun real vaqt rejimida hisoblash quvvatini taqdim etish;

10) domen nomlar berish, xosting xizmatlarini ko‘rsatish;

11) Internet tarmog‘i orqali xaridor tomonidan ma’lumotlar kiritilayotganda avtomatik usulda yuzaga keladigan axborotni yetkazib berish, ma’lumotlarni qidirish, so‘rovlarga ko‘ra ularni saralash va ajratish, axborot-kommunikatsiya tarmoqlari orqali mazkur ma’lumotlarni foydalanuvchilarga taqdim etish bo‘yicha avtomatlashtirilgan xizmatlar ko‘rsatish. Bunday yetkazib berishlar jumlasiga, xususan, fond birjasining real vaqt rejimidagi ma’lumotlari, matnlarning avtomatlashtirilgan tarjimasini real vaqt rejimida amalga oshirish kiradi;

12) potensial xaridorlar to‘g‘risidagi axborotni qidirish va (yoki) buyurtmachiga taqdim etish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish;

13) Internet tarmog‘idagi qidiruv tizimlaridan foydalanish imkonini berish;

14) Internet tarmog‘idagi saytlarda statistikani yuritish.

Elektron shakldagi xizmatlar jumlasiga quyidagilar kirmaydi:

1) agar Internet tarmog‘i orqali buyurtma berilganda tovarlar yetkazib berish (xizmatlar ko‘rsatish) aslida Internet tarmog‘idan foydalanmagan holda amalga oshiriladigan bo‘lsa, tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish;

2) elektron hisoblash mashinalari (shu jumladan kompyuter o‘yinlari) uchun dasturlarni va moddiy jismlardagi ma’lumotlar bazalarini realizatsiya qilish (ulardan foydalanish huquqlarini taqdim etish);

3) elektron pochta orqali maslahat xizmatlari ko‘rsatish;

4) Internet tarmog‘idan foydalanish imkonini berish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish.

XI BO‘LIM
AKSIZ SOLIG‘I

40-bob. Soliq to‘lovchilar, soliq solish obyekti va soliq bazasi

283-modda. Soliq to‘lovchilar

Aksiz solig‘ini to‘lovchilar (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq to‘lovchilar deb yuritiladi) deb quyidagi shaxslar e’tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig‘i solinadigan tovarlarni (aksiz to‘lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;

2) tabiiy gazni iste’molchilarga realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar;

3) benzin, dizel yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishni, shu jumladan avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali, shuningdek gazni gaz to‘ldirish stansiyalari va gaz to‘ldirish punktlari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar. Ushbu bo‘limni qo‘llash maqsadida yakuniy iste’molchilar deganda o‘z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi hamda gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi;

(283-modda birinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

4) oddiy shirkat ishtirokchisi bo‘lgan, oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshiriladigan aksiz to‘lanadigan tovarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bo‘yicha oddiy shirkat ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs;

5) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududi orqali aksiz to‘lanadigan tovarlarni olib o‘tuvchilar. Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq mazkur shaxslar soliq to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

(283-modda birinchi qismining 5-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan, aksiz solig‘i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi yoki shunday tovarlarni olib kirishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari ham soliq to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

(283-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

284-modda. Soliq solish obyekti

Aksiz solig‘i (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq deb yuritiladi) solinadigan obyektlar quyidagilardan iborat:

1) aksiz to‘lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan aksiz to‘lanadigan tovarlarni boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlash uchun berish:

tovarga bo‘lgan mulk huquqini berish;

garov bilan ta’minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo‘yilgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni garovga qo‘yuvchi tomonidan berish;

aksiz to‘lanadigan tovarlarni bepul berish;

aksiz to‘lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) jismoniy shaxslarning mehnatiga haq to‘lash yoki dividendlar to‘lash hisobidan berish;

2) aksiz to‘lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida yoxud oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma) bo‘yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida berish;

3) aksiz to‘lanadigan tovarlarni:

a) ishtirokchiga (muassisga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoxud yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi kamayganda yoki yuridik shaxs tomonidan ishtirokchidan ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning bir qismi) qaytarib sotib olinganda ishtirokchiga berish;

b) yuridik shaxs bo‘lgan emitent tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalar qaytarib sotib olingan taqdirda aksiyadorga berish;

v) yuridik shaxsni tugatishda aksiyadorga yoki ishtirokchiga berish;

4) aksiz to‘lanadigan tovarlarni qaytarish sharti bilan qayta ishlash uchun topshirish, shuningdek qaytarish sharti bilan berilgan xom ashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo‘lgan, shuningdek aksiz to‘lanadigan shunday xom ashyo va materiallarning mahsuli bo‘lgan, aksiz to‘lanadigan tovarlarni qaytarish sharti bilan berilgan xom ashyo va materiallarning mulkdoriga ishlab chiqaruvchi tomonidan topshirish;

5) aksiz to‘lanadigan tovarlardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish;

6) aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirish;

7) benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilish yoki ulardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish;

(O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan 284-modda birinchi qismi 8-bandining chiqarilish sanasi 2025-yil 1-yanvar — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son)

9) O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan va (yoki) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilinadigan aksiz to‘lanadigan tovarlarning buzilishi, yo‘qotilishi, bundan favqulodda vaziyatlar natijasida yuzaga kelgan hollar mustasno. Aybdor tomonidan tovarning qiymati sug‘urta orqali to‘langan yoki uning o‘rni qoplangan taqdirda, aksiz solig‘i sug‘urta orqali to‘lash (o‘rnini qoplash) ulushida to‘lanadi.

Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

1) aksiz to‘lanadigan tovarlarni eksportga (eksportning bojxona tartib-taomillarida) realizatsiya qilish;

(284-modda ikkinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

2) bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan, qayta ishlash mahsuli bo‘lgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni keyinchalik O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketish sharti bilan berish;

3) ixtisoslashtirilgan gaz ta’minoti korxonalari orqali aholiga suyultirilgan gazni maishiy ehtiyojlar uchun realizatsiya qilish;

4) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga quyidagi aksiz to‘lanadigan tovarlarni:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirish;

davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar orqali xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko‘mak ko‘rsatish maqsadida olib kirish;

agar ular olib kirilayotganda soliqdan ozod etilishi qonunda nazarda tutilgan bo‘lsa, xalqaro moliya institutlarining qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olib kirish;

(284-modda ikkinchi qismi 4-bandining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

5) aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga soliq solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilish. O‘zbekiston Respublikasi hududiga soliq solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirishning eng yuqori normalari qonunchilikda belgilanadi;

(284-modda ikkinchi qismining 5-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

6) maxsus vakolatli davlat organining yozma ravishdagi tasdig‘i mavjud bo‘lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari hamda tezkor-qidiruv tadbirlari tizimlarining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo‘yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

(284-modda ikkinchi qismining 6-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-noyabrdagi O‘RQ-992-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.11.2024-y., 03/24/992/0895-son)

61) maxsus vakolatli davlat organi tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

((284-modda ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-noyabrdagi O‘RQ-992-sonli Qonuniga asosan 61-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.11.2024-y., 03/24/992/0895-son)

7) ishlab chiqaruvchilar tomonidan turistik yo‘nalishlarda tashkil etilgan degustatsiya hududlarida (joylarida) realizatsiya qilinadigan tabiiy vino (shisha idishdagilardan tashqari) mahsulotlariga.

(284-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuniga asosan 7-band bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 25-moddasi.

285-modda. Soliq bazasi

Soliq bazasi belgilangan soliq stavkalariga qarab aksiz to‘lanadigan tovarlarning har bir turi bo‘yicha alohida aniqlanadi.

(285-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

Aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan soliq stavkalari mutlaq (qat’iy) summada belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi aksiz to‘lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

(285-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

Ishlab chiqarilayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlarga soliq stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi bo‘lib realizatsiya qilingan aksiz to‘lanadigan tovarlarning qiymati, biroq ularning haqiqiy tannarxidan past bo‘lmagan qiymati hisoblanadi.

(285-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

Jismoniy shaxslar mehnatiga haq to‘lash, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga bepul yoki boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq bazasi ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida belgilangan tartibda aniqlanadi.

Qaytarib berish sharti bilan qayta ishlangan xom ashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq bazasi aksiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlarning qiymatini hamda qaytarish sharti bilan qayta ishlangan xom ashyo va materiallarning qiymatini o‘z ichiga oladi.

Aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan qat’iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo‘lgan aralash soliq stavkalari belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi, agar ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, aksiz to‘lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmidan hamda realizatsiya qilingan aksiz to‘lanadigan tovarlarning qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Chetdan olib kirilayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan foizlardagi (advalor) soliq stavkalari belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati asosida aniqlanadi.

(285-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Olib kirilayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan qat’iy belgilangan soliq stavkalari belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi import qilingan aksiz to‘lanadigan tovarlarning natura holidagi hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Olib kirilayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan qat’iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo‘lgan aralash soliq stavkalari belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi bojxona qonunchiligiga muvofiq belgilanadigan, aksiz to‘lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmidan va (yoki) aksiz to‘lanadigan tovarlarning bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq belgilanadigan bojxona qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

(285-moddaning to‘qqizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilish chog‘ida realizatsiya qilingan va (yoki) shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanilgan benzinning, dizel yoqilg‘isi va gazning naturada ifodalangan hajmi soliq bazasi hisoblanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 26-moddasi.

286-modda. Aksiz to‘lanadigan tovarlarga doir soliq solinadigan operatsiyalar amalga oshiriladigan sana

(286-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

Ushbu Kodeksning 242-moddasida tegishli operatsiyalar uchun nazarda tutilgan sana aksiz to‘lanadigan tovarlarga doir soliq solinadigan operatsiyalar amalga oshirilgan sana hisoblanadi.

(286-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

Olib kirilayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq solish operatsiyalarini amalga oshirish sanasi ularni bojxonaning import tartib-taomilidan chiqarish sanasi hisoblanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 242-moddasi.

287-modda. Soliq bazasiga tuzatish kiritish

Soliq bazasiga tuzatish kiritish ushbu Kodeksning 257-moddasida nazarda tutilgan hollarda va tartibda, soliq to‘lovchi tomonidan amalga oshiriladi.

288-modda. Aksiz to‘lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlash

Aksiz to‘lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardan iboratdir:

1) eksport qilinadigan aksiz to‘lanadigan tovarlarni yetkazib berishga doir kontrakt (kontraktning belgilangan tartibda tasdiqlangan ko‘chirma nusxasi);

2) tovarlarni eksport rejimida chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining belgisi qo‘yilgan bojxona yuk deklaratsiyasi;

3) O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidagi o‘tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar tayinlangan mamlakatga jo‘natilganligini tasdiqlovchi belgisi qo‘yilgan, tovarga ilova qilinadigan hujjatlar;

4) chet ellik sotib oluvchi (to‘lovchi) tomonidan eksport qilinayotgan tovarlar uchun haq to‘langanligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko‘chirma.

Tovarlarni chet el valyutasida eksport qilish yuzasidan daromadlar tovarlar eksport rejimiga chiqarilgan kundan e’tiboran bir yuz sakson kalendar kuni ichida kelib tushmagan taqdirda, tovarlarni eksportga realizatsiya qilish soliq solishning obyekti deb e’tirof etiladi.

Tovarlar eksportga vositachi (ishonchli vakil) orqali vositachilik (topshiriq) shartnomasi bo‘yicha realizatsiya qilingan taqdirda eksportni tasdiqlash uchun komitent (topshiriq beruvchi) tomonidan soliq to‘lovchining vositachi yoki ishonchli vakil bilan tuzilgan vositachilik shartnomasi yoki topshiriq shartnomasi (shartnomaning ko‘chirma nusxasi) qo‘shimcha ravishda taqdim etiladi.

289-modda. Soliq stavkalari

Soliq stavkalari tovarning yoki xizmatning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor), naturada ifodalangan o‘lchov birligiga nisbatan mutlaq summada (qat’iy belgilangan), shuningdek advalor va qat’iy belgilangan soliq stavkalarini o‘z ichiga olgan aralash stavkada belgilanadi.

(289-modda O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

289[1]-modda. Tamaki mahsulotlariga doir soliq stavkalari

Tamaki mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r

Tamaki mahsulotlari turlari

Soliq stavkalari

1.

Filtrli, filtrsiz sigaretalar, papiroslar, sigarillalar (sigaritlar), bidi, kretek

2026-yil 1-yanvardan:

340 000 so‘m/1 000 dona

2026-yil 1-iyuldan:

365 000 so‘m/1 000 dona

2.

Sigara

2026-yil 1-yanvardan:

20 000 so‘m/1 dona

2026-yil 1-fevraldan:

21 500 so‘m/1 dona

3.

Chilim uchun tamaki*

2026-yil 1-yanvardan:

600 000 so‘m/kg

2026-yil 1-fevraldan:

642 000 so‘m/kg

4.

Chekiladigan, o‘rama tamaki

2026-yil 1-yanvardan:

600 000 so‘m/kg

2026-yil 1-fevraldan:

642 000 so‘m/kg

5.

Chaynaladigan, hidlanadigan va shimiladigan tamaki

382 000 so‘m/kg

6.

Qizdiriladigan tamaki tayoqchasi, qizdiriladigan tamakili kapsula va tarkibida tamaki mavjud bo‘lgan o‘xshash tamoyil bilan foydalaniladigan boshqa mahsulotlar

2026-yil 1-yanvardan:

450 000 so‘m/kg

2026-yil 1-fevraldan:

481 500 so‘m/kg

7.

Nikotinli tamakisiz snyus

154 000 so‘m/kg

8.

Tarkibida nikotin mavjud bo‘lgan suyuqlik (kartrijlarda, rezervuarlarda va elektron sigaretlarda foydalanish uchun boshqa konteynerlarda)**

2026-yil 1-yanvardan:

2 000 so‘m/ml

2026-yil 1-fevraldan:

2 140 so‘m/ml

* Belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha soliq chilim uchun tamakisiz aralashmani olib kirishda ham to‘lanadi.

** Tarkibida nikotin mavjud bo‘lgan suyuqlikni (nikotinni) uni iste’mol qilish (elektron va boshqalar) tizimlarida olib kirishda soliq tarkibida nikotin mavjud bo‘lgan suyuqlik hajmidan kelib chiqqan holda to‘lanadi.

(289¹-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Ushbu modda birinchi qismining 1-bandida aksiz solig‘ining qat’iy belgilangan stavkasi naturada ifodalangan aksiz to‘lanadigan tovarlar hajmiga nisbatan qo‘llaniladi.

(289¹-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

Ushbu modda birinchi qismining 3 — 6-bandlarida soliq stavkasi tamaki mahsulotidagi tamaki xom ashyosi massasiga nisbatan tamaki xom ashyosi massasi to‘g‘risidagi axborotni iste’mol qadog‘ida (idishida) ko‘rsatish sharti bilan qo‘llaniladi. Agar chilim uchun tamaki bo‘yicha tamaki xom ashyosi massasi netto og‘irligining 20 foizidan kamni tashkil etsa, u holda aksiz solig‘i netto (birlamchi qadoqni hisobga olgan holda) og‘irligining 20 foizidan hisoblab chiqariladi. Iste’mol qadog‘ida (idishida) tamaki xom ashyosining og‘irligi to‘g‘risidagi axborot mavjud bo‘lmagan taqdirda, soliq stavkasi netto (birlamchi qadoqni hisobga olgan holda) og‘irligiga nisbatan qo‘llaniladi.

(289¹-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

Ushbu modda birinchi qismining 7-bandida soliq stavkasi tovarning netto og‘irligiga nisbatan qo‘llaniladi, bunda iste’mol qadog‘ining (plastik bankaning, karton qutisining va shu kabilarning) og‘irligi hisobga olinmaydi. Iste’mol qadog‘ida (idishida) tovarning og‘irligi to‘g‘risida ma’lumot mavjud bo‘lmagan taqdirda, soliq stavkasi iste’mol qadog‘ini (idishini) hisobga olgan holda netto og‘irligiga nisbatan qo‘llaniladi.

(289¹-modda O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

289²-modda. Alkogol mahsulotlariga doir soliq stavkalari

Alkogol mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r

Alkogol mahsulotlari turlari

Soliq stavkalari

(1 litr uchun)

import qilinganda

ishlab chiqariladigan

1.

Oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti, shuningdek don distillyati

15 000 so‘m

2.

Etil spirtining boshlang‘ich fraksiyasi (bundan texnik spirtni olish uchun sarflangan etil spirtining boshlang‘ich fraksiyasi mustasno)

5 000 so‘m

3.

Aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari (aksiz to‘lanadigan tovar tarkibidagi suvsiz etil spirtining 1 litri uchun, bundan 4 va 5-bandlar mustasno)

2026-yil 1-yanvardan:

76 000 so‘m

2026-yil 1-fevraldan:

60 000 so‘m

2026-yil 1-yanvardan:

44 000 so‘m

2026-yil 1-fevraldan:

48 000 so‘m

2026-yil 1-iyuldan:

48 000 so‘m

4.

Vino:

tabiiy ravishda achitilgan tabiiy vinolar (etil spirti qo‘shilmagan holda)

2026-yil 1-yanvardan:

14 000 so‘m

2026-yil 1-fevraldan:

12 000 so‘m

2026-yil 1-yanvardan:

5 000 so‘m

2026-yil 1-fevraldan:

7 000 so‘m

2026-yil 1-iyuldan:

10 000 so‘m

boshqa vinolar, shu jumladan vermut

2026-yil 1-yanvardan:

20 000 so‘m

2026-yil 1-fevraldan:

15 000 so‘m

2026-yil 1-yanvardan:

6 000 so‘m

2026-yil 1-fevraldan:

9 000 so‘m

2026-yil 1-iyuldan:

12 000 so‘m

5.

Pivo

2026-yil 1-yanvardan:

6 000 so‘m

2026-yil 1-fevraldan:

5 000 so‘m

2026-yil 1-yanvardan:

2 000 so‘m

2026-yil 1-fevraldan:

3 000 so‘m

2026-yil 1-iyuldan:

4 000 so‘m

(289²-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

289³-modda. Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to‘lanadigan tovarlar va xizmatlarga doir soliq stavkalari

Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r

Tovarlar nomi

Soliq stavkalari

2026-yil 1-yanvardan

2026-yil 1-apreldan

1.

Neft mahsulotlari:

AI-80 va undan yuqori benzin

375 000 so‘m/tonna

402 000 so‘m/tonna

AI-91 va undan yuqori benzin

335 000 so‘m/tonna

360 000 so‘m/tonna

aviakerosin (sintetikdan tashqari)

300 000 so‘m/tonna

321 000 so‘m/tonna

dizel yoqilg‘isi (sintetikdan tashqari)

360 000 so‘m/tonna

385 000 so‘m/tonna

EKO dizel yoqilg‘isi (sintetikdan tashqari)

325 000 so‘m/tonna

348 000 so‘m/tonna

dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi

510 000 so‘m/tonna

546 000 so‘m/tonna

2.

Polietilen granulalar

10%

3.

Tabiiy gaz

12%

4.

Yakuniy iste’molchiga realizatsiya qilinadigan:

AI-80 va undan yuqori benzin

1 litr uchun 525 so‘m/

1 tonna uchun 700 000 so‘m

1 litr uchun 562 so‘m/

1 tonna uchun 750 000 so‘m

AI-91 va undan yuqori benzin

1 litr uchun 470 so‘m/

1 tonna uchun 621 000 so‘m

1 litr uchun 505 so‘m/

1 tonna uchun 665 000 so‘m

dizel yoqilg‘isi

1 litr uchun 525 so‘m/

1 tonna uchun 635 000 so‘m

1 litr uchun 562 so‘m/

1 tonna uchun 680 000 so‘m

suyultirilgan gaz

1 litr uchun 525 so‘m/

1 tonna uchun 1 000 000 so‘m

1 litr uchun 562 so‘m/

1 tonna uchun 1 070 000 so‘m

siqilgan gaz

1 kub metr uchun 750 so‘m

1 kub metr uchun 805 so‘m

5.

Iste’mol qadog‘iga qadoqlangan ichimliklar (bundan umumiy ovqatlanish sohasidagi korxonalar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan tayyorlanib iste’molchilarga realizatsiya qilingan ichimliklar mustasno)*:

tarkibida shakar mavjud bo‘lgan ichimliklar (100 ml mahsulot tarkibidagi shakar miqdoriga qarab)

1 litr uchun 500 so‘m

5 grammgacha:

1 litr uchun 500 so‘m

5 grammdan 10 grammgacha:

1 litr uchun 515 so‘m

10 gramm va undan yuqori:

1 litr uchun 535 so‘m

tarkibida boshqa shirinlashtiruvchi yoki xushbo‘ylashtiruvchi moddalar mavjud bo‘lgan ichimliklar

1 litr uchun 500 so‘m

6.

Energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklar

1 litr uchun 2 000 so‘m

1 litr uchun 2 150 so‘m

7.

Yupqa to‘g‘ralgan yoki yupqa shaklga keltirilgan, qovurilgan yoki quritilgan, iste’mol qadog‘iga qadoqlangan, tarkibida kartoshka yoki uning ta’mini beruvchi qo‘shimchalar bo‘lgan mahsulotlar (chipslar) **

1 kg mahsulot uchun 15 000 so‘m

* Mevalar va (yoki) sabzavotlardan tayyorlangan, tabiiy shirin bo‘lgan hamda tarkibida qo‘shimcha shakar va boshqa shirinlashtiruvchi yoki xushbo‘ylashtiruvchi moddalar mavjud bo‘lmagan sharbatlarga nisbatan soliq qo‘llanilmaydi.

** Belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha soliq ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar va O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kiruvchilar tomonidan to‘lanadi.

(289³-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Ushbu modda birinchi qismining 3-bandida soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan aksiz to‘lanadigan tovarlar, shu jumladan import qilingan aksiz to‘lanadigan tovarlar uchun belgilangan va mazkur tovarlarni olib kirishda qo‘llanilmaydi.

(289³-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

Ushbu modda birinchi qismining 4-bandida nazarda tutilgan olib kirilgan (import qilingan) aksiz to‘lanadigan tovarlarni o‘z extiyojlari uchun ishlatilganda, soliq to‘lovchilari bo‘lib ushbu tovarlarni o‘z ehtiyojlari uchun olib kirishni amalga oshirgan shaxslar e’tirof etiladi.

(289³-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Ushbu modda birinchi qismining 5-bandida nazarda tutilgan tovarlar tarkibidagi shakar miqdori bo‘yicha ma’lumot iste’mol qadog‘ida ko‘rsatilmagan taqdirda, ularga nisbatan eng yuqori soliq stavkasi qo‘llaniladi.

(289³-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

41-bob. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliq to‘lash tartibi

290-modda. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi

Soliqni hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va soliqning belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Import qilingan, aksiz to‘lanadigan, o‘ziga nisbatan aralash — advalor va qat’iy belgilangan soliq stavkalari belgilangan tovarlar bo‘yicha soliq soliq bazasi va advalor stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Bunda soliq summasi qat’iy belgilangan stavka qo‘llanilgan holda hisoblab chiqarilgan summadan kam bo‘lishi mumkin emas.

291-modda. Soliq davri

Bir oy soliq davridir.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 29-moddasi.

292-modda. Soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Soliq hisoboti, agar ushbu moddaning ikkinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq bo‘yicha hisobda turilgan joydagi soliq organlariga har oyda, soliq davridan keyingi oyning o‘ninchi kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilingan taqdirda, soliq hisoboti avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari joylashgan yerdagi soliq organlariga har oyda, soliq davridan keyingi oyning o‘ninchi kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 45-moddasi.

293-modda. Soliq to‘lash tartibi

Soliqni to‘lash soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha soliqni to‘lash bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Aksiz markalari bilan tamg‘alanishi lozim bo‘lgan olib kiriladigan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq aksiz markalari olinguniga qadar to‘lanadi.

(293-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

XII BO‘LIM
FOYDA SOLIG‘I

42-bob. Soliq to‘lovchilar, soliq solish obyekti va soliq bazasi

294-modda. Soliq to‘lovchilar

Quyidagilar foyda solig‘ining soliq to‘lovchilari (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq to‘lovchilar deb yuritiladi) deb e’tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar (bundan buyon ushbu bo‘limda yuridik shaxslar deb yuritiladi);

2) O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshiradigan, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari (bundan buyon ushbu bo‘limda faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi norezidentlar deb yuritiladi);

3) O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromadlar oluvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar (bundan buyon ushbu bo‘limda norezidentlar deb yuritiladi);

4) soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchilari bo‘lgan yuridik shaxslar;

5) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari bir milliard so‘mdan ortiq bo‘lgan yoki o‘z ixtiyori bilan foyda solig‘ini to‘lashga o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

6) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo‘yicha oddiy shirkatning ishonchli shaxsi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari (bundan buyon ushbu bo‘limda konsolidatsiyalashgan guruh ishtirokchilari deb yuritiladi) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ining mazkur guruh mas’ul ishtirokchisi tomonidan hisoblab chiqarish uchun zarur bo‘lgan qismi bo‘yicha soliq to‘lovchilarning majburiyatlarini bajaradi.

Ushbu Kodeksning 36-moddasi to‘qqizinchi qismiga muvofiq agent vazifalarini amalga oshiruvchi jismoniy shaxs, ushbu modda birinchi qismining 2-bandiga muvofiq soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

Agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, aylanmadan soliq to‘lovchi shaxslar soliq to‘lovchilar hisoblanmaydi.

295-modda. Soliq solish obyekti

Soliq to‘lovchi tomonidan olingan foyda foyda solig‘i (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq deb yuritiladi) bo‘yicha soliq solish obyekti hisoblanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 25-moddasi.

Ushbu bo‘lim maqsadida quyidagilar foyda deb e’tirof etiladi:

1) yuridik shaxs uchun — ushbu bo‘limda nazarda tutilgan jami daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farq;

2) faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi norezident uchun — ushbu Kodeksning 49-bobida belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda, ushbu bo‘limda nazarda tutilgan doimiy muassasaning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan jami daromad (shu jumladan bunday doimiy muassasaning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar) va xarajatlar o‘rtasidagi farq;

3) norezident uchun — ushbu Kodeksning 50-bobida belgilangan xususiyatlar inobatga olingan holda, O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlar;

4) yakka tartibdagi tadbirkor uchun — ushbu Kodeksning 51-bobida belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda, ushbu bo‘limda nazarda tutilgan jami daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farq;

5) zimmasiga oddiy shirkat ishlarini yuritish yuklatilgan shaxs uchun — birgalikda ishlab chiqarilgan tovarni (ko‘rsatilgan xizmatni) realizatsiya qilishdan olingan daromad va birgalikda ishlab chiqarilib realizatsiya qilingan tovarga (xizmatga) to‘g‘ri keladigan birgalikdagi faoliyatga kiritilgan mablag‘lar summasi o‘rtasidagi farq.

296-modda. Soliq bazasi

Ushbu Kodeksning 295-moddasiga muvofiq aniqlanadigan, soliq solinishi lozim bo‘lgan foyda summasi soliq bazasi hisoblanadi.

Soliq bazasini ushbu bo‘limda belgilangan tartibda va shartlarda aniqlashda soliq to‘lovchi daromadlarining va (yoki) xarajatlarining (zararlarining) ayrim turlari maxsus qoidalar bo‘yicha inobatga olinishi yoki inobatga olinmasligi mumkin.

Soliq to‘lovchi ushbu bo‘limga muvofiq foydani va zararni hisobga olishning umumiy tartibidan farq qiladigan tartibi nazarda tutilgan operatsiyalar bo‘yicha daromadlarning (xarajatlarning) alohida-alohida hisobini yuritadi.

Soliq bazasi, agar ushbu Kodeksning 48 va 50-boblarida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq davri boshlanganidan e’tiboran ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Soliq to‘lovchi tomonidan hisobot (soliq) davrida ko‘rilgan zararlar soliq solish maqsadlarida soliq bazasini ushbu Kodeksning 46-bobida belgilangan tartibda va shartlarda kamaytiradi.

Soliq bazasi nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining ushbu Kodeksning VII bo‘limi va 331-moddasiga muvofiq belgilanadigan umumiy foydasini ham o‘z ichiga oladi.

Soliq bazasiga ushbu bo‘limda belgilangan hollarda va tartibda tuzatishlar kiritiladi.

Soliq to‘lovchining daromadlariga va (yoki) xarajatlariga (zararlariga) ushbu Kodeksning VI bo‘limida nazarda tutilgan hollarda tuzatishlar kiritiladi.

Natura shaklidagi daromadlar va xarajatlar, agar ushbu qismda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchi tomonidan bitimning haqiqiy narxidan kelib chiqqan holda inobatga olinadi. Agar bunday bitimdagi tovarlarning (xizmatlarning) narxi ularning bozor narxidan farq qilsa va bunday farqlanish soliq to‘lovchining soliq bazasi kamayishiga yoki zarari ko‘payishiga olib kelsa, soliq bazasi ushbu Kodeksning VI bo‘limiga muvofiq belgilanadigan bozor narxlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 26, 295, 331-moddalari.

43-bob. Jami daromad

297-modda. Umumiy qoidalar

Jami daromad yuridik shaxs tomonidan O‘zbekiston Respublikasidagi va uning hududidan tashqaridagi manbalardan hisobot (soliq) davri mobaynida olingan daromadlardan iboratdir.

Jami daromad, agar ushbu Kodeksning 299-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qo‘shilgan qiymat solig‘ini va aksiz solig‘ini inobatga olmagan holda aniqlanadi.

Ushbu bo‘lim maqsadida jami daromadga (bundan buyon ushbu bo‘limda daromad deb yuritiladi) har qanday shaklda va (yoki) har qanday faoliyatdan olinishi lozim bo‘lgan daromadlar (bundan buyon matnda olingan daromadlar deb yuritiladi), xususan, quyidagi daromadlar kiradi:

1) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad;

2) kredit (qarz, mikrokredit va boshqa moliyaviy operatsiyalar) bo‘yicha mukofot tarzidagi daromad;

3) sug‘urta, qayta sug‘urta tashkilotining sug‘urta, qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha daromadi;

(297-modda uchinchi qismining 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 17-apreldagi O‘RQ-1057-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.04.2025-y., 03/25/1057/0351-son)

5) qimmatli qog‘ozlar va (yoki) muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha ushbu Kodeksning 327 — 329-moddalariga muvofiq olingan daromad;

6) amortizatsiya qilinadigan aktivlarning va boshqa mol-mulkning ushbu Kodeksning 298-moddasiga muvofiq chiqib ketishidan olingan daromad;

(297-modda uchinchi qismining 6-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

7) moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga binoan mol-mulkni berish bo‘yicha pul mukofoti tarzidagi daromad;

8) mol-mulkni mulk ijarasiga (ijaraga) berishdan olingan daromad, bundan moliyaviy ijara (lizing) mustasno;

9) royalti;

10) ushbu Kodeksning 299-moddasiga muvofiq tekin olingan mol-mulk (olingan xizmatlar);

11) inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralarning va boshqa mol-mulkning qiymati tarzidagi daromad;

12) qonunchilikda belgilangan tartibda majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromad, bundan ushbu Kodeksning 317-moddasiga muvofiq ilgari chegirib tashlanmagan xarajatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar mustasno;

(297-modda uchinchi qismining 12-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

13) ushbu Kodeksning 300-moddasiga muvofiq talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo‘yicha olingan daromad;

14) ushbu Kodeksning 301-moddasiga muvofiq ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning o‘rnini qoplash tarzidagi daromad;

15) ushbu Kodeksning 302-moddasiga muvofiq xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan olinadigan daromad;

16) ushbu Kodeksning 319-moddasiga muvofiq birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olingan daromad;

17) qarzdor tomonidan e’tirof etilgan yoxud qarzdor tomonidan sudning qonuniy kuchga kirgan hujjati asosida shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan jarimalar, penyalar va boshqa sanksiyalar, shuningdek zararlarning (ziyonning) o‘rnini qoplash summalari;

18) ushbu Kodeksning 320-moddasiga muvofiq kursdagi ijobiy farq;

19) dividendlar va foizlar;

20) ishonchli boshqaruv muassisi tomonidan mol-mulkni ishonchli boshqarishdan olingan daromad;

21) shakllantirilish xarajatlari ushbu Kodeksning 44 va 45-boblarida belgilangan tartibda va shartlarda xarajatlar tarkibiga qabul qilingan, qayta tiklangan zaxiralar summalari;

22) aksiyador, ishtirokchi yuridik shaxs foydasiga o‘z ulushining (ulushi bir qismining) qiymatini olishdan voz kechgan taqdirda, mazkur yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) kamayishi munosabati bilan olgan daromad;

23) korxonani mol-mulk majmui sifatida sotishdan olingan daromad;

24) ushbu Kodeksning VI bo‘limida belgilangan hollarda va tartibda narxlarga tuzatishlar kiritish tufayli olingan daromad;

25) ushbu Kodeksning VII bo‘limida belgilangan hollarda va tartibda nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foyda tarzidagi daromadi;

251) ushbu Kodeks 248-moddasining to‘rtinchi qismida belgilangan hollarda va tartibda soliq bazasiga tovarlarning (xizmatlarning) bozor qiymatidan kelib chiqqan holda tuzatish kiritish natijasida olingan daromad;

(297-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan 251-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

26) alohida hisobi mavjud bo‘lmagan va (yoki) ulardan maqsadli foydalanilmagan maqsadli mablag‘lar tarzidagi daromad (bundan budjet to‘g‘risidagi qonunchilik normalari qo‘llaniladigan budjet mablag‘lari mustasno);

(297-modda uchinchi qismining 26-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

27) ushbu qismning 1 — 26-bandlarida ko‘rsatilmagan boshqa daromadlar.

Daromadlar soliq to‘lovchi tomonidan olingan daromadlarni tasdiqlovchi birlamchi hujjatlar va boshqa hujjatlar, shu jumladan elektron hujjatlar, shuningdek soliqni hisobga olishga doir hujjatlar asosida aniqlanadi.

Jami daromad ushbu bo‘lim maqsadlarida pul, natura shaklida va (yoki) boshqa shakllarda kelib tushgan barcha tushumlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to‘lovchi tomonidan olingan, qiymati chet el valyutasida ifodalangan daromadlar qiymati milliy valyutada ifodalangan daromadlar bilan birgalikda hisobga olinadi.

Yuridik shaxs qayta tashkil etilganda, mol-mulkning va pulda ifodalanadigan bahoga ega bo‘lgan nomulkiy huquqlarning qiymati va (yoki) yuridik shaxslarni qayta tashkil etish chog‘ida huquqiy vorislik tartibida olinadigan (o‘tkaziladigan), qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslar o‘zining qayta tashkil etilish sanasiga qadar olgan majburiyatlarining qiymati yangi tashkil etilgan, qayta tashkil etilayotgan va qayta tashkil etilgan yuridik shaxslarning daromadlari deb e’tirof etilmaydi.

Agar daromadni buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiq e’tirof etish daromadni ushbu Kodeksga muvofiq aniqlash va e’tirof etish tartibidan farq qilsa, mazkur daromad soliq solish maqsadlarida ushbu Kodeksda belgilangan tartibda hisobga olinadi, bundan ushbu moddaning to‘qqizinchi qismida ko‘rsatilgan hol mustasno.

(297-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.03.2026-y., 03/26/1126/0279-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 29-iyun)

Kredit tashkilotlari tomonidan olingan daromadlarni e’tirof etish sanasi Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va (yoki) buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiq hisobga olinadi.

(297-modda O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-sonli Qonuniga asosan to‘qqizinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.03.2026-y., 03/26/1126/0279-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 29-iyun)

Agar ushbu bo‘limda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikni qo‘llash chog‘ida aktivlar va (yoki) majburiyatlarning qiymati o‘zgarganligi munosabati bilan buxgalteriya hisobida aks ettirilgan daromadlarga soliq solish maqsadidagi daromadlar sifatida qaralmaydi, bundan haqiqatda olingan daromadlar mustasno.

(297-moddaning to‘qqizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, daromadni e’tirof etish sanasi buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiq aniqlanadi.

(297-moddaning o‘ninchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Soliq to‘lovchining daromadlariga tuzatish kiritish ushbu Kodeksning 332-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Agar muayyan bir daromad daromadlarning bir nechta moddasida nazarda tutilgan bo‘lsa, jami daromadni aniqlashda mazkur daromad faqat bir marta kiritiladi.

298-modda. Amortizatsiya qilinadigan aktivlarning va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan daromadlar (zararlar)

Ushbu moddaga muvofiq aniqlanadigan, chiqib ketishdan olinadigan moliyaviy natija amortizatsiya qilinadigan aktivlarning va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan daromad (zarar) deb e’tirof etiladi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning chiqib ketishidan olinadigan moliyaviy natija (foyda yoki zarar) amortizatsiya qilinadigan aktivning chiqib ketishidan olinadigan daromaddan uning qoldiq qiymatini chegirib tashlash orqali aniqlanadi. Amortizatsiya qilinadigan aktivning qoldiq qiymati ushbu Kodeks 306-moddasining yigirma beshinchi va yigirma oltinchi qismlariga hamda 307-moddasining yettinchi qismiga muvofiq aniqlanadi.

(298-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Amortizatsiya qilinadigan aktivning chiqib ketishidan olinadigan moliyaviy natijani (foydani yoki zararni) aniqlashda bunday aktiv bo‘yicha 2021-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra to‘plangan qo‘shimcha baholash summasi (ilgari qayta baholangan narxini oshirish summasining oldingi narxni pasaytirish summasidan ortiq summalari) amortizatsiya qilinadigan aktivning chiqib ketishidan olinadigan daromad tarkibiga kiritiladi.

Boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan moliyaviy natija buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlanadi. Mazkur qismning qoidalari ushbu Kodeksning 45-bobiga muvofiq soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladigan mol-mulkning chiqib ketish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

(298-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 270-moddasi.

299-modda. Tekin olingan mol-mulk (xizmatlar)

Agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchi tomonidan tekin olingan mol-mulk va (yoki) xizmatlar soliq to‘lovchining daromadi deb e’tirof etiladi.

Mol-mulkni (xizmatlarni) tekin asosda olish chog‘ida oluvchi shaxsning daromadlari, agar ushbu moddaning to‘rtinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushbu mol-mulkning (xizmatlarning) bozor qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tekin olingan mol-mulkning (xizmatlarning) bozor qiymati hujjat bilan tasdiqlanishi kerak. Xususan, quyidagilar shunday hujjatlar bo‘lishi mumkin:

1) yuklab jo‘natishga, yetkazib berishga yoki topshirishga doir hujjatlar;

2) mahsulot yetkazib beruvchilarning narxga doir ma’lumotlari (prays-varaqlar);

3) ommaviy axborot vositalaridan olingan ma’lumotlar;

4) birja xabarlari;

5) davlat statistika organlarining ma’lumotlari.

Qarz beruvchiga foizli daromad to‘lash majburiyatisiz qarz (qaytarish sharti bilan moliyaviy yordam) olish chog‘ida qarz oluvchining daromadi qarz (qaytarish sharti bilan moliyaviy yordam) olish sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Qarz oluvchining daromadini aniqlashning xuddi shunday tartibi qarz (qaytarish sharti bilan moliyaviy yordam) olish sanasida stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasidan kam bo‘lgan foizlar to‘lash sharti bilan berilgan qarzlarga (qaytarish sharti bilan moliyaviy yordamga) nisbatan qo‘llaniladi.

(299-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

Ushbu modda to‘rtinchi qismining qoidalari:

1) banklararo operatsiyalarga va kredit tashkilotlari tomonidan berilgan kreditlarga;

2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga ko‘ra, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan beriladigan qarzlarga (ssudalarga);

3) soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining bir ishtirokchisi tomonidan ayni shu konsolidatsiyalashgan guruhning boshqa ishtirokchisiga beriladigan qarzlarga (qaytarib berish sharti bilan moliyaviy yordamga) nisbatan tatbiq etilmaydi.

Ushbu moddaning birinchi qismi qoidalari ushbu Kodeksning 322-moddasida nazarda tutilgan soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mol-mulkni ishonchli boshqaruvga berishdan naf oluvchi oladigan daromadlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 322-moddasi.

300-modda. Talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo‘yicha olingan daromadlar

Talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo‘yicha olingan daromadlar quyidagilarning o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi:

1) talab qilish huquqini oluvchi soliq to‘lovchi uchun — qarzdordan talab bo‘yicha asosiy qarzdan olinishi lozim bo‘lgan summa, shu jumladan talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish sanasidagi asosiy qarzdan ortiq summa bilan talab qilish huquqini olish qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq;

2) talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechgan soliq to‘lovchi uchun — talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish qaysi qiymat bo‘yicha amalga oshirilgan bo‘lsa, o‘sha qiymat bilan soliq to‘lovchining dastlabki hisobga olish hujjatlariga binoan talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish sanasida qarzdordan olinishi lozim bo‘lgan talabning qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq;

3) qarzni talab qilish huquqini bundan buyon amalga oshiruvchi soliq to‘lovchi uchun — talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish qiymati bilan mazkur talabni sotib olish xarajatlarining summasi o‘rtasidagi ijobiy farq.

Talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechishdan olingan daromad talab qilish huquqidan voz kechish amalga oshirilgan hisobot (soliq) davrida e’tirof etiladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish shartnomasiga ko‘ra olingan salbiy farq soliq to‘lovchining zarari deb e’tirof etiladi va soliq bazasi aniqlanayotganda chegirib tashlanadi.

301-modda. Ilgari chegirib tashlangan xarajatlarning yoki zararlarning o‘rnini qoplash tarzidagi daromad

Ilgari chegirib tashlangan xarajatlarning yoki zararlarning o‘rnini qoplash tarzidagi daromadlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) joriy soliq davrida o‘rni qoplangan, shu jumladan bunday talablarga bo‘lgan huquqlardan o‘zganing foydasiga qayta voz kechish yo‘li bilan o‘rni qoplangan, oldin xarajatlar jumlasiga kiritilgan, umidsiz (tavakkal qilingan) deb e’tirof etilgan talablarning summalari;

2) chiqimlarning (xarajatlarning) o‘rnini qoplash uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetidan olingan mablag‘larning summalari;

3) sug‘urta tashkiloti yoki zarar yetkazgan shaxs tomonidan to‘langan zararni kompensatsiya qilish summalari, bundan ushbu Kodeksning 304-moddasida ko‘rsatilgan sug‘urta to‘lovlari mustasno;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 304-moddasi.

4) ilgari chegirmalar jumlasiga kiritilgan chiqimlarning o‘rnini qoplashdan olingan boshqa kompensatsiyalar.

Olingan kompensatsiya u qaysi hisobot (soliq) davrida olingan bo‘lsa, o‘sha hisobot (soliq) davrining daromadi bo‘ladi.

302-modda. Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan olingan daromadlar

Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar deganda faoliyati soliq to‘lovchining asosiy faoliyatiga xizmat ko‘rsatishga qaratilgan va soliq to‘lovchining asosiy faoliyati doirasida tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lmagan xo‘jaliklar tushuniladi.

Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) yordamchi xo‘jaliklar;

2) uy-joy-kommunal xo‘jaligi obyektlari: uy-joy fondi, mehmonxonalar (turistik mehmonxonalar bundan mustasno), tashrif buyuruvchilar uchun uylar va yotoqxonalar, tashqi obodonlashtirish obyektlari, sun’iy inshootlar, cho‘milish havzalari, plyajlarning inshootlari hamda asbob-uskunalari, aholini gaz, issiqlik va elektr bilan ta’minlash obyektlari, uy-joy-kommunal xo‘jaligi obyektlariga texnik xizmat ko‘rsatish hamda ularni ta’mirlash uchun mo‘ljallangan uchastkalar, sexlar, bazalar, ustaxonalar, garajlar, maxsus mashinalar va mexanizmlar, omborxonalar;

3) ijtimoiy-madaniy soha obyektlari: sog‘liqni saqlash va madaniyat obyektlari, bolalar maktabgacha ta’lim obyektlari, bolalarning dam olish oromgohlari, sanatoriylar (profilaktoriylar), dam olish bazalari, pansionatlar, jismoniy tarbiya va sport obyektlari, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasining ishlab chiqarishga oid bo‘lmagan obyektlari (hammomlar, saunalar, kirxonalar, tikuvchilik ustaxonalari hamda maishiy xizmatlar ko‘rsatuvchi boshqa ustaxonalar);

4) o‘z xodimlariga yoki o‘zga shaxslarga xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi umumiy ovqatlanish punktlari, o‘quv kombinatlari va shunga o‘xshash boshqa xo‘jaliklar, ishlab chiqarishlar hamda xizmatlar.

Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan olingan daromadlar xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar tomonidan tovarlarni va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan mablag‘larning summasi bilan xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarning umumiy faoliyatiga bog‘liq xarajatlarning summasi o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Ushbu bo‘limga muvofiq chegirib tashlanishi lozim bo‘lgan xarajatlar xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarning faoliyati bilan bog‘liq xarajatlar deb e’tirof etiladi.

Chegirib tashlanadigan xarajatlarning daromadlardan ortib ketishi xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan ko‘rilgan zarar deb e’tirof etiladi.

303-modda. Uzoq muddatli kontraktlar bo‘yicha daromadlar

Agar tuzilgan kontraktlar shartlarida xizmatlarni bosqichma-bosqich topshirish nazarda tutilmagan bo‘lsa, uzoq texnologik siklli ishlab chiqarish (bir soliq davridan ortiq) bo‘yicha mazkur xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromad hisobga olish ma’lumotlari asosida daromadni bir me’yorda e’tirof etish prinsipi inobatga olingan holda soliq to‘lovchi tomonidan taqsimlanadi.

Uzoq muddatli kontraktni hisobot davrining oxiriga kelib haqiqatda ijro etish kontraktni bajarish boshlangandan e’tiboran qilingan xarajatlarning solishtirma miqdorini kontraktni bajarishga doir xarajatlarning umumiy summasida hisob-kitob qilish asosida aniqlanadi.

Hisobot davrining oxiridagi daromad qilingan xarajatlarning hisob-kitob qilingan solishtirma miqdori va kontrakt bo‘yicha daromadning (kontrakt narxlari) umumiy summasidan kelib chiqib aniqlanadi. Mazkur kontrakt bo‘yicha ilgari hisobga olingan daromadlar joriy hisobot davrida xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadni aniqlash chog‘ida chegirib tashlanadi.

304-modda. Soliq solishda hisobga olinmaydigan daromadlar

Quyidagilar daromad sifatida hisobga olinmaydi:

1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo‘shilgan hissa tarzida olingan mablag‘lar;

2) aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish narxining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiqcha summasi;

3) ishtirokchilar tarkibidan chiqish (chiqib ketish) chog‘ida ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo‘shilgan hissa doirasida olingan yoki ishtirokchining ulushi miqdorini kamaytirish, shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulkini ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlash chog‘ida olingan mablag‘lar;

4) oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag‘lar;

5) oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha sherikning (ishtirokchining) shartnoma sheriklari (ishtirokchilari) umumiy mulkidagi ulushi qaytarilgan yoki bunday mol-mulk bo‘lingan taqdirda, ushbu sherik (ishtirokchi tomonidan) qo‘shilgan hissa miqdorida olingan mablag‘lar;

6) realizatsiya qilinadigan tovarlar (xizmatlar) uchun oldindan to‘lov (bo‘nak) tarzida boshqa shaxslardan olingan mablag‘lar;

61) boshqaruvchi tashkilotlar yoki ko‘p kvartirali uylarni boshqaruvchilar tomonidan umumiy mol-mulkni boshqarish, unga texnik xizmat ko‘rsatish va uni ta’mirlash, shuningdek ko‘p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalarini obodonlashtirish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlardan hamda bajarilgan ishlardan olingan mablag‘lar;

(304-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-773-sonli Qonuniga asosan 61-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/773/0461-son)

62) “Mahalla servis” kompaniyalari tomonidan mahallalarni obod qilish bilan bog‘liq ishlarni bajarishdan hamda mahallalar aholisiga qonunchilik hujjatlarida belgilangan ayrim turdagi ijtimoiy ahamiyatli pulli xizmatlar ko‘rsatishdan olingan mablag‘lar;

(304-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-iyundagi O‘RQ-1071-sonli Qonuniga asosan 62-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.06.2025-y., 03/25/1071/0545-son)

> **Izoh.** 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

7) qonunchilikka muvofiq ushbu majburiyatlarning ta’minoti sifatida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag‘lar, ularga bo‘lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tgan paytga qadar;

(304-modda birinchi qismining 7-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

8) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq tekinga olingan mol-mulk va xizmatlar;

9) ushbu Kodeksning 48-moddasida nazarda tutilgan talablar bajarilishi sharti bilan olingan grantlar, insonparvarlik yordami va maqsadli tushumlar;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 48-moddasi.

10) sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta tovoni (sug‘urta summasi) tarzida olingan mablag‘lar;

11) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga doir boshqa shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishi munosabati bilan, shuningdek vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan komitent yoxud boshqa ishonch bildiruvchi uchun amalga oshirilgan xarajatlarning o‘rnini qoplash hisobidan kelib tushgan mol-mulk (pul mukofoti bundan mustasno). Bunday xarajatlar, agar tuzilgan shartnomalar shartlarida bu xarajatlarning o‘rnini qoplash nazarda tutilgan bo‘lsa, vositachidan yoki ishonchli vakildan chegirib tashlanmaydi;

12) moliyaviy ijara (lizing) obyektining qiymati o‘rnini ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to‘lovining qismi tarzida qoplash;

13) mol-mulk ijarasiga doir shartnoma bo‘yicha olingan mol-mulk, bundan moliyaviy ijara (lizing) mustasno;

14) telekommunikatsiya tarmoqlaridagi tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek ulardan foydalanish va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xizmatlar;

15) investor va davlat mulkini boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida kiritiladigan mol-mulk;

16) kredit yoki qarz shartnomalari bo‘yicha mablag‘lar yoki boshqa mol-mulk (mablag‘ jalb qilishni rasmiylashtirish usulidan qat’i nazar, boshqa shunday mablag‘lar yoki boshqa mol-mulk, shu jumladan qarz qimmatli

qog‘ozlar), shuningdek bunday jalb qilingan mablag‘larni to‘lash hisobidan mablag‘lar yoki boshqa mol-mulk;

17) konsessiya bitimi bo‘yicha qonunchilikka muvofiq olingan mol-mulk;

(304-modda birinchi qismining 17-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

18) davlat muassasalari tomonidan barcha darajalardagi ijro etuvchi hokimiyat organlarining qaroriga ko‘ra olingan mol-mulk;

19) O‘zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha olingan daromadlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi tomonidan va O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari tomonidan chiqarilgan xalqaro obligatsiyalar bo‘yicha daromadlar;

20) soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq hisobdan chiqarilgan penyalarning va jarimalarning summasi;

(304-modda birinchi qismining 20-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

21) qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga asoslangan generatsiya obyektlarining “yashil energiya” sertifikatlari savdosidan tushgan daromadlari;

(304-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-fevraldagi O‘RQ-906-sonli Qonuniga asosan 21-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.02.2024-y., 03/24/906/0108-son)

22) bankrot deb topilgan qarzdor yuridik va jismoniy shaxslarning yoki yakka tartibdagi tadbirkorning mol-mulkini sotishdan tushgan mablag‘larining qarzni to‘lashga yo‘naltirilgan qismi;

(304-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-fevraldagi O‘RQ-911-sonli Qonuniga asosan 22-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son)

23) REPO operatsiyalari bo‘yicha daromad;

(304-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 17-apreldagi O‘RQ-1057-sonli Qonuniga asosan 23-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.04.2025-y., 03/25/1057/0351-son)

44-bob. Xarajatlar

305-modda. Umumiy qoidalar

Ushbu Kodeks 294-moddasi birinchi qismining birinchi bandida ko‘rsatilgan yuridik shaxslarning soliq bazasini aniqlashda ushbu shaxslarning jami daromadidan daromad olish bilan bog‘liq barcha xarajatlar chegirib tashlanadi, bundan ushbu bo‘limga ko‘ra chegirib tashlanmaydigan xarajatlar mustasno.

Ushbu bo‘lim maqsadlarida soliq to‘lovchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida ham, uning hududidan tashqarida ham hisobot (soliq) davri davomida amalga oshirilgan (ko‘rilgan), asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlari (ushbu Kodeksning 333 — 336-moddalarida nazarda tutilgan hollarda esa zararlar) xarajatlar deb e’tirof etiladi.

Asoslangan xarajatlar deganda bahosi pul shaklida ifodalangan, iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlagan chiqimlar tushuniladi.

Har qanday chiqimlar, basharti ular hech bo‘lmaganda quyidagi shartlardan biriga muvofiq kelgan taqdirda, iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlagan chiqimlar deb e’tirof etiladi:

1) daromad olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida qilingan bo‘lsa;

2) shunday tadbirkorlik faoliyatini saqlab turish yoki rivojlantirish uchun zarur bo‘lsa yoxud xizmat qilsa va xarajatlarning tadbirkorlik faoliyati bilan aloqasi aniq asoslangan bo‘lsa;

3) qonunchilikning qoidalaridan kelib chiqsa.

(305-modda to‘rtinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar deganda quyidagi hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlar tushuniladi:

1) O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar;

(305-modda beshinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) tegishli xarajatlar amalga oshirilgan chet davlat hududida qo‘llaniladigan tartibga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar;

3) boshqa shaklda rasmiylashtirilgan, shu jumladan xizmat safari to‘g‘risidagi buyruq, yo‘l hujjatlari, shartnomaga muvofiq ko‘rsatilgan xizmat haqidagi hisobot bilan rasmiylashtirilgan hujjatlar.

Ushbu Kodeksning 37-bobiga muvofiq, jumladan amortizatsiya qilinadigan aktivlarni sotib olish va hisobga olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘ining summasi, shu xarajat sifatida e’tirof etilmaydi, bundan ushbu Kodeksning 314-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Agar ayni bir xarajatlar xarajatlarning bir nechta moddasida nazarda tutilgan bo‘lsa, soliq bazasini hisob-kitob qilishda mazkur xarajatlar faqat bir marta chegirib tashlanadi.

Soliq to‘lovchining qiymati chet el valyutasida ifodalangan xarajatlari milliy valyutada qiymati ifodalangan xarajatlar bilan birgalikda hisobga olinadi.

Agar buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiq xarajatni e’tirof etish ushbu Kodeksga muvofiq xarajatni aniqlash va e’tirof etish tartibidan farq qilsa, mazkur xarajat soliq solish maqsadlarida ushbu Kodeksda belgilangan tartibda hisobga olinadi.

(305-moddaning to‘qqizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar ushbu bo‘limda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq solish maqsadlarida, buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikni qo‘llash chog‘ida aktivlar va (yoki) majburiyatlarning qiymati o‘zgarganligi munosabati bilan buxgalteriya hisobida aks ettirilgan chiqimlarga xarajatlar sifatida qaralmaydi, bundan haqiqatda to‘langan xarajatlar mustasno.

(305-moddaning o‘ninchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiq, uzoq muddatli aktivlarning dastlabki qiymatiga va zaxiralarning tannarxiga kiritiladigan xarajatlar amortizatsiya ajratmalari vositasida va bunday zaxiralarning tannarxi orqali chegirmalar jumlasiga kiritilishi lozim.

(305-moddaning o‘n birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Ushbu Kodeks 306-moddasining oltinchi qismiga muvofiq amortizatsiya ajratmalari hisoblanmaydigan uzoq muddatli aktivlarning qiymati mazkur aktivlar ushbu Kodeksning 298-moddasida nazarda tutilgan tartibda chiqib ketayotganda soliq bazasini aniqlashda hisobga olinadi.

(305-moddaning o‘n ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Soliq to‘lovchining xarajatlariga tuzatishlar kiritish ushbu Kodeksning 332-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu Kodeksning 306 — 316-moddalari va 45-bobida ko‘rsatilgan xarajatlar ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan shartlarga rioya etilgan holda chegirmalar jumlasiga kiritiladi.

306-modda. Amortizatsiya xarajatlari

Ushbu Kodeksga muvofiq soliq to‘lovchi amortizatsiya qilinadigan aktivlar sifatida hisobga oladigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar ushbu Kodeks maqsadlarida amortizatsiya qilinadigan aktivlar deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida birlik (to‘plam) uchun belgilangan (asosiy vosita sifatida e’tirof etilgan sanadagi), qiymati bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari miqdoridan yuqori bo‘lgan, soliq to‘lovchida mulk huquqi asosida turgan (agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa) va soliq to‘lovchi tomonidan tovarlarni ishlab chiqarishda (xizmatlar ko‘rsatishda) yoki ma’muriy-boshqaruv ehtiyojlari uchun uzoq vaqt (davomiyligi o‘n ikki oydan ortiq vaqt) mobaynida foydalaniladigan mol-mulk soliq solish maqsadlarida asosiy vosita deb e’tirof etiladi.

Soliq to‘lovchi soliq davri uchun soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosatida mol-mulk qiymatini asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun mol-mulkning eng kam chegarasini belgilashga haqli.

(O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 7-fevraldagi O‘RQ-1025-sonli Qonuniga asosan 306-modda to‘rtinchi qismining chiqarilish sanasi 2025-yil 8-may — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son)

Quyidagilar ham amortizatsiya qilinadigan aktiv deb e’tirof etiladi:

ijaraga beruvchining (qarz beruvchining) roziligi bilan ijaraga va (yoki) bepul foydalanishga berilgan amortizatsiya qilinadigan aktivga ijaraga oluvchi (qarz oluvchi) tomonidan amalga oshirilgan ajratib bo‘lmaydigan yaxshilash shaklidagi kapital qo‘yilmalar;

soliq to‘lovchilar tomonidan o‘z mablag‘lari hisobidan ijtimoiy infratuzilma (elektr, gaz, issiqlik ta’minoti, suv ta’minoti, kanalizatsiya, yo‘l) tarmoqlarini qurish xarajatlari. Bunda mazkur xarajatlar ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari tegishli ta’minotchi tashkilotga beg‘araz topshirilgan hamda Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazining tegishli xulosasi soliq organiga taqdim etilgan taqdirda asoslantirilgan deb hisoblanadi.

(306-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Moliyaviy ijara shartnomasi (lizing shartnomasi) bo‘yicha olingan amortizatsiya qilinadigan aktiv ijara (lizing) obyektini oluvchida amortizatsiya qilinadigan aktivlar tarkibiga kiritiladi.

Quyidagi aktivlar amortizatsiya qilinmaydi:

1) yer va tabiatdan foydalanishga doir boshqa obyektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar);

2) mahsuldor chorva mollari;

3) axborot-kutubxona fondi;

4) muzey ashyolari;

5) moddiy madaniy meros obyektlari;

6) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, yo‘lkalar, sayilgohlar, xiyobonlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufida bo‘lgan obodonlashtirish inshootlari;

7) qiymati soliq solish maqsadida ushbu soliq to‘lovchida ilgari to‘liq xarajatlar jumlasiga kiritilgan amortizatsiya qilinadigan aktiv;

8) soliq to‘lovchi tomonidan amortizatsiya qilinadigan aktivlar tarkibiga o‘tkazilmagan kapital qo‘yilmalar;

9) budjet tashkilotlarining amortizatsiya qilinadigan aktivlari, bundan tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilishi munosabati bilan sotib olingan va bunday faoliyatni amalga oshirish uchun foydalaniladigan amortizatsiya qilinadigan aktivlar mustasno;

10) maqsadli moliyalashtirishning budjet mablag‘lari hisobiga sotib olingan (yaratilgan) amortizatsiya qilinadigan aktivlar (tegishli qismi bo‘yicha). Mazkur norma soliq to‘lovchi tomonidan xususiylashtirish chog‘ida olingan amortizatsiya qilinadigan aktivga nisbatan qo‘llanilmaydi;

11) ushbu Kodeks 304-moddasining 8, 9, 14 va 15-bandlariga muvofiq kelib tushgan mablag‘lar hisobidan olingan yoki sotib olingan (yaratilgan), shuningdek soliq va bojxona imtiyozlari berilishi natijasida bo‘shagan mablag‘lar hisobidan olingan yoki sotib olingan (yaratilgan) amortizatsiya qilinadigan aktiv (tegishli qismi bo‘yicha).

Ushbu modda maqsadida quyidagilar amortizatsiya qilinadigan aktivlar tarkibidan chiqarib tashlanadi:

1) konservatsiya davri uchun — qonunchilikda belgilangan tartibda konservatsiya qilingan amortizatsiya qilinadigan aktiv;

2) soliq to‘lovchining qaroriga ko‘ra o‘n ikki oydan ortiq vaqt rekonstruksiya qilishda yoki modernizatsiyalashda bo‘lgan amortizatsiya qilinadigan aktiv, bundan rekonstruksiya qilish yoki modernizatsiyalash jarayonida bunday aktivdan soliq to‘lovchi tomonidan o‘z faoliyatida foydalanilishi davom ettiriladigan hollar mustasno.

Agar mazkur moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushbu modda maqsadida amortizatsiya qilinadigan aktiv boshlang‘ich qiymat bo‘yicha hisobga olinadi.

2021-yil 31-dekabrdan keyin sotib olingan (olingan, yaratilgan) amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang‘ich qiymati uni sotib olishga, qurishga, ishlab chiqarishga, yetkazib berishga va foydalanish uchun yaroqli bo‘lgan holatga keltirishga doir xarajatlar summasi sifatida (agar bunday aktiv soliq to‘lovchi tomonidan bepul olingan yoxud inventarizatsiya natijasida aniqlangan bo‘lsa, shu aktivning ushbu Kodeksning 299-moddasiga muvofiq belgilanadigan bozor qiymati sifatida) aniqlanadi.

Moliyaviy ijara va (yoki) lizing predmeti bo‘lgan amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang‘ich qiymati ushbu moddaning to‘qqizinchi qismida ko‘rsatilgan tartibga o‘xshash tartibda aniqlanadi.

(306-moddaning o‘ninchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Aksiyadorning (ishtirokchining, mulkdorning) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissasi hisobidan olingan, amortizatsiya qilinadigan aktivlarning boshlang‘ich qiymati deb mazkur aktivlarning aksiyadorlar (ishtirokchilar, mulkdorlar) tomonidan kelishilgan, lekin ushbu Kodeksning 299-moddasida ko‘rsatilgan tartibga o‘xshash tartibda aniqlanadigan bozor qiymatidan yuqori bo‘lmagan puldagi bahosi e’tirof etiladi.

Soliq to‘lovchining o‘zi barpo etgan (tayyorlagan, yaratgan), amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang‘ich qiymati deb bunday aktivni barpo etish (qurish, qo‘shimcha qurish, tayyorlash, yaratish) bo‘yicha haqiqiy xarajatlar summasi e’tirof etiladi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang‘ich qiymati quyidagilar hisobga olinmagan holda aniqlanadi:

ushbu Kodeksning 37-bobiga muvofiq hisobga olingan va (yoki) 314-moddasiga muvofiq xarajatlar tarkibida hisobga olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i;

foizlar bo‘yicha xarajatlarni va ushbu Kodeksga muvofiq chegirib tashlanishi lozim bo‘lgan yoki xarajatlar tarkibida hisobga olinadigan amortizatsiya qilinadigan aktivni sotib olish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar.

Sotish uchun mo‘ljallangan zaxiralar yoki aktivlar tarkibidan o‘tkazilgan amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang‘ich qiymati ushbu aktivning buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq bunday kelib tushish sanasida aniqlangan balans qiymatidir.

Agar amortizatsiya qilinadigan aktiv soliq to‘lovchi tomonidan qayta tashkil etish natijasida (bundan tashkiliy-huquqiy shakl o‘zgargan hollar mustasno) olingan bo‘lsa, bunday aktivning topshirish dalolatnomasida yoki taqsimlash balansida ko‘rsatilgan balans qiymati uning boshlang‘ich qiymati bo‘ladi.

2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra buxgalteriya hisobi ma’lumotlariga ko‘ra soliq to‘lovchida mavjud bo‘lgan, amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang‘ich (qayta tiklanish) qiymati soliq solish maqsadlarida ilgari o‘tkazilgan qayta baholashlarni hisobga olgan holda uning boshlang‘ich qiymati sifatida aniqlanadi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning qayta tiklanish qiymatini aniqlashda ushbu modda maqsadida soliq to‘lovchining qarori bo‘yicha 2020-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra amalga oshirilgan va soliq to‘lovchining buxgalteriya hisobida 2020-yil 1-yanvardan keyin aks ettirilgan amortizatsiya qilinadigan aktivning qayta baholanishi hisobga olinadi.

Ushbu bo‘lim maqsadida soliq to‘lovchi tomonidan 2021-yil 1-yanvardan keyin amortizatsiya qilinadigan aktiv qiymatini qayta baholash (narxini pasaytirish) amalga oshirilganda, bunday qayta baholashning ijobiy (salbiy) summasi daromad (xarajat) deb e’tirof etilmaydi, amortizatsiya qilinadigan aktivning qayta tiklanish qiymatini aniqlashda va amortizatsiyani hisoblashda hisobga olinmaydi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang‘ich qiymati bunday aktivga soliq to‘lovchi tomonidan kapital qo‘yilmalar amalga oshirilgan taqdirda, basharti ular iqtisodiy jihatdan o‘rinli bo‘lsa, o‘zgaradi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang‘ich qiymati tegishli obyektlar qo‘shimcha qurilgan, qo‘shimcha jihozlangan, rekonstruksiya qilingan, modernizatsiya qilingan, texnologik jihatdan qayta jihozlangan, qisman tugatilgan hollarda va boshqa shunga o‘xshash asoslarga, shu jumladan tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga ko‘ra o‘zgaradi.

Asbob-uskunalar, binolar, inshootlarning yoki boshqa amortizatsiya qilinadigan aktivning texnologik yoki xizmat ko‘rsatish jihatidan belgilangan maqsadining o‘zgarishi va (yoki) boshqa yangi sifatlarning olinishi bilan bog‘liq ishlar, qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha jihozlash, modernizatsiya qilishga doir ishlar jumlasiga kiradi.

Ushbu modda maqsadida ishlab chiqarishni takomillashtirish va uning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan hamda ishlab chiqarish quvvatlarini ko‘paytirish, tovarlar (xizmatlar) sifatini yaxshilash va (yoki) ularning nomenklaturasini o‘zgartirish maqsadida amortizatsiya qilinadigan aktivni rekonstruksiya qilish loyihasi bo‘yicha amalga oshiriladigan, mavjud amortizatsiya qilinadigan aktivni qayta qurish rekonstruksiya qilish jumlasiga kiradi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning yoki uning ayrim qismlarining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini texnika va texnologiyani o‘zgartirish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, ma’nan eskirgan hamda jismonan ishdan chiqqan asbob-uskunalarni modernizatsiyalash va almashtirish asosida oshirishga doir kompleks tadbirlar texnik jihatdan qayta jihozlash jumlasiga kiradi. Texnik jihatdan qayta jihozlash yangi ishlab chiqarishlarni barpo etishni va amaldagilarini kengaytirishni ham o‘z ichiga oladi.

Ijaraga olingan amortizatsiya qilinadigan aktivlarga va (yoki) bepul foydalanish shartnomasi bo‘yicha olingan amortizatsiya qilinadigan aktivlarga kapital qo‘yilmalar quyidagi tartibda amortizatsiya qilinadi:

ijaraga beruvchi tomonidan ijaraga oluvchiga (qarz beruvchi tomonidan qarz oluvchiga) qiymatining o‘rni qoplanadigan kapital qo‘yilmalar ijaraga beruvchi (qarz beruvchi) tomonidan amortizatsiya qilinadi;

ijaraga oluvchi ijaraga beruvchining roziligi bilan (qarz beruvchining roziligi bilan qarz oluvchi) amalga oshirgan, qiymatining o‘rni ijaraga beruvchi (qarz beruvchi) tomonidan qoplab berilmaydigan kapital qo‘yilmalar ijaraga oluvchi (qarz oluvchi) tomonidan amortizatsiya qilinadi.

2020-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra soliq to‘lovchida mavjud bo‘lgan amortizatsiya qilinadigan aktivlarning qoldiq qiymati bunday amortizatsiya qilinadigan aktivlarning boshlang‘ich (tiklanish) qiymati va 2021-yil 1-yanvargacha hisoblangan (jamg‘arilgan) amortizatsiya summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

2020-yilning 31-dekabridan keyin ishga tushirilgan amortizatsiya qilinadigan aktivning qoldiq qiymati uning boshlang‘ich qiymati va soliqni hisoblab chiqarish maqsadida hisoblangan (jamg‘arilgan) amortizatsiya summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Ushbu Kodeks 308-moddasining yettinchi qismiga muvofiq investitsiyaviy chegirma bekor qilingan taqdirda, jamg‘arilgan amortizatsiya investitsiyaviy chegirma chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning qiymati ushbu Kodeksning 308-moddasida nazarda tutilgan amortizatsiya ajratmalari va (yoki) investitsiyaviy chegirmalar orqali xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Agar ushbu moddaning o‘n oltinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, amortizatsiya qilinadigan aktivning qiymati amortizatsiya ajratmalarini qayta baholash hisobga olinmagan holda boshlang‘ich qiymatdan hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalari orqali xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

(306-moddaning yigirma sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Amortizatsiya qilinadigan aktivlar amortizatsiyani hisoblash maqsadida, ushbu moddaning qoidalariga muvofiq va O‘zbekiston Respublikasi asosiy fondlarining statistik tasniflari hisobga olingan holda aktivni ishga tushirish sanasida amortizatsiya guruhlari (kichik guruhlari) bo‘yicha taqsimlanadi.

Amortizatsiya qilinadigan barcha aktivlar (bundan nomoddiy aktivlar mustasno) bo‘yicha amortizatsiyani hisoblash amortizatsiyaning quyidagi eng yuqori normalari qo‘llanilgan holda to‘g‘ri chiziqli usul orqali amalga oshiriladi:

Guruhlar tartib raqami

Kichik guruhlar tartib raqami

Amortizatsiya guruhlarining (kichik guruhlarining) nomi

Amortizatsiyaning normasi,

foizlarda

I

Binolar va inshootlar

1

Binolar

5

2

Inshootlar

10

II

Quvurlar, elektr uzatish va telekommunikatsiyalar liniyalari

15

III

Mashinalar va uskunalar (transport uskunalaridan tashqari)

20

IV

Transport uskunalari

1

Havo va kosmik uchish apparatlari va ular bilan bog‘liq uskunalar, kemalar va qayiqlar, lokomotivlar va harakatdagi tarkib (temir yo‘l tarkibi)

10

2

Avtotransport vositalari, avtomobil kuzovlari (korpuslari), tirkamalar va yarim tirkamalar, boshqa transport uskunalari

20

V

Kompyuterlar va periferiya uskunalari

40

VI

Boshqa guruhlarga kiritilmagan amortizatsiya qilinadigan aktivlar

15

Soliq to‘lovchi soliqni hisoblab chiqarish maqsadida amortizatsiyani ushbu moddada belgilanganidan pastroq normalar bo‘yicha hisoblashga haqli.

Soliq solish maqsadi uchun amortizatsiya summasi soliq to‘lovchilar tomonidan har oyda aniqlanadi. Amortizatsiya har bir amortizatsiya qilinadigan aktiv bo‘yicha alohida hisoblanadi hamda uning boshlang‘ich qiymatining va ushbu obyekt uchun belgilangan amortizatsiya normasining ko‘paytmasi sifatida aniqlanadi.

Amortizatsiya qilinadigan aktiv, shu jumladan qonunchilikka muvofiq huquqlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan amortizatsiya qilinadigan aktivlar bo‘yicha amortizatsiyani hisoblash ushbu aktiv, u davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan qat’i nazar, foydalanishga topshirilgan sanadan e’tiboran boshlanadi.

Agar soliq to‘lovchi biror-bir kalendar oy ichida ta’sis etilgan, tugatilgan yoki qayta tashkil etilgan bo‘lsa, amortizatsiya quyidagi xususiyatlar hisobga olingan holda hisoblanadi:

1) amortizatsiya ta’sis etilayotgan, qayta tashkil etish natijasida tashkil etilayotgan soliq to‘lovchi tomonidan u davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan e’tiboran hisoblanadi;

2) amortizatsiya tugatilayotgan soliq to‘lovchi tomonidan tugatish yakunlanadigan sanagacha, qayta tashkil etilayotgan soliq to‘lovchi tomonidan esa qayta tashkil etish tugatiladigan sanagacha hisoblanadi.

Ushbu modda o‘ttiz to‘rtinchi qismining qoidalari o‘zining tashkiliy-huquqiy shaklini o‘zgartirayotgan soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

(306-moddaning o‘ttiz beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Amortizatsiyani hisoblash amortizatsiya qilinadigan aktivning qiymati to‘liq hisobdan chiqarilgan sanadan e’tiboran yoki bunday aktiv soliq to‘lovchining amortizatsiya qilinadigan aktivlari tarkibidan har qanday asoslarga

ko‘ra chiqarilganda tugatiladi.

Ushbu moddaning yettinchi qismiga muvofiq amortizatsiya qilinadigan aktiv tarkibidan chiqarib tashlangan aktivlar bo‘yicha amortizatsiyani hisoblash ushbu aktiv amortizatsiya qilinadigan aktiv tarkibidan chiqarib tashlangan sanadan e’tiboran tugatiladi va amortizatsiya qilinadigan aktiv raskonservatsiya qilingan yoki uni rekonstruksiya qilish (modernizatsiyalash) yakunlangan sanadan e’tiboran qayta tiklanadi.

(306-moddaning o‘ttiz yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Soliq solish maqsadlarida amortizatsiya qilinadigan aktivning qiymatiga ushbu Kodeks 317-moddasining 17-bandida nazarda tutilgan xarajatlar kiritilmaydi.

Nomoddiy aktivlarning qiymati ushbu Kodeksning 307-moddasida nazarda tutilgan tartibda xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

(306-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Agar soliq to‘lovchi ushbu Kodeks 75-moddasining oltinchi qismiga muvofiq tezlashtirilgan amortizatsiya qilish huquqidan foydalanishga haqli bo‘lsa, u holda soliq to‘lovchi soliq bazasini amortizatsiya qilinadigan asosiy vositalarning amortizatsiya qilinmagan (qoldiq) qiymatini tezlashtirilgan amortizatsiya qilish orqali soliq bazasiga teng miqdorgacha kamaytirish huquqiga ega.

Tezlashtirilgan amortizatsiya qilish huquqi soliq solinadigan daromadlar olish bilan bog‘liq bo‘lmagan, soliq to‘lovchining ta’sischilari tomonidan uning ustav fondiga (ustav kapitaliga) kiritilgan yoxud operativ ijaraga berilgan asosiy vositalarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Soliq bazasi har bir soliq davrida soliq bo‘yicha shakllangan soliq bazasi miqdori doirasida, lekin ko‘pi bilan uch yil muddatga kamaytirilishi mumkin. Tezlashtirilgan amortizatsiya qilish muddati yakunlanganidan keyin amortizatsiya qilinadigan asosiy vositalar ushbu moddaga muvofiq amortizatsiya normalari doirasida amortizatsiya qilinadi.

Tezlashtirilgan amortizatsiya qilish huquqi berilgan davrda ushbu huquq qo‘llanilgan amortizatsiya qilinadigan asosiy vositalar realizatsiya qilingan, bepul berilgan va boshqacha tarzda (bundan tabiiy ofat, yong‘in, avariya va shunga o‘xshash boshqa hollar mustasno) chiqib ketgan taqdirda, tezlashtirilgan amortizatsiya summasi bunday aktivning chiqib ketishi yuz bergan hisobot (soliq) davrida soliq bazasiga tiklash orqali bekor qilinadi.

Ushbu moddaga muvofiq norma doirasida hisoblangan amortizatsiya ajratmalari va tezlashtirilgan amortizatsiya summasi hamda ushbu Kodeksning 308-moddasiga asosan hisoblangan investitsiya chegirmalarining jami qiymati amortizatsiyalanadigan qiymatdan oshmasligi lozim.

(306-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan qirqinchi — qirq to‘rtinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

307-modda. Nomoddiy aktivlarni amortizatsiya qilish xarajatlari

Soliq to‘lovchining tovarlar ishlab chiqarishda (xizmatlar ko‘rsatishda) yoki ma’muriy-boshqaruv ehtiyojlari uchun uzoq vaqt (davomiyligi o‘n ikki oydan ortiq vaqt) mobaynida foydalaniladigan intellektual faoliyat natijalari va boshqa intellektual mulk obyektlari (ularga bo‘lgan mutlaq huquqlar) soliq solish maqsadlarida nomoddiy aktivlar deb e’tirof etiladi.

Nomoddiy aktivlar jumlasiga, xususan, basharti soliq to‘lovchi ushbu aktivlarga nisbatan mutlaq huquqlarga ega bo‘lsa, ushbu Kodeks 44-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan aktivlar kiradi.

Nomoddiy aktivni tan olish uchun quyidagilar zarur:

soliq to‘lovchiga iqtisodiy naf (daromad) olib kelish imkoniyatining mavjudligi;

nomoddiy aktivning o‘zi mavjudligini va (yoki) soliq to‘lovchida intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan mutlaq huquq mavjud ekanligini tasdiqlovchi lozim darajada rasmiylashtirilgan hujjatlarning (shu jumladan patentlar, guvohnomalarning, boshqa muhofaza hujjatlarining, patentdan, tovar belgisidan o‘zganing foydasiga voz kechishga (uni olishga) doir shartnomaning) mavjudligi.

Nomoddiy aktivdan foydali tarzda foydalanish muddatini aniqlash patentning, guvohnomaning amal qilish muddatidan va (yoki) intellektual mulk obyektlaridan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga yoki chet davlatning

qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan qonunchiligiga muvofiq foydalanish muddatlariga doir boshqa cheklovlardan kelib chiqqan holda yoxud nomoddiy aktivlardan foydali tarzda foydalanishning tegishli shartnomalarda shartlashilgan muddatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya har oyda soliq to‘lovchi tomonidan ularning boshlang‘ich qiymatidan va bunday nomoddiy aktivdan foydali tarzda foydalanish muddatidan, biroq soliq to‘lovchining faoliyati muddatidan ko‘p bo‘lmagan muddatdan kelib chiqqan holda hisob-kitob qilingan normalar bo‘yicha hisoblanadi.

Foydali tarzda foydalanish muddatini aniqlash mumkin bo‘lmagan nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya normalari besh yillik muddatga belgilanadi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan istalgan nomoddiy aktivdan foydalanish va foydalanish huquqi uchun soliq to‘lovchi tomonidan to‘lanadigan davriy (joriy) to‘lovlar ushbu Kodeks 305-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan shartlarga rioya etilgan taqdirda xarajatlar deb e’tirof etiladi va chegirmalar jumlasiga mutanosib ravishda foydalanish muddat davomida kiritiladi”;

(307-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

308-modda. Investitsiyaviy chegirma

Soliq to‘lovchi ushbu Kodeksning 306-moddasiga muvofiq aniqlanadigan aktivning boshlang‘ich qiymatidan kelib chiqqan holda amortizatsiya qilinishi lozim bo‘lgan amortizatsiya qilinadigan aktivlar bo‘yicha investitsiyaviy chegirmalarni ushbu moddada belgilangan tartibda va shartlarda qo‘llashga haqli.

(308-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Investitsiyaviy chegirma amortizatsiya xarajati deb e’tirof etiladi.

Investitsiyaviy chegirma quyidagi miqdorda qo‘llaniladi:

1) yangi texnologik uskunalar qiymatining, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va (yoki) texnologik jihatdan qayta jihozlash xarajatlarining va (yoki) axborot tizimlarini yaratishga doir investitsiya loyihalari doirasida mahalliy ishlab chiqarishning dasturiy ta’minotini sotib olishga yo‘naltiriladigan mablag‘lar summalarining 20 foizi miqdorida;

(308-modda uchinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

2) ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilishga yo‘naltiriladigan mablag‘lar summasining 10 foizi miqdorida.

(308-modda uchinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Ushbu Kodeks 317-moddasining 17-bandiga muvofiq chegirib tashlanmaydigan xarajatlar bo‘yicha investitsiyaviy chegirma berilmaydi.

Investitsiyaviy chegirma yangi texnologik uskunani ishga tushirish amalga oshirilgan yoxud o‘z ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, texnik va (yoki) texnologik jihatdan qayta jihozlash amalga oshirilgan, ishlab chiqarish yangi qurilish shaklida kengaytirilgan, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilish amalga oshirilgan, laboratoriya testlarini va sinovlarini o‘tkazish uchun komplekslar, axborot tizimlarini yaratish bo‘yicha investitsiya loyihalari doirasida mahalliy ishlab chiqarishning dasturiy ta’minoti sotib olingan hisobot (soliq) davrida qo‘llaniladi.

Ushbu modda maqsadlarida tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqarish jarayonida soliq to‘lovchi tomonidan foydalaniladigan, chiqarilgan kunidan e’tiboran ko‘pi bilan uch yil o‘tgan mashinalar va uskunalar (shu jumladan transport uskunalari) yangi texnologik uskunalar deb e’tirof etiladi.

(308-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Amortizatsiya qilinadigan aktiv u bo‘yicha investitsiyaviy chegirma qo‘llanilgan sanadan e’tiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan, bepul berilgan va boshqacha tarzda chiqib ketgan taqdirda, investitsiyaviy chegirmaning amal

qilishi bunday aktivning chiqib ketishi ro‘y bergan hisobot (soliq) davrida jamg‘arilgan amortizatsiya summasidan uni chegirib tashlash orqali bekor qilinadi.

Ushbu modda yettinchi qismining qoidalari amortizatsiya qilinadigan aktivning favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofat, yong‘in, avariya va shunga o‘xshash boshqa holatlar) tufayli chiqib ketishi hollariga nisbatan, shuningdek amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang‘ich qiymati uning chiqib ketish sanasiga qadar ushbu Kodeksning 306-moddasida belgilangan normalar bo‘yicha to‘liq amortizatsiya qilinishi mumkin bo‘lgan hollarda tatbiq etilmaydi.

(308-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan yettinchi va sakkizinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

309-modda. Amortizatsiya qilinadigan aktivlarni ta’mirlash xarajatlari

Soliq solish maqsadlarida soliq to‘lovchi tomonidan amortizatsiya qilinadigan aktivlarni ta’mirlash uchun amalga oshirilgan xarajatlar qaysi hisobot (soliq) davrida amalga oshirilgan bo‘lsa, o‘sha hisobot (soliq) davrida haqiqiy chiqimlar miqdorida xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Agar ijaraga oluvchi va ijaraga beruvchi o‘rtasidagi shartnomada (qarz oluvchi va qarz beruvchi o‘rtasidagi shartnomada) ijaraga oluvchining (qarz oluvchining) xarajatlari o‘rnini ijaraga beruvchi (qarz beruvchi) tomonidan qoplash nazarda tutilgan bo‘lmasa, ushbu modda qoidalari ijaraga oluvchining (qarz oluvchining) mazkur xarajatlariga nisbatan ham qo‘llaniladi.

(309-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

310-modda. Foizlar va ayrim chiqimlar bo‘yicha xarajatlar

Soliq to‘lovchining qarz majburiyatlari (kreditlar, tovar va tijorat kreditlari, qarzlar, bank omonatlari, bank hisobvaraqlari yoki rasmiylashtirish usulidan qat’i nazar, boshqa jalb qilingan mablag‘lar) bo‘yicha foizlar tarzidagi xarajatlari ushbu Kodeksning VI bo‘limida nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda, haqiqiy stavkadan kelib chiqib, chegirib tashlanadi.

(310-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Yuridik shaxsning nazorat qilinadigan qarzi bilan bog‘liq xarajatlari ushbu moddaning birinchi qismi qoidalari hisobga olingan holda, ushbu moddada belgilangan eng ko‘p qiymatlardan oshmaydigan miqdorda chegirib tashlanadi. Mazkur qoida quyidagilarga nisbatan qo‘llaniladi:

1) qarz mablag‘laridan foydalanganlik uchun foizlarga;

2) neustoykalarning (jarimalar, penyalarning) summalari, javobgarlikning boshqa choralari qo‘llanilganligi natijasida, shu jumladan shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun zararlarning o‘rnini qoplash natijasida to‘lanishi lozim bo‘lgan summalarga.

Ushbu modda maqsadlarida yuridik shaxsning quyidagi qarzlari nazorat qilinadigan qarzlar deb e’tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti bo‘lmagan, mazkur soliq to‘lovchi aksiyalarining (ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) paylar, ulushlarning) 20 foizidan ortig‘iga bevosita yoki bilvosita egalik qiladigan chet ellik yuridik yoki jismoniy shaxs oldidagi qarzi;

2) ushbu Kodeksning 37-moddasiga muvofiq ushbu qismning 1-bandida ko‘rsatilgan chet ellik shaxsning o‘zaro bog‘liq shaxsi deb e’tirof etiladigan boshqa shaxs oldidagi qarzi;

3) ushbu qismning 1 va (yoki) 2-bandlarida ko‘rsatilgan shaxslar oldida kafillik qiluvchi, kafil sifatida ish yurituvchi shaxs yoki ushbu soliq to‘lovchining ushbu moddaning to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan qarzini to‘lashni ta’minlash yuzasidan majburiyatni boshqacha tarzda o‘z zimmasiga oladigan boshqa shaxs oldidagi qarz.

Nazorat qilinadigan qarz soliq davridagi quyidagi qarzlarning jami summalarini o‘z ichiga oladi:

qarz mablag‘lari bo‘yicha;

javobgarlikning boshqa choralari qo‘llanilganligi natijasida, shu jumladan shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun zararlarning o‘rni qoplanishi natijasida to‘lanishi lozim bo‘lgan neustoykalar (jarimalar, penyalar) summalari bo‘yicha.

Ushbu moddaning to‘rtinchi qismi maqsadlari uchun soliq davrida mavjud bo‘lgan qarz deganda, qaysi xo‘jalik operatsiyasi natijasida joriy hisobot (soliq) davrida qarz yuzaga keladigan yoki ko‘payadigan bo‘lsa, o‘sha har bir xo‘jalik operatsiyasining qiymat ko‘rsatkichlari summasi, shuningdek joriy hisobot (soliq) davrining boshida to‘lanmagan qarzning summasi tushuniladi.

Agar ushbu moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan chet ellik shaxs yoki boshqa shaxslar oldidagi nazorat qilinadigan qarz miqdori soliq to‘lovchining xususiy kapitalidan uch baravardan ortiq bo‘lsa, faqat lizing faoliyati bilan shug‘ullanuvchi banklar va soliq to‘lovchilar uchun esa o‘n uch baravardan ortiq bo‘lsa, xarajatlarning chegirib tashlanishi lozim bo‘lgan eng ko‘p miqdorini aniqlashda ushbu moddaning yettinchi – to‘qqizinchi qismlarida belgilangan qoidalar qo‘llaniladi.

Soliq to‘lovchi nazorat qilinadigan qarzning har bir turi bo‘yicha eng ko‘p summalarni har bir hisobot (soliq) davrining oxirgi sanasida hisoblab chiqarishi shart. Hisob-kitob nazorat qilinadigan qarz bo‘yicha ayrim chiqimlarning (xarajatlarning) soliq davri boshlanganidan e’tiboran o‘sib boruvchi yakun bilan aniqlangan summasini tegishli hisobot (soliq) davrining oxirgi sanasida hisob-kitob qilinadigan kapitallashtirish koeffitsiyentiga bo‘lish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Ushbu moddaning yettinchi qismida ko‘rsatilgan kapitallashtirish koeffitsiyenti tegishli nazorat qilinadigan, to‘lanmagan qarz miqdorini ushbu chet el tashkilotining soliq to‘lovchi ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi ulushiga muvofiq bo‘lgan xususiy kapital miqdoriga bo‘lish hamda olingan natijani uchga, banklar va faqat lizing faoliyati bilan shug‘ullanuvchi soliq to‘lovchilar uchun esa o‘n uchga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Xususiy kapital miqdorini aniqlashda soliq to‘lovchining aktivlari summasi va majburiyatlari miqdori (soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarz summalari, shu jumladan ular bo‘yicha kechiktirish va bo‘lib-bo‘lib to‘lash summalari hisobga olinmaydi) tegishli hisobot (soliq) davrining oxirgi kunidagi buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida aniqlanadi.

Nazorat qilinadigan qarzning har bir turi bo‘yicha ushbu moddaning oltinchi — to‘qqizinchi qismlariga muvofiq hisob-kitob qilingan, biroq haqiqatda hisoblangan xarajatlardan ko‘p bo‘lmagan summalar xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

311-modda. Geologik jihatdan o‘rganish, qidirish va tabiiy resurslarni qazib olishga doir tayyorgarlik ishlari uchun xarajatlar

Yer qa’ridan foydalanuvchi tomonidan qazib olishni boshlashdan oldin geologik jihatdan o‘rganish, qidirish, foydali qazilmalarni qazib olishga doir tayyorgarlik ishlari uchun amalga oshirilgan xarajatlar, shu jumladan baholashga, jihozlashga doir xarajatlar, shuningdek ushbu Kodeksga muvofiq chegirib tashlanishi lozim bo‘lgan boshqa xarajatlar amortizatsiya qilinadigan aktivning alohida guruhini tashkil etadi. Bunda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda, bunday chiqimlar belgilangan normalar doirasida xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

(311-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Konda foydali qazilmalarni qazib olish davrida xuddi shu konda ustki qatlamni ochish ishlari bo‘yicha qilingan xarajatlar loyihaning texnik-iqtisodiy asosnomasiga va soliq to‘lovchining soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosatiga muvofiq ruda jismlarining bosqichlari yoki tarkibiy qismlari kesimidagi hajmlarga mutanosib ravishda hisoblangan amortizatsiya qilinadigan aktivning alohida guruhini hosil qiladi.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko‘rsatilgan xarajatlar foydali qazilmalarni qazib olish boshlangan yoki ustki qatlamni ochish ishlari yakunlangan paytdan e’tiboran soliq to‘lovchining jami daromadidan amortizatsiya ajratmalari tarzida chegirib tashlanadi.

Amortizatsiya ajratmalarining har yilgi summasi har oyda teng ulushlarda, soliq to‘lovchining xohishiga ko‘ra belgilanadigan amortizatsiya normasini qo‘llash yo‘li bilan:

(311-modda to‘rtinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

biroq ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan amortizatsiya qilinadigan aktiv guruhi bo‘yicha to‘plangan xarajatlar summasining 15 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda;

biroq ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan amortizatsiya qilinadigan aktiv guruhi bo‘yicha to‘plangan xarajatlar summasining 33 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda hisoblab chiqariladi.

(311-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30 dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuniga asosan ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qismlar bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Nomahsuldor quduq tugatilgan yoxud soliq to‘lovchi yer qa’ri uchastkasidagi ishlarni iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligi, geologik jihatdan istiqbolsizligi yoki boshqa sabablarga ko‘ra tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan taqdirda, basharti yer qa’ridan foydalanish huquqi to‘liq tugatilsa, soliq to‘lovchi bunday huquq tugatilgan hisobot (soliq) davrida qilingan xarajatlar summasini chegirib tashlashga haqli.

312-modda. Ilmiy tadqiqotlarga va (yoki) tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga doir xarajatlar

Ushbu bo‘lim maqsadlarida yangi ilmiy yoki texnik bilimlar va g‘oyalarni olish maqsadida amalga oshirilgan original hamda rejali tadqiqotlar jumlasiga kiradigan xarajatlar ilmiy tadqiqotlarga doir xarajatlar deb e’tirof etiladi.

(312-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Ushbu bo‘lim maqsadlarida yangi mahsulotni (tovarlarni, xizmatlarni) yaratish yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotni (tovarlarni, xizmatlarni) takomillashtirishga, ishlab chiqarishni va boshqaruvni tashkil etishning yangi texnologiyalarini, usullarini yaratish yoki qo‘llanilayotganlarini takomillashtirish jumlasiga kiradigan xarajatlar tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga doir xarajatlar deb e’tirof etiladi.

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga doir xarajatlarga ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan yoki asoslantirilgan tarzda ushbu konstruktorlik faoliyati turlari jumlasiga kiritilishi mumkin bo‘lgan barcha xarajatlar kiritiladi.

(312-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan ikkinchi va uchinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Soliq to‘lovchining ilmiy tadqiqotlarga va (yoki) tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga doir xarajatlari, amortizatsiya qilinadigan aktivlarni olishga oid xarajatlardan tashqari, tegishli ilmiy tadqiqotlar va (yoki) tajriba konstruktorlik ishlanmalarining natijasidan qat’i nazar, ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda bunday tadqiqotlar va ishlanmalar (xizmatlarning alohida bosqichlari) tugallangan va (yoki) qabul qilish-topshirish dalolatnomasini taraflar imzolaganidan keyin 2-koeffitsiyent qo‘llanilgan holda chegirib tashlanadi.

(312-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-oktabrdagi O‘RQ-722-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2021-y., 03/21/722/0960-son)

Agar soliq to‘lovchi ilmiy tadqiqotlar va (yoki) tajriba-konstruktorlik ishlanmalari yuzasidan amalga oshirilgan xarajatlar natijasida intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan mutlaq huquqlarni olsa, mazkur huquqlar nomoddiy aktivlar deb e’tirof etiladi. Bunday holda ko‘rsatilgan xarajatlar ushbu Kodeksning 307-moddasida nazarda tutilgan tartibda chegirib tashlanadi.

Ushbu moddaning qoidalari shartnoma bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni va (yoki) tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini ijrochi (pudratchi yoki subpudratchi) sifatida bajaruvchi soliq to‘lovchilarning xarajatlarini soliq solish maqsadlarida e’tirof etishga nisbatan tatbiq qilinmaydi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 307-moddasi.

313-modda. Umidsiz qarzlar bo‘yicha xarajatlar

Ushbu modda maqsadlarida, sudning qaroriga ko‘ra, qarzdorning bankrot deb topilganligi, tugatish, qarzdor vafot etganligi tufayli majburiyatlar tugatilganligi oqibatida yoki da’vo muddati o‘tganligi oqibatida to‘lanishi mumkin bo‘lmagan qarz umidsiz qarz deb e’tirof etiladi.

(313-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-fevraldagi O‘RQ-911-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son)

Soliq to‘lovchi oldingi hisobot (soliq) davrlarida soliq solinadigan daromadlar olish bilan bog‘liq bo‘lgan umidsiz qarzlarni chegirib tashlashga haqli.

Umidsiz qarzlarni chegirib tashlashga faqat qarz hisobdan chiqarilgan va soliq to‘lovchining buxgalteriya hisobotida aks ettirilgan taqdirda yo‘l qo‘yiladi.

314-modda. Qo‘shilgan qiymat solig‘iga doir xarajatlar

Agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, sotib olingan tovarlarning (xizmatlarning) qiymatida qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha quyidagi chiqimlar hisobga olinadi:

1) ushbu Kodeksning 267-moddasida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinmaydigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi;

2) ushbu Kodeks 268-moddasining oltinchi qismida nazarda tutilgan tartibda qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi;

3) ushbu Kodeksning 270-moddasida ko‘rsatilgan holda qo‘shilgan qiymat solig‘iga tuzatish kiritish summasi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisobga olinmaydigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini quyidagi hollarda xarajatlar jumlasiga kiritishga haqli:

1) ushbu Kodeks 268-moddasining beshinchi qismiga muvofiq mutanosib usulni qo‘llashda;

2) agar soliqning tuzatish kiritish summasini bunday tuzatish amalga oshirilayotgan sotib olingan tovarlarning (xizmatlarning) qiymatiga kiritish mumkin bo‘lmasa, qo‘shilgan qiymat solig‘iga ushbu Kodeksning 269 va 270-moddalariga muvofiq tuzatish kiritishda;

3) ushbu Kodeksning 271-moddasida nazarda tutilgan tartibda qo‘shilgan qiymat solig‘iga tuzatish kiritishda.

315-modda. Zaxira fondlarini shakllantirish xarajatlari

Banklar va nobank kredit tashkilotlari, shuningdek sug‘urta tashkilotlari qonunchilik talablariga muvofiq zaxira fondlarini tashkil etadi.

(315-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 17-apreldagi O‘RQ-1058-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.04.2025-y., 03/25/1058/0355-son)

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan zaxira fondlariga ajratmalar qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda, quyidagi normalar doirasida xarajatlar jumlasiga kiritiladi:

banklar tomonidan — qonunchilikda belgilangan normaning 80 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda;

nobank kredit tashkilotlari va sug‘urta tashkilotlari tomonidan — qonunchilikda nazarda tutilgan normalardan yuqori bo‘lmagan miqdorda.

(315-modda ikkinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 17-apreldagi O‘RQ-1058-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.04.2025-y., 03/25/1058/0355-son)

Ushbu modda birinchi va ikkinchi qismlarining qoidalari sof foyda hisobidan shakllantiriladigan zaxira fondlarini tashkil etish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Haqiqiy xarajatlar, ularga nisbatan zaxira fondi shakllantirilgan bo‘lsa, tashkil etilgan zaxira fondi summasi hisobidan hisobdan chiqariladi.

316-modda. Kafolatli ta’mirlash va kafolatli xizmat ko‘rsatish yuzasidan kelgusi xarajatlar uchun zaxirani shakllantirish xarajatlari

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi soliq to‘lovchi kafolatli ta’mirlash va kafolatli xizmat ko‘rsatish yuzasidan kelgusi xarajatlar uchun zaxira tashkil etishga haqli. Bunday zaxirani shakllantirishga doir ajratmalar ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda chegirmalar jumlasiga kiritiladi. Soliq to‘lovchi bunday zaxirani tashkil etish to‘g‘risidagi qarorni mustaqil ravishda qabul qiladi va soliq solish maqsadlari uchun hisob siyosatida ajratmalarning eng yuqori miqdorini aniqlaydi.

Zaxira xaridor bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq kafolatli muddat davomida xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash nazarda tutilgan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan tashkil etiladi. Mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish sanasidagi zaxiraga ajratmalar summasi xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Tashkil etilgan zaxiraning miqdori kafolatli ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha soliq to‘lovchi tomonidan haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlarning mazkur tovarlarni (xizmatlarni) o‘tgan uch yil davomida realizatsiya

qilishdan olingan tushum hajmidagi ulushi sifatida aniqlanadigan, hisobot (soliq) davrida mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum summasiga ko‘paytirilgan eng ko‘p miqdordan oshmasligi kerak. Agar soliq to‘lovchi tovarlarni (xizmatlarni) kafolatli ta’mirlashni va xizmat ko‘rsatishni bajarish sharti bilan realizatsiya qilishni uch yildan kam muddatda amalga oshirayotgan bo‘lsa, tashkil etilayotgan zaxiraning eng ko‘p miqdorini hisob-kitob qilish uchun mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumning bunday realizatsiya qilishning haqiqiy davridagi hajmi inobatga olinadi.

Ilgari tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishni kafolatli ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish sharti bilan amalga oshirmagan soliq to‘lovchi mazkur chiqimlar uchun kutilayotgan xarajatlarning miqdoridan oshmaydigan miqdordagi zaxirani tashkil etishga haqli. Kutilayotgan xarajatlar deganda kafolat muddati inobatga olingan holda kafolat majburiyatlarini bajarish rejasida nazarda tutilgan xarajatlar tushuniladi.

Soliq davri tugagach, soliq to‘lovchi tashkil etilgan zaxiraning miqdoriga kafolatli ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlarning mazkur tovarlarni (xizmatlarni) o‘tgan davrda realizatsiya qilishdan olingan tushum hajmidagi ulushidan kelib chiqqan holda tuzatish kiritishi kerak.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliq davrida kafolatlar berish sharti bilan realizatsiya qilingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha kafolatli ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish uchun to‘liq foydalanilmagan zaxira summasi soliq to‘lovchi tomonidan keyingi soliq davriga o‘tkazilishi mumkin. Bunda keyingi soliq davrida yangi tashkil etilayotgan zaxiraning summasiga zaxiraning oldingi soliq davridagi qoldig‘i summasi miqdorida tuzatish kiritilishi kerak. Agar yangi tashkil etilayotgan zaxiraning summasi oldingi soliq davrida tashkil etilgan zaxira qoldig‘ining summasidan kam bo‘lsa, ular o‘rtasidagi farq soliq to‘lovchining joriy soliq davridagi daromadlari tarkibiga kiritilishi lozim.

Agar soliq to‘lovchi zaxira tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilsa, kafolatli ta’mirlashga doir haqiqiy xarajatlarni hisobdan chiqarish tashkil etilgan zaxira hisobidan amalga oshiriladi. Agar tashkil etilgan zaxiraning summasi soliq to‘lovchi tomonidan amalga oshirilgan ta’mirlash xarajatlarining summasidan kam bo‘lib qolsa, ular o‘rtasidagi farq chegirmalar jumlasiga kiritilishi lozim.

Soliq to‘lovchi tovarlarni (xizmatlarni) kafolatli ta’mirlash va ularga kafolatli xizmat ko‘rsatish sharti bilan sotishni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilganda, ilgari tashkil etilgan va foydalanilmagan zaxiraning summasi kafolatli ta’mirlash va kafolatli xizmat ko‘rsatishga doir shartnomalarning amal qilish muddatlari tugaganidan keyin daromadlar tarkibiga kiritilishi lozim.

317-modda. Chegirib tashlanmaydigan xarajatlar

Soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanmaydigan xarajatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) qonunchilikka muvofiq vakolatli organ tomonidan belgilangan moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridan, ular mavjud bo‘lmaganda esa, soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan normalardan ortiqcha tovarlar yo‘qolishi;

(317-moddaning 1-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) umumiy ovqatlanish korxonalariga yoki boshqa tashkilotlarga joylarni tekin berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmatlarning qiymatini to‘lash;

3) soliq to‘lovchining ushbu Kodeks 376-moddasida nazarda tutilgan, jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblanadigan xarajatlari, bundan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlarining 0,5 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda o‘z xodimlariga va ularning yaqin qarindoshlariga ommaviy-madaniy hamda konsert-tomosha tadbirlariga borishi uchun chiptalar xarid qilishga doir xarajatlar mustasno;

(317-moddaning 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 26-iyuldagi O‘RQ-785-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.07.2022-y., 03/22/785/0679-son)

4) dala (safar) ta’minoti, xodimning shaxsiy avtotransportidan xizmat maqsadlarida foydalanganlik uchun qonunchilikda belgilangan normalardan ortiqcha to‘lovlar;

(317-moddaning 4-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

5) pensiyalarga ustamalar va qo‘shimcha to‘lovlar;

6) ushbu Kodeks 377-moddasi birinchi qismi 10-bandining to‘rtinchi va beshinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan moddiy yordam;

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeks 377-moddasi birinchi qismining 10-bandi.

7) xayriya yordamini amalga oshirish uchun xarajatlar, bundan metsenatlik ko‘magini ko‘rsatish, o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalarga, yolg‘iz yashovchi keksalarga va nogironligi bo‘lgan shaxslarga homiylik qilish, o‘quv-tarbiya muassasalariga yoki yetim bolalarga va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga moddiy yordam ko‘rsatish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar, shuningdek Bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondiga xayriya qilingan mablag‘lar mustasno;

(317-moddaning 7-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 18-oktabrdagi O‘RQ-977-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.10.2024-y., 03/24/977/0831-son)

8) qonunchilikda nazarda tutilgan normalardan ortiqcha tarzda atrof-muhitni ifloslantirganlik va chiqindilar joylashtirganlik uchun kompensatsiya to‘lovlari;

(317-moddaning 8-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

9) loyihalar va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, obyekt yonidagi omborga tashib keltirilguniga qadar yuz bergan buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etishga doir xarajatlar, korroziyaga qarshi muhofazadagi nuqsonlar tufayli taftish o‘tkazish (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) xarajatlari hamda ushbu xarajatlarning o‘rnini kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun javobgar bo‘lgan mahsulot yetkazib beruvchi yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar hisobidan qoplash imkoni bo‘lmagan miqdordagi boshqa shunga o‘xshash xarajatlar;

10) aybdorlari aniqlanmagan talon-toroj qilishlar va kamomadlardan yoki aybdor taraf hisobidan zarur summalarning o‘rnini qoplash imkoni bo‘lmagan taqdirda ko‘rilgan zararlar;

11) boshqa shaxslar uchun to‘langan soliqlar;

12) soliq tekshiruvlari natijalari bo‘yicha qo‘shimcha hisoblangan soliqlar va yig‘imlar;

13) soliq to‘lovchining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan tadbirlarga (sog‘liqni saqlashga oid, sport va madaniy tadbirlar, dam olishni tashkil etish hamda boshqa shunga o‘xshash tadbirlarga) doir xarajatlari, bundan tadbirlarni o‘tkazishga doir majburiyatlar qonunchilik bilan soliq to‘lovchining zimmasiga yuklatilgan hollar mustasno;

(317-moddaning 13-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

14) kasaba uyushmalari qo‘mitalariga yordam ko‘rsatish;

15) mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan xizmatlar (shaharlarni va shaharchalarni obodonlashtirish bo‘yicha xizmatlar, qishloq xo‘jaligiga yordamlashish va xizmatlarning boshqa turlari) ko‘rsatganlik uchun qilingan xarajatlar;

16) ushbu bo‘limda nazarda tutilgan hollardan tashqari soliq solinmaydigan daromad olish bilan bog‘liq xarajatlar;

17) haqiqatda xizmatlar ko‘rsatmasdan, tovarlarni jo‘natmasdan turib amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha xarajatlar, agar bunday fakt sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan aniqlangan va unda ushbu xarajatlarni amalga oshirgan soliq to‘lovchining nomi ko‘rsatilgan bo‘lsa;

18) daromad olishga qaratilgan faoliyat bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar, agar qonunchilikka muvofiq bunday xarajatlarni amalga oshirish majburiyati soliq to‘lovchining zimmasiga yuklatilmagan bo‘lsa;

(317-moddaning 18-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

19) budjet tizimiga kiritilishi lozim bo‘lgan (kiritilgan) penyalar, jarimalar va boshqa sanksiyalar;

20) sotib olishga, ishlab chiqarishga, qurilishga, montaj qilishga, o‘rnatishga doir va amortizatsiya qilinadigan aktivlarning qiymatiga qo‘shiladigan boshqa xarajatlar, shu jumladan qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash hollarida amalga oshiriladigan, amortizatsiya chegirmalari vositasidagi xarajatlar jumlasiga kiritiladigan xarajatlar;

21) soliq to‘lovchining amortizatsiya qilinmaydigan mol-mulkning boshlang‘ich qiymatiga ushbu Kodeksning 306-moddasiga muvofiq kiritiladigan xarajatlari;

(317-moddaning 21-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

22) ushbu Kodeksda chegirmalar jumlasiga kiritish normalari belgilangan xarajatlarning mazkur normalar qo‘llanilgan holda hisoblab chiqarilgan chegirmaning eng yuqori summasidan ortiq bo‘lgan summa;

23) shakllantirilishi ushbu bo‘limda va (yoki) qonunchilik talablarida nazarda tutilmagan zaxiralarga, zaxira fondlari va boshqa fondlarga ajratmalar, bundan ushbu Kodeksning 315, 316 va 326-moddalarida nazarda tutilgan normalar doirasidagi xarajatlar mustasno;

(317-moddaning 23-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

24) soliq to‘lovchi tomonidan hisoblangan dividendlar summalari;

25) soliq to‘lovchi tomonidan boshqa shaxslarning foydasiga to‘lanadigan ixtiyoriy sug‘urta badallari;

26) soliq to‘lovchi tomonidan ushbu Kodeksning 310-moddasiga muvofiq soliq solish maqsadlarida xarajatlar deb e’tirof etiladigan xarajatlarning summasidan ortiqcha hisoblangan foizlar va ayrim chiqimlar;

27) tekin berilgan mol-mulkning (xizmatlarning) qiymati va bunday berish bilan bog‘liq bo‘lgan (shu jumladan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi kiritilgan) xarajatlar, bundan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra mol-mulkni o‘tkazish, shuningdek telekommunikatsiya tarmoqlaridagi tezkor-qidiruv tizimining texnik vositalarini o‘tkazish va ulardan foydalanish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish mustasno;

28) ishonchli boshqaruv muassisining ishonchli boshqaruv shartnomasini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlari, agar ishonchli boshqaruv shartnomasiga ko‘ra muassis naf oluvchi bo‘lmasa;

29) notijorat tashkilotlariga va xalqaro tashkilotlarga to‘lanadigan badallar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar, bundan bunday badallarni, yig‘imlarni va boshqa to‘lovlarni to‘lash qonunchilikda (shu jumladan chet davlatlarning qonunchiligida) nazarda tutilgan va (yoki) ushbu badallarni, yig‘imlarni va boshqa to‘lovlarni to‘lagan soliq to‘lovchilar tomonidan faoliyatni amalga oshirishning sharti yoxud mazkur tashkilotlar tomonidan soliq to‘lovchilar o‘z faoliyatini yuritishi uchun zarur xizmatlar taqdim etishning sharti bo‘lgan hollar mustasno;

(317-moddaning 29-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

30) soliq to‘lovchi tomonidan tashkil etilgan zaxira mablag‘lari hisobiga amalga oshirilgan xarajatlar, agar bunday zaxiralarni tashkil etishga doir xarajatlar ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunchilikda belgilangan tartibda chegirmalar jumlasiga kiritilgan bo‘lsa;

(317-moddaning 30-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

31) mol-mulk narxining pasayish (qadrsizlanish) summalari;

32) oddiy shirkat shartnomasi doirasida sheriklar (ishtirokchilar) tomonidan shartnoma sheriklarining (ishtirokchilarining) umumiy mulkdagi ulushni qaytarish yoki bunday mol-mulkni bo‘lish chog‘ida ko‘rilgan zararlar;

33) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchisi tomonidan ushbu guruhning mas’ul ishtirokchisiga soliqni (bo‘nak to‘lovlarini, joriy to‘lovlarni, penyalarni, jarimalarni) ushbu Kodeksda soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi uchun belgilangan tartibda to‘lash uchun berilgan pul mablag‘lari, shuningdek soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi tomonidan shu guruhning ishtirokchisiga ushbu soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq (bo‘nak to‘lovlari, joriy to‘lovlar, penyalar, jarimalar) summasi aniqlashtirilishi munosabati bilan berilgan pul mablag‘lari;

34) tovar-moddiy qimmatliklarni yaroqsizligi sababli (saqlash muddati o‘tganligi, jismoniy va (yoki) ma’naviy eskirganligi, shunga o‘xshash boshqa sabablarga ko‘ra) hisobdan chiqarishdan ko‘rilgan zararlar, bundan favqulodda holatlar (tabiiy ofat, yong‘in, avariya, yo‘l-transport hodisasi va hokazolar) oqibatida ko‘rilgan zararlar mustasno);

35) muddati o‘tgan va kechiktirilgan kreditlar (qarzlar) bo‘yicha muddatli qarz uchun kredit shartnomasida nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha foizlar;

36) xo‘jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun to‘langan yoki tan olingan jarimalar, penyalar va sanksiyalarning boshqa turlari.

45-bob. Ayrim soliq to‘lovchilar va operatsiyalar turlari bo‘yicha soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

318-modda. Notijorat tashkilotlarining soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

Ushbu Kodeksning 58-moddasida ko‘rsatilgan shartlarga rioya etilgan taqdirda notijorat tashkilotining quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

1) notijorat tashkilotlarining ta’minoti va ushbu Kodeksning 48-moddasida ko‘rsatilgan ustav faoliyatini amalga oshirishi uchun maqsadli tushumlar;

2) kursdagi ijobiy farq summasining kursdagi salbiy farq summasidan ortiq qismi;

3) aholining diniy maqsadda foydalanishi uchun mo‘ljallangan tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromad.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 58-moddasi.

Notijorat tashkilotlarining ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilmagan daromadlariga umumiy belgilangan tartibda soliq solinadi.

Notijorat tashkilotining ushbu Kodeksning 44-bobiga muvofiq xarajatlar jumlasiga kiritilishi lozim bo‘lgan chiqimlari quyidagi usullarning biri orqali aniqlanadi:

1) ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilmagan daromadlarning notijorat tashkilotlari daromadlarining umumiy summasidagi ulushidan kelib chiqqan holda;

2) ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan daromadlar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlarning va boshqa daromadlar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlarning alohida-alohida hisobga olinishini nazarda tutuvchi soliq hisobi ma’lumotlari asosida.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 44-bobi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hisob mavjud bo‘lmagan va (yoki) ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan daromadlardan mo‘ljallangan maqsadda foydalanilmagan taqdirda (budjet mablag‘lari bundan mustasno), soliq to‘lovchi tomonidan olingan maqsadli mablag‘lar ushbu soliq to‘lovchining jami daromadi tarkibiga kiritiladi va unga umumiy belgilangan tartibda soliq solinadi.

Maqsadli foydalanilmagan budjet mablag‘lariga nisbatan budjet to‘g‘risidagi qonunchilik normalari qo‘llaniladi.

(318-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu moddaning qoidalari faoliyatni ijtimoiy sohada amalga oshiruvchi notijorat tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

319-modda. Oddiy shirkat (birgalikdagi faoliyat shartnomasi) doirasida operatsiyalarni amalga oshirishda soliqni hisoblab chiqarish va to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlari

Soliq solish maqsadlarida ushbu Kodeksning 275-moddasida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadigan, oddiy shirkatning (birgalikdagi faoliyat shartnomasining) ishonchli shaxsi oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat shartnomasi) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo‘yicha soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

Ushbu Kodeksning 275-moddasida nazarda tutilgan operatsiyalarning umumiy hisobini yuritish, shu jumladan soliq hisobi va hisobga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi qoidalar foyda solig‘ini hisoblab chiqarish hamda to‘lashda qo‘llaniladi.

Soliq bo‘yicha oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat shartnomasi) sherigining (ishtirokchisining) soliq bazasini aniqlashda, uning tomonidan umumiy mulkka pulsiz hissa sifatida ulush kiritilgan taqdirda:

1) mol-mulkning baholash qiymati va ushbu mol-mulkning qoldiq qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq jami daromadga kiritiladi;

2) salbiy farq soliq bazasini kamaytirmaydi.

Ishonchli shaxs oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomasi) barcha sheriklarining (ishtirokchilarining) ushbu oddiy shirkatning (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomasi) faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan daromadlar va xarajatlarning alohida-alohida hisobini yuritadi, bunday faoliyat bo‘yicha alohida soliq bazasini aniqlaydi, soliqni hisoblab chiqaradi va to‘laydi. Bunda ushbu shaxs mazkur soliq summasiga nisbatan ushbu Kodeksda belgilangan soliq to‘lovchining barcha huquqlariga ega bo‘ladi va majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi.

Ishonchli shaxs foyda solig‘i bo‘yicha soliq imtiyozlarini va (yoki) pasaytirilgan soliq stavkalarini qo‘llashga haqli emas.

Birgalikdagi faoliyat natijasida olingan daromad birgalikdagi faoliyat sheriklari (ishtirokchilari) o‘rtasida har bir sherik (ishtirokchi) hissasining ulushi asosida yoki oddiy shirkat shartnomasining (birgalikdagi faoliyat shartnomasi) shartlariga muvofiq taqsimlanadi. Mazkur daromad har bir sherikda (ishtirokchida) dividendga tenglashtiriladi va unga ushbu Kodeksga muvofiq soliq solinadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 275-moddasi.

320-modda. Kursdagi farqlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Valyuta qimmatliklari tarzidagi mol-mulkni (bundan chet el valyutasida ifodalangan qimmatli qog‘ozlar mustasno) va qiymati chet valyutasida ifodalangan talab qilish tarzidagi mol-mulkni qo‘shimcha baholashda yoki qiymati chet el valyutasida ifodalangan majburiyatlarning qiymatini pasaytirishda yuzaga keladigan kursdagi farq ushbu bob maqsadlarida kursdagi ijobiy farq deb e’tirof etiladi.

Valyuta qimmatliklari tarzidagi mol-mulkning (bundan chet el valyutasida ifodalangan qimmatli qog‘ozlar mustasno) va qiymati chet valyutasida ifodalangan talab qilish tarzidagi mol-mulkning qiymatini pasaytirishda yoki qiymati chet el valyutasida ifodalangan majburiyatlarni qo‘shimcha baholashda yuzaga keladigan kursdagi farq ushbu bob maqsadlarida kursdagi salbiy farq deb e’tirof etiladi.

Ko‘rsatilgan qiymatni qo‘shimcha baholash yoki pasaytirish chet el valyutasi rasmiy kursining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasiga nisbatan o‘zgarishi yoxud chet el valyutasi (shartli pul birliklari) kursining qonunchilikda yoki taraflarning bitimida belgilangan O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasiga nisbatan o‘zgarishi munosabati bilan amalga oshirilgan taqdirda, agar ushbu chet el valyutasida (shartli pul birliklarida) ifodalangan O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida to‘lanishi lozim bo‘lgan talablarning (majburiyatlarning) qiymati tegishincha taraflarning qonunchiligida yoki bitimida belgilangan kurs bo‘yicha aniqlansa, ushbu modda qoidalari qo‘llaniladi.

Kursdagi ijobiy farq jami daromad tarkibiga, kursdagi salbiy farq — xarajatlar tarkibiga kiritiladi.

Berilgan (olingan) bo‘naklarni qayta baholashdan yuzaga keladigan kursdagi ijobiy (salbiy) farq soliq solish maqsadlarida hisobga olinmaydi.

(320-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

321-modda. Zaxiralarni baholash usullarini o‘zgartirish natijasiga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Zaxiralarni baholashning soliq to‘lovchi tomonidan oldingi soliq davrida qo‘llanilgan usulidan boshqa usuliga o‘tilgan taqdirda, soliq to‘lovchining jami daromadi (xarajati) baholashning yangi usulini qo‘llash natijasida yuzaga kelgan ijobiy farq summasiga ko‘paytirilishi va salbiy farq summasiga kamaytirilishi lozim.

Zaxiralarni hisoblashning boshqa usuliga o‘tish soliq to‘lovchi tomonidan soliq davri boshidan e’tiboran amalga oshiriladi.

322-modda. Ishonchli boshqaruvda soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Ishonchli boshqaruv shartnomasi bo‘yicha berilgan mol-mulk, ushbu bo‘lim maqsadlarida, ishonchli boshqaruvchining daromadi deb e’tirof etilmaydi.

Ishonchli boshqaruv shartnomasiga muvofiq ishonchli boshqaruvchi tomonidan olinadigan pul mukofoti uning daromadi deb e’tirof etiladi va unga ushbu Kodeksda belgilangan tartibda soliq solinadi.

Agar ishonchli boshqaruv shartnomasida ishonchli boshqaruvni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning o‘rnini ishonchli boshqaruv muassisi yoki boshqa shaxs tomonidan qoplash nazarda tutilmagan bo‘lsa, mazkur xarajatlar ishonchli boshqaruvchining xarajatlari deb e’tirof etiladi.

Ishonchli boshqaruvchi mol-mulkni ishonchli boshqarishga doir daromadlarni va xarajatlarni har oyda o‘sib boruvchi yakun bilan aniqlashi hamda muassisga va (yoki) ishonchli boshqaruvning boshqa naf oluvchisiga olingan daromadlar hamda xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ushbu bo‘limga muvofiq soliq bazasini aniqlash chog‘ida bu daromadlar va xarajatlarni mazkur shaxslar tomonidan hisobga olish uchun taqdim etishi shart.

Qimmatli qog‘ozlarni va muddatli bitimlarning moliyaviy vositalarini ishonchli boshqarish chog‘ida ishonchli boshqaruvchi daromadlar hamda xarajatlarni ushbu Kodeksning 327 — 329-moddalarida nazarda tutilgan tartibda aniqlaydi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 327 — 329-moddalari.

Agar ishonchli boshqaruv shartnomasi shartlariga ko‘ra, ishonchli boshqaruv muassisi yagona naf oluvchi bo‘lsa, bunday muassisning soliq bazasini aniqlash quyidagi xususiyatlar inobatga olingan holda amalga oshiriladi:

1) ishonchli boshqaruv shartnomasini amalga oshirish bilan bog‘liq daromadlar va xarajatlar (shu jumladan mol-mulk amortizatsiyasi va ishonchli boshqaruvchiga pul mukofoti to‘lash) olingan daromadlarning hamda amalga oshirilgan xarajatlarning turiga qarab, ushbu bo‘limda belgilangan tartibda ishonchli boshqaruv muassisining daromadlari va xarajatlari tarkibiga kiritiladi;

2) qimmatli qog‘ozlarga doir operatsiyalar va muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga oid operatsiyalar (ishonchli boshqaruvchiga pul mukofoti to‘lash bundan mustasno) bo‘yicha daromadlar (xarajatlar) ishonchli boshqaruv muassisining qimmatli qog‘ozlarga va muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha daromadlari (xarajatlari) tarkibiga hamda bunday operatsiyalar uchun ushbu bo‘limda belgilangan tartibda tegishli toifaga kiritiladi.

Agar ishonchli boshqaruv shartnomasi shartlariga ko‘ra ishonchli boshqaruv muassisi naf oluvchi bo‘lmasa yoxud bittadan ortiq naf oluvchi aniqlansa, bunday shartnoma ishtirokchilarining soliq bazasini belgilash quyidagi xususiyatlar inobatga olingan holda amalga oshiriladi:

1) ishonchli boshqaruv shartnomasi bo‘yicha naf oluvchining daromadlari uning daromadlari tarkibiga olingan daromad turiga bog‘liq ravishda kiritiladi va belgilangan tartibda soliqqa tortilishi lozim;

2) ishonchli boshqaruv shartnomasini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar (ishonchli boshqaruvchining pul mukofotidan tashqari, agar bu holat mazkur shartnomada pul mukofotini to‘lash ushbu shartnomani bajarish doirasida olingan daromadlarni kamaytirish hisobidan bo‘lmasligi nazarda tutilgan bo‘lsa) soliq solish maqsadlarida naf oluvchining xarajatlari tarkibida hisobga olinadi. Bunda ishonchli boshqaruvchiga haqiqatan pul mukofoti to‘lash xarajatlari (ishonchli boshqaruvchining pul mukofotidan tashqari, agar bu holat mazkur shartnomada pul mukofotini to‘lash ushbu shartnomani bajarish doirasida olingan daromadlarni kamaytirish hisobidan amalga oshirish nazarda tutilgan bo‘lsa) alohida hisobga olinadi va ishonchli boshqaruvchi muassisining xarajatlari tarkibidagi xarajatlar sifatida e’tirof etiladi;

3) ishonchli boshqaruv shartnomasi bo‘yicha bir nechta naf oluvchi mavjud bo‘lgan taqdirda, ushbu qismga muvofiq daromadlar va xarajatlar ularda o‘zlariga tegishli bo‘lgan ulushga mutanosib ravishda hisobga olinadi.

Ishonchli boshqaruv shartnomasi amalda bo‘lgan davrda ko‘rilgan zararlar ishonchli boshqaruv muassisining yoki naf oluvchining soliq bo‘yicha soliq bazasini aniqlashda hisobga olinmaydi. Bunday zararlar ushbu ishonchli boshqaruvdan olinadigan kelgusi daromadlarga ushbu bo‘limda belgilangan tartibda o‘tkaziladi.

Ishonchli boshqaruv shartnomasini tugatish chog‘ida ishonchli boshqaruvdan ko‘rilgan zararlar ishonchli boshqaruv muassisining yoki naf oluvchining soliq bazasini aniqlashda hisobga olinmaydi va kelgusi davrga o‘tkazilmaydi.

Ishonchli boshqaruv shartnomasi tugatilgan taqdirda, ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulk, mazkur shartnoma shartlariga ko‘ra, ishonchli boshqaruv muassisiga qaytarilishi yoxud boshqa shaxsga o‘tkazilishi mumkin.

Mol-mulk qaytarilgan taqdirda ishonchli boshqaruv muassisida, ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulkning ishonchli boshqaruv shartnomasi kuchga kirgan paytdagi qiymati va ushbu shartnomani tugatish paytidagi qiymati

o‘rtasidagi ijobiy (salbiy) farq yuzaga kelishidan yoki kelmasligidan qat’i nazar, daromad (zarar) yuzaga kelmaydi.

Mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazishda ushbu shaxsda u olgan mol-mulkning qiymati miqdoridagi daromad yuzaga keladi.

Ishonchli boshqaruvchi ishonchli boshqaruv shartnomasini bajarish bilan bog‘liq daromadlar va xarajatlar bo‘yicha hamda ishonchli boshqarishdan pul mukofoti tarzida olgan daromadlari bo‘yicha, har bir ishonchli boshqaruv shartnomasi kesimida alohida-alohida hisob yuritishi shart.

Muassisning yoki naf oluvchining, shuningdek ishonchli boshqaruv shartnomasi bo‘yicha ishonchli boshqaruvchining daromadlari har bir hisobot (soliq) davrida, bunday shartnomada ishonchli boshqaruv shartnomasining amal qilish muddatida hisob-kitoblarni amalga oshirish nazarda tutilganligidan yoki tutilmaganligidan qat’i nazar, shakllantiriladi.

Agar ishonchli boshqaruvning muassisi yoki naf oluvchisi yuridik shaxs bo‘lsa, ishonchli boshqaruvchi ishonchli boshqaruv shartnomasini amalga oshirish (shu jumladan amortizatsiya chegirmalarini hisoblab chiqarish) bilan bog‘liq daromadlarni va xarajatlarni ishonchli boshqaruvning muassisi yoki naf oluvchisi bo‘lgan yuridik shaxsning soliq solish maqsadida hisob siyosatidan kelib chiqqan holda aniqlashi shart. Bunda ishonchli boshqaruvchi ishonchli boshqaruvning ushbu muassisiga soliq bazasini aniqlash uchun zarur bo‘lgan barcha birlamchi hujjatlarni taqdim etishi shart.

Ushbu moddaning (bundan ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari mustasno), shuningdek ushbu Kodeks 336-moddasi ikkinchi qismining qoidalari alohida mol-mulk majmui — pay investitsiya fondini tashkil etuvchi mol-mulkni boshqaruvchi kompaniyaga va ishonchli boshqaruv shartnomasi ishtirokchilariga (muassislariga) nisbatan tatbiq etilmaydi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 336-moddasi.

323-modda. Korxonani mol-mulk majmui sifatida sotib olishda daromadlarni va xarajatlarni e’tirof etishning o‘ziga xos xususiyatlari

Ushbu bo‘lim maqsadida korxonani mol-mulk majmui sifatida sotib olish narxi va korxonaning mol-mulk kompleksi sifatidagi sof aktivlarining qiymati (majburiyatlar chegirib tashlangan holdagi aktivlar) o‘rtasidagi farq ushbu moddada belgilangan tartibda soliq to‘lovchining xarajati (daromadi) deb e’tirof etiladi. Mazkur farq topshirish dalolatnomasi asosida narxga ustama (ijobiy farq bo‘lganda) yoki narxdan siylov berish (salbiy farq bo‘lganda) tarzida aniqlanadi.

Korxona kim oshdi savdolarida xususiylashtirish tartibida yoki tanlov bo‘yicha mol-mulk majmui sifatida sotib olingan taqdirda, xaridor tomonidan to‘lanadigan ustama (olinadigan chegirma) miqdori xarid narxi va korxonaning mol-mulk majmui sifatidagi baholash (boshlang‘ich) qiymati o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Xaridor tomonidan to‘lanadigan ustamaning (olinayotgan chegirmaning) summasi soliq solish maqsadida quyidagi tartibda hisobga olinadi:

1) mol-mulk majmui sifatidagi korxona xaridori tomonidan to‘lanadigan ustama xaridorning mol-mulk majmui sifatidagi korxonaga bo‘lgan mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan keyingi oydan e’tiboran besh yil mobaynida bir me’yorda uning xarajatlari deb e’tirof etiladi;

2) mol-mulk majmui sifatidagi korxonaning xaridori tomonidan olinadigan siylov xaridorning mol-mulk majmui sifatidagi korxonaga bo‘lgan mulk huquqining o‘tishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish amalga oshirilgan oydagi daromadi deb e’tirof etiladi.

Sotuvchining korxonani mol-mulk majmui sifatida realizatsiya qilishdan ko‘rgan zarari ushbu Kodeksning 46-bobida belgilangan tartibda soliq solish maqsadlarida sotuvchi tomonidan hisobga olinadi.

324-modda. O'z kuchini yo'qotgan

(324-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 17-apreldagi O‘RQ-1057-sonli Qonuniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.04.2025-y., 03/25/1057/0351-son)

325-modda. Qimmatli qog‘ozlar qarziga doir operatsiyalar chog‘ida soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Ushbu Kodeksning 53-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladigan qimmatli qog‘ozlarga doir qarz operatsiyalari ishtirokchilariga soliq solish ushbu moddada belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 53-moddasi.

Qimmatli qog‘ozlarni qarzga berish va qimmatli qog‘ozlarni qarzdan qaytarib olish chog‘ida soliq solish maqsadlarida moliyaviy natija aniqlanmaydi, bundan ushbu moddada belgilangan hollar mustasno. Bunda qarz shartnoma bo‘yicha berilgan qimmatli qog‘ozlarni sotib olish xarajatlari kreditor tomonidan mazkur qimmatli qog‘ozlarni ushbu Kodeks qoidalarini hisobga olgan holda kelgusida (qarz qaytarilgandan keyin) realizatsiya qilish (chiqib ketishi) chog‘ida hisobga olinadi.

Soliq to‘lovchilar qimmatli qog‘ozlar qarzi doirasida berilgan (olingan) qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha alohida soliq hisobini yuritishi shart. Qimmatli qog‘ozlar qarzi bo‘yicha analitik hisob har bir taqdim etilgan (olingan) qarz bo‘yicha yuritiladi.

Qarz shartnomasiga ko‘ra, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha to‘lovlar, agar ularni olishga bo‘lgan huquq qarz shartnomasi amal qilishi davrida yuzaga kelgan bo‘lsa, qarz oluvchining daromadlari deb e’tirof etilmaydi va qarz beruvchining daromadlariga kiritiladi.

Foizli (kuponli) daromad kreditorning soliq bazasini ushbu bo‘limda belgilangan tartibda hisob-kitob qilishda hisobga olinadi va qarz oluvchining qarz obyekti bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha foizli (kuponli) daromadi bo‘yicha soliq bazasini aniqlash chog‘ida hisobga olinmaydi.

Agar qimmatli qog‘ozlarga doir qarz shartnomasi norezident (kreditor) va O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti bo‘lgan yuridik shaxs (qarz oluvchi) o‘rtasida tuzilgan bo‘lsa hamda qimmatli qog‘ozlarga doir qarz shartnomasining amal qilish davrida qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha foizli (diskont) daromad to‘lansa yoki qarz predmeti bo‘lgan aksiyalar (dividendlar olish huquqini beradigan depozitar tilxatlar) bo‘yicha dividendlar to‘lansa, bunday qarz oluvchi foizli (diskont) daromadga yoki dividendlar tarzidagi daromadlarga nisbatan soliq agenti deb e’tirof etiladi.

Kreditor tomonidan qimmatli qog‘ozlarga doir qarz shartnomasi bo‘yicha olinishi lozim bo‘lgan foizlar uning ushbu bo‘limga muvofiq hisobga olinadigan daromadi deb e’tirof etiladi.

Qarz oluvchi tomonidan qimmatli qog‘ozlarga doir qarz shartnomasi bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan foizlar uning ushbu bo‘limga muvofiq hisobga olinadigan xarajatlari deb e’tirof etiladi.

326-modda. Qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilarida qimmatli qog‘ozlarning qadrsizlanish zaxiralarini shakllantirish xarajatlari

Qimmatli qog‘ozlar bozorining ishtirokchisiga berilgan tegishli litsenziya mavjud bo‘lgan taqdirda, qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari professional faoliyatni amalga oshiruvchilar deb e’tirof etiladi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 49-moddasi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari soliq solish maqsadlarida qimmatli qog‘ozlarning qadrsizlanish zaxiralariga ajratmalarni xarajatlar jumlasiga kiritishga haqli. Bunday holda, tashkil etishga (tuzatish kiritishga) doir ajratmalari ilgari soliq bazasini aniqlashda hisobga olingan qimmatli qog‘ozlar qadrsizlanishining tiklangan zaxiralari summalari mazkur soliq to‘lovchilarning daromadi deb e’tirof etiladi.

Qimmatli qog‘ozlarning qadrsizlanish zaxiralari qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozorida muomalada bo‘lgan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni sotib olish narxlarining bu qimmatli qog‘ozlarning bozor kotirovkasidan (zaxiralarning hisob-kitob miqdori) ortiq bo‘lgan miqdorda, hisobot (soliq) davrining oxiridagi holatga ko‘ra tashkil etiladi (tuzatish kiritiladi). Bunda qimmatli qog‘ozni sotib olish narxiga ushbu modda maqsadlarida qimmatli qog‘ozni sotib olishga doir xarajatlar ham kiritiladi.

Zaxiralar mazkur talablarni qanoatlantiradigan qimmatli qog‘ozlarning bir marta chiqarilishidagi (qo‘shimcha chiqarilishidagi) har bir qimmatli qog‘ozga nisbatan, boshqa chiqarilgan (qo‘shimcha chiqarilgan) qimmatli qog‘ozlarning qiymati o‘zgarishidan qat’i nazar, tashkil etiladi (tuzatishlar kiritiladi).

O‘ziga nisbatan ilgari zaxira tashkil etilgan qimmatli qog‘ozlar realizatsiya qilingan yoki boshqacha tarzda chiqib ketgan taqdirda, ilgari soliq bazasini aniqlash chog‘ida hisobga olingan tashkil etishga (tuzatish kiritishga) doir ajratmalar, bunday zaxiraning summasi soliq to‘lovchining qimmatli qog‘ozni realizatsiya qilish yoki uning boshqacha tarzda chiqib ketishi sanasidagi daromadlariga kiritilishi lozim.

Agar hisobot (soliq) davri tugagach, zaxiraning mazkur davr oxiridagi qimmatli qog‘ozlarning bozor kotirovkasi hisobga olingan holdagi summasi yetarli bo‘lmasa, soliq to‘lovchi zaxira summasini ushbu moddaning uchinchi qismida belgilangan tartibda ko‘paytiradi. Agar hisobot (soliq) davrining oxiriga kelib ilgari tashkil etilgan zaxiraning qayta tiklangan summalar hisobga olingan holdagi summasi hisob-kitob qilingan miqdordan ko‘p bo‘lsa, soliq to‘lovchi zaxirani bunday qayta tiklash summalari daromadga kiritilgan holda hisob-kitob qilingan miqdorga kamaytiradi (tiklaydi).

Qimmatli qog‘ozlarning qadrsizlanish zaxiralari, qimmatli qog‘ozlar nominalining valyutasidan qat’i nazar, milliy valyutada tashkil etiladi. Chet el valyutasida nominallashtirilgan qimmatli qog‘ozlar uchun sotib olish narxi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qimmatli qog‘ozni sotib olish sanasidagi rasmiy kursi bo‘yicha milliy valyutada qayta hisob-kitob qilinadi, ularning bozor kotirovkasi esa O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining zaxirani tashkil etish (tuzatish kiritish) sanasidagi rasmiy kursi bo‘yicha aniqlanadi.

Chiqarilish shartlarida qimmatli qog‘ozlarning nominal qiymatini qisman qoplash nazarda tutilgan qimmatli qog‘ozlar uchun hisobot (soliq) davrining oxiridagi holatga ko‘ra zaxirani shakllantirish (unga tuzatish kiritish) chog‘ida sotib olish narxiga tuzatish qimmatli qog‘ozning nominal qiymatini qisman qoplash ulushi hisobga olingan holda kiritiladi.

REPOning birinchi qismi bo‘yicha sotuvchi bo‘lgan yoki qimmatli qog‘ozlar qarziga doir operatsiyalar yuzasidan qarz beruvchi bo‘lgan soliq to‘lovchi REPO operatsiyalari (qarz shartnomasi) bo‘yicha berilgan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha qimmatli qog‘ozlarning qadrsizlanish zaxiralarini shakllantirishga haqli emas.

REPOning birinchi qismi bo‘yicha xaridor bo‘lgan yoki qimmatli qog‘ozlar qarziga doir operatsiyalar yuzasidan qarz oluvchi bo‘lgan soliq to‘lovchi REPO operatsiyalari (qarz shartnomasi) bo‘yicha olingan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha qimmatli qog‘ozlarning qadrsizlanish zaxiralarini shakllantirishga haqli.

327-modda. Qimmatli qog‘ozlarga doir operatsiyalar bo‘yicha soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

Soliq to‘lovchining qimmatli qog‘ozlarni realizatsiya qilishdan yoki boshqacha tarzda chiqib ketishidan (shu jumladan ularning nominal qiymatini qoplash yoki qisman qoplashdan) olingan daromadlari qimmatli qog‘ozlarni realizatsiya qilish yoki ularning boshqacha tarzda chiqib ketish narxidan, shuningdek soliq to‘lovchiga xaridor tomonidan to‘langan, jamlangan foizli (kuponli) daromadning summasidan va soliq to‘lovchiga emitent (veksel beruvchi) tomonidan to‘langan jamlangan foizli (kuponli) daromadning summasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda soliq to‘lovchining qimmatli qog‘ozlarni realizatsiya qilishdan yoki boshqacha tarzda chiqib ketishidan olgan daromadiga ilgari soliq solishda hisobga olingan foizli (kuponli) daromad summasi kiritilmaydi.

Soliq to‘lovchining qimmatli qog‘ozlarni, shu jumladan payli investitsiya fondining investitsiya paylarini realizatsiya qilish yoki ularning boshqacha tarzda chiqib ketishi (shu jumladan ularning nominal qiymatini qoplash yoki qisman qoplash) chog‘idagi xarajatlari qimmatli qog‘ozni sotib olish narxidan (shu jumladan uni sotib olish xarajatlaridan), uni realizatsiya qilish xarajatlaridan, investitsiya paylarining hisob-kitob qilingan qiymatidan ajratilgan siylovlar miqdoridan, qimmatli qog‘ozlarni sotuvchiga soliq to‘lovchi tomonidan to‘langan jamlangan foizli (kuponli) daromad summasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda ilgari soliq solishda hisobga olingan jamlangan foizli (kuponli) daromad summasi xarajatga kiritilmaydi.

Ushbu bob maqsadlarida qimmatli qog‘ozlar quyidagi hollarda ham realizatsiya qilingan (sotib olingan) deb e’tirof etiladi:

1) soliq to‘lovchining tegishli qimmatli qog‘ozlarni bir turdagi muqobil talablarni hisobga o‘tkazish orqali berishga (qabul qilishga) doir majburiyatlari tugatilganda, shu jumladan bunday majburiyatlar qonunchilikka muvofiq kliringni amalga oshirishda tugatilgan taqdirda;

(327-modda uchinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) uyushtirilgan savdolar qoidalari yoki kliring qoidalari shartlarida tuzilgan shartnomalardan kelib chiqadigan muqobil talablar hisobga o‘tkazilganda, agar bunday hisobga olish netto-majburiyatlarning summasini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan bo‘lsa.

Muomaladagi qimmatli qog‘ozlarga oid bitimlar amalga oshirilgan taqdirda, qimmatli qog‘ozga doir tegishli bitim tuzilgan savdolar o‘tkazilgan sana bitim amalga oshirilgan sana deb e’tirof etiladi.

Muomaladagi qimmatli qog‘ozlarga oid bitim qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozoridan tashqarida amalga oshirilgan taqdirda, qimmatli qog‘ozni o‘tkazishning barcha jiddiy shartlarini belgilovchi shartnoma sanasi bitimni amalga oshirish sanasi deb e’tirof etiladi.

Aksiyadorlik jamiyatining ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish chog‘ida olingan aksiyalarni realizatsiya qiluvchi aksiyador bo‘lgan soliq to‘lovchi daromadni aksiyalarni realizatsiya qilish narxi va aksiyalarning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish natijasida aksiyalarning soni o‘zgarishi hisobga olingan holda tuzatish kiritilgan, dastlab to‘langan qiymati o‘rtasidagi farq sifatida aniqlaydi.

Soliq to‘lovchi soliq solish maqsadlarida qabul qilingan hisob siyosatiga muvofiq, qimmatli qog‘ozlarni realizatsiya qilish yoki ularning boshqacha tarzda chiqib ketishi chog‘ida chiqib ketgan qimmatli qog‘ozlarning qiymatini xarajatlarga o‘tkazishning quyidagi usullaridan birini mustaqil ravishda tanlaydi:

1) sotib olish vaqtiga ko‘ra birinchi bo‘lgan qiymat bo‘yicha (FIFO);

2) birlikning qiymati bo‘yicha.

Ushbu modda maqsadlarida to‘lovi qimmatli qog‘ozni chiqarish shartlarida nazarda tutilgan, qimmatli qog‘ozni chiqarish sanasidan yoki keyingi kuponli daromadni to‘lash sanasidan qimmatli qog‘ozni berish sanasiga qadar o‘tgan kalendar kunlar soniga mutanosib ravishda hisob-kitob qilinadigan foizli (kuponli) daromadning bir qismi jamg‘arilgan foizli (kuponli) daromad deb e’tirof etiladi.

Qimmatli qog‘ozlarga doir operatsiyalar bo‘yicha soliq bazasi soliq to‘lovchilar tomonidan alohida aniqlanadi. Bunda soliq to‘lovchilar qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozorida muomalada bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar operatsiyalari bo‘yicha soliq bazasini qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozorida muomalada bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlar operatsiyalari bo‘yicha soliq bazasidan alohida aniqlaydi.

O‘tgan soliq davrlari davomida qimmatli qog‘ozlarga doir operatsiyalar bo‘yicha zarar (zararlar) ko‘rgan soliq to‘lovchilar qimmatli qog‘ozlarga doir operatsiyalar bo‘yicha joriy hisobot (soliq) davrida olingan tegishli soliq bazasini ushbu Kodeksning 336-moddasida belgilangan tartibda va shartlarda kamaytirishga (ushbu zararlarni kelgusiga o‘tkazishga) haqli.

O‘tgan soliq davrlarida qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozorida muomalada bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlarga doir operatsiyalardan ko‘rilgan zararlar hisobot (soliq) davrida belgilangan ushbu qimmatli qog‘ozlarga doir operatsiyalarning soliq bazasini kamaytirishi mumkin.

O‘tgan soliq davrlarida qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozorida muomalada bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarga doir operatsiyalardan ko‘rilgan zararlar ushbu toifadagi qimmatli qog‘ozlarni realizatsiya qilishga doir operatsiyalar bo‘yicha hisobot (soliq) davrida soliq bazasini kamaytirishi mumkin.

Tegishli hisobot davrida qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozorida muomalada bo‘lgan hamda qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozorida muomalada bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlar operatsiyalaridan ko‘rilgan zararlarni soliq davri mobaynida kelgusiga ko‘chirish qimmatli qog‘ozlarning ko‘rsatilgan toifalari bo‘yicha tegishincha bunday qimmatli qog‘ozlarga doir operatsiyalardan ko‘rilgan foyda doirasida alohida-alohida amalga oshiriladi.

Qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozorida muomalada bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarga doir operatsiyalardan olingan daromadlar qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozorida muomalada bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlarga doir operatsiyalar bo‘yicha qilingan xarajatlarga yoki ko‘rilgan zararlarga kamaytirilishi mumkin emas.

Qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozorida muomalada bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlarga doir operatsiyalar bo‘yicha olingan daromadlar qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozorida muomalada bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarga doir operatsiyalar bo‘yicha qilingan xarajatlarga yoki ko‘rilgan zararlarga kamaytirilishi mumkin emas.

Quyidagi bitimlar tuzilganda sotuvchi tomonidan (bundan emitent mustasno) qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organiga quyidagi yig‘imlar to‘lanadi:

a) qimmatli qog‘ozlarga doir tashkil etilgan birjadan tashqari savdolarda bitim summasining 0,3 foizi miqdoridagi yig‘im;

b) emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarga doir birja savdolarida bitim summasining 0,01 foizi miqdoridagi yig‘im.

Sotuvchining, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi norezidentining ushbu moddaning o‘n oltinchi qismida ko‘rsatilgan, tuzilgan bitimlar bo‘yicha daromadlariga foyda solig‘i va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinmaydi.

(327-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 17-apreldagi O‘RQ-1057-sonli Qonuniga asosan o‘n oltinchi va o‘n yettinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.04.2025-y., 03/25/1057/0351-son)

Ushbu modda maqsadlarida qimmatli qog‘ozning bozor kotirovkasi deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasida savdo tashkilotchisining savdolariga (shu jumladan birjaga) qo‘yilgan qimmatli qog‘ozlar uchun — bunday savdo tashkilotchisi orqali savdo kuni mobaynida amalga oshirilgan bitimlar bo‘yicha qimmatli qog‘ozning o‘rtacha tortilgan narxi;

2) chet el savdo tashkilotchisining savdolariga (jumladan birjaga) qo‘yilgan qimmatli qog‘ozlar uchun — bunday savdo tashkilotchisi tomonidan savdo kuni mobaynida o‘zi orqali amalga oshirilgan bitimlar bo‘yicha hisob-kitob qilinadigan qimmatli qog‘ozning yopilish narxi.

Agar ayni bir qimmatli qog‘oz bo‘yicha bitim ikki yoki undan ortiq savdo tashkilotchisi tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, soliq to‘lovchi savdo tashkilotchilarining birida yuzaga kelgan bozor kotirovkasini mustaqil tanlashga haqli.

Agar o‘rtacha tortilgan narx savdo tashkilotchisi tomonidan hisob-kitob qilinmasa, ushbu modda maqsadlarida bu savdo tashkilotchisi orqali savdo kuni davomida amalga oshirilgan bitimlarning eng past hamda eng yuqori narxlari yig‘indisining yarmi o‘rtacha tortilgan narx deb e’tirof etiladi.

Muomalada bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar bilan savdo tashkilotchisi orqali bitim amalga oshirilgan taqdirda:

1) qimmatli qog‘ozga doir tegishli bitim amalga oshirilgan savdolar o‘tkazilgan sana bitim tuzilgan sana deb e’tirof etiladi;

2) soliq solish maqsadlarida qimmatli qog‘ozni haqiqatda realizatsiya qilish (sotib olish) yoki boshqacha tarzda chiqib ketish narxi e’tirof etiladi.

Muomaladagi qimmatli qog‘ozlarga oid bitim qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozoridan tashqarida (savdo tashkilotining ishtirokisiz) amalga oshirilgan taqdirda:

1) qimmatli qog‘ozni o‘tkazishning barcha jiddiy shartlarini belgilovchi shartnoma sanasi bitimni amalga oshirish sanasi deb e’tirof etiladi;

2) agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq solish maqsadlarida quyidagi shartlarning hech bo‘lmaganda bittasiga rioya etilganda, qimmatli qog‘ozni haqiqatda realizatsiya qilish (sotib olish) yoki boshqacha tarzda chiqib ketish narxi bozor narxi deb e’tirof etiladi:

agar bitim amalga oshirilgan kuni qimmatli qog‘ozga nisbatan bittadan ko‘p bitim ro‘yxatga olingan bo‘lsa, amalga oshirilgan bitimning haqiqiy narxi, basharti bu narx bitimni amalga oshirish sanasida savdo tashkilotchisi (tashkilotchilari) tomonidan ushbu sanada ro‘yxatga olingan mazkur qimmatli qog‘ozga doir bitimlarning eng yuqori va eng past narxlari o‘rtasidagi oraliqda (narxlar oralig‘ida) bo‘lsa, bozor narxi deb e’tirof etiladi;

agar bitim amalga oshirilgan sanada qimmatli qog‘ozga doir bitta bitim ro‘yxatga olingan bo‘lsa, amalga oshirilgan bitimning haqiqiy narxi, agar ushbu narx ko‘rsatilgan qimmatli qog‘oz bilan bozor narxi belgilanayotgan bitimni amalga oshirish sanasidagi boshqa bir bitimning narxiga muvofiq bo‘lsa, bozor narxi deb e’tirof etiladi;

3) ushbu qismning 2-bandini qo‘llash maqsadlarida:

savdo tashkilotchisi tomonidan ro‘yxatga olingan bitimlarning eng yuqori va eng past narxi (bitta bitimning narxi) manzilsiz buyurtmalar asosida amalga oshirilgan bitimlar bo‘yicha aniqlanadi;

savdo tashkilotchilarida bitimni amalga oshirish sanasidagi narxlar oralig‘i (bitta bitimning narxi) to‘g‘risidagi axborot mavjud bo‘lmaganda, ushbu band maqsadlari uchun savdo tashkilotchilarining tegishli bitim amalga oshirilgan kunga qadar bo‘lib o‘tgan eng yaqin savdolar sanasidagi ma’lumotlariga ko‘ra ushbu qimmatli qog‘ozlarni realizatsiya

qilish chog‘idagi oraliq narx (bitta bitimning narxi), agar ushbu qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha savdolar savdo tashkilotchisida bitim amalga oshirilgan sanadan keyingi ketma-ketlikdagi uch oy ichida loaqal bir marta o‘tkazilgan bo‘lsa, qabul qilinadi;

agar ayni bir qimmatli qog‘oz bo‘yicha bitimlar ko‘rsatilgan sanada ikki va undan ortiq savdo tashkilotchisi tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, agar ushbu bandda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchi savdo tashkilotchisini, soliq solish maqsadlarida qimmatli qog‘ozning narxini aniqlash uchun foydalanadigan narxlar oralig‘ining (bitta bitim narxining) qiymatini mustaqil ravishda tanlashga haqli. Bunda, agar ushbu moddada ko‘rsatilgan savdo tashkilotchilaridan ayrimlarida ushbu qimmatli qog‘ozga doir bittadan ortiq bitim ro‘yxatga olingan bo‘lsa, boshqa savdo tashkilotchilarida esa ushbu qimmatli qog‘ozga doir faqat bitta bitim ro‘yxatga olingan bo‘lsa, soliq to‘lovchi ushbu qimmatli qog‘ozga doir bittadan ortiq bitim ro‘yxatga olingan savdo tashkilotchilari orasidan savdo tashkilotchisini, soliq solish maqsadlarida qimmatli qog‘ozning narxini aniqlash uchun foydalaniladigan narxlar oralig‘ining (bitta bitim narxining) qiymatini mustaqil ravishda tanlashga haqli.

Muomalada bo‘lgan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar ularni joylashtirish chog‘ida sotib olingan taqdirda, shuningdek ushbu qimmatli qog‘ozlar joylashtirilgandan keyin doirasi cheklanmagan shaxslarga birinchi bor taklif qilinganda, shu jumladan ushbu qimmatli qog‘ozlarni taklif etish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatadigan brokerdan sotib olinganda bunday qimmatli qog‘ozlarning haqiqiy narxi bozor narxi deb e’tirof etiladi va soliq solish maqsadlari uchun qabul qilinadi.

Muomalada bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozoridagi bitimlarning eng past narxidan past narx bo‘yicha realizatsiya qilingan taqdirda moliyaviy natijani aniqlashda qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozoridagi bitimning eng past narxi qabul qilinadi.

Muomalada bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozoridagi bitimlarning eng yuqori narxidan yuqori narx bo‘yicha sotib olingan taqdirda, moliyaviy natijani aniqlashda qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozoridagi eng yuqori narxi qabul qilinadi.

Qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozorida yagona bitim amalga oshirilgan taqdirda, bunday bitimning narxi eng yuqori (eng past) narx deb e’tirof etiladi.

Ochiq payli investitsiya fondlarining muomaladagi investitsiya paylariga doir operatsiyalar bo‘yicha, shu jumladan ular tegishli ochiq payli investitsiya fondini tashkil etuvchi mol-mulkini ishonchli boshqarishni amalga oshirayotgan kompaniyadan sotib olingan (to‘langan) taqdirda, bitimning haqiqiy narxi, agar u investitsiya fondlari to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda investitsiya payining hisob-kitob qiymatiga teng bo‘lsa, bozor narxi deb e’tirof etiladi va soliq solish maqsadida qabul qilinadi.

(327-moddaning yigirma beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Muomalada bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha bitimning haqiqiy narxi, agar ushbu bandda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qimmatli qog‘ozning hisob-kitob qilingan narxi va narxning cheklangan tarzda chetga chiqishidan kelib chiqib aniqlangan eng yuqori va eng past narxi o‘rtasidagi oraliqda turgan bo‘lsa, bozor narxi deb e’tirof etiladi va soliq solish maqsadlari uchun qabul qilinadi.

Ushbu modda maqsadlari uchun muomalada bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlar narxining cheklangan tarzda chetga chiqishi, ushbu qimmatli qog‘ozning hisob-kitob qilingan narxidan 20 foiz miqdorda ko‘payishidan yoki kamayishidan kelib chiqib belgilanadi.

Muomalada bo‘lmagan qimmatli qog‘oz hisob-kitob qilingan narxidan kelib chiqqan holda belgilangan eng kam narxidan va narxlarning chegaraviy tarzda chetga chiqishidan kelib chiqib hisoblangan narxidan past narxda realizatsiya qilingan taqdirda, moliyaviy natijani aniqlashda qimmatli qog‘ozning hisob-kitob qilingan narxidan va narxlarning chegaraviy o‘zgarishidan kelib chiqqan holda belgilangan eng past narx qabul qilinadi.

Muomalada bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlar qimmatli qog‘ozlarning hisob-kitob qilingan narxidan va narxlarning chegaraviy o‘zgarishidan kelib chiqqan holda belgilangan eng yuqori narx bo‘yicha sotib olingan taqdirda, soliq solish maqsadlarida moliyaviy natijani aniqlashda qimmatli qog‘ozning hisob-kitob qilingan narxidan va narxlarning chegaraviy chetga chiqishidan kelib chiqqan holda belgilangan eng yuqori narx qabul qilinadi.

Ushbu modda maqsadlarida qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozorida muomalada bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlarning hisob-kitob narxini belgilash tartibi qimmatli qog‘ozlar bozori bo‘yicha vakolatli organ tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Ochiq payli investitsiya fondlarining qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozorida muomalada bo‘lmagan investitsiya paylariga doir operatsiyalar bo‘yicha, shu jumladan ular ochiq payli investitsiya fondini tashkil etuvchi mol-mulkni ishonchli boshqarishni amalga oshiruvchi boshqaruvchi kompaniyadan sotib olingan (to‘langan) taqdirda, agar bitimning haqiqiy bahosi investitsiya fondlari to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlangan investitsiya payining hisob-kitob qilingan qiymatiga teng bo‘lsa, soliq solish maqsadlari uchun bitimning haqiqiy narxi qabul qilinadi.

(327-moddaning o‘ttiz birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Yopiq va oraliq payli investitsiya fondlarining muomalada bo‘lmagan investitsiya paylariga doir operatsiyalar bo‘yicha, shu jumladan ular tegishli payli investitsiya fondini tashkil etuvchi mol-mulk ishonchli boshqarishni amalga oshiruvchi boshqaruvchi kompaniyadan sotib olingan taqdirda, agar bitimning haqiqiy bahosi investitsiya fondlari to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlangan investitsiya payining hisob-kitob qilingan qiymatiga teng bo‘lsa, soliq solish maqsadlari uchun bitimning haqiqiy narxi qabul qilinadi.

(327-moddaning o‘ttiz ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar investitsiya fondlari to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq payli investitsiya fondlarining muomalasi cheklangan investitsiya paylarini berish, to‘lash yoki ayirboshlash investitsiya payining hisob-kitob qilingan qiymati bo‘yicha amalga oshirilmasa, agar bitimning haqiqiy bahosi bitta investitsiya payi beriladigan va payli investitsiya fondini ishonchli boshqarish qoidalariga muvofiq, tebranishlarning eng ko‘p chegarasi hisobga olinmagan holda aniqlangan pul mablag‘larining summasiga teng bo‘lsa, soliq solish maqsadida bitimning haqiqiy narxi qabul qilinadi.

(327-moddaning o‘ttiz uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Muomalada bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlarning hisob-kitob qilingan narxi qimmatli qog‘ozni o‘tkazishning barcha muhim shartlarini belgilovchi shartnoma sanasida aniqlanadi.

Soliq solish maqsadlari uchun muomalada bo‘lmagan investitsiya paylarining hisob-kitob qilingan narxi bitimni tuzish sanasiga eng yaqin bo‘lgan, investitsiya payining hisob-kitob qilingan qiymati aniqlanadigan sanadan oldingi sanada aniqlanadi.

328-modda. Muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

Ushbu modda maqsadlarida uyushgan bozorda muomalada bo‘lgan muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha soliq to‘lovchining hisobot (soliq) davrida olgan daromadlari deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) soliq to‘lovchi hisobot (soliq) davri mobaynida olishi kerak bo‘lgan variatsiyaviy marjaning summasi;

2) muddatli bitimlarning qimmatli qog‘ozlar bozorida muomalada bo‘lgan moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha hisobot (soliq) davri ichida olinishi kerak bo‘lgan, shu jumladan asos aktivni yetkazib berish nazarda tutilgan muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblar tartibidagi boshqa summalar.

Ushbu modda maqsadlari uchun soliq to‘lovchining hisobot (soliq) davrida uyushgan bozorda muddatli bitimlarning muomalada bo‘lgan moliyaviy vositalari bo‘yicha amalga oshirilgan xarajatlari deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) variatsiyaviy marjaning hisobot (soliq) davrida soliq to‘lovchi tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan summasi;

2) uyushgan bozorda muomalada bo‘lgan muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha hisobot (soliq) davri ichida to‘lanishi lozim bo‘lgan boshqa summalar, shuningdek asos aktivni yetkazib berish nazarda tutilgan bitimlar bo‘yicha o‘tkaziladigan asos aktivning qiymati;

3) uyushgan bozorda muddatli bitimlarning muomalada bo‘lgan moliyaviy vositalariga doir operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Ushbu modda maqsadlari uchun soliq to‘lovchining uyushgan bozorda muddatli bitimlarning muomalada bo‘lmagan moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha hisobot (soliq) davrida olingan daromadlari deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiya ishtirokchilaridan biri operatsiya bajarilganda (tugallanganda) hisobot (soliq) davrida olishi lozim bo‘lgan pul mablag‘larining summalari;

2) uyushgan bozorda muomalada bo‘lmagan muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha hisobot (soliq) davrida olinishi lozim bo‘lgan, shu jumladan asos aktivni yetkazib berishni nazarda tutuvchi muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblar tartibida olinishi lozim bo‘lgan boshqa summalar.

Uyushgan bozorda muomalada bo‘lmagan muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha hisobot (soliq) davrida qilingan xarajatlar deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiya ishtirokchilaridan biriga operatsiya bajarilganda (tugallanganda) hisobot (soliq) davrida to‘lanishi lozim bo‘lgan pul mablag‘larining summalari;

2) uyushgan bozorda muomalada bo‘lmagan muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha hisobot (soliq) davri ichida to‘lanishi lozim bo‘lgan boshqa summalar, shuningdek asos aktivni yetkazib berishni nazarda tutuvchi bitimlar bo‘yicha beriladigan asos aktivning qiymati;

3) muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Uyushgan bozorda muomalada bo‘lgan muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha soliq bazasi va uyushgan bozorda muomalada bo‘lmagan muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha soliq bazasi alohida hisoblab chiqariladi.

Uyushgan bozorda muomalada bo‘lgan muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha soliq bazasi hisobot (soliq) davrida olinishi kerak bo‘lgan barcha asos aktivlar bilan tuzilgan mazkur bitimlarga doir daromadlarning summalari va hisobot (soliq) yilidagi barcha asos aktivlar bo‘yicha xarajatlarning summalari o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Salbiy farq, tegishincha, shunday operatsiyalardan ko‘rilgan zarar deb e’tirof etiladi.

Uyushgan bozorda muomalada bo‘lgan muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha zararlar ushbu moddaning sakkizinchi qismiga muvofiq aniqlanadigan soliq bazasini kamaytirmaydi.

Uyushgan bozorda muomalada bo‘lmagan muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha soliq bazasi barcha asos aktivlar bilan mazkur operatsiyalarga doir daromadlar va hisobot (soliq) davridagi barcha bazis aktivlar bilan mazkur operatsiyalarga doir xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Salbiy farq, tegishincha, bunday operatsiyalardan olingan zararlar deb e’tirof etiladi.

Uyushgan bozorda muomalada bo‘lmagan muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha zararlar ushbu moddaning oltinchi qismiga muvofiq aniqlanadigan soliq bazasini kamaytirmaydi.

Uyushgan bozorda muomalada bo‘lmagan muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha zararlar uyushgan bozorda muomalada bo‘lmagan muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha keyingi soliq davrlarida yuzaga keladigan soliq bazasini ushbu bo‘limda belgilangan tartibda kamaytirish jumlasiga kiritilishi mumkin.

Uyushgan bozorda muomalada bo‘lgan muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga nisbatan bitimning haqiqiy narxi, agar bitimning haqiqiy narxi bitimni tuzish sanasida savdo tashkilotchisi tomonidan ro‘yxatga olingan mazkur vositaga doir tuzilgan bitimlarning eng yuqori va eng past narxi o‘rtasidagi oraliqda (narxlar oralig‘ida) bo‘lsa, soliq solish maqsadlarida bozor narxi deb e’tirof etiladi. Agar ayni bir muddatli bitimlarning moliyaviy vositasi bo‘yicha bitimlar ikki va undan ortiq savdo tashkilotchisi tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, muddatli bitimlarning ishtirokchisi narxlar oralig‘idan bitimning haqiqiy narxini soliq solish maqsadlarida e’tirof etish uchun foydalanadigan, ro‘yxatdan o‘tkazilgan savdo tashkilotchisini mustaqil ravishda tanlashga haqli. Savdo tashkilotchisida tegishli bitimni tuzish sanasidagi narxlar oralig‘i to‘g‘risidagi axborot mavjud bo‘lmagan taqdirda, ko‘rsatilgan maqsadlar uchun savdo tashkilotchisining oxirgi uch oy ichida bo‘lib o‘tgan eng yaqin savdolar sanasidagi narxlar oralig‘i to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanadi.

Uyushgan bozorda muomalada bo‘lmagan muddatli bitim moliyaviy vositasini realizatsiya qilishning (sotib olishning) haqiqiy narxi, agar ushbu narx mazkur muddatli bitimlar moliyaviy vositasining muddatli bitimni tuzish sanasidagi hisob-kitob qiymatidan oshish (pasayish) tarafga ko‘pi bilan 20 foiz farq qilsa, soliq solish maqsadlari uchun bozor narxi deb e’tirof etiladi.

Muddatli bitimlar moliyaviy vositalari tegishli turlarining hisob-kitob qiymatini aniqlash tartibi qimmatli qog‘ozlar bozori bo‘yicha vakolatli organ tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Agar uyushgan bozorda muomalada bo‘lmagan muddatli bitim moliyaviy vositasini realizatsiya qilishning (sotib olishning) haqiqiy narxi mazkur muddatli bitimlar moliyaviy vositasining hisob-kitob qiymatidan oshish (pasayish) tarafga ko‘pi bilan 20 foiz farq qilsa, soliq to‘lovchining daromadlari (xarajatlari) 20 foiz oshirilgan (kamaytirilgan) hisob-kitob qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Svop-kontraktdagi majburiyatlar (talablar) bo‘yicha olingan daromadlar va ko‘rilgan zararlar muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha tegishli soliq bazasini aniqlashda hisobga olinadi.

329-modda. Xedjirlash operatsiyasi bo‘yicha soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

Ushbu Kodeks 51-moddasining birinchi qismi talablari inobatga olingan holda xedjirlash operatsiyasi amalga oshirilganda soliq bazasini aniqlashda daromadlar (xarajatlar) hisobga olinadi, uni hisoblashda xedjirlash obyekti bilan bog‘liq bo‘lgan daromadlar va xarajatlar hisobga olinadi.

Banklar soliq bazasini uyushgan bozorda muomalada bo‘lmagan va asos aktivi chet el valyutasidan iborat bo‘lgan, yetkazib beriladigan muddatli bitimga doir operatsiyalar bo‘yicha ko‘rilgan zararning summasiga kamaytirishga haqli.

Asos aktivlari foizli stavkalardan iborat bo‘lgan muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalarni amalga oshirishda, bunday vositalarning shartlarida nazarda tutilgan foiz stavkalaridan kelib chiqqan holda, daromadlarni (xarajatlarni) hisobga olish hisobot (soliq) davrining so‘nggida amalga oshirilmaydi. Bunda muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir tegishli operatsiyalar bo‘yicha daromad (xarajat) deb, shu jumladan, foizli stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan va bunday operatsiyalarga doir shartnomaga muvofiq olinishi (to‘lanishi) lozim bo‘lgan daromadlar (xarajatlar) e’tirof etiladi.

Tegishli shartnomada nazarda tutilgan to‘lovlarning sanasi bunday operatsiyalar bo‘yicha daromadlarni (xarajatlarni) e’tirof etish sanasidir.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 51-moddasi.

330-modda. Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchilari tomonidan olingan daromadlar bo‘yicha soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining barcha ishtirokchilari tomonidan olingan daromadlar bo‘yicha soliq bazasi (bundan buyon ushbu moddada konsolidatsiyalashgan soliq bazasi deb yuritiladi) soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilarining soliqqa tortish maqsadlarida hisobga olinadigan barcha daromadlarining va barcha xarajatlarining summalari asosida, ushbu moddada belgilangan xususiyatlar inobatga olingan holda aniqlanadi. Bu maqsadlar uchun ushbu guruhning har bir ishtirokchisi soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisiga konsolidatsiyalashgan soliq bazasini hisoblab chiqarish uchun zarur bo‘lgan barcha zarur axborotni soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomada belgilangan muddatlarda taqdim etadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 5-bobi.

Soliq bazasini aniqlash va soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisiga zarur axborotni taqdim etish tartibi hisob siyosatida soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhiga soliq solish maqsadida belgilanadi.

Konsolidatsiyalashgan soliq bazasining hisobot (soliq) davridagi hisob-kitobi ushbu moddaga muvofiq ushbu guruh barcha ishtirokchilarining ma’lumotlari asosida, soliq to‘lovchilar uyushgan guruhining mas’ul ishtirokchisi tomonidan soliq davri boshlanganidan e’tiboran o‘sib boruvchi yakun bilan mustaqil ravishda tuziladi.

Konsolidatsiyalashgan soliq to‘lovchilar guruhining konsolidatsiyalashgan soliq bazasi konsolidatsiyalashgan guruh barcha ishtirokchilarining ushbu bo‘lim qoidalari hisobga olingan xarajatlarining arifmetik summasiga kamaytirilgan daromadlarining arifmetik summasi sifatida aniqlanadi. Salbiy farq soliq to‘lovchilar uyushgan guruhining zarari deb e’tirof etiladi.

Konsolidatsiyalashgan soliq to‘lovchilar guruhi ishtirokchilarining daromadlarni to‘lash manbaida soliq solinishi lozim bo‘lgan daromadlari, shuningdek konsolidatsiyalashgan soliq to‘lovchilar guruhining nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining nazorat qiluvchi shaxslari bo‘lgan ishtirokchilarining ular nazorat qiladigan chet el kompaniyalarining foydasi tarzidagi daromadlari konsolidatsiyalashgan soliq bazasiga kiritilmaydi.

Konsolidatsiyalashgan soliq to‘lovchilar guruhining ishtirokchilari, ushbu Kodeksning 316-moddasiga muvofiq kafolatli ta’mirlash va kafolatli xizmat ko‘rsatish bo‘yicha zaxirani tovarlarni (xizmatlarni) ushbu guruhning boshqa ishtirokchilariga realizatsiya qilishga taalluqli qismi bo‘yicha shakllantirmaydi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi tarkibiga soliq to‘lovchi kirganda, kafolatli ta’mirlash va kafolatli xizmat ko‘rsatish bo‘yicha zaxira ushbu guruhning boshqa ishtirokchilariga realizatsiya qilingan tovarlarga (ishlarga) taalluqli bo‘lgan zaxiralar summalariga oid qism bo‘yicha tiklanadi. Bunda ushbu Kodeks 316-moddasining uchinchi qismiga muvofiq aniqlanadigan zaxiraning eng ko‘p miqdoriga tuzatish kiritiladi, bu tuzatish soliq to‘lovchi tomonidan kafolatli ta’mirlash va kafolatli xizmat ko‘rsatish bo‘yicha haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlarning ko‘rsatkichlarini aniqlashda soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari o‘rtasidagi operatsiyalarni ko‘rsatilgan tovarlarni (xizmatlarni) o‘tgan uch yilda realizatsiya qilishdan olingan tushum, shuningdek ko‘rsatilgan tovarlarni (ishlarni) hisobot (soliq) davrida realizatsiya qilishdan olingan tushum hajmida istisno etadi.

Soliq to‘lovchi soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchisiga aylangan soliq davri boshlanguniga qadar o‘tgan uch yilda tovarlarni (ishlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumning ko‘rsatkichiga tuzatish kiritish amalga oshirilmaydi. Soliq to‘lovchi soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi a’zosi bo‘lgan soliq davrlarida bu ko‘rsatkich mazkur tovarlarni (ishlarni) bunday guruhning boshqa ishtirokchilariga realizatsiya qilishdan olingan tushumni o‘z ichiga olmaydi.

Kafolatli ta’mirlash va kafolatli xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tiklangan zaxiralarning summalari, shu jumladan zaxiraning eng ko‘p miqdorini kamaytirish natijasidagi summalar soliq to‘lovchi soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi a’zosiga aylangan soliq davridan oldingi soliq davridagi jami daromad tarkibiga kiritiladi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchisi bo‘lgan banklar soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilaridan birining bu guruhning boshqa ishtirokchilari oldidagi qarziga taalluqli qism bo‘yicha ushbu Kodeksning 315-moddasiga muvofiq zaxirani shakllantirmaydi. Guruhga kirish chog‘ida banklar zaxirani bu guruhning boshqa ishtirokchilariga tegishli bo‘lgan qarzning summasiga tiklaydi. Tegishli summalar bank soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi a’zosiga aylangan soliq davridan oldingi soliq davridagi jami daromad tarkibiga kiritiladi.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ushbu guruh tarkibiga kirgan, soliq davridan oldingi soliq davrlarida ushbu bo‘limga muvofiq hisoblab chiqarilgan zararlarni ko‘rgan a’zolari konsolidatsiyalashgan soliq bazasini o‘zlari ko‘rgan zararning butun summasiga yoki ushbu summaning bir qismiga kamaytirishga yoxud ushbu guruh tarkibiga kirgan soliq davridan e’tiboran zararlarni ushbu Kodeksning 333-moddasida belgilangan tartibda kelgusiga o‘tkazishga haqli emas.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi a’zolarining ushbu guruh tarkibiga kirguniga qadar ko‘rgan zararlarini (shu jumladan ushbu Kodeksning 302-moddasiga muvofiq xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar obyektlaridan foydalanganlik oqibatida ko‘rilgan zararlarni) konsolidatsiyalashgan soliq bazasi bilan umumlashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Mazkur qoida soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi tarkibiga ushbu guruhning ishtirokchisiga qo‘shib olish yoki bunday guruhning ishtirokchisiga qo‘shib yuborish yo‘li bilan kirgan yuridik shaxslar ko‘rgan zararlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Kodeksning ushbu bo‘limida nazarda tutilgan soliq solish maqsadida qabul qilinadigan xarajatlar normativlari soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining har bir ishtirokchisi tomonidan qo‘llaniladi.

Ushbu Kodeksda qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari bo‘lmagan soliq to‘lovchilar uchun belgilangan qimmatli qog‘ozlarga va muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha soliq

bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari soliq bazasini alohida aniqlashga, shuningdek soliq bazasini ko‘rilgan zararlar summasiga kamaytirishga va zararlarni kelgusi davrga o‘tkazishga taalluqli qismi bo‘yicha konsolidatsiyalashgan soliq bazasini hisoblab chiqarishda qo‘llaniladi.

Ushbu moddada belgilangan qoidalar faqat 337-moddaning 12-bandida belgilangan soliq stavkasi qo‘llaniladigan soliq bazasini aniqlashga, banklar uchun esa ushbu Kodeks 337-moddasining 1-bandida belgilangan soliq stavkasi qo‘llaniladigan soliq bazasini aniqlashga nisbatan tatbiq etiladi.

331-modda. Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining foydasiga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasi (zarari) deb mazkur kompaniyaning ushbu moddada belgilangan tartibga muvofiq quyidagi usullardan biri bilan aniqlangan foydasining (zararining) miqdori e’tirof etiladi:

1) kompaniya ro‘yxatdan o‘tkazilgan mamlakatning qonunchiligiga muvofiq tuzilgan mazkur kompaniyaning yillik moliyaviy hisoboti ma’lumotlari bo‘yicha. Bunday holda nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining soliq solinguniga qadar bo‘lgan foydasining (zararining) miqdori ushbu kompaniyaning foydasi (zarari) deb e’tirof etiladi;

(331-modda birinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) ushbu bo‘limda soliq to‘lovchi bo‘lgan yuridik shaxslar uchun belgilangan qoidalar bo‘yicha.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasini (zararini) ushbu modda birinchi qismining 1-bandiga muvofiq aniqlash quyidagi shartlardan biri bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

1) ushbu nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining doimiy turgan joyi soliq solish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi bilan xalqaro shartnomasi mavjud bo‘lgan chet davlat bo‘lsa, bundan soliq solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi bilan axborot almashishni ta’minlamaydigan davlatlar (hududlar) mustasno;

2) moliyaviy hisobotga nisbatan salbiy fikrlar mavjud bo‘lmagan yoki fikrlarni ifodalash rad etilmagan auditorlik xulosasi taqdim etilgan bo‘lsa.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasini (zararini) ushbu modda birinchi qismining 1-bandiga muvofiq aniqlash quyidagi talablarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

1) nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasini (zararini) aniqlash maqsadida bunday kompaniya ro‘yxatdan o‘tkazilgan davlatning qonunchiligiga muvofiq tuzilgan konsolidatsiyalashmagan moliyaviy hisobotdan foydalaniladi.

(331-modda uchinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi ro‘yxatdan o‘tkazilgan davlatda bunday qonunchilik mavjud bo‘lmasa, foyda (zarar) Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga yoxud moliyaviy hisobotlarni tuzishning xalqaro jihatdan e’tirof etilgan, qimmatli qog‘ozlarni savdolarga qo‘yishga ruxsat berish to‘g‘risida qaror qabul qilishi uchun chet el moliyaviy vositachilari ro‘yxatiga kiritilgan chet el fond birjalari hamda chet el depozitar-kliring tashkilotlari tomonidan qabul qilinadigan standartlariga muvofiq aniqlanadi;

(331-modda uchinchi qismi 1-bandining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) agar nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi ro‘yxatdan o‘tkazilgan davlatning qonunchiligiga muvofiq ushbu kompaniyaning moliyaviy hisoboti majburiy auditdan o‘tkazilishi shart bo‘lmasa, ushbu Kodeks maqsadlarida foydani (zararni) aniqlash auditi auditning xalqaro standartlariga muvofiq o‘tkazilgan moliyaviy hisobot asosida amalga oshiriladi. Ushbu bandda belgilangan shartlarga rioya etish ushbu modda ikkinchi qismining 1-bandini qo‘llash maqsadlari uchun talab etilmaydi.

(331-modda uchinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu moddaning ikkinchi qismida belgilangan shartlar bajarilmagan taqdirda, shuningdek nazorat qiluvchi shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining tanloviga ko‘ra, nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasi (zarari) ushbu modda birinchi qismining 2-bandiga muvofiq aniqlanadi, bundan ushbu moddaning oltinchi, yettinchi, to‘qqizinchi — o‘n birinchi qismlarida belgilangan qoidalar mustasno.

Agar nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasini (zararini) aniqlash tartibi ushbu modda birinchi qismining 2-bandiga muvofiq soliq to‘lovchining tanlovi bo‘yicha qo‘llanilsa, bunday tartib tegishli nazorat qilinadigan chet el kompaniyasiga nisbatan bu tartibni qo‘llash boshlangan sanadan e’tiboran kamida besh soliq davri ichida qo‘llanilishi lozim va bu hisob siyosatida nazorat qiluvchi shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchiga soliq solish maqsadlari uchun mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lishi kerak.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining ushbu kompaniyaning moliyaviy hisoboti ma’lumotlari bo‘yicha aniqlangan va chet el valyutasida ifodalangan, ushbu Kodeksning 208-moddasida nazarda tutilgan tartibga muvofiq hisobga olinadigan dividendlarning (taqsimlangan foydaning) miqdoriga kamaytirilgan foydasi (zarari) chet el valyutasining yillik moliyaviy hisobot tuziladigan davr uchun aniqlanadigan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan milliy valyutaga nisbatan belgilangan o‘rtacha kursi qo‘llanilgan holda milliy valyutada qayta hisob-kitob qilinishi lozim.

Nazorat qilinadigan har bir chet el kompaniyasi foydasining (zararining) summasi kompaniyaning tegishli davr (davrlar) uchun tuzilgan, uning moliyaviy va soliq hisobotlari ilova qilingan moliyaviy hisoboti bilan hujjatlar asosida tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi foydasining (zararining) summasi ushbu modda birinchi qismining 2-bandiga muvofiq aniqlangan taqdirda, nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi foydasining (zararining) summasi chet el tashkiloti doimiy turgan davlatning (hududning) rasmiy valyutasida aniqlanadi hamda u chet el valyutasining nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi foydasining (zararining) summasi aniqlanadigan kalendar yil uchun aniqlanadigan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan milliy valyutaga nisbatan belgilangan o‘rtacha kursi qo‘llanilgan holda milliy valyutada qayta hisob-kitob qilinishi lozim. Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi foydasining (zararining) summasi foydaning summasini aniqlash imkonini beradigan hujjatlar bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Bunday hujjatlar, xususan, nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining hisob-kitob varaqlaridan ko‘chirmalar, amalga oshirilgan operatsiyalarni tasdiqlovchi dastlabki hujjatlardan iborat bo‘lishi mumkin.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasini (zararini) aniqlashda ushbu kompaniyaning yillik moliyaviy hisobotida aks ettirilgan quyidagi daromadlari (xarajatlari) hisobga olinmaydi:

1) kompaniyaning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini, kooperativlarning paychilik fondlaridagi paylarini va paychilik investitsiya fondlaridagi paylarni, qimmatli qog‘ozlarni, hosila moliyaviy vositalarni moliyaviy hisobotni tuzishda qo‘llaniladigan standartlarga muvofiq haqiqiy qiymati bo‘yicha qayta baholash summalari tarzidagi;

2) nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi ro‘yxatdan o‘tkazilgan mamlakatning qonunchiligiga (ushbu kompaniyaning moliyaviy hisobotini tuzish maqsadlari uchun hisob siyosatiga) muvofiq moliyaviy hisobotda nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi deb e’tirof etilgan shu’ba (birlashgan) tashkilotlar foydasining (zararining) summalari tarzidagi;

(331-modda to‘qqizinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

3) rezervlarni shakllantirishga sarflangan xarajatlarning va rezervlarni tiklashdan ko‘rilgan zararlarning summalari tarzidagi. Bunda nazorat qilinadigan kompaniyaning foydasi ilgari shakllantirilgan rezervning miqdorini kamaytiradigan xarajatlar summasiga kamaytiriladi. Agar nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining kompaniya ro‘yxatdan o‘tkazilgan mamlakatning qonunchiligiga muvofiq tuzilgan yillik moliyaviy hisoboti ma’lumotlariga ko‘ra zarar aniqlansa, ilgari shakllantirilgan rezervning miqdorini kamaytiruvchi xarajatlar bunday zararning summasini ko‘paytiradi.

(331-modda to‘qqizinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foydasini (zararini) aniqlash chog‘ida ilgari shakllantirilgan rezervning miqdorini kamaytiruvchi xarajatlar summasini hisobga olishning ushbu modda to‘qqizinchi qismining 3-bandida belgilangan tartibi, agar nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining moliyaviy hisobotida ilgari shakllantirilgan rezervlarni kamaytiruvchi xarajatlar summasi ochib berilgan bo‘lsa yoki bunday xarajatlar hujjatlar bilan tasdiqlangan bo‘lsa, qo‘llaniladi.

Kompaniyaning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlari, kooperativlarning paychilik fondlaridagi paylari va paychilik investitsiya fondlarining paylari, qimmatli qog‘ozlar, hosila moliyaviy vositalar realizatsiya qilingan yoki

boshqacha tarzda chiqib ketgan taqdirda, nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining, ushbu moddaning birinchi qismi 1-bandiga muvofiq, aniqlangan foydasiga (zarariga) ularni qayta baholash summalari (agar bunday qayta baholash amalga oshirilgan bo‘lsa), shu jumladan ularning qadrsizlanishidan ko‘rilgan zararning summasi miqdorida tuzatish kiritiladi.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining yillik moliyaviy hisobotlarining ma’lumotlariga ko‘ra zarar aniqlansa, agar ushbu moddaning o‘n to‘rtinchi qismida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, u kelgusi davrlarga cheklovlarsiz taqsimlab o‘tkazilishi va ushbu kompaniyaning soliq bazasini aniqlashda hisobga olinishi mumkin.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan usullardan biri yordamida aniqlangan zarari, agar nazorat qiladigan shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchi mazkur zarar olingan davr uchun nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi to‘g‘risidagi bildirish xatini taqdim etmasa, kelgusi davrlarga taqsimlab o‘tkazilishi mumkin emas.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining soliq bazasi nazorat qilinadigan har bir chet el kompaniyasiga nisbatan alohida-alohida aniqlanadi.

Agar nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining soliq bazasini aniqlashda hisobga olinadigan daromadlari o‘ziga nisbatan o‘zaro bog‘liq shaxslar o‘rtasida bitimlar tuzilishi munosabati bilan soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lashning to‘liqligini tekshirish o‘tkazilgan soliq to‘lovchi bilan nazorat qilinadigan bitim tuzilishi natijasida olingan bo‘lsa hamda mazkur tekshiruv natijalari yuzasidan qabul qilingan, kuchga kirgan qarorga muvofiq bitim narxiga soliqni qo‘shimcha hisoblash maqsadida tuzatish kiritilgan bo‘lsa, nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining tegishli daromadlari soliq bazasini belgilash maqsadida mazkur tuzatishni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi tomonidan shu nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining yoxud uning o‘zaro bog‘liq shaxsining nazorat qiluvchi shaxsi deb e’tirof etiladigan yuridik shaxsning foydasiga qimmatli qog‘ozlarni va (yoki) mulkiy huquqlarni (shu jumladan ulushlarni, paylarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, shuningdek nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining qimmatli qog‘ozlarni va (yoki) mulkiy huquqlarni (shu jumladan ulushlarni, paylarni) sotib olish narxi tarzidagi xarajatlari, basharti qimmatli qog‘ozlarni va (yoki) mulkiy huquqlarni (shu jumladan ulushlarni, paylarni) realizatsiya qilish narxi ularning, nazorat qilinadigan kompaniyaning hisobga olish ma’lumotlariga ko‘ra, mulk huquqi mazkur qog‘ozlarga va (yoki) mulkiy huquqlarga (shu jumladan ulushlarga, paylarga) o‘tgan sanadagi hujjatlar bilan tasdiqlangan qiymatidan kelib chiqqan holda, biroq mazkur qimmatli qog‘ozlarning va (yoki) mulkiy huquqlarning (shu jumladan ulushlarning, paylarning) mulk huquqi o‘tgan sanadagi bozor qiymatidan oshmagan, hujjatlar bilan tasdiqlangan qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlangan bo‘lsa, nazorat qilinadigan kompaniyaning foydasidan (zararidan) chiqarib tashlanadi.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining tegishli davrdagi foydasiga nisbatan hisoblab chiqarilgan soliq summasi nazorat qiluvchi shaxsning ishtiroki ulushiga mutanosib ravishda chet davlatlar qonunchiligiga va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq shu foydaga nisbatan hisoblab chiqarilgan soliqning (shu jumladan daromadni to‘lash manbaida ushlab qolinadigan daromad solig‘ining), shuningdek shu nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining O‘zbekistondagi doimiy vakolatxonasi foydasiga nisbatan hisoblab chiqariladigan foyda solig‘ining miqdoriga nisbatan kamaytiriladi.

(331-moddaning o‘n yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Chet davlatning qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq summasi hujjatlar bilan tasdiqlanishi kerak, O‘zbekiston Respublikasining davlat (hudud) bilan soliq solish masalalariga doir xalqaro shartnomasi mavjud bo‘lmagan taqdirda, ushbu summa chet davlatning soliqlar sohasida nazorat qilish va tekshirishga vakolatli organi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

(331-moddaning o‘n sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

46-bob. Soliq bazasiga tuzatish kiritish

332-modda. Daromadlar va xarajatlarga tuzatish kiritish

Hisobot soliq davridagi daromad (xarajatlar) miqdorining soliq bazasini aniqlashda ilgari daromad (xarajat) deb e’tirof etilgan summa doirasida ko‘payishi yoki kamayishi tuzatish kiritish deb e’tirof etiladi.

Daromadlar va xarajatlarga quyidagi hollarda tuzatish kiritilishi lozim:

1) tovarlar, shuningdek sug‘urtalanuvchiga sug‘urta mukofoti to‘liq yoki qisman qaytarilganda;

2) bitim shartlari o‘zgartirilganda;

3) narxlar o‘zgartirilganda, sotib oluvchi tomonidan chegirmadan foydalanilganda;

4) ko‘rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan daromadlar va xarajatlarga tuzatish kiritish quyidagicha amalga oshiriladi:

kafolat muddati belgilangan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha — kafolat muddati doirasida;

sug‘urta mukofotlari bo‘yicha — shartnomani bekor qilish paytida;

boshqa hollarda — bir yillik muddat doirasida.

Ushbu moddaga muvofiq daromadlar va xarajatlarga tuzatish kiritish mazkur moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan hollar yuzaga kelganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovarni (xizmatni) sotuvchi ushbu Kodeksning 257-moddasida nazarda tutilgan tartibda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadga tuzatish kiritadi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollarda daromadlar va xarajatlarga tuzatish kiritish mazkur hollar sodir bo‘lgan soliq davrida amalga oshiriladi.

Daromadlar va xarajatlarga tuzatish kiritish soliq to‘lovchi soliq solishning umumbelgilangan tartibiga o‘tgan taqdirda ham amalga oshiriladi, bundan tuzatish kiritilayotgan daromadlar bo‘yicha soliq imtiyozlarini qo‘llash hollari mustasno.

333-modda. Zararlarni kelgusiga o‘tkazish

Ushbu bo‘limda nazarda tutilgan daromadlar va xarajatlarga kiritilgan tuzatishlarni inobatga olgan holda chegirilishi lozim bo‘lgan xarajatlarning jami daromaddan oshib ketishi soliq to‘lovchining zarari deb e’tirof etiladi.

Muomaladagi qimmatli qog‘ozlar va muddatli bitimlarning muomaladagi moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha zararlar tadbirkorlik faoliyatidan ko‘rilgan zararlar deb e’tirof etiladi.

Oldingi soliq davrida (davrlarida) ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan zarari (zararlari) bo‘lgan soliq to‘lovchi joriy soliq davrining foydasini ushbu ko‘rilgan zararning butun summasiga yoki ushbu summaning bir qismiga kamaytirishga haqlidir.

(333-moddaning to‘rtinchi va beshinchi qismlari O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Soliq bazasi oldingi soliq davrida (davrlarida) ko‘rilgan zarar summasiga faqat joriy soliq davrining yakunlari bo‘yicha kamaytirilishi mumkin.

Bir kalendar yildan ortiq yillarda ko‘rilgan zararlar ular ko‘rilgan ketma-ketlikda o‘tkaziladi.

Bosh bankdan umidsiz qarzlarni oluvchi shu’ba tashkiloti tomonidan ko‘rilgan zararlar kelgusi davrlarga o‘tkazilmaydi.

Zararlarni o‘tkazishning alohida hollardagi o‘ziga xos xususiyatlari ushbu Kodeksning 334 — 336-moddalarida nazarda tutilgandir.

334-modda. Qayta tashkil etilganda zararlarni o‘tkazish

Qayta tashkil etish munosabati bilan o‘tkaziladigan zararlar soliq to‘lovchilar bo‘lgan huquqiy vorislar o‘rtasida taqsimlash balansi asosida o‘tkaziladigan aktivlar qiymatining qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxs aktivlari

qiymatidagi taqsimlash balansini tuzish sanasidan oldingi sanadagi holatiga ko‘ra solishtirma miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadi va ushbu Kodeksning 333-moddasida nazarda tutilgan tartibda o‘tkaziladi.

Huquqiy voris bo‘lgan soliq to‘lovchi qayta tashkil etilgan taqdirda, uning ilgari o‘z faoliyatini tugatgan soliq to‘lovchidan ko‘rgan zararlari o‘tkazilmaydi.

335-modda. Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha zararlarni o‘tkazish

Ushbu Kodeks 333-moddasining qoidalari soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhiga nisbatan ushbu moddada belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda qo‘llaniladi.

Agar soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi oldingi soliq davrida (davrlarida) zarar (zararlar) ko‘rgan bo‘lsa, bunday guruhning mas’ul ishtirokchisi joriy soliq davrining konsolidatsiyalashgan soliq bazasini zararning butun summasiga yoki ushbu summaning bir qismiga kamaytirishga haqli.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchisi konsolidatsiyalashgan guruh tarkibidan chiqib ketganidan keyin (ushbu guruh faoliyatini tugatgandan keyin):

1) joriy soliq davrining soliq bazasini mazkur guruh faoliyat ko‘rsatgan davrda ko‘rilgan zararning summasiga (ushbu summaning bir qismiga) kamaytirishga haqli emas;

2) joriy soliq davrining soliq bazasini mazkur ishtirokchi tomonidan u soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchisi bo‘lmagan soliq davrlarining yakunlari bo‘yicha ko‘rilgan zarar summasiga (ushbu summaning bir qismiga) ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda kamaytirishga haqli.

(335-modda uchinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Agar soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchisi mazkur guruhdagi o‘zining ishtirok etish davrida qo‘shib yuborish yoki qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etilgan bo‘lsa, mazkur guruh tarkibidan chiqib ketganidan keyin (ushbu guruh faoliyatini tugatganidan keyin) bu ishtirokchi joriy soliq davrining soliq bazasini o‘zi huquqiy vorisi bo‘lgan soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari bo‘lmagan bunday qayta tashkil etilgan soliq to‘lovchilar soliq davri yakunlari bo‘yicha qayta tashkil etilgan soliq to‘lovchidan olingan zararlar summasiga (shu summaning bir qismiga) ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda kamaytirishga ham haqli.

Agar soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchisi mazkur guruhdagi o‘zining ishtirok etish davrida yuridik shaxsni bo‘lish yo‘li bilan yangidan tashkil etilgan bo‘lsa, mazkur guruh tarkibidan chiqib ketganidan keyin (ushbu guruh faoliyatini tugatganidan keyin) bu ishtirokchi joriy soliq davrining soliq bazasini o‘zi huquqiy vorisi bo‘lgan soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari bo‘lmagan bunday qayta tashkil etilgan yuridik shaxs soliq davri yakunlari bo‘yicha qayta tashkil etilgan soliq to‘lovchidan olingan zararlar summasiga (shu summaning bir qismiga) ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda, ushbu Kodeksning 92-moddasini hisobga olgan holda kamaytirishga ham haqli.

336-modda. Operatsiyalarning ayrim turlari bo‘yicha zararlarni o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari

Yuridik shaxsning mol-mulk majmui sifatidagi korxonani ustav fondida (ustav kapitalida) ishtirok etish ulushini realizatsiya qilishdan yoki uning boshqacha tarzda chiqib ketishidan ko‘rilgan zarar realizatsiya qilingan (chiqib ketgan) aktivlarga aynan o‘xshash aktivlarni realizatsiya qilishdan (ularning chiqib ketishidan) olingan daromadlar hisobidan kompensatsiya qilinadi.

Ishonchli boshqaruv shartnomasi bo‘yicha ko‘rilgan zararlar ishonchli boshqaruv muassisining soliq bazasini belgilashda hisobga olinmaydi. Bunday zararlar ushbu ishonchli boshqaruvning kelgusidagi daromadlariga o‘tkaziladi.

Oddiy shirkat shartnomasida (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomada) ishtirok etishdan sheriklarning (ishtirokchilarning) olgan zarari ishonchli shaxsda ushbu oddiy shirkat oladigan kelgusi daromadlarga o‘tkaziladi.

Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan ko‘rilgan zararlar birgalikda aniqlanadi va tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan soliq bazasini aniqlashda hisobga olinmaydi. Bunday zararlar shu xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan olinadigan kelgusi daromadlarga o‘tkaziladi.

Muomalada bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlar va muddatli bitimlarning muomalada bo‘lmagan moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha zararlar alohida aniqlanadi va xuddi shunday operatsiyalardan olingan daromadlar hisobidan har bir soliq bazasi doirasida kompensatsiya qilinadi.

(336-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

47-bob. Soliq stavkalari. Soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi

337-modda. Soliq stavkalari

Soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r

Soliq to‘lovchilar

Soliq stavkalari, foizlarda

1

Banklar

20

2

Quyidagi soliq to‘lovchilar:

polietilen granulalar ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi;

faoliyatining asosiy turi mobil aloqa xizmatlarini ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan

20

3

O‘zi ishlab chiqargan o‘z qishloq xo‘jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan foyda bo‘yicha ushbu Kodeksning 57-moddasida nazarda tutilgan mezonlarga javob beruvchi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari va baliq xo‘jaligi korxonalari

0

4

Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to‘lovchilar

0

5

Qo‘shimcha manbalardan daromadlar oluvchi budjet tashkilotlari

0

7

Bozor va savdo komplekslarida xizmat ko‘rsatishdan olingan foyda

20

9

Yagona ishtirokchilari nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo‘lgan va umumiy xodimlar sonida nogironligi bo‘lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan va nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnatiga haq to‘lash jamg‘armasi mehnatga haq to‘lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan soliq to‘lovchilar

0

10

O‘zbekiston Respublikasi Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan foydalanishdan olinadigan daromadlar

0

101

Umumiy quvvati 100 kVtgacha bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalaridan foydalangan holda umumiy tarmoqqa elektr energiyasini realizatsiya qilishdan olingan foyda

0

102

Yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni realizatsiya qilishdan olingan foyda

0

11

Dividendlar tarzidagi daromadlar

5

12

Qolgan soliq to‘lovchilar, bundan 1 — 11-bandlarda ko‘rsatilganlar mustasno

15

(337-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Ushbu modda birinchi qismining 2-bandida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilar faoliyatning barcha turlari bo‘yicha belgilangan soliq stavkasini qo‘llaydi.

Ushbu modda birinchi qismining 3-bandida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilar, agar o‘zi ishlab chiqargan qishloq xo‘jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan daromadlari jami daromadning 90 foizdan ko‘prog‘ini tashkil etsa, faoliyatning barcha turlari bo‘yicha 0 foiz miqdorida soliq stavkasini qo‘llashga haqlidir.

Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to‘lovchi ushbu Kodeksning 59-moddasida belgilangan mezonlarga rioya etmagan taqdirda, mazkur shartlarga rioya etmaganlik ro‘y bergan soliq davrining boshlanishidan e’tiboran ushbu modda birinchi qismining 12-bandida belgilangan soliq stavkasini ilgari o‘tgan soliq davrlari uchun aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etgan holda qo‘llaydi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 59-moddasi.

(O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan 337-modda beshinchi qismining chiqarilish sanasi 2026-yil 1-yanvar — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son)

Qo‘shimcha manbalardan daromad oluvchi budjet tashkilotlari, basharti bo‘shatilayotgan mablag‘lardan qonunchilikda belgilangan tartibda budjet tashkilotlarining moddiy-texnika va ijtimoiy bazasini mustahkamlash, o‘z xodimlarini moddiy rag‘batlantirish uchun maqsadli tarzda foydalansa, 2027-yilning 1-yanvariga qadar 0 foiz miqdoridagi soliq stavkasini qo‘llaydi.

(337-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1013-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1013/1066-son. 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

O‘zida ishlovchilarning umumiy o‘rtacha yillik sonining 3 foizidan ko‘prog‘i nogironligi bo‘lgan shaxslarni tashkil etadigan yuridik shaxslar uchun soliq stavkasi ushbu moddada belgilangan normadan ortiqcha ishga joylashtirilgan nogironligi bo‘lgan shaxslarning har bir foiziga soliq stavkasining bir foizi hisobidan kamaytiriladi.

(337-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-maydagi O‘RQ-770-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son)

2022-yil 1-sentabrdan keyin jami daromadi joriy soliq davri mobaynida ilk marta o‘n milliard so‘mdan oshgan soliq to‘lovchilar (bundan ushbu moddaning o‘n uchinchi qismida nazarda tutilgan soliq to‘lovchilar mustasno) ushbu modda birinchi qismining 12-bandida belgilangan soliq stavkasini 50 foizga pasaytirishga — joriy soliq davri va keyingi soliq davri mobaynida, basharti pasaytirilgan soliq stavkasi qo‘llaniladigan soliq davrlarida jami daromadi yuz milliard so‘mdan oshmasa, haqli.

(337-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Bunda ushbu modda o‘n uchinchi qismida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilar soliq bazasini jami daromadning 25 foizi miqdorida soddalashtirilgan tartibda aniqlashga haqli.

(337-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Ushbu moddaning yettinchi va o‘n uchinchi qismlarida nazarda tutilgan soliq imtiyozi yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni va aksiz solig‘ini to‘lovchilarga nisbatan, shuningdek soliq to‘lovchi tugatilgan hollarda va (yoki) berilgan soliq imtiyozini qo‘llash uchun ikki va undan ortiq tadbirkorlik subyekti o‘rtasida soliq to‘lovchining tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlarini ajratish (bo‘lish) faktlari aniqlangan taqdirda, tatbiq etilmaydi.

(337-moddaning to‘qqizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Ushbu modda birinchi qismining 101-bandida nazarda tutilgan 0 foiz miqdoridagi soliq stavkasi qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari foydalanishga topshirilgan oydan e’tiboran uch yil mobaynida, quyosh panellarining quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam bo‘lmagan quvvatga ega elektr energiyasini to‘plash tizimi bilan quyosh panellari o‘rnatilganda esa — ushbu panellar foydalanishga topshirilgan oydan e’tiboran o‘n yil mobaynida qo‘llaniladi.

Ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga asoslangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni joriy etgan soliq to‘lovchilarga nisbatan ushbu modda birinchi qismining 102-bandida nazarda tutilgan 0 foiz miqdordagi soliq stavkasi yuqori texnologiyali ishlab chiqarish obyekti foydalanishga qabul qilingan sanadan e’tiboran uch yil muddatga, ularning yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlariga oid qismi bo‘yicha qo‘llaniladi.

(337-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1104-sonli Qonuniga asosan o‘n ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1104/1213-son)

Foydali qazilmalarni qazib olish sohasida faoliyatni amalga oshirayotgan ayrim soliq to‘lovchilar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan oshirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

(337-moddaning sakkizinchi — o‘n beshinchi qismlari O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan sakkizinchi — o‘n ikkinchi qismlar bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

2026-yil 1-yanvardan boshlab ilk marotaba soliq to‘lashga o‘tgan aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchilar — soliq to‘lashga o‘tgan yildan keyingi bir soliq davri mobaynida soliq to‘lashdan (bundan dividend va foizli daromadlar mustasno) ozod qilinadi. Mazkur tartib qayta tashkil etilgan soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

(337-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan o‘n uchinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

338-modda. Soliq davri. Hisobot davri

Kalendar yil soliq davridir.

Yilning choragi hisobot davridir.

339-modda. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Hisobot (soliq) davrining yakunlari bo‘yicha soliq summasi soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda aniqlanadi.

Hisobot davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi soliq davrining boshidan oshib boruvchi yakun bilan, agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo‘lgan foizlardagi ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq to‘lovchi ushbu Kodeksning 342-moddasida belgilangan hollarda va tartibda foyda solig‘ini yoki chet davlatda to‘langan daromadlardan olinadigan xuddi shunday turdagi to‘langan soliqni hisobga o‘tkazish yo‘li bilan soliq summasini kamaytirishga haqli.

Agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq hisoboti barcha soliq to‘lovchilar tomonidan har bir hisobot va soliq davri o‘tganidan keyin soliq bo‘yicha hisobda turgan joyidagi soliq organiga taqdim etiladi.

Agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq hisoboti quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) hisobot davri yakunlari bo‘yicha — hisobot davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay;

2) soliq davri yakunlari bo‘yicha — soliq davri o‘tgandan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay.

Budjet tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan soliq bo‘yicha soliq hisoboti soliq davri yakunlariga ko‘ra taqdim etiladi, bundan matlubot kooperativlari mustasno. Bunda o‘tgan soliq davri yakunlari bo‘yicha jami daromad mavjud bo‘lmagan taqdirda soliq hisobotini taqdim etish talab qilinmaydi.

340-modda. Soliqni to‘lash tartibi

Agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliqni to‘lash hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha, tegishli hisobot (soliq) davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Jami daromadi joriy soliq davridan oldingi soliq davri uchun kiritilgan tuzatishlar hisobga olingan holda yigirma milliard so‘mdan oshadigan soliq to‘lovchilar ushbu moddaning uchinchi — oltinchi qismlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan har oylik bo‘nak to‘lovlarini hisobot davri har bir oyining yigirma uchinchi kunidan kechiktirmay to‘laydi.

(340-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Joriy soliq davrining birinchi choragida to‘lanishi lozim bo‘lgan har oylik bo‘nak to‘lovining summasi o‘tgan soliq davrining oxirgi choragida to‘lanishi lozim bo‘lgan har oylik bo‘nak to‘lovi summasiga teng etib qabul qilinadi.

Joriy soliq davrining ikkinchi choragida to‘lanishi lozim bo‘lgan har oylik bo‘nak to‘lovining summasi joriy yilning birinchi hisobot davri uchun soliq hisoboti bo‘yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig‘i summasining uchdan biriga teng etib qabul qilinadi.

Joriy soliq davrining uchinchi choragida to‘lanishi lozim bo‘lgan har oylik bo‘nak to‘lovining summasi yarim yillik yakunlariga ko‘ra soliq hisoboti bo‘yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig‘ining summasi va birinchi chorak yakunlari bo‘yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig‘ining summasi o‘rtasidagi farqning uchdan biriga teng etib qabul qilinadi.

Joriy soliq davrining to‘rtinchi choragida to‘lanishi lozim bo‘lgan har oylik bo‘nak to‘lovining summasi to‘qqiz oylik yakunlariga ko‘ra soliq hisoboti bo‘yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig‘ining summasi va yarim yillik yakunlari bo‘yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig‘ining summasi o‘rtasidagi farqning uchdan biriga teng etib qabul qilinadi.

Agar ushbu moddaning uchinchi — oltinchi qismlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan har oylik bo‘nak to‘lovining summasi manfiy yoki nolga teng bo‘lsa, ko‘rsatilgan to‘lovlar tegishli chorakda amalga oshirilmaydi.

Soliq to‘lovchilar, shu jumladan yangidan tashkil etilgan, jami daromadi joriy hisobot davri mobaynida yigirma milliard so‘mdan oshgan soliq to‘lovchilar har oylik bo‘nak to‘lovlarini bunday oshib ketish sodir bo‘lgan to‘liq chorak o‘tganidan keyin to‘laydi.

(340-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Bo‘lish yoki ajratib chiqarish yo‘li bilan qayta tashkil etish natijasida yangidan tashkil etilgan yuridik shaxs, jami daromadining miqdoridan qat’i nazar, har oylik bo‘nak to‘lovlarini, agar bo‘lish yoki ajratib chiqarish yo‘li bilan qayta tashkil etilgan yuridik shaxs soliq bo‘yicha har oylik bo‘nak to‘lovlarini bunday qayta tashkil etish amalga oshirilgan soliq davrida hisoblab chiqargan bo‘lsa, ikkita kelgusi soliq davri mobaynida to‘laydi.

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha hisobot (soliq) davri mobaynida to‘langan har oylik bo‘nak to‘lovlari summasi hisobot (soliq) davri uchun soliq hisoboti bo‘yicha hisoblab chiqarilgan soliqni to‘lash chog‘ida hisobga olinadi.

Har oylik bo‘nak to‘lovini hisoblab chiqarish soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda soliq to‘lovchi kelgusi chorak birinchi oyining 15-sanasidan kechiktirmay joriy chorakda kutilayotgan foyda summasidan kelib chiqqan holda, bo‘nak to‘lovlari summasi to‘g‘risida soliq organlariga ma’lumotnoma taqdim etish huquqiga ega. Kutilayotgan foyda summasi asossiz kamaytirib ko‘rsatilgan taqdirda soliq organlari soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim etiladigan soliq bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomaga o‘zgartirishlar kiritishga haqli.

(340-moddaning o‘n birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Jami yillik daromadning miqdoridan qat’i nazar, soliq hisobotini soliq bo‘yicha faqat soliq davri yakunlari yuzasidan taqdim etuvchi soliq to‘lovchilar har oylik bo‘nak to‘lovlarini to‘lamaydi.

Soliq to‘lovchi tugatilganda soliq tugatish yakunlanguniga qadar to‘lanishi lozim.

Yuridik shaxsni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, davlat soliq xizmati organi har oylik bo‘nak to‘lovlarini hisoblashni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organdan bunday axborot olingan oydan e’tiboran to‘xtatib turadi.

Faoliyat tiklangan va tugatish jarayoni to‘xtatilgan taqdirda, har oylik bo‘nak to‘lovlarini hisoblash ularni hisoblash to‘xtatilgan oydan e’tiboran tiklanadi.

341-modda. Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha hisoblab chiqarilgan bo‘nak to‘lovlari summalarini, shuningdek soliq summalarini to‘lashni, shunday guruhni tuzish to‘g‘risidagi shartnoma ro‘yxatdan o‘tkazilgan joyda, mazkur summalarni ushbu guruhning va ular alohida bo‘linmalarining ishtirokchilari bo‘yicha taqsimlamasdan amalga oshiradi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha soliq hisoboti soliq organiga ushbu Kodeks 339-moddasining beshinchi qismida belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim etiladi.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining qolgan ishtirokchilari o‘zi hisobda turgan joydagi soliq organiga soliq hisobotini taqdim etmaydi.

Agar soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchilari ushbu guruhning konsolidatsiyalashgan soliq bazasiga kiritilmaydigan daromadlarni olsa, ular o‘zi hisobda turgan joydagi soliq organlariga soliqning faqat ushbu daromadlarga nisbatan hisoblab chiqarilgan qismi bo‘yicha soliq hisobotini taqdim etadi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha soliq hisoboti shu guruhning mas’ul ishtirokchisi tomonidan soliq hisobi ma’lumotlari hamda umuman soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha konsolidatsiyalashgan soliq bazasi asosida faqat konsolidatsiyalashgan soliq bazasiga nisbatan soliqni hisoblab chiqarish qismi bo‘yicha tuziladi.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi tomonidan ushbu guruh faoliyat ko‘rsata boshlagan soliq davrining birinchi choragida to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq bo‘yicha har oylik bo‘nak to‘lovlarining summasi shu guruh barcha ishtirokchilarining ushbu guruh tuzilishidan oldingi soliq davrining uchinchi choragida to‘lanishi lozim bo‘lgan har oylik bo‘nak to‘lovlari summasi sifatida aniqlanadi.

Agar soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to‘g‘risidagi shartnoma soliq organi tomonidan soliq davri boshlanganidan keyin ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lsa, soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchilari tomonidan soliq davri boshidan buyon o‘tgan hisobot davrlarining yakunlari bo‘yicha to‘langan bo‘nak (joriy) to‘lovlari soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining bo‘nak joriy to‘lovlari soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining tegishli ishtirokchisi hisobiga o‘tkazilishi (qaytarilishi) lozim.

342-modda. Soliqni hisobga olish

Chet davlatning qonunchiligiga va (yoki) O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq haqiqatda to‘langan (ushlab qolingan) foyda solig‘ining summasi yoki ushbu chet davlatda olingan daromadlardan olinadigan aynan o‘xshash turdagi soliq O‘zbekiston Respublikasida foyda solig‘ini to‘lash hisobidan soliq to‘lovchida ushbu moddada belgilangan tartibda va miqdorlarda hisobga olinishi lozim.

(342-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Foyda solig‘i summasi yoki O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlardan olinadigan aynan o‘xshash turdagi soliqni hisobga olish bir vaqtning o‘zida quyidagi shartlarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi:

1) O‘zbekiston Respublikasida soliq solinishi lozim bo‘lgan daromad bo‘yicha;

2) O‘zbekiston Respublikasi bilan xalqaro shartnoma mavjud bo‘lganda;

3) bunday soliq to‘langanligini (ushlab qolinganligini) tasdiqlovchi hujjat mavjud bo‘lganda.

Foyda solig‘ining yoki O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida to‘langan (ushlab qolingan), aynan o‘xshash turdagi soliq hisobga olinadigan summasining miqdori soliq to‘lovchi ko‘rsatilgan daromad olinishi lozim bo‘lgan (olingan) soliq davri uchun to‘lashi lozim bo‘lgan foyda solig‘i summasidan oshib ketishi mumkin emas.

Chet davlat vakolatli organining ma’lumotnomasi yoki soliq O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida to‘langanligi faktini tasdiqlovchi boshqa hujjat O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida foyda solig‘i yoki aynan o‘xshash turdagi soliq to‘langanligini (ushlab qolinganligini) tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Agar ushbu moddaning to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan hujjatlar chet tilida tuzilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining davlat tilidagi tarjimasi mavjud bo‘lishi shart.

48-bob. O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlariga to‘lanadigan dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

343-modda. Dividendlar tarzidagi daromadlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Yuridik shaxs tomonidan O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentiga to‘lanadigan dividendlarga ushbu Kodeksning 345-moddasida nazarda tutilgan tartibda to‘lov manbaida soliq solinadi va bunday daromadlarni oluvchi tomonidan soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanadi.

(343-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Agar dividendlar O‘zbekiston Respublikasi norezidenti bo‘lgan yuridik shaxs tomonidan O‘zbekiston Respublikasi soliq rezidentiga to‘lansa, olingan dividendlarga nisbatan to‘lanadigan soliq summasi uni oluvchi tomonidan olingan dividendlar summasidan va ushbu Kodeks 337-moddasi birinchi qismining 11-bandida belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqib, mustaqil ravishda aniqlanadi. Bunda dividend oluvchilar ushbu moddaga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq summasini daromad manbai joylashgan joy bo‘yicha to‘langan soliq summasiga kamaytirishga, agar O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, haqli emas.

344-modda. Foiz tarzidagi daromadlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Agar ushbu moddaning ikkinchi qismida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi soliq rezidentiga to‘lanadigan foizlar ushbu daromadlarni oluvchining soliq bazasida hisobga olinadi va unga ushbu bo‘limda nazarda tutilgan tartibda soliq solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan yuridik shaxs tomonidan notijorat va budjet tashkilotlariga mablag‘larni depozitga joylashtirishidan to‘lanadigan foizlarga to‘lov manbaida ushbu Kodeks 337-moddasi birinchi qismining 12-bandida belgilangan miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha soliq solinadi va bunday daromadlar oluvchilarning soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanadi.

(344-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 9-noyabrdagi O‘RQ-646-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.11.2020-y., 03/20/646/1488-son)

345-modda. Soliq agentlari tomonidan dividendlar va foizlardan soliqni hisoblab chiqarish, ushlab qolish hamda to‘lash tartibi

Dividendlar va foizlar tarzida daromadlar to‘lovchi yuridik shaxslar ushbu Kodeks 343-moddasining birinchi va 344-moddasining ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda soliq agentlari deb e’tirof etiladi.

Soliq agenti O‘zbekiston Respublikasi soliq rezidentlari deb e’tirof etiladigan yuridik va (yoki) jismoniy shaxslarga dividendlar va foizlar tarzida to‘lanadigan daromadlarga nisbatan har bir soliq to‘lovchi bo‘yicha alohida soliq summasini ushbu Kodeks 337-moddasining birinchi qismi 11-bandida yoki 381-moddasida nazarda tutilgan soliq stavkalari bo‘yicha ko‘rsatilgan daromadlarni ushbu moddada belgilangan tartibda har bir to‘lovga tatbiqan belgilaydi.

Dividendlar oluvchi soliq to‘lovchining daromadlaridan ushlab qolinadigan soliq summasini aniqlashda soliq bazasi har bir oluvchiga nisbatan soliq agenti tomonidan shu oluvchiga to‘g‘ri keladigan soliq solinadigan dividendlar jami summasining ulushi sifatida aniqlanadi. Dividendlarning soliq solinishi lozim bo‘lgan bunday jami summasi

yuridik shaxs tomonidan barcha oluvchilarning foydasiga taqsimlanishi lozim bo‘lgan, ushbu yuridik shaxs tomonidan joriy hisobot (soliq) davrida va o‘tgan hisobotda (soliq davrlarida) olingan dividendlarni dividendlarni oluvchilar foydasiga taqsimlash sanasidagi dividendlar umumiy summasiga kamaytirilgan dividendlarning umumiy summasi sifatida aniqlanadi. Bunda taqsimlanadigan dividendlarning umumiy summasini ushbu yuridik shaxs tomonidan olingan dividendlar summasiga kamaytirish, basharti ushbu olingan dividendlar summasi avval ushbu yuridik shaxsning dividendlar tarzida olingan daromadlariga nisbatan soliq bazasini aniqlashda hisobga olinmagan bo‘lsa, amalga oshiriladi.

Soliq agenti ushbu Kodeks 344-moddasining ikkinchi qismida ko‘rsatilgan foiz tarzidagi daromadlarga nisbatan soliq summasini, ushbu moddaning ikkinchi qismida belgilangan tartibga aynan o‘xshash tartibda aniqlaydi.

Dividendlar va foizlardan olinadigan soliq summasi bo‘yicha soliq hisoboti o‘zining soliq hisobiga olingan joyidagi soliq organiga dividendlar va foizlar hisoblangan oydan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay soliq agentlari tomonidan taqdim etiladi.

Soliq summasi dividendlarni va foizlarni to‘lash muddatidan kechiktirmay budjetga to‘lanadi.

Soliq agenti dividendlar va foizlarni oluvchining talabiga ko‘ra, ushbu shaxsga soliq davri uchun daromad summasi va ushlab qolingan soliqning umumiy summasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakldagi ma’lumotnoma taqdim etishi shart.

346-modda. Soliq agentining javobgarligi

Soliq summasi to‘lov manbaida ushlab qolinmagan taqdirda, soliq agenti soliqning ushlab qolinmagan summasini va u bilan bog‘liq penya summasini qonun hujjatlariga muvofiq budjetga kiritishi shart.

49-bob. Faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan norezidentlarning daromadlariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

347-modda. Soliq solinadigan daromadni aniqlash

Faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan norezidentning daromadlaridan soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash ushbu bobda nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda, ushbu Kodeksning 43 — 47-boblarida belgilangan tartibda mazkur norezident tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Bajarilishi mazkur bobda nazarda tutilgan, faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan norezident bo‘lgan soliq to‘lovchining majburiyatlari uning doimiy muassasasiga yuklatilishi mumkin. Bunda doimiy muassasa soliq to‘lovchining barcha huquqlariga ega bo‘ladi.

Doimiy muassasaning jami daromadini bunday doimiy muassasaning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshirish boshlangan sanadan e’tiboran olingan daromadlarning quyidagi turlari tashkil etadi:

1) norezident tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyatini o‘zining doimiy muassasasi orqali amalga oshirish natijasida olingan daromadlar;

2) norezidentning O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va (yoki) uni tasarruf qilishdan olgan daromadlari;

3) norezidentning daromadlari, shu jumladan uning boshqa davlatlardagi tuzilmaviy bo‘linmalarining O‘zbekiston Respublikasidagi O‘zbekiston Respublikasi norezidenti bo‘lgan mazkur yuridik shaxsning doimiy muassasasi orqali amalga oshiriladigan faoliyatga aynan o‘xshash yoki bir xil faoliyatni amalga oshirishdan oladigan daromadlari;

4) ushbu Kodeksning 351-moddasida ko‘rsatilgan O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan doimiy muassasaga tegishli boshqa daromadlar;

5) bunday doimiy muassasa faoliyati bilan bog‘liq O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar.

Agar norezident O‘zbekiston Respublikasida ham, uning hududidan tashqarida ham o‘zining O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi bilan birgalikda bajariladigan bitta loyiha yoki aloqador loyihalar doirasida

tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan bo‘lsa, agar norezident xuddi shunday yoki aynan o‘xshash faoliyat bilan xuddi shunday yoki aynan o‘xshash sharoitlardagi faoliyatda band bo‘lgan yakka va alohida shaxs bo‘lganida hamda o‘zi doimiy muassasasi bo‘lgan norezidentdan mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsatganida olishi mumkin bo‘lgan daromad bunday doimiy muassasaning daromadi deb hisoblanadi.

Agar norezidentning doimiy muassasasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan tovarlarni (xizmatlarni) norezidentning O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan boshqa tarkibiy bo‘linmasi realizatsiya qilsa, agar u xuddi shunday yoki aynan o‘xshash faoliyat bilan xuddi shunday yoki aynan o‘xshash sharoitlardagi faoliyatda band bo‘lgan yakka va alohida shaxs bo‘lganida hamda o‘zi doimiy muassasasi bo‘lgan norezidentdan mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsatganida olishi mumkin bo‘lgan daromad bunday doimiy muassasaning daromadi deb e’tirof etiladi.

Agar norezident O‘zbekiston Respublikasida uchinchi shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab, doimiy muassasa shakllanishiga olib keladigan tayyorgarlik va (yoki) yordamchi turdagi faoliyatni amalga oshirsa va bunda shunday faoliyatga nisbatan haq olish nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq solinadigan baza ushbu doimiy muassasaning bunday faoliyat bilan bog‘liq xarajatlari summasining 20 foizi miqdorida belgilanadi.

Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq O‘zbekiston Respublikasi norezidenti doimiy muassasasining shunday norezidentning bosh ofisi yoki boshqa tuzilmaviy bo‘linmalari oldidagi majburiyatlari bo‘yicha yuzaga keladigan kursga oid farqlar O‘zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi daromadlari (xarajatlari) jumlasiga kiritilmaydi.

(347-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar norezidentning O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyati doimiy muassasa shakllanishiga olib keladigan bittadan ortiq muassasasi bo‘lsa, soliq solinadigan baza va soliq summasi har bir muassasa uchun alohida hisoblanadi.

Faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi norezidentning soliqni to‘langandan keyin o‘z tasarrufida qoladigan sof foydasi dividendlarga tenglashtiriladi va unga ushbu Kodeks 353-moddasining 1-bandida belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha soliq solinishi lozim.

Ushbu modda to‘qqizinchi qismining qoidalarini qo‘llash maqsadlarida doimiy muassasa orqali faoliyatini amalga oshiruvchi norezident dividendlar tarzidagi daromadlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan pasaytirilgan soliq stavkasini ushbu Kodeksning 357-moddasida ko‘rsatilgan tartibda qo‘llashga haqli. Agar O‘zbekiston Respublikasining soliq solish masalalari bo‘yicha xalqaro shartnomasida dividendlar tarzidagi daromadlar bo‘yicha bir nechta pasaytirilgan soliq stavkalari nazarda tutilgan bo‘lsa, ularning eng kami qo‘llaniladi.

(347-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuniga asosan o‘ninchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Sof foyda deganda jami daromad va doimiy muassasa faoliyati bilan bog‘liq xarajatlar o‘rtasidagi farq tushuniladi. Bunda joriy soliq davri uchun sof foyda ayni bir doimiy muassasa doirasida avvalgi soliq davrlarida olingan zararning (zararlarning) umumiy summasiga, basharti ilgari bunday zarar (zararlar) sof foydani aniqlashda hisobga olinmagan bo‘lsa, kamaytiriladi.

Sof foydadan olinadigan soliqning hisoblab chiqarilgan summasi soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay budjetga to‘lanadi.

(347-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan to‘qqizinchi — o‘n birinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

348-modda. Chegirib tashlanadigan xarajatlarni aniqlash

Soliq bazasini aniqlash chog‘ida O‘zbekiston Respublikasidagi faoliyatdan doimiy muassasa orqali soliq solinadigan daromadlar olish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xarajatlar, ular O‘zbekiston Respublikasida yoki uning hududidan tashqarida qilinganidan qat’i nazar, doimiy muassasaning chegirmalari jumlasiga kiritiladi, bundan ushbu Kodeksga muvofiq chegirib tashlanmaydigan xarajatlar mustasno.

O‘zbekiston Respublikasining norezidentiga o‘zining doimiy muassasasi tomonidan to‘lanadigan quyidagi ko‘rinishdagi summalar ham chegirilmaydi:

1) ushbu norezidentning mulkidan yoki intellektual mulkidan foydalanganlik yoki foydalanish huquqini berganlik uchun royalti, gonorarlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar;

2) ushbu norezident tomonidan doimiy muassasaga ko‘rsatilgan xizmatlar uchun xarajatlar;

3) ushbu norezident tomonidan doimiy muassasaga berilgan zayomlar bo‘yicha pul mukofotlari;

4) ushbu norezidentning O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi orqali faoliyatidan daromadlar olish bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar;

5) ushbu norezidentning mazkur moddaning to‘rtinchi qismida belgilangan, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqaruvga oid va umumma’muriy xarajatlari.

Agar qo‘llaniladigan O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasi qoidalariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi norezidenti doimiy muassasasining soliq solinadigan daromadini aniqlashda shu norezidentning boshqaruvga oid va umumma’muriy xarajatlarini chegirib tashlashga yo‘l qo‘yilsa, bunday xarajatlar summasi shunday norezident tomonidan o‘z tanloviga binoan quyidagi usullardan biri bo‘yicha aniqlanadi:

1) xarajatlarni mutanosib ravishda taqsimlash usuli;

2) xarajatlarni chegirmalarga bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) kiritish usuli.

Ushbu modda uchinchi qismining maqsadida ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqaruv va boshqaruv xodimlarining mehnatiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar boshqaruvga oid va umumma’muriy xarajatlar deb e’tirof etiladi. Bunda ushbu norezidentning boshqaruvga oid va umumma’muriy xarajatlari jumlasiga quyidagilar kiritilmaydi:

1) norezidentning bevosita doimiy muassasasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida yoki norezidentning vakolatxonasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida ushbu Kodeksga muvofiq chegirmalar jumlasiga kiritiladigan boshqaruvga oid va umumma’muriy xarajatlari;

2) norezidentning bevosita vakolatxonasi yoki doimiy muassasalari tomonidan boshqa davlatlarda qilingan, O‘zbekiston Respublikasida soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan doimiy muassasasining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqaruvga oid va umumma’muriy xarajatlari;

3) O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan doimiy muassasaning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqaruvga oid va umumma’muriy xarajatlar.

Norezident hisobot (soliq) davri mobaynida o‘z tanloviga ko‘ra boshqaruvga oid va umumma’muriy xarajatlarni soliq hisobotiga ilovada ko‘rsatiladigan doimiy muassasaning chegirmalariga kiritish usullaridan faqat bittasini qo‘llaydi.

Norezidentning boshqaruvga oid va umumma’muriy xarajatlari O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasaning chegirmalariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda kiritiladi.

(348-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

349-modda. Soliq hisobotini taqdim etish va soliq to‘lash tartibi

Doimiy muassasalar orqali faoliyat yuritadigan norezidentlar soliq hisobotini soliq hisobiga qo‘yilgan joydagi soliq organiga ushbu Kodeks 339-moddasining to‘rtinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda taqdim etadi.

Doimiy muassasa orqali faoliyat yuritadigan norezidentlar soliq davrining yakunlariga ko‘ra soliq hisobotini taqdim etish uchun nazarda tutilgan muddatlarda, soliq hisobiga qo‘yilgan joydagi soliq organiga O‘zbekiston Respublikasidagi faoliyati to‘g‘risidagi hisobotni ham (ixtiyoriy shaklda) taqdim etadi.

Doimiy muassasaning faoliyati soliq davri tugaguniga qadar tugatilgan taqdirda, soliq bo‘yicha soliq hisoboti va O‘zbekiston Respublikasidagi faoliyati to‘g‘risidagi hisobot faoliyat tugatilganidan keyin bir oydan kechiktirmay taqdim etilishi kerak.

Soliqni to‘lash ushbu Kodeksning 340-moddasida nazarda tutilgan tartibda umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

Norezident O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy muassasa orqali faoliyatini tugatganda soliq bunday faoliyat tugaguniga qadar to‘lanadi.

350-modda. Soliq agenti tomonidan ushlab qolingan soliqni hisobga olish tartibi

O‘zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan doimiy muassasa belgilariga javob beradigan faoliyatdan, doimiy muassasa sifatida soliq organida hisobga qo‘yishga qadar olingan daromadlarga ushbu Kodeksning 50-bobida belgilangan tartibda soliq agentida soliq solinishi lozim. Bunda soliq agenti tomonidan ushlab qolingan soliq norezident soliq organida doimiy muassasa sifatida hisobga qo‘yilganidan keyin soliq majburiyatlarini qoplash hisobiga hisobga olinishi lozim.

Mazkur moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan hisobga olish soliq agenti tomonidan soliq ushlab qolinganligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi.

50-bob. Norezidentlarning doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

351-modda. Umumiy qoidalar

Norezidentning O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan va doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlaridan olinadigan soliq norezidentga daromad to‘lovchi soliq agenti tomonidan hisoblab chiqariladi va ushlab qolinadi. Soliqning ushlab qolinishi soliq to‘lovchining daromadlaridan bunday daromadlarning har bir to‘lovi paytida amalga oshiriladi.

Bunday daromadlar jumlasiga, xususan, quyidagilar kiradi:

1) O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslaridan olingan dividendlar;

2) O‘zbekiston Respublikasining qarz majburiyatlari bo‘yicha foizlar, shu jumladan chiqarish va muomalada bo‘lish shartlarida foizlar ko‘rinishidagi daromadlarni olish nazarda tutilgan davlat qimmatli qog‘ozlari. Bunda O‘zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlarga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslarining xalqaro obligatsiyalari bo‘yicha daromadlarga soliq solinmaydi;

3) O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslaridan va yakka tartibdagi tadbirkorlaridan olingan har qanday turdagi qarz majburiyatlari (shuningdek foydada ishtirok etish huquqini beruvchi obligatsiyalar va konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar) bo‘yicha foizlar;

4) har qanday nomoddiy aktivdan O‘zbekiston Respublikasida foydalanish yoki foydalanish huquqini berish uchun royalti;

5) quyidagilar realizatsiya qilinganda olinadigan daromadlar:

a) aksiyalar (bundan fond birjasida realizatsiya qilinadigan aksiyalar mustasno), O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi (paylar);

b) O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan ko‘chmas mulk;

v) mulk majmuasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan korxona;

g) O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan investitsiya pay fondlarining investitsiya paylari.

(351-modda ikkinchi qismi 5-bandining “g” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Bunday daromadlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari ushbu Kodeksning 356-moddasida belgilanadi;

6) norezidentga tegishli bo‘lgan va O‘zbekiston Respublikasi rezidenti orqali tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish doirasida topshiriq shartnomasi va boshqa aynan o‘xshash fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida sotiladigan tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar.

Ushbu bandda ko‘rsatilgan daromadlar hujjatlar bilan tasdiqlangan, norezident tomonidan realizatsiya qilingan tovar uchun olinadigan summaning uni olishdan oshgan qismi sifatida belgilanadi. Tovarlarni sotib olish qiymatini

tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmagan taqdirda, soliqni ushlab qolish norezident tomonidan olinadigan barcha summadan amalga oshiriladi;

7) O‘zbekiston Respublikasida yuzaga keladigan tavakkalchiliklarni sug‘urtalash, birgalikda sug‘urtalash va qayta sug‘urtalash shartnomalari bo‘yicha to‘lanadigan sug‘urta mukofotlari;

8) O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan xalqaro aloqa uchun simli o‘tkazgich, radio-optik yoki boshqa elektromagnit tizimlar orqali belgilar, signallar, matnlar, tasvirlar, tovushlarni uzatish, qabul qilish va qayta ishlash uchun to‘lovni nazarda tutuvchi telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar;

9) xalqaro tashish, shu jumladan yuklarni yuklash, qayta yuklash, tushirish va joylash uchun tashish shartnomasi shartlarida nazarda tutilgan to‘lov bo‘yicha xizmatlar.

Xalqaro tashish deganda yo‘lovchilarni, yuklarni, tovarlarni, shu jumladan pochtani daryo yoki havo kemalari, avtomobil yoki temir yo‘l transporti orqali, davlatlardan biri O‘zbekiston Respublikasi bo‘lgan turli davlatlarda joylashgan punktlar o‘rtasida amalga oshiriladigan har qanday tashish tushuniladi.

Ushbu bandning maqsadi uchun faqat O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan punktlar o‘rtasida, shuningdek faqat O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan punktlar o‘rtasida amalga oshiriladigan tashish xalqaro tashish deb e’tirof etilmaydi;

10) O‘zbekiston Respublikasi hududida foydalaniladigan mol-mulkni ijaraga va ikkilamchi ijaraga berish, shu jumladan lizing operatsiyalaridan olingan daromadlar, daryo, havo kemalarini va (yoki) boshqa transport vositalarini, shuningdek konteynerlarni ijaraga yoki qo‘shimcha ijaraga berishdan olingan daromadlar;

11) xalqaro tashishlarda va O‘zbekiston Respublikasi ichida tashishlarda transport-ekspeditorlik xizmatlari.

Bunda yuk yuboruvchidan (yuk oluvchidan) olingan summa va yuk tashuvchining tegishli birlamchi hujjatlari bilan tasdiqlangan, yuk tashuvchiga to‘lanishi lozim bo‘lgan summa o‘rtasidagi farq sifatida hisoblangan mukofot summasi soliq solinishi lozim bo‘lgan daromaddir. Yuk tashuvchining tegishli birlamchi hujjatlari bo‘lmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining norezidentiga ushbu Kodeks 353-moddasining 3-bandida belgilangan soliq stavkalari bo‘yicha to‘langan barcha summaga soliq solinishi lozim;

12) shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun jarimalar, penyalar va boshqa to‘lovlar;

13) beg‘araz olingan mol-mulk, xizmatlar. Beg‘araz olingan mol-mulkning (xizmatlarning) qiymati ushbu Kodeksning 299-moddasida nazarda tutilgan tartibda belgilanadi;

14) O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentiga yoki faoliyatini O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan norezident bo‘lgan yuridik shaxsga qarzni talab qilish huquqidan voz kechishdan olingan daromad.

Bunda shunday daromadning miqdori norezidentning birlamchi hujjatlariga muvofiq, qaysi talab qilish huquqi bo‘yicha voz kechish amalga oshirilgan bo‘lsa, o‘sha talab qilish huquqining qiymati va talab qilish huquqidan voz kechish sanasida qarzdordan olinishi lozim bo‘lgan talab qilish qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi;

15) O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentidan yoki O‘zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan norezident bo‘lgan yuridik shaxsdan qarzni talab qilish huquqini olish chog‘ida talab qilish huquqidan voz kechishdan olingan daromad.

Bunda shunday daromadning miqdori asosiy qarzning talabiga ko‘ra qarzdordan olinishi lozim bo‘lgan summa, shu jumladan talab qilish huquqidan voz kechish sanasidagi asosiy qarzdan ortiq bo‘lgan summa va talab qilish huquqini olish qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi;

16) serverga axborot joylashtirish va unga texnik xizmat ko‘rsatish uchun O‘zbekiston Respublikasi hududida disk maydoni va (yoki) aloqa kanalini taqdim etishdan olingan daromadlar;

17) boshqaruvga oid, texnik yoki maslahat xususiyatiga ega xizmatlar uchun to‘lov sifatida belgilangan texnik xizmatlardan olingan daromadlar;

18) norezident tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida xizmatlar ko‘rsatishdan olingan boshqa daromadlar.

Quyidagilar norezidentlarning O‘zbekiston Respublikasidagi manbalaridan olingan daromadlar jumlasiga kirmaydi:

1) faqat tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshiruvchi shaxs nomidan va uning manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilgan hamda faqat O‘zbekiston Respublikasida tovar sotib olish yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovar olib kirish bilan bog‘liq tashqi savdo operatsiyalaridan olingan daromadlar.

O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlar olib kirish bilan bog‘liq operatsiyalarga nisbatan ushbu qoida quyidagi shartlarga rioya etgan holda import bojxona tartib-taomiliga joylashtirilganda qo‘llaniladi:

a) tovarni yetkazib berish ushbu shaxs tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan saqlash joylaridan (shu jumladan bojxona omborlaridan) amalga oshirilmasa;

b) tovar chet el yuridik shaxsining O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi orqali sotilmasa.

Agar ushbu bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan shartlardan hech bo‘lmaganda bittasi bajarilmagan bo‘lsa, ushbu shaxsning O‘zbekiston Respublikasidagi faoliyatiga taalluqli daromadlarining bir qismi tovarni realizatsiya qilish chog‘ida O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromad deb e’tirof etiladi.

Agar norezident tomonidan montaj va (yoki) ishga tushirish-sozlash xizmatlari, xodimlarni o‘qitish xizmatlari va boshqa shu kabi xizmatlar ko‘rsatilishini nazarda tutuvchi asbob-uskunalar (qurilmalar, mexanizmlar, butlovchi va ehtiyot qismlar) sotib olish (sotish) bo‘yicha xalqaro shartnomada (kontraktda) ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati alohida ko‘rsatilmagan bo‘lsa, norezidentning soliq solinadigan daromadi bunday xizmatlarning bozor qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Xuddi shunday qoidalar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida norezident vakillarining tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) bo‘yicha asbob-uskunalarni montaj qilish, o‘rnatish yoki ishga tushirish-sozlash paytida haqiqatdan mavjud bo‘lgan taqdirda, hattoki ushbu shartnomada (kontraktda) norezidentlar tomonidan montaj va (yoki) ishga tushirish- sozlash ishlarini amalga oshirish, ular tomonidan xodimlarni o‘qitish xizmatlarini va boshqa shu kabi xizmatlarni ko‘rsatish nazarda tutilmagan bo‘lsa ham, qo‘llaniladi;

(351-modda uchinchi qismi 1-bandi “b” kichik bandining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

2) O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida xizmatlar ko‘rsatishdan olingan daromadlar, bundan mazkur moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan xizmatlar ko‘rsatishdan olingan daromadlar mustasno.

Xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kontraktda norezident tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida ham, uning tashqarisida ham xizmatlar ko‘rsatilishini nazarda tutuvchi qoidalar mavjud bo‘lganda, ushbu moddada belgilangan soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish tartibi xizmatlarning har bir turi uchun alohida-alohida qo‘llaniladi. Norezident tomonidan yagona ishlab chiqarish-texnologik sikl doirasida xizmat ko‘rsatishning har bir bosqichi norezidentning daromadlaridan to‘lov manbaida soliqni ushlab qolish maqsadida xizmatlarning alohida turi sifatida ko‘rib chiqiladi. Bunda kontrakt bo‘yicha norezident daromadlarining umumiy summasi O‘zbekiston Respublikasida va uning tashqarisida xizmatlar ko‘rsatishdan olingan daromadlarga asoslangan tarzda taqsimlangan bo‘lishi kerak.

Ushbu moddaning to‘rtinchi qismi qoidalarini qo‘llash maqsadida norezident xizmat oluvchiga norezidentning umumiy daromad summasi O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatishdan olingan daromadlar va uning tashqarisida xizmat ko‘rsatishdan olingan daromadlarga taqsimlanganligini tasdiqlovchi, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va (yoki) chet davlatning qonunchiligiga muvofiq tuzilgan, norezident tomonidan tasdiqlangan hisob-kitob hujjatlarining ko‘chirma nusxalarini taqdim etishi shart. Bunday taqsimlanish mavjud bo‘lmaganda, ham O‘zbekiston Respublikasida, ham uning tashqarisida xizmat ko‘rsatishdan norezidentga to‘lanadigan daromadning butun summasiga soliq solinishi lozim.

(351-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

352-modda. Soliq agentlari deb e’tirof etiladigan shaxslar

Quyidagilar soliq agentlari deb e’tirof etiladi:

1) yuridik shaxslar, shu jumladan soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchilari;

2) yakka tartibdagi tadbirkorlar;

3) faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi norezidentlar;

4) norezident bo‘lgan yuridik shaxslarning O‘zbekiston Respublikasidagi vakolatxonalari;

5) ushbu Kodeks 351-moddasi ikkinchi qismining 5-bandida koʻrsatilgan mol-mulkni oluvchi jismoniy shaxslar va Oʻzbekiston Respublikasi norezidenti boʻlgan yuridik shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etmagan holda chet el tuzilmalari, bundan ushbu qismning 3-bandida koʻrsatilganlar mustasno.

353-modda. Soliq stavkalari

Soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r

Soliq solinadigan daromad

Soliq stavkalari, foizlarda

1

Dividendlar va foizlar

10

2

Sugʻurta, birgalikda sugʻurta qilish va qayta sugʻurta qilish shartnomalari boʻyicha sugʻurta mukofotlari

10

3

Xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar, xalqaro tashishlar (fraxtdan olingan daromadlar)

6

4

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun jalb etilgan kreditlar boʻyicha, Oʻzbekiston Respublikasi banklari va lizing beruvchilari tomonidan chet el moliya institutlariga toʻlanadigan daromadlar

0

5

Oʻzbekiston Respublikasining rezidentlari boʻlgan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ular yuzasidan hisob-kitoblarni amalga oshirish, shuningdek xalqaro toʻlov kartochkalari vositasida hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bogʻliq xizmatlar koʻrsatishdan olinadigan daromadlar

0

6

Boshqa daromadlar, bundan 1 — 5-bandlarda koʻrsatilgan daromadlar mustasno

20

354-modda. Soliq agentlari tomonidan soliqni hisoblab chiqarish tartibi

Soliq bazasi soliq toʻlovchiga har bir daromadni toʻlash chogʻida soliq agenti tomonidan alohida aniqlanadi.

Norezidentning Oʻzbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlariga solinadigan soliq summasi ushbu Kodeksning 356-moddasida nazarda tutilgan oʻziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq boʻlgan foizdagi ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Oʻzbekiston Respublikasi yuridik shaxsi tomonidan norezidentga dividendlar toʻlash paytida ushlab qolinadigan norezident daromadidan olinadigan soliq summasi ushbu yuridik shaxs tomonidan Oʻzbekiston Respublikasining boshqa yuridik shaxslaridan olingan dividendlaridan ilgari toʻlangan soliq summasiga quyidagi shartlar bajarilganda kamaytiriladi:

norezident dividendlar toʻlovchi Oʻzbekiston Respublikasi yuridik shaxsining ustav fondida (ustav kapitalida) kamida yigirma besh foizlik ishtirok ulushiga ega boʻlsa;

mazkur ulushga egalik qilish dividendlarning toʻlanish sanasidan oldingi kamida 365 kalendar kun davomida uzluksiz amalga oshirilgan boʻlsa;

olingan dividendlardan to‘langan soliq summasi ilgari norezidentning dividendlar tarzidagi daromadidan olinadigan soliqni aniqlashda hisobga olinmagan bo‘lsa;

soliq agenti O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi O‘zbekiston Respublikasining boshqa yuridik shaxslaridan olingan dividendlardan soliq to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatlarni olgan bo‘lsa.

(354-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Soliq summasi O‘zbekiston Respublikasining norezidentiga daromadni to‘lash sanasidagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha milliy valyutada, ushbu Kodeksning 356-moddasida nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda hisoblab chiqariladi va to‘lanadi.

Norezidentlarga to‘lanadigan daromadlardan olinadigan soliq summasini hisoblab chiqarish va ushlab qolish soliq agenti tomonidan daromadlarning barcha turlari bo‘yicha amalga oshiriladi, bundan quyidagi hollar mustasno, agar:

1) soliq agenti norezident tomonidan to‘lanadigan daromad norezidentning O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasiga taalluqli ekanligi va soliq agentining ixtiyorida norezident soliq organida norezidentning doimiy muassasasi sifatida hisobda turganligi to‘g‘risida soliq organi tomonidan tasdiqlangan ma’lumotnoma borligi haqida xabardor qilingan bo‘lsa;

2) norezidentga to‘lanadigan daromadga nisbatan ushbu Kodeksning 353-moddasida 0 foizli soliq stavkasi nazarda tutilgan bo‘lsa;

3) mahsulot taqsimoti to‘g‘risidagi bitimlarni bajarishda olingan daromadlar to‘lanadigan bo‘lsa, agar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida bunday daromadlarni soliq solishdan ozod etish nazarda tutilgan bo‘lsa;

(354-modda to‘rtinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

4) O‘zbekiston Respublikasining qo‘llaniladigan xalqaro shartnomalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida soliq solinmaydigan daromadlar to‘lanadigan bo‘lsa, basharti tegishli daromadni olish uchun haqiqiy huquqqa ega bo‘lgan norezident tomonidan soliq agentiga ushbu Kodeksning 358-moddasida nazarda tutilgan tasdiqnoma taqdim etilgan bo‘lsa.

Norezidentga O‘zbekiston Respublikasining qo‘llaniladigan xalqaro shartnomasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida kamaytirilgan soliq stavkalari bo‘yicha soliq solinadigan daromadlar to‘langan taqdirda, daromadlardan soliq summasini hisoblab chiqarish va ushlab qolish norezident tomonidan soliq agentiga ushbu Kodeksning 358-moddasida nazarda tutilgan tasdiqnoma taqdim etilishi sharti bilan tegishli kamaytirilgan soliq stavkalari bo‘yicha amalga oshiriladi. Ushbu qism qoidalari mazkur Kodeksning 6-moddasi qoidalari hisobga olingan holda qo‘llaniladi.

Daromadni to‘lash deganda, norezidentga bunday to‘lash amalga oshiriladigan joyidan qat’i nazar, quyidagilar tushuniladi, xususan:

1) naqd pul va (yoki) naqd pulsiz shaklda pullarni, qimmatli qog‘ozlarni, ishtirok etish ulushini, tovarlarni, mol-mulkni berish;

2) O‘zbekiston Respublikasi norezidentining daromadlariga nisbatan tuziladigan bitimlar (voz kechish haqi, bir turdagi qarama-qarshi talabnomani hisobga o‘tkazish, talab qilish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish chog‘ida hisobga o‘tkazish, novatsiya, qarzdan kechib yuborish);

3) bajarishning imkoni bo‘lmaganligi yoki qarzdor va kreditor ayni bir shaxs ekanligi tufayli daromadni to‘lash majburiyatining tugashi.

Agar daromad pulsiz shaklda yoki o‘zaro hisobga o‘tkazishlar orqali to‘lansa, shuningdek agar ushlab qolinishi lozim bo‘lgan soliq summasi norezidentning pul shaklida olinadigan daromadi summasidan ortiq bo‘lsa, agar ushbu moddaning o‘n uchinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq agenti soliqni norezidentning pulsiz shaklda olinadigan daromadini tegishli tarzda hisoblab chiqarilgan summada budjetga to‘lashi shart.

(354-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Norezidentning daromadlariga soliq solish mazkur norezident tomonidan o‘z daromadlarini uchinchi shaxslarning, boshqa davlatlardagi o‘z bo‘linmalarining foydasiga va boshqa maqsadlarda tasarruf etishdan qat’i nazar, amalga oshiriladi.

Sug‘urta mukofotlaridan olingan daromadlar bo‘yicha soliqlarning to‘langan summalari sug‘urta hodisalari yuzaga kelganda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Sug‘urta hodisasi yuzaga kelganda sug‘urta to‘lovlari o‘zidan soliq agenti tomonidan soliq ushlab qolingan va to‘langan sug‘urtalovchi bo‘lgan norezidentning daromadlarini kamaytirish uchun hisobga o‘tkazishga qabul qilinadi. Mazkur qayta hisoblash norezidentga daromadni to‘lagan va daromadni to‘lash chog‘ida soliqni ushlab qolgan soliq agenti tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Soliq summasi ushlab qolinmaganda yoki O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari qoidalari g‘ayriqonuniy ravishda qo‘llanilganda, bu soliqning ushlab qolinmasligiga yoki to‘liq ushlab qolinmasligiga sabab bo‘lsa, soliq agenti ushlab qolinmagan soliq summasini va tegishli penya summasini budjetga kiritishi shart.

Soliq agenti tomonidan ushbu Kodeksning qoidalariga muvofiq norezidentning daromadlaridan hisoblab chiqarilgan soliq summasi o‘z mablag‘lari hisobidan uni ushlab qolmagan holda to‘langan taqdirda, soliq agentining soliqni ushlab qolish va o‘tkazish bo‘yicha majburiyati bajarilgan deb e’tirof etiladi.

355-modda. Soliq agentlari tomonidan soliq hisob-kitobini taqdim etish va uni to‘lash tartibi

Norezidentlarning daromadlaridan olinadigan soliq summalari bo‘yicha soliq hisoboti soliq agenti tomonidan o‘zi soliq hisobiga qo‘yilgan joydagi soliq organiga daromadlar to‘langan oydan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Agar ushbu Kodeksning 356-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, norezidentlarning daromadlaridan hisoblab chiqarilgan va ushlab qolingan soliq summasi soliq agenti tomonidan budjetga quyidagi muddatlarda to‘lanadi:

1) banklar tomonidan, bundan dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlar mustasno, — daromadlarni to‘lash amalga oshirilgan oydan keyingi oyning beshinchi kunidan kechiktirmay;

2) qolganlar tomonidan, — norezidentga daromadlar to‘langan kunning keyingi kunidan kechiktirmay.

356-modda. O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Agar ushbu Kodeksning 351-moddasi ikkinchi qismi 5-bandida ko‘rsatilgan ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalar, ulushlar (paylar), ko‘chmas mulk, mol-mulk majmuasi tarzidagi korxonalar, payli investitsiya fondlari investitsiya paylari (bundan buyon ushbu moddada mol-mulk deb yuritiladi) norezident bo‘lgan bir yuridik shaxs tomonidan norezident bo‘lgan boshqa yuridik shaxsga yoki norezident bo‘lgan jismoniy shaxsga yoxud O‘zbekiston Respublikasi rezidentiga realizatsiya qilingan bo‘lsa, ushbu modda qoidalari qo‘llaniladi.

Ushbu modda birinchi qismining qoidalari yuridik shaxs tashkil etilmagan holdagi chet el tuzilmalariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Ushbu Kodeksning 351-moddasi ikkinchi qismi 5-bandida ko‘rsatilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar mol-mulkni realizatsiya qilish summasining uni hujjatlar bilan tasdiqlanadigan sotib olish qiymatidan oshgan summasi sifatida aniqlanadi. Mol-mulkni sotib olish qiymatini tasdiqlaydigan hujjatlar mavjud bo‘lmaganda, soliq agenti tomonidan soliqni ushlab qolish mol-mulkni realizatsiya qilish qiymatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Mol-mulkni realizatsiya qiluvchi norezident soliq agentiga mol-mulkni sotib olish qiymatini tasdiqlovchi hujjatlarning (ular mavjud bo‘lgan taqdirda) ko‘chirma nusxalarini taqdim etishi shart. Soliq agenti taqdim etilgan hujjatlar asosida ushbu Kodeks 351-moddasi ikkinchi qismining 5-bandiga muvofiq aniqlanadigan soliq bazasidan hamda ushbu Kodeksning 353-moddasida belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda soliq summasini hisoblab chiqaradi va ushlab qoladi.

Soliq agenti sotib olinayotgan mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini ro‘yxatdan o‘tkazguniga (rasmiylashtirguniga) qadar norezidentning mol-mulkni realizatsiya qilishdan olgan daromadlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakldagi soliqning hisob-kitobini quyidagilarni realizatsiya qilish chog‘ida mustaqil ravishda yoki vakolatli shaxs orqali taqdim etishi shart:

1) O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni, ulushni (payni) realizatsiya qilishda — mazkur yuridik shaxs ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi soliq organiga;

2) O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan ko‘chmas mulkni realizatsiya qilishda — ko‘chmas mulk turgan joydagi soliq organiga;

3) O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan mol-mulk majmuasi tarzidagi korxonani realizatsiya qilishda — mazkur korxona ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi soliq organiga;

4) qonunchilikka muvofiq tashkil etilgan payli investitsiya fondlarining investitsiya paylarini realizatsiya qilishda — ishonchli boshqaruvchi ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi soliq organiga.

(356-modda beshinchi qismining 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Norezidentning mol-mulkni realizatsiya qilishdan olgan daromadlari bo‘yicha soliq hisoboti norezident daromadni oladigan valyutada tuziladi. Soliq hisobotiga mol-mulk oldi-sotdi shartnomasining ko‘chirma nusxasi hamda sotuvchi tomonidan taqdim etilgan, mol-mulkni olish qiymatini tasdiqlovchi hujjatlarning (mavjud bo‘lgan taqdirda) ko‘chirma nusxalari ilova qilinadi. Agar mol-mulkni sotib olish qiymati soliq hisoboti tuziladigan valyutada ifodalanmagan bo‘lsa, mazkur qiymat O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mol-mulkni sotib olish sanasidagi kursi bo‘yicha soliq hisoboti tuzilayotgan valyutaga qayta hisoblab chiqariladi. Soliq organlari soliq hisob-kitobi taqdim etilgan sanadan e’tiboran o‘n ish kuni ichida soliq agenti yoki uning vakolatli shaxsi nomiga soliq summasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining soliq hisobotini taqdim etish sanasidagi kursi bo‘yicha milliy valyutadagi soliq summasini ko‘rsatgan holda to‘lov xabarnomasini yoxud norezident tomonidan realizatsiya qilingan mol-mulkdan olingan soliq bo‘yicha qarzdorlik yo‘qligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani yozib beradi.

Soliq sotib olingan mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi ro‘yxatdan o‘tkazilguniga (rasmiylashtirilguniga) qadar budjetga to‘lanishi lozim.

Soliq organi soliq to‘langanligi faktini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgan sanadan e’tiboran bir ish kuni ichida soliq agentiga yoki uning vakolatli shaxsiga soliq to‘langanligi yoxud soliq bo‘yicha qarzdorlik yo‘qligi to‘g‘risida ma’lumotnoma beradi, ma’lumotnoma olingan mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini ro‘yxatdan o‘tkazuvchi (rasmiylashtiruvchi) organga taqdim etiladi.

Olinadigan mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini ro‘yxatdan o‘tkazuvchi (rasmiylashtiruvchi) organlar soliq organining ma’lumotnomasi taqdim etilgan taqdirdagina mulk huquqini ro‘yxatdan o‘tkazishni (rasmiylashtirishni) amalga oshiradi.

Ushbu modda uchinchi — to‘qqizinchi qismlarining qoidalari aksiyalarni va investitsiya paylarini O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlarining birjadagi va birjadan tashqari uyushgan bozorlarida realizatsiya qilish chog‘ida qo‘llanilmaydi.

Aksiyalar va investitsiya paylari qimmatli qog‘ozlarning birjadagi va birjadan tashqari uyushgan bozorida realizatsiya qilinganda O‘zbekiston Respublikasining qimmatli qog‘ozlari bozoridagi hisob-kitob — kliring palatasi soliq agenti deb e’tirof etiladi.

Soliq agenti aksiyalarning va investitsiya paylarining tuzilgan oldi-sotdi bitimlari bo‘yicha savdolar yakunlari reyestri asosida hisob-kitob-kliring operatsiyalarini o‘tkazish vaqtida realizatsiya qilingan aksiyalar (investitsiya paylari) qiymatidan va ushbu Kodeksning 353-moddasida belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda sotuvchining pul mablag‘laridan soliqni ushlab qoladi.

Soliq summasi pul mablag‘larini aksiyalar va investitsiya paylari qiymatini to‘lash hisobiga bir vaqtning o‘zida sotuvchining hisobvarag‘iga pul mablag‘lari o‘tkazilgan holda to‘lov valyutasida budjetga to‘lanadi. Soliq agenti aksiyalar va investitsiya paylari sotuvchisining talabiga ko‘ra bitim va ushlab qolingan soliq summasi haqida ma’lumotnoma berishi shart.

Soliq agenti soliq hisobotini taqdim etish muddatlarida o‘zi soliq hisobiga qo‘yilgan joydagi soliq organiga soliq ushlab qolingan aksiyalar va investitsiya paylarining oldi-sotdisiga doir bitimlarning O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakl bo‘yicha reyestrini taqdim etadi.

Aksiyalar va investitsiya paylarini sotib olish qiymatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, sotuvchi soliq agenti soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga ortiqcha to‘langan soliqni qaytarish to‘g‘risida ariza taqdim etish huquqiga ega. Arizaga aksiyalarni va investitsiya paylarini realizatsiya qilish va sotib olish qiymatini tasdiqlovchi hujjatlarning ko‘chirma nusxalari hamda soliq agenti tomonidan berilgan bitim va ushlab qolingan soliq summasi haqidagi ma’lumotnomaning ko‘chirma nusxasi ilova qilinadi.

Norezidentlarning daromadlari bo‘yicha ortiqcha to‘langan soliq summasini qaytarish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

357-modda. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo‘yicha soliq solishdan ozod qilishning yoki pasaytirilgan soliq stavkalarini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi (bitimi) qoidalarini qo‘llashning ushbu moddada belgilangan tartibi norezidentning ushbu Kodeksning 351-moddasida nazarda tutilgan daromadlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Soliq agenti soliq solishdan ozod qilishni yoki pasaytirilgan soliq stavkasini, agar daromad oluvchi norezident O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi tuzilgan davlatning soliq rezidenti bo‘lsa, mustaqil ravishda qo‘llash huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari daromad oluvchi tomonidan soliq agentiga soliq rezidentligini tasdiqlovchi hujjat daromadni to‘lash sanasidan kechiktirmay taqdim etilishi sharti bilan qo‘llaniladi.

Daromadlar norezidentga dividendlar, foizlar va (yoki) royalti tarzida to‘langanda, basharti norezident ushbu daromadlarga bo‘lgan huquqqa haqiqatda ega bo‘lsa, soliq agenti O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida va ushbu Kodeksning 6-moddasida belgilangan qoidalarda nazarda tutilgan soliq solishdan ozod qilishni yoki pasaytirilgan soliq stavkasini qo‘llaydi. Soliq agenti norezidentdan ushbu norezident tegishli daromadni olishga bo‘lgan huquqqa haqiqatda ega ekanligi tasdiqnomasini so‘rab olishga haqli.

Daromadlarni olish uchun haqiqiy huquqqa ega bo‘lgan norezidentga ushbu moddaning to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan daromadlarni vositachi orqali to‘lashda soliq agenti daromadning bunday haqiqiy oluvchisi rezidenti bo‘lgan davlat bilan tuzilgan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan soliq solishdan ozod qilishni yoki norezident tomonidan daromadlarni to‘lashga asos bo‘ladigan qo‘shimcha shartnoma (kontrakt) va boshqa hujjatlar vositachi orqali haqiqiy oluvchi bo‘lgan har bir shaxs bo‘yicha daromad summasi aks ettirilganda uning pasaytirilgan stavkasini qo‘llashga haqli. Bunday hujjatlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

1) jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismini (agar ular shaxsini tasdiqlovchi hujjatda ko‘rsatilgan bo‘lsa) yoki yuridik shaxsning nomini;

2) rezidentlik mamlakatida soliq ro‘yxatidan o‘tkazilgan raqamini yoki shunga monand hujjat raqamini (mavjud bo‘lgan taqdirda);

3) rezidentlik mamlakatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan raqamini (yoki shunga monand hujjat raqamini).

Soliq agenti tomonidan ortiqcha ushlab qolingan soliq budjetga to‘langan taqdirda, daromadning haqiqiy oluvchisi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalariga muvofiq uni qaytarib olish huquqiga ega. Ortiqcha ushlab qolingan soliqni norezidentga qaytarish ushbu Kodeksning 12-bobida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Norezident tomonidan bitta yoki aloqador loyihalar doirasida xizmatlar ko‘rsatishdan daromad olingan taqdirda, mazkur soliq agenti uchun ushbu moddani qo‘llash maqsadida soliq agenti norezident tomonidan doimiy muassasa tashkil etilganligi faktini aniqlaydi, shu jumladan xizmatlar ko‘rsatish shartnomasi (kontrakti) asosida aniqlaydi. Norezident tomonidan O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa tuzilganligi fakti aniqlangan taqdirda, soliq organi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalarini norezidentlarning daromadlarini soliq solishdan ozod etish qismi bo‘yicha qo‘llashga haqli emas.

Soliq agenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo‘llanilmagan taqdirda, soliq agenti ushbu Kodeksda belgilangan tartibda va muddatlarda to‘lov manbaidan soliqni ushlab qolishi hamda o‘tkazishi shart.

358-modda. Soliq rezidentligini tasdiqlovchi hujjatga qo‘yiladigan talablar

Norezident bo‘lgan daromad oluvchi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi tuzilgan davlatning rezidenti ekanligini tasdiqlaydigan, quyidagi turlardan birida taqdim etilgan rasmiy hujjat ushbu bo‘lim qoidalarini qo‘llash maqsadida soliq rezidentligini tasdiqlovchi hujjatdir:

1) norezident rezidenti bo‘lgan chet davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan asl nusxa. Bunda shunday hujjatni berish konsullik legallashtirish amalga oshirilgan va qonunchilikda belgilangan tartibda apostil qo‘yilgan holda bajariladi;

(358-modda birinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) ushbu moddaning 1-bandi talablariga muvofiq bo‘lgan hujjat asl nusxasining notarial tartibda tasdiqlangan ko‘chirma nusxasi;

3) chet davlat vakolatli organining internet-resursida joylashtirilgan, soliq rezidentligini tasdiqlovchi elektron hujjatning qog‘ozdagi nusxasi.

Soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnoma mavjud bo‘lgan davlatda chet el banklari va xalqaro banklararo telekommunikatsiya tuzilmalariga chet el bankining yoki xalqaro banklararo telekommunikatsiya tizimining doimiy turgan joyi faktini tasdiqlash, agar bunday turgan joy hamma foydalana oladigan axborot manbalaridagi ma’lumotlar bilan tasdiqlansa, talab qilinmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda legallashtirish quyidagi hollarda talab qilinmaydi, agar:

(358-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

1) soliq rezidentligini tasdiqlovchi hujjat chet davlat vakolatli organining internet-resursida joylashtirilgan bo‘lsa;

2) ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan shaxs (shaxslar) imzosining va muhrining haqiqiyligini tasdiqlashning boshqacha tartibi belgilangan bo‘lsa, ya’ni:

a) O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi bilan;

b) o‘zaro kelishib olish tartib-taomili doirasida O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organi va chet davlatning vakolatli organi o‘rtasida belgilangan bo‘lsa.

Norezidentning soliq rezidentligini tasdiqlovchi hujjatda ko‘rsatilgan davr mobaynida O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnoma tuzgan davlatning soliq rezidenti deb norezident e’tirof etiladi.

Agar soliq rezidentligini tasdiqlovchi hujjatda soliq rezidentligi davri ko‘rsatilmagan bo‘lsa, bunday hujjat berilgan (chet davlat vakolatli organining internet-resursida joylashtirilgan) kalendar yil mobaynida norezident O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasini tuzgan davlatning soliq rezidenti deb e’tirof etiladi.

51-bob. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning daromadlariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

359-modda. Soliq solinadigan daromadlarni va chegiriladigan xarajatlarni hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari

Soliq davrida yakka tartibdagi tadbirkorlar, agar mazkur Kodeksning ushbu moddasida va 360-moddasining sakkizinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan tartibda soliq solinadigan daromadlarning va chegiriladigan xarajatlarning hisobini yuritishi shart.

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarida soliq solinadigan daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritishi shart.

Quyidagilar soliq solinadigan daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlaridir:

1) chakana savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning soliq solinadigan daromadlarini va tovar operatsiyalarini hisobga olish kitobi;

2) tovar cheklari kitobi.

Soliq solinadigan daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarining shakli O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Soliq solinadigan daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida yakka tartibdagi tadbirkor soliq hisobida turgan joydagi soliq organlari tomonidan ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Soliq solinadigan daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorda oxirgi yozuv kiritilgan paytdan e’tiboran uch yil mobaynida saqlanadi hamda ularga raqamlar qo‘yilgan, ip o‘tkazib bog‘langan va tegishli soliq organining muhri bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

(359-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

360-modda. Soliq solish obyektini va soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

Soliq solish obyekti va soliq bazasi ushbu moddada nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda, mazkur Kodeksning 295 va 296-moddalarida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadi.

Jami daromad yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan tadbirkorlik faoliyati doirasida olingan daromadlardan iborat bo‘ladi.

Jismoniy shaxs o‘zining tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bitimlarni tuzishda, agar bu bitimlarni tuzish vaziyatining o‘zidan aniq kelib chiqmasa, u yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat yuritayotganligini ko‘rsatishi kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkorning jami daromadidan soliq bazasini aniqlashda, agar ushbu moddaning beshinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, mazkur Kodeksning 44-bobiga muvofiq chegirib tashlanmaydigan xarajatlardan tashqari soliq solinadigan daromadning olinishi bilan bog‘liq barcha xarajatlar chegirib tashlanadi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivlar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalari aktivdan tadbirkorlik faoliyatida foydalanilgan taqdirda va tadbirkorlik faoliyati bilan xarajatlarning aloqasi aniq asoslangan bo‘lsa, jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini tanlashga haqli.

Soddalashtirilgan tartibdagi soliq bazasi jami daromadning 25 foizi miqdorida belgilanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini tanlaganda soliqni hisoblab chiqarish maqsadida xarajatlar hisobini yuritish majburiyatlaridan ozod qilinadi, bundan ushbu Kodeks 359-moddasining ikkinchi qismida ko‘rsatilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini qo‘llash uchun soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shakldagi bildirishnomani quyidagi muddatlarda taqdim etadi:

1) yangidan ro‘yxatdan o‘tkazilganlar — tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish boshlanguniga qadar;

2) foyda solig‘ini to‘lashga o‘tganlar, shu jumladan ixtiyoriy ravishda o‘tganlar — bir vaqtning o‘zida foyda solig‘ini to‘lashga o‘tish to‘g‘risidagi bildirishnomani soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga yuborganda;

3) qolganlari — joriy yilning 25-yanvaridan kechiktirmay.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini qo‘llash quyidagi muddatlarda boshlanadi:

1) ushbu modda to‘qqizinchi qismining 1-bandida ko‘rsatilganlar uchun — tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish boshlangan paytdan;

2) ushbu modda to‘qqizinchi qismining 2-bandida ko‘rsatilganlar uchun — yakka tartibdagi tadbirkor foyda solig‘ini to‘lashga o‘tish to‘g‘risidagi bildirishnomani va soliq bazasini soddalashtirilgan tartibda hisoblab chiqarish haqidagi arizani soliq organiga taqdim etgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab;

3) ushbu modda to‘qqizinchi qismining 3-bandida ko‘rsatilganlar uchun — joriy yilning 1-yanvaridan boshlab.

Soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibidan ixtiyoriy ravishda voz kechish va soliq bazasini hisoblab chiqarishning ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan umumiy tartibiga o‘tish kelgusi soliq davri boshlanganidan e’tiboran amalga oshiriladi.

Soliq bazasini hisoblab chiqarishning umumiy tartibiga o‘tish to‘g‘risidagi bildirishnoma O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda soliq davri boshlanishidan kamida bir oy oldin soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga taqdim etiladi.

361-modda. Soliq solishda hisobga olinmaydigan daromadlar

Soliq solishda quyidagilar hisobga olinmaydi:

1) yakka tartibdagi tadbirkorning unga mulk huquqi asosida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yuvchi boshqa ashyoviy huquq tufayli tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulkni sotishdan olingan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinishi lozim bo‘lgan daromadlari;

2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hamda yakka tartibdagi tadbirkor foyda solig‘ini to‘lashga o‘tguniga qadar aylanmadan soliqni to‘lash davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar.

362-modda. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil ravishda aniqlanadi.

Hisobot davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi, agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo‘lgan foizli ulushi sifatida soliq davri boshlanishidan e’tiboran oshib boruvchi yakun tarzida hisoblab chiqariladi.

Soliq hisoboti yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan har bir hisobot va soliq davri o‘tganidan keyin, soliq solinadigan obyektlar mavjudligi yoki mavjud emasligidan qat’i nazar, soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga taqdim etiladi.

Soliq hisoboti yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

hisobot davri yakunlari bo‘yicha — hisobot choragidan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay;

soliq davri yakunlari bo‘yicha — o‘tgan soliq davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay.

363-modda. Soliqni to‘lash tartibi

Soliqni to‘lash ushbu Kodeksning 340-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

XIII BO‘LIM
JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG‘I

52-bob. Soliq to‘lovchilar, soliq solish obyekti va soliq bazasi

364-modda. Soliq to‘lovchilar

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining soliq to‘lovchilari deb (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq to‘lovchilar deb yuritiladi) quyidagilar e’tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar;

2) O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromad oluvchi O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar.

365-modda. Soliq solish obyekti

Soliq to‘lovchining jami daromadi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining (bundan keyin ushbu bo‘limda soliq deb yuritiladi) soliq solish obyekti deb hisoblanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan olingan hamda ushbu Kodeksning XX bo‘limiga muvofiq aylanmadan olinadigan soliq solinadigan daromadlari soliq solish obyekti hisoblanmaydi.

(365-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

366-modda. Soliq bazasi

Soliq bazasi quyidagilar hisoblanadi:

1) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun — ushbu bo‘limda nazarda tutilgan soliq imtiyozlarini hisobga olgan holdagi jami daromadlari;

2) O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun — ushbu bo‘limda nazarda tutilgan soliq imtiyozlari qo‘llanmagan holdagi jami daromadlari.

Soliq bazasini aniqlashda soliq to‘lovchining ham pul shaklida, ham natura shaklida olgan daromadlari yoki daromadlarni tasarruf etish uchun yuzaga kelgan huquqlari, shuningdek moddiy naf tarzidagi daromadlari hisobga olinadi. Bunda soliq to‘lovchining alohida turdagi daromadlari ushbu bo‘limda belgilangan shartlarda va tartibda jami daromad tarkibida hisobga olinishi yoki hisobga olinmasligi mumkin.

Soliq to‘lovchining chet el valyutasida ifodalangan daromadlari, haqiqatda daromadlar olingan sanadagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha milliy valyutaga qayta hisob-kitob qilinadi.

Turli soliq stavkalari bo‘yicha solinadigan soliq bazasi alohida aniqlanadi.

Soliq bazasi, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq davri boshidan e’tiboran o‘sib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Soliq bazasi nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining ushbu Kodeksning VII bo‘limiga va 208-moddasiga muvofiq aniqlanadigan yig‘ma foydasini ham o‘z ichiga oladi.

Soliq bazasiga ushbu bo‘limda belgilangan hollarda va tartibda tuzatish kiritiladi.

Ushbu Kodeksning VI bo‘limida nazarda tutilgan hollarda soliq to‘lovchining daromadlariga ushbu Kodeksning 20-bobida nazarda tutilgan tartibda tuzatish kiritiladi.

Agar soliq to‘lovchining daromadidan uning o‘z farmoyishiga, sudning yoki boshqa organlar va tashkilotlarning qaroriga ko‘ra ushlab qolishlar amalga oshirilsa, bunday ushlab qolishlar soliq bazasini kamaytirmaydi.

367-modda. Daromad olingan sana

Ushbu bo‘limning maqsadida daromad olingan sana quyidagicha aniqlanadi:

1) daromadni to‘lash kuni, shu jumladan daromadni soliq to‘lovchining banklardagi hisobvaraqlariga o‘tkazish yoki daromadlar pul shaklida olinganda — daromadni soliq to‘lovchining topshirig‘iga ko‘ra uchinchi shaxslarning hisobvaraqlariga o‘tkazish kuni;

2) daromadlar natura shaklida olinganda — daromadlarni natura shaklida berish kuni;

3) daromadlar moddiy naf tarzida olinganda — tovarlarni (xizmatlarni), qimmatli qog‘ozlarni sotib olish kuni. Agar sotib olingan qimmatli qog‘ozlarga haq to‘lash ushbu qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan mulk huquqi soliq to‘lovchiga o‘tganidan keyin amalga oshirilsa, daromadning haqiqatda olingan sanasi sotib olingan qimmatli qog‘ozlarning qiymatiga tegishli to‘lovni to‘lash kuni sifatida aniqlanadi;

4) bir turdagi qarama-qarshi talablarni hisobga olish kuni;

5) belgilangan tartibda soliq agenti tomonidan umidsiz qarz hisobdan chiqarilgan kun;

6) xodim safardan qaytganidan keyin bo‘nak hisobot tasdiqlangan oyning oxirgi kuni.

Mehnatga haq to‘lash tarzida daromad olinganda bunday daromadning olingan sanasi deb, soliq to‘lovchiga mehnat shartnomasi (kontrakti) asosida mehnat majburiyatlarini bajarganligi uchun, unga daromadlar hisoblangan oyning oxirgi kuni e’tirof etiladi, shuningdek mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan ish qidirish davriga kompensatsiya to‘langan sana e’tirof etiladi.

(367-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Kalendar oy tugaguniga qadar mehnat munosabatlari bekor qilingan taqdirda, soliq to‘lovchi tomonidan mehnatga haq to‘lash tarzida olingan daromadning haqiqatda olingan sanasi deb unga daromad hisoblangan oxirgi ish kuni e’tirof etiladi.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi foydasining summasi tarzidagi daromadlar uchun daromadning haqiqatda olingan kuni deb chet el kompaniyasi yoki tuzilmasi ro‘yxatdan o‘tkazilgan mamlakatning qonunchiligiga muvofiq moliya yili uchun moliyaviy hisobot tuziladigan davrning tugallanish sanasi to‘g‘ri keladigan kalendar yildan keyingi soliq bo‘yicha soliq davrining oxirgi sanasi e’tirof etiladi.

(367-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi ro‘yxatdan o‘tkazilgan mamlakatning qonunchiligiga muvofiq moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish majburiyatlari mavjud bo‘lmagan taqdirda, bunday kompaniya foydasining summasi tarzidagi daromadning haqiqatda olingan sanasi deb foyda aniqlanadigan kalendar yilidan keyingi kalendar yilning oxirgi kuni e’tirof etiladi.

(367-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

53-bob. Jami daromad

368-modda. Jami daromad

Agar ushbu bo‘limda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, jami daromad soliq to‘lovchi tomonidan hisobot (soliq) davri davomida olingan quyidagi daromadlardan tashkil topadi:

1) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari uchun — O‘zbekiston Respublikasidagi va uning tashqarisidagi manbalardan olingan daromadlardan;

2) O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun — O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlardan.

369-modda. Jami daromadga kiritilmaydigan daromadlar

Quyidagilar jami daromad tarkibiga kiritilmaydi:

1) O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlariga va davlat pul mukofotlariga sazovor bo‘lgan soliq to‘lovchi olgan bir yo‘la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg‘alarining qiymati, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo‘la beriladigan pul mukofoti, sovg‘alar va budjet subsidiyalari;

(369-modda birinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1013-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1013/1066-son)

> **Izoh.** Qarang: “Davlat mukofotlari to‘g‘risida”gi Qonuni.

2) donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek tibbiyot muassasalarining xodimlari tomonidan qon olganlik uchun olinadigan summalar;

> **Izoh.** Qarang: “Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to‘g‘risida”gi Qonuni.

3) olingan alimentlar;

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi.

4) fuqarolar tomonidan olinadigan sug‘urta tovoni summalari;

5) qonunchilikda belgilangan miqdorlarda va tartibda to‘lanadigan stipendiyalar;

(369-modda birinchi qismining 5-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

6) qonunchilikka muvofiq uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to‘lash bo‘yicha har oylik kompensatsiya pul to‘lovlari;

(369-modda birinchi qismining 6-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 27-martdagi PF-3227-son “2003-yilning 1-aprelidan boshlab uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to‘lash bo‘yicha beriladigan imtiyozlar o‘rniga kompensatsiya pul to‘lovlarini joriy etish to‘g‘risida”gi Farmoni.

7) davlat pensiyalari, qonun hujjatlarida belgilangan nafaqalar, bundan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi (oilaning betob a’zosini parvarish qilish bo‘yicha nafaqa) mustasno;

(369-modda birinchi qismining 7-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 9-noyabrdagi O‘RQ-646-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.11.2020-y., 03/20/646/1488-son — 2020-yil 1-apreldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga ham tatbiq etiladi.)

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-martdagi PQ-2826-son “Pensiyalar va nafaqalar to‘lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

8) majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya badallari, ular bo‘yicha foizli daromadlar, shuningdek jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari.

> **Izoh.** Qarang: “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida” Qonuni.

9) o‘quvchilar va talabalarning O‘zbekiston Respublikasi professional va oliy ta’lim tashkilotlari hududida pulli o‘quv kurslarini, sport to‘garaklarini tashkil etishdan va boshqa ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishdan olingan daromadlari;

(369-modda birinchi qismining 9-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

> **Izoh.** Qarang: “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni.

10) O‘zbekiston Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan chiqarilgan xalqaro obligatsiyalar bo‘yicha daromadlar;

11) egalik qilish, doimiy foydalanish yoki vaqtinchalik foydalanish huquqiga asosan tegishli bo‘lgan yer uchastkasi yoki uning bir qismi jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilishi natijasida mulkdorlarga yer uchastkasiga bo‘lgan huquq hamda ushbu yer uchastkasida joylashgan ko‘chmas mulk obyektlari uchun to‘langan kompensatsiya summasi;

(369-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 17-apreldagi O‘RQ-1131-sonli Qonuniga asosan 11-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.04.2026-y., 03/26/1131/0377-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 19-iyul)

(O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan 369-modda ikkinchi qismining chiqarilish sanasi 2026-yil 1-yanvar — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son)

Soliq agentlarining ushbu Kodeksning 386-moddasida nazarda tutilgan jismoniy shaxs foydasiga amalga oshiradigan quyidagi xarajatlariga soliq to‘lovchining daromadi sifatida qaralmaydi:

1) mehnat sharoitlari noqulay bo‘lgan ishlarda band bo‘lgan xodimlarni qonunchilikda belgilangan tartibda sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho‘r suv, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta’minlash bo‘yicha xarajatlari;

(369-modda ikkinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) kasaba uyushmasi qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar, shu jumladan a’zolik badallari hisobidan kasaba uyushmasi a’zolariga beriladigan moddiy yordam, bundan kasaba uyushmasi qo‘mitasining xodimlariga mehnat vazifalarini bajarganlik uchun beriladigan pul mukofotlari va boshqa to‘lovlar mustasno;

3) favqulodda holatlar munosabati bilan yetkazilgan zararlar summasi doirasida beriladigan moddiy yordam summalari;

4) xodimlarni ish joyiga olib borish va olib qaytish bo‘yicha xarajatlari;

5) diniy rasm-rusumlar va marosimlarni, bayram tantanalarini o‘tkazish, vakillik xarajatlari, shahar yo‘lovchilar transportida xodimlarning xizmat qatnovlari uchun foydalaniladigan yo‘l kartochkalarini olish, shuningdek yuridik shaxsning xodimlarning mehnat va dam olish sharoitlarini ta’minlash bilan bog‘liq hamda muayyan jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydigan boshqa xarajatlari;

6) xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formali kiyim-bosh berish xarajatlari yoki ularni pasaytirilgan baholarda sotish munosabati bilan qilingan xarajatlar, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda ayrim toifadagi xodimlarni o‘z xizmat vazifalarini bajarishi chog‘ida oziq-ovqat bilan ta’minlash bo‘yicha xarajatlar;

(369-modda ikkinchi qismining 6-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

7) xodim boshqa joyga ishga o‘tkazilganda yoxud ko‘chib borganda ko‘chish, mol-mulkini ko‘chirib borishga, joy ijarasiga (yo‘l xarajatlari uchun beriladigan pul) oid xarajatlarni to‘lash yoki bu xarajatlarning o‘rnini qoplash xarajatlari, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan aniqlanadigan olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarda joylashgan budjet tashkilotlariga oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari orasidan bakalavriatni yoki magistraturani tamomlagandan so‘ng uch yil ichida ishga qabul qilingan xodimlarga, shuningdek mazkur olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarda joylashgan oilaviy shifokorlik punktlariga va oilaviy poliklinikalarga hamda ta’lim muassasalariga ishga qabul qilingan, boshqa hududlarda yashaydigan oliy ma’lumotli shifokorlarga va mutaxassislarga to‘lanadigan boshlang‘ich yordam puli;

(369-modda ikkinchi qismining 7-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-714-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.09.2021-y., 03/21/714/0874-son — 2021-yil 1-iyundan e’tiboran yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

8) xizmat safarlariga oid quyidagi kompensatsiya to‘lovlari:

tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safari joyiga borish va u yerdan qaytib kelish uchun, shu jumladan joy band qilish uchun haq to‘lashni qo‘shgan holda haqiqatda amalga oshirilgan to‘lovlar. Yo‘l hujjatlari bo‘lmagan taqdirda, temir yo‘l transportidagi (agar temir yo‘l qatnovi bo‘lmasa, shaharlararo avtobusdagi) yo‘l haqi qiymati miqdorida, lekin aviachipta qiymatining 30 foizidan oshmaydigan miqdorda;

uy-joyni ijaraga olish bo‘yicha haqiqatda amalga oshirilgan to‘lovlar. Yashaganligini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmagan taqdirda, qonunchilikda belgilangan normalar doirasida;

(369-modda ikkinchi qismi 8-bandining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

tasdiqlovchi hujjatlar asosida uy-joyni band qilish uchun to‘lovlar;

qonunchilikda belgilangan normalar doirasida xizmat safarida bo‘lingan vaqt uchun to‘lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

(369-modda ikkinchi qismi 8-bandining beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

qonunchilikda belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa to‘lovlar;

(369-modda ikkinchi qismi 8-bandining oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

9) qonunchilikda nazarda tutilgan normalar doirasida xodimga to‘lanadigan kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar):

(369-modda ikkinchi qismi 9-bandining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

doimiy ishi yo‘lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo‘lgan, shuningdek vaxta usulida ishlarni bajarishda xodimga kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar);

xizmat ishlarida shaxsiy avtomobildan foydalanganlik uchun kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar), bundan xizmat safarlari mustasno;

dala ta’minoti;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan aniqlanadigan olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarda joylashgan budjet tashkilotlariga oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari orasidan bakalavriatni yoki magistraturani

tamomlagandan so‘ng uch yil ichida ishga qabul qilingan xodimlarga, shuningdek mazkur olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarda joylashgan oilaviy shifokorlik punktlariga va oilaviy poliklinikalarga hamda ta’lim muassasalariga ishga qabul qilingan, boshqa hududda yashaydigan oliy ma’lumotli shifokorlarga va mutaxassislarga uy-joy ijarasi uchun har oylik pul kompensatsiyasi;

(369-modda ikkinchi qismining 9-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-714-sonli Qonuniga asosan beshinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.09.2021-y., 03/21/714/0874-son — 2021-yil 1-iyundan e’tiboran yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va normalar bo‘yicha boshqa kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar), bundan ushbu Kodeksning 373 va 377-moddalarida ko‘rsatilganlari mustasno;

(369-modda ikkinchi qismi 9-bandining beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

10) mehnatda mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha quyidagi miqdordagi to‘lovlar:

jabrlanuvchi mehnatda mayib bo‘lguniga qadar olgan o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to‘lovlar (voyaga yetmagan shaxs mehnatda mayib bo‘lib qolgan taqdirda, zararning o‘rni uning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,76 baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda qoplanadi);

(369-modda ikkinchi qismi 10-bandining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo‘shimcha xarajatlar uchun oyiga mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 70,3 foizi miqdoridagi to‘lovlar;

jabrlanuvchining maishiy parvarishi uchun qo‘shimcha xarajatlar tariqasida har oyda mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 17,6 foizi miqdoridagi to‘lovlar;

xodimning sog‘lig‘iga shikast yetkazilganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa tariqasida jabrlanuvchining yillik o‘rtacha ish haqi miqdoridagi to‘lovlar;

11) boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan quyidagi miqdordagi to‘lovlar:

marhumning o‘rtacha ish haqining vafot etgan boquvchining qaramog‘ida bo‘lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni undirishga haqli bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to‘g‘ri keladigan ulushi miqdoridagi to‘lovlar;

boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo‘lgan shaxslarga bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa tariqasida marhumning o‘rtacha yillik ish haqining olti baravari miqdoridagi to‘lovlar;

12) o‘quvchilar va talabalarning ta’lim olishi uchun O‘zbekiston Respublikasining professional va oliy ta’lim tashkilotlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha pulli-kontrakt asosida o‘tkaziladigan mablag‘lar;

(369-modda ikkinchi qismining 12-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 26-iyuldagi O‘RQ-785-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.07.2022-y., 03/22/785/0679-son)

121) nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining va maktablarning, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida tashkil etilgan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining va maktablarning qonunchilikda belgilangan normalar doirasida ijtimoiy ko‘makka muhtoj oilalarning iste’dodli va iqtidorli farzandlarini, shuningdek maxsus kontingentdagi tarbiyalanuvchilarning muayyan sonini bepul o‘qitish bilan bog‘liq xarajatlari;

(369-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 26-iyuldagi O‘RQ-785-sonli Qonuniga asosan 121-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.07.2022-y., 03/22/785/0679-son)

13) xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari.

14) soliq to‘lovchining mijozlarning tovarlar va xizmatlarni sotib olish faolligini oshirishga qaratilgan va bonuslar (ballar, mijozni ushbu tashkilotlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olish faolligini belgilovchi boshqa birliklar) hisoblanishini nazarda tutuvchi dasturlarda ishtiroki natijasida ushbu dasturda belgilangan asoslar bo‘yicha olingan pul va natura shaklidagi daromadlari. Daromadlar soliq to‘lovchining jami daromadiga quyidagi hollarda qo‘shiladi:

soliq to‘lovchining ushbu bandning birinchi xatboshisida ko‘rsatilgan dasturlarda ishtirok etishi ochiq oferta shartlarisiz amalga oshirilganda;

soliq to‘lovchi ushbu bandning birinchi xatboshisida ko‘rsatilgan mamlakatimizdagi va chet el tashkilotlarining dasturlariga, ularda aksept muddati o‘ttiz kundan kam va (yoki) ularda ommaviy ofertani muddatidan oldin chaqirib olish imkoniyati nazarda tutilgan shartlar asosidagi ochiq ofertaga qo‘shilganda;

ushbu bandning birinchi xatboshisida ko‘rsatilgan tashkilotchi bilan lavozim majburiyatlarini bajarishda mehnat munosabatlarida bo‘lgan, shuningdek soliq to‘lovchi tomonidan tovarlar yetkazib berganlik (ishlar bajarganlik, xizmatlar ko‘rsatganlik) uchun haq (mukofot) yoki moddiy yordam sifatidagi to‘lov shaklidagi daromad to‘langanda.

15) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, kasaba uyushmalari, xayriya, ekologiya jamg‘armalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan tashkil etilgan boshqa jamg‘armalar tomonidan ko‘rsatilgan yordam:

Ustavda nazarda tutilgan faoliyat doirasida bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar;

davolash va tibbiy xizmatlar qiymati, nogironligi bo‘lgan shaxslarni profilaktika va reabilitatsiya qilish uchun texnik asbob-uskunalar olish;

(369-modda ikkinchi qismi 15-bandining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-maydagi O‘RQ-770-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son)

jismoniy shaxsning manfaatlarini ko‘zlab, tovarlar va xizmatlarni yetkazib beruvchidan olish;

xayriya maqsadida boshqa shakllarda qo‘llab-quvvatlash (bundan pul shaklida qo‘llab-quvvatlash mustasno).

(369-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 9-noyabrdagi O‘RQ-646-sonli Qonuniga asosan 15-band bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.11.2020-y., 03/20/646/1488-son — 2020-yil 1-apreldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga ham tatbiq etiladi.)

16) soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan belgilanadigan dasturlarda ishtirok etishi natijasida olingan bonuslar, pul mukofotlari tarzidagi pul to‘lovlaridan iborat daromadlari.

(369-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-714-sonli Qonuniga asosan 16-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.09.2021-y., 03/21/714/0874-son — 2021-yil 1-iyundan e’tiboran yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

370-modda. Jami daromadning tarkibi

Quyidagilar jami daromadga kiradi:

1) ushbu Kodeksning 371-moddasiga muvofiq mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar;

2) ushbu Kodeksning 375-moddasiga muvofiq mulkiy daromadlar;

3) ushbu Kodeksning 376-moddasiga muvofiq moddiy naf tarzidagi daromadlar;

4) ushbu Kodeksning 377-moddasiga muvofiq boshqa daromadlar.

371-modda. Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar

Ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo‘lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan xodimlarga hisoblanadigan hamda to‘lanadigan quyidagi barcha to‘lovlar mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar deb e’tirof etiladi:

mehnatga haq to‘lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlardan, tarif stavkalaridan va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan, haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi;

ilmiy daraja va faxriy unvon uchun ustamalar;

ushbu Kodeksning 372-moddasiga muvofiq rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar;

ushbu Kodeksning 373-moddasiga muvofiq kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiya);

ushbu Kodeksning 374-moddasiga muvofiq ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash;

haqiqatda bajarilgan ish uchun haq hisoblangan boshqa to‘lovlar.

Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar jumlasiga quyidagilar ham kiradi:

predmeti ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan, tuzilgan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to‘lovlar (bundan yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan

daromadlar mustasno);

yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o‘xshash organi) a’zolariga yuridik shaxsning o‘zi tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar;

O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmatining, harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralar xodimlariga xizmatni o‘tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to‘lanadigan pul ta’minoti, pul mukofotlari va boshqa to‘lovlar.

(371-modda ikkinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-726-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son)

372-modda. Rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar

Rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) yillik ish yakunlari bo‘yicha pul mukofoti;

2) yuridik shaxsning mukofotlash to‘g‘risidagi nizomida nazarda tutilgan rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar;

3) kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar;

4) ta’tilga qo‘shimcha haqlar hamda ushbu Kodeks 377-moddasining 10-bandida ko‘rsatilmagan moddiy yordam;

5) ko‘p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to‘lovlar;

6) ratsionalizatorlik taklifi uchun to‘lov;

7) mehnat natijalari bilan bog‘liq bo‘lmagan bir yo‘la beriladigan mukofotlar.

373-modda. Kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiya)

Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadga kiritiladigan kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar) jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo‘lgan joylardagi ishlar bilan bog‘liq qo‘shimcha to‘lovlar (ish staji uchun ustamalar, baland tog‘li, cho‘l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffitsiyentlar bo‘yicha to‘lovlar). Bunda yuridik shaxslar xodimlarining cho‘l va suvsiz joylarda, baland tog‘li va tabiiy-iqlim sharoiti noqulay hududlarda ishlaganlik uchun ish haqiga koeffitsiyentlar hisoblashning eng yuqori summasini aniqlash hisoblash sanasida belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdorida belgilanadi;

2) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro‘yxati bo‘yicha og‘ir, zararli, o‘ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan shunday sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar;

3) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ish vaqtidan tashqari, dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamalar va qo‘shimcha to‘lovlar;

4) ko‘p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko‘rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o‘zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo‘lmagan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar;

5) doimiy ishi yo‘lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo‘lgan xodimlarning, shuningdek doimiy ishi ishlarning vaxta usulida bajarilishini nazarda tutadigan xodimlarning ish haqiga qonunchilikda belgilangan normalardan ortiqcha to‘lanadigan ustamalar;

(373-moddaning 5-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

6) ish beruvchi joylashgan yerdan (yig‘ilish punktidan) ishlash joyigacha borish va u yerdan qaytish uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan ishlar vaxta usulida bajarilgan holda yo‘lga ketadigan kunlar, shuningdek xodimlar

meteorologik sharoitlar sababli va transport tashkilotlarining aybi bilan yo‘lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi yoki maosh miqdorida to‘lanadigan summalar;

7) yer osti ishlarida doimiy band bo‘lgan xodimlarga ularning stvoldan ishlash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me’yoriy vaqti uchun to‘lanadigan qo‘shimcha haqlar;

8) qonunchilikda belgilangan normalardan ortiqcha dala ta’minoti;

(373-moddaning 8-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

9) xizmat safarlari vaqtida qonunchilikda belgilangan normalardan ortiqcha kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

(373-moddaning 9-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

10) ishlar vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonunchilikda belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to‘lovlar;

(373-moddaning 10-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

11) xizmat safarlari uchun xodimning shaxsiy avtomobilidan yoki xizmat maqsadlari uchun uning boshqa mol-mulkidan qonunchilikda belgilangan normalardan ortiqcha foydalanganlik uchun to‘lovlar;

(373-moddaning 11-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

12) mehnatda mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash uchun ushbu Kodeks 369-moddasi ikkinchi qismining 10-bandida ko‘rsatilgan miqdorlardan ortiqcha olingan summalar;

(373-moddaning 12-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

13) oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymatini qoplash.

374-modda. Ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash

Ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) qonunchilikka muvofiq:

(374-moddaning 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

a) yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta’til uchun to‘lov, shuningdek ushbu ta’tildan foydalanilmaganda, shu jumladan xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to‘lovi;

b) noqulay va o‘ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek og‘ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo‘shimcha ta’til uchun to‘lov;

v) o‘qish bilan bog‘liq ta’til va ijodiy ta’tillar uchun to‘lov;

g) o‘n ikki yoshga to‘lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o‘n olti yoshga to‘lmagan nogironligi bo‘lgan bolasi bor ayollarga berilgan qo‘shimcha ta’til uchun to‘lov;

2) asosiy ish haqi qisman saqlab qolingan holda majburiy ta’tilda bo‘lgan xodimlarga beriladigan to‘lovlar;

3) donor xodimlarga ko‘rikdan o‘tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun to‘lov;

4) O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga to‘lov;

5) qishloq xo‘jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo‘yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

6) ma’lum muddatga avvalgi ish joyi bo‘yicha lavozim maoshi miqdori saqlab qolingan holda boshqa yuridik shaxslardan ishga joylashtirilgan, shuningdek vaqtinchalik vazifani bajarib turgan xodimlarga maoshdagi farq to‘lovi;

7) xodimlarga kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o‘qishlari vaqtida asosiy ish joyi bo‘yicha ularga to‘lanadigan ish haqi;

8) xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun to‘lov;

9) mehnat layoqatini vaqtincha yo‘qotgan xodimlarga qo‘shimcha to‘lov;

10) qonunchilikka muvofiq yoki ish beruvchining qarori bilan majburiy progul vaqti uchun yoki kam haq to‘lanadigan ishni bajarganlik uchun to‘lov;

(374-moddaning 10-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

11) o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning imtiyozli soatlariga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek tibbiy ko‘rikdan o‘tish bilan bog‘liq vaqt uchun to‘lov;

12) asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun hamda o‘quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalb qilinadigan yuqori malakali xodimlari mehnatiga to‘lov;

13) ish beruvchining mablag‘lari hisobidan to‘lanadigan pensiyalar va nafaqalarga qo‘shimchalar, stipendiyalar;

14) oliy ta’lim tashkilotini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislarga ta’til vaqti uchun ish beruvchi hisobidan to‘lanadigan nafaqalar.

(374-moddaning 14-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-sentabrdagi O‘RQ-957-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.09.2024-y., 03/24/957/0689-son)

375-modda. Mulkiy daromadlar

Mulkiy daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) foizlar;

2) dividendlar;

3) mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;

4) soliq to‘lovchiga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar mazkur mol-mulkni realizatsiya qilish summasining hujjatlar bilan tasdiqlangan uni olish qiymatidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi. Mazkur qiymatni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, mol-mulkni realizatsiya qilish qiymati, ko‘chmas mulk bo‘yicha esa – kadastr qiymati hamda realizatsiya qilish narxi o‘rtasidagi ijobiy farq daromad deb e’tirof etiladi;

5) sanoat mulki obyektlariga, seleksiya yutug‘iga oid patent (litsenziya) egasi bo‘lgan soliq to‘lovchining patentdan boshqa shaxs foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi;

6) royalti;

7) ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulk bo‘yicha ishonchli boshqaruvchidan olingan daromad;

(375-moddaning 8-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 17-apreldagi O‘RQ-1057-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.04.2025-y., 03/25/1057/0351-son)

9) ushbu Kodeksning 327 — 329-moddalarida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadigan, qimmatli qog‘ozlar va (yoki) muddatli bitimlarning hosila moliyaviy vositalari bilan operatsiyalar bo‘yicha daromad;

10) ushbu Kodeksning VII bo‘limida belgilangan hollarda va tartibda nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foyda tarzidagi daromadi;

11) ushbu Kodeksning 319-moddasiga muvofiq aniqlanadigan, oddiy shirkat shartnomasiga (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomaga) muvofiq ishtirok etishdan olingan daromadlar;

12) ushbu moddaning 1 — 11-bandlarida ko‘rsatilmagan mulkiy xususiyatga ega boshqa daromadlar.

376-modda. Moddiy naf tarzidagi daromadlar

Soliq to‘lovchi tomonidan moddiy naf tarzida olingan daromadlar, agar ushbu Kodeks 369-moddasining ikkinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, quyidagilardan iborat:

(376-modda birinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

1) soliq agenti tomonidan soliq to‘lovchi manfaatlarini ko‘zlab, tovarlar (xizmatlar), mulkiy huquqlar haqini to‘lash, shu jumladan:

soliq to‘lovchining bolalarini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘qitish, tarbiyalash haqini to‘lash;

(376-modda birinchi qismi birinchi bandining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 3-dekabrdagi O‘RQ-653-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son)

soliq to‘lovchilarga berilgan uy-joyning kommunal xizmatlar haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlarini, yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash;

sanatoriy-kurortlarda davolanish yo‘llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulator davolanish haqini yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash;

soliq agentining soliq to‘lovchi daromadi bo‘lgan boshqa xarajatlarini to‘lash;

2) soliq to‘lovchining manfaatlarini ko‘zlab tekin, shu jumladan hadya shartnomasi bo‘yicha berilgan mol-mulkning va ko‘rsatilgan xizmatlarning qiymati;

3) tovarlarni (xizmatlarni) soliq to‘lovchilarga realizatsiya qilish narxi hamda shu tovarlarning (xizmatlarning) ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan qiymati o‘rtasidagi salbiy farq;

4) qonunchilikka muvofiq xodimlarga temir yo‘l, aviatsiya, daryo, avtomobil transporti va shahar elektr transportida yurish bo‘yicha beriladigan imtiyozlar summasi;

(376-modda birinchi qismining 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

5) jismoniy shaxsning soliq agenti oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summalari;

6) soliq agenti tomonidan to‘lovlar hisobiga to‘lanib, soliq to‘lovchidan ushlab qolinishi lozim bo‘lgan, lekin ushlab qolinmagan summalar.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliq agentidan tovarlar (xizmatlar) olingan taqdirda, ushbu tovarlarning (xizmatlarning) qiymati ularni sotib olish narxidan yoki tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliq agentidan aksiz to‘lanadigan tovarlar yoki qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan tovarlar (xizmatlar) olingan taqdirda, bunday tovarlarning (xizmatlarning) qiymatida aksiz solig‘ining va qo‘shilgan qiymat solig‘ining tegishli summasi hisobga olinadi.

377-modda. Boshqa daromadlar

Soliq to‘lovchining boshqa daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg‘armalari tomonidan soliq to‘lovchilarga beriladigan nafaqalar hamda boshqa turlardagi yordam;

2) hayvonlarni (qoramollarni, parrandalarni, mo‘ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlarni va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so‘yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda sotishdan, ipak qurtini, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar;

3) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo‘yicha) olingan mol-mulkning, mulkiy huquqlarning qiymati;

4) musobaqalarda, ko‘riklarda, tanlovlarda sovrinli o‘rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari;

5) yutuqlar;

6) grant beruvchidan olingan grantlarning, shu jumladan chet davlatlar grantlarining summalari;

7) soliq to‘lovchilarning yaratilgan ilm-fan, adabiyot va san’at asarlari (predmetlari) uchun olgan daromadlari;

8) xalqaro sport musobaqalaridagi sovrinli o‘rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;

9) xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakti) bekor qilinganda mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq beriladigan ishdan bo‘shatish nafaqasi va boshqa to‘lovlar;

(377-moddaning 9-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

10) quyidagicha ko‘rsatiladigan moddiy yordam:

vafot etgan xodimning oila a’zolariga yoki oila a’zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga ko‘rsatiladigan;

xodimga mehnatda mayib bo‘lganligi, kasb kasalligi yoxud sog‘lig‘iga boshqacha tarzda shikast yetganligi bilan bog‘liq holda ko‘rsatiladigan;

bola tug‘ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikohdan o‘tishi munosabati bilan ko‘rsatiladigan;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag‘lar berish tarzida ko‘rsatiladigan moddiy yordam;

11) ishlamaydigan pensionerlarga soliq agenti tomonidan to‘lanadigan to‘lovlar;

12) ma’naviy zararni kompensatsiya qilish bo‘yicha pullik to‘lovlar;

13) ushbu Kodeksning VI bo‘limida belgilangan hollarda va tartibda narxlarga tuzatish kiritish tufayli olingan daromad;

14) ushbu Kodeksning 300-moddasida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadigan talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo‘yicha olingan daromad;

15) soliq to‘lovchining ushbu Kodeksning 371 — 376-moddalarida ko‘rsatilmagan boshqa daromadlari.

54-bob. Soliq imtiyozlari

378-modda. Soliq solinmaydigan daromadlar

Quyidagi daromad turlariga soliq solinmaydi:

1) moddiy yordam summalari:

vafot etgan xodimning oila a’zolariga yoki oila a’zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summalari — mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdorda;

ushbu Kodeksning 377-moddasida ko‘rsatilgan boshqa hollarda, — soliq davri uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdorda;

2) soliq agenti tomonidan quyidagi yo‘llanmalar qiymatini to‘liq yoki qisman qoplash summalari, bundan turistik yo‘llanmalar mustasno:

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriy-kurort va sog‘lomlashtirish muassasalariga yo‘llanmalar qiymatini nogironligi bo‘lgan shaxslarga, shu jumladan ushbu ish beruvchida ishlamaydigan nogironligi bo‘lgan shaxslarga to‘liq yoki qisman qoplash summalari;

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bolalar oromgohlari va boshqa sog‘lomlashtirish oromgohlari, shuningdek sanatoriy-kurort hamda sog‘lomlashtirish muassasalariga o‘z xodimlarining o‘n olti yoshgacha bolalari (o‘qiydiganlarga — o‘n sakkiz yoshgacha) uchun yo‘llanmalar qiymatini to‘liq yoki qisman qoplash summalari;

3) o‘z xodimlariga hamda ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko‘rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to‘langan summalar, shuningdek ish beruvchining davolashga hamda tibbiy xizmat ko‘rsatishga, nogironlik profilaktikasi va nogironligi bo‘lgan shaxslarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olishga oid xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko‘rsatganlik uchun ish beruvchilar tomonidan sog‘liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to‘langan taqdirda, shuningdek sog‘liqni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo‘ljallangan naqd pul mablag‘lari bevosita xodimga, xodim yo‘qligida esa — uning oila a’zolariga, ota-onasiga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun

mo‘ljallangan mablag‘lar xodimning bankdagi hisobvarag‘iga kiritilgan taqdirda, bu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

4) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan qonunchilikda belgilangan summalar doirasida budjet tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summalari va boshqa summalar;

(378-moddaning 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta’minlash markazlari ko‘magida amalga oshirilayotgan bo‘lsa;

6) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o‘rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;

7) soliq to‘lovchilarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan quyidagilarni sotishdan olingan daromadlar mustasno:

qimmatli qog‘ozlarni (bundan fond birjasida realizatsiya qilinadigan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar mustasno), yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini);

noturar joylarni;

o‘ttiz olti kalendar oydan kam muddatda soliq to‘lovchining mulkida bo‘lgan turar joylarni;

8) uy xo‘jaligida, shu jumladan dehqon xo‘jaligida yetishtirilgan hayvonlarni (qoramollarni, parrandalarni, mo‘ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlar va hokazolarni) tirik holda hamda ularni so‘yib mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda sotishdan (bundan sanoatda qayta ishlash mustasno) chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog‘dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno;

9) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

10) ish beruvchidan soliq davri mobaynida mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 2,11 baravarigacha bo‘lgan qiymatdagi:

xodimlar natura shaklida olgan sovg‘alar;

ilgari mazkur ish beruvchining xodimlari bo‘lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo‘qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a’zolari tomonidan olingan sovg‘alar hamda boshqa turlardagi yordam;

11) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek tekinga olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan quyidagilar mustasno:

ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarining, adabiyot hamda san’at asarlari ijrochilarining, shuningdek kashfiyotlar, ixtirolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo‘rlariga (huquqiy vorislariga) to‘lanadigan pul mukofotlari;

yaqin qarindosh bo‘lmagan shaxslar o‘rtasidagi ko‘chmas mulk, avtotransport vositalari, qimmatli qog‘ozlar, yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi (ustav kapitallaridagi) ulushlar;

12) davlat zayomining obligatsiyalari bo‘yicha yutuqlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha foizlar;

13) jamg‘arma sertifikatlari, davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek banklardagi omonatlar bo‘yicha foizlar va yutuqlar;

14) nodavlat notijorat tashkilotlaridan, xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek vakolatli organning xulosasi mavjud bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi xalqaro shartnomalari doirasida soliq to‘lovchi grant beruvchidan bevosita olgan grantning summasi;

(378-moddaning 15-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuniga asosan 2023-yil 1-apreldan chiqariladi — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son)

16) soliq to‘lovchining quyidagilarga yo‘naltiriladigan, soliq solinishi lozim bo‘lgan ish haqi va boshqa daromadlari:

O‘zbekiston Respublikasining professional va oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim olish (o‘zining, farzandlarining, shuningdek yigirma olti yoshga to‘lmagan erining (xotinining) ta’lim olishi) uchun to‘lov. Mazkur imtiyoz soliq to‘lovchining professional va oliy ta’lim tashkilotlarida o‘qish uchun tijorat banklari tomonidan ajratilgan ta’lim kreditlariga (foizlari bilan) qoplashga yo‘naltirilgan daromadlariga nisbatan ham qo‘llaniladi;

(378-modda 16-bandining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2023-yil 1-avgustdan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

farzandlariga nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va (yoki) maktablar ko‘rsatadigan ta’limga oid xizmatlar uchun ota-ona (farzandlikka oluvchilar) tomonidan har bir farzand uchun, shuningdek uch yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha nogironligi bo‘lgan bolalar uchun kunduzgi parvarish xizmatidan foydalanadigan ota-ona (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan har bir farzand uchun to‘lanadigan oyiga 3 million so‘mgacha bo‘lgan to‘lovlar;

(378-modda 16-bandining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 17-apreldagi O‘RQ-1129-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.04.2026-y., 03/26/1129/0375-son)

soliq bazasining 50 foizidan oshmagan holda, metsenatlik ko‘magini ko‘rsatish;

olingan ipoteka kreditlarini va ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni soliq davri davomida jami mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining sakson baravarigacha bo‘lgan miqdorda qoplashga, basharti uy-joy fondining ko‘chmas mulk obyektlarini sotib olish, qurish yoki rekonstruksiya qilish dastlabki badalning va (yoki) ipoteka krediti bo‘yicha foizlarning bir qismini qoplash uchun budjetdan ajratilgan subsidiyalar hisobga olingan holda amalga oshirilgan bo‘lsa. Mazkur soliq imtiyozi qarz oluvchiga va (yoki) birga qarz oluvchilarga nisbatan, basharti ularning soliq solinmaydigan daromadlari jami summasi belgilangan miqdordan oshmasa, tatbiq etiladi. Bunda yosh oila bo‘lgan er-xotinning olgan ipoteka kreditlarini hamda ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni to‘lashga yo‘naltirilgan ish haqiga va boshqa daromadlariga nisbatan soliq imtiyozi er-xotin yoki ulardan biri belgilangan yoshga to‘lguniga qadar, ushbu xatboshida budjetdan ajratilgan subsidiyalar bo‘yicha belgilangan shartlar inobatga olinmagan holda qo‘llaniladi. Agar 2023-yil 1-yanvardan keyin ipoteka krediti hisobiga sotib olingan, qurilgan yoki rekonstruksiya qilingan uy-joy fondining ko‘chmas mulk obyektlari ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan e’tiboran o‘ttiz olti oy ichida boshqa shaxsga o‘tkazilgan bo‘lsa, soliq imtiyozining amal qilishi soliq imtiyozini qo‘llashning butun davri uchun soliqni to‘lash majburiyati tiklangan holda bekor qilinadi;

(378-modda 16-bandining beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi ixtiyoriy ravishda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga;

17) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo‘yicha) olingan ulushlar, paylar va aksiyalar tarzidagi daromadlar, agar bu ulushlarni, paylarni va aksiyalarni berish yaqin qarindoshlar o‘rtasida amalga oshirilsa.

Yuridik shaxs tashkil etmagan chet el tuzilmasiga nisbatan yoki qaysi chet el yuridik shaxsi uchun ro‘yxatdan o‘tish mamlakatining qonunchiligiga muvofiq kapitalda ishtirok etish nazarda tutilmagan bo‘lsa, o‘sha chet el yuridik shaxsiga nisbatan nazorat qilish huquqi, agar bunday huquqlar ularni bir oilaning a’zolari va (yoki) yaqin qarindoshlar bo‘lgan shaxslar o‘rtasida o‘tkazish natijasida olingan bo‘lsa, daromad olish yoki daromadni tasarruf etish huquqining yuzaga kelishi deb e’tirof etilmaydi;

(378-modda 17-bandining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

18) paxta yig‘im-terimi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilinadigan soliq to‘lovchilarning bu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari;

19) soliq to‘lovchi bo‘lgan qimmatbaho metallar qidiruvchilarning qonunchilikda belgilangan tartibda qazib olish yo‘li bilan ega bo‘lgan qimmatbaho metallarni realizatsiya qilishdan olgan daromadlari;

(378-moddaning 19-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

191) soliq to‘lovchining uy-joylarni talabalarga ijaraga berishdan olingan daromadlari;

(378-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan 191-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son — 2021-yil 1-oktabrdan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.)

20) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, kasaba uyushmalari, xayriya va ekologiya jamg‘armalari tomonidan soliq to‘lovchilarga beriladigan nafaqalar, shuningdek pul mablag‘lari tarzidagi yordamning boshqa turlari, biroq soliq davri mobaynida o‘n besh million so‘mdan oshmagan holda;

(378-modda O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 9-noyabrdagi O‘RQ-646-sonli Qonuniga asosan 20-band bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.11.2020-y., 03/20/646/1488-son — 2020-yil 1-apreldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga ham tatbiq etiladi.)

201) Ijtimoiy himoya yagona reyestriga yoki Kambag‘al oilalar reyestriga kiritilgan oilalar a’zolariga qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan homiylik tashkilotlari tomonidan soliq davri mobaynida bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda to‘g‘ridan-to‘g‘ri beriladigan pul mablag‘lari tarzidagi homiylik xayriyalari;

(378-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 17-dekabrdagi O‘RQ-1102-sonli Qonuniga asosan 201-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2025-y., 03/25/1102/1173-son)

21) soliq to‘lovchining soliq davri davomida quyidagilarni to‘lash uchun yo‘naltiriladigan, bazaviy hisoblash miqdorining sakkiz baravarigacha bo‘lgan miqdordagi ish haqi summalari va boshqa daromadlari:

xalqaro tashkilotlarga a’zolik badallarini, tegishli xalqaro tashkilot a’zosi sifatida bunday badallarning to‘langanligi to‘g‘risida hujjat mavjud bo‘lganda;

qayta tayyorlash va malaka oshirish uchun nodavlat ta’lim tashkilotlariga to‘lovlarni, kursni tugatganlik to‘g‘risida shunday tashkilotlar tomonidan berilgan hujjat mavjud bo‘lganda.

(378-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan 21-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son — 2021-yil 1-oktabrdan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.)

22) aksiyalar ommaviy joylashtirilganda korxonalar xodimlarining o‘z oylik ish haqidan va unga tenglashtirilgan to‘lovlardan oshmaydigan, ushbu korxonalar xodimlarining aksiyalarga egalik qilish rejasi doirasida aksiyalarni sotib olishga yo‘naltirilgan mablag‘lari;

23) soliq to‘lovchilar ish haqining va boshqa daromadlarining soliq davri davomida qimmatli qog‘ozlarning mahalliy bozorida chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarni sotib olish uchun shaxsiy investitsiya hisobvarag‘iga yo‘naltiriladigan qismi, quyidagi barcha shartlar bajarilgan taqdirda:

yo‘naltirilgan mablag‘larning jami summasi mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining yuz baravaridan oshmaydigan miqdorni tashkil etadi;

pul mablag‘lari shaxsiy investitsiya hisobvarag‘iga birinchi marta o‘tkazilgan sanadan boshlab o‘n ikki oy ichida qaytarib olinmaydi. Bunda oy davomida shaxsiy investitsiya hisobvarag‘iga yo‘naltiriladigan mablag‘lar summasi mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining yigirma baravaridan oshishi mumkin emas;

shaxsiy investitsiya hisobvarag‘idagi pul mablag‘laridan qimmatli qog‘ozlar olish uchun foydalaniladi.

Ushbu bandning shartlari buzilgan taqdirda, shaxsiy investitsiya hisobvarag‘idagi mablag‘larga to‘lov manbaida soliq solinishi lozim;

(378-moddaning 23-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 17-apreldagi O‘RQ-1057-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.04.2025-y., 03/25/1057/0351-son)

24) Chernobil AESdagi halokat oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan (shu jumladan vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan) fuqarolarning, shuningdek ularning xotinining (erining) daromadlari. Mazkur soliq imtiyozi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining ma’lumotnomasiga, nogironlik to‘g‘risidagi ma’lumotnomaga, Chernobil AESdagi halokat oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasiga, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo‘ladigan boshqa hujjatlarga asosan beriladi;

25) “Mahalla servis” kompaniyalari xodimlarining faoliyati natijasida olingan, ularning soliq solinishi lozim bo‘lgan ish haqi tarzidagi daromadlari.

(378-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-iyundagi O‘RQ-1071-sonli Qonuniga asosan 24 va 25-bandlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.06.2025-y., 03/25/1071/0545-son)

> **Izoh.** 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

379-modda. Jismoniy shaxslarni soliq solishdan ozod etish

Quyidagilarning daromadlariga soliq solinmaydi:

1) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o‘zlari bilan birga yashaydigan oila a’zolari, agar ular O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmasa — O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo‘yicha;

2) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining ma’muriy-texnik xodimlari hamda ularning o‘zlari bilan birga yashaydigan oila a’zolari, agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, — O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo‘yicha;

3) chet davlatlarning diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko‘rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa — o‘z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo‘yicha;

4) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa — o‘z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo‘yicha;

5) xalqaro nohukumat tashkilotlarining mansabdor shaxslari — agar ular O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo‘yicha.

380-modda. Ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarning jami daromadini kamaytirish

Quyidagi soliq to‘lovchilar soliq solishdan qisman (daromadlar qaysi oyda olingan bo‘lsa, o‘sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlar, ushbu qismning 3-bandida ko‘rsatilgan shaxslar uchun esa mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 3 baravari miqdoridagi daromadlar bo‘yicha) ozod etiladi:

(380-modda birinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 5-maydagi O‘RQ-767-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.05.2022-y., 03/22/767/0386-son — 2022-yil 1-martdan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.)

1) “O‘zbekiston Qahramoni”, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar. Bu imtiyoz tegishincha “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonunchilik bilan belgilanadigan, ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning yoxud boshqa vakolatli organning ma’lumotnomasi asosida, nogironligi bo‘lgan boshqa shaxslarga (qatnashchilarga) nogironligi bo‘lgan shaxsning (qatnashchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnomasi asosida beriladi;

(380-modda birinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-maydagi O‘RQ-770-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son)

3) bolalikdan nogironligi bo‘lgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar, bundan Chernobil AESdagi halokat oqibatida I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar mustasno. Bu imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

(380-modda birinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-iyundagi O‘RQ-1071-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.06.2025-y., 03/25/1071/0545-son)

4) sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoxud harbiy xizmatning yoki ichki ishlar organlaridagi va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasidagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yaralanganligi, kontuziya yoki mayib bo‘lganligi oqibatida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari). Bu imtiyoz “Halok bo‘lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)” yoki “Ichki ishlar organlari halok bo‘lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)”,

“O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi halok bo‘lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)” shtampi qo‘yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo‘lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo‘mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining tegishli organlari va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralar tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organlari va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimining halok bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoxud harbiy xizmatning yoki ichki ishlar organlaridagi va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasidagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning yoki ichki ishlar organlari va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o‘tmagan taqdirda beriladi;

(380-modda birinchi qismining 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-726-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son)

5) ikki va undan ortiq o‘n olti yoshga to‘lmagan bolalari bor yolg‘iz onalar. Bu imtiyoz har bir bola uchun fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotnoma asosida beriladi;

6) ikki va undan ortiq o‘n olti yoshga to‘lmagan bolalari bor hamda boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar. Bu imtiyoz erning (xotinning) vafot etganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, bolalar tug‘ilganligi to‘g‘risidagi guvohnomalar, yangi nikohdan o‘tmaganlik hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limining boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya olinmasligi haqidagi ma’lumotnomasi taqdim etilgan taqdirda beriladi;

7) bolaligidan nogironligi bo‘lgan shaxs, doimiy parvarishni talab etadigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota yoki ona. Bu imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki sog‘liqni saqlash muassasasining doimiy parvarish zarurligini tasdiqlovchi tibbiy ma’lumotnomasi asosida beriladi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan soliq imtiyozlari tegishli hujjatlar taqdim etilgan taqdirda qo‘llaniladi.

Soliq imtiyoziga bo‘lgan huquq kalendar yil davomida vujudga kelgan taqdirda, soliq imtiyozi unga bo‘lgan huquqlar vujudga kelgan paytdan e’tiboran qo‘llaniladi.

Agar soliq to‘lovchi ushbu moddada nazarda tutilgan bir nechta asos bo‘yicha soliq imtiyoziga doir huquqqa ega bo‘lsa, unga xohishiga qarab faqat bitta soliq imtiyozi beriladi.

Soliq imtiyozini qo‘llash soliq to‘lovchining asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyi bo‘yicha, asosiy ish joyi mavjud bo‘lmagan taqdirda esa — yashash joyidagi soliq organlari tomonidan jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliqni hisoblab chiqarish chog‘ida amalga oshiriladi. Soliq imtiyoziga bo‘lgan huquq yo‘qotilgan taqdirda, soliq to‘lovchi imtiyozga bo‘lgan huquqni yo‘qotgan paytidan e’tiboran o‘n besh kun ichida bu haqda undan soliqni ushlab qoladigan yuridik shaxsga ma’lum qilishi kerak.

Ushbu moddaning birinchi qismida sanab o‘tilgan soliq imtiyozlari soliq to‘lovchining foizlar va dividendlar tarzida olingan daromadlariga, shuningdek mol-mulkni ijaraga topshirishdan olingan daromadlariga nisbatan ham tatbiq etiladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy ish joyi bo‘yicha hisoblansa, soliq imtiyozini qo‘llash asosiy ish joyi bo‘yicha amalga oshiriladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy bo‘lmagan ish joyi bo‘yicha hisoblansa, soliq imtiyozi jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish chog‘ida soliq to‘lovchining yashash joyidagi soliq organlari tomonidan qo‘llaniladi. Shunga o‘xshash tartib mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

55-bob. Soliq stavkalari. Soliq davri

381-modda. O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari

O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxsning daromadlariga, agar ushbu moddaning ikkinchi qismida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, 12 foizlik soliq stavkasi bo‘yicha soliq solinadi.

Dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga 5 foizlik soliq stavkasi bo‘yicha soliq solinadi.

382-modda. O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari

O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlariga quyidagi soliq stavkalar bo‘yicha soliq solinadi:

T/r

Soliq obyekti

Soliq stavkalari, foizlarda

1

Dividendlar va foizlar

10

2

Ushbu Kodeksga muvofiq aniqlanadigan, xalqaro tashishlarda transport xizmatlari taqdim etishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar).

6

3

Mehnat shartnomalari (kontraktlari) va fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomalar bo‘yicha olingan daromadlar, 1 va 2-bandlarda ko‘rsatilmagan boshqa daromadlar

12

(382-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 26-iyuldagi O‘RQ-785-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.07.2022-y., 03/22/785/0679-son — ushbu modda 3-bandining qoidalari 2022-yil 1-maydan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

383-modda. O'z kuchini yo'qotgan

(O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan 383-moddaning o‘z kuchini yo‘qotish sanasi — 2026-yil 1-yanvar — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son)

384-modda. Soliq davri. Hisobot davri

Kalendar yil soliq davridir.

Soliq agentlari uchun hisobot davri bir oydir.

56-bob. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va to‘lash tartibi

385-modda. Umumiy qoidalar

Soliq quyidagilar tomonidan hisoblab chiqariladi va to‘lanadi:

1) soliq to‘lovchiga daromad to‘laydigan soliq agentlari tomonidan;

2) soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda.

Soliq to‘lovchilarning alohida toifalari soliqni ushbu Kodeksning 397-moddasida belgilangan tartibda jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida to‘lashni tanlashga haqli.

(385-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Ushbu moddaning ikkinchi qismidagi qoidalar quyidagi toifadagi soliq to‘lovchilarga tatbiq etiladi:

(O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan 385-modda uchinchi qismi 1-bandining chiqarilish sanasi — 2026-yil 1-yanvar — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son)

(385-modda uchinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuniga asosan 2021-yil 1-yanvardan chiqariladi — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son)

3) yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyatni amalga oshirayotgan oila a’zolariga;

4) “Hunarmand” uyushmasi a’zolari bo‘lgan hunarmandchilik faoliyati subyektlariga.

Ushbu moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilar soliq to‘lash tartibini quyidagilar orqali tanlashga haqli:

1) tadbirkorlik subyektining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi chog‘ida tanlangan soliq to‘lash tartibini ko‘rsatish;

2) doimiy yashash joyi bo‘yicha soliq organlariga joriy yilning 25-yanvaridan kechiktirmasdan tanlangan soliq to‘lash tartibi to‘g‘risida bildirish xati taqdim etish.

Ushbu moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchi tomonidan bildirish xati ushbu moddaning to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan muddatlarda taqdim etilmasligi uning aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga roziligini bildiradi.

(385-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Soliq ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda soliq organi tomonidan ham hisoblab chiqarilishi mumkin.

Hisoblab chiqarilgan soliq summasi qonunchilikda belgilangan tartibda hisoblangan jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o‘tkaziladigan majburiy oylik badallar summasiga kamaytiriladi.

(385-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu modda birinchi qismining 1-bandiga muvofiq yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliq soliq agenti tomonidan hisoblab chiqariladi va to‘lov manbaida ushlab qolinadi.

(385-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

386-modda. Soliq agentlarining majburiyati va javobgarligi

Soliqni to‘lov manbaida hisoblab chiqarish, ushlab qolish va budjetga o‘tkazish majburiyati soliq to‘lovchiga daromad to‘laydigan va soliq agentlari deb e’tirof etilgan quyidagi shaxslarning zimmasiga yuklatiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslariga;

2) yakka tartibdagi tadbirkorlarga;

3) O‘zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan yuridik shaxslarga;

4) O‘zbekiston Respublikasi norezidenti bo‘lgan yuridik shaxslarning vakolatxonalariga;

5) ushbu Kodeks 351-moddasi ikkinchi qismining 5-bandida ko‘rsatilgan mol-mulkni sotib olgan jismoniy shaxslarga;

6) soliq to‘lovchining mol-mulkini ishonchli boshqarishni amalga oshiruvchi ishonchli boshqaruvchiga.

Ushbu modda birinchi qismining 5-bandida ko‘rsatilgan shaxslar mazkur Kodeksning 356-moddasida nazarda tutilgan tartibda soliqni hisoblab chiqarish, ushlab qolish va budjetga o‘tkazishni amalga oshiradi.

Soliq summasi ushlab qolinmagan taqdirda, soliq agenti ushlab qolinmagan summani va u bilan bog‘liq penyani ushbu Kodeksga muvofiq budjetga o‘tkazishi shart.

Soliq agentlari jismoniy shaxsning talabiga binoan unga daromadlarining summalari va turlari haqida, shuningdek jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolingan summasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shaklda ma’lumotnoma berishi shart.

387-modda. Soliq agentlarida soliq solinadigan daromadlar

Soliq agentida soliq solinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

1) ushbu Kodeksning 371-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslarning mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlari;

2) ushbu Kodeksning 376-moddasiga muvofiq moddiy naf tarzidagi daromadlar;

3) ushbu Kodeksning 375-moddasiga muvofiq mulkiy daromadlar;

4) ushbu Kodeksning 377-moddasiga muvofiq boshqa daromadlar.

O‘zi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxsga moddiy naf tarzida daromad to‘lovchi soliq agenti jismoniy shaxsning yozma arizasi asosida soliqni ushlab qolmaslikka haqli. Bunda soliq to‘lovchi moddiy naf tarzidagi daromad bo‘yicha ushbu Kodeksning 393-moddasiga muvofiq soliqni to‘lashi shart.

388-modda. Soliq agentlari tomonidan soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish tartibi

Soliq agentlari soliq hisobining registrlarida jismoniy shaxslarning ulardan soliq davrida olgan daromadlari, jismoniy shaxslarga to‘lov manbaida qo‘llanilgan soliq imtiyozlari, hisoblab chiqarilgan va ushlab qolingan soliqlar hisobini yuritadi.

Soliq hisobi registrlarining shakllari, ularda soliq hisobining tahliliy ma’lumotlarini hamda birlamchi hisobga olish hujjatlari ma’lumotlarini aks ettirish tartibi soliq agenti tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladi. Mazkur shakllarda soliq to‘lovchini identifikatsiya qilish imkonini beradigan ma’lumotlar, soliq to‘lovchilarga to‘lanadigan daromad turlari va to‘lov manbaida unga qo‘llanilgan soliq imtiyozlari, ularni to‘lash sanasi, soliq to‘lovchining maqomi, soliqni ushlab qolish va to‘lash sanasi ko‘rsatilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlarga soliq solish soliq agentlari tomonidan soliq bazasi hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq agentlari soliq to‘lovchining ushbu Kodeksning 387-moddasida ko‘rsatilgan daromadlaridan hisoblangan soliq summasini ushlab qolishi shart.

Soliqning hisoblangan summasini soliq to‘lovchidan ushlab qolish, soliq agenti soliq to‘lovchiga to‘layotgan har qanday pul mablag‘lari hisobidan, bu pul mablag‘lari soliq to‘lovchiga yoki uning topshirig‘iga binoan uchinchi shaxslarga to‘lanayotganda amalga oshiriladi.

Soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish ushbu bo‘limda belgilangan soliq bazasi hamda soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda, daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan e’tiboran har oyda ortib boruvchi yakun bilan soliq to‘lovchining ish joyi bo‘yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Asosiy bo‘lmagan ish joyidan yoki boshqa soliq agentlaridan sovg‘a, moddiy yordam va boshqa turlardagi yordam olgan jismoniy shaxslarning soliq summasini qayta hisob-kitob qilish jismoniy shaxs yillik jami daromadi to‘g‘risida deklaratsiya topshirganda soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyi o‘zgargan taqdirda, soliq to‘lovchi joriy yilda o‘ziga to‘langan daromadlar va ushlab qolingan soliq summalari to‘g‘risidagi ma’lumotnomani yangi asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyidagi soliq agentiga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadar taqdim etishi shart. Ilgarigi ish (xizmat, o‘qish) joyidan ma’lumotnoma taqdim etilmagan yoki soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan taqdirda, soliq ushbu Kodeks 378-moddasi 1-bandining uchinchi xatboshisida va 380-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar qo‘llanilmagan holda ushlab qolinadi. Ma’lumotnoma va soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilgan taqdirda, soliq summasi ilgari asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyida olingan daromadlar inobatga olingan holda qayta hisob-kitob qilinadi.

Yangi asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyida soliqni hisoblab chiqarish kalendar yil boshidan e’tiboran ilgarigi va yangi asosiy ish (xizmat, o‘qish) joylaridan olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Mehnat shartnomasi (kontrakt) bekor qilingandan keyin xodimga ilgarigi ish joyidan to‘lov amalga oshirilganda, bunday to‘lovlar ushbu Kodeks 378-moddasi 1-bandining uchinchi xatboshisida va 380-moddasida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari qo‘llanilmagan holda soliqqa tortiladi.

Jismoniy shaxslarning asosiy bo‘lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan soliqning yakuniy summasi jami yillik daromad to‘g‘risida taqdim etilgan deklaratsiyaning ma’lumotlari bo‘yicha soliq organi tomonidan hisoblab chiqariladi.

389-modda. Soliq hisobotini taqdim etish tartibi va muddatlari

Soliq agentlari o‘zlarining soliq bo‘yicha hisobda turgan joydagi soliq organiga quyidagilarni taqdim etishi shart:

1) soliq davri tugaganidan keyin o‘ttiz kun ichida — soliq organlariga to‘lov manbaidan soliq solinmagan moddiy naf tarzida daromadlar olgan jismoniy shaxslar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shakldagi ma’lumotnomani;

2) har oyda, hisobot davridan keyingi oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa — keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmay;

(389-modda birinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari bo‘lgan, xodimlari 25 nafardan ortiq bo‘lgan alohida bo‘linmalarga va (yoki) filiallarga ega soliq agentlari, ushbu alohida bo‘linmalar va (yoki) filiallar xodimlariga nisbatan mazkur moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan soliq hisobotini — alohida bo‘linmalar va (yoki) filiallar hisobda turgan joydagi soliq organiga taqdim etadi.

(389-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 26-iyuldagi O‘RQ-785-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.07.2022-y., 03/22/785/0679-son)

Yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lgan soliq agentlari, agar ushbu Kodeksning 57-bobida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, o‘zlarining yollanma xodimlariga oid mazkur moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan soliq hisobotini o‘zi soliq bo‘yicha hisobda turgan joydagi soliq organiga taqdim etadi.

390-modda. Soliqni to‘lash tartibi

To‘lov manbaida hisoblab chiqarilgan soliq summasi soliq to‘lovchiga daromadlarni to‘lash bilan bir vaqtda, lekin soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay soliq agenti tomonidan to‘lanadi.

Daromadlar natura shaklida amalga oshirilganda soliq natura tarzidagi to‘lov amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida to‘lanadi.

391-modda. Ortiqcha ushlangan soliq summasini qaytarish tartibi

Agar ushbu bobda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq agenti tomonidan soliq to‘lovchining daromadidan ortiqcha ushlangan soliq summasi soliq to‘lovchining yozma arizasiga asosan qaytarilishi lozim.

Soliq agenti tomonidan bir soliq davri ichida ortiqcha ushlangan soliq summasi qaytariladi.

Soliq to‘lovchiga ortiqcha ushlangan soliq summasini qaytarish daromadlaridan bunday soliq agenti tomonidan ushlab qolinadigan soliq to‘lovchi bo‘yicha ham, boshqa soliq to‘lovchilar bo‘yicha ham kelgusi to‘lovlar hisobidan budjet tizimiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan ushbu soliq summasi hisobidan, soliq agenti soliq to‘lovchining tegishli arizasini olgan kundan e’tiboran uch oy ichida soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchiga ortiqcha ushlangan soliq summasini qaytarish soliq agenti tomonidan soliq to‘lovchining arizasida ko‘rsatilgan bankdagi hisobvarag‘iga pul mablag‘larini o‘tkazish yo‘li bilan naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi.

Soliq agenti bo‘lmaganda yoxud ushbu bandning ikkinchi qismida belgilangan soliq davri tugaganda, soliq to‘lovchi soliq davrining yakuniga ko‘ra soliq deklaratsiyasini bir vaqtning o‘zida taqdim etgan holda, ilgari soliq agenti tomonidan ortiqcha ushlangan va budjet tizimiga o‘tkazilgan soliq summasini qaytarish to‘g‘risida soliq organiga ariza berishga haqli.

Soliq davrida O‘zbekiston Respublikasining rezidenti maqomini olgan soliq to‘lovchi ushbu soliq davrida norezident maqomida to‘lagan soliq summasini qayta hisob-kitob qilishga va qaytarib olishga haqli. Soliq summasini soliq to‘lovchiga qaytarish soliq to‘lovchi ushbu Kodeksning 397-moddasida belgilangan tartibda ko‘rsatilgan soliq davri yakuniga ko‘ra soliq deklaratsiyasini taqdim etgan taqdirda yashash joyi (turgan joyi) bo‘yicha hisobga qo‘yilgan soliq organi tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu deklaratsiyaga mazkur soliq davrida O‘zbekiston Respublikasining rezidenti maqomini tasdiqlaydigan hujjatlar ilova qilinishi kerak.

392-modda. O'z kuchini yo'qotgan

(O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan 392-moddaning o‘z kuchini yo‘qotish sanasi — 2026-yil 1-yanvar — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son)

57-bob. Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida daromadlarga soliq solish

393-modda. Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari kiradi:

mulkiy daromadlar, agar ushbu bo‘limga muvofiq bu daromadlarga soliq agentida soliq solinmasa;

ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar;

moddiy naf tarzidagi daromadlar, agar bu daromadlarga soliq agentida soliq solinmagan bo‘lsa;

O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar;

soliq agentlari bo‘lmagan manbalardan olingan daromadlar;

ushbu Kodeks 385-moddasining uchinchi qismida ko‘rsatilgan jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlar, ular tomonidan jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq to‘lash tartibi tanlanganda;

soliq agenti tomonidan soliq ushlab qolinmagan soliq solinadigan boshqa daromadlar.

Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya, agar soliq to‘lovchining asosiy bo‘lmagan ish joyidan olingan daromadlaridan soliq uning arizasi bo‘yicha ushlab qolingan bo‘lsa taqdim qilinmaydi, bundan ushbu modda birinchi qismining beshinchi xatboshisida ko‘rsatilgan daromadlar mustasno.

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan yoki joriy yilning 1-apreligacha rezidentga aylangan chet el jismoniy shaxsi, ushbu modda birinchi va ikkinchi qismlarining qoidalaridan qat’i nazar, ushbu Kodeksning 397-moddasida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda jami yillik daromadi to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etadi.

394-modda. Ayrim toifadagi soliq to‘lovchilar tomonidan olingan daromadlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Ushbu Kodeks 385-moddasining uchinchi qismida ko‘rsatilgan jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq to‘laydigan soliq to‘lovchilar daromadlarni olish bilan bog‘liq bo‘lgan daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishi shart hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan haqiqatda amalga oshirilgan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni daromaddan chegirib tashlash huquqiga ega. Bunda soliq to‘lovchilarning ushbu Kodeks 385-moddasining uchinchi qismida ko‘rsatilgan jami daromadi tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilinishidan olingan daromadlardan, shuningdek ushbu Kodeksning 370-moddasida ko‘rsatilgan boshqa daromadlardan iborat.

395-modda. Mualliflik haqi tarzida olingan daromadlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tarzida daromad oluvchi soliq to‘lovchilar bunday faoliyatni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tmagan holda amalga oshirish huquqiga ega.

Ushbu moddaga muvofiq daromadlariga soliq solinadigan soliq to‘lovchilar soliqni soliq organining yozma xabarnomasi asosida to‘laydi.

ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi olayotgan soliq to‘lovchi daromadlar olish bilan bog‘liq daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishi shart hamda u ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan, haqiqatda sarflangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni daromaddan chegirish huquqiga ega, lekin chegirma olingan jami daromad summasining 30 foizidan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarga quyidagilar kiradi:

ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratish hamda ulardan foydalanish uchun zarur materiallar sotib olishga doir xarajatlar;

faqat ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratish, nashr qilish, ijro etish yoki ulardan boshqacha tarzda foydalanish maqsadida foydalaniladigan bino va mol-mulk ijarasiga doir xarajatlar.

> **Izoh.** Qarang: “Mualliflik va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni.

396-modda. Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya

Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya soliq to‘lovchining olingan yillik daromadi to‘g‘risidagi yozma arizasidan iborat bo‘ladi.

Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga to‘langan daromadlar va ushlab qolingan soliq summalari to‘g‘risida soliq agentining O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlangan shakldagi ma’lumotnomasi ilova qilinadi.

Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaning shakli O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Soliq organi tomonidan soliq to‘lovchi taqdim etgan jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyada to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasining kamayishiga olib keluvchi xatolar aniqlangan taqdirda, soliq organi jami yillik daromad haqidagi taqdim etilgan deklaratsiyada aniqlangan xatolar to‘g‘risida soliq to‘lovchiga bildirish xati yuboradi.

Soliq organining xabarnomasini olgan soliq to‘lovchi o‘n kun ichida jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga zarur bo‘lgan o‘zgartirishlarni kiritishi shart.

Agar jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani o‘zgartirish haqidagi ariza soliqni to‘lash muddati o‘tguniga qadar berilsa, soliq to‘lovchi ushbu Kodeksda belgilangan javobgarlikdan ozod etiladi.

Agar jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani o‘zgartirish haqidagi ariza soliqni to‘lash muddati o‘tganidan keyin, lekin xatolar soliq organi tomonidan aniqlanguniga qadar berilsa, soliq to‘lovchi soliqning yetishmayotgan summasini hamda unga tegishli penyani to‘lagan taqdirda, javobgarlikdan ozod etiladi.

Soliq to‘lovchi soliq organining taqdim etilgan jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyada aniqlangan xato to‘g‘risidagi bildirish xatini olgan kun soliq organi tomonidan xato aniqlangan kun, deb hisoblanadi.

397-modda. Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etish tartibi

Soliq to‘lovchilar ushbu Kodeksning 393-moddasida ko‘rsatilgan daromadlar bo‘yicha jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, doimiy yashash joyidagi soliq organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1-aprelidan kechiktirmay taqdim etadi.

Deklaratsiya qilinishi shart bo‘lmagan daromadlarni olgan soliq to‘lovchilar doimiy yashash joyidagi soliq organiga jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin.

Har qanday ketma-ketlikdagi o‘n ikki oylik davr ichida jami bir yuz sakson uch kun va undan ortiq muddat O‘zbekiston Respublikasining tashqarisida turgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari O‘zbekiston Respublikasiga qaytgan sanadan e’tiboran bir oydan kechiktirmay doimiy yashash joyidagi soliq organiga O‘zbekiston Respublikasidagi va uning tashqarisidagi manbalardan olgan daromadlari bo‘yicha jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin. Bunda O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan daromadlar bo‘yicha jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etish mezonlariga muvofiq kelmagan davr uchun soliq to‘lanmaydi.

Grant olgan soliq to‘lovchi jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani topshirayotganda grant bo‘yicha olingan daromad summasini, soliq miqdorini ko‘rsatadi, shuningdek vakolatli organning tegishli xulosasini ilova qiladi.

Mol-mulkini ijaraga berishdan to‘lov manbaida soliq solinmaydigan daromadlar olayotgan soliq to‘lovchilar, shuningdek ushbu Kodeks 385-moddasining uchinchi qismida ko‘rsatilgan va jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq to‘laydigan jismoniy shaxslar jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani belgilangan muddatlarda taqdim etish bilan bir qatorda dastlabki tarzdagi deklaratsiyani ham quyidagi muddatlarda taqdim etadi:

1) mol-mulkni ijaraga berishdan daromad oladigan soliq to‘lovchilar — ijaradan daromadlar paydo bo‘lgan kundan e’tiboran birinchi oy tugaganidan keyin besh kun muddatda;

2) ushbu Kodeks 385-moddasining uchinchi qismida ko‘rsatilgan, jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliqni to‘laydigan jismoniy shaxslar — joriy yilning 1-fevralidan kechiktirmay. Yangi ro‘yxatdan o‘tgan

tadbirkorlik subyektlari — tadbirkorlik subyekti davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oyning oxiriga qadar dastlabki deklaratsiyani taqdim etadi.

Ko‘chmas mulkning ijara shartnomasi soliq organlarida hisobga qo‘yilayotganda dastlabki deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad olish tugagan taqdirda soliq to‘lovchi doimiy yashash joyidagi soliq organini bu haqda yozma shaklda xabardor etadi.

Joriy yilning 1-apreliga qadar O‘zbekiston Respublikasining rezidentiga aylangan chet ellik jismoniy shaxs oldingi soliq davri uchun jami yillik daromadi to‘g‘risida deklaratsiya topshiradi.

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan chet ellik jismoniy shaxs ushbu bobda belgilangan tartibga muvofiq soliq solinishi lozim bo‘lgan daromad keltirayotgan faoliyatini kalendar yili ichida tugatgan va O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketayotgan bo‘lsa, uning O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan davrda joriy soliq davrida haqiqatda olgan daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiya bu jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketishidan bir oy avval taqdim etilishi lozim. Agar O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan chet ellik jismoniy shaxs joriy yilning 1-fevraliga qadar chet elga doimiy yashashga chiqib ketsa, joriy yil uchun daromadlar bo‘yicha deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya bo‘yicha hisoblangan va taqdim etish tartibi ushbu moddaning to‘qqizinchi qismida belgilangan soliqni to‘lash deklaratsiya taqdim etilgan sanadan e’tiboran o‘n besh kun ichida amalga oshiriladi.

Agar soliq to‘lovchi jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etmagan bo‘lsa, shuningdek oldin taqdim etilgan deklaratsiyada noto‘g‘ri ma’lumotlar aniqlangan va (yoki) soliq to‘lovchi tomonidan jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning o‘zgarganligi haqidagi arizani ushbu Kodeks 396-moddasining oltinchi qismida belgilangan muddatlarda taqdim etmagan taqdirda, soliq organi soliq summasini o‘zidagi mavjud axborot asosida hisoblashga va to‘lanishi lozim bo‘lgan, hisoblangan soliq summasi to‘g‘risida soliq to‘lovchiga o‘n kunlik muddatda to‘lov xabarnomasini topshirishga haqli. Soliq to‘lovchi tomonidan jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya yoki to‘g‘rilangan deklaratsiya taqdim etilgan taqdirda, soliqning yakuniy summasi ushbu deklaratsiyani hisobga olgan holda aniqlanadi.

398-modda. Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya bo‘yicha soliq to‘lash tartibi

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaning ma’lumotlariga ko‘ra hisoblab chiqarilgan soliqni o‘tgan soliq davridan keyingi yilning 1-iyunidan kechiktirmay to‘laydi.

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar hisoblab chiqarilgan soliqni chet davlatda joylashgan bank hisobvarag‘idan chet el valyutasida to‘lashi mumkin. Bunda milliy valyutada ifodalangan soliq O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan belgilangan soliq to‘langan sanadagi kurs bo‘yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqariladi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad oladigan jismoniy shaxslar, shuningdek ushbu Kodeks 385-moddasining uchinchi qismida ko‘rsatilgan jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar soliqni taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya yoki soliq organining xabarnomasi asosida, daromad olingan oydan keyingi oyning o‘n beshinchi kunigacha har oyda to‘laydi. Yil tugagach, soliqning yillik summasi haqiqatda olingan daromad bo‘yicha hisoblab chiqariladi. Bu summa bilan yil mobaynida to‘langan summalar o‘rtasidagi farq kelgusi yilning 1-iyunidan kechiktirmay soliq to‘lovchidan undirilishi yoki unga qaytarilishi lozim.

Quyidagilar soliq to‘langan sana deb hisoblanadi:

soliq soliq agentlari yoki jismoniy shaxslar tomonidan bankdagi hisobvarag‘idan to‘langan taqdirda — bankdagi hisobvarag‘idan mablag‘lar hisobdan chiqarilgan kun;

jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul mablag‘lari kiritilgan taqdirda — bank kassasiga mablag‘lar to‘langan sana.

Soliq organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan soliqni to‘lash to‘lov xabarnomasida ko‘rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak.

399-modda. Rezidentlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida to‘langan soliqni hisobga olish

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida to‘langan, O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summalari O‘zbekiston Respublikasida soliq to‘lashda ushbu Kodeksning 342-moddasida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinadi.

Soliqni hisobga olish soliq davri yakuni bo‘yicha jismoniy shaxs tomonidan taqdim etilgan jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida amalga oshiriladi.

400-modda. O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solish to‘lov manbaida to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasining ichkarisida yoki tashqarisida qilinganligidan qat’i nazar amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslarning daromadlariga O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini hisobga olgan holda soliq solinadi, bundan soliqni undirish o‘zarolik prinsipi bo‘yicha tugatilishi yoki cheklanishi mumkin bo‘lgan hollar mustasno.

O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxsga daromadlarni to‘lash to‘lov manbaida soliqni ushlab qolmasdan yoki ushbu Kodeksning 6-moddasiga muvofiq ikkiyoqlama soliq solishga yo‘l qo‘ymaslik masalalarini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalariga va xalqaro shartnomalar bo‘yicha soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning oldini olishga doir maxsus qoidalarga muvofiq pasaytirilgan stavkani qo‘llagan holda amalga oshiriladi.

Soliq summasi ushlab qolinmaganligi yoki O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasining qoidalari g‘ayriqonuniy tarzda qo‘llanilishi mazkur soliq ushlab qolinmasligiga yoki to‘liq ushlab qolinmasligiga sabab bo‘lgan taqdirda, Kodeksning ushbu bo‘limiga muvofiq soliq agenti deb e’tirof etilgan shaxslar tomonidan ushlab qolinmagan soliq summasini va u bilan bog‘liq penya summasini qonunchilikka muvofiq budjetga kiritilishi shart.

(400-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu Kodeksning qoidalariga muvofiq soliq agenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti daromadlaridan hisoblab chiqarilgan soliq summasi undan ushlanmasdan o‘z mablag‘lari hisobidan to‘langanda, soliq agentining soliqni to‘lov manbaidan ushlab qolish va ko‘chirib berish majburiyati bajarilgan hisoblanadi.

401-modda. Norezidentning daromadlaridan ushlab qolingan soliqni qaytarish tartibi

O‘zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomasi qo‘llanishi huquqiga ega bo‘lgan norezident jismoniy shaxs tomonidan O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlardan soliq ushlab qolingan va budjetga to‘langan taqdirda, bunday norezident ushbu Kodeksning 12-bobida nazarda tutilgan tartibda to‘langan soliqni qaytarib olish huquqiga ega.

XIV BO‘LIM
IJTIMOIY SOLIQ

58-bob. Ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash

402-modda. Soliq to‘lovchilar

Ijtimoiy soliqni soliq to‘lovchilari (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq to‘lovchilar deb yuritiladi) deb quyidagilar e’tirof etiladi:

O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalari va filiallari;

ushbu Kodeksning 408 va 409-moddalarida nazarda tutilgan tartibga muvofiq ijtimoiy soliq to‘laydigan jismoniy shaxslarning ayrim toifalari.

403-modda. Soliq solish obyekti

Ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to‘lashga doir xarajatlari ijtimoiy soliqning (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq deb yuritiladi) soliq solish obyektidir.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlar bilan ta’minlash yuzasidan xizmatlar ko‘rsatishga doir shartnomalar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi norezidenti bo‘lgan yuridik shaxsga to‘lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari ham soliq solish obyektidir.

Jismoniy shaxslarning ayrim toifalari uchun ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatini va (yoki) yakka tartibdagi mehnat faoliyatini amalga oshirish soliq solish obyektidir.

Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

ish beruvchining xodimga mehnatda mayib bo‘lganligi yoki sog‘ligiga boshqacha shikast yetganligi bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash tarzidagi, ushbu Kodeks 369-moddasi ikkinchi qismining 10-bandida ko‘rsatilgan miqdorlardan ortiqcha xarajatlari;

(403-modda to‘rtinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

paxta yig‘im-terimi bo‘yicha mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganligi uchun mehnat haqi to‘lashga doir xarajatlar;

“Mahalla servis” kompaniyalarining mahallalarni obod qilish bilan bog‘liq ishlarni bajarayotgan hamda mahallalar aholisiga qonunchilikda belgilangan ayrim turdagi ijtimoiy ahamiyatli pulli xizmatlar ko‘rsatayotgan xodimlariga mehnat haqi to‘lashga doir xarajatlari.

(403-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-iyundagi O‘RQ-1071-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.06.2025-y., 03/25/1071/0545-son)

> **Izoh.** 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

404-modda. Soliq bazasi

Soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi ushbu Kodeksning 371-moddasiga muvofiq to‘lanadigan xarajatlar summasi sifatida aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar uchun soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi ularning O‘zbekiston Respublikasida budjet tashkilotlari xodimlari uchun ish haqi miqdorining oshishi inobatga olingan holda qayta hisoblab chiqariladigan, ular O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga ishga yuborilguniga qadar oxirgi ish joyida mehnatga haq to‘lash tarzida olgan daromadlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Ushbu Kodeks 403-moddasining ikkinchi qismida ko‘rsatilgan daromadlar bo‘yicha soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi chet ellik xodimlarga to‘lanadigan daromadlar summasi sifatida, biroq O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlar bilan ta’minlash yuzasidan xizmatlar ko‘rsatishga doir shartnoma bo‘yicha xarajatlar umumiy summasining 90 foizidan kam bo‘lmagan summada belgilanadi.

405-modda. Soliq stavkalari

Soliq stavkalari, agar ushbu Kodeksning 408-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r

Soliq to‘lovchilar

Soliq stavkalari, foizlarda

1.

Soliq to‘lovchilar, bundan 2 — 4-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno

12

2.

Budjet tashkilotlari

25

3.

“SOS — O‘zbekiston Bolalar mahallalari” uyushmalari

7

4.

Ixtisoslashtirilgan sexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironligi bo‘lgan shaxslar mehnatidan foydalanuvchi soliq to‘lovchilar

4,7

Soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan pasaytirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

406-modda. Soliq davri. Hisobot davri

Kalendar yil soliq davridir.

Yil oyi hisobot davridir.

407-modda. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi

Soliq soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Soliq ish beruvchining va ayrim toifadagi jismoniy shaxslarning mablag‘lari hisobidan to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari bo‘yicha, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar bo‘yicha soliqni to‘lash majburiyati O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining zimmasiga yuklatiladi.

Soliq hisoboti soliq to‘lovchi tomonidan soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi soliq organlariga har oyda hisobot davridan keyingi oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa — keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmay taqdim etiladi.

(407-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Soliqni to‘lash har oyda, soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

408-modda. Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar tomonidan soliqni hisoblab chiqarish va to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlari

Soliq, agar ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchining kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat’i nazar:

(408-modda birinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 16-iyundagi O‘RQ-847-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.06.2023-y., 03/23/847/0384-son — 2023-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda;

(O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan 408-modda birinchi qismi 2-bandining chiqarilish sanasi 2025-yil 1-yanvar — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son)

3) faoliyatni yuridik shaxs tashkil etmagan holda, oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshiruvchi oila a’zolari tomonidan:

yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan oila a’zosi tomonidan — oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda;

oilaning boshqa a’zolari tomonidan (bundan o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganlar mustasno) — oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida majburiy tartibda to‘lanadi/

(408-modda birinchi qismining 3-bandi uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 16-iyundagi O‘RQ-847-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.06.2023-y., 03/23/847/0384-son — 2023-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

(408-modda birinchi qismining 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Mehnat stajini hisoblab chiqarish uchun yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida:

o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar;

shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida band bo‘lgan yoki mazkur maydonda chorvachilik (qoramol, qo‘ylar, echkilar, otlar va boshqalar), issiqxona xo‘jaligi, parrandachilik (tovuqlar, bedanalar, kurkalar, g‘ozlar, o‘rdaklar), quyonchilik, asalarichilik, baliqchilik, bog‘dorchilik, limonchilik, gulchilik bilan shug‘ullanayotgan shaxsiy tomorqa yer uchastkalarining egalari yoki ularning oila a’zolari bo‘lgan fuqarolar tomonidan (ularga tegishli tomorqa yer uchastkasining maydonidan yoki ular tomonidan parvarish qilinayotgan uy hayvonlari va parrandalarning sonidan qat’i nazar);

dehqon xo‘jaligining a’zolari (bundan dehqon xo‘jaligi boshlig‘i mustasno) va dehqon xo‘jaligida band bo‘lgan jismoniy shaxslar;

mehnat shartnomasi asosida chet elda yollanib ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari;

O‘zbekiston Respublikasining davlat organlari va boshqa tashkilotlari tomonidan chet davlatlarda tashkil etilgan (ochilgan) savdo uylarida, vakolatxonalarda (shu jumladan yuridik shaxs tashkil etmasdan), tashkilotlarda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari;

ishlamaydigan eri (xotini) uchun soliq to‘lovini amalga oshiruvchi ishlayotgan fuqarolar tomonidan ixtiyoriy tartibda soliq to‘lanadi.

Mehnat stajini hisoblab chiqarish uchun yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida:

“Hunarmand” uyushmasining a’zosi bo‘lgan hunarmandchilik faoliyati subyektlari;

“Usta-shogird” maktablari o‘quvchilari — ular yigirma besh yoshga to‘lguniga qadar ishlagan davrda;

dehqon xo‘jaligi boshlig‘i;

yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan jismoniy shaxslar tomonidan majburiy tartibda soliq to‘lanadi.

(408-modda uchinchi qismining beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

Yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchi hunarmandchilik faoliyati subyektlari bo‘lgan “Hunarmand” uyushmasining a’zolari soliq to‘lashdan ozod etiladi, ushbu moddaning birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida ko‘rsatilgan, yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo‘lgan qolgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun esa soliq miqdori uning belgilangan eng kam miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak. Mazkur imtiyozlar pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi. Imtiyozlarga bo‘lgan huquq kalendar yil davomida vujudga kelgan yoki tugatilgan taqdirda, soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq yuzaga kelgan yoki tugatilgan oydan e’tiboran amalga oshiriladi.

(408-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 16-iyundagi O‘RQ-847-sonli Qonuniga asosan ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qismlar bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.06.2023-y., 03/23/847/0384-son — 2023-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

Soliqni to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi:

ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar tomonidan — har oyda tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay;

ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida koʻrsatilgan shaxslar tomonidan — hisobot yilining 31-dekabrigacha amalga oshiriladi. Bunda soliqning miqdori toʻlov kunida belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

(408-modda beshinchi qismining uchinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi OʻRQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

Yangi roʻyxatdan oʻtgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila aʼzolari tomonidan soliqni toʻlash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan oydan keyingi oydan eʼtiboran amalga oshiriladi.

Soliqni toʻlash majburiyati:

yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshirayotgan oila aʼzolari uchun — oilaviy tadbirkorlik subyekti nomidan ish yuritadigan, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida roʻyxatdan oʻtgan oila aʼzosining;

yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida boʻlgan jismoniy shaxslar uchun — ushbu xodimlar bilan mehnat shartnomasini tuzgan yakka tartibdagi tadbirkorning zimmasiga yuklatiladi.

(408-modda yettinchi qismining uchinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasining 2023-yil 16-iyundagi OʻRQ-847-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 17.06.2023-y., 03/23/847/0384-son — 2023-yil 1-yanvardan eʼtiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

Toʻlov topshiriqnomasida (kirim orderida) soliq toʻlovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, identifikatsiya raqami va toʻlov kiritilayotgan davr koʻrsatilishi shart. Bunda oila aʼzolari — oilaviy tadbirkorlik ishtirokchilari va xodim yollagan yakka tartibdagi tadbirkorlar boʻyicha toʻlov topshiriqnomasi (kirim orderi) har bir oila aʼzosi uchun va yakka tartibdagi tadbirkorning har bir yollangan xodimi uchun alohida-alohida yoziladi. Agar toʻlov topshiriqnomasida (kirim orderida) davr koʻrsatilmagan boʻlsa, toʻlov u amalga oshirilayotgan oy (dehqon xoʻjaliklari aʼzolari va dehqon xoʻjaligida band boʻlgan jismoniy shaxslar, shuningdek ushbu modda uchinchi qismining beshinchi xatboshisida koʻrsatilgan jismoniy shaxslar uchun — yil) uchun toʻlangan deb hisoblanadi.

(408-moddaning sakkizinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2023-yil 16-iyundagi OʻRQ-847-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 17.06.2023-y., 03/23/847/0384-son — 2023-yil 1-yanvardan eʼtiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik toʻxtatib turilganligi toʻgʻrisida soliq organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor oʻz faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun soliqni hisoblashni toʻxtatib turish uchun asos boʻladi.

Soliq organlari tomonidan olingan, har bir yollangan xodim uchun belgilangan tartibda berilgan hisobga olish kartochkalari yakka tartibdagi tadbirkor oʻz faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimiga soliqni hisoblashni toʻxtatib turish uchun asos boʻladi.

Agar faoliyatini toʻxtatib turgan yakka tartibdagi tadbirkor yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun hisobga olish kartochkasini soliq organiga belgilangan muddatlarda topshirmasa, yakka tartibdagi tadbirkorning majburiyatlari boʻyicha soliqni hisoblash toʻxtatilmaydi.

Ushbu moddaning birinchi qismida, uchinchi qismi beshinchi xatboshisida koʻrsatilgan soliq toʻlovchilar soliqni ushbu Kodeksning 405-moddasida koʻrsatilgan soliq stavkalari boʻyicha jami yillik daromad toʻgʻrisida deklaratsiyada koʻrsatilgan mehnatga haq toʻlash tarzida olingan daromadlar summasidan kelib chiqib, biroq ushbu moddada belgilangan uning eng kam miqdoridan kam boʻlmagan holda, soliqni ixtiyoriy ravishda toʻlash haqida jami yillik daromad toʻgʻrisidagi deklaratsiyani taqdim etish bilan bir vaqtda beriladigan ariza asosida toʻlashga haqli. Bunda toʻlanishi lozim boʻlgan soliqning uzil-kesil summasi ushbu moddaning birinchi — oltinchi qismlariga muvofiq toʻlangan summalarni hisobga olgan holda aniqlanadi.

(408-moddaning oʻn ikkinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2023-yil 16-iyundagi OʻRQ-847-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 17.06.2023-y., 03/23/847/0384-son — 2023-yil 1-yanvardan eʼtiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

409-modda. Ixtiyoriy ravishda soliqni hisoblab chiqarish va toʻlashning oʻziga xos xususiyatlari

Qonunchilikka muvofiq soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish majburiyati zimmasiga yuklatilmagan ish beruvchidan daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar soliqni jami yillik daromad toʻgʻrisidagi deklaratsiyada koʻrsatilgan

mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar summasidan kelib chiqqan holda, soliqni ixtiyoriy ravishda to‘lash haqida jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etish bilan bir vaqtda beriladigan ariza asosida ixtiyoriy asosda to‘laydi.

(409-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar tomonidan soliqni to‘lash jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya ma’lumotlari bo‘yicha soliq organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash muddatlarida amalga oshiriladi.

XV BO‘LIM
MOL-MULK SOLIG‘I

59-bob. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq

410-modda. Soliq to‘lovchilar

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning soliq to‘lovchilari (bundan buyon ushbu bobda soliq to‘lovchilar deb yuritiladi) deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasi hududida ushbu Kodeksning 411-moddasiga muvofiq soliq solish obyekti hisoblanuvchi mol-mulkka ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) O‘zbekiston Respublikasi hududida ko‘chmas mulkka ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar.

Agar ko‘chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlashning imkoni bo‘lmasa, ushbu mulkka egalik qiluvchi va (yoki) undan foydalanuvchi shaxs soliq to‘lovchi hisoblanadi.

Agar yuridik shaxs ko‘chmas mulkni moliyaviy ijaraga (lizing) olgan bo‘lsa, u ham soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi, bundan ushbu Kodeksning 480[6]-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno.

(410-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.03.2026-y., 03/26/1126/0279-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 29-iyun)

411-modda. Soliq solish obyekti

Ko‘chmas mulk yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (bundan buyon ushbu bobda soliq deb yuritiladi) soliq solish obyekti hisoblanadi.

Ko‘chmas mulk jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlar;

2) qurilishi tugallanmagan obyektlar. Qurilishi tugallanmagan obyektlarga qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo‘lsa, ushbu obyektning qurilishiga vakolatli bo‘lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e’tiboran yigirma to‘rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi;

3) temir yo‘llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo‘lgan inshootlar;

4) qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko‘rsatilgan turar joy ko‘chmas mulk obyektlari, ko‘chmas mulk obyekti foydalanishga topshirilgandan keyin olti oy o‘tgach.

Quyidagi ko‘chmas mulk obyektlari soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyatini amalga oshirish doirasida foydalaniladigan obyektlar;

2) uy-joy-kommunal xo‘jaligining va belgilangan maqsadi bo‘yicha foydalaniladigan boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo‘jaligi obyektlari. Uy-joy-kommunal hamda boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik

shahar xo‘jaligi obyektlari jumlasiga shaharlar va shaharchalarni sanitariya jihatdan tozalash, obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish obyektlari, tashqi yoritish, kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun va aholiga oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlari (oqova suvlarni tozalash inshootlari bilan), vodoprovod (suv olish va tozalash inshootlari bilan), gaz, qozonxonalar hamda issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlar (ularning inshootlari bilan), shuningdek uy-joy-kommunal xo‘jaligi obyektlariga texnik jihatdan xizmat ko‘rsatish va ularni ta’mirlash, boshqaruvchi tashkilotlar yoki ko‘p kvartirali uylarni boshqaruvchilar tomonidan umumiy mol-mulkni boshqarish, unga texnik xizmat ko‘rsatish va uni ta’mirlash, ko‘p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalarini obodonlashtirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan binolar, shuningdek ko‘p kvartirali uylarda joylashgan ko‘p kvartirali uy mulkdorlarining umumiy mol-mulki kiradi;

(411-modda uchinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 29-avgustdagi O‘RQ-951-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.08.2024-y., 03/24/951/0673-son)

3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, shu jumladan pulli avtomobil yo‘llari;

(411-modda uchinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 5-avgustdagi O‘RQ-1162-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.08.2026-y., 03/26/1162/0821-son)

4) sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari;

5) soliq to‘lovchining balansida bo‘lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlar;

6) tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong‘in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlar. Obyektlarni tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlari va yong‘in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlar jumlasiga kiritish tegishli ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yoki yong‘in xavfsizligi organining ma’lumotnomasi asosida amalga oshiriladi;

7) yer uchastkalari;

8) “Mahalla servis” kompaniyalari egaligida bo‘lgan mahallalarni obod qilish bilan bog‘liq ishlarni bajarish hamda mahallalar aholisiga qonunchilikda belgilangan ayrim turdagi ijtimoiy ahamiyatli pulli xizmatlarni ko‘rsatishga mo‘ljallangan binolar.

(411-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-iyundagi O‘RQ-1071-sonli Qonuniga asosan 8-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.06.2025-y., 03/25/1071/0545-son)

> **Izoh.** 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

412-modda. Soliq bazasi

Quyidagilar soliq bazasidir:

1) ushbu Kodeks 411-moddasi ikkinchi qismining 1 va 3-bandlarida nazarda tutilgan obyektlar bo‘yicha — o‘rtacha yillik qoldiq qiymati.

Ko‘chmas mulkning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang‘ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to‘lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya miqdori o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish maqsadida ushbu Kodeks 411-moddasi ikkinchi qismining 1-bandida nazarda tutilgan obyektlarga nisbatan soliq bazasi quyidagi miqdorlarda 1 kv. metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatdan past bo‘lishi mumkin emas:

Toshkent shahrida — uch million besh yuz o‘ttiz ming so‘m;

Nukus shahrida va viloyat markazlarida — ikki million uch yuz ellik ming so‘m;

boshqa shaharlarda va qishloq joylarda — bir million uch yuz to‘qson ming so‘m;

(412-modda birinchi qismi 1-bandining to‘rtinchi, beshinchi va oltinchi xatboshilari O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari ushbu bandda belgilangan eng kam qiymatga tumanlarning iqtisodiy rivojlanishiga qarab 0,5 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi koeffitsiyent kiritishi mumkin.

Agar obyektning 1 kv. metri qiymati ushbu bandda belgilangan eng kam qiymatdan past bo‘lsa, soliq to‘lovchi ko‘chmas mulk obyektlari qiymatini mustaqil baholashni amalga oshirishga haqli. Bunda mustaqil baholash natijalari, shu jumladan soliq to‘lovchi tomonidan o‘tgan ikki yilda o‘tkazilgan mustaqil baholash natijalari soliq bazasi sifatida e’tirof etiladi.

(412-modda birinchi qismi 1-bandining sakkizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 26-iyuldagi O‘RQ-785-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.07.2022-y., 03/22/785/0679-son — ushbu xatboshining qoidalari 2022-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

Ushbu bandda belgilangan eng kam qiymat tatbiq etilmaydigan ko‘chmas mulk obyektlari qonunchilikda belgilanadi.

(412-modda birinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 26-iyuldagi O‘RQ-785-sonli Qonuniga asosan to‘qqizinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.07.2022-y., 03/22/785/0679-son — ushbu xatboshining qoidalari 2022-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

2) ushbu Kodeks 411-moddasi ikkinchi qismining 2-bandida nazarda tutilgan obyektlar bo‘yicha — tugallanmagan qurilishning o‘rtacha yillik qiymati;

3) ushbu Kodeks 411-moddasi ikkinchi qismining 4-bandida belgilangan obyektlar bo‘yicha — mazkur obyektlarning o‘rtacha yillik qiymati (realizatsiya qilinmagan qismi bo‘yicha);

4) davlat ko‘chmas mulk obyektini bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olgan xaridorga mol-mulk solig‘i, agar mazkur obyekt uchun unga “tasarruf etish huquqisiz” belgisini qo‘ygan holda davlat orderi berilgan bo‘lsa, obyektning xaridor tomonidan mazkur obyekt bo‘yicha sotib olish to‘lovlarining to‘langan qismiga mutanosib ravishdagi ulushga (foizga) teng o‘rtacha yillik qoldiq qiymati.

Bunda soliqlar davlat ko‘chmas mulk obyekti bo‘yicha sotib olish to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash grafigiga amal qilgan holda undiriladi. Ushbu grafik Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan Soliq qo‘mitasiga axborot tizimlari orqali taqdim etiladi.

(412-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 17 martdagi O‘RQ-1122-sonli Qonuniga asosan 4-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.03.2026-y., 03/26/1122/0250-son)

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko‘chmas mulk obyektlariga nisbatan soliq bazasi ushbu mol-mulkning o‘rtacha yillik qiymatidir.

413-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi

Soliq solish obyektlarining o‘rtacha yillik qoldiq qiymati (o‘rtacha yillik qiymat) soliq davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko‘ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o‘rtacha yillik qiymatlarini) qo‘shishdan olingan summaning o‘n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha soliq bazasi mazkur obyektlarga bo‘lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarda ko‘rsatilgan qiymat asosida aniqlanadi.

Soliq bazasi har bir soliq solish obyekti bo‘yicha alohida aniqlanadi.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliqni to‘lash nazarda tutilmagan faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan mol-mulk hisobini alohida-alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritishning imkoni bo‘lmasa, soliq bazasi soliq to‘lanishi nazarda tutilgan faoliyatdan olinadigan sof tushumning jami sof tushum hajmidagi ulushiga qarab aniqlanadi.

414-modda. Soliq imtiyozlari

Soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq bazasi quyidagilarning o‘rtacha yillik qoldiq qiymatiga (o‘rtacha yillik qiymatiga) kamaytiriladi:

1) madaniyat va san’at, ta’lim, sog‘liqni saqlash (bundan turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort obyektlari mustasno), jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta’minot obyektlarining;

(414-modda birinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

2) qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash uchun, shuningdek ipak qurti yetishtirish uchun foydalaniladigan qishloq xo‘jaligi korxonalari balansida bo‘lgan mol-mulkning;

3) yangi neft va gaz quduqlarining — ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab ikki yil muddatga;

(414-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan 3-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

4) ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga asoslangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni joriy etgan soliq to‘lovchilar obyektlarining yuqori texnologiyali ishlab chiqarish uskunalari egallagan qismi bo‘yicha — ushbu uskunalar foydalanishga qabul qilingan sanadan e’tiboran uch yil muddatga.

(414-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1104-sonli Qonuniga asosan 4-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1104/1213-son)

Ushbu modda birinchi qismining 3-bandida nazarda tutilgan yangi neft va gaz quduqlariga nisbatan soliq imtiyozlarining amal qilish muddati tugagandan keyin uch yil davomida belgilangan soliq stavkasining 50 foizga kamaytirilgan soliq stavkasi qo‘llaniladi.

(414-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Quyidagilar soliqdan ozod qilinadi:

1) yagona ishtirokchilari nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo‘lgan va xodimlarining umumiy sonida nogironligi bo‘lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnatiga haq to‘lash fondi mehnatga haq to‘lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar;

2) umumiy quvvati quyidagicha bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari:

100 kVtgacha bo‘lgan — qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari foydalanishga topshirilgan oydan e’tiboran uch yil muddatga, quyosh panellarining quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam bo‘lmagan quvvatga ega elektr energiyasini to‘plash tizimi bilan quyosh panellari o‘rnatilganda esa — ushbu panellar foydalanishga topshirilgan oydan e’tiboran o‘n yil muddatga;

100 kVt va undan ortiq bo‘lgan — ular foydalanishga topshirilgan oydan e’tiboran o‘n yil muddatga;

(414-modda uchinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

3) qishloq joylarda joylashgan (bundan shaharlar va tumanlarning markazlari mustasno) antenna-machta metall konstruksiyalari, shu jumladan ularga o‘rnatilgan hamda ularning ajralmas qismi bo‘lgan konstruksiyalar;

(414-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 26-iyuldagi O‘RQ-785-sonli Qonuniga asosan 3-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.07.2022-y., 03/22/785/0679-son — ushbu bandning qoidalari 2022-yil 1-apreldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

Yangi qurilgan ko‘p qavatli ishlab chiqarish binolari bo‘yicha (bundan respublika shaharlarida, shuningdek Toshkent viloyatining Zangiota, Qibray va Toshkent tumanlarida joylashgan binolar mustasno) soliq to‘lovchilar hisoblangan soliq summasini uch qavatli binoga nisbatan — 0,9, to‘rt qavatli binoga — 0,8, besh qavatli binoga — 0,7, olti qavatli binoga — 0,6, yetti va undan yuqori qavatli binoga — 0,5 pasaytiruvchi koeffitsiyent qo‘llanilgan holda, ushbu binolar foydalanishga topshirilgan oydan e’tiboran uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatda to‘laydi. Bunda ushbu qismda belgilangan pasaytiruvchi koeffitsiyent:

mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan yordamchi xonalarni, xususan, ofis uchun va o‘zi ishlab chiqargan mahsulotlarni realizatsiya qilish uchun xonalarni, tegishli kasbni egallash uchun tashkil etilgan o‘quv-ishlab chiqarish xonalarini hisobga olgan holda, agar ularning maydoni yangi qurilgan ko‘p qavatli ishlab chiqarish binosi umumiy maydonining 20 foizidan oshmasa;

agar binodan bir nechta xo‘jalik yurituvchi subyekt ishlab chiqarish maqsadlarida birgalikda foydalanayotgan bo‘lsa, binoning har bir mulkdori tomonidan qo‘llaniladi.

(414-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar. 2023-yil 1-yanvardan keyin foydalanishga topshirilgan yangi qurilgan ko‘p qavatli ishlab chiqarish binolariga nisbatan ham qo‘llaniladi)

415-modda. Soliq stavkalari

Soliq stavkasi, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, 1,5 foiz miqdorida belgilanadi.

(415-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Qurilishi normativ muddatda tugallanmagan obyektlarga nisbatan soliq stavkasi 3 foiz miqdorida belgilanadi.

(415-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2022-yil 1-iyuldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

(415-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuniga asosan 2023-yil 1-yanvardan chiqariladi — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2022-yil 1-iyuldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

Soliq stavkasi quyidagilarga nisbatan 0,7 foiz miqdorida belgilanadi:

(415-modda uchinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

1) umumiy foydalanishdagi temir yo‘llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo‘lgan inshootlar;

2) konservatsiya qilinishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan ko‘chmas mulk va tugallanmagan qurilish obyektlari.

416-modda. Soliq davri

Kalendar yil soliq davridir.

417-modda. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi

Soliq to‘lovchilar soliqni ushbu Kodeksning 412-moddasiga muvofiq aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.

Soliq hisoboti soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi soliq organiga yilda bir marta, soliq hisoboti davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay taqdim etiladi.

(417-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Agar ko‘chmas mulk, ushbu Kodeks 411-moddasining ikkinchi qismi 3-bandida ko‘rsatilgan obyektlardan tashqari, soliq to‘lovchining soliq bo‘yicha hisobga olish joyida joylashmagan bo‘lsa, soliq hisoboti ko‘chmas mulk joylashgan yerdagi soliq organlariga taqdim etiladi.

Soliq davri mobaynida soliq to‘lovchilar (bundan O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshirmaydigan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar mustasno) soliq bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarni to‘laydi.

Bo‘nak to‘lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to‘lovchilar joriy soliq davrining 20-yanvaridan kechiktirmay, yangi tashkil qilinganlari esa, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay soliq organlariga mo‘ljallanayotgan soliq bazasidan (tegishli yil uchun mol-mulkning o‘rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o‘rtacha yillik qiymatidan) va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani taqdim etadi. Soliq bo‘yicha majburiyatlari soliq davri mobaynida yuzaga kelgan soliq to‘lovchilar soliq summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadi.

(417-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Ushbu moddaning to‘rtinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan bo‘nak to‘lovlar quyidagicha to‘lanadi:

aylanmadan soliq to‘lovchilar tomonidan — yillik soliq summasining to‘rtdan bir qismi miqdorida yilning har choragi uchinchi oyining 20-kunidan kechiktirmay;

(417-modda oltinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

aylanmadan soliq to‘lovchilar hisoblanmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan — yillik soliq summasining o‘n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay. Bunda yanvar oyi uchun 20-yanvardan kechiktirmay to‘lanadi.

(417-modda oltinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son)

Soliq davri mobaynida mo‘ljallanayotgan soliq bazasi o‘zgargan taqdirda soliq to‘lovchi soliq summasi to‘g‘risida aniqlashtirilgan ma’lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun bo‘nak to‘lovlarga soliqning o‘zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davri uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi, bo‘nak to‘lovlar hisobga olingan holda, soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay budjetga o‘tkaziladi.

Soliq davrida soliq bo‘yicha bo‘nak to‘lovlar summasi soliq hisobotida ko‘rsatilgan budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq kamaytirilgan taqdirda, soliq organi bo‘nak to‘lovlarni soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshirmaydigan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan soliq har yili bir marta soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmay to‘lanadi.

60-bob. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i

418-modda. Soliq to‘lovchilar

Mulkida ushbu Kodeksning 419-moddasiga muvofiq soliq solish obyekti deb tan olinadigan mol-mulki bo‘lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan holdagi yoki etmagan holdagi dehqon xo‘jaliklari jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining soliq to‘lovchilari (bundan buyon ushbu bobda soliq to‘lovchilar deb yuritiladi) deb e’tirof etiladi.

Agar mol-mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo‘lmasa, shuningdek ko‘chmas mulk mulkdori vafot etgan taqdirda, bu mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo‘lsa, o‘sha shaxs soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

419-modda. Soliq solish obyekti

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi mol-mulk jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining (bundan buyon ushbu bobda soliq deb yuritiladi) soliq solish obyekti hisoblanadi.

1) uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari;

2) tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari;

3) qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo‘ljallanmagan obyektlar.

Qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo‘ljallanmagan obyektlarga ushbu obyektni qurishga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo‘lsa, ushbu obyektning qurilishiga vakolatli bo‘lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e’tiboran yigirma to‘rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi;

4) ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar.

(419-moddaning 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

420-modda. Soliq bazasi

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining kadastr qiymati soliq bazasi hisoblanadi.

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 26-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-iyuldagi 561-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqida tegishli bo‘lgan noturar ko‘chmas mulk obyektlarining kadastr qiymatini hisoblash tartibi to‘g‘risidagi nizom.

Soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi:

ushbu Kodeks 419-moddasining 1, 3 va 4-bandlarida nazarda tutilgan obyektlar bo‘yicha — qirq ikki million so‘mdan kam bo‘lishi mumkin emas;

ushbu Kodeks 419-moddasining 2-bandida nazarda tutilgan obyektlarning 1 kv. metri bo‘yicha — ushbu Kodeks 412-moddasi birinchi qismi 1-bandining to‘rtinchi, beshinchi va oltinchi xatboshilarida belgilangan eng kam qiymatdan past bo‘lishi mumkin emas. Bunda ushbu Kodeks 412-moddasi birinchi qismi 1-bandining yettinchi, sakkizinchi va to‘qqizinchi xatboshilari qoidalari ushbu Kodeks 419-moddasining 2-bandida nazarda tutilgan obyektlarga nisbatan ham tatbiq etiladi;

(420-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

davlat ko‘chmas mulk obyektini bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olgan xaridorga mol-mulk solig‘i, agar mazkur obyekt uchun unga “tasarruf etish huquqisiz” belgisini qo‘ygan holda davlat orderi berilgan bo‘lsa, obyektning xaridor tomonidan mazkur obyekt bo‘yicha sotib olish to‘lovlarining to‘langan qismiga mutanosib ravishdagi ulushga (foizga) teng o‘rtacha yillik qoldiq qiymati.

Bunda soliqlar davlat ko‘chmas mulk obyekti bo‘yicha sotib olish to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash grafigiga amal qilgan holda undiriladi. Ushbu grafik Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan Soliq qo‘mitasiga axborot tizimlari orqali taqdim etiladi.

(420-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 17-martdagi O‘RQ-1122-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi va beshinchi xatboshilar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.03.2026-y., 03/26/1122/0250-son)

Ushbu modda ikkinchi qismining uchinchi xatboshisi qoidalari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash, shuningdek ipak qurti yetishtirish uchun berilgan ko‘chmas mulk obyektlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

(420-modda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuniga asosan uchinchi qismi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo‘yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining bahosi mavjud bo‘lmagan taqdirda, mol-mulkning shartli qiymati Toshkent va Nukus shaharlarida, shuningdek viloyat markazlarida — ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan summaning besh baravari miqdorida, boshqa shaharlarda va qishloq joylarda esa — ikki baravari miqdorida soliq bazasi hisoblanadi.

(420-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish obyekti bo‘yicha soliq to‘lovchi bo‘lgan taqdirda, soliq bazasi har bir obyekt bo‘yicha alohida hisoblab chiqiladi.

421-modda. Soliq imtiyozlari

Quyidagilarning mulkida bo‘lgan mol-mulk soliq solishdan ozod etiladi:

1) “O‘zbekiston Qahramoni”, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning.

Mazkur imtiyoz tegishincha “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonunchilik bilan belgilanadigan, ularga tenglashtirilgan shaxslar.

Ushbu imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning yoxud boshqa vakolatli organning ma’lumotnomasi asosida, nogironligi bo‘lgan boshqa shaxslarga (qatnashchilarga) nogironligi bo‘lgan shaxsning (qatnashchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnomasi asosida beriladi.

(421-modda birinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-maydagi O‘RQ-770-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son)

3) sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoxud harbiy xizmatning yoki ichki ishlar organlaridagi va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasidagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yaralanganligi, kontuziya yoki mayib bo‘lganligi oqibatida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimlarining ota-onalari hamda beva xotinlari (beva erlari).

Ushbu imtiyoz “Halok bo‘lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)” yoki “Ichki ishlar organlari halok bo‘lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)”, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi halok bo‘lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)” shtampi qo‘yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi.

Agar mazkur shaxslar pensioner bo‘lmasa, soliq imtiyozi ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo‘mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining tegishli organlari va harbiy xizmat nazarda tutilgan boshqa idoralar tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organlari va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimining halok bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma asosida beriladi.

Tegishincha sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasidagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning yoki ichki ishlar organlari va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) soliq imtiyozi faqat ular yangi nikohdan o‘tmagan taqdirda beriladi.

(421-modda birinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-726-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son)

(O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan 421-modda birinchi qismi 4-bandining chiqarilish sanasi 2025-yil 1-yanvar — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son)

5) yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar. Mazkur imtiyoz yetim bolalarga va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga davlat tomonidan ajratiladigan uy-joy uchun ular yigirma uch yoshga to‘lguniga qadar amal qiladi.

(421-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan 5-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Quyidagi jismoniy shaxslarning mulkida bo‘lgan mol-mulk oltmish kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilinadi:

1) o‘n nafar va undan ortiq bolalari bor ota-onalaridan birining. Mazkur imtiyoz fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) pensionerlarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;

3) I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

Uy-joy fondining ko‘chmas mulk obyektlarida umumiy quvvati 100 kVtgacha bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar uchun soliq summasi qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari o‘rnatilgan oydan e’tiboran uch yil davomida, quyosh panellari quvvatidan 25 foizdan kam bo‘lmagan quvvatga ega elektr energiyasini to‘plash tizimi mavjud bo‘lgan quyosh panellari o‘rnatilganda esa mazkur panellar foydalanishga topshirilgan oydan e’tiboran o‘n yil davomida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan oshmaydigan summaga kamaytiriladi. Ushbu imtiyoz energiya ta’minoti tashkiloti tomonidan jismoniy shaxsning qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishi to‘g‘risida berilgan ma’lumotnomaga asosan uy-joy fondining bitta ko‘chmas mulk obyektiga nisbatan faqat bir marotaba taqdim etiladi va jismoniy shaxs tomonidan umumiy quvvati 1 kVtdan ortiq bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari o‘rnatilgan taqdirda qo‘llaniladi.

(421-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

Ushbu moddada ko‘rsatib o‘tilgan soliq imtiyozlariga ega bo‘lgan shaxslar soliq imtiyozini olishga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni soliq solish obyekti joylashgan yerdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etadi.

Ushbu moddada belgilangan soliq imtiyozlari mulkdorning tanloviga ko‘ra faqat bitta yashash uchun mo‘ljallangan ko‘chmas mulk obyektiga tatbiq etiladi, bundan ushbu moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar mustasno.

(421-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

422-modda. Soliq stavkalari. Soliq davri

Soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r

Soliq solish obyektlari

Soliq stavkalari, foizlarda

1.

Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar

0,36

2.

Shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiy maydoni:

200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan

0,48

500 kv.m dan ortiq bo‘lgan

0,64

3.

Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari

0,48

4.

Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari

1,5

(422-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan ro‘yxatga olinmagan yangi qurilgan uy-joylarga nisbatan soliq stavkasi ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan taqdim etilgan axborot asosida mulkning shartli qiymatiga nisbatan ikki baravar miqdorida qo‘llaniladi.

Hududlarning va faoliyat amalga oshiriladigan joylarning xususiyatlarini hisobga olgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari, viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan oraliqdagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar belgilashga haqli.

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona turar joydan unda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish) uchun foydalangan taqdirda, soliq ushbu modda birinchi qismining 1 — 3-bandlarida belgilangan

soliq stavkalari bo‘yicha to‘lanadi.

Normativ muddatda qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo‘ljallanmagan obyektlarga nisbatan soliq stavkasi 3 foiz miqdorida belgilanadi.

(422-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2022-yil 1-iyuldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

(422-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuniga asosan 2023-yil 1-yanvardan chiqariladi — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2022-yil 1-iyuldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

Kalendar yil soliq davridir.

423-modda. Soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi

Soliqni hisoblab chiqarish soliq solish obyekti joylashgan yerdagi soliq organlari tomonidan:

ushbu Kodeks 419-moddasining 1, 3 va 4-bandlarida nazarda tutilgan obyektlar bo‘yicha — ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organning ma’lumotlari asosida;

ushbu Kodeks 419-moddasining 2-bandida nazarda tutilgan obyektlar bo‘yicha — ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organning ma’lumotlari hamda ushbu Kodeks 420-moddasi ikkinchi qismining uchinchi xatboshisi va uchinchi qismi asosida amalga oshiriladi.

(423-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Soliq summasi 1-yanvar holatiga ko‘ra ushbu Kodeksning 420-moddasiga muvofiq aniqlangan soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

(423-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Soliq to‘lovchi tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari joylashgan yerdagi soliq organlariga baholovchi tashkilotlar tomonidan o‘tkazilgan, shu jumladan o‘tgan ikki yil ichida o‘tkazilgan mustaqil baholash natijalarini (mavjud bo‘lgan taqdirda), shuningdek qonunchilikda belgilangan eng kam qiymat tatbiq etilmaydigan ko‘chmas mulk obyektlari ro‘yxatini taqdim etishga haqli.

(423-modda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuniga asosan uchinchi qismi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Bir necha mulkdorlarining umumiy ulushli mulki bo‘lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun soliq har bir mulkdor tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to‘lanadi.

Mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o‘tgan taqdirda, soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1-yanvaridan e’tiboran u mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini yo‘qotgan oyning boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa, unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e’tiboran to‘lanadi.

Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo‘yicha soliq mulk huquqi yuzaga kelgan oydan e’tiboran to‘lanadi.

Meros bo‘yicha o‘tgan mol-mulk uchun soliq merosxo‘rda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e’tiboran to‘lanadi.

Soliq solish obyekti yo‘q qilingan, vayron bo‘lgan yoki buzib tashlangan taqdirda, soliqni undirish mol-mulk yo‘q qilingan, vayron bo‘lgan yoki buzib tashlangan oydan e’tiboran tugatiladi. Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo‘q qilinganlik, vayron bo‘lganlik yoki buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, amalga oshiriladi.

(423-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-1109-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2025-y., 03/25/1109/1241-son)

Kalendar yil mobaynida imtiyozlarga bo‘lgan huquq vujudga kelgan (tugagan) taqdirda, soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan (tugagan) oydan e’tiboran amalga oshiriladi.

Soliqni to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasi soliq organlari tomonidan soliq to‘lovchilarga imzo qo‘ydirilgan holda yoki mavjud bo‘lgan taqdirda, soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga elektron tarzda, soliq to‘lovchining nomiga

rasmiylashtirilgan uyali telefon raqamiga va soliq organlarining maxsus mobil ilovasiga SMS-xabarnoma tarzida, shuningdek to‘lov xabarnomasi olinganligini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda har yili 1-martdan kechiktirmay topshiriladi.

(423-moddaning o‘ninchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Soliq davri uchun soliqni to‘lash teng ulushlarda 15-aprelga va 15-oktabrga qadar amalga oshiriladi.

XVI BO‘LIM
YER SOLIG‘I

61-bob. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i

424-modda. Umumiy qoidalar

Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun budjetga to‘lovlar yer solig‘i yoki yer uchun ijara to‘lovi tarzda amalga oshiriladi.

Tuman (shahar) hokimi, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda doimiy foydalanish huquqiga ega bo‘lgan davlat organlari, muassasalari va tashkilotlari bilan tuzilgan hamda ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazadigan organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilgan yer uchastkasining ijara shartnomasi asosida berilgan yer uchastkalari uchun to‘lanadigan ijara to‘lovi yer solig‘iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar uchun belgilangan soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi tatbiq etiladi.

(424-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Yuridik shaxslar mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yer solig‘i to‘laydi.

425-modda. Soliq to‘lovchilar

Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar (bundan buyon ushbu bobda soliq to‘lovchilar deb yuritiladi) deb e’tirof etiladi.

Ko‘chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi. Bunda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga muvofiq moliyaviy ijaraga (lizing) berilgan (olingan) ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha ijaraga oluvchi (lizing oluvchi) soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o‘z ulushi uchun soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

426-modda. Soliq solish obyekti

Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yuridik shaxslarda bo‘lgan yer uchastkalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining (bundan buyon ushbu bobda soliq deb yuritiladi) soliq solish obyektidir.

Quyidagi yer uchastkalari soliq solish obyekti sifatida hisoblanmaydi:

1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyati doirasida foydalaniladigan yerlar;

2) aholi punktlarining, bog‘dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi yerlari (maydonlar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, yo‘llar, shoxobcha yo‘llar, sug‘orish tarmoqlari, kollektorlar, sohil bo‘yi yerlari va boshqa shu kabi umumiy foydalanishdagi yerlar);

3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, shu jumladan pulli avtomobil yo‘llari egallagan yerlar;

(426-modda ikkinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 5-avgustdagi O‘RQ-1162-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.08.2026-y., 03/26/1162/0821-son)

4) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, istirohat bog‘lari, sayilgohlar, xiyobonlar, aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun belgilangan joylar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar);

(426-modda ikkinchi qismining 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

5) davlat qo‘riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo‘riqxonalarining, tabiat bog‘larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo‘riqxonalarning (bundan ovchilik xo‘jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo‘riqxonalar mustasno), tabiiy pitomniklarning, davlat biosfera rezervatlarining, milliy bog‘larning yerlari;

6) sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika hamda davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo‘lgan yer uchastkalari;

7) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar – aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yer uchastkalari;

8) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan moddiy madaniy meros obyektlari, xotira bog‘lari egallagan yer uchastkalari;

9) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

10) yuridik shaxs balansida bo‘lgan va fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan obyektlar egallagan yerlar;

11) kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy, qurilish va boshqa chiqindilarni yig‘ish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizatsiya qilish joylari);

(426-modda ikkinchi qismining 11-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

12) ko‘p kvartirali uylar va yotoqxonalar egallagan yerlar, shuningdek ko‘p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalari, bundan yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari egallagan yer uchastkalari mustasno;

(426-modda ikkinchi qismining 12-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-773-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/773/0461-son)

13) suv fondi;

14) zaxiralar;

15) geologiya-qidiruv va (yoki) izlanish ishlarini o‘tkazish uchun ajratilgan yer uchastkalari;

(426-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan 15-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

16) “Mahalla servis” kompaniyalari egaligida bo‘lgan mahallalarni obod qilish bilan bog‘liq ishlarni bajarish hamda mahallalar aholisiga qonunchilikda belgilangan ayrim turdagi ijtimoiy ahamiyatli pulli xizmatlar ko‘rsatishga mo‘ljallangan binolar joylashgan yer uchastkalari;

(426-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-iyundagi O‘RQ-1071-sonli Qonuniga asosan 16-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.06.2025-y., 03/25/1071/0545-son)

> **Izoh.** 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

17) O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi muassisligida davlat muassasasi shaklida tuzilgan hududiy yaylov xo‘jaliklarining doimiy foydalanishdagi yaylov yerlari.

(426-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1104-sonli Qonuniga asosan 17-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1104/1213-son)

Agar ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan yer uchastkalari xo‘jalik faoliyatini yuritish uchun foydalanilsa, ular ushbu bobda belgilangan tartibda soliq solish obyekti hisoblanadi.

427-modda. Soliq bazasi

Quyidagilar soliq bazasidir:

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha — ushbu Kodeksning 428-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holda, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkasining umumiy maydoni;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha — ushbu Kodeksning 428-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonunchilikka muvofiq aniqlangan normativ qiymati;

(427-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

davlat ko‘chmas mulk obyektini bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olgan xaridorga mazkur obyekt egallagan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchun soliq, agar mazkur obyektga “tasarruf etish huquqisiz” belgisini qo‘ygan holda davlat orderi berilgan bo‘lsa, yer uchastkasining xaridor tomonidan mazkur obyekt bo‘yicha sotib olish to‘lovlarining to‘langan qismiga mutanosib ravishdagi ulushga (foizga) teng maydoni.

Bunda soliqlar davlat ko‘chmas mulk obyekti bo‘yicha sotib olish to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash grafigiga amal qilgan holda undiriladi. Ushbu grafig Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan Soliq qo‘mitasiga axborot tizimlari orqali taqdim etiladi.

(427-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 17-martdagi O‘RQ-1122-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi va beshinchi xatboshilar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.03.2026-y., 03/26/1122/0250-son)

Yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to‘lovchiga o‘tgan bo‘lsa, soliq bazasi yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e’tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq bazasi yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e’tiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda soliq imtiyoziga bo‘lgan huquq vujudga kelgan taqdirda, soliq bazasi ushbu huquq vujudga kelgan oydan e’tiboran kamaytiriladi. Soliq imtiyoziga bo‘lgan huquq bekor qilingan taqdirda, soliq bazasi ushbu huquq tugatilganidan keyingi oydan e’tiboran hisoblab chiqariladi (ko‘paytiriladi).

Soliq to‘lovchi soliq to‘lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirganda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan yer uchastkasi bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo‘lmaganda, soliq bazasi soliqni to‘lash nazarda tutilgan faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiy sof tushum hajmidagi ulushidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

428-modda. Soliq imtiyozlari

(O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan 428-modda birinchi qismining chiqarilish sanasi 2025-yil 1-yanvar — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son)

Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlash (bundan turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort obyektlari band qilgan yerlar mustasno) va ijtimoiy ta’minot obyektlari egallagan yerlar;

(428-modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

sport va jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish majmualari, o‘quv-mashq bazalari va bolalar-sog‘lomlashtirish oromgohlari egallagan yerlar;

(428-modda ikkinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

shahar elektr transporti yo‘llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

aholi punktlarining suv ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish inshootlari (magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, oqova suvlarni chiqarib yuborish kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stansiyalari, suv olish va tozalash inshootlari, vodoprovod va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dyukerlari, suv bosimi hosil qiladigan minoralar hamda shunga o‘xshash inshootlar egallagan yerlar);

(428-modda ikkinchi qismining beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 29-avgustdagi O‘RQ-951-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.08.2024-y., 03/24/951/0673-son)

magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos (ko‘paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj) stansiyalari, issiq suv ta’minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, sirkulyatsiya nasoslari hamda shunga o‘xshash inshootlar egallagan yerlar;

ihota o‘rmon daraxtzorlari egallagan yerlar. Ihota o‘rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o‘rmonlarning daryolar, ko‘llar, suv omborlari va boshqa suv obyektlari sohillari bo‘ylab o‘tgan taqiqlangan mintaqalari; o‘rmonlarning ovlanadigan qimmatli baliqlar uvildiriq sochadigan joylarni muhofaza qiluvchi taqiqlangan mintaqalari; eroziyadan saqlaydigan o‘rmonlar; o‘rmonlarning temir yo‘llar va avtomobil yo‘llari yoqalab o‘tgan ihota mintaqalari; cho‘l va chala cho‘l zonalaridagi o‘rmonlar; shahar o‘rmonlari va o‘rmon-bog‘lari; shaharlar, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining ko‘kalamzorlashtirilgan zonalari atrofidagi o‘rmonlar; suv ta’minoti manbalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish zonalaridagi o‘rmonlar; kurort tabiiy hududlarni sanitariya jihatidan muhofaza qilish tegrasidagi o‘rmonlar; alohida qimmatga ega bo‘lgan o‘rmonlar; ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘rmonlar;

suvni tejaydigan (tomchilatib, yomg‘irlatib, diskret va boshqa) sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan yerlar — suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan oyning boshidan e’tiboran besh yil muddatga. Ushbu imtiyoz suvdan foydalanish va suv iste’moli sohasidagi vakolatli organning xulosasi asosida beriladi. Agarda suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan oyning boshidan boshlab besh yil davomida foydalanishga yaroqsiz bo‘lgan yoki demontaj qilingan bo‘lsa, soliq imtiyozi butun soliq davri uchun soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatlarning tiklanishi bilan bekor qilinadi;

(428-modda ikkinchi qismining sakkizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun yangi o‘zlashtirilayotgan yerlar — vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ularni o‘zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o‘zlashtirilgan vaqtdan e’tiboran besh yil mobaynida;

melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug‘oriladigan yerlar — vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ishlar boshlanganidan e’tiboran besh yil muddatga;

(O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan 428-modda birinchi qismi o‘n birinchi xatboshisining chiqarilish sanasi 2025-yil 1-yanvar — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son)

ilmiy tashkilotlarning, qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o‘quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o‘quv-tajriba xo‘jaliklarining bevosita ilmiy hamda o‘quv maqsadlari uchun foydalaniladigan qishloq xo‘jaligi ahamiyatiga molik bo‘lgan yerlar va o‘rmon fondining yerlari. Ushbu xatboshiga muvofiq ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlarning seleksiyasi o‘tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o‘quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalari soliq to‘lashdan ozod qilinadi.

(428-modda birinchi qismining o‘n birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 17-apreldagi O‘RQ-1131-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.04.2026-y., 03/26/1131/0377-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 19-iyul)

qishloq joylarda joylashgan (bundan shaharlar va tumanlarning markazlari mustasno) antenna-machta metall konstruksiyalari, shuningdek ularga o‘rnatilgan hamda ularning ajralmas qismi bo‘lgan konstruksiyalar egallagan yer uchastkalari;

(428-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 26-iyuldagi O‘RQ-785-sonli Qonuniga asosan o‘n uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.07.2022-y., 03/22/785/0679-son — ushbu xatboshining qoidalari 2022-yil 1-apreldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy quvvati quyidagicha bo‘lgan alohida turuvchi qurilmalari bilan band bo‘lgan yer uchastkalari:

100 kVtgacha — qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari foydalanishga topshirilgan oydan e’tiboran uch yil muddatga, quyosh panellari quvvatidan 25 foizdan kam bo‘lmagan quvvatga ega elektr energiyasini to‘plash tizimi mavjud bo‘lgan quyosh panellari o‘rnatilganda esa — ushbu panellar foydalanishga topshirilgan oydan e’tiboran o‘n yil muddatga;

100 kVt va undan ko‘proq — ular foydalanishga topshirilgan oydan e’tiboran o‘n yil muddatga.

(428-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan o‘n uchinchi, o‘n to‘rtinchi va o‘n beshinchi xatboshilar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

Yangi barpo etilayotgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yer uchastkalari (daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat’i nazar) uchun besh yil muddatga 50 foizga kamaytirilgan soliq stavkasi bo‘yicha soliq to‘lanadi. Bunda vakolatli organ tomonidan bog‘lar va tokzorlarni iqtisodiy jihatdan samarasiz va hosildorligi past deb topish to‘g‘risidagi xulosa berilgan kundan e’tiboran o‘n ikki oy ichida yangi bog‘lar va tokzorlar barpo etilmagan yer uchastkalariga nisbatan soliq stavkasi uch baravar miqdorda oshirilgan holda belgilanadi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan soliq imtiyozi muddatini hisoblash kuzda yangi o‘tqazilgan ko‘chatlar uchun keyingi yilning 1-yanvaridan e’tiboran, bahorda yangi o‘tqazilgan ko‘chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1-yanvaridan e’tiboran boshlanadi.

Ushbu moddada belgilangan soliq imtiyozlari bevosita mo‘ljallanilgan maqsadda foydalanilmayotgan yer uchastkalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

(428-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qismlar bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

429-modda. Soliq stavkalari

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun bazaviy soliq stavkalari respublika hududlari kesimida 1 gektar uchun mutlaq o‘lchamda quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

Respublika hududlari

1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi (mln so‘mda)

Toshkent shahri:

1 zona

2 zona

3 zona

4 zona

5 zona

319,0

254,2

196,6

130,6

65,9

Qoraqalpog‘iston Respublikasi

41,2

Andijon viloyati

51,8

Buxoro viloyati

42,4

Jizzax viloyati

42,4

Qashqadaryo viloyati

42,4

Navoiy viloyati

42,4

Namangan viloyati

51,8

Samarqand viloyati

51,8

Surxondaryo viloyati

37,7

Sirdaryo viloyati

31,8

Toshkent viloyati

43,5

Farg‘ona viloyati

43,5

Xorazm viloyati

42,4

(429-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalarining aniq miqdori quyidagi tartibda aniqlanadi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda, ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan bazaviy soliq stavkalari asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilaydi;

tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari, ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida belgilangan soliq stavkalariga, Toshkent shahri uchun esa — ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan bazaviy soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida kiritadi.

(429-modda O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan joriy soliq davri uchun soliq stavkalari qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlariga har yili 10-yanvarga qadar taqdim etiladi. Yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlari ushbu soliq stavkalarini besh kun ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazishlari kerak.

(429-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar uchun soliq stavkalari qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda belgilanadi.

(429-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarining dala chetlaridagi kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi qonunchilikka muvofiq qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish belgilangan maydonlarida har yili 1-mayga qadar maqbul ekin ekilmaganligi to‘g‘risida ushbu Kodeks 133-moddasining to‘rtinchi qismiga binoan taqdim etilgan axborotga asosan mazkur yer uchastkasining maqbul ekin ekilmagan qismi uchun joriy yilgi yer solig‘i stavkasi uch baravar miqdorda oshirilgan holda hisoblanadi.

(429-modda O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 13-apreldagi O‘RQ-1128-sonli Qonuniga asosan beshinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 03/26/1128/0349-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 14-iyul)

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun belgilangan stavkaga nisbatan 0,5 dan 1,2 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llashga haqli.

Issiqxona xo‘jaliklari egallagan yerlar uchun soliq qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga nisbatan belgilangan stavkalarda to‘lanadi. Bunda mazkur yer uchastkalarining normativ qiymati qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlanadi.

(429-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan beshinchi va oltinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

> **Izoh.** 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari balansida bo‘lgan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash, shuningdek ipak qurti yetishtirishda foydalaniladigan binolar va inshootlar joylashgan yerlar (bundan ijara huquqi asosida foydalanilayotgan yer uchastkalarida joylashgan va imtiyozlar tatbiq etiladigan obyektlar mustasno) uchun soliq xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 0,2 koeffitsiyent qo‘llanilgan holda to‘lanadi.

(429-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan beshinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar. 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

Yagona ishtirokchilari nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalaridan iborat bo‘lgan va xodimlar umumiy sonining kamida 50 foizini nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkil etadigan hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnatiga haq to‘lash fondi mehnatga haq to‘lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan egallangan yer uchastkalariga nisbatan soliq stavkalariga 0,1 koeffitsiyent qo‘llaniladi.

(429-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1104-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1104/1213-son)

Quyidagilar egallagan yer uchastkalari uchun soliq stavkasiga 0,48 koeffitsiyent qo‘llaniladi:

(429-modda to‘qqizinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

(429-modda oltinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

elektr uzatish liniyalari, ularning podstansiyalari va inshootlari egallagan yerlar;

umumdavlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirgakli liniyalar va radiofikatsiyalar, yer osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signalli va harakatsiz belgilar, radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko‘rsatilmaydigan kuchaytirgich punktlari, taqsimlagich shkaflar, yerga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar;

umumiy foydalanishdagi temir yo‘llar, shu jumladan tuproq ko‘tarmasi, sun’iy inshootlar, liniya-yo‘l binolari, temir yo‘l aloqasi hamda elektr ta’minoti qurilmalari, inshootlar va yo‘l qurilmalaridan iborat temir yo‘l stansiyalari hamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temir yo‘l transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;

magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan kompressor, nasos stansiyalari, yong‘inga qarshi va avariyaga qarshi stansiyalar, quvurlarni katodli himoyalash stansiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, quvurlarni tozalash qurilmalari hamda shunga o‘xshash inshootlar band etgan yerlar;

samolyotlarning uchish-qo‘nish maydonlari, yerda boshqarish yo‘lkalari va to‘xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr yoritish uskunalari egallagan yerlar;

O‘zbekiston Respublikasining rivojlantirish Davlat dasturlariga kiritilgan obyektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar — qurilishning normativ muddati davrida;

konservatsiyaga qo‘yilishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan obyektlar egallagan yerlar — ularning konservatsiyasi davrida.

Ushbu moddaning sakkizinchi va to‘qqizinchi qismlari belgilangan tartibda yuridik shaxslarga ajratilgan yer uchastkalariga nisbatan qo‘llaniladi.

(429-moddaning o‘ninchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Bunda ushbu modda to‘qqizinchi qismining ikkinchi — beshinchi xatboshilarida nazarda tutilgan obyektlarga nisbatan respublikaning har bir tumani va shahari bo‘yicha o‘rtacha belgilangan soliq stavkasiga nisbatan 0,48 koeffitsiyent qo‘llaniladi. Har bir tuman va shahar bo‘yicha o‘rtacha soliq stavkasi qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yer uchastkasi joylashgan joydagi soliq organlari tomonidan xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari belgilagan soliq stavkalari asosida aniqlanadi hamda ular har yili 5-yanvarga qadar soliq to‘lovchilar e’tiboriga yetkaziladi.

(429-moddaning o‘n birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasining, yerdan foydalanuvchining yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo‘jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet bali pasaygan) taqdirda, soliq yuridik shaxslar tomonidan yerning sifati yomonlashguniga qadar mavjud bo‘lgan bonitent balidan kelib chiqkan holda to‘lanadi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarining sifati yaxshilangan taqdirda (bonitet bali oshganda), soliq yuridik shaxslar tomonidan tuproq bonitirovkasi o‘tkazilgan yildan keyingi yilning boshidan yangi bonitet balidan kelib chiqqan holda, qishloq xo‘jaligi yerlarining normativ qiymati bo‘yicha, agrotexnik tadbirlar tugagan davrlarda qayta hisob-kitob qilinmasdan to‘lanadi.

(O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan 429-modda o‘n ikkinchi qismining chiqarilish sanasi 2025-yil 1-yanvar — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son)

Qurilishi tugallanmagan obyektlar egallagan yer uchastkalari uchun, agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq ikki baravar soliq stavkalari bo‘yicha to‘lanadi, shuningdek qonunchilikda belgilangan soliq imtiyozlari va kamaytiruvchi koeffitsiyentlar mazkur yer uchastkalarida qurilish tugallanguniga qadar ularga nisbatan tatbiq etilmaydi.

(429-moddaning o‘n ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

(429-moddaning o‘n uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2022-yil 1-iyuldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

Tugallanmagan qurilish obyektlari jumlasiga ushbu qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo‘lsa, ushbu obyektlarning qurilishiga vakolatli bo‘lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e’tiboran yigirma to‘rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi.

Yer maydonlaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko‘rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining to‘rt baravari miqdorida belgilanadi.

Konlar va karyerlar band etgan yerlar uchun soliq tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari belgilagan soliq stavkalariga nisbatan 0,1 koeffitsiyent, lalmi-yaylov zonada joylashgan yerlar uchun esa — 0,05 koeffitsiyent qo‘llanilgan holda to‘lanadi.

(429-moddaning o‘n to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-714-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.09.2021-y., 03/21/714/0874-son — 2021-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

Lalmi-yaylov zonada joylashgan yerlar uchun soliq tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari belgilagan soliq stavkalariga nisbatan 0,3 koeffitsiyent qo‘llanilgan holda to‘lanadi, bundan ushbu moddaning o‘n yettinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

(429-moddaning o‘n sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

430-modda. Soliq davri

Kalendar yil soliq davridir.

431-modda. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Soliq har bir soliq davrining 1-yanvariga bo‘lgan holatga ko‘ra hisoblab chiqariladi va soliq hisoboti yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organiga quyidagi muddatlarga taqdim etiladi:

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha — joriy soliq davrining 20-yanvaridan kechiktirmay;

(431-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha — joriy soliq davrining 1-mayidan kechiktirmay.

(431-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Soliq to‘lovchilar soliqni ushbu Kodeksning 427-moddasiga muvofiq aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.

Soliq bazasi (hisoblab chiqarilgan soliq summasi) soliq davri mobaynida o‘zgarish bo‘lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida soliq organiga aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etishi shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining umumiy maydonida va tarkibida o‘zgarishlar yuz bergan yuridik shaxslar qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlari bo‘yicha aniqlashtirilgan soliq hisobotini joriy yilning 1-dekabriga qadar taqdim etadi.

Ushbu Kodeks 426-moddasining ikkinchi qismida ko‘rsatilgan obyektlar joylashgan yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar joriy soliq davrining 20-yanvaridan kechiktirmay mazkur obyektlarning joylashgan yeri bo‘yicha soliq organlariga soliq solish obyekti hisoblanmaydigan, yuridik shaxsda mavjud bo‘lgan yer uchastkalari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan shakldagi ma’lumotnomani taqdim etadi.

(431-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Ko‘p kvartirali uylarda joylashgan turar joy bo‘lmagan ko‘chmas mulk obyektlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalari bo‘yicha soliq turar joy bo‘lmagan ko‘chmas mulk obyektining qavatlar soniga bo‘lingan maydonidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

(431-modda O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuniga asosan oltinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

432-modda. Soliqni to‘lash tartibi

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun soliqni to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi:

aylanmadan soliq to‘lovchilar uchun − yillik soliq summasining to‘rtdan bir qismi miqdorida, har chorak uchinchi oyining 20-sanasidan kechiktirmay;

(432-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

aylanmadan soliq to‘lovchi bo‘lmagan soliq to‘lovchilar uchun — yillik soliq summasining o‘n ikkidan bir qismi miqdorida, har oyning 10-sanasidan kechiktirmay. Bunda yanvar oyi uchun 20-yanvardan kechiktirmay amalga oshiriladi.

(432-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Soliq davri davomida soliq to‘lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to‘lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun soliqni to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi:

hisobot yilining 1-sentabriga qadar — yillik soliq summasining 30 foizi;

hisobot yilining 1-dekabriga qadar — soliqning qolgan summasi.

62-bob. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i

433-modda. Soliq to‘lovchilar

Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan yoki etmagan holdagi dehqon xo‘jaliklari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini soliq to‘lovchilari (bundan buyon ushbu bobda soliq to‘lovchi deb yuritiladi) deb e’tirof etiladi.

Tuman (shahar) hokimi, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda doimiy foydalanish huquqiga ega bo‘lgan davlat organlari, muassasalari va tashkilotlari bilan tuzilgan hamda ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazadigan organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilgan yer uchastkasining ijara shartnomasi asosida berilgan yer uchastkalari uchun to‘lanadigan ijara to‘lovi yer solig‘iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga nisbatan jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar uchun belgilangan soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi tatbiq etiladi.

(433-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Uy-joy, yashash uchun mo‘ljallanmagan imoratlar va inshootlar meros bo‘yicha o‘tishi bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi o‘tgan yer uchastkalari uchun yer solig‘i meros qoldiruvchining soliq majburiyatlarini inobatga olgan holda merosxo‘rlardan undiriladi.

434-modda. Soliq solish obyekti

Quyidagi yer uchastkalari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining (bundan buyon ushbu bobda soliq deb yuritiladi) soliq solish obyektidir:

1) jismoniy shaxslarga qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun, shuningdek dehqon xo‘jaligini yuritish uchun belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalari;

(434-modda birinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

2) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalari;

(434-modda birinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 6-iyundagi O‘RQ-775-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son)

3) jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi va jamoa garajlari egallagan yer uchastkalari;

(434-modda birinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

4) xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;

5) meros bo‘yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o‘tgan yer uchastkalari;

6) qonunchilikda belgilangan tartibda mulk qilib sotib olingan yer uchastkalari;

(434-modda birinchi qismining 6-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

7) tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Ko‘p kvartirali uylar egallagan va ko‘p kvartirali uylar mulkdorlariga umumiy foydalanish (notijorat maqsadlarda) uchun doimiy foydalanish huquqi asosida berilgan ko‘p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalari soliq solish obyekti bo‘lmaydi, bundan ushbu modda birinchi qismining 7-bandida ko‘rsatilgan yer uchastkalari va ko‘p kvartirali uylarda joylashgan yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari mustasno.

(434-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

435-modda. Soliq bazasi

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organning ma’lumotlari bo‘yicha yer uchastkalarining maydoni soliq bazasidir.

Jismoniy shaxslarga berilgan, shuningdek dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha soliq bazasi ushbu Kodeks 428-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonunchilikka muvofiq aniqlangan normativ qiymatidir. Bunda yer uchastkalarining normativ qiymati tegishincha tumanning (shaharning) sug‘oriladigan yoki sug‘orilmaydigan yerlari uchun o‘rtacha hisobda aniqlanadi.

(435-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi va jamoa garajlari egallagan yer uchastkalari bo‘yicha soliq bazasi ushbu yer uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma’lumotlari bo‘yicha aniqlanadi.

(435-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Xizmat yuzasidan berilgan chek yer maydonlari bo‘yicha soliq bazasi o‘z xodimlariga yer uchastkalarini bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma’lumotlari bo‘yicha aniqlanadi.

Davlat ko‘chmas mulk obyektini bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olgan xaridorga mazkur obyekt egallagan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchun soliq, agar mazkur obyektga “tasarruf etish huquqisiz” belgisini qo‘ygan holda davlat orderi berilgan bo‘lsa, yer uchastkasining xaridor tomonidan mazkur obyekt bo‘yicha sotib olish to‘lovlarining to‘langan qismiga mutanosib ravishdagi ulushga (foizga) teng maydoni.

Bunda soliqlar davlat ko‘chmas mulk obyekti bo‘yicha sotib olish to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash grafigiga amal qilgan holda undiriladi. Ushbu grafik Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan Soliq qo‘mitasiga axborot tizimlari orqali taqdim etiladi.

(435-modda O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 17-martdagi O‘RQ-1122-sonli Qonuniga asosan beshinchi va oltinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.03.2026-y., 03/26/1122/0250-son)

436-modda. Soliq imtiyozlari

Soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) “O‘zbekiston Qahramoni”, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar. Mazkur imtiyoz “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘limining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonunchilik bilan belgilanadigan, ularga tenglashtirilgan shaxslar. Ushbu imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning yoxud boshqa vakolatli organning ma’lumotnomasi asosida, nogironligi bo‘lgan boshqa shaxslarga (qatnashchilarga) nogironligi bo‘lgan shaxsning (qatnashchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnomasi asosida beriladi;

(436-modda birinchi qismining 2-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-maydagi O‘RQ-770-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son)

3) I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

(436-modda birinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-maydagi O‘RQ-770-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son)

4) yolg‘iz pensionerlar. Yolg‘iz yoki voyaga yetmagan bolalari bilan yoxud nogironligi bo‘lgan bolasi bilan birga alohida uyda yashovchi pensionerlar yolg‘iz pensionerlar deb tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limining ma’lumotnomasi, shuningdek fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

(436-modda birinchi qismining 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-maydagi O‘RQ-770-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son)

5) boquvchisini yo‘qotgan ko‘p bolali oilalar. Ota va onadan biri yoxud ota-ona vafot etgan ko‘p bolali oilalar soliq solish maqsadida boquvchisini yo‘qotgan ko‘p bolali oilalardir. Ushbu imtiyoz O‘zbekiston Respublikasi Moliya

vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

(436-modda birinchi qismining 5-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-oktabrdagi O‘RQ-640-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

6) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan) fuqarolar. Mazkur imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi, nogironligi bo‘lgan shaxsning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo‘ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;

(O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan 436-modda birinchi qismi 7-bandining chiqarilish sanasi 2025-yil 1-yanvar — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son)

Uy-joy fondining ko‘chmas mulk obyektlarida umumiy quvvati 100 kVtgacha bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar uchun soliq summasi qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari o‘rnatilgan oydan e’tiboran uch yil davomida, quyosh panellari quvvatidan 25 foizdan kam bo‘lmagan quvvatga ega elektr energiyasini to‘plash tizimi mavjud bo‘lgan quyosh panellari o‘rnatilganda esa mazkur panellar foydalanishga topshirilgan oydan e’tiboran o‘n yil davomida bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan oshmaydigan summaga kamaytiriladi. Ushbu imtiyoz energiya ta’minoti tashkiloti tomonidan jismoniy shaxsning qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishi to‘g‘risida berilgan ma’lumotnomaga asosan uy-joy fondining ko‘chmas mulk obyektlari bilan band bo‘lgan bitta yer uchastkasiga nisbatan faqat bir marotaba taqdim etiladi va jismoniy shaxs tomonidan umumiy quvvati 1 kVtdan ortiq bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari o‘rnatilgan taqdirda qo‘llaniladi.

(436-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

Ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan soliq imtiyozlari, bundan 5-bandda ko‘rsatilgani mustasno, yakka tartibdagi uy-joy qurilishi, dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organda ro‘yxatdan o‘tkazgan jismoniy shaxslarga beriladi. Bunda mazkur soliq imtiyozlari soliq to‘lovchining tanlovi bo‘yicha faqat bitta yer uchastkasiga berilishi mumkin, bundan ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar mustasno.

(436-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

Ushbu moddada ko‘rsatilgan soliq imtiyozlariga ega bo‘lgan shaxslar soliq imtiyozlarini olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarini yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etadi.

437-modda. Soliq stavkalari

Respublika hududlari kesimida bazaviy soliq stavkalari 1 kv. m uchun mutlaq o‘lchamda quyidagi miqdorlarda belgilanadi (bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun, shuningdek jismoniy shaxslarga berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalari mustasno):

Respublika hududlari

1 kv. m uchun bazaviy soliq stavkasi (so‘mda)

Toshkent shahri:

1 zona

2 zona

3 zona

4 zona

5 zona

1 856

1 574

1 290

1 014

725

Qoraqalpog‘iston Respublikasi

377

Andijon viloyati

463

Buxoro viloyati

377

Jizzax viloyati

377

Qashqadaryo viloyati

377

Navoiy viloyati

377

Namangan viloyati

463

Samarqand viloyati

463

Surxondaryo viloyati

353

Sirdaryo viloyati

297

Toshkent viloyati

392

Farg‘ona viloyati

392

Xorazm viloyati

377

(437-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Soliq stavkalarini aniq miqdori quyidagi tartibda belgilanadi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda, ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan bazaviy soliq stavkalari asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilaydi;

tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida belgilangan soliq stavkalariga Toshkent shahri uchun esa — ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan bazaviy soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida kiritadi.

(437-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan joriy soliq davri uchun soliq stavkalari qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlariga har yili 10-yanvarga qadar taqdim

etiladi.

(437-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun belgilangan stavkaga nisbatan 0,5 dan 1,2 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar qo‘llashga haqli.

Issiqxona xo‘jaliklari egallagan yerlar uchun soliq qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga nisbatan belgilangan stavkalarda to‘lanadi. Bunda mazkur yer uchastkalarining normativ qiymati qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlanadi.

(437-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi va beshinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

> **Izoh.** 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Jismoniy shaxslarga berilgan, shuningdek dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga soliq stavkasi qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda belgilanadi. Bunda qishloq xo‘jaligi yerlarining sifati yomonlashganda yoki yaxshilanganda (ball boniteti pasayganda yoki oshganda) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan dehqon xo‘jaliklariga va jismoniy shaxslarga nisbatan ushbu Kodeks 429-moddasining o‘n uchinchi va o‘n to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan tartib tatbiq etiladi.

(437-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 13-apreldagi O‘RQ-1128-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 03/26/1128/0349-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 14-iyul)

Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yoxud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo‘lgan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari egallagan yer uchastkalari uchun soliq jismoniy shaxslardan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lash uchun belgilangan soliq stavkalari bo‘yicha undiriladi hamda ushbu Kodeksning 436-moddasida ko‘rsatilgan imtiyozlar ularga nisbatan tatbiq etilmaydi.

(437-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuniga asosan 2023-yil 1-yanvardan chiqariladi — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2022-yil 1-iyuldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona yer uchastkasidan unda joylashgan uyda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish) uchun foydalangan taqdirda, soliq jismoniy shaxslar uchun belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha to‘lanadi.

Yakka tartibda uy-joy qurish va turar joyni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalarining tomorqa qismiga qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish yoki uni obodonlashtirish amalga oshirilmagan taqdirda soliq uch baravar miqdorda to‘lanadi.

Yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko‘rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda, soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining uch baravari miqdorida belgilanadi.

Jismoniy shaxslarga yakka tartibdagi turar joy qurish va obodonlashtirishga berilgan tomorqa yer uchastkalariga yakka tartibdagi uy-joy qurishga berilgan yer uchastkalari uchun belgilangan stavka qo‘llaniladi.

(437-modda O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuniga asosan o‘ninchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

438-modda. Soliq davri

Kalendar yil soliq davri hisoblanadi.

439-modda. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi

Soliqni hisoblab chiqarish yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organlari tomonidan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organning ma’lumotlari asosida, jismoniy shaxslarga berilgan, shuningdek dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha esa qishloq xo‘jaligi

ekinzorlarining normativ qiymatini aniqlovchi organning ma’lumotlariga asosan, ushbu Kodeks 435-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

(439-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Soliq organlari har yili 1-martdan kechiktirmay soliq summasi va uni to‘lash muddatlari ko‘rsatilgan to‘lov xabarnomasini jismoniy shaxslarga imzo qo‘ydirib yoki mavjud bo‘lgan taqdirda, soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga elektron tarzda, soliq to‘lovchining nomiga rasmiylashtirilgan uyali telefon raqamiga va soliq organlarining maxsus mobil ilovasiga SMS-xabarnoma tarzida, shuningdek to‘lov xabarnomasi olinganligi faktini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda topshiradi.

(439-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o‘zgarganda va imtiyozlarga bo‘lgan huquq yuzaga kelganda (tugatilganda) soliq organlari mazkur o‘zgarishlardan keyin bir oy ichida soliqni qayta hisob-kitob qilishi hamda soliq to‘lovchiga soliq summasi va uni to‘lash muddatlari ko‘rsatilgan yangi yoki qo‘shimcha to‘lov xabarnomasini taqdim etishi kerak.

Ko‘p kvartirali uylarda joylashgan turar joy bo‘lmagan ko‘chmas mulk obyektlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalari bo‘yicha soliq turar joy bo‘lmagan ko‘chmas mulk obyektining qavatlar soniga bo‘lingan maydonidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

(439-modda O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

440-modda. Soliq to‘lash tartibi

Yil davomida ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan e’tiboran jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadi.

Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliqni to‘lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e’tiboran tugatiladi (kamaytiriladi).

Soliq bo‘yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyozga bo‘lgan huquq yuzaga kelgan oydan e’tiboran to‘lanmaydi. Soliq bo‘yicha imtiyozlarga bo‘lgan huquq tugatilgan taqdirda, bu soliq mazkur huquq tugatilgan oydan keyingi oydan e’tiboran to‘lana boshlaydi.

Soliq davri uchun soliqni to‘lash jismoniy shaxslar tomonidan 15-aprel va 15-oktabrga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

XVII BO‘LIM
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ

63-bob. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash

441-modda. Soliq to‘lovchilar

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq to‘lovchilar deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi hududida suvdan birlamchi foydalanishni yoki suvni iste’mol qilishni amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

faoliyatini O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasalari orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar;

suvdan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar;

dehqon xo‘jaliklari, shuningdek qishloq xo‘jaligi yerlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar.

(441-modda birinchi qismining to‘rtinchi va beshinchi xatboshilari O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Aholi punktlarining suv ta’minoti uchun suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o‘z ehtiyojlari uchun foydalanadigan suv uchun soliqni to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

442-modda. Soliq solish obyekti

Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq deb yuritiladi) solish obyektidir.

Quyidagilar soliq solish obyekti bo‘lmaydi:

1) notijorat tashkilotlar tomonidan notijorat faoliyatni amalga oshirish doirasida foydalaniladigan suv resurslari;

2) sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti mineral suvlari, bundan savdo tarmog‘ida realizatsiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

3) atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatishining oldini olish maqsadida chiqarib olingan yer osti suvlari, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

4) shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish paytida chiqarib olingan va qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun yer qa’riga qayta quyiladigan yer osti suvlari, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

5) gidroelektrostansiyalar gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv resurslari;

6) issiqlik elektr stansiyalari va issiqlik elektr markazlari tomonidan qayta quyiladigan suv resurslari;

7) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sho‘rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan, suvdan foydalanish va suv iste’moli sohasidagi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan sho‘rlarni yuvish normalari doirasidagi suv resurslari;

8) kollektor va drenaj tarmoqlaridan ishlatiladigan suv resurslari.

(442-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuniga asosan 8-band bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

443-modda. Soliq bazasi

Foydalanilgan suvning hajmi soliq bazasidir.

444-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya (dastlabki) hisobi hujjatlarida aks ettirilgan suv o‘lchagich asboblar ko‘rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o‘lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv obyektlaridan suv olish limitlaridan, suvni iste’mol qilishning texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda yashil daraxtzorlarni sug‘orish normalaridan yoki ma’lumotlarning to‘g‘riligini ta’minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to‘lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida hisobini yuritadi. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan suv keladigan vodoprovod tarmog‘idagi suvdan foydalanilganda, soliq bazasi manbaning har bir turi bo‘yicha alohida aniqlanadi. Suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog‘iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan kelib tushadigan suv hajmlarining nisbati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq organlariga joriy soliq davrining 15-yanvariga qadar taqdim etishi kerak. Soliq organlari uch kun ichida ushbu ma’lumotlarni soliq to‘lovchilar e’tiboriga yetkazishi lozim.

Issiq suv hamda bug‘ hosil qilinishi bo‘yicha soliq bazasi soliq to‘lovchi tomonidan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun o‘zi foydalangan suv resurslari hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Binolarning bir qismi, alohida inshootlar ijaraga berilganda soliq bazasi suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan ijaraga beruvchi tomonidan aniqlanadi.

Binolarning bir qismini, alohida inshootlarni ijaraga olgan va suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi soliq to‘lovchilar bilan shartnoma tuzgan yuridik shaxslar soliq bazasini mustaqil ravishda aniqlaydi.

Soliq to‘lovchilar yuridik shaxslar bilan suv yetkazib berilishi yuzasidan solishtirib ko‘rish jarayonida olingan suvning hajmini aniqlashtirishda suv hajmining farqini solishtirish amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiradi.

Yuridik shaxslarning hududida ta’mirlash-qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to‘lovchilar ushbu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun soliq to‘lamaydi. Ta’mirlash-qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxslar soliq to‘laydi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonchasida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti soliq to‘laydi.

Suvdan foydalanish va suv iste’moli sohasidagi vakolatli organ soliq bazasini aniqlash uchun soliq organlariga, shuningdek qishloq xo‘jaligida, shu jumladan baliqchilik xo‘jaligida suv resurslaridan foydalanuvchi yuridik shaxslarga ular tomonidan foydalanilishi kutilayotgan suv resurslarining hajmini har yili joriy soliq davrining 10-dekabridan kechiktirmay, dehqon xo‘jaliklari, tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar bo‘yicha esa — suvdan foydalanish yoki suvni iste’mol qilish joyi bo‘yicha soliq organlariga hisobot yilidan keyingi yilning 20-yanvaridan kechiktirmay taqdim etadi.

(444-moddaning to‘qqizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Dehqon xo‘jaliklari, shuningdek qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun soliq bazasi suvdan foydalanish va suv iste’moli sohasidagi vakolatli organ taqdim etgan ma’lumotlarga asosan soliq organlari tomonidan aniqlanadi.

(444-moddaning o‘ninchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Sun’iy suv havzalarida baliq yetishtiruvchi baliqchilik xo‘jaliklari soliq bazasini tabiiy va sun’iy suv obyektlaridan olingan va ushbu suv obyektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi, bundan kollektor-drenaj tarmoqlariga qaytarib quyiladiganlar mustasno, o‘rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydilar.

Qishloq xo‘jaligida, shu jumladan baliq yetishtirishda suv resurslarini hisobga olish vositalari mavjud emasligi va foydalaniladigan suv resurslarining haqiqiy hajmini aniqlashning imkoni bo‘lmagan taqdirda, soliq bazasi suvdan foydalanish va suvni iste’mol qilish sohasidagi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan suv resurslari iste’molining normativlariga ko‘ra aniqlanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida suvni maxsus uskunalarni (turbinalarni) sovitish uchun ishlatadigan soliq to‘lovchilar soliq bazasini tabiiy suv obyektlaridan maxsus uskunalarni (turbinalarni) sovitish uchun olingan va tabiiy suv obyektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi o‘rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydi. Ushbu norma suvning haqiqiy hisobi yoki suvdan maxsus foydalanish ruxsatnoma mavjud bo‘lganda qo‘llaniladi.

(444-modda O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuniga asosan o‘n birinchi — o‘n uchinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Soliq to‘lovchi soliq to‘lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirgan taqdirda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan suv resurslari hajmining hisobini alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida hisob yuritish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, soliq bazasi qaysi faoliyat bo‘yicha soliq to‘lash sof tushumning umumiy hajmida nazarda tutilgan bo‘lsa, o‘sha faoliyatdan olinadigan sof tushumning solishtirma hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar uchun foydalanilgan suvning hajmi ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar uchun soliq bazasi hisoblanadi. Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi deganda iste’mol idishidagi tayyor mahsulotga to‘g‘ri keladigan suvning hajmi tushuniladi.

Soliq solish obyekti va (yoki) soliq stavkasi turli xil bo‘lgan bir necha turdagi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi soliq to‘lovchilar bunday faoliyat turlari bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritishlari va tegishli soliq stavkalari bo‘yicha soliq to‘lashlari shart.

(444-modda O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuniga asosan o‘n oltinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

445-modda. Soliq stavkalari

Belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari bir kub metr uchun mutlaq o‘lchamda, quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r

Soliq to‘lovchilar va soliq solish obyektlari

1 kub metr uchun soliq stavkasi (so‘mda)

yer usti suv resurslari manbalari

yer osti suv resurslari manbalari

1.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan 2-bandda ko‘rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar

749

910

2.

Elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari

118

144

3.

Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliqlarni o‘stirish (yetishtirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi yerlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar

107

107

4.

Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi

16 050

16 050

5.

Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi

40 660

40 660

(445-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Ushbu modda birinchi qismining 3-bandida nazarda tutilgan soliq stavkasiga nisbatan:

suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy qilinganda hamda sug‘orish uchun olingan suv hajmi suv o‘lchash uskunalari asosida aniqlanganda — 0,5 kamaytiruvchi koeffitsiyent qo‘llaniladi;

suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy qilinganda yoki sug‘orish uchun olingan suv hajmi suv o‘lchash uskunalari asosida aniqlanganda — 0,7 kamaytiruvchi koeffitsiyent qo‘llaniladi;

baliqchilik uchun olingan suv hajmi suv o‘lchash uskunalari asosida aniqlanganda — 0,7 kamaytiruvchi koeffitsiyent qo‘llaniladi;

suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy qilinmaganda hamda sug‘orish uchun olingan suv hajmi suv o‘lchash uskunalari asosida aniqlanmaganda — 1,1 oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llaniladi, bundan ushbu moddaning oltinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

(445-modda ikkinchi qismining beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 5-maydagi O‘RQ-1062-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.05.2025-y., 03/25/1062/0410-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 6-avgust)

Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari:

soliq stavkasiga nisbatan 0,7 gacha kamaytiruvchi yoki 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilashga (bundan ushbu modda birinchi qismining 2 va 3-bandlari, shuningdek ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilar mustasno);

yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan, lazerli tekislash lozim bo‘lgan sug‘oriladigan yerlari lazerli tekislanmagan taqdirda, ushbu yerlar uchun foydalaniladigan suv hajmi bo‘yicha soliq stavkalariga nisbatan 1,2 gacha oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llashga haqli.

E’tibor bering. 445-modda uchinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni bilan 2027-yil 1-yanvardan e’tiboran amalga kiritilishi belgilangan.

(445-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Suvdan foydalanish uchun belgilangan limitlardan ortiqcha suv olinganda, bunday ortiqcha qism bo‘yicha soliq stavkalari belgilangan soliq stavkalarining besh baravari miqdorida belgilanadi.

Suv resurslaridan ruxsat beruvchi hujjatlarsiz foydalanilganda, shuningdek avtotransport vositalarini yuvishni amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan yer usti manbalaridan olingan suvdan foydalanilganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining besh baravari miqdorida belgilanadi.

Yer osti suv manbalaridan suv o‘lchash uskunalarisiz suv olinganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining besh baravari miqdorida belgilanadi. Bunda mazkur qoida jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy va xo‘jalik ehtiyojlari uchun sutkasiga 5 metr kubgacha bo‘lgan hajmda yer osti suvlarini yakka tartibda olish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

(445-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 5-maydagi O‘RQ-1062-sonli Qonuniga asosan oltinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.05.2025-y., 03/25/1062/0410-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 6-avgust)

446-modda. Soliq davri

Kalendar yil soliq davri hisoblanadi.

447-modda. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Soliq organlari soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda quyidagilar uchun soliq summasini aniqlaydi:

dehqon xo‘jaliklari uchun;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun;

tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun;

1-oktabrga qadar qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun — qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliqlarni yetishtirish (o‘stirish) uchun ular tomonidan avvalgi soliq davrida foydalanilgan suv hajmining 70 foizi miqdorida. Avvalgi soliq davrida qishloq xo‘jaligi korxonasi tomonidan foydalanilgan suvning hajmi to‘g‘risidagi axborot mavjud bo‘lmagan taqdirda, soliq summasi suvdan foydalanish va suv iste’moli sohasidagi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan suv iste’moli normativlari bo‘yicha aniqlanadi.

Soliq hisoboti suvdan foydalanish yoki suvni iste’mol qilish joyi bo‘yicha soliq organlariga quyidagilar tomonidan yilda bir marta taqdim etiladi:

O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari tomonidan, bundan qishloq xo‘jaligi korxonalari mustasno — hisobot davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay;

qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan — joriy soliq davrining 15-dekabridan kechiktirmay;

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — soliq davridan keyingi yilning 20-yanvaridan kechiktirmay.

Qishloq xo‘jaligida, shu jumladan baliqchilik xo‘jaliklarida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisobotlari “Suv hisobi” axborot tizimining va suv resurslari hisobini yurituvchi vakolatli organlarning ma’lumotlari asosida soliq organlari tomonidan avtomatik tarzda shakllantiriladi.

(447-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-iyundagi O‘RQ-1071-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.06.2025-y., 03/25/1071/0545-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 27-sentabr)

Soliq organlari soliq to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasini dehqon xo‘jaliklariga, shuningdek qishloq xo‘jaligi yerlariga hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarga imzo qo‘ydirib yoki, mavjud bo‘lgan taqdirda, soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga elektron tarzda, soliq to‘lovchining nomiga rasmiylashtirilgan uyali telefon raqamiga va soliq organlarining maxsus mobil ilovasiga SMS-xabarnoma tarzida, shuningdek to‘lov xabarnomasi olinganligi faktini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda soliq davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay topshiradi.

(447-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

448-modda. Soliq to‘lash tartibi

Soliq davri mobaynida soliq to‘lovchilar soliq bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarini to‘laydi, bundan qishloq xo‘jaligi korxonalari, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi yerlariga hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar mustasno.

(448-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Bo‘nak to‘lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to‘lovchilar joriy soliq davrining 20-yanvaridan kechiktirmay, yangi tashkil etilganlari esa davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay, suvdan foydalanish yoki suvni iste’mol qilish joyidagi soliq organlariga mo‘ljallanayotgan soliq bazasidan (foydalaniladigan suv hajmidan) va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani taqdim etadi. Soliq bo‘yicha majburiyatlari soliq davri ichida yuzaga kelgan soliq to‘lovchilar soliq summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadi.

(448-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan bo‘nak to‘lovlar:

soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan ko‘proqni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (bundan aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar mustasno) — har oyning 20-sanasidan kechiktirmay yillik soliq summasining o‘n ikkidan bir qismi miqdorida;

soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan kamroqni tashkil etadigan, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar bo‘lmagan yuridik shaxslar, shuningdek aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — har chorak uchinchi oyining 20-sanasidan kechiktirmay yillik soliq summasining to‘rtdan bir qismi miqdorida to‘lanadi.

Soliq davri davomida mo‘ljallanayotgan soliq bazasi o‘zgarganda, soliq to‘lovchi soliq summasi to‘g‘risida aniqlashtirilgan ma’lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun bo‘nak to‘lovlarga soliqning o‘zgargan summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davri uchun bo‘nak to‘lovlar hisobga olingan holda soliqni to‘lash soliq to‘lovchilar tomonidan, bundan dehqon xo‘jaliklari mustasno, suvdan foydalanish yoki suv iste’moli joyida, soliq hisoboti taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Soliq davri uchun bo‘nak to‘lovlar summasi soliq hisobotida ko‘rsatilgan budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda, soliq organi bo‘nak to‘lovlarni soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisob-kitob qiladi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan soliq davri uchun soliqni to‘lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1-oktabrga qadar — soliq organlari tomonidan aniqlangan yillik soliq summasining 70 foizi;

15-dekabrga qadar — soliqning qolgan summasi.

Dehqon xo‘jaliklari, shuningdek qishloq xo‘jaligi yerlariga hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar tomonidan soliqni to‘lash yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1-mayidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

(448-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuniga asosan yettinchi va sakkizinchi qismlar bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

XVIII BO‘LIM
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ

64-bob. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash

449-modda. Soliq to‘lovchilar

O‘zbekiston Respublikasi hududida yer qa’ridan foydali qazilmalarni qazib olishni va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olishni (bundan buyon ushbu bo‘limda foydali qazilmalarni qazib olish (ajratib olish) deb yuritiladi) amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni soliq to‘lovchilari (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq to‘lovchilar deb yuritiladi) deb e’tirof etiladi.

Qonunchilikda nazarda tutilgan shartlarga rioya etgan holda qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olishga doir faoliyatni amalga oshirishga taalluqli qism bo‘yicha soliq to‘lovchilar bo‘lmaydi.

450-modda. Soliq solish obyekti

Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq deb yuritiladi) solish obyekti quyidagilardir:

agar ushbu qismning uchinchi xatboshisida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, foydali qazilmani qazib olish (ajratib olish) hajmi;

qazib olingan (ajratib olingan) qora, qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallarning, shuningdek noyob elementlarning va noyob yer elementlarining haqiqatda realizatsiya qilingan hajmi.

(450-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaning hajmi qazib olish (ajratib olish), birlamchi ishlov berish, qayta ishlash va transportda tashishning butun texnologik sikli doirasida yuzaga keladigan texnologik yo‘qotishlar hajmini chegirgan holda, qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan normalar doirasida, bunday normalar mavjud bo‘lmaganda esa — soliq to‘lovchi tomonidan tasdiqlangan normalar doirasida aniqlanadi.

(450-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Foydali qazilmalarni qazib olishning (ajratib olishning) va foydali qazilmalarga birlamchi ishlov berishning (ularni qayta ishlashning) texnologik sikli doirasidagi yo‘qotishlar texnologik yo‘qotishlar deb e’tirof etiladi, xususan:

foydali qazilmalarni qazib olish chog‘idagi yo‘qotishlar (bundan normadan ortiq yo‘qotishlar mustasno), shu jumladan ularning qoldiqlari (ajratib olib bo‘lmaydigan zaxiralari);

(450-modda uchinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

uglevodorodlarni dastlabki sanoat maqsadida qayta ishlash chog‘idagi yo‘qotishlar;

qatlamdagi bosimni saqlab turish va (yoki) uglevodorodlarni yopiq texnologik sikl doirasida ajratib olish uchun mahsuldor qatlamga qayta haydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi.

Soliq solish obyekti foydali qazilmaning har bir turi bo‘yicha alohida aniqlanadi.

Quyidagilar soliq solish obyekti bo‘lmaydi:

soliq to‘lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida qazib olingan (ajratib olingan) hamda shaxsiy xo‘jalik va maishiy ehtiyojlari uchun foydalanilgan, keng tarqalgan foydali qazilmalar. Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro‘yxati qonunchilikda belgilanadi;

qonunchilikda belgilangan tartibda daryo o‘zanlarini tozalash va qirg‘oqlarni mustahkamlash ishlari natijasida qazib olingan (ajratib olingan) noruda foydali qazilmalar, bundan realizatsiya qilingan foydali qazilmaning hajmi mustasno.

451-modda. Soliq bazasi

Soliq bazasi soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaga nisbatan aniqlanadi.

Quyidagilar soliq bazasidir:

agar ushbu qismning uchinchi xatboshisida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma hajmining qiymati;

qazib olingan (ajratib olingan) qora, qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallarning, shuningdek noyob elementlarning va noyob yer elementlarining haqiqatda realizatsiya qilingan hajmi qiymati.

Agar ushbu moddaning to‘qqizinchi — o‘n birinchi qismlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq bazasi soliq (hisobot) davri boshlanganidan e’tiboran o‘sib boruvchi yakun bilan aniqlanadi va soliq (hisobot) davri uchun o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi bo‘yicha hisob-kitob qilinadi.

(451-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Soliq (hisobot) davri uchun o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma bo‘yicha pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo‘shilgan qiymat solig‘ini va aksiz solig‘ini chegirgan holda) naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo‘lish orqali alohida aniqlanadi.

Agar qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmadan shaxsiy ishlab chiqarish yoki xo‘jalik ehtiyojlari uchun qisman foydalanilsa, soliq bazasi qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaning butun hajmi hisobida, ushbu foydali qazilmaning o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq (hisobot) davrida foydali qazilma realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq bazasi realizatsiya qilish amalga oshirilgan oxirgi soliq (hisobot) davrida foydali qazilmani realizatsiya qilishning o‘rtacha olingan narxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Foydali qazilmalarni qazib olish (ajratib olish) boshlanganidan buyon ular realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq bazasi soliq (hisobot) davrida mazkur foydali qazilmalarni qazib olishning (ajratib olishning) 20 foizga oshirilgan ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda soliq to‘lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan birinchi hisobot davrida hisoblangan soliq summasiga hisobot davrida shakllangan o‘rtacha olingan narxidan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart.

Qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmadan to‘laligicha shaxsiy ishlab chiqarish yoki xo‘jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda soliq bazasi qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaning 20 foizga oshirilgan ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to‘lovchi qazib olingan tabiiy gazni, neftni va (yoki) gaz kondensatini qayta ishlashni mustaqil ravishda yoxud qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berish asosida amalga oshirgan hollarda, soliq bazasi ushbu foydali qazilmalardan olingan mahsulotlarni realizatsiya qilish bahosidan kelib chiqqan, ularni keyinchalik qayta ishlash va transportda tashish uchun soliq to‘lovchi tomonidan qilingan xarajatlar chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

(451-moddaning to‘qqizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Agar ushbu Kodeksning 451¹-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallarni, shuningdek nodir elementlarni hamda nodir yer elementlarini qazib olishda soliq bazasi ushbu foydali qazilmalarni realizatsiya qilishning o‘rtacha olingan narxidan kelib chiqqan, keyinchalik ularni qayta ishlash (eritish, affinaj) va (yoki) transportda tashish xarajatlari chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

(451-moddaning o‘ninchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Ushbu moddaning to‘qqizinchi va o‘ninchi qismlarida, shuningdek ushbu Kodeksning 451¹-moddasida nazarda tutilgan foydali qazilmalarga nisbatan soliq bazasini aniqlash chog‘ida, qazib olingan foydali qazilmalarni transportda tashish va (yoki) qayta ishlash, shu jumladan ularni qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berish asosida qayta ishlash bilan bog‘liq xarajatlar summasi soliq to‘lovchi tomonidan soliq organlari bilan birgalikda aniqlanadi. Mazkur xarajatlarning summasi kalendar yil natijalariga ko‘ra shunga o‘xshash tartibda tuzatilishi mumkin.

(451-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuniga asosan o‘n birinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Foydali qazilmalarning ayrim turlariga nisbatan soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari ushbu Kodeksning 451¹-moddasida belgilanadi.

451¹-modda. Metallarning ayrim turlarini qazib olish (ajratib olish) chog‘ida soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

Oltin, kumush, platina, palladiy, mis, rux, qo‘rg‘oshin va molibden (bundan buyon ushbu moddada metallar deb yuritiladi) bo‘yicha soliq bazasi ruda, konsentrat va (yoki) qayta ishlashning yakuniy mahsuloti (tayyor mahsulot) tarkibidagi har bir metallga nisbatan aniqlanadi.

Metallarni qazib olish (ajratib olish) chog‘ida quyidagilar soliq bazasi bo‘ladi:

1) agar ushbu qismning 2-bandida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, rudani (konsentratni) realizatsiya qilish chog‘ida — qazib olingan (ajratib olingan) metallning haqiqatda realizatsiya qilingan qiymati, ushbu qiymat rudaning (konsentratning) tarkibida mavjud bo‘lgan metall hajmiga nisbatan qo‘llaniladigan soliq (hisobot) davri uchun o‘rtacha arifmetik birja bahosi va o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi o‘rtasida olingan yuqoriroq narx bo‘yicha hisob-kitob qilinib, ushbu metallni keyinchalik qayta ishlash (eritish, affinaj) va (yoki) transportda tashish xarajatlari chegirib tashlanadi;

2) oltin va misni realizatsiya qilish chog‘ida — qazib olingan (ajratib olingan) metallning haqiqatda realizatsiya qilingan qiymati, ushbu qiymat ruda, konsentrat va (yoki) qayta ishlashning yakuniy mahsuloti (tayyor mahsulot) tarkibida mavjud bo‘lgan metall hajmiga nisbatan qo‘llaniladigan soliq (hisobot) davri uchun o‘rtacha arifmetik birja bahosi va o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi o‘rtasida olingan yuqoriroq narx bo‘yicha hisob-kitob qilinib, ushbu metallni keyinchalik qayta ishlash (eritish, affinaj) va transportda tashish xarajatlari chegirib tashlanmaydi. Bunda soliq to‘lovchi oltin va mis bo‘yicha soliq bazasini ushbu xarajatlarni chegirib tashlagan holda belgilashga haqli;

3) mustaqil ravishda yoxud qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berish asosida ajratib olingan kumushni, platinani, palladiyni, ruxni, qo‘rg‘oshinni yoki molibdenni realizatsiya qilish chog‘ida — qazib olingan (ajratib olingan) metallning haqiqatda realizatsiya qilingan qiymati, ushbu qiymat soliq (hisobot) davrida o‘rtacha arifmetik birja bahosi va o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi o‘rtasida olingan yuqoriroq narx bo‘yicha hisob-kitob qilinib, soliq to‘lovchi tomonidan ushbu metallni keyinchalik qayta ishlash (eritish, affinaj) va (yoki) transportda tashish uchun qilingan xarajatlar chegirib tashlanadi.

(451¹-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Agar ajratib olingan kumush, platina, palladiy, rux, qo‘rg‘oshin yoki molibden rudadagi asosiy metall bo‘lmasa yoki ularni ajratib olish oltin va (yoki) mis ajratib olinayotgan (boyitilayotgan, qayta ishlanayotgan) ishlab chiqarish

quvvatlarida amalga oshirilayotgan bo‘lsa, soliq to‘lovchi soliq bazasini ularni keyinchalik qayta ishlash (eritish, affinaj) va transportda tashish xarajatlarini chegirib tashlamagan holda aniqlashga haqli.

(451¹-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Kumushni, platinani, palladiyni, ruxni, qo‘rg‘oshinni yoki molibdenni ajratib olish chog‘ida ushbu metallar rudadagi asosiy metallar bo‘lsa, boshqa metallar, shu jumladan oltin va mis bo‘yicha soliq bazasi ularni keyinchalik qayta ishlash (eritish, affinaj) va transportda tashish xarajatlari chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

(451¹-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Agar soliq to‘lovchi metallar bilan birga boshqa qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallarni, shuningdek ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilmagan nodir elementlarni va nodir yer elementlarini ajratib olayotgan bo‘lsa, boshqa metallar (elementlar) bo‘yicha soliq bazasi ularni keyinchalik qayta ishlash (eritish, affinaj) va transportda tashish xarajatlari chegirib tashlangan holda, o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi bo‘yicha aniqlanadi.

(451¹-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Agar soliq to‘lovchi rudadagi asosiy metallar bilan birga boshqa metallarni, shu jumladan texnogen chiqindilardan (chang, shlak, kek, shlam va boshqalardan) metallarni ajratib olsa, ushbu metallar (elementlar) bo‘yicha soliq solinadigan baza ularni keyinchalik qayta ishlash (eritish, affinaj) va transportda tashish xarajatlari chegirib tashlangan holda o‘rtacha olingan (o‘rtacha arifmetik birja) realizatsiya qilish bahosidan kelib chiqib aniqlanishi mumkin.

(451¹-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Soliq (hisobot) davri uchun oltin, kumush, palladiy va platina bo‘yicha o‘rtacha arifmetik birja narxi soliq organlari tomonidan London qimmatli metallar bozori uyushmasining (London Bullion Market Association) ertalabki fiksingi asosida, boshqa metallar bo‘yicha esa London metallar birjasining (London Metal Exchange) ma’lumotlari asosida aniqlanadi.

Soliq (hisobot) davri uchun o‘rtacha arifmetik birja narxi narxlar qaysi valyutada belgilangan bo‘lsa, shu valyuta bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan e’lon qilingan valyuta kursiga ko‘paytirilgan metallar narxlarini qo‘shishda hosil bo‘lgan summani ko‘rsatilgan narxlar belgilangan kunlar soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Soliq (hisobot) davri uchun o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda, ushbu Kodeks 451-moddasining to‘rtinchi qismida belgilangan tartibda aniqlanadi.

Soliq organlari har oyda, soliq (hisobot) davridan keyingi oyning o‘ninchi sanasidan kechiktirmay, o‘zlari ushbu moddaning yettinchi va sakkizinchi qismlariga muvofiq hisob-kitob qilgan har bir metall turi uchun o‘rtacha arifmetik birja narxini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb-saytiga joylashtiradi.

452-modda. Soliq stavkalari

Soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r

Foydali qazilmalar guruhi

Soliq solish obyektining nomi

Soliq stavkalari, foizlarda

1.

Energiya manbalari

Neft, tabiiy gaz, gaz kondensati

10

Utilizatsiya qilingan tabiiy gaz, realizatsiya qilingan hajmi bo‘yicha

5

Yer ostiga joylashtirilgan gaz

2,6

Ko‘mir, yonuvchi slanslar

4

2.

Qimmatbaho metallar

Oltin, kumush, palladiy, platina va platina guruhi, osmiy va boshqa qimmatbaho metallar

7

3.

Rangli metallar

Mis, qo‘rg‘oshin, rux, molibden, nikel, kobalt, qalay, surma, simob, aluminiy

7

Boshqa rangli metallar

10

4.

Radioaktiv metallar, nodir elementlar va nodir yer elementlari

Uran, toriy, radiy

8

Volfram

2,7

Reniy, selen, tellur, indiy, vismut, tantal, niobiy, berilliy, litiy, rubidiy, seziy, galiy, titan, sirkoniy, gafniy, talliy, kadmiy

8

Lantan va lantanoidlar, ittriy, skandiy

8

Boshqa radioaktiv metallar, nodir elementlar va nodir yer elementlari

8

5.

Nodir tosh xom ashyosi

Feruza, listvenit, rodonit, zmeyevik, marmar yo‘l-yo‘l aqiq, kaxolong, yashma, xalsedon, aqiq, gematit va boshqa qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xom ashyosi

10

6.

Qora metallar

Temir

2

Titan, marganets, xrom, vanadiy va boshqa qora metallar

4

7.

Kon-kimyo xom ashyosi

Mineral pigmentlar

5,5

Yod

4,8

Mineral tuzlar (tosh tuz (ovqatga ishlatiladigani), kaliy tuzi, sulfat tuzi), karbonat xomashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar), mineral o‘g‘itlar (glaukonit, fosforitlar va boshqalar) hamda boshqa kon-kimyo xomashyosi

3,5, biroq 6 591

so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan

8.

Kon-ruda xom ashyosi

Eruvchan shpat, dala shpati xom ashyosi, kvars va kvarsit, kaolin (realizatsiya qilingan hajmi bo‘yicha), tabiiy grafit

7,9

Shisha xom ashyosi, kvars qum, brusit marmar

3

Talk va talk toshi, talkli magnezit, vollastonit, asbest, barit, vermikulit, qoliplash xom ashyosi, felzit

4

Serpentinit va boshqa kon-ruda xom ashyosi

5

9.

Noruda qurilish materiallari

Sement xomashyosi, bundan sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktosh mustasno

5

Sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktosh

7062 so‘m/tonna*

Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanets jinslari, karbonat xomashyosi, travertin

5, biroq 6 591 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan

Tabiiy bezaktoshdan bloklar

5, biroq 10 700 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan

Marmar

5, biroq 21 400 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan

Granitlar

5, biroq 32 100 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan

Gips toshi, gips va angidrid, ganch

5, biroq 17 066 so‘m/tonnadan kam bo‘lmagan

G‘isht-cherepitsa xomashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar

5, biroq 4 943 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan

Qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi**

5 350 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan

Ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktosh, farfor xomashyosi, keramzit xomashyosi, mergel, argillitlar, vulqon jinslari, pelitli tuffitlar, mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt, diabaz, gliyej, andezibazalt, temir tarkibli qo‘shimchalar, magnetit-gematitli jinslar va boshqa noruda qurilish materiallari hamda keng tarqalgan foydali qazilmalar

5

10.

Texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali qazilmalar

Asosiy foydali qazilmani qazib olganlik uchun soliq stavkasining 50 foizi

* Belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha soliq sement ishlab chiqaruvchi zavodlar, shuningdek ularga sement xom ashyosi — ohaktoshni realizatsiya qiladigan soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadi.

** Foyda solig‘ini va qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash maqsadida qum-shag‘al aralashmasini karyerda realizatsiya qilish bahosi 1 kub metr uchun 20 ming so‘mdan kam bo‘lishi mumkin emas.

(452-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan soliq stavkalariga 1,3 baravargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilashga haqli.

(452-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

Agar 2021-yilning 1-sentabriga qadar kuchga kirgan bitimlar va shartnomalarda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, uglevodorodlarni, qimmatbaho, rangli va (yoki) radioaktiv metallarni, nodir elementlarni va nodir yer elementlarini qazib olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi, shuningdek mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiruvchi, davlat ulushi ustun mavqega ega bo‘lgan korxonalarga, agar ushbu moddaning to‘rtinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha oshirilgan stavkalarni belgilashi mumkin.

(452-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

Ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan soliq stavkalari (bundan oltin, kumush, palladiy, mis va uran uchun belgilangan soliq stavkalari mustasno) 2022-yil 1-yanvardan keyin qazib olish boshlangan yer qa’ri uchastkasida uglevodorodlarni, qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallarni, nodir elementlarni va nodir yer elementlarini qazib olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi, davlat ulushi ustun mavqega ega bo‘lgan korxonalarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

(452-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

453-modda. Soliq davri. Hisobot davri

Quyidagilar soliq davridir:

yuridik shaxslar uchun — chorak;

jismoniy shaxslar uchun — kalendar yil.

Quyidagilar hisobot davridir:

yuridik shaxslar uchun — bir oy;

jismoniy shaxslar uchun — kalendar yil.

454-modda. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi

Soliq to‘lovchilar soliqni ushbu Kodeksning 451 va 451¹-moddalariga muvofiq aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda, mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.

Foydali qazilmalarning alohida turlari bo‘yicha soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkasidan, lekin belgilangan soliq summasidan kam bo‘lmagan stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to‘lovchilar tomonidan soliq hisoboti har bir hisobot va soliq davri tugagandan keyin soliq hisobida turgan joydagi, noruda qurilish materiallari bo‘yicha esa — qazib olish amalga oshirilgan joydagi soliq organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

yuridik shaxslar tomonidan — soliq davri boshlanganidan e’tiboran ortib boruvchi yakun bilan har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay;

jismoniy shaxslar tomonidan — yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay.

Soliqni to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi:

yuridik shaxslar tomonidan — har oyda keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay;

jismoniy shaxslar tomonidan — soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay.

(XVIII bo‘lim O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

XVIII[1] BO‘LIM
FOYDALI QAZILMALARNI QAZIB OLGANLIK UCHUN MAXSUS RENTA SOLIG‘I

64[1]-bob. Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lash

454[1]-modda. Soliq to‘lovchilar

Qimmatbaho, rangli va (yoki) radioaktiv metallarni, nodir elementlarni va nodir yer elementlarini qazib oluvchi va (yoki) ularni texnogen mineral hosilalardan ajratib oluvchi, shuningdek uglevodorod xom ashyosini qazib oluvchi yuridik shaxslar foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘ini to‘lovchilar (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq to‘lovchilar deb yuritiladi) deb e’tirof etiladi.

Ushbu Kodeks 452-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan foydali qazilmalarning tegishli guruhlaridagi foydali qazilmalar jumlasiga qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallar, nodir elementlar va nodir yer elementlari (bundan buyon ushbu bo‘limda metallar deb yuritiladi) kiradi.

Tabiiy gaz, gaz kondensati va neft uglevodorod xom ashyosi jumlasiga kiradi.

Ushbu Kodeksning 69-bobiga muvofiq faoliyatini mahsulot taqsimotiga oid bitimlar doirasida amalga oshiruvchi yuridik shaxslar soliq to‘lovchi hisoblanmaydi.

454[2]-modda. Soliq solish obyekti

Ushbu Kodeksning 454[3]-moddasida belgilangan tartibda aniqlanadigan, qazib olingan (ajratib olingan) metallni yoki uglevodorod xom ashyosini realizatsiya qilishdan olingan renta daromadi foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘ini (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq deb yuritiladi) solish obyektidir.

454[3]-modda. Renta daromadi

Qazib olingan (ajratib olingan) metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini realizatsiya qilishdan olingan, ushbu Kodeksning 176-moddasi talablari hisobga olingan holda bahoga qo‘shimcha qiymat solig‘ini va aksiz solig‘ini kiritmay aniqlanadigan, bitim taraflari tomonidan qo‘llanilgan bahodan kelib chiqib hisoblab chiqarilgan daromadlar hamda ularni qazib olish (ajratib olish) bilan bevosita bog‘liq xarajatlar o‘rtasidagi farq renta daromadi deb e’tirof etiladi.

Renta daromadi birlamchi ishlov berishdan (sanoat yo‘sinida dastlabki qayta ishlashdan, rudani boyitishdan) o‘tgan va realizatsiya qilish uchun yaroqli bo‘lgan metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) faoliyati doirasida aniqlanadi.

Agar soliq to‘lovchi rudadan (konsentratlardan) metallarni ajratib olishni yoki qazib olingan uglevodorod xom ashyosini mustaqil ravishda yoxud qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berish asosida qayta ishlashni amalga oshirsa, metallarni yoki uglevodorodlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar ularga keyinchalik ishlov berish, ularni qayta ishlash va transportda tashish uchun soliq to‘lovchi tomonidan qilingan xarajatlar chegirib tashlangan holda, ularni qayta ishlash mahsulotlarini realizatsiya qilish bahosidan kelib chiqib aniqlanadi. Bunda, agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida metallarga va uglevodorod xom ashyolariga ishlov berish hamda ularni qayta ishlash obyektlarini qurish xarajatlarini ushbu moddaning to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan kapital xarajatlar jumlasiga kiritish nazarda tutilgan bo‘lsa, metallar va uglevodorod xom ashyolarining ayrim turlari bo‘yicha ularni qayta ishlashdan olingan mahsulotlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadga ularni keyinchalik qayta ishlash bilan bog‘liq xarajatlar kiritilishi mumkin.

Xarajatlar qilingan soliq davrida chegirib tashlanishi lozim bo‘lgan, realizatsiya qilish uchun yaroqli metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) uchun zarur va yetarli bo‘lgan kapital hamda operatsion xarajatlar metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) bilan bevosita bog‘liq xarajatlar deb e’tirof etiladi. Bunda kapital xarajatlar (shu jumladan asosiy vositalarni va nomoddiy aktivlarni yaratish yoki olish, infratuzilmani yaratish va boshqa shunga o‘xshash maqsadlar uchun xarajatlar), agar ular yer qa’ri uchastkalaridan foydali qazilmalarni qazib olish huquqi uchun tegishli ruxsatnoma yoki litsenziya olingan yer qa’ri uchastkasini (bundan buyon matnda litsenziyalangan uchastka deb yuritiladi) o‘zlashtirishning texnologik shartlarida nazarda tutilgan bo‘lsa, ushbu texnologik shartlarda nazarda tutilgan tartibda va normativlar doirasida hisobga olinadi.

Ushbu bo‘lim maqsadida operatsion xarajatlar deganda hujjatlar bilan tasdiqlangan va asoslantirilgan barcha xarajatlar tushuniladi, bunda ushbu xarajatlarni amalga oshirmay turib, metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olishga (ajratib olishga) va ularni birlamchi qayta ishlashga doir ishlab chiqarish jarayoni imkonsiz yoki qiyin bo‘ladi.

Operatsion xarajatlar jumlasiga, xususan, quyidagilarga doir xarajatlar kiradi:

1) zarur xom ashyoni, materiallarni, issiqlik va boshqa energiya resurslarini sotib olishga;

2) inventarga, xo‘jalik buyumlariga, amortizatsiya qilinadigan mol-mulk bo‘lmagan boshqa mol-mulkka;

3) soliq to‘lovchining texnologik, transportga oid, boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan yoqilg‘i, energiyaning barcha turlari, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun energiyaning barcha turlarini ishlab chiqish, shu jumladan soliq to‘lovchining o‘zi tomonidan ishlab chiqish, shuningdek energiyani transformatsiya qilish va uzatish xarajatlari;

4) litsenziyalar uchun haq va ijara to‘lovlarini to‘lashga;

5) ushbu Kodeksning 371 — 374-moddalarida nazarda tutilgan xodimlar (shu jumladan chet el tashkilotlarining jalb etilgan xodimlari) mehnatiga haq to‘lashga;

6) qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan xarajatlarga;

7) metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) operatsiyalari doirasida to‘langan soliqlar va yig‘imlarga haq to‘lashga;

8) chetdan jalb qilingan yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan bajarilgan ishlar va xizmatlarga haq to‘lashga.

Operatsion xarajatlar jumlasiga, xususan, quyidagilarga doir xarajatlar kirmaydi:

1) amortizatsiyaga, shu jumladan investitsion chegirmaga (obyektning tugatish qiymati chegirilgan holda);

2) marketing va reklama tadbirlariga;

3) ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga;

4) yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki shunga o‘xshash boshqa organi) a’zolari, ma’muriy xodimlar va maslahatchilar mehnatiga haq to‘lashga;

5) soliq to‘lovchining aybi bilan yuzaga kelgan favqulodda holatlarni bartaraf etishga;

6) xodimlarning malakasini oshirishga, mobil aloqa va internetga;

7) zaxiralarni tashkil etishga va sug‘urta qilishning ixtiyoriy turlariga;

8) moliyaviy faoliyat bo‘yicha foizlarni yoki boshqa xarajatlarni, shu jumladan kapital xarajatlar qiymatiga kiritilgan foizlarni to‘lashga.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi metallarni va uglevodorod xom ashyolarini qazib olish (ajratib olish) bo‘yicha alohida investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida mazkur xarajatlar qilingan, soliq davrida chegirib tashlanishi lozim bo‘lgan, kapital va operatsion xarajatlar jumlasiga kiradigan xarajatlar ro‘yxatini to‘ldirishga haqli.

Renta daromadini aniqlashda metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan, xususan moliya bozorlaridagi operatsiyalardan, shu jumladan xedjirlash operatsiyalaridan olinadigan, shuningdek foizlar va dividendlar tarzidagi, shu jumladan kapital xarajatlar qiymatiga kapitalizatsiya qilinadigan foizlar tarzidagi daromadlar va xarajatlar hisobga olinmaydi.

Renta daromadini aniqlash chog‘ida uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar ham hisobga olinmaydi, har qanday turdagi budjet subsidiyalari esa renta daromadiga kiritiladi.

Bir necha litsenziyalangan uchastkada metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi soliq to‘lovchi har bir bunday uchastkaga nisbatan renta daromadini alohida aniqlashi shart. Bunda soliq to‘lovchi ushbu Kodeksning 80-moddasi talablariga muvofiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisob usulidan foydalangan holda, ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan daromadlar va xarajatlarning alohida-alohida hisobini yuritishi shart.

Bir necha litsenziyalangan uchastkada amalga oshirilayotgan metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) bo‘yicha faoliyat, agar unda ko‘rsatilgan litsenziyalangan uchastkalarni o‘zlashtirishning texnologik shartlarida metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) va (yoki) ularni keyinchalik qayta ishlash uchun yagona texnologik loyiha nazarda tutilgan bo‘lsa, litsenziyalangan bitta uchastkada amalga oshirilayotgan faoliyatga tenglashtirilishi mumkin (bundan buyon matnda litsenziyalangan uchastkalar guruhi deb yuritiladi). Bunda soliq to‘lovchi har bir litsenziyalangan uchastkada amalga oshirilayotgan metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) bo‘yicha faoliyatni bitta uchastkada amalga oshirilayotgan faoliyatga tenglashtirish to‘g‘risidagi qarorni unda litsenziyalangan uchastkalar ro‘yxatini ko‘rsatgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan kelishishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bunday qarorni kelishishning qo‘shimcha shartlari va tartibini belgilashga haqli. Qarorda ko‘rsatilgan litsenziyalangan uchastkalar ro‘yxati unga qo‘shimcha uchastkalarni kiritish hisobiga kengaytirilishi mumkin emas.

Soliq to‘lovchi ushbu moddaning o‘n ikkinchi qismida nazarda tutilgan qarorda ko‘rsatilgan, ilgari ro‘yxatga kiritilgan, litsenziyalangan uchastkada foydali qazilmalarni (metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini) qazib olish va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydalanish uchun yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqiga doir ruxsatnomani (litsenziyani) qaytargan, undan o‘zganing foydasiga voz kechgan yoki uni sotgan taqdirda, bunday uchastka ushbu ro‘yxatdan chiqarilishi lozim, bunday realizatsiya qilishdan olingan daromadlar esa uning renta daromadini oshiradi.

Agar aktivlarni yaratishga (olishga) sarflangan xarajatlar kapital xarajatlar tarkibida hisobga olinib, ular keyinchalik boshqa shaxslarga realizatsiya qilinsa (berilsa) yoki ulardan qaysi litsenziyalangan uchastka uchun yaratilgan (olingan) bo‘lsa, o‘sha litsenziyalangan uchastka bilan bir texnologik loyihaga kiritilmagan boshqa litsenziyalangan uchastkalarda foydalanilsa, bunday realizatsiya qilishdan olingan daromadlar renta daromadini oshiradi.

Soliq to‘lovchi renta daromadini har bir litsenziyalangan uchastkaga nisbatan metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) huquqi uchun ruxsatnoma (litsenziya) olgan kundan e’tiboran har bir soliq (hisobot) davri natijalari bo‘yicha mustaqil ravishda aniqlaydi.

Renta daromadini aniqlash chog‘ida tarixiy xarajatlar ushbu Kodeksning 454⁴-moddasida nazarda tutilgan tartibda va shartlar asosida xarajatlar tarkibiga kiritiladi.

Agar renta daromadini aniqlashda natija salbiy bo‘lib qolsa, ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan xarajatlar va daromadlar o‘rtasidagi ijobiy farq renta zarari deb e’tirof etiladi.

454⁴-modda. Soliq bazasi

Renta daromadining summasi soliq bazasi hisoblanadi, renta zarari mavjud bo‘lganda esa soliq bazasi nolga teng deb e’tirof etiladi.

Soliq bazasi ushbu Kodeksning 454³-moddasida o‘ziga nisbatan renta daromadini aniqlash nazarda tutilgan yer qa’rining har bir litsenziyalangan uchastkasi (litsenziyalangan uchastkalar guruhi) bo‘yicha alohida hisoblab chiqariladi.

Soliq bazasi soliq davri boshlanganidan e’tiboran o‘sib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Metallarni va uglevodorod xom ashyosini qazib olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soliq bazasini AQSH dollarida aniqlash huquqiga ega.

Agar birinchi soliq davri yakunlariga ko‘ra renta zarari olingan bo‘lsa, soliq to‘lovchi bunday zarar miqdorini keyinchalik “jamg‘arilgan renta zarari” maxsus hisobvarag‘ida AQSH dollarida, ushbu moddaning oltinchi qismiga muvofiq belgilanadigan valyutaning o‘rtacha yillik almashuv kursi bo‘yicha hisobga olishga haqli. Bunda har bir keyingi soliq davrida ushbu hisobvaraqda hisobga olinadigan summa joriy yilning 31-dekabr holatiga ko‘ra AQSH dollarida nominatsiya qilingan, 2 foizlik punktga oshirilgan, to‘lanish muddati o‘n yil (2031-yilgacha) bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi xalqaro obligatsiyalarining daromadliligidan kelib chiqib aniqlanadigan koeffitsiyentga oshiriladi.

Soliq davri uchun o‘rtacha yillik kurs soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining joriy soliq davrida 1-yanvar va 31-dekabr uchun belgilangan kurslarini qo‘shish chog‘ida olingan summani 2 ga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) huquqi uchun ruxsatnoma (litsenziya) olingan kundan e’tiboran boshlanadigan soliq davri soliq to‘lovchi litsenziyalangan muayyan uchastkaga (litsenziyalangan uchastkalar guruhiga) nisbatan soliq bazasini aniqlashi shart bo‘lgan birinchi soliq davri deb e’tirof etiladi. Agar bunda ko‘rsatilgan ruxsatnoma (litsenziya) 1-iyuldan keyin olingan bo‘lsa, metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) huquqi uchun ruxsatnoma (litsenziya) olingan sanadan keyingi kalendar yilning 31-dekabriga qadar bo‘lgan vaqt ushbu litsenziyalangan uchastkaga nisbatan birinchi soliq davri deb e’tirof etiladi.

Soliq to‘lovchi tarixiy xarajatlarni birinchi soliq davrining xarajatlariga kiritishga haqli.

Soliq to‘lovchi tomonidan metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) huquqi uchun ruxsatnoma (litsenziya) olingan sanaga qadar haqiqatda amalga oshirilgan va tegishli litsenziyalangan uchastka bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xarajatlar, xususan, quyidagilarga doir xarajatlar tarixiy xarajatlar jumlasiga kiradi:

1) geologik o‘rganish uchun yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun ruxsatnoma (litsenziya) olishga va (yoki) metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) uchun ruxsatnoma (litsenziya) olishga, shuningdek metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) huquqini olishga;

2) yer qa’rini geologik jihatdan o‘rganishga;

3) metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) uchun tayyorgarlik ishlariga.

Ushbu moddaning to‘qqizinchi qismida ko‘rsatilgan xarajatlarni amalga oshirish sanasi buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari qoidalariga muvofiq belgilanadi.

Agar yaratish (olish) xarajatlari kapital xarajatlar tarkibida hisobga olingan aktivlardan keyinchalik metallni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olishga (ajratib olishga) doir ishlab chiqarish jarayonida soliq to‘lovchi tomonidan bir yildan ortiq vaqt davomida foydalanilmasa, ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan koeffitsiyent ularni olish xarajatlariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Agar soliq davri yakunlari bo‘yicha renta daromadi olingan bo‘lsa, soliq bazasi jamg‘arilgan renta zarari summasiga kamaytiriladi, renta daromadi jamg‘arilgan renta zararining to‘liq summasi o‘rnini qoplash uchun yetarli bo‘lmaganda esa — renta daromadi summasiga kamaytiriladi. Bunda jamg‘arilgan renta zarari summasi renta daromadini kamaytirishga qaratilgan summaga kamaytiriladi.

Soliq davri renta daromadi bilan tugaganidan keyin soliq to‘lovchi kapital xarajatlarni amalga oshirgan va hisobot soliq davri yakunlari bo‘yicha renta zararini olgan hollarda, bu zarar “jamg‘arilgan renta zarari” maxsus hisobvarag‘iga

kiritiladi va unga nisbatan ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan qoidalar qo‘llaniladi.

Ushbu moddaning o‘n ikkinchi va o‘n uchinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda keyingi soliq davrida “jamg‘arilgan renta zarari” hisobvarag‘ida hisobga olinadigan summa ushbu moddaning beshinchi qismida belgilangan miqdorda koeffitsiyent bilan ham indeksatsiya qilinadi.

Agar jamg‘arilgan renta zarari to‘langanidan va renta daromadi shakllanganidan keyin soliq to‘lovchida yangidan renta zarari yuzaga kelsa, ko‘rsatilgan zararning o‘rni mazkur moddaning o‘n ikkinchi — o‘n to‘rtinchi qismlarida belgilangan tartibga o‘xshash tartibda qoplanadi.

Metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) uchun yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqi bir yuridik shaxsdan boshqasiga o‘tkazilganda, sotilgan sanada birinchi yuridik shaxsda mavjud bo‘lgan renta zararining qoldig‘i ushbu moddaning beshinchi qismida aniqlanadigan koeffitsiyent hisobga olingan holda ikkinchi yuridik shaxsga o‘tadi.

Metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) huquqi uchun ruxsatnomaning (litsenziyaning) amal qilish davrida o‘rni qoplanmagan jamg‘arilgan renta zarari soliq to‘lovchiga kompensatsiya qilinmaydi.

Soliq to‘lovchi renta daromadiga (renta zarariga) tegishli xarajatlari va daromadlarining hisobini yuritishi hamda ular bo‘yicha soliq hisobotini taqdim etishi, shuningdek majburiy auditdan o‘tkazish uchun qonunchilikda belgilangan muddatlarda har yili mazkur xarajatlar va daromadlarning auditini amalga oshirishi shart.

454[5]-modda. Soliq stavkalari

Minimal soliq stavkasi, agar ushbu moddaning ikkinchi qismida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq bazasiga nisbatan 25 foiz miqdorida belgilanadi.

Yer qa’ri uchastkasidan geologik jihatdan o‘rganish uchun foydalanish yoki ahamiyatli tijorat salohiyatiga ega bo‘lgan, avval qidiruv o‘tkazilgan yer qa’ri uchastkasida alohida obyektlar bo‘yicha metallarni yoxud uglevodorod xom ashyosini qazib olish huquqi tanlov savdolariga qo‘yilganda, tanlov savdolarining tashkilotchisi yoki tanlov savdolarining ishtirokchilari soliq stavkasining oshirilgan miqdorini taklif qilishga haqli. Bunda soliq to‘lovchi soliqlarni oshirilgan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqaradi.

454[6]-modda. Soliq davri. Hisobot davri

Kalendar yil soliq davri hisoblanadi.

Yilning choragi hisobot davridir.

454[7]-modda. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi

Soliq to‘lovchilar soliqni mustaqil ravishda, ushbu Kodeksning 454[4]-moddasiga muvofiq aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqaradi. Bunda chet el valyutasida ifodalangan soliq bazasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining soliq hisobotini taqdim etish sanasida belgilangan kursi bo‘yicha milliy valyutada qayta hisob-kitob qilinadi.

Soliq hisoboti soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi soliq organiga soliq to‘lovchi tomonidan har bir hisobot va soliq davri tugaganidan keyin quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

renta zarari mavjud bo‘lgan davrda — yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay;

soliq bazasi mavjud bo‘lgan davrda — har chorakda, ortib boruvchi yakun bilan hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa hisobot davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay.

Soliqni to‘lash har chorakda keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa hisobot davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

(XVIII[1] bo‘lim O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son — Ushbu bo‘limning qoidalari metallarni va uglevodorod xom ashyosini qazib olish 2022-yil 1-yanvardan keyin boshlanadigan litsenziya olingan yer uchastkalariga nisbatan qo‘llaniladi.)

XIX BO‘LIM
YIG‘IMLAR

65-bob. Yig‘imlar

455-modda. Yig‘imlarning turlari

Yig‘imlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im;

11) yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalarining avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanishi huquqi uchun yig‘im;

(455-modda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuniga asosan 11-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-apreldan e’tiboran amalga kiritiladi)

2) alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlar, jumladan:

alkogol mahsulotlarini chakana sotish huquqi uchun yig‘im;

umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yig‘im;

(455-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni 15-ilovasi.

3) pivo va pivo ichimliklari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘im;

4) tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘im.

(455-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 16-maydagi O‘RQ-1063-sonli Qonuniga asosan 3 va 4-bandlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.05.2025-y., 03/25/1063/0445-son)

455¹-modda. O'z kuchini yo'qotgan

(455¹-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

456-modda. Soliq to‘lovchilar

Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki ulardan foydalanuvchilar ushbu vositalarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘imning soliq to‘lovchilari deb e’tirof etiladi.

Yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalarining egalari ushbu vositalarning avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanishi huquqi uchun yig‘imning soliq to‘lovchilari deb e’tirof etiladi.

(456-modda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-apreldan e’tiboran amalga kiritiladi)

Alkogol mahsulotlari bilan chakana savdo qilish korxonalari hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish boshlanganligi haqida vakolatli davlat organi xabardor qilinganligi to‘g‘risidagi tasdiqnomaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imning soliq to‘lovchilari deb e’tirof etiladi.

(456-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Pivo va pivo ichimliklari bilan chakana savdo qilishni boshlaganlik haqida vakolatli davlat organi xabardor qilinganligi to‘g‘risidagi tasdiqnomaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar pivo va pivo ichimliklari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imning soliq to‘lovchilari deb e’tirof etiladi.

Tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilishni boshlaganlik haqida vakolatli davlat organi xabardor qilinganligi to‘g‘risidagi tasdiqnomaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imning soliq to‘lovchilari deb e’tirof etiladi.

(456-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 16-maydagi O‘RQ-1063-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi va beshinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.05.2025-y., 03/25/1063/0445-son)

457-modda. Soliq solish obyekti

Quyidagilar yig‘imlarning soliq solish obyektidir:

chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranziti;

yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalari.

Ushbu modda birinchi qismining uchinchi xatboshisida nazarda tutilgan soliq solish obyekti jumlasiga quyidagilar kirmaydi:

1) karyerlar hududida ishlaydigan og‘ir yuk ko‘taradigan avtosamosvallar;

2) avtokranlar;

3) O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiyasi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tasarrufidagi avtotransport vositalari.

(457-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-apreldan e’tiboran amalga kiritiladi)

458-modda. Soliq bazasi

Quyidagilar yig‘imlarning soliq bazasi hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida yoki uning hududi orqali tranzit o‘tayotganida — chet davlatlarning avtotransport vositalari;

yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalari.

(458-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-apreldan e’tiboran amalga kiritiladi)

459-modda. O'z kuchini yo'qotgan

(459-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

460-modda. Yig‘imlarni to‘lash tartibi

Chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im chet davlatning avtotransport vositasi O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganda yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududida undiriladi.

(460-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalarining avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanishi huquqi uchun yig‘im qonunchilikda belgilangan tartibda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Transport vazirligi va hududiy transport boshqarmalari tomonidan undiriladi. Bunda to‘langan yig‘im yuk avtotransporti vositalari va tirkamalariga avtomobil yo‘llari bo‘ylab bir yil davomida harakatlanish huquqini beradi.

(460-modda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-apreldan e’tiboran amalga kiritiladi)

Ushbu Kodeks 455-moddasining 2, 3 va 4-bandlarida nazarda tutilgan yig‘imlar alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish, pivo va pivo ichimliklari bilan chakana savdo qilish yoki tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilish boshlanganligi to‘g‘risida tegishincha xabarnoma yuborilgan paytdan e’tiboran to‘lanadi. Bunda xabarnoma joriy oyning yigirmanchi sanasiga qadar yuborilganda yig‘im mazkur oy uchun to‘liq hajmda, xabarnoma joriy oyning yigirmanchi sanasidan keyin yuborilganda esa keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab hisoblab chiqariladi.

(460-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 16-maydagi O‘RQ-1063-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.05.2025-y., 03/25/1063/0445-son)

Agar alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish, shu jumladan umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan realizatsiya qilish, pivo va pivo ichimliklari bilan chakana savdo qilish yoki tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilish bir nechta statsionar savdo va (yoki) umumiy ovqatlanish punktlari orqali amalga oshirilsa, alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish, pivo va pivo ichimliklari bilan chakana savdo qilish yoki tamaki mahsuloti bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlar belgilangan stavkalar doirasida statsionar savdo va (yoki) umumiy ovqatlanish punktlarining soniga, shuningdek ularning har biri joylashgan hudud o‘lchamlariga mutanosib ravishda hisoblab chiqariladi hamda undiriladi.

(460-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 16-maydagi O‘RQ-1063-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.05.2025-y., 03/25/1063/0445-son)

Alkogol mahsulotlari yoki pivo va pivo ichimliklari yoxud tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilish faoliyati to‘xtatib turilganda yoki tugatilganda yig‘imni hisoblab chiqarish keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab to‘xtatib turiladi.

(460-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 16-maydagi O‘RQ-1063-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.05.2025-y., 03/25/1063/0445-son)

Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish, pivo va pivo ichimliklari bilan chakana savdo qilish yoki tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘im har oyda oldindan to‘lov tarzida, joriy oyning o‘ninchi sanasiga qadar to‘lanadi.

(460-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 16-maydagi O‘RQ-1063-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.05.2025-y., 03/25/1063/0445-son)

Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish, pivo va pivo ichimliklari bilan chakana savdo qilish yoki tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig‘imlar qonunchilikda belgilangan tartibda taqsimlanadi.

(460-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 16-maydagi O‘RQ-1063-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.05.2025-y., 03/25/1063/0445-son)

460¹-modda. O'z kuchini yo'qotgan

(460¹-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

(65-bobning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

XX BO‘LIM
AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ

66-bob. Aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash

461-modda. Soliq to‘lovchilar

Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq to‘lovchilar deb yuritiladi) deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) soliq davrida jami daromadi bir milliard so‘mdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari (bundan buyon ushbu bo‘limda yuridik shaxslar deb yuritiladi);

2) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi bir milliard so‘mdan oshmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar.

(461-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Aylanmadan olinadigan soliq quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

1) O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirishni (importni) amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga;

(461-modda ikkinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

2) aksiz solig‘i to‘lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi va foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

3) yuridik shaxslar — qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga, basharti ularda yigirma besh gektar va undan ortiq sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi ekin maydoni mavjud bo‘lsa;

(461-modda ikkinchi qismining 3-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

4) benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

5) lotoreyalarni tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

6) oddiy shirkat ishlarini yuritish o‘z zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxsga — oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat bo‘yicha, bundan islomiy moliya operatsiyalari bo‘yicha banklar va mikromoliya tashkilotlari bilan tuzilgan oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat mustasno;

(461-modda ikkinchi qismining 6-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.03.2026-y., 03/26/1126/0279-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 29-iyun)

7) bo‘sh turgan binolar, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo‘lgan yuridik shaxslarga, ulardan samarasiz foydalanilayotganligi bo‘yicha qonunda belgilangan tartibda xulosa kiritilganda;

8) markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan obyektlarni (joriy va kapital ta’mirlash bundan mustasno) qurishni bajaruvchi yuridik shaxslarga;

9) alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivoni chakana sotish bo‘yicha turg‘un savdo shoxobchalariga;

10) bozorlarga va savdo komplekslariga;

(461-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-659-sonli Qonuniga asosan 9 va 10-bandlar bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son — 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

11) soliq maslahatchilarining tashkilotlariga;

12) auditorlik tashkilotlariga;

13) notijorat tashkilotlariga, shu jumladan budjet tashkilotlariga;

(461-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan 11, 12 va 13-bandlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

14) dori vositalari, tibbiy buyumlar savdosi bilan shug‘ullanuvchi korxonalarga va (yoki) tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarga;

(461-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1104-sonli Qonuniga asosan 14-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1104/1213-son)

> **Izoh.** 2025-yil 1-apreldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

15) zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish va (yoki) ularni sotish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga.

(461-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan 15-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

462-modda. Aylanmadan olinadigan soliqni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari

Ushbu Kodeksning 461-moddasi birinchi qismi 1-bandida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilar qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lash o‘rniga aylanmadan olinadigan soliq (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq deb yuritiladi) to‘lashni nazarda tutadigan maxsus soliq rejimini tanlashga haqli.

Ushbu Kodeksning 461-moddasi birinchi qismi 1-bandida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilar aylanmadan olinadigan soliq to‘lashga navbatdagi soliq davridan boshlab o‘tishga haqli. Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tish uchun soliq to‘lovchilar aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tishi to‘g‘risida soliq hisobida turgan joyidagi soliq organini O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda, biroq aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tilayotgan navbatdagi soliq davri boshlanishiga qadar o‘n kundan kechiktirmay xabardor qiladi.

(462-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Ushbu Kodeks 461-moddasi birinchi qismining 2-bandida ko‘rsatilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash o‘rniga qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tishga haqli.

(462-moddaning uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi qismlari O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran tadbirkorlik faoliyati subyektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish chog‘ida tanlangan soliq solish tartibini ko‘rsatish orqali aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash tartibini tanlash huquqiga ega.

Yuridik shaxslar aylanmadan olinadigan soliqni qo‘llashni ushbu Kodeksning 237-moddasiga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tish uchun va bir vaqtning o‘zida aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashni rad etishga doir ariza berilgan oydan keyingi oyning 1-sanasidan boshlab ixtiyoriy ravishda rad etishga haqli.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga ixtiyoriy ravishda o‘tgan soliq to‘lovchilar, basharti joriy soliq davri yakunlari bo‘yicha tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadlari bir milliard so‘mdan oshmagan bo‘lsa, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga kamida o‘n ikki oydan keyin qayta o‘tishga haqli.

Soliq davri davomida jami daromadi bir milliard so‘mdan oshgan soliq to‘lovchilar, shu jumladan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar va yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar jami daromadi ko‘rsatilgan miqdorga yetgan kundan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

(462-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Agar yangi tashkil etilgan yuridik shaxsning jami daromad summasi, yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorda yoki o‘zini o‘zi band qilgan shaxsda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad summasi bir milliard so‘m uch yuz oltmish beshga bo‘lingan va soliq to‘lovchi ro‘yxatdan o‘tgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar bo‘lgan kunlar soniga ko‘paytirilgandagi summadan oshsa, u holda bunday shaxslar ro‘yxatdan o‘tilgan yildan keyingi yildan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

(462-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga oid boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatuvchi soliq to‘lovchilar, shu jumladan telekommunikatsiyalar operatorlari va (yoki) provayderlariga vositachilik xizmatlarini ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadni realizatsiya qilish bo‘yicha umumiy aylanmadan (bitim summalaridan) kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Bo‘sh turgan binolar, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo‘lgan yuridik shaxslar, ularni samarasiz foydalanayotganligi bo‘yicha xulosa chiqarilgan oydan keyingi oyning sanasidan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

(462-moddaning o‘n ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Qurilishi tugallanmagan obyektlar va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdorlari bo‘lgan yuridik shaxslar, investitsion loyihaning amalga oshirilmaganligi to‘g‘risida xulosa berishga vakolati bo‘lgan vakolatli organning xulosasi chiqarilgan sanadan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

(462-moddaning o‘n uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari hisobidan obyektlar qurilishini (bundan joriy va kapital ta’mirlash mustasno) bajaruvchi yuridik shaxslar bunday qurilishga doir shartnoma tuzilgan sanadan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

(462-moddaning o‘n to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirishni (importni) amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar qaysi sana oldinroq kelishiga qarab import shartnomasi tuzilgan yoki tovarlar olib kirilgan (import qilingan) sanadan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini hamda foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

(462-moddaning o‘n uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Ushbu Kodeks 461-moddasi ikkinchi qismining 2, 4, 5, 9 va 11-bandlarida nazarda tutilgan shaxslar tegishli ruxsatnomalarni (litsenziyalarni) olgan yoki o‘z faoliyatini boshlaganligi to‘g‘risida vakolatli organni xabardor qilgan sanadan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini hamda foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Qishloq xo‘jaligi tovarlarini ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarda yigirma besh gektar va undan ortiq sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi ekinlari mavjud bo‘lgan taqdirda, ular ko‘rsatilgan yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni yoki ushbu yer uchastkasining maydoni o‘zgarganligini tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtirilgan sanadan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Oddiy shirkat ishlarini yuritish o‘z zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs bo‘lgan oddiy shirkat ishtirokchisi oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat bo‘yicha oddiy sheriklik shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Bozorlar va savdo komplekslari, notijorat tashkilotlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan e’tiboran, budjet tashkilotlari esa tashkil topgan sanadan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Auditorlik tashkilotlari auditorlik xizmatlari ko‘rsatish uchun shartnoma tuzilgan sanadan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini hamda foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

(462-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan o‘n beshinchi — yigirmanchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

Soliqni to‘lash soliq to‘lovchini quyidagilardan ozod etmaydi:

ushbu Kodeks bilan uning zimmasiga yuklatilgan soliq agentining majburiyatlarini bajarishdan;

agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, hisobvaraq-faktura taqdim etish, xaridlarni hisobga olish kitobini va sotishlarni hisobga olish kitobini yuritish majburiyatidan.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshgan yoki qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga ixtiyoriy tartibda o‘tganidan e’tiboran soliqlarni (bundan ijtimoiy soliq mustasno) ushbu Kodeksga muvofiq yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda to‘laydi.

(462-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan yigirmanchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

463-modda. Soliq solish obyekti

Ushbu Kodeksning 43-bobiga muvofiq aniqlanadigan jami daromad soliq solish obyektidir, bundan ushbu Kodeksning 304-moddasiga muvofiq, ushbu moddada nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda soliq solish chog‘ida inobatga olinmaydigan daromadlar mustasno.

Soliq solish maqsadida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad deganda quyidagilar tushuniladi:

qurilish, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o‘z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan xizmatlarni materiallar bilan ta’minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo‘lsa, ushbu materiallarga bo‘lgan mulk huquqi buyurtmachining o‘zida saqlanib qolgan taqdirda, o‘z kuchlari bilan bajarilgan xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar bajarilgan hamda tasdiqlangan xizmatlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi daromadi sifatida belgilanadi;

mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun — moliyaviy ijara (lizing) bo‘yicha foizli daromad summasi;

vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga oid boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatadigan yuridik shaxslar uchun — ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi;

tovarlarni (xizmatlarni) tekin beruvchi yuridik shaxslar uchun — agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, tovarlarning (xizmatlarning) tannarxi yoki ularni olish bahosi (tovarni olish bilan bog‘liq xarajatlarni hisobga olgan holda). Mazkur norma ekologiya, sog‘lomlashtirish hamda xayriya jamg‘armalariga, madaniyat, sog‘liqni saqlash, mehnat, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta’lim muassasalariga bepul beriladigan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan tatbiq etilmaydi.

(463-modda ikkinchi qismining oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 26-iyuldagi O‘RQ-785-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.07.2022-y., 03/22/785/0679-son)

Soliq solish obyekti bo‘lib quyidagilar ham hisoblanadi:

1) tovarlarni (xizmatlarni) quyidagilarga:

a) ishtirokchilar tarkibidan ishtirokchi chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoxud uning yuridik shaxsdagi ulushi kamaytirilganda yoki yuridik shaxs tomonidan ishtirokchidan uning ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning qismi) qaytarib sotib olinganda ushbu ishtirokchiga berish;

b) yuridik shaxs bo‘lgan emitent tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalar qaytarib sotib olinganda aksiyadorga berish;

v) yuridik shaxs tugatilganda aksiyadorga yoki ishtirokchiga berish;

2) tovarlarni (xizmatlarni) jismoniy shaxs mehnatiga haq to‘lash hisobidan yoki dividend to‘lash hisobidan berish;

3) tovarlarni yoki boshqa mol-mulkni qayta ishlab berish uchun berish, agar tovarlar va (yoki) mulk qayta ishlash mahsuloti sifatida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo‘lsa;

4) ko‘p marta aylanadigan, sotuvchiga qaytarilishi shart bo‘lgan idishlarni, agar idish mahsulotni shunday idishda yetkazib berish shartnomasida belgilangan muddatda qaytarilmagan bo‘lsa, berish.

Tovarlarni (xizmatlarni) olish huquqini taqdim etuvchi vaucherlarni realizatsiya qilish yoki bepul berish mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish deb e’tirof etiladi.

Uzoq muddatli shartnomalar bo‘yicha daromadlar ushbu Kodeksning 303-moddasida nazarda tutilgan tartibda jami daromad tarkibiga kiritiladi.

Balansning valyuta hisobvaraqlarini qayta baholash chog‘ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o‘rtasidagi saldo soliq solish obyekti deb e’tirof etiladi. Kursdagi salbiy farqning summasi kursdagi ijobiy farq summasidan ortiq bo‘lgan taqdirda oshib ketgan summa aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarishda soliq bazasini kamaytirmaydi.

Soliq to‘lovchilar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i yoxud qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i to‘lash davrida aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tguniga qadar olingan daromadlar jami daromadga kiritilmaydi.

464-modda. Soliq bazasi

Ushbu Kodeksning 463-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan jami daromad soliq bazasi deb e’tirof etiladi, bundan quyidagilar mustasno:

1) O‘zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va boshqa davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslarning xalqaro obligatsiyalari bo‘yicha daromadlar;

2) soliq agentida soliq solinishi lozim bo‘lgan dividendlar;

3) qaytariladigan ko‘p marta aylanadigan tara qiymati, agar uning qiymati ilgari tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan olinadigan daromadga kiritilgan bo‘lsa;

4) amortizatsiya qilinadigan aktivlarni tugatishda ularni qo‘shimcha baholashda olingan, oldingi narxni tushirishlardagi summadan ortiqcha summa hisobidan olingan daromadlar;

5) hisobot yilida aniqlangan o‘tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular shakllangan davrdagi qonunchilikka muvofiq soliqlar bo‘yicha qayta hisob-kitob o‘tkazilganligi inobatga olingan holda soliq solinadi.

(464-modda birinchi qismining 5-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

(O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan 464-modda birinchi qismi 6-bandining chiqarilish sanasi 2025-yil 1-yanvar — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son)

Soliq solinadigan baza ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

1) brokerlik tashkilotlari uchun — bitim summasidan birjaga o‘tkaziladigan vositachilik yig‘imi summasiga;

2) komissiya shartnomasi bo‘yicha vositachilik xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar uchun — tovarlarni import qilishda to‘langan bojxona to‘lovlari summasiga realizatsiya qilingan tovar ulushida;

3) turizm faoliyati subyektlari uchun — turistik xizmatlarni onlayn bronlashtirish va sotish uchun yaratilgan dasturiy mahsulotlarni hamda axborot tizimlarini joriy etishga yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga.

4) tadbirkorlik subyektlari uchun — tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlarining 0,5 foizidan oshmagan miqdorda o‘z xodimlariga va ularning yaqin qarindoshlariga ommaviy-madaniy hamda konsert-tomosha tadbirlariga borishi uchun chiptalar xarid qilishga doir xarajatlar summasiga;

(464-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 26-iyuldagi O‘RQ-785-sonli Qonuniga asosan 4-band bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.07.2022-y., 03/22/785/0679-son)

465-modda. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

(465-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning soliq bazasi bo‘lib, ularning tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan, ushbu Kodeksning 463-moddasiga muvofiq hisoblab chiqilgan jami daromadi hisoblanadi.

(465-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Jismoniy shaxs o‘z tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bitimlarni tuzishda o‘zining yakka tartibdagi tadbirkor yoki o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyat ko‘rsatayotganligini, agar bu bitimlarni tuzish holatining o‘zidan yaqqol kelib chiqmasa, ko‘rsatishi shart.

(465-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Soliq solishda yakka tartibdagi tadbirkorning yoki o‘zini o‘zi band qilgan shaxsning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinadigan, uning tadbirkorlikni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkini sotishdan olingan daromadlari hisobga olinmaydi.

(465-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning to‘lov tashkilotlarining raqamli platformalari orqali tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan bir milliard so‘mgacha bo‘lgan daromadlari bo‘yicha to‘lov tashkilotlari soliq agenti deb e’tirof etiladi.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha yuridik shaxslardan olgan bir milliard so‘mgacha bo‘lgan daromadlari bo‘yicha ushbu yuridik shaxslar soliq agenti deb e’tirof etiladi. Bunda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar to‘lashi lozim bo‘lgan soliq yuridik shaxslar tomonidan soliq organlarining xabarnomasi asosida to‘lov manbaida ushlab qolinadi.

Ushbu moddaning to‘rtinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilganidan boshqa hollarda, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar tomonidan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar bo‘yicha soliqlarni to‘lash va hisobotlarni taqdim etish ishlari ushbu Kodeksda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadlariga nisbatan ushbu Kodeks 381-moddasining birinchi qismida belgilangan stavkada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinadi.

(465-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi — yettinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

466-modda. Daromadlarga tuzatish kiritish

Hisobot soliq davrida soliq bazasini ko‘paytirish yoki kamaytirish daromadlarga tuzatish kiritish deb e’tirof etiladi.

Daromadlarga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

1) tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda;

2) bitim shartlari o‘zgarganda;

3) narxlar o‘zgarganda, sotib oluvchi siylovlardan foydalanganda;

4) ko‘rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan daromadlarga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Ushbu moddaga muvofiq daromadlarga tuzatish kiritish ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan hollar yuz berganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovarni (xizmatlarni) sotuvchi tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadga tuzatish kiritishni ushbu Kodeksning 257-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiradi.

Daromadlarga ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollarda tuzatish kiritish ko‘rsatilgan hollar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Daromadlarga tuzatish kiritish soliq to‘lovchi umumbelgilangan soliq solish tartibidan aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tgan hollarda ham amalga oshiriladi, bundan tuzatish kiritiladigan daromadlar bo‘yicha imtiyozlarni qo‘llash hollari mustasno.

467-modda. Soliq stavkalari

Soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r

Soliq to‘lovchilar

Soliq stavkalari, foizlarda

1.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi soliq to‘lovchilar, bundan 2 — 5-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno

4

2.

Chakana savdo sohasidagi soliq to‘lovchilar

2.1.

joylashgan joyiga qarab:

aholisi soni yuz ming nafar va undan ko‘p kishidan iborat shaharlarda

4

boshqa aholi punktlarida

2

borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda

1

2.2.

joylashgan joyidan qat’i nazar, tamaki mahsulotlarini realizatsiya qilishdan tovar aylanmasi bo‘yicha

4

3.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotib oluvchi, saralovchi, saqlovchi va qadoqlovchi tayyorlov tashkilotlari

tovar aylanmasining 4 yoki yalpi daromadning 25

4.

Yagona ishtirokchisi nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari, “Nuroniy” jamg‘armasi va “O‘zbekiston Chernobilchilari” assotsiatsiyasi bo‘lgan, umumiy sonida nogironligi bo‘lgan shaxslar, urush va 1941 — 1945-yillardagi mehnat fronti veteranlari 50 foizdan kam bo‘lmagan va nogironligi bo‘lgan shaxslar, urush va 1941 — 1945-yillardagi mehnat fronti veteranlarining mehnatiga haq to‘lash fondi umumiy mehnatga haq to‘lash fondining 50 foizidan kam bo‘lmagan soliq to‘lovchilar

0

5.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar

1

(467-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

(O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan 467-modda ikkinchi qismining chiqarilish sanasi 2026-yil 1-yanvar — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son)

(O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan 467-modda uchinchi qismining chiqarilish sanasi 2026-yil 1-yanvar — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son)

(O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan 467-modda to‘rtinchi qismining chiqarilish sanasi 2026-yil 1-yanvar — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son)

Ushbu modda ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qismlarining qoidalari 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran o‘z kuchini yo‘qotgan deb topiladi.

(467-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan beshinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 1-yanvar)

468-modda. Alohida-alohida hisob yuritish

Turli soliq solish obyektlari va (yoki) soliq stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turi bilan shug‘ullanadigan soliq to‘lovchilar bunday faoliyat turlari bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritishi hamda soliq to‘lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha soliqni to‘lashi shart.

Ushbu modda birinchi qismining qoidalari chakana savdo sohasidagi mustaqil yuridik shaxs bo‘lmagan turli aholi punktlarida joylashgan bir qancha savdo nuqtalariga ega soliq to‘lovchilarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Ushbu Kodeks 297-moddasi uchinchi qismining 5, 6, 10, 11, 12, 13, 14, 17, 18, 21, 22, 23, 25 va 27-bandlarida ko‘rsatilgan daromadlarga, shuningdek foizlar tarzidagi daromadlarga soliq to‘lovchining hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha umumiy jami daromadlaridagi ulushi ustunlik qiladigan faoliyat turi uchun belgilangan soliq stavkalari bo‘yicha soliq solinadi.

(468-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 17-apreldagi O‘RQ-1057-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.04.2025-y., 03/25/1057/0351-son)

Hisobot (soliq) davrida ushbu Kodeks 467-moddasining 2 — 5-bandlarida ko‘rsatilgan faoliyat turlari mavjud bo‘lmaganda, ushbu moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan daromadlarga ushbu Kodeks 467-moddasining 1-bandida belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha soliq solinadi.

(468-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

469-modda. Soliq davri. Hisobot davri

Kalendar yil soliq davridir.

Bir oy hisobot davridir.

(469-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

470-modda. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda aniqlanadi.

(470-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, hisobot davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi soliq davri boshidan ortib boruvchi yakun bilan soliq bazasining mos soliq stavkasiga foiz ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq hisoboti soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

(470-modda uchinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

1) hisobot davri yakunlari bo‘yicha — hisobot davridan keyingi oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay;

2) soliq davri yakunlari bo‘yicha — soliq davridan keyingi davrning 15-fevralidan kechiktirmay.

Ushbu Kodeks 465-moddasining to‘rtinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlari bo‘yicha soliq hisobotlari soliq agentlari tomonidan har bir yakka tartibdagi tadbirkor yoki o‘zini o‘zi band qilgan shaxs kesimida taqdim etiladi. Bunda hisoblangan va to‘langan soliq hisobi yakka tartibdagi tadbirkor yoki o‘zini o‘zi band qilgan shaxs soliq to‘lovchi sifatida hisobda turgan joydagi soliq organidagi soliq to‘lovchining shaxsiy hisobvarag‘ida yuritiladi.

(470-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha soliqni to‘lash tegishli hisobot (soliq) davri uchun soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

(470-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

470¹-modda. O'z kuchini yo'qotgan

(O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuniga asosan 470¹-moddaning o‘z kuchini yo‘qotish sanasi — 2026-yil 1-yanvar — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son)

XXI BO‘LIM
SOLIQ TO‘LOVCHILARNING AYRIM TOIFALARIGA VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM HUDUDLARIDA SOLIQ SOLISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

67-bob. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

471-modda. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solish shartlari

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalarini jalb etgan holda tashkil etilgan va qonunchilikda tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar uchun ayrim soliqlar bo‘yicha imtiyozlarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi.

(471-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

> **Izoh.** Qarang: mazkur Kodeksning 472-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining 2016-yil 9-avgustdagi 61, 2016-24, 121-sonli qarori bilan tasdiqlangan To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizom (ro‘yxat raqami 2822, 2016-yil 26-avgust).

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari deganda chet davlatning fuqarolari bo‘lgan jismoniy shaxslar, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, shuningdek chet ellik nodavlat yuridik shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining kafolatini taqdim etmasdan amalga oshiriladigan investitsiyalar tushuniladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan yuridik shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadigan muddatga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari hajmiga qarab, yer solig‘ini va mol-mulk solig‘ini to‘lashdan ozod etish tarzidagi soliq imtiyozlari beriladi.

(471-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa soliq imtiyozlardan foydalanishga haqli.

(471-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

472-modda. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslar tomonidan soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi

Ushbu Kodeksning 471-moddasida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda qo‘llaniladi:

1) yuridik shaxslar qonunchilikda belgilanadigan hududlarga joylashtirilganda;

(472-modda birinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2) chet ellik investorlar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari O‘zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirilganda;

3) yuridik shaxslarning ustav fondida (ustav kapitalida) chet ellik ishtirokchilarning ulushi kamida 33 foiz, aksiyadorlik jamiyatlari uchun esa kamida 15 foiz bo‘lganda;

4) chet el investitsiyalari erkin ayirboshlanadigan valyuta yoki yangi zamonaviy texnologik asbob-uskuna tarzida kiritilganda;

5) ushbu Kodeksning 471-moddasida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari berilganligi natijasida ularning qo‘llanilishi muddati mobaynida olingan daromadlarning kamida 50 foizi ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish maqsadida reinvestitsiyaga yo‘naltirilganda.

Ushbu Kodeksning 471-moddasida nazarda tutilgan soliq imtiyozlarini olgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxs imtiyozlar berilgan muddat o‘tganidan keyin bir yil o‘tmasidan oldin faoliyatini tugatgan taqdirda, chet ellik investorning foydasini o‘z mamlakatiga o‘tkazish va kapitalini xorijga olib chiqib ketish faqat berilgan soliq imtiyozlari summalarining o‘rni budjetga qoplanganidan keyin amalga oshiriladi.

Ushbu bobda nazarda tutilgan shartlarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda, ushbu Kodeksning 471-moddasida nazarda tutilgan soliq imtiyozlarini olgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxs belgilangan talablarga muvofiq bo‘lmagan davr uchun soliqlar ushbu Kodeksning VIII bo‘limida nazarda tutilgan penyalar qo‘llanilgan holda, umumbelgilangan tartibda to‘lanadi.

68-bob. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

473-modda. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solish shartlari

Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab, mol-mulk solig‘idan va yer solig‘idan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilangan muddatga ozod qilish tarzida soliq imtiyozlari beriladi.

(473-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari foyda solig‘ini to‘lashdan o‘zi kiritgan investitsiyalar hajmiga qarab:

3 million AQSH dollaridan 5 million AQSH dollarigacha bo‘lgan miqdordagi investitsiyalar uchun — 3 yil muddatga;

5 million AQSH dollaridan 15 million AQSH dollarigacha bo‘lgan miqdordagi investitsiyalar uchun — 5 yil muddatga;

15 million AQSH dollari va undan yuqori miqdordagi investitsiyalar uchun — 10 yil muddatga ozod etiladi.

(473-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-iyuldagi O‘RQ-783-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.07.2022-y., 03/22/783/0620-son)

2026-yil 1-apreldan e’tiboran maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomini olgan soliq to‘lovchilarga nisbatan foyda solig‘i bo‘yicha imtiyoz ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan, kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab belgilanadigan muddatga amortizatsiya qilinadigan asosiy vositalarni tezlashtirilgan amortizatsiya qilish huquqi tarzida qo‘llaniladi.

(473-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Ushbu moddaning birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida ko‘rsatilgan soliq imtiyozlari faqat investor (investorlar) va Maxsus iqtisodiy zona direksiyasi o‘rtasida tuzilgan Maxsus iqtisodiy zona hududiga investitsiya kiritish to‘g‘risidagi bitimda nazarda tutilgan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisining faoliyati turlariga nisbatan tatbiq etiladi.

(473-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari qo‘shilgan qiymat solig‘i va boshqa soliqlar bo‘yicha imtiyozlardan ushbu Kodeksga muvofiq foydalaniladilar.

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni 3, 39, 42-moddalari.

474-modda. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi

Ushbu Kodeks 473-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan soliq imtiyozlarining amal qilish muddati maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisining guvohnomasi olingan kundan e’tiboran hisoblab chiqariladi.

Ushbu Kodeks 473-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan foyda solig‘i bo‘yicha imtiyozlarning amal qilish muddati maxsus iqtisodiy zona hududida ishlab chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish) obyekti foydalanishga qabul qilingan sanadan e’tiboran hisoblanadi.

(474-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Maxsus iqtisodiy zonaning ishtirokchisi maqomidan mahrum etilganda tadbirkorlik subyekti maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilariga beriladigan soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalardan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomidan mahrum etilgan oyning birinchi kunidan e’tiboran foydalanishga haqli emas.

Agar maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi investitsiyalar hajmini soliq imtiyozlarining uzoqroq amal qilish muddatini nazarda tutadigan miqdorgacha oshirsa, u investitsiyalarning haqiqiy hajmiga muvofiq soliq imtiyozlarining amal qilish muddatini uzaytirishga haqli. Bunda, agar investitsiyalar hajmining oshishi imtiyozlarning avvalgi amal qilish muddati tugaganidan keyin amalga oshirilsa, soliq imtiyozlari imtiyozlarning uzoqroq amal qilish muddatiga bo‘lgan huquq yuzaga kelgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan e’tiboran qo‘llaniladi.

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni 39-moddasi.

69-bob. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

475-modda. Umumiy qoidalar

Mahsulot taqsimotiga oid bitim shartnoma bo‘lib, bu shartnomaga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi haq olish asosida hamda muayyan muddatga chet ellik investorga bitimda ko‘rsatilgan yer qa’ri uchastkasida konlarni aniqlash, qidirish va foydali qazilmalarni kavlab olish uchun mutlaq huquqlar beradi.

Mahsulot taqsimotiga oid bitimda quyidagilar nazarda tutiladi:

hisob yuritish va hisobot berish tartibi;

soliq solish va boshqa to‘lovlarni to‘lash shartlari;

chet ellik investorning ulushini olib chiqish tartibi.

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasi.

476-modda. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Chet ellik investor, bundan mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno, mahsulot taqsimotiga oid bitimning amal qilish muddati mobaynida ushbu Kodeksning 17-moddasida nazarda tutilgan soliqlarni to‘laydi.

(476-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan soliqlar, agar mahsulot taqsimotiga oid bitimda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha undiriladi.

Chet ellik investorga soliq solish quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda amalga oshiriladi:

1) foyda solig‘i mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlarni bajarish chog‘ida olingan daromad bo‘yicha va faoliyatning boshqa turlari bo‘yicha olingan daromad bo‘yicha alohida-alohida to‘lanadi. Bitim shartlariga binoan chet ellik investorga tegishli bo‘lgan, chegirmalar qilinmagan holda foydaga qolgan mahsulotning qiymati mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlarni bajarish chog‘ida olingan daromadlar bo‘yicha foyda solig‘i solish obyektidir;

2) mineral xom ashyoni kavlab olish hajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foizli nisbatda mahsulot taqsimotiga oid bitim shartlariga muvofiq belgilanadigan va pul shaklida yoki kavlab olingan mineral xom ashyoning bir qismi tarzida to‘lanadigan yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

Agar yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan yuridik shaxslar birlashmasi investor sifatida ish yuritayotgan bo‘lsa, bunday birlashmaning ishtirokchilaridan biri yoki mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlarni bajaruvchi operator soliq majburiyatlarini bajaruvchi bo‘ladi. Bunda yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnoma olgan investor bir oylik muddatda soliq organini mazkur birlashmadan soliq majburiyatini bajaruvchi bo‘lib ish yuritadigan ishtirokchi to‘g‘risida xabardor etishi shart.

(476-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida”gi Qonuni 20-moddasi.

70-bob. Advokatlar hay’atlariga, advokatlik firmalariga, advokatlik byurolariga va advokatlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

477-modda. Advokatlarga soliq solish

Advokatlar hay’ati, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari faoliyatning notijorat tashkilotlar sifatida advokatlar tomonidan huquqiy yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq qismi bo‘yicha soliqlar va yig‘imlar to‘lashdan ozod qilinadi, bundan quyidagilar mustasno:

bojxona to‘lovlari;

ijtimoiy soliq;

(477-modda birinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son)

to‘lov manbaida ushlab qolinadigan soliqlar.

Advokatlar hay’ati, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari tomonidan tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilganda (yuridik yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lmagan) soliqlar va yig‘imlar tadbirkorlik faoliyatini amalga

oshiruvchi yuridik shaxslar uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda to‘lanadi.

478-modda. Advokatlar daromadlariga soliq solish

Advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatganlik uchun olinadigan gonorarlar summalariga ushbu moddada nazarda tutilgan xususiyatlar hisobga olingan holda, mazkur Kodeksning XIII bo‘limida belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinadi.

Advokatning daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solish obyektidir.

Advokatning daromadi advokat tomonidan yuridik yordam ko‘rsatilganligi uchun olingan summa bilan advokatlar hay’atlarini, advokatlik firmalarini va advokatlik byurolarini saqlab turish uchun o‘tkaziladigan mablag‘lar summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Soliq bazasi advokatning daromadidan uning daromadida hisobga olinadigan ijtimoiy to‘lov chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni.

71-bob. Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

479-modda. Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarga soliq solish

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar ushbu bobda nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda, ushbu Kodeksda belgilangan tartibda soliqlarni to‘lovchilar hisoblanadi.

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar mehnatga haq to‘lash tarzida olinadigan daromadlar bo‘yicha belgilangan stavkalar bo‘yicha ijtimoiy soliq va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘laydi.

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius zimmasiga xodimlarning mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini va ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish hamda to‘lash majburiyati yuklatiladi.

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar notarial xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi.

480-modda. Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarning foydasiga soliq solish

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar foyda solig‘ini ushbu Kodeksda belgilangan stavka bo‘yicha to‘laydi. Bunda foyda solig‘ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va to‘lash yiliga bir marta, hisobot davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Foyda solig‘ini hisoblab chiqarishda xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi ushbu Kodeksning 43-bobida nazarda tutilgan daromadlarning barcha turlari notariuslarning daromadlari deb e’tirof etiladi.

Notarial faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar chegiriladigan xarajatlar jumlasiga kiritiladi. Bunda chegirilmaydigan xarajatlar ushbu Kodeksning 317-moddasiga muvofiq aniqlanadi.

Foyda solig‘i to‘langanidan keyin xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariusning tasarrufida qolgan foyda soliq solish maqsadida dividendlarga tenglashtiriladi.

71^{1}-bob. O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

480^{1}-modda. Umumiy qoidalar

O‘zbekiston Respublikasining alohida hududlarida mazkur Kodeksning 480^{2}-moddasida belgilangan maxsus soliq stavkalari qo‘llanilishini nazarda tutuvchi soliq solishning alohida tartibi belgilanishi mumkin.

Soliq solishning alohida tartibiga ega O‘zbekiston Respublikasining alohida hududlari quyidagilardan iborat: Farg‘ona viloyatining So‘x tumani, Rishton tumanining Cho‘ng‘ara mahallasi, shuningdek Farg‘ona tumanining Shohimardon, Yordon mahallalari va Hosilot mahallasining Toshtepa — 2 ko‘chasi.

480²-modda. O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq stavkalarini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

1) foyda solig‘i bo‘yicha — 1 foiz. Mazkur soliq stavkasi O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq organida hisobda turgan va ayrim hududlarida amalga oshirilayotgan faoliyatdan daromadlar olayotgan soliq to‘lovchilarga nisbatan qo‘llaniladi;

2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha — 1 foiz. Mazkur soliq stavkasi O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida mehnat faoliyatini amalga oshirish chog‘ida qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan soliq to‘lovchilar uchun qat’iy belgilangan miqdorlardagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i har chorakda yigirma besh ming so‘m miqdorida to‘lanadi;

3) ijtimoiy soliq bo‘yicha:

yuridik shaxslar uchun (bundan budjet tashkilotlari mustasno) — 1 foiz. Mazkur soliq stavkasi O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslarning mehnatiga haq to‘lash fondiga nisbatan qo‘llaniladi;

O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun — yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida;

4) aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha — 1 foiz. Mazkur soliq stavkasi soliq to‘lovchilarga nisbatan ular tushumining O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida amalga oshirilayotgan faoliyatidan olinadigan qismiga nisbatan qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining alohida hududlarida joylashgan ko‘chmas mulk obyektlariga va yer uchastkalariga, shuningdek ushbu hududlarda foydalaniladigan suv resurslariga nisbatan mazkur Kodeksning 415, 422, 429, 437 va 445-moddalarida belgilangan mol-mulk solig‘i, yer solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 0,1 koeffitsiyent qo‘llaniladi.

(71¹-bob O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-714-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.09.2021-y., 03/21/714/0874-son — 2021-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

71²-bob. Islomiy moliya operatsiyalariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

480³-modda. Umumiy qoidalar

Agar ushbu Kodeksning mazkur bobida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, islomiy moliya operatsiyalariga soliq solishda ushbu Kodeks qoidalari qo‘llaniladi.

480⁴-modda. Islomiy moliya operatsiyalariga qo‘shilgan qiymat solig‘i solish

Quyidagilar qo‘shilgan qiymat solig‘i solishdan ozod qilinadi:

1) islomiy qimmatli qog‘ozlar (sertifikatlar) bilan bog‘liq operatsiyalar. Islomiy qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalar jumlasiga qimmatli qog‘ozlarni saqlash, qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqni hisobga olish, qimmatli qog‘ozlarni o‘tkazish hamda ularning reyestrini yuritish, qimmatli qog‘ozlar savdosini tashkil etish bo‘yicha operatsiyalar kiradi, bundan ularni tayyorlash bo‘yicha xizmatlar mustasno;

2) islomiy moliya faoliyati doirasida ishonchli boshqaruv (vositachilik) shartnomalari asosida bank va mikromoliya tashkiloti tomonidan ishonchli boshqaruvning muassisiga (komitentga) pulli asosda ko‘rsatilgan xizmatlar;

3) islomiy moliya faoliyati doirasida mol-mulkni moliyaviy ijaraga (islomiy ijaraga) berishda ushbu mol-mulkni moliyaviy ijaraga (islomiy ijaraga) berish bo‘yicha barcha ijara to‘lovlari summasi va sotib olish narxi o‘rtasidagi ijobiy farq;

4) banklar va mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliya faoliyati doirasida tuziladigan shartnomalar bo‘yicha mijozga (xaridorga) realizatsiya qilinadigan tovarlarga qo‘yiladigan ustama.

480[5]-modda. Islomiy moliya operatsiyalariga foyda solig‘i solish

Islomiy moliya faoliyati doirasida jami daromadlar tarkibiga quyidagi daromadlar kiritiladi:

1) islomiy moliya faoliyati bo‘yicha mukofot tarzidagi daromad;

2) islomiy sug‘urta va islomiy qayta sug‘urta tashkilotining sug‘urta, qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha daromadi.

Ushbu Kodeks 299-moddasi to‘rtinchi qismining qoidalari islomiy moliya operatsiyalari doirasida beriladigan qarzlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Islomiy moliya faoliyati doirasida mijozlarning to‘lovlarni kechiktirishi natijasida undirilgan jarimalar, penyalar hisobidan xayriya qilingan mablag‘lar foyda solig‘i bazasini aniqlashda chegirib tashlanadigan xarajatlar jumlasiga kiradi.

480[6]-modda. Islomiy moliya operatsiyalari doirasida boshqa soliqlar solish

Jismoniy shaxslarning islomiy moliya faoliyati bilan shug‘ullanuvchi bank va mikromoliya tashkilotlariga vositachilik (topshiriq), ishonchli boshqaruv yoki sherikchilik asosida mablag‘ taqdim etish to‘g‘risidagi shartnomalarga muvofiq olingan daromadlariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinmaydi.

Islomiy moliya faoliyati doirasida ko‘chmas mulklarni moliyaviy ijaraga (islomiy ijaraga) beruvchi banklar va mikromoliya tashkilotlari mol-mulk solig‘i to‘lovchilari deb e’tirof etiladi.

Islomiy moliya faoliyati doirasida moliyaviy ijara (islomiy ijara) shartnomasiga muvofiq moliyaviy ijaraga (islomiy ijaraga) berilgan (olingan) ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha ijaraga beruvchi banklar va mikromoliya tashkilotlari yer solig‘i to‘lovchisi deb e’tirof etiladi.

(71[2]-bob O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.03.2026-y., 03/26/1126/0279-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 29-iyun)

72-bob. Alohida sharoitlarda soliq majburiyatlarini bajarish

481-modda. Alohida sharoitlarda qo‘shimcha vakolatlar berish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yilning alohida sharoitlarida quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishga haqlidir:

1) ushbu Kodeksda va “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan ayrim soliqlar va yig‘imlar (bundan qo‘shilgan qiymat solig‘i va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq mustasno) stavkalarini o‘zgartirish;

> **Izoh.** Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni.

2) ushbu Kodeksda belgilangan soliqlar, shu jumladan ular bo‘yicha bo‘nak va joriy to‘lovlar hamda yig‘imlarni to‘lash muddatlarini uzaytirish;

3) soliq, moliyaviy hisobotlarni va (yoki) soliqlarni hisoblab chiqarish bilan bog‘liq boshqa hujjatlarni, shuningdek ularni taqdim etmaganlik (o‘z vaqtida taqdim etmaganlik) uchun javobgarlikni qo‘llamaslik asoslari va (yoki) shartlarini taqdim etish muddatlarini uzaytirish;

4) soliqlar, penyalar va jarimalarni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish, shuningdek ularni berish tartibi va shartlarini qayta ko‘rib chiqish;

5) soliqlar, yig‘imlar, penyalar va jarimalarni to‘lash to‘g‘risidagi talabnomalarni jo‘natish va ijro etish muddatlarini, shuningdek soliqlar, yig‘imlar, penyalar, jarimalarni undirish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish muddatlarini uzaytirish;

6) soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha (bundan qo‘shilgan qiymat solig‘i va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq mustasno) soliq imtiyozlarini berish;

7) soliqlar, penyalar va jarimalarni majburiy undirish choralarini to‘xtatib turish.

Ushbu moddaning birinchi qismida koʻrsatilgan normativ-huquqiy hujjatlarning amal qilishi davrida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar ushbu normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda soliq toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

482-modda. Soliqlarni, soliqlar boʻyicha boʻnak toʻlovlarini toʻlash boʻyicha foizsiz toʻlashni kechiktirishning yoki boʻlib-boʻlib toʻlashni qoʻllashning va alohida sharoitlarda soliq majburiyatlarini bajarishning vaqtinchalik tartibi

Soliqlarni, soliqlar boʻyicha boʻnak toʻlovlari boʻyicha foizsiz kechiktirish yoki boʻlib-boʻlib toʻlash imkoniyati quyidagilar boʻyicha beriladi:

ushbu Kodeks 17-moddasi birinchi qismining 6, 7 va 8-bandlarida koʻrsatilgan soliqlar boʻyicha — mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan, agar ushbu qismning uchinchi xatboshisida boshqacha qoida nazarda tutilmagan boʻlsa. Koʻrsatilgan soliqlarga nisbatan kechiktirish yoki boʻlib-boʻlib toʻlash imkoniyati 2020-yil 31-dekabrga qadar soddalashtirilgan asosda, olti oydan koʻp boʻlmagan muddatga berilishi mumkin;

ushbu Kodeks 17-moddasi birinchi qismining 6 — 9-bandlarida koʻrsatilgan soliqlar va aylanmadan olinadigan soliq boʻyicha — oʻz faoliyatini toʻxtatgan va (yoki) tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan tushumlar miqdori 2020-yilning birinchi choragida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi oʻrtacha oylik koʻrsatkichga nisbatan 50 foizdan koʻproqqa kamayadigan mikrofirmalar, kichik korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga. Bunday soliqlarga nisbatan ushbu moddaning beshinchi qismida belgilangan tartibda 2020-yil 31-dekabrga qadar kechiktirish (boʻlib-boʻlib toʻlash) imkoniyati berilib, kechiktirish (boʻlib-boʻlib toʻlash) imkoniyati berilgan soliqlar summalari keyinchalik toʻlanadi.

(482-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentabrdagi OʻRQ-714-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 15.09.2021-y., 03/21/714/0874-son — 2021-yil 1-yanvardan eʼtiboran yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

Ushbu Kodeksning 11-bobida nazarda tutilgan soliqlarni toʻlash boʻyicha kechiktirish yoki boʻlib-boʻlib toʻlash imkoniyatini berish tartibi soliqlarni toʻlash boʻyicha foizsiz kechiktirish yoki boʻlib-boʻlib toʻlash imkoniyatini berishning ushbu moddada nazarda tutilgan tartibiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Soliqlarni, soliqlar boʻyicha boʻnak toʻlovlarni toʻlash boʻyicha foizsiz kechiktirish va boʻlib-boʻlib toʻlashning:

1) ushbu modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisida koʻrsatilgan imkoniyati — soliq toʻlovchining arizasi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi hamda Moliya vazirligi hududiy boʻlinmalari rahbarlarining xulosalari asosida, boshqa hujjatlar talab qilib olinmagan holda beriladi;

2) ushbu modda birinchi qismining uchinchi xatboshisida koʻrsatilgan imkoniyati — mikrofirmalar, kichik korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ular soliq organlariga quyidagilarni taqdim etgan taqdirda qoʻllaniladi:

soliq solish obyekti joylashgan joy boʻyicha — mol-mulk soligʻi, yer soligʻi va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha kechiktirishni (boʻlib-boʻlib toʻlashni) qoʻllash toʻgʻrisidagi bildirishni ushbu Kodeks 417-moddasining oltinchi qismida, 432-moddasining birinchi qismida va 448-moddasining uchinchi qismida belgilangan soliqni, soliq boʻyicha boʻnak toʻlovini toʻlash muddatlaridan kechiktirmay, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan esa mol-mulk soligʻi va yer soligʻi boʻyicha kechiktirishni (boʻlib-boʻlib toʻlashni) qoʻllash toʻgʻrisidagi bildirishni;

soliqqa doir hisobga olish joyi boʻyicha — aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliq boʻyicha kechiktirishni (boʻlib-boʻlib toʻlashni) qoʻllash toʻgʻrisidagi bildirishni soliq hisobotini taqdim etish uchun belgilangan muddat bilan bir vaqtda.

Soliq toʻlovchilar tomonidan ushbu modda birinchi qismining uchinchi xatboshisida koʻrsatilgan soliqlarni, soliqlar boʻyicha boʻnak toʻlovlarini toʻlash boʻyicha kechiktirishni (boʻlib-boʻlib toʻlashni) soliq organlarini xabardor qilmagan holda qoʻllanilganligiga soliqlarni, soliqlar boʻyicha boʻnak toʻlovlarini oʻz vaqtida toʻlamaganlik sifatida qaraladi. Mazkur hollarda bunday soliq toʻlovchilarni aniqlagan soliq organlari toʻlanmagan soliqlarning, soliqlar boʻyicha boʻnak toʻlovlarining summasiga ushbu Kodeksning 110-moddasida belgilangan tartibda penya hisoblaydi.

Ushbu modda birinchi qismining uchinchi xatboshisida koʻrsatilgan, kechiktirish (boʻlib-boʻlib toʻlash) imkoniyati berilgan soliqlarga nisbatan soliqning, soliqlar boʻyicha boʻnak toʻlovlarining summalarini toʻlash amalga oshiriladi:

(482-modda beshinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-714-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.09.2021-y., 03/21/714/0874-son — 2021-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

1) ijtimoiy soliq bo‘yicha — olti oy davomida teng ulushlarda, ushbu Kodeks 407-moddasining beshinchi qismida va 408-moddasining beshinchi qismida belgilangan soliqni to‘lash muddatlaridan kechiktirmay;

(482-modda beshinchi qismining 1-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 16-iyundagi O‘RQ-847-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.06.2023-y., 03/23/847/0384-son — 2023-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

2) quyidagilar bo‘yicha o‘n ikki oy davomida teng ulushlarda:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha — ushbu Kodeks 417-moddasining oltinchi qismida belgilangan soliq bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarini to‘lash muddatidan kechiktirmay, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun esa har oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay;

yuridik shaxslarning yer solig‘i bo‘yicha — ushbu Kodeksning 432-moddasi birinchi qismida belgilangan soliqni to‘lash muddatidan kechiktirmay, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun esa — har oyning o‘n beshinchi sanasidan kechiktirmay;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha — ushbu Kodeks 448-moddasining uchinchi qismida belgilangan soliq bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarini to‘lash muddatidan kechiktirmay;

aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha — har oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay.

Ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq mol-mulk va yer solig‘ining 2020-yil 31-dekabrdagi holatiga ko‘ra kechiktirilgan hamda to‘lanmagan summalarini to‘lash 2022-yil 1-yanvardan e’tiboran amalga oshiriladi. Bunda mahalliy davlat hokimiyati organlari ushbu modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisiga muvofiq kechiktirilgan soliq summasi keyinchalik to‘lanadigan, biroq ikki yildan ko‘p bo‘lmagan muddatni mustaqil ravishda belgilashga haqli.

(482-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-714-sonli Qonuniga asosan oltinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.09.2021-y., 03/21/714/0874-son — 2021-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

Soliqlarni, soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berilgan davrda soliq to‘lovchi tugatilgan taqdirda kechiktirilgan (bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berilgan) to‘lov summasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda budjet tizimiga to‘lanadi.

2020-yil uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lash 2020-yil 15-oktabrga qadar amalga oshiriladi.

2020-yilda foyda solig‘ining soliq to‘lovchisi joriy hisobot davri birinchi oyining yigirmanchi kunigacha joriy hisobot davri uchun foyda solig‘i bo‘yicha har oylik bo‘nak to‘lovlari summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi soliq organiga mo‘ljallanayotgan foydadan kelib chiqqan, foyda solig‘ini o‘tgan chorak natijalari asosida hisoblab chiqarishning belgilangan talabi bekor qilingan holda taqdim etishga haqlidir. Foyda solig‘i bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari summasini kamaytirish holatlari aniqlangan taqdirda, soliq organlari har oylik bo‘nak to‘lovlari summasini qayta ko‘rib chiqishga haqli.

Ushbu Kodeksning 393-moddasida ko‘rsatilgan daromadlar bo‘yicha soliq to‘lovchilar 2019-yil uchun jami yillik daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani doimiy yashash joyidagi soliq organiga 2020-yil 1-avgustga qadar taqdim etadi. 2019-yil uchun jami yillik daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiya ma’lumotlariga ko‘ra jismoniy shaxslardan olinadigan hisoblab chiqarilgan daromad solig‘ini to‘lash bunday deklaratsiyani taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Umumiy ovqatlanish korxonalariga aylanmadan olinadigan soliq, foyda solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha 2021-yil 15-avgust holatiga ko‘ra yuzaga kelgan qarzdorlikni, shuningdek barcha soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha jarimalar hamda penyalarni 2022-yil 1-yanvardan 1-iyulga qadar bo‘lgan davrda mahalliy davlat hokimiyati organlariga ariza yubormasdan, soliq organlarini xabardor qilgan holda foizlarni to‘lamasdan, teng ulushlarda kechiktirib (bo‘lib-bo‘lib) to‘lash huquqi beriladi.

(482-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan o‘n birinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son — 2021-yil 15-avgustdan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga

nisbatan ham tatbiq etiladi.)

“Hamkorlik shartnomalari”ga asosan “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturiga kiritilgan tadbirkorlik subyektlariga (bundan Toshkent shahrida ro‘yxatdan o‘tgan tadbirkorlik subyektlari mustasno) ushbu Kodeks 17-moddasi birinchi qismining 2, 3 (bundan to‘lov manbaidan olinadigan foyda solig‘i mustasno) va 5 — 9-bandlarida ko‘rsatilgan soliqlarni hamda aylanmadan olinadigan soliqni ushbu subyektlar yaratgan yangi ish o‘rinlari soniga qarab quyidagi muddatlarda bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati beriladi:

51 tadan 100 tagacha yangi ish o‘rni yaratilganda — uch oygacha;

101 tadan 200 tagacha yangi ish o‘rni yaratilganda — olti oygacha;

200 tadan ortiq yangi ish o‘rni yaratilganda — o‘n ikki oygacha.

Ushbu moddaning o‘n ikkinchi qismida ko‘rsatilgan soliqlar bo‘yicha bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati:

“20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturiga kiritilgan tadbirkorlik subyektlarining arizasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi tomonidan;

ushbu Kodeksning 13-bobida nazarda tutilgan mol-mulk garovi, kafillik yoxud bank kafolati ta’minotisiz ushbu Kodeksning 100-moddasida nazarda tutilgan foizlar hisoblanmagan holda, shuningdek moliyaviy holat tahlil qilinmagan va ushbu Kodeks 101-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hujjatlar taqdim etilmagan holda (bundan ushbu Kodeks 98-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno) beriladi”;

(482-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 2-apreldagi O‘RQ-923-sonli Qonuniga asosan o‘n ikkinchi va o‘n uchinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.04.2024-y., 03/24/923/0264-son — 2023-yil 1-iyuldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

483-modda. Vaqtinchalik soliq imtiyozlari

2020-yil 1-oktabrgacha bo‘lgan davr uchun foyda solig‘ini hisoblab chiqarishda tijorat banklari tomonidan moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlarning kreditlari bo‘yicha to‘lovlarni kechiktirish imkoniyati berilgan davrda hisoblangan va kechiktirilgan foizlar summasi jami daromad tarkibiga kiritilmaydi.

2020-yil 31-dekabrga qadar bo‘lgan davrda:

1) turoperatorlar, turagentlar va turizm sohasida mehmonxona xizmatlari (joylashtirish xizmatlari) ko‘rsatuvchi subyektlar, “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo‘linmalari, “Uzbekistan Airports” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiga kiruvchi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar shaklidagi xalqaro aeroportlar, shuningdek “O‘zaeronavigatsiya markazi” davlat unitar korxonasi:

yuridik shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliqni va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lashdan ozod qilinadi;

ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi;

2) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish aylanmasi oyiga bir milliard so‘mdan oshmaydigan, elektron hisob-fakturalarni qo‘llovchi qo‘shilgan qiymat solig‘i soliq to‘lovchilari qo‘shilgan qiymat solig‘ini har choraklik asosda, ushbu Kodeksning 37-bobida belgilangan tartibda hisoblab chiqarishga va to‘lashga haqli;

3) foyda solig‘ini hamda aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarishda jami daromad tarkibiga ushbu Kodeks 299-moddasining to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan daromadlar kiritilmaydi;

4) qat’iy belgilangan miqdorda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini va ijtimoiy soliqni hisoblashni hamda to‘lashni ushbu Kodeksning 408-moddasida ko‘rsatilgan, karantin tadbirlari davrida o‘z faoliyatini majburiy tarzda to‘xtatib turgan soliq to‘lovchilarga nisbatan to‘xtatib turish faoliyatni amalga oshirish joyidagi soliq organlariga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron hujjat tarzida yuboriladigan faoliyatning vaqtinchalik to‘xtatib turilishi to‘g‘risidagi bildirish asosida amalga oshiriladi.

(483-modda ikkinchi qismining 4-bandi birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Soliq to‘lovchi faoliyati tiklangan taqdirda faoliyatni amalga oshirish boshlanguniga qadar bu haqida faoliyatni amalga oshirish joyidagi soliq organlarini shunga o‘xshash tartibda xabardor qilishi shart;

5) koronavirus infeksiyasiga qarshi kurashish bo‘yicha tibbiyot va karantin obyektlarini qurish hamda ularning faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan qurilish materiallari va boshqa tovarlar qo‘shilgan qiymat solig‘ini va aksiz solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi;

6) ushbu Kodeks 415-moddasining uchinchi qismida, 422-moddasining oltinchi qismida, 429-moddasining o‘n uchinchi qismida va 437-moddasining oltinchi qismida nazarda tutilgan, shu jumladan 2020-yil 1-aprelga qadar aniqlangan obyektlarga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha oshirilgan soliq stavkalari, shuningdek ular bo‘yicha penya hisoblash va qarzdorlikni majburiy undirish choralari qo‘llanmaydi.

(483-modda ikkinchi qismining 6-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 13-apreldagi O‘RQ-1128-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 03/26/1128/0349-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 14-iyul)

2021-yil 1-maydan 2022-yil 31-dekabrga qadar bo‘lgan davrda quyidagilar qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:

(483-modda uchinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 5-maydagi O‘RQ-767-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.05.2022-y., 03/22/767/0386-son — 2022-yil 1-maydan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.)

O‘zbekiston Respublikasi hududiga o‘simlik yog‘i, kungaboqar va zig‘ir urug‘i, shuningdek soya danagini olib kirish;

o‘simlik yog‘ini (paxta yog‘idan tashqari) ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-apreldagi O‘RQ-689-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2021-y., 03/21/689/0395-son)

2022-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda 2020-yil 31-dekabrdagi holatga ko‘ra soliq qarzini majburiy ravishda undirish, shuningdek quyidagilar bo‘yicha penya hisoblash choralari ko‘rilmaydi:

faoliyatni turizm, transport va umumiy ovqatlanish sohasida amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha;

2020-yilda hisoblangan va vaqtincha qiyinchiliklar munosabati bilan yuridik shaxslar tomonidan to‘lanmagan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha;

2020-yil 15-maydagi holatga ko‘ra qarzdorligi mavjud bo‘lgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga soliqlar, penyalar va soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun hisoblangan jarimalar bo‘yicha.

2021-yil 31-dekabrgacha bo‘lgan davr uchun turoperatorlar, turagentlar va turizm sohasida mehmonxona xizmatlari (joylashtirish xizmatlari) ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari:

foyda solig‘ini belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 50 foiz kamaytirilgan soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi;

ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi;

yuridik shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliqni va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lashdan ozod qilinadi.

Quyidagilar mol-mulk solig‘ini, yer solig‘ini, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashdan, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan summalarini to‘lashdan ozod qilinadi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida Qoraqalpog‘iston Respublikasining har bir shahari va tumani uchun “o‘sish nuqtasi” deb belgilangan faoliyat turlarini amalga oshirayotgan yangidan tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari — 2024-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan muddatga;

Qoraqalpog‘iston Respublikasining Taxtako‘pir, Bo‘zatov va Shumanay tumanlarida joylashgan, yangidan tashkil etilgan sanoat sohasidagi tadbirkorlik subyektlari — 2024-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan muddatga. Soliq to‘lovchilarning mazkur toifasi foyda solig‘ini va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni belgilangan soliq stavkasidan 50 foiz pasaytirilgan soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan aniqlangan ro‘yxat bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashtirilgan va og‘ir sharoitlardagi 45 ta mahalla va ovullarda joylashgan, yangidan tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari — 2026-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan muddatga. Tadbirkorlik subyektlarining mazkur toifasi foyda solig‘idan ham ozod qilinadi.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-714-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi — oltinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.09.2021-y., 03/21/714/0874-son)

2024-yil 1-sentabrdan 2027-yil 1-sentabrga qadar bo‘lgan davrda:

“Hunarmand” uyushmasining a’zolari uchun belgilangan soliq imtiyozlari zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan va “O‘zbekzargarsanoati” uyushmasining a’zolari bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan ham tatbiq etiladi;

zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan va “O‘zbekzargarsanoati” uyushmasining a’zolari bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarishda foydalaniladigan ko‘chmas mulk obyektlari hamda yer uchastkalari mol-mulk solig‘idan va yer solig‘idan ozod etiladi.

(483-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 18-apreldagi O‘RQ-1059-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.04.2025-y., 03/25/1059/0357-son)

> **Izoh.** 2024-yil 1-sentabrdan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Orolbo‘yida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi uchun belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan O‘zbekiston Respublikasida o‘xshashi ishlab chiqarilmaydigan ilmiy-laboratoriya asbob-uskunasi, reagentlar va sarflash materiallari 2024-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davr uchun qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-oktabrdagi O‘RQ-722-sonli Qonuniga asosan yettinchi va sakkizinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2021-y., 03/21/722/0960-son — 483-moddaning sakkizinchi qismi 2021-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

2021-yilning 10-oktabridan 2022-yil 30-aprelga qadar bo‘lgan davrda tovuq go‘shtini, muzlatilgan baliqni va tirik parrandani, 2021-yil 10-oktabrdan 2022-yil 31-dekabrga qadar bo‘lgan davrda esa go‘shtni (mol go‘shtini, qo‘y go‘shtini), tirik hayvonlarni (molni va qo‘yni) hamda ularni so‘yishdan olingan mahsulotlarni, kartoshkani realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma, shuningdek ularni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi.

(483-moddaning to‘qqizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 5-maydagi O‘RQ-767-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.05.2022-y., 03/22/767/0386-son — 2022-yil 1-maydan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.)

2021-yil 1-sentabrdan 2021-yil 31-dekabrga qadar bo‘lgan davrda umumiy ovqatlanish korxonalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lashdan ozod etiladi.

Respublika tumanlarida (bundan Toshkent shahri mustasno) faoliyatni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan ijtimoiy soliq stavkasi 2022-yil 1-yanvardan 2023-yil 1-yanvarga qadar bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida qo‘llaniladi.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-741-sonli Qonuniga asosan o‘ninchi va o‘n birinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son — 483-modda o‘ninchi qismining qoidalari 2021-yil 1-sentabrdan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.)

Surxondaryo viloyatining Bandixon, Qiziriq, Muzrabot, Sherobod tumanlarida, tog‘li hududlarida va yer maydonlari sho‘rlangan hududlarida davlat ro‘yxatidan o‘tib, yangidan tashkil etilgan va ushbu tumanlarda (hududlarda) o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlari (bundan klasterlar mustasno) yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni, aylanmadan olinadigan soliqni, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan summasini to‘lashdan 2024-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ozod qilinadi.

> **Izoh.** Ushbu qismning qoidalari 2021-yil 1-iyuldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Surxondaryo viloyatining tog‘li hududlarida va yer maydonlari sho‘rlangan hududlarida davlat ro‘yxatidan o‘tib, yangidan tashkil etilgan va ushbu hududlarda o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlari (bundan klasterlar mustasno) 2021-yil 10-sentabrdan 2024-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda foyda solig‘ini belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 50 foiz kamaytirilgan soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi.

> **Izoh.** Ushbu qismning qoidalari 2021-yil 10-sentabrdan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Ushbu moddaning o‘n ikkinchi va o‘n uchinchi qismlarida ko‘rsatilgan tog‘li hududlarning hamda yer maydonlari sho‘rlangan hududlarning ro‘yxati xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Sirdaryo viloyatining Sardoba, Oqoltin va Mirzaobod tumanlarida favqulodda hodisa oqibatida zarar ko‘rgan baliqchilik, chorvachilik hamda parrandachilik xo‘jaliklari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lashdan 2020-yil 1-maydan 2022-yil 1-noyabrga qadar ozod qilinadi. Bunda zarar ko‘rgan baliqchilik, chorvachilik va parrandachilik ho‘jaliklarining ro‘yxati xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

> **Izoh.** Ushbu qismning qoidalari 2020-yil 1-maydan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-martdagi O‘RQ-758-sonli Qonuniga asosan o‘n ikkinchi — o‘n beshinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son)

2022-yil 1-yanvardan 2031-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda Qoraqalpog‘iston Respublikasining Mo‘ynoq tumanidagi mahalliy sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohalaridagi tadbirkorlik subyektlari:

foyda solig‘ini, aylanmadan olinadigan soliqni, ijtimoiy soliqni va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini 1 foiz miqdoridagi soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni mazkur soliqlar bo‘yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdoridagi soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi.

> **Izoh.** 483-modda o‘n oltinchi qismining qoidalari 2022-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Bo‘yalgan matoni, bo‘yalgan gazlamani va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotini eksport qiluvchi tadbirkorlik subyektlari (shu jumladan komissioner (ishonchli vakil) orqali eksport qilgan tadbirkorlik subyektlari) 2022-yil 1-fevraldan 2025-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi.

Ushbu moddaning o‘n yettinchi qismida nazarda tutilgan imtiyoz bo‘yalgan mato, bo‘yalgan gazlama va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotini eksport qilishdan olingan tushumi barcha tovarlarni va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan tushumining kamida 80 foizini tashkil etadigan soliq to‘lovchilarga nisbatan qo‘llaniladi.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 5-maydagi O‘RQ-767-sonli Qonuniga asosan o‘n oltinchi, o‘n yettinchi va o‘n sakkizinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.05.2022-y., 03/22/767/0386-son — o‘n yettinchi va o‘n sakkizinchi qismlarning qoidalari 2022-yil 1-fevraldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.)

Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari tomonidan foyda solig‘i bo‘yicha imtiyozlarning 2020-yil 1-yanvardan keyin foydalanilmay qolgan qismi 2020-yil 1-oktabrga qadar maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarining reyestriga kiritilgan ishtirokchilarga nisbatan ular tomonidan kiritilgan, 2020-yil 1-yanvarga qadar amalda bo‘lgan qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan investitsiyalarning hajmiga qarab, mazkur ishtirokchilar reyestrga kiritilgan paytdan e’tiboran 3 yildan 10 yilgacha bo‘lgan muddatga to‘liq qo‘llaniladi. Ushbu qismning qoidalari ushbu Kodeks 473-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan foyda solig‘i bo‘yicha imtiyozlarning amal qilish muddatiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-iyuldagi O‘RQ-783-sonli Qonuniga asosan o‘n to‘qqizinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.07.2022-y., 03/22/783/0620-son)

O‘ttiz yoshdan oshmagan xodimlarni ishga qabul qilgan chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish), avtotransport vositasida yo‘lovchi va yuk tashish, avtotransport vositalarini ta’mirlash hamda ularga texnik xizmat ko‘rsatish, kompyuter xizmatlarini, maishiy texnikani ta’mirlash, agro va veterinariya xizmatlari ko‘rsatuvchi, shuningdek ko‘ngilochar markazlarda xizmatlar ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari — 2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ularga to‘lanadigan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardan ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi.

(483-moddaning yigirmanchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1104-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1104/1213-son)

> **Izoh.** 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Ushbu moddaning yigirmanchi qismida nazarda tutilgan imtiyoz quyidagi barcha shartlarga bir vaqtning o‘zida javob beradigan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tatbiq etiladi:

har oyda xodimlarga o‘rtacha ish haqi miqdori mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining ikki yarim baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda hisoblanganda;

belgilangan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olingan daromadlar joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etganda. Shuningdek xodimlar sonini yashirish faktlari aniqlangan taqdirda mazkur imtiyozning amal qilishi bekor qilinadi.

(483-moddaning yigirma birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1104-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1104/1213-son)

Mahallalararo savdo-xizmat ko‘rsatish ko‘chalari bo‘ylab joylashgan, uy-joy uchun mo‘ljallangan ko‘chmas mulk obyektlari ushbu moddaning yigirmanchi qismida belgilangan xizmatlar turlarini ko‘rsatish uchun yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk toifasiga o‘tkazilgan taqdirda, 2024-yil 1-yanvarga qadar jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini hamda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini uy-joyga mo‘ljallangan ko‘chmas mulk obyektlari, shuningdek ushbu obyektlar egallagan yer uchastkalari uchun belgilangan soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi.

Mahallalararo savdo-xizmat ko‘rsatish ko‘chalarining ro‘yxati Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilanadi.

Tadbirkorlik subyektlari 2022-yil 1-yanvardan 2027-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda maydoni besh ming kvadrat metrdan yuqori bo‘lgan savdo komplekslari va mehmonxona (joylashtirish vositalari), shu jumladan, ular egallagan yer uchastkalari bo‘yicha quyidagilarga haqli:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha soliq stavkalariga nisbatan 0,1 koeffitsiyentni qo‘llashga. Bunda 2027-yil 1-yanvarga qadar yangidan qurilgan ushbu ko‘chmas mulk obyektlariga va ushbu obyektlar egallagan yer uchastkalariga nisbatan mazkur imtiyoz ular foydalanishga topshirilgan oydan e’tiboran besh yil mobaynida qo‘llaniladi;

foyda solig‘ini hisoblab chiqarish chog‘ida ikki yil davomida mazkur binolarning qiymatini amortizatsiya tarzida chegirib tashlanadigan xarajatlar jumlasiga kiritishga.

> **Izoh.** 483-modda yigirma to‘rtinchi qismining qoidalari 2022-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida ko‘rsatilgan tumanlar va shaharlarning belgilangan turizm zonalarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan hamda mazkur hududlarda umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish), savdo, ko‘ngilochar, turoperatorlik va turagent xizmatlarini ko‘rsatadigan tadbirkorlik subyektlari — 2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda:

aylanmadan olinadigan soliqni 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi;

ushbu hududlarda joylashgan obyektlarga, shuningdek mazkur obyektlar egallagan yer uchastkalariga nisbatan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini ushbu soliqlar bo‘yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida to‘laydi.

Tumanlar va shaharlar turizm zonalari chegaralari O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hududiy bosh boshqarmalarining xulosalariga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari tomonidan belgilanadi.

2022-yil 1-apreldan 2028-yil 31-dekabrga qadar bo‘lgan davrda:

(483-modda yigirma yettinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslarning (aksiyadorlarning) aksiyalar bo‘yicha dividendlar tarzidagi daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan ozod qilinadi;

O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslarning (aksiyadorlarning) aksiyalari bo‘yicha dividendlar tarzidagi daromadlariga foyda solig‘i bo‘yicha 5 foiz miqdorida soliq stavkasi qo‘llaniladi;

O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning xo‘jalik jamiyatlari obligatsiyalari bo‘yicha foizlar tarzidagi daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan hamda foyda solig‘idan ozod etiladi.

Tadbirkorlik subyektlarining milliy musiqa cholg‘u asboblarini ishlab chiqarishdan olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etsa, aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliq 2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘lanadi.

> **Izoh.** 483-modda yigirma beshinchi — yigirma sakkizinchi qismlarining qoidalari 2022-yil 1-apreldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Xo‘jaliklarda baliq yetishtirishni kooperatsiya asosida yo‘lga qo‘ygan soliq to‘lovchilar 2025-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda barcha soliqlarni (bundan qo‘shilgan qiymat solig‘i va ijtimoiy soliq mustasno) to‘lashdan ozod etiladi.

Ushbu moddaning yigirma to‘qqizinchi qismida nazarda tutilgan imtiyoz joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadning umumiy hajmida baliq yetishtirish faoliyatidan olingan daromadining ulushi 90 foizdan ortiqni tashkil etgan soliq to‘lovchilarga nisbatan qo‘llaniladi.

Charm, mo‘yna xom ashyosini va junni tayyorlash, saqlash hamda qayta ishlash, qoramolni avtomatlashtirilgan tarzda so‘yish, jun, qorako‘l va sun’iy charmdan buyumlar, charm-attorlik mahsulotlari, poyabzal ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi soliq to‘lovchilar 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ushbu faoliyati bo‘yicha foyda solig‘ini, aylanmadan olinadigan soliqni va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lashdan ozod etiladi.

Ushbu moddaning o‘ttiz birinchi qismida belgilangan soliq imtiyozlari quyidagilarga nisbatan tatbiq etiladi:

chorva mollarni so‘yishga ixtisoslashtirilgan, zamonaviy avtomatlashtirilgan komplekslar bilan jihozlangan soliq to‘lovchilarga;

hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadining umumiy hajmida charm, mo‘yna, qorako‘l xom ashyosini va junni yig‘ish hamda tayyorlash, ularni qayta ishlash (foydalanish) uchun keyinchalik sotish faoliyatidan olingan daromadining ulushi 80 foizdan kam bo‘lmagan soliq to‘lovchilarga;

hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadining umumiy hajmida charm, mo‘yna, qorako‘l xom ashyosini va junni qayta ishlash, shuningdek butlovchi buyumlarni, furnitura, aksessuarlar, poyabzal qoliplari, poyabzal tagliklari, ustki qismlari, jelatin, sun’iy charm, poyabzal, charm-attorlik, mo‘ynachilik, qorako‘l mahsulotini va jundan ishlangan buyumlarni ishlab chiqarishdan olingan daromadining ulushi 60 foizdan kam bo‘lmagan soliq to‘lovchilarga.

Chorva mollarni so‘yish bo‘yicha zamonaviy avtomatlashtirilgan komplekslarga ega bo‘lgan, shuningdek terini qayta ishlovchi va charmdan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi soliq to‘lovchilar yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lashdan 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ozod etiladi.

> **Izoh.** 483-moddaning o‘ttiz birinchi — o‘ttiz uchinchi qismlari 2023-yil 1-yanvardan e’tiboran amalga kiritiladi.

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadining umumiy hajmi quyidagi talablarga javob bersa, soliq to‘lovchilar ijtimoiy soliqni 2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi:

bolalar, ayollar va sport poyabzallarini, sun’iy (eko) charm, furnitura, poyabzal qoliplari hamda tagliklarini realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlarining ulushi kamida 60 foizni tashkil etsa;

poyabzallarni, charm-attorlik mahsulotlarini va mo‘ynadan tayyorlangan buyumlarni eksport qilishdan olinadigan daromadlarining ulushi kamida 80 foizni tashkil etsa.

Belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha tibbiyot asbob-uskunalari va buyumlarining ehtiyot qismlarini hamda tibbiyot maqsadlari uchun sarflov materiallarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish 2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi.

> **Izoh.** 483-modda o‘ttiz to‘rtinchi va o‘ttiz beshinchi qismlarining qoidalari 2022-yil 1-apreldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Mehnat resurslari zich bo‘lgan qishloq joylarning reyestriga kiritilgan hududlarda xodimlarining umumiy soni 10 nafardan kam bo‘lmagan hamda u yerda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xotin-qizlar mehnatiga haq to‘lash fondi umumiy mehnatga haq to‘lash fondining 50 foizidan kam bo‘lmagan kichik tadbirkorlik subyektlari o‘zida mehnat

faoliyatini amalga oshiruvchi xotin-qizlarning mehnatiga haq to‘lash fondidan olinadigan ijtimoiy soliqni 2022-yil 1-sentabrdan 2025-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 26-iyuldagi O‘RQ-785-sonli Qonuniga asosan yigirmanchi — o‘ttiz oltinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.07.2022-y., 03/22/785/0679-son — ushbu moddaning o‘ttiz oltinchi qismi 2022-yil 1-sentabrdan e’tiboran amalga kiritiladi.)

Chiqindilarni to‘plash, olib chiqish, saralash va qayta ishlash faoliyatidan olgan daromadlari hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadining kamida 90 foizini tashkil etgan soliq to‘lovchilar 2023-yil 1-yanvardan e’tiboran 2026-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda mazkur faoliyat turi bo‘yicha foyda solig‘ini (bundan foizlar tarzidagi daromadlar mustasno) va ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi.

Budjet tashkilotlari tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar bo‘yicha barcha turdagi soliqlarni to‘lashdan 2027-yil 1-yanvarga qadar ozod qilinadi, bundan ijtimoiy soliq mustasno.

(483-moddaning o‘ttiz sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1013-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1013/1066-son. 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

Qoraqalpog‘iston Respublikasining barcha tumanlarida joylashgan hamda mazkur hududda faoliyatni amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlari (bundan yirik soliq to‘lovchilar, doimiy muassasalar, budjet tashkilotlari va davlat korxonalari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorida va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar, ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ortig‘i ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorida va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxsga tegishli yuridik shaxslar mustasno) 2023-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda:

foyda solig‘ini, aylanmadan olinadigan soliqni, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 50 foizga kamaytirilgan soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi;

ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo‘yicha, yakka tartibdagi tadbirkorlar esa yiliga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida to‘laydi.

Agar soliq to‘lovchi ushbu moddaning o‘ttiz to‘qqizinchi qismida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari bilan bir qatorda bir vaqtning o‘zida boshqa asoslar bo‘yicha soliq imtiyozlariga doir huquqqa ega bo‘lsa, bunday soliq to‘lovchi o‘z ixtiyoriga qo‘ra eng qulay soliq imtiyozini tanlashga haqli.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 12-iyundagi O‘RQ-845-sonli Qonuniga asosan o‘ttiz to‘qqizinchi va qirqinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023-y., 03/23/845/0360-son — 2023-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi, uning hududiy bo‘linmalari, “O‘zbekiston Professional futbol ligasi” jamoat birlashmasi, O‘zbekiston futbol hakamlari markazi va professional futbol klublari:

barcha turdagi soliqlarni (bundan ijtimoiy soliq mustasno);

o‘zi jalb qilgan chet el mutaxassislari va futbolchilarining daromadlaridan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini;

belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan, O‘zbekiston Respublikasida o‘xshashi ishlab chiqarilmaydigan sport asbob-uskunalari va inventari, translyatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunalar, inventar va texnika, farmakologiya tovarlari, sport oziq-ovqatlari, futbol (futzal) maydonlari uchun sun’iy o‘tlar, shokpad, granulalar, maxsus yelimlar va maxsus professional sport kiyim-boshlari, transport vositalari, shu jumladan maxsus transport vositalari uchun qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 18-iyuldagi O‘RQ-857-sonli Qonuniga asosan qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.07.2023-y., 03/23/857/0492-son — 2023-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturi”da ishtirok etadigan tijorat banklarining loyihalar uchun ajratilgan bank kreditlari bo‘yicha olingan foizlar tarzidagi daromadlari foyda solig‘ini hisoblab chiqarish maqsadlarida 2024-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda chegiriladigan xarajatlar sifatida e’tirof etiladi.

“Izlanish va rivojlanish” markazlari 2024-yil 1-yanvardan 2027-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda mazkur markazlarning obyektlari va ular egallagan yer uchastkalari bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini ushbu soliqlar bo‘yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida, shuningdek ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi.

Qimmatbaho, rangli va (yoki) radioaktiv metallarni, nodir elementlarni hamda nodir yer elementlarini qazib oluvchi va (yoki) ularni texnogen mineral hosilalardan (bundan buyon matnda metallar deb yuritiladi) ajratib oluvchi, shuningdek uglevodorod xom ashyosini qazib oluvchi yuridik shaxslarga nisbatan ushbu Kodeksning XVIII¹ bo‘limida nazarda tutilgan qoidalar 2024-yil 1-yanvardan 2025-yil 31-dekabrga qadar bo‘lgan davrda tatbiq etilmaydi. Mazkur qoida qazib olish 2024-yil 1-yanvardan 2025-yil 31-dekabrga qadar bo‘lgan davrda boshlangan yer qa’ri uchastkasiga nisbatan qo‘llaniladi va metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishning butun davri uchun tatbiq etiladi.

Budjet tashkilotlari tomonidan xalqaro moliya institutlaridan va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jalb qilingan hamda jalb qilinadigan davlat tashqi qarzi hisobidan to‘liq yoki qisman amalga oshiriladigan loyihalar doirasida, shuningdek davlat korxonalari hamda ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorida va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan infratuzilma loyihalari (elektr, gaz va issiqlik ta’minotiga, suv ta’minoti va kanalizatsiyaga, suv xo‘jaligiga, yo‘l-transport infratuzilmasiga, aloqa va telekommunikatsiyalarga, agrologistikaga, sanitariya jihatdan tozalashga, qattiq maishiy chiqindilarni boshqarishga doir loyihalar) uchun xalqaro moliya institutlaridan va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jalb qilingan hamda jalb qilinadigan davlat tashqi qarzi (bundan O‘zbekiston Respublikasining tijorat banklari orqali qayta moliyalashtiriladigan yoki qayta kreditlanadigan xalqaro moliya institutlarining va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining mablag‘lari mustasno), texnik yordam ko‘rsatish (grantlar) hisobidan to‘liq yoki qisman amalga oshiriladigan loyihalar doirasida sotib olinadigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma, shuningdek ularni olib kirish qo‘shilgan qiymat solig‘idan 2028-yil 1-yanvarga qadar ozod qilinadi. Bunda mazkur imtiyoz loyiha ishtirokchilariga nisbatan ham qo‘llaniladi.

(483-moddaning qirq beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-iyundagi O‘RQ-1071-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.06.2025-y., 03/25/1071/0545-son)

“20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturiga kiritilgan tadbirkorlik subyektlari yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini 2025-yil 1-yanvarga qadar quyidagi miqdorda pasaytirilgan soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi:

51 tadan 100 tagacha yangi ish o‘rni yaratilganda — belgilangan soliq stavkasining 50 foizi;

101 dan 200 tagacha yangi ish o‘rni yaratilganda — belgilangan soliq stavkasining 75 foizi;

200 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratilganda — ushbu soliqlarni to‘lashdan ozod etiladi.

Ushbu moddaning qirq oltinchi qismida nazarda tutilgan imtiyozlar “hamkorlik shartnomalari”ga asosan “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturiga kiritilgan tadbirkorlik subyektlariga (bundan Toshkent shahrida ro‘yxatdan o‘tgan tadbirkorlik subyektlari mustasno) ular bir vaqtning o‘zida quyidagi shartlarga rioya etgan taqdirda beriladi:

“Ijtimoiy himoyaning yagona reyestri”ga kiritilgan fuqarolar ishga qabul qilinganda va kamida bir yil davomida ularga har oyda mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining bir baravari miqdoridan kam bo‘lmagan ish haqi to‘langan holda, ularning bandligi ta’minlanganda;

ushbu fuqarolar jami ishchilar sonining kamida 20 foizini tashkil etganda.

“Hamkorlik shartnomalari” bo‘yicha majburiyatlar tadbirkorlik subyektlari tomonidan bajarilmagan taqdirda, ushbu moddaning qirq oltinchi qismida nazarda tutilgan soliq imtiyozlarining amal qilishi soliq imtiyozlarini qo‘llashning butun davri uchun bekor qilinib, ushbu soliqlarni to‘lashga doir majburiyatlar tiklanadi.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 2-apreldagi O‘RQ-923-sonli Qonuniga asosan qirq oltinchi — qirq sakkizinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.04.2024-y., 03/24/923/0264-son — 2023-yil 1-iyuldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan qimmatbaho toshlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish qo‘shilgan qiymat solig‘idan 2024-yil 1-yanvardan 2027-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ozod qilinadi.

Kasaba uyushmalari tizimidagi bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlari negizida bolalarning dam olish mavsumidan tashqari davrda tashkil etiladigan dam olish uylarining va dam olish zonalarining mazkur yo‘nalishdagi xizmatlarni ko‘rsatishdan olgan foydasi 2026-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda foyda solig‘idan ozod qilinadi.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 13-maydagi O‘RQ-926-sonli Qonuniga asosan qirq to‘qqizinchi va elliginchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 14.05.2024-y., 03/24/926/0344-son — qirq to‘qqizinchi qismning qoidalari 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda:

jismoniy shaxslarning uy sharoitida tirik pilla yetishtirish faoliyatidan (kasanachilikdan) olingan daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan ozod qilinadi;

pilla yetishtiruvchi yuridik shaxslarning uy sharoitida tirik pilla yetishtiruvchi kasanachilar mehnatiga haq to‘lashga yo‘naltiriladigan mablag‘lari, bo‘shagan mablag‘larni kasanachilarni moddiy rag‘batlantirishga yo‘naltirish sharti bilan ijtimoiy soliqdan ozod qilinadi;

pilla yetishtirish sohasida ozuqa bazasi sifatida foydalaniladigan tutzorlar bilan band bo‘lgan yer uchastkalari uchun yer solig‘i xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari belgilagan soliq stavkalariga nisbatan 0,1 koeffitsiyent qo‘llanilgan holda hisoblab chiqariladi.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 15-noyabrdagi O‘RQ-1001-sonli Qonuniga asosan ellik birinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.11.2024-y., 03/24/1001/0929-son — ellik birinchi qismning qoidalari 2023-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

2025-yil 1-yanvardan 2030-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ikki yil davomida teng ulushlarda tadbirkorlik subyektlari foyda solig‘ini hisoblab chiqarish chog‘ida o‘z mablag‘lari hisobidan nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari binolarini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarini mazkur binolarning qiymatini amortizatsiya tarzida chegirib tashlanadigan xarajatlar jumlasiga kiritishga haqli.

Nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlarini bepul asosda o‘qishga qabul qilish bo‘yicha litsenziya talablari bajarilmagan taqdirda, ushbu moddaning ellik ikkinchi qismida nazarda tutilgan amortizatsiya chegirmalari ushbu Kodeksning 306-moddasida nazarda tutilgan amortizatsiya normalarini qo‘llash hisobidan bekor qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha protez moslamalarini va ularning butlovchi, ehtiyot qismlarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashdan 2027-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ozod qilinadi.

> **Izoh.** 2024-yil 1-apreldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan vagonlar (konteynerlar) operatorlarining temir yo‘l transportida tashish jarayonida vagonlarni (konteynerlarni) ijara shartnomasi asosida foydalanishga berish yuzasidan xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha aylanmasi qo‘shilgan qiymat solig‘idan 2024-yil 1-noyabrdan 2026-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ozod etiladi.

> **Izoh.** 2024-yil 1-noyabrdan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1013-sonli Qonuniga asosan ellik ikkinchi — ellik beshinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2024-y., 03/24/1013/1066-son)

Nashriyot-matbaa faoliyatidan olingan daromadlari hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadining kamida 90 foizini tashkil etgan soliq to‘lovchilar mazkur faoliyat turi bo‘yicha foyda solig‘ini to‘lashdan (bundan foizlar tarzidagi daromadlar mustasno) 2025-yil 1-yanvardan 2029-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ozod etiladi.

Mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 1,5 baravaridan kam bo‘lmagan oylik ish haqi to‘langan holda, kambag‘al oila a’zolarini ishga qabul qilgan tadbirkorlik subyektlari kambag‘al oila a’zolari bo‘lgan xodimlarining mehnatiga haq to‘lashga doir xarajatlari bo‘yicha ijtimoiy soliqni 2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi.

2024-yil 1-sentabrdan 2027-yil 1-sentabrga qadar:

> **Izoh.** 2024-yil 1-sentabrdan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

kasbga o‘rgatish uchun maktablar, kollejlar va texnikumlar o‘quvchilarini (o‘ttiz yoshdan oshmagan) ishga qabul qilgan tadbirkorlik subyektlari ularga to‘lanadigan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardan ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi;

> **Izoh.** 2024-yil 1-sentabrdan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

maktablar, kollejlar va texnikumlar o‘quvchilari kasb o‘rganish jarayonida tadbirkorlik subyektlaridan olingan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi.

> **Izoh.** 2024-yil 1-sentabrdan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Magistral avtomobil yo‘llari bo‘yida ko‘chma savdo obyektlarini tashkil etgan yoshlar (o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslar) faoliyatni amalga oshirish boshlangan sanadan e’tiboran dastlabki olti oy davomida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar bo‘yicha soliqlarni to‘lashdan 2028-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ozod qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar (bundan O‘zbekiston Respublikasi bilan ikkiyoqlama soliq solishning oldini olish to‘g‘risida bitim tuzgan davlatlarning soliq rezidentlari mustasno) eksport xizmatlari hajmi kalendar yil davomida 10 million AQSH dollaridan oshgan Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlariga axborot texnologiyalari sohasidagi xizmatlarni ko‘rsatishdan olgan (shu jumladan royalti to‘lanadigan) daromadlari qismida foyda solig‘ini to‘lashdan 2025-yil 1-fevraldan 2030-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ozod qilinadi.

> **Izoh.** 2025-yil 1-fevraldan e’tiboran amalga kiritiladi.

Jami daromadi tarkibida eksport hajmi 50 foizdan ortiq bo‘lgan Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlari ta’sischilarining (ishtirokchilarining) — O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning dividendlar tarzidagi daromadlariga nisbatan 2025-yil 1-fevraldan 2040-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hamda foyda solig‘i O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha hisoblanadi.

> **Izoh.** 2025-yil 1-fevraldan e’tiboran amalga kiritiladi.

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlari barcha turdagi soliqlarni (bundan qo‘shilgan qiymat solig‘i mustasno) to‘lashdan 2028-yil 1-yanvardan 2040-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ozod qilinadi.

> **Izoh.** 2028-yil 1-yanvardan e’tiboran amalga kiritiladi.

Ushbu moddaning oltmish ikkinchi qismida belgilangan soliq imtiyozlari quyidagilarga nisbatan tatbiq etiladi:

> **Izoh.** 2028-yil 1-yanvardan e’tiboran amalga kiritiladi.

kalendar yil davomida jami daromadi tarkibida Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlari tomonidan amalga oshirilishi uchun ruxsat etilgan faoliyat turlari bo‘yicha eksporti hajmi 50 foizdan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga;

> **Izoh.** 2028-yil 1-yanvardan e’tiboran amalga kiritiladi.

o‘n sakkiz yoshdan oshgan bitiruvchilarining 50 foizi kalendar yil davomida Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlari bo‘lgan eksportchi korxonalarga ishga joylashgan IT-ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxslarga.

> **Izoh.** 2028-yil 1-yanvardan e’tiboran amalga kiritiladi.

Nodavlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari, shuningdek uch yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha nogironligi bo‘lgan bolalar uchun davlat-xususiy sheriklik asosida kunduzgi parvarish xizmatini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari barcha turdagi soliqlarni (bundan ijtimoiy soliq mustasno) to‘lashdan 2030-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ozod qilinadi.

(483-moddaning oltmish to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 17-apreldagi O‘RQ-1129-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.04.2026-y., 03/26/1129/0375-son)

Ushbu moddaning oltmish to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan imtiyozlar natijasida bo‘shaydigan mablag‘lardan nodavlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini zamonaviy o‘quv qo‘llanmalari bilan jihozlash, zarur tovarlar va asbob-uskunalarni sotib olish, binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilish hamda kapital ta’mirlash, shuningdek aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish uchun maqsadli tarzda foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha nodavlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini jihozlash hamda ularning faoliyatini ta’minlash uchun O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan, zamonaviy o‘quv va laboratoriya asbob-uskunalari, kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlar, o‘quv va ilmiy-uslubiy adabiyotlar, anjomlar va moddiy-texnika resurslari qo‘shilgan qiymat solig‘idan 2030-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ozod qilinadi.

Nodavlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi chet el o‘qituvchilari va mutaxassislari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lashdan 2030-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ozod qilinadi.

Chet el o‘qituvchilari va mutaxassislarini ishga qabul qilgan nodavlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari chet el o‘qituvchilari va mutaxassislari bo‘lgan xodimlar mehnatiga haq to‘lashga doir xarajatlari bo‘yicha ijtimoiy soliqni to‘lashdan 2030-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ozod qilinadi.

(483-moddaning oltmish sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1104-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1104/1213-son)

Raqamli markirovkali mahsulotlarning chakana savdosini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlariga hisoblangan va to‘lanishi lozim bo‘lgan foyda solig‘i yoki aylanmadan olinadigan soliq yoxud yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summalarini tadbirkorlik subyektlari uchun markirovkani o‘qish qurilmalarini sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar summasiga, biroq bitta qurilma uchun bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt baravaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda kamaytirish huquqi 2027-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davr uchun beriladi.

Parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini (bundan ekin maydonlari mustasno) to‘lashdan 2030-yil 1-yanvarga qadar ozod etiladi.

Ushbu moddaning yetmishinchi qismida belgilangan soliq imtiyozlari parrandachilik mahsulotlarini realizatsiya qilishni amalga oshirmagan tadbirkorlik subyektlariga va (yoki) belgilangan maqsadda foydalanilmayotgan yer uchastkalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi statsionar bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlari:

binolar va inshootlarni, yer uchastkalarini ijaraga berishdan olingan daromadlari bo‘yicha — foyda solig‘ini;

ijaraga berilgan obyektlar va ular egallagan yer uchastkalari bo‘yicha — yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lashdan 2027-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ozod etiladi.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 16-maydagi O‘RQ-1063-sonli Qonuniga asosan oltmish to‘qqizinchi — yetmish ikkinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.05.2025-y., 03/25/1063/0445-son)

> **Izoh.** 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Jizzax viloyatining Sharof Rashidov va Toshkent viloyatining Ohangaron tumanlarida tashkil etilgan charm-poyabzal sanoat zonalarini boshqarish direksiyalari hamda ushbu sanoat zonalarida tashkil etilgan korxonalar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lashdan 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran 2026-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ozod etiladi.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-iyundagi O‘RQ-1071-sonli Qonuniga asosan yetmish uchinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.06.2025-y., 03/25/1071/0545-son)

> **Izoh.** 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda tikuv-trikotaj, poyabzal va charm-attorlik sanoati yo‘nalishlarida ishlab chiqarish faoliyatini yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari foyda solig‘ini 2 foiz va ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdordagi soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi.

> **Izoh.** 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Ushbu moddaning yetmish to‘rtinchi qismida belgilangan soliq imtiyozlari quyidagi barcha shartlarga bir vaqtning o‘zida javob beradigan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tatbiq etiladi:

har oyda xodimlarga o‘rtacha ish haqi miqdori mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining ikki baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda hisoblanganda;

hisobot davrida to‘quv (trikotaj mato, ip-gazlama va paypoq mahsulotlari), tikuv-trikotaj, poyabzal yoki charm-attorlik mahsulotlarini realizatsiya qilishdan tushgan hamda shartnomaga muvofiq qayta ishlash sharti bilan berilgan xom ashyoni qayta ishlash yuzasidan ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha olingan daromadning umumiy tushumi jami tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadning kamida 70 foizini tashkil etganda.

Ushbu moddaning yetmish beshinchi qismida nazarda tutilgan shartlar tegishli chorakning har bir oyida bajarilgan taqdirda, soliq imtiyozlari ushbu chorak uchun qo‘llaniladi.

Ushbu moddaning yetmish beshinchi qismida nazarda tutilgan barcha shartlarga bir vaqtning o‘zida javob beradigan tadbirkorlik subyektlari soliq organlari tomonidan inson omilisiz avtomatik tarzda hisobot choragi yakunlari bo‘yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar aniqlanadi.

Ushbu moddaning yetmish to‘rtinchi qismida belgilangan soliq imtiyozlaridan tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanilganidan keyin soliq hisobotlarini qayta taqdim etish orqali belgilangan shartlarga rioya etmaganlik holati aniqlanganda soliq imtiyozi bekor qilinib, soliqlar penya hisoblangan holda hisoblab chiqariladi va budjetga undiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha tashabbuskorlar yangi bog‘larni barpo etishda xorijiy davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) payvandtagli mevali ko‘chatlarni va payvandtaglarni, payvandustlarini, onalik materiallarini va texnika vositalarini olib kirishda qo‘shilgan qiymat solig‘idan 2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ozod etiladi.

> **Izoh.** 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Ushbu Kodeks 289³-moddasi birinchi qismining 2-bandida belgilangan polietilen granulalarni farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar tomonidan o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish 2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar aksiz solig‘idan ozod qilinadi.

> **Izoh.** 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslarning ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari hamda ular qoshidagi maxsus vakolatli tashkilotlar tomonidan emissiya qilingan obligatsiyalar bo‘yicha daromadlari 2030-yil 1-yanvarga qadar foyda solig‘idan ozod qilinadi.

Ushbu moddaning sakson birinchi qismida nazarda tutilgan imtiyoz mazkur obligatsiyalar muomalada bo‘lgan davrda hisoblangan foizlar tarzidagi daromadlarga nisbatan tatbiq etiladi.

2025-yil 1-maydan boshlab “Yangi O‘zbekiston” massivlarini barpo etish doirasida auksion savdolarida yer uchastkasini ko‘p kvartirali uy-joy qurish uchun ijaraga olgan yuridik shaxslar yer uchastkasi ijaraga olingan paytdan e’tiboran ushbu yer uchastkasi bo‘yicha yer solig‘ini to‘lashdan 12 oy davomida ozod qilinadi. Bunda, agar ko‘p kvartirali uy-joy belgilangan muddatda qurilib, foydalanishga topshirilmasa, imtiyozdan foydalanilgan davr uchun yer solig‘i 2 baravar miqdorda undiriladi.

> **Izoh.** 2025-yil 1-maydan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Yangi tashkil etiladigan qishloq xo‘jaligi va dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash kooperativlari uchun ijtimoiy soliq hamda ularga ishga qabul qilingan xodimlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 2025-yil 1-apreldan 2028-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘lanadi.

> **Izoh.** 2025-yil 1-apreldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Kreativ industriya parkining rezidentlari 2025-yil 1-maydan 2031-yil 1-yanvarga qadar:

(483-modda sakson beshinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 7-iyuldagi O‘RQ-1157-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.07.2026-y., 03/26/1157/0703-son)

> **Izoh.** 2025-yil 1-maydan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

xodimlarining mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlari bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hamda ijtimoiy soliqni belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 50 foiz kamaytirilgan soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi;

> **Izoh.** 2025-yil 1-maydan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi miqdoridan qat’i nazar, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar hisoblanadi.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1104-sonli Qonuniga asosan yetmish to‘rtinchi — sakson beshinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1104/1213-son)

> **Izoh.** 2025-yil 1-maydan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Meva-sabzavot mahsulotlarini zamonaviy qadoqlarda realizatsiya qiluvchi quyidagi barcha shartlarga bir vaqtning o‘zida javob beradigan tadbirkorlik subyektlari 2025-yil 1-maydan 2028-yil 1-yanvarga qadar foyda solig‘ini va ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdordagi soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi:

> **Izoh.** 2025-yil 1-maydan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

har oyda har bir xodimga ish haqi miqdori mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining ikki baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda hisoblanganda;

> **Izoh.** 2025-yil 1-maydan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadining umumiy hajmida zamonaviy qadoqlangan meva-sabzavot mahsulotlarini realizatsiya qilishdan olingan daromad ulushi 50 foizdan kam bo‘lmagan soliq to‘lovchilarga. Bunda mazkur daromadlar ulushi tegishli vakolatli davlat organining fitosanitariya sertifikati va bojxona yuk deklaratsiyasi asosida aniqlanadi.

> **Izoh.** 2025-yil 1-maydan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

2025-yil 1-iyuldan 2030-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda:

> **Izoh.** 2025-yil 1-iyuldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

bolalar uchun mo‘ljallangan kontentlar yaratishdan olgan daromadi jami yillik daromadining kamida 80 foizini tashkil etgan yuridik shaxslar, shuningdek Bolalar kontentini rivojlantirish markazi shunday kontentlarni realizatsiya qilishdan olgan daromadlari bo‘yicha foyda solig‘ini to‘lashdan ozod qilinadi va ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi;

> **Izoh.** 2025-yil 1-iyuldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

yuridik shaxslarga bolalar uchun mo‘ljallangan kontentlar yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarini foyda solig‘ini hisoblashda chegirib tashlash huquqi beriladi.

> **Izoh.** 2025-yil 1-iyuldan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari 2025-yil 1-sentabrdan 2028-yil 1-sentabrga qadar bo‘lgan davrda ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi.

> **Izoh.** 2025-yil 1-sentabrdan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Ushbu Kodeks 289^{3}-modda birinchi qismining 2-bandida nazarda tutilgan polietilen granulalari O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan va belgilangan tartibda aniq texnik parametrlar asosida shakllantiriladigan ro‘yxat bo‘yicha olib kirilganda, 2025-yil 1-sentabrdan 2028-yil 1-yanvarga qadar aksiz solig‘idan ozod qilinadi.

> **Izoh.** 2025-yil 1-sentabrdan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Ilk marta aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashdan qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tgan tadbirkorlik subyektlariga budjetga to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i yoki mol-mulk solig‘i summasini 2026-yil 1-

yanvardan 2030-yil 1-yanvarga qadar olti oy davomida buxgalteriya hisobini yuritish bilan bog‘liq xarajatlar summasiga, biroq har oyda mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 3,5 baravaridan oshmagan miqdorda kamaytirish huquqi beriladi.

Ushbu moddaning to‘qsoninchi qismida belgilangan tartib tadbirkorlik subyekti buxgalteriyani tashkil etish uchun buxgalter bilan tuzilgan mehnat shartnomasi yoki buxgalteriya xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha autsorsing shartnomasi asosida qo‘llaniladi, bundan tadbirkorlik subyektining rahbari buxgalteriya hisobini yuritish vazifasini o‘z zimmasiga olgan hollar mustasno.

Zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilar 2028-yil 1-yanvarga qadar qo‘shilgan qiymat solig‘i bazasini zargarlik buyumlarini va yarim tayyor mahsulotlarni realizatsiya qilish narxi hamda ularning tarkibidagi qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar narxi o‘rtasidagi ijobiy farqdan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Ushbu Kodeks 246-moddasining 6-bandiga muvofiq olib kirilgan, mebel sanoatida foydalaniladigan texnologik asbob-uskunalar distribyutorlar tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilarga realizatsiya qilingan taqdirda, 2030-yil 1-yanvarga qadar qo‘shilgan qiymat solig‘i bazasi mazkur asbob-uskunalarni sotib olish narxi va realizatsiya qilish narxi o‘rtasidagi ijobiy farqdan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

2028-yil 1-yanvargacha bo‘lgan davrda:

avtotransport vositalarini elektr energiyasi bilan quvvatlantirish stansiyalari, shuningdek bunday obyektlar bilan band bo‘lgan yer uchastkalari uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i ushbu soliqlardan hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida to‘lanadi;

soliq to‘lovchilar avtotransport vositalarini elektr energiyasi bilan quvvatlantirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdan olgan daromadlar hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadning kamida 50 foizini tashkil etgan taqdirda, ular shunday xizmatlar ko‘rsatishdan olingan daromad bo‘yicha foyda solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi;

avtotransport vositalarini elektr energiyasi bilan quvvatlantirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdan olingan daromad aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha soliq bazasidan chegirib tashlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg‘armasining dividendlar tarzidagi daromadlari 2030-yil 1-yanvarga qadar foyda solig‘idan ozod qilinadi.

Milliy film va seriallar ishlab chiqarib, ularni realizatsiya qilishdan olingan daromadi jami yillik daromadining kamida 80 foizini tashkil etgan yuridik shaxslar shunday milliy film va seriallarni realizatsiya qilishdan olgan daromadlari bo‘yicha 2026-yil 1-yanvardan 2030-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda foyda solig‘ini to‘lashdan ozod qilinadi va ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi.

O‘z ehtiyoji uchun gips xomashyosini qazib chiqaruvchi va undan tayyor qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarga nisbatan gips xomashyosini qazib olganlik uchun belgilangan yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 2026-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar 50 foiz miqdorda qo‘llaniladi.

Issiqxona faoliyatidan olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadining kamida 60 foizini tashkil etgan issiqxona xo‘jaliklari ijtimoiy soliqni 2026-yil 1-yanvardan 2029-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi.

Ishchilarining o‘rtacha ish haqi miqdori har oyda mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining ikki baravaridan kam bo‘lmagan mahalliy sanoat korxonalarining ishchilarni tashish va ovqatlantirish bilan bog‘liq xarajatlaridan har bir xodim uchun bir oyda bir bazaviy hisoblash miqdorigacha bo‘lgan qismi 2026-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar ijtimoiy soliq bazasidan kamaytiriladi.

Ushbu moddaning to‘qson to‘qqizinchi qismida belgilangan soliq imtiyozi quyidagilarga nisbatan tatbiq etiladi:

ipakchilik, oziq-ovqat, qurilish materiallari, elektrotexnika, farmatsevtika, mebelchilik, kimyo, parfyumeriya, kosmetika, avtomobil, metallurgiya sanoati korxonalariga;

o‘zi ishlab chiqargan mahsulotini realizatsiya qilishdan olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha olgan jami daromadining 60 foizidan ko‘p bo‘lgan soliq to‘lovchilarga.

2028-yil 1-yanvarga qadar:

issiqxona xo‘jaliklari tomonidan kredit majburiyatlari bajarilmaganligi sababli tijorat banklari balansiga o‘tgan issiqxonalar va ular bilan bog‘liq garov ta’minotida bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlarini tijorat banklari tomonidan realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmalar qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashdan;

tijorat banklari issiqxona xo‘jaliklarining kredit majburiyatlari bajarilmaganligi sababli o‘z balansiga qabul qilgan issiqxonalar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan garov ta’minotidagi ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha yer solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi.

2026-yil 1-yanvardan 2031-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda o‘rta va past orbitali yo‘ldosh aloqa tarmoqlarini O‘zbekiston hududida markaziy yer stansiyasi orqali tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan loyihalar doirasida:

qurilmalarni, dasturiy mahsulotlarni, ehtiyot qismlarini va butlovchi qismlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish qo‘shilgan qiymat solig‘idan;

yo‘ldosh aloqa tizimi orqali ko‘rsatilgan yo‘ldosh aloqa tarmoqlari operatorlarining xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha aylanmasi qo‘shilgan qiymat solig‘idan;

markaziy yer stansiyalari, terminallar va yo‘ldosh aloqa infratuzilmasining boshqa aktiv qurilmalari joylashtirilgan telekommunikatsiya inshootlari va ularning yer maydonlari yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘idan;

yo‘ldosh aloqa tarmoqlari operatorlarining yaratilgan yo‘ldosh aloqa tizimi orqali xizmatlar ko‘rsatishdan olingan foydasi foyda solig‘idan ozod etiladi.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonuniga asosan sakson oltinchi — bir yuz ikkinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son. Kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar)

Ushbu Kodeks 437-moddasining o‘ninchi qismida nazarda tutilgan qoidalar 2020-yil 1-yanvardan 2024-yil 1-iyunga qadar bo‘lgan davrda jismoniy shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 15-iyundagi O‘RQ-1153-sonli Qonuniga asosan bir yuz uchinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.06.2026-y., 03/26/1153/0603-son. Ushbu qismning qoidalari 2020-yil 1-yanvardan 2024-yil 1-iyunga qadar yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi)

2026-yil 1-yanvardan 2030-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi hamda Kreativ industriya parki rezidentlari tomonidan amalga oshiriladigan loyihalarga jalb qilingan chet el kontragentlari qo‘shilgan qiymat solig‘ini, to‘lov manbaida foyda solig‘ini va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lashdan ozod qilinadi. Bunda ushbu imtiyoz chet el kontragentlari kreativ industriya sohasiga bevosita bog‘liq bo‘lgan ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish uchun jalb etilganda qo‘llaniladi.

(483-modda O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 7-iyuldagi O‘RQ-1157-sonli Qonuniga asosan bir yuz to‘rtinchi qism qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.07.2026-y., 03/26/1157/0703-son. 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

(XXI bo‘limning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-714-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.09.2021-y., 03/21/714/0874-son — 2021-yil 1-martdan e’tiboran yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi)

(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019-y., 02/19/SK/4256-son; 11.03.2020-y., 03/20/607/0279-son, 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son; 09.11.2020-y., 03/20/646/1488-son; 02.12.2020-y., 03/20/652/1581-son; 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son; 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 29.04.2021-y., 03/21/689/0395-son; 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son; 15.09.2021-y., 03/21/714/0874-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 15.10.2021-y., 03/21/722/0960-son, 26.10.2021-y., 03/21/725/0995-son, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son; 10.02.2022-y., 03/22/752/0113-son; 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son; 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son, 06.05.2022-y., 03/22/767/0386-son, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son, 01.06.2022-y., 03/22/773/0461-son, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son, 13.07.2022-y., 03/22/783/0620-son; 27.07.2022-y., 03/22/785/0679-son; 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son; 13.06.2023-y., 03/23/845/0360-son, 17.06.2023-y., 03/23/847/0384-son; 19.07.2023-y., 03/23/857/0492-son; 29.12.2023-y., 03/23/891/0989; 08.02.2024-y., 03/24/906/0108-son; 21.02.2024-y., 03/24/910/0140-son; 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son; 03.04.2024-y., 03/24/923/0264-son, 14.05.2024-y., 03/24/926/0344-son; 30.05.2024-y., 03/24/927/0379-son; 14.08.2024-y., 03/24/942/0612-son; 30.08.2024-y., 03/24/951/0673-son; 09.09.2024-y., 03/24/957/0689-son; 19.10.2024-y., 03/24/977/0831-son; 06.11.2024-y., 03/24/992/0895-son; 16.11.2024-y., 03/24/1000/0928-son; 16.11.2024-y., 03/24/1001/0929-son; 26.12.2024-y., 03/24/1013/1066-son; 26.12.2024-y., 03/24/1014/1067-son; 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son; 19.02.2025-y., 03/25/1031/0160-son; 17.04.2025-y., 03/25/1057/0351-son; 18.04.2025-y., 03/25/1058/0355-son; 18.04.2025-y., 03/25/1059/0357-son; 22.04.2025-y., 03/25/1060/0373-son; 05.05.2025-y., 03/25/1062/0410-son; 17.05.2025-y., 03/25/1063/0445-son; 17.06.2025-y., 03/25/1069/0510-son; 26.06.2025-y., 03/25/1071/0545-son; 22.08.2025-y., 03/25/1083/0769-son; 20.10.2025-y., 03/25/1089/0953-son; 17.12.2025-y., 03/25/1102/1173-son; 25.12.2025-y., 03/25/1104/1213-son; 25.12.2025-y., 03/25/1108/1217-son; 30.12.2025-y., 03/25/1109/1241-son; 07.02.2026-y., 03/26/1117/0116-son; 17.03.2026-y., 03/26/1122/0250-son; 28.03.2026-y., 03/26/1126/0279-son;

13.04.2026-y., 03/26/1128/0349-son; 17.04.2026-y., 03/26/1129/0375-son; 18.04.2026-y., 03/26/1131/0377-son; 11.06.2026-y., 03/26/1149/0581-son; 15.06.2026-y., 03/26/1153/0603-son; 08.07.2026-y., 03/26/1157/0703-son; 14.07.2026-y., 03/26/1158/0727-son; 27.07.2026-y., 03/26/1160/0786-son; 06.08.2026-y., 03/26/1162/0821-son; 11.09.2026-y., 03/26/1173/0918-son; 21.10.2026-y., 03/26/1183/1051-son)